

<http://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)
ISSN 2181-1717 (E)

ТАЪЛИМ ВА
ИННОВАЦИОН
ТАДҚИҚОТЛАР

ОБРАЗОВАНИЕ И
ИННОВАЦИОННЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ

EDUCATION AND
INNOVATIVE
RESEARCH



2021
Махсус сон

Халқаро илмий-методик
журнал

Международный научно-методический
журнал

International scientific and methodical
Journal

ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИОН ТАДҚИҚОТЛАР
ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



2021
Махсус сон

Муассис: Бухоро давлат университети Фан ва таълим МЧЖ	Abrayev B. X., Saatmuratov Sh. Z. Bir noma'lumli tenglamalarni butun sonlardagi yechimlari haqidagi masalalarda analogiya metodining qo'llanilishi	7
Бош муҳаррир: Маъмуров Баходир Бахшуллаевич	Авазов Ж. Д. Муҳандислик ва компьютер графикаси фанини ўқитиш орқали бўлажак муҳандисларнинг касбий қизиқишларини шакллантириш	10
Жамоатчилик кенгаши раиси: Хамидов Обиджон Хафизович, Бухоро давлат университети ректори.	Alimova S. Z. O'zbek xalq cholg'ulari orkestrining o'ziga xos xususiyatlari	15
Тахририят кенгаши раиси: Махмудов Мэлс Ҳасанович	Allakov I., Muzropova N. To'plamlar nazariyasi va matematik mantiq elementlarini o'qitishga doir	18
Масъул котиб: Акрамова Гулбахор Ренатовна	Аскарлов А. Д. Технология машғулотларида ахборот технологияларини қўллашнинг киёсий таҳлили	24
Тахририят манзили: Бухоро шаҳар, Қ.Муртазоев кўчаси, 16-уй	Аскарлов А. Д. Умумтаълим мактаблари ўқувчиларида халқ хунармандчилигига бўлган психологик-педагогик имкониятлар	28
Телефон: +998(90)744-00-22	Ахмедов Б. Т. Соғлом турмуш тарзи оила фаровонлигининг муҳим омили сифатида	32
E-mail: eirjurnal2020@gmail.com	Abdusalomov O. A., Pedagogik dasturiy vositalaridan texnologiya fani mashg'ulotlarida foydalanishning ahamiyati	39
Журналнинг электрон сайти: www.interscience.uz	Бердиев У. Б., Ҳасанова Д. Ў. Физикадан инновацион тажрибалар	42
Журнал ОАК Раёсатининг 2021 йил 30 сентябрдаги 306/6-сон Қарори билан ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ, ФИЛОЛОГИЯ, ТАРИХ ФАНЛАРИ бўйича фалсафа доктори (PhD) ва фан доктори (DSc) илмий даражасига талабгорларнинг диссертация ишлари юзасидан асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган	Berdieva H. M., Amonov B. B. Texnologiya ta'limi darslarini tashkil etishni takomillashtirish metodikasi	46
Босишга рухсат этилди: 07.10.2021 й. Қоғоз бичими 60x84 1/8. б/т.12,5. Буюртма рақами 12	Бердиев У. Б., Ҳасанова Д. Ў., Қурбонмуродов У. Ж., Чоршанбиева Н. А. Табиатшунослик фанлари ва оламнинг илмий манзараси	51
«Бухоро вилоят босмахонаси» МЧЖда чоп этилди. Бухоро шаҳар	Боймўминов Х. М. Туб ислохатлар шароитида хор санъатининг жамиятимиз маънавий яқдиллигини таъминлашда тутган ўрни	56
Журнал 28.07.2021 йилда 9305 рақами билан Ўзбекистон Оммавий ахборот воситалари давлат рўйхатидан ўтган.	Болтаева Ш. О. Педагогнинг ўқув жараёнини моҳирона фаоллаштириши	60
Журнал йилда 6 маротаба (хар 2 ойда) ўзбек, рус ва инглиз тилларида чоп этилади	Бутаяров А. Т. Сурхондарё вилоятнинг континентал табиий-хўжалик шароитлари	63
«Таълим ва инновацион тадқиқотлар» халқаро илмий-методик журналдан кўчириб босиш тахририятнинг розилиги билан амалга оширилади	Бутаяров А. Т. Тажриба даласининг ўхшашлигини асослаш	67
Мақолада келтирилган фактларнинг тўғрилиги учун муаллиф масъулдир	Bobonazarov O.A. Jadidchilarning ma'rifatparvarlik harakatlari va ularning xalq ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'рни	71
	Давлатова С.Т. Мактаб ўқувчисининг технологик хавфсизликни таъминлашда фанлар интеграцияси	76
	Джураев М. Г. Пахта хом ашёсини тозалаш техникаси ва технологиясининг замонавий ҳолати таҳлили	82
	Ўлдашов К. К. Kulolchilik hunarmandchiligi tarixini organish –milliy qadriyatlarimizni e'zozlash mezonini sifati	87
	Ўлдашов К.К. Maktab o'quvchilariga temirchilik, misgarlik va zargarlik hunarlari tarixini o'rgatish - milliy tarbiyaning omili	92

Йулдашов К. К. Maktab texnologiya fani darslarida xalq hunarmandchiligi ishlarini o'rganish (5-sinfda yog'och o'ymakorligi ishlarini o'rganish misolida)	97
Йулдашов К. К. Texnologiya fani darslarida to'qimachilik hunarmandchiligi tarixiga oid materiallardan foydalanish	103
Choriyev B.B. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarining mazmuni hamda kompetentlik darajasi	108
Naydarov R.M. Texnologiya ta'limi o'qituvchisining texnologik madaniyati	112
Kucharov S. A. Axborot-ta'lim muhitida kasbiy o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash	116
Кучаров С. А., Шағдаров Н. Техналогия фанини ўқитишда ахборот ва педагогик технологиялардан фойдаланиш	119
Қодиров Б. Э. Рақамли технологиялар асосида ўқувчиларнинг хунармандчилик компетенцияларини ривожлантириш дидактик имкониятлари	123
Қодиров Б. Э. Ўқувчиларнинг хунармандчиликка оид таянч компетенцияларини электрон ахборот таълим муҳитида ривожлантиришнинг дидактик модели	128
Қурбонова З. М. Ўқитувчи касбида мулоқот ва муомала одобининг ўрни	133
Кулмунинов О.Х. Пахтанимайда ифлосликлардан тозаловчи тозалагичнинг конструкциясидаги технологиялар таҳлили	137
Muhamadiyeva N. Q. Milliy hunarmandchilikni rivojlantirishda ranglarning tutgan o'rni.	141
Махмудов Y. G. Texnologiya ta'limida rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	144
Муқумова Ф. Х. Основные критерии подготовки учителя к учебному процессу	150
Муқумова Ф. Х. Миллий хунармандчилик тарихини ўрганишда ўқувчиларни ижодкорликка кизиштиришнинг дидактик имкониятлари	154
Нарбаев А. Б. Медиатаълим асосида ишлаб чиқилган “Атом физикаси” электрон ўқув қўлланмасининг тузилиши ва дидактик имкониятлари	160
Норбошева М. А. Оилавий муносабатларнинг таълим-тарбия самарадорлигига таъсири	165
Mamatqulov I. Ch., Omonova R. R. Chizmachilik darslarida rezbalarni chizmada tasvirlash va belgilashga oid metodik tavsiyalar	170
Nazarov A. A., Majidova D. B. Bo'lajak muhandis o'qituvchilarini tayyorlashda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi	177
Nazarov A. A. Bo'lajak o'qituvchilarni ta'limiy qadriyatlar asosida tayyorlash	180
Nazarov X. A. O'rta Osiyo hududida cholg'u asoblarining vujudga kelish tarixi	185
Nurmamatov Z. Sh. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasi	189
Nurmamatov Z. Sh., Qodirova M. A. Ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalar va ularning imkoniyatlari	192
Пахратдинова Р. О. Мактаб ўқувчиларнинг ижодий иш бажариш қобилиятларини шакллантириш технологияси	196
Пахратдинова Р. О. Ижодий масалаларни ечишда морфологик жадвалдан фойдаланиш	204
Пахратдинова Р. О. Мактаб технология таълимида ўқувчиларнинг ижодкорлик фаолиятини такомиллаштириш	210
Пахратдинова Р. О. Мактаб ўқувчиларнинг инновацион ижодкорлик фаолияти	216
Raxmonova D. N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqiy savodxonlikni interaktiv dasturiy vositalar asosida shakllantirish metodikasini takomillashtirish yo'llari	222
Рахимов А. Х. Пневмотранспорт воситаларини пахтанинг табиий хусусиятларига таъсири ҳамда сепараторларнинг ишлаш жараёнини таҳлили	228
Саттаров Ш. Ю. Алгебраик сиртларни текислик билан кесишишининг махсус ҳолларига оид баъзи методик кўрсатмалар	234
Таджиев М., Таджиев К. М., Турсунов Ш. Ч. Кузги буғдойдан кейин экилган мойли экинларнинг ингичка толали ғўза тола сифатига таъсири	238

Таджиев М., Таджиев К. М., Турсунов Ш.Чғ. Кузги буғдойдан кейин экилган оралиқ ва сидерат экинларнинг ўрта толали ғўза тола сифатига таъсири	241
Тошбеков О. А. Махаллий жун толасини оқартириш-рангсизлантириш жараёнлари	244
Тураев Х. А. Бўлажак чизмачилик фани ўқитувчиларининг лойиҳалаш компетентлигини ривожлантиришнинг дидактик имкониятлари	249
Shomirzaev M. X. Texnologiya ta'limida ta'limning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyasi	255
Shomirzaev M. X. Texnologiya ta'limida tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish	263
Xakimov O. B. Surxondaryo viloyatida o'tkazilgan folklor ekspeditsiyalari xususida	269
Хайдаров Р. М. Технология таълими ўқитувчисининг касбий компетентлигини такомиллаштириш технологияси	273
Turakulov A. E.Methods of drawing up a modern plan "Bandihon city « in the conditions of new Uzbekistan	278
Turakulov A. E.Practical recommendations for the construction of a modern building of a «business center» in Termez	284
Turayev X. A. "Inversiya" metodi vositasida bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarining loyihalash kompetentligini rivojlantirish metodikasi	289
Урозов М.К., Рахимова К.Ф. Инновацион технологиялар асосида корхоналарни ривожлантиришнинг хориж тажрибасини ўрганиш	294
Xamidov Shirmamat O'roqovich Musiqa madaniyati va uning hayotdagi o'rni	299
Xayitov J.X. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida kreativlikni rivojlantirishning ba'zi jihatlari	304
Xayitov J. X., Ergasheva S. B. Mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kreativligini shakllantirish	308
Шомирзаев М. Х. Технология фанини ўқитишда инновацион педагогик технологияларидан фойдаланиш методикаси	312
Шомирзаев М. Х. Технология фанидан амалий дарсларни ташкил этиш ва ўтказиш методикаси	321
Шомирзаев М. Х. Хайруллаев И. Н. Мактаб ўқувчиларини халқ хунармандчилигига ўргатишда инновацион таълим методларидан фойдаланиш	331
Шомирзаев М. Х. Мактаб технология таълимида ўқувчиларни миллий хунармандчиликнинг спектрал-вариатив компонентлари билан фанлараро таништиришда тарихийлик принципи	342
Шомирзаев М. Х., Муҳаммадиева Н. Қ. Миллий тарбияда каштачиликнинг ўрни	346
Шомирзаев М. Х. Технология таълимда ўқувчиларни халқ хунармандчилиги касбларига йўналтириш	353
Шомирзаев М. Х. Технология таълимида ўқитиш шакллари ва методлари	359
Шомирзаев М. Х. Технология фани дарсларини ташкил этишни такомиллаштириш	367
Эшқувватов У. А. Талабаларда креатив қобилиятларни ривожлантиришнинг аҳамияти	372
Эшмуратов О. Э. Оилавий муносабатларда шахс мослашувчанлиги хусусиятининг оила мустаҳкамлигига таъсири	377
Sheraliyeva M. A. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida kattalar va ota-onalarning munosabatlar madaniyati	381
Бабаклдиева А. А. Ижодий ўйинлар ёрдамида мактабгача ёшдаги болаларда креатив қобилиятларни шакллантириш	385
Абраев Б. Х., Имомов О. Ш. Алгебраик масалани ечишни геометрик чизмалардан фойдаланиб ечиш ҳақида	389
Nishonov S. N., Seytov Sh. Ikki o'lchovli diskret dinamik sistemalarni o'qitishda grafik talqin	392
Umarova A. A. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari	396
Эшқувватов У. А. Талабаларнинг муҳандислик касбига оид ижодий қобилиятларини ривожлантиришнинг дидактик талаблари ва шартлари	399

ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИОН ТАДҚИҚОТЛАР**ЖАМОАТЧИЛИК КЕНГАШИ АЪЗОЛАРИ**

Джурев Рисбой Хайдарович, педагогика фанлари доктори, Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси академиги

Шамсутдинов Рустамбек Темирович, Андижон давлат университети профессори, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими, тарих фанлари доктори

Мажидов Ином Урушев, техника фанлари доктори, профессор. Ўзбекистон миллий университети.

Олимов Кахрамон Танзилович, педагогика фанлари доктори, профессор. А.И.Герцен номидаги Россия давлат педагогика университети Тошкент филиали

Таджиходжаев Зокирхўжа Абдусатторович, техника фанлари доктори, профессор

Мусурмонова Ойнисо, педагогика фанлари доктори, профессор

Сафарова Роҳат Гайбуллоевна, педагогика фанлари доктори, профессор, Т.Н.Кори-Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий тадқиқот институти.

Ибрагимов Холбой Ибрагимович, педагогика фанлари доктори, профессор. Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАХРИРИЯТ КЕНГАШИ АЪЗОЛАРИ

Артамонова Екатерина Иосифовна, педагогика фанлари доктори, профессор, Москва давлат педагогика университети, Халқаро педагогика фанлари академиясининг президенти

Емельянова Ирина Ивановна, педагогика фанлари доктори, доцент. М.В.Ломоносов номидаги Москва давлат университети. Россия

Кузьменко Галина Анатольевна, педагогика фанлари доктори, профессор. Москва давлат педагогика университети, Жисмоний тарбия, спорт ва саломатлик институти

Олимов Ширинбой Шарофович, педагогика фанлари доктори, профессор. Бухоро давлат университети

Сафаралиев Бозор Сафаралиевич, педагогика фанлари доктори, профессор. Челябинск давлат академияси

Жураев Хусниддин Олтинбоевич, педагогика фанлари доктори, доцент. Бухоро давлат университети

Кулишов Владимир Васильевич, педагогика фанлари доктори, профессор. Давлат иқтисодиёт ва технология университети проректори, Кривой Рог, Украина

Лазаренко Ирина Рудольфовна, педагогика фанлари доктори, профессор. Алтай давлат педагогика университети ректори, Россия

Филиппова Оксана Геннадьевна, педагогика фанлари доктори, профессор. М.В.Ломоносов номидаги Москва давлат университети. Россия

Христо Кючук, педагогика фанлари доктори. Умумий тилишунослик Психолнгвистика профессори. Берлин Эркин университети, Туркология институти. Халқаро психолнгвистика ва социолнгвистика журнали асосчиси ва муҳаррири, Германия

Кумсков Михаил Иванович, физика-математика фанлари доктори, профессор. М.В. Ломоносов номидаги Москва давлат университети

Тилавова Матлаб Мухаммадовна, педагогика фанлари номзоди, доцент. Бухоро давлат университети

Дилова Наргиза Гайбуллаевна, педагогика фанлари бўйича PhD, доцент. Бухоро давлат университети

Максименко Сергей Дмитриевич, академик, психология фанлари доктори, профессор. Украина Миллий педагогика фанлари академиясининг академиги

Умаров Бахриддин Мингбаевич, психология фанлари доктори, профессор. Тошкент давлат педагогика университети

Баротов Шариф Рамазонович, психология фанлари доктори, профессор. Бухоро давлат университети

Козлов Владимир Васильевич, психология фанлари доктори, профессор. Халқаро психология фанлари академияси президенти, П.Г.Демидова номидаги Ярославль давлат университети. Россия

Жибборов Азим Мейликулович, психология фанлари доктори, профессор. Қариши давлат университети

Бафав Мухиддин Мухаммадович, Психология фанлари бўйича фалсафа доктори PhD. Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети

Хусайн Байомир, филология фанлари доктори, профессор. Туркия Отатурк университети

Катермина Вероника Викторовна, филология фанлари доктори, профессор. Куба давлат университети, Россия

Ражабов Дилшод Зарипович, филология фанлари доктори, профессор. Бухоро давлат университети

Жамилова Башиораҗ Сатторовна, филология фанлари номзоди, доцент. Бухоро давлат университети

Юсупова Ҳилола Уктамовна, филология фанлари номзоди, доцент. Бухоро муҳандислик-технология институти

Рўзиева Моҳичехра Ёқубовна, филология фанлари бўйича PhD, доцент. Бухоро давлат университети

Иноятов Сулаймон Иноятович, тарих фанлари доктори, профессор. Бухоро давлат университети

Ражабов Кахрамон Кенжаевич, тарих фанлари доктори, профессор. Ўзбекистон Фанлар академияси Тарих институти етакчи илмий ходими

Ҳазретали Турсун, тарих фанлари доктори, профессор, Хожя Аҳмад Яссавий номидаги халқаро қозоқ-турк университети профессори

Мамедова Ирада, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент, Озарбайжон Миллий академияси Тарих институти бўлим бошлиғи

Тимур Хўжаёғли, тилишунос ва адабиётшунос олим. Миңцган университети профессори (АҚШ)

Nurettin Hatunoğlu Doç. Dr., Zonguldak Bülent Ecevit Üniversitesi Fen-Edebiyat Fakültesi Tarih Bölümü (Туркия)

Ҳайитов Шодмон Ахмадович, тарих фанлари доктори, профессор. Бухоро давлат университети

Муллоджанов Сайфулло Кучакович, тарих фанлари доктори, профессор. Тожикистон миллий университети.

Долгов Вадим Викторович, тарих фанлари доктори, профессор. Удмурт давлат университети. Россия

Артикова Ҳафиза Тўймуродовна, биология фанлари доктори, доцент. Бухоро давлат университети

Наврозова Шакар Истамовна, тиббиёт фанлари доктори, профессор, Бухоро давлат тиббиёт институти

Гушко Сергей Владимирович, иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Давлат иқтисодиёт ва технология университети проректори, Кривой Рог, Украина

Куролов Кобулжон Кулманович, иқтисодиёт фанлари доктори, профессор. Ислом Каримов номидаги Тошкент давлат техника университети хузуридаги педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази директори

Маманзаров Абдухаким Бозорович, иқтисодиёт фани бўйича фан номзоди, доцент. Ломоносов номидаги Москва давлат университети Тошкент филиали

Шомирзаев Махматмурод Хурамович, педагогика фанлари доктори (DSc), Термиз давлат университети технологик таълим кафедраси доценти



ЧЛЕНЫ ОБЩЕСТВЕННОГО СОВЕТА

Джурраев Рисбой Хайдарович, доктор педагогических наук, академик АНРУз
Шамсутдинов Рустамбек Темирович, профессор Андijanского государственного университета, заслуженный работник культуры Узбекистана, доктор исторических наук
Мажидов Ином Урушев, доктор технических наук, профессор, Национальный университет Узбекистана им. Мирзо Улугбека
Олимов Кахрамон Танзилович, доктор педагогических наук, профессор. Ташкентский филиал Российского государственного педагогического университета имени А.И. Герцена
Таджиходжаев Зокирхужа Абдусатторович, доктор технических наук, профессор
Мусурмонова Ойинсо, доктор педагогических наук, профессор
Сафарова Рохат Гайбуллоевна, доктор педагогических наук, профессор, Узбекский научно-исследовательский институт педагогических наук имени Т. Н. Кори-Ниязи
Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор, Узбекский государственный университет мировых языков

РЕДАКЦИОННО-ИЗДАТЕЛЬСКИЙ СОВЕТ

Артамонова Екатерина Иосифовна, доктор педагогических наук, профессор, Московского государственного педагогического университета. Президент Международной академии педагогических наук
Емельянова Ирина Ивановна, доктор педагогических наук, доцент. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова. Россия
Кузьменко Галина Анатольевна, доктор педагогических наук, профессор. Московский государственный педагогический университет, Институт физической культуры, спорта и здоровья
Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор. Бухарский государственный университет
Сафаралиев Бозор Сафаралиевич, доктор педагогических наук, профессор кафедры социально-культурной деятельности Челябинской государственной академии
Джурраев Хусниддин Олтинбоевич, доктор педагогических наук, доцент. Бухарский государственный университет
Кулишов Владимир Васильевич, доктор педагогических наук, профессор. Государственный университет экономики и технологий, Кривой Рог, Украина
Лазаренко Ирина Рудольфовна, доктор педагогических наук, профессор. Ректор Алтайского государственного педагогического университета, Россия
Филиппова Оксана Геннадьевна, доктор педагогических наук, профессор. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова. Россия
Христо Ключуков, доктор педагогических наук. Профессор общего языкознания и психолингвистики. Свободный университет Берлина, Институт тюркологии. Редактор Международного журнала психолингвистики и социолингвистики, Германия
Кумсков Михаил Иванович, доктор физико-математических наук, профессор Московского государственного университета им. М.В. Ломоносова
Тилавова Матлаб Мухаммадовна, кандидат педагогических наук, доцент. Бухарский государственный университет
Дилова Наргиза Гайбуллаевна, PhD по педагогическим наукам, доцент. Бухарский государственный университет
Максименко Сергей Дмитриевич, академик, доктор психологических наук, профессор. Академик Национальной академии педагогических наук Украины
Умаров Бахриддин Мингбаевич, доктор психологических наук, профессор. Ташкентский государственный педагогический университет
Баротов Шариф Рамазанович, доктор психологических наук, профессор. Бухарский государственный университет
Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор. Ярославского государственного университета им. П.Г. Демидовой. Президент Международной академии психологических наук, Россия
Жабборов Азим Мейликулович, доктор психологических наук, профессор. Каршинский государственный университет
Бабаев Мухиддин Мухаммадович, PhD по психологическим наукам. Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами
Хусайн Байдемир, доктор филологических наук, профессор. Университет Атамюрка, Турция
Катермина Вероника Викторовна, доктор филологических наук, профессор. Кубинский государственный университет, Россия
Ражабов Дилшод Зарипович, доктор филологических наук, профессор. Бухарский государственный университет
Жамилова Башират Сатторовна, кандидат филологических наук, доцент. Бухарский государственный университет
Юсупова Хилола Уктамовна, кандидат филологических наук, доцент. Бухарский инженерно-технологический институт
Рузиева Мохичехра Якубовна, PhD по филологическим наукам, доцент. Бухарский государственный университет
Иноятлов Сулаймон Иноятлович, доктор исторических наук, профессор. Бухарский государственный университет
Ражабов Кахрамон Кенжаевич, доктор исторических наук, профессор, Ведущий научный сотрудник института Истории Академии наук Узбекистана
Хазретали Турсун, доктор исторических наук, профессор Международного казахско-турецкого университета имени Ходжи Ахмада Яссави
Мамедова Ирада, PhD по историческим наукам, доцент, Заведующий Институтом Истории Национальной Академии Азербайджана
Тимур Хужаугли, лингвист и литературовед. Профессор Мичиганского университета (США)
Nurettin Natiñođli, Assoc. Доктор, Университет Зонгулдак Бюлент Эджевит, факультет искусств и наук, исторический факультет (Турция)
Хайитов Шодмон Ахмадович, доктор исторических наук, профессор. Бухарский государственный университет
Муллоджанов Сайфулло Кучакович, доктор исторических наук, профессор. Национальный университет Таджикистана
Долгов Ваим Викторович, доктор исторических наук, профессор. Удмуртский Государственный Университет. Россия
Артикова Хафиза Туймуродовна, Доктор биологических наук, доцент. Бухарский государственный университет
Наврзоева Шакар Истамовна, доктор медицинских наук, профессор, Бухарский государственный медицинский институт
Гушко Сергей Владимирович, доктор экономических наук, профессор, проректор Государственного экономико-технологического университета, Кривой Рог, Украина
Куролов Кобулжон Кулманович, доктор экономических наук, профессор. Центр переподготовки и переподготовки преподавателей при Ташкентском государственном техническом университете имени Ислама Каримова
Маманазаров Абдухаким Бозорович, Кандидат экономических наук, доцент. Ташкентский филиал МГУ им. М.В. Ломоносова
Сохибов Акрам Рустамович, кандидат педагогических наук, доцент. Каршинский государственный университет
Шамирзаев Махтатмурод Хурамович, доктор педагогических наук (DSc), доцент. Термизский государственный университет

EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

Chief editor: *Mamurov Bahodir Bakhshullaevich*, doctor of pedagogical sciences, professor. Bukhara State University
Executive Secretary: *Akramova Gulbahor Renatovna*, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State University

MEMBERS OF THE PUBLIC COUNCIL

Chairman: *Khamidov Obidjon Khafizovich*, Rector of Bukhara State University.
Djuraev Risboy Haydarovich, Doctor of Pedagogical Sciences, Academician of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Shamsutdinov Rustambek Temirovich, Professor of Andijan State University, Honored Worker of Culture of Uzbekistan, Doctor of Historical Sciences
Majidov Inom Urushevich, Doctor of Technical Sciences, Professor. National University of Uzbekistan.
Olimov Kahramon Tanzilovich, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Tashkent branch of the Russian State Pedagogical University named after AI Gertsen
Tadjikhodjaev Zokirkhoja Abdusattorovich, Doctor of Technical Sciences, Professor
Musurmonova Oyniso, doctor of pedagogical sciences, professor
Safarova Rohat Gaybulloevna, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Uzbek Scientific Research Institute of Pedagogical Sciences named after TN Qori-Niyazi.
Ibragimov Kholboy Ibragimovich, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Uzbekistan University of World Languages

MEMBERS OF EDITORIAL COUNCIL

Chairman of the Editorial Board: *Mahmudov Mels Khasanovich*, Doctor of Pedagogical Sciences.
Artamonova Ekaterina Iosifovna, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, President of the Moscow State Pedagogical University, International Academy of Pedagogical Sciences
Emelyanova Irina Ivanovna, Doctor of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Moscow State University named after MV Lomonosov, Russia
Kuzmenko Galina Anatolevna, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Moscow State Pedagogical University, Institute of Physical Culture, Sports and Health
Olimov Shirinboy Sharofovich, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Bukhara State University
Safaraliev Bozor Safaralievich, doctor of pedagogical sciences, professor. Chelyabinsk State Academy
Juraev Husniddin Oltinboevich, Doctor of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State University
Kulishov Vladimir Vasilevich, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Vice-Rector of the State University of Economics and Technology, Krivoy Rog, Ukraine
Lazarenko Irina Rudolfovna, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Rector of Altai State Pedagogical University, Russia
Filippova Oksana Gennadevna, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Moscow State University named after MV Lomonosov, Russia
Christo Kyuchukov, Doctor of Pedagogical Sciences. Professor of General Linguistics Psycholinguistics. Free University of Berlin, Institute of Turkology. Founder and editor of the International Journal of Psycholinguistics and Sociolinguistics, Germany
Kumskov Mikhail Ivanovich, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor. M.V. Lomonosov Moscow State University
Tilavova Matlab Muhammadovna, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State University
Dilova Nargiza Gaybulloevna, PhD in pedagogical sciences, associate professor. Bukhara State University
Maksimenko Sergey Dmitrievich, academician, doctor of psychological sciences, professor. Academician of the National Academy of Pedagogical Sciences of Ukraine
Umarov Bakhriddin Mingbaevich, Doctor of Psychological Sciences, Professor. Fergana State University
Barotov Sharif Ramazonovich, Doctor of Psychological Sciences, Professor. Bukhara State University
Kozlov Vladimir Vasilevi, Doctor of Psychological Sciences, Professor. President of the International Academy of Psychological Sciences, Yaroslavl State University named after PG Demidova, Russia
Jabborov Azim Meylikulovich, Doctor of Psychological Sciences, Professor. Karshi State University
Bafaev Muhiddin Muhammadovich, Doctor of Philosophy in Psychology PhD. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami
Husein Baydemir, Doctor of Philology, Professor. Ataturk University, Turkey
Katermina Veronika Viktorovna, Doctor of Philology, Professor. Cuban State University, Russia
Rajabov Dilshod Zaripovich, Doctor of Philology, Professor. Bukhara State University
Jamilova Bashorat Sattorovna, Candidate of Philological Sciences, Associate Professor. Bukhara State University
Yusupova Hilola Uktamovna, Candidate of Philological Sciences, Associate Professor. Bukhara Institute of Engineering and Technology
Ruzieva Mohichehra Yakubovna, PhD in Philology, Associate Professor. Bukhara State University
Inoyatov Sulaymon Inoyatovich, Doctor of Historical Sciences, Professor. Bukhara State University
Rajabov Qahramon Kenjaevich, Doctor of Historical Sciences, Professor, Leading Researcher at the Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Hazretili Tursun, Doctor of Historical Sciences, Professor of the International Kazakh-Turkish University named after Khoja Ahmad Yassavi
Mamedova Irada, Doctor of Philosophy PhD, ex. History, Associate Professor, Head of the Institute of History of the National Academy of Azerbaijan
Timur Khuzhaugli, linguist and literary critic. Professor at the University of Michigan (USA)
Nurettin Hatunoğlu Assoc. Dr., Zonguldak Bulent Ecevit University, Faculty of Arts and Sciences, Department of History (Turkey)
Khayitov Shodmon Akhmadovich, Doctor of Historical Sciences, Professor. Bukhara State University
Mullojanov Sayfullo Kuchakovich, Doctor of Historical Sciences, Professor. National University of Tajikistan
Dolgov Vadim Viktorovich, Doctor of Historical Sciences, Professor. Udmurt State University. Russia
Artikova Kafiza Tuymurodovna, Doctor of Biological Sciences, Associate Professor. Bukhara State University
Navruzova Shakar Istamovna, Doctor of Medical Sciences, Professor, Bukhara State Medical Institute
Gushko Sergey Vladimirovich, Doctor of Economics, Professor, Vice-Rector of the State University of Economics and Technology, Krivoy Rog, Ukraine
Kurolov Kobuljon Kulmanovich, Doctor of Economics, Professor. Director of the center for retraining and retraining of teachers at the tashkent state technical university named after Islam Karimov
Mamanazarov Abdulkhakim Bozorovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor. Tashkent branch of Lomonosov Moscow State University M.V. Lomonosov
Sohibov Akram Rustamovich, candidate of pedagogical sciences, associate professor. Karshi State University
Shomirzaev Makhmatmurod Huramovich, Doctor of Pedagogical Sciences (DSe), Associate Professor. Termiz State University

**BIR NOMA'LUMLI TENGLAMALARNI BUTUN SONLARDAGI
YECHIMLARI HAQIDAGI MASALALARDA ANALOGIYA METODINING
QO'LLANILISHI**

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.66.40.001>

Abrayev Baxrom Xolto'rayevich

Termiz davlat universiteti, Algebra va geometriya kafedrasida katta o'qituvchisi

Saatmurotov Shohrux Zafar o'g'li

Termiz davlat universiteti, Algebra va geometriya kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Talabalarga analogiya metodidan foydalanib bir noma'lumli birinchi darajali tenglamalarning butun sonlardagi yechimlarini bir noma'lumli n -darajali tenglamaning butun sonlardagi yechimlarini topishni o'rganish masalasiga keltirish metodikasi haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar. Analogiya, belgi, obekt, tasdiq, bir nomalumli tenglama, koeffitsiyent, ozod had.

**ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДА АНАЛОГИЙ В ВОПРОСАХ О РЕШЕНИЯХ
УРАВНЕНИЙ С ОДНИМ НЕИЗВЕСТНЫМ В ЦЕЛЫХ ЧИСЛАХ**

Абраев Бахром Холтураевич

Термезский государственный университет, кафедры алгебры и геометрии

Саатмуратов Шорух Зафар угли

Преподаватель Термезский государственный университет, кафедры алгебры и геометрии

Аннотация. Студенты знакомятся с методом приведения целочисленных решений неизвестных уравнений первого порядка к задаче поиска целочисленных решений неизвестного уравнения n -степени с использованием метода аналогии.

Ключевые слова: аналогия, знак, объект, подтверждение, неизвестное уравнение, коэффициент, свободный предел.

**THE APPLICATION OF THE METHOD OF ANALOGY IN MATTERS OF
SOLUTIONS OF ONE UNKNOWN EQUATION IN WHOLE NUMBERS**

Abrayev Baxrom Xolto'rayevich

Termez State University, Algebra and senior teacher of the Department of geometrics

Saatmurotov Shohrux Zafar o'g'li

Termez State University, Algebra and teacher of the Department of geometrics

Abstract. Students get acquainted with the method of reducing integer solutions of unknown first-order equations to the problem of finding integer solutions of an unknown n -degree equation using the analogy method.

Keywords: Analogy, sign, object, confirmation, unknown equation, coefficient, free limit.

Analogiya - analogdan foydalanadigan usul (ya'ni, o'rganilayotgan jarayon yoki ob'ektni etarli darajada aks ettiruvchi ideal yoki moddiy ob'ekt); ushbu usul bilan o'rganilayotgan ob'ektda biron bir belgi mavjudligi haqidagi xulosa boshqa belgilarda mavjud bo'lgan o'xshashlik asosida amalga oshiriladi.

Analogiya - bu isbotlovchi kuchga ega bo'lmagan usul. Tasdiqlash asosidagi o'xshashlik tasodifiy bo'lib chiqishi mumkin va xususiyatlarni tanlab tahlil qilishda muhim xususiyatlar ahamiyatsiz bo'lganlari bilan almashtirilishi mumkin. Shuning uchun o'xshashlikni ehtimollik usuli sifatida qarash muhimdir:

«Xulosa, o'xshashlik bo'yicha xulosalar ishonchli emas, lekin faqat ko'proq yoki kamroq ehtimollikka ega. Ular voqelikdagi hodisalar belgilari orasidagi zarur aloqa va munosabatlarga tayanadi. Bunday holda, analogiya bo'yicha xulosa chiqarish ehtimoli darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, o'xshash xususiyatlar shunchalik ko'p qamrab olinadi va taqqoslanadigan ob'ektlarda bu xususiyatlar shunchalik muhim bo'ladi. Agar taqqoslanayotgan hodisalardagi o'xshash belgilar tasodifiy bo'lsa, o'xshashlik noto'g'ri bo'lib chiqishi mumkin. O'zlarining ehtimollik xususiyatiga ko'ra, analogiya bo'yicha xulosalar boshqa usullar yordamida olingan natijalar bilan tasdiqlanishi va amalda sinchkovlik bilan tekshirilishi kerak.

Analogiya metodi fanning rivojlanishining dastlabki davrida, turli tajriba usuli hali keng qo'llanilmagan davrlarda ham qo'llanilgan. Masalan, qadimgi yunon faylasufi Demokrit yorug'lik nurida aylanayotgan chang zarralari analogiyasidan foydalanib, eng kichik moddiy tangachalar - atomlarning mavjudligi to'g'risida xulosaga kelgan va o'sha davrning yana bir yirik mutafakkiri Platon o'zining ideal davlat modelini yaratishda Sparta va Sparta davlatining o'xshashligidan foydalangan.

Maltusiyning boylar va kambag'allar o'rtasidagi yashash uchun kurashning evolyutsion kontseptsiyasiga o'xshatib, Charlz Darvin o'zining mashhur biologik evolyutsiya nazariyasini, Karl Marks esa sinfiy kurash nazariyasini yaratgan; mexanik tebranishlarning ilgari o'rnatilgan to'lqin nazariyasiga o'xshashlik yo'li bilan X. Gyuygens va J. Maksvell elektromagnit tebranishlarning to'lqin nazariyasini ishlab chiqdilar; N. Bor quyosh sistemasidan analog sifatida foydalanib, atom yadrosi tuzilishining orbital kontseptsiyasini ishlab chiqdi.

Bu yerda qat'iy analogiya va qat'iy bo'lmagan analogiya o'rtasidagi farq juda muhimdir: birinchi holda, bitta noma'lumdan tashqari barcha belgilarning o'xshashligi asosida xulosa chiqariladi; ikkinchi variantda xulosa chiqarish ko'pchilik xususiyatlarning o'xshashligiga asoslanadi va ikki yoki undan ortiq xususiyat tadqiqotchiga noma'lum bo'lib qoladi.

Misol sifatida ushbu

$$a_1x + a_0 = 0 \quad (1) \quad \text{tenglamani}$$

qaraylik. Bu yerda a_1, a_0 koefitsientlar butun sonlar. Ma'lumki bu tenglamaning yechimi $x = a_0/a_1$, a_0 soni a_1 ga bo'linsagina butun son bo'ladi. Demak (1) tenglama hamma vaqt ham butun yechimga ega bo'lavermas ekan. Misol uchun $7x + 21 = 0$ va $5x - 27 = 0$ tenglamalardan birinchisi $x = 3$ butun yechimga ega, ikkinchisi esa butun yechimga ega emas. Bu yerda yechim ozod handing bo'luvchilari orasida ekanligiga e'tibor qaratsak. Darajalari $n > 1$ bo'lgan bir noma'lumli tenglamalar uchun ham shunday holatga duch kelamiz $x^2 + x - 2 = 0$ tenglama $x_1 = 1, x_2 = 2$ butun yechimlarga ega. $x^2 - 4x + 2 = 0$ tenglama esa butun sonlarda yechimga ega emas, chunki uning yechimi $x_{1,2} = 2 + \sqrt{2}$ irratsional sonidir.

Yuqorida ko'rib chiqilganlarga asosan n -darajali

$$a_nx^n + a_{n-1}x^{n-1} + \dots + a_1x + a_0 = 0, (n \geq 1) \quad (2)$$

tenglamaning butun sonlarda yechimga ega bo'lishlik shartini osongina hal etishimiz mumkin. Haqiqatdan ham $x = a$ berilgan (2) tenglamaning yechimi bo'lsa, u holda

$$a_n a^n + a_{n-1} a^{n-1} + \dots + a_1 a + a_0 = 0$$

yoki bundan

$$a_0 = -a(a_n a^{n-1} + a_{n-1} a^{n-2} + \dots + a_1)$$

ni hosil qilamiz. Bu oxirgi tenglikdan a_0 ning a ga bo'linishi kelib chiqadi. Shunday qilib (2) tenglamaning har bir butun ildizi uning ozod hadining bo'luvchisi bo'lar ekan.

(2)-tenglamaning butun yechimlarini topish uchun uning ozod hadi a_0 ning bo'luvchilarini tenglamaga qo'yib tekshirib ko'rish yetarli ekan.

Masalan. $x^{10} + x^7 + 2x^3 + 2 = 0$ tenglamaning ozod hadi 2 ning bo'luvchilar $\pm 1, \pm 2$ lardan iborat. Bu qiymatlarni berilgan tenglamaga qo'yib tekshirib $x = -1$ uning yechimi ekanligini aniqlaymiz.

Shunga o'xshash $x^6 - x^5 + 3x^4 + x^2 - x + 3 = 0$ tenglamaning ozod hadi 3 ning bo'luvchilari $\pm 1, \pm 3$ lardan iborat. Lekin ularning birortasi ham berilgan tenglamani qanoatlantirmaydi, ya'ni berilgan tenglama butun sonlarda yechimga ega emas.

Shunga o'xshash analogiya metodidan foydalanib ratsional koefitsientli

$$\frac{a_n}{b_n} x^n + \frac{a_{n-1}}{b_{n-1}} x^{n-1} + \dots + \frac{a_1}{b_1} x + \frac{a_0}{b_0} = 0 \quad (3)$$

tenglamaning butun yechimlari to'g'risida ham fikr yuritish mumkin. (3) tenglamada bosh hadning koefitsienti $\frac{a_n}{b_n} \neq 0$ bo'lgani uchun uni bosh hadning koefitsientiga bo'lib bosh hadining koefitsienti birga teng bo'lgan holga keltirish mumkin, ya'ni (3) dan

$$x^n + c_{n-1}x^{n-1} + \dots + c_1x + c_0 =$$

$$0, \quad (4)$$

Endi faraz qilaylik $x = \frac{p}{q}$, $(p, q) = 1$ ratsional soni (4) ning yechimi bo'lsin.

U holda

$$\frac{p^n}{q^n} + c_{n-1} \frac{p^{n-1}}{q^{n-1}} + \dots + c_1 \frac{p}{q} + c_0 = 0$$

yoki

$$p^n + c_{n-1}p^{n-1}q + \dots + c_1pq^{n-1} + c_0q^n = 0$$

$$p^n = q(c_{n-1}p^{n-1} + c_{n-2}p^{n-2}q + \dots + c_1pq^{n-2} + c_0q^{n-1})$$

Bu yerdan p^n soni q ga bo'linishi kerak. $(p, q) = 1$ bo'lgani uchun $q = 1$ bo'lsagina $\frac{q}{p^n}$ bo'ladi.

Demak, bosh hadning koefitsienti 1 ga teng bo'lgan (4) faqat butun yechimga ega bo'lar ekan, ya'ni uning ratsional yechimlari butun sonlardan iborat bo'lar ekan.

Adabiyotlar:

Математика ўқитиш методикаси. М.Тожиёв, М.Баракаёв, А.Хуррамов. Тошкент. 2017й.

Бухштаб А.А. Теория чисел. –М: “Просвещение“, 1966 г. 384 с.

МУҲАНДИСЛИК ВА КОМПЬЮТЕР ГРАФИКАСИ ФАНИНИ ЎҚИТИШ ОРҚАЛИ БЎЛАЖАК МУҲАНДИСЛАРНИНГ КАСБИЙ КИЗИҚИШЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.96.50.002>

Авазов Жўрабек Донаевич

Тошкент давлат техника университети Термиз филиали
Умумкасбий фанлар кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада олий таълим тизимида “Муҳандислик ва компьютер графикаси” фанини ўқитиш жараёнини таъкиллаштиришининг янги илмий асосланган шаклларини ишлаб чиқиш масалалари, ўқитиш тизимининг мақсади ва боғлиқликлари таҳлил этилган.

Таянч сўзлар: фазовий тасаввур, психологик мослашув, қобилият, қобилият, ўзоро боғлиқлик, лойиҳалаш, компетентлик, интеллектуал, интеграциялашув, интеллектуал, ижодий, когнитив, самардорлик.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ ЧЕРЕЗ ИЗУЧЕНИЕ ИНЖЕНЕРИИ И КОМПЬЮТЕРНОЙ ГРАФИКИ

Авазов Жўрабек Донаевич

Старший преподаватель кафедры общепрофессиональных дисциплины,
Термезский филиал Ташкентского государственного технического университета

Резюме. В статье анализируется развитие новых наукоемких форм организации образовательного процесса в системе высшего профессионального образования «Инженерия и компьютерная графика», цели, структура и взаимозависимость образовательной системы.

Ключевые слова: пространственное воображение, психологическая адаптация, способности, способности, взаимозависимость, дизайн, компетентность, интеллектуальная, интеграция, интеллектуальная, творческа, когнитивная, эффективность.

FORMATION OF PROFESSIONAL INTERESTS OF FUTURE ENGINEERS THROUGH STUDYING ENGINEERING AND COMPUTER GRAPHICS

Avazov Jurabek Donaevich

Senior Lecturer of the Department of General Professional Sciences of the
Termez branch of Tashkent State Technical University

Summary. The article analyzes the development of new science-based forms of organization of the educational process in the system of higher education «Engineering and Computer Graphics», the purpose, structure and interdependence of the educational system.

Keywords: spatial imagination, psychological adaptation, ability, ability, interdependence, design, competence, intellectual, integration, intellectual, creative, cognitive, efficiency.

Олий таълим тизимида юқори малакали ва рақобатбардош кадрларни тайёрлаш бугунги куннинг энг муҳим вазифаларидан ҳисобланади. Мазкур вазифанинг нечоғлик самарали ҳал этилиши мамлакатимизда амалга ошириб борилаётган таълим соҳасидаги ислохотлар таълим-тарбия сифатининг юқори даражада бўлишини таъминлашга қаратилган бўлиб, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Яна бир муаммони ҳал этиш ўта муҳим ҳисобланади: бу



педагоглар ва профессор-ўқитувчилар таркибининг профессионал даражаси, уларнинг махсус билимларидир. Бу борада таълим олиш, маънавий-маърифий камолот масалалари ва ҳақиқий кадриятларини шакллантириш жараёнларига фаол кўмак берадиган муҳитни яратиш зарур”. – деб айтган фикрларида акс этади. [3]

Бўлажак муҳандисларнинг касбий компетентлигини ривожлантиришда муҳандислик ва компьютер графикаси фундаментал фан бўлиб, бу фан бўйича эгалланган билим ва малакалар асосида муҳандиснинг фазовий тасавури, техник тафаккури ва ижодий қобилияти каби хислатлари ривожланади. “Муҳандислик ва компьютер графикаси” ўқув фани талабаларда график билим, малака ва кўникмаларни шакллантиришнинг асоси ҳисобланиб, ижодий қобилиятларининг намоён бўлишига йўл очади. Уларнинг фазовий тасавурларни кенгайтириб, лойиҳалашнинг асосини ташкил этувчи чизмаларни ўқиш ва бажариш, объектларнинг эскизи ва иш чизмаларини тузиш, перспектив тасвирларини куриш каби график саводхонлик малакалари билан қуроллантиради шунингдек, умуммуҳандислик фанларини ва махсус предметларни ўрганиш жараёнида график саводхонлик даражалари ривожланиб, мутахассислик фанлардан курс иши, курс лойиҳаларини бажариш жараёнида эгалланган билим ва малакалардан фойдаланиб, битирув малакавий ишини бажариш жараёнида уларнинг графикавий ва ижодий қобилиятлари тўлиқ намоён қилади.

Олий таълимда ўқитишнинг мазмуни, шакллари ва усуллари талабаларни фаол касбий фаолиятга тайёрлайдиган тизим сифатида ушбу фан соҳасидаги замонавий касбий вазифаларга йўналтирилиши кераклигини тасдиқлади. Шунинг учун олий ўқув юртларида ҳар қандай фаннинг таркиби, тузилиши касбий муаммоларни ҳал қилиш учун зарур бўлган билим, кўникмаларни шакллантириш нуктаи назаридан кўриб чиқилиши керак.

Фан тузилишига бундай ёндашув, бизнинг фикримизча, қуйидагиларга имкон яратади:

муҳандислик ва компьютер графикаси оралик кафедралар ва мутахассислик кафедраларнинг ўзаро алоқани таъминлаш;

билим, маҳорат кўникмалар тузилиши билан юқори курсларда ўтиладиган махсус фанларни ўзлаштиришга ҳисса қўшади;

амалий муаммоларни ҳал қилишда бўлажак муҳандиснинг фаолиятига фаол таъсир кўрсатиш, касбга қизиқишни уйғотади.

Талабага замонавий амалиётнинг профессионал вазифалари даражасида бўлишга имкон берадиган фан соҳасига йўналтириш, муҳандислар тайёрловчи олий таълим муассасаларида махсус фанларни тизимли равишда ташкил этиш орқали амалга оширилиши мумкин. Аммо махсус фанлар фақат 5–8 семестрда мутахассислик кафедраларда ўрганилади лекин талабаларни бўлажак касбига жалб қилиш зарурияти биринчи семестрда пайдо бўлмоқда, чунки олдинги тадқиқотчиларнинг таъкидлашича, касбий қизиқишни ривожлантириш жараёни “мактаб-профессионал таълим - олий ўқув юрти” босқичларида узлуксиз бўлиши керак.

А.Б. Кагановнинг таъкидлашича, талабаларнинг бошланғич касбий шаклланиши натижалари кўп жиҳатдан олий ўқув юртида уларнинг янги шароитларга психологик мослашуви бўйича йўналтирилган ютуғлар билан белгиланишини таъкидлайди.

Бўлажак муҳандисларни тайёрлашда муҳандислик ва компьютер графикасининг роли, ўрни, таъсирини аниқлаш учун биз баъзи назарий тадқиқотларни ўтказадик. Муҳандисликнинг ғояларини кўринмас, қийин, хом хаёл ҳолда тузиш ҳоҳида таъсири янада самаралироқ бўладигани, муаллиф текисликдаги уч ўлчовли фазо тушунчасини қанчалик эгаллаган бўлса, муҳандислар тайёрловчи олий таълим муассасаларида ўқиш пайтида техник фанлар билан боғлиқлик қанчалик кучли

бўлса, касбга қизиқиш шунчалик фаол бўлади.

Бу шуни кўрсатадики, муҳандислик ва компьютер графикаси фани бўлажак юқори малакали мутахассисларни тайёрлашда муҳим аҳамиятга эга.

муҳандислик ва компьютер графикаси фанини ўрганаётганда бўлажак муҳандис куйидагиларни бажариши керак;

- тасвирларни тузиш назариясига (нукта, тўғри чизик ва текисликлар) эга бўлиш;

- текисликларнинг ўзаро кесишиш муаммоларини ҳал қилиш алгоритминини билиш, шунингдек, айрим геометрик шаклларнинг ҳақиқий катталикларини аниқлай билиш;

- буюмларнинг тасвирларини тузиш усулларини билиш (стандартларни билиш);

- чизмаларнинг қисмларидан геометрик шаклларни ўқий олишлари ва ушбу тасвирларни (ҳаётдан ва умуман расм чизиш) бажара олишлари;

- ихтисосликда энг кенг тарқалган деталларнинг бирикмаларидан турли кўринишдаги чизмаларини бажариш;

- Йиғма бирликлардан чизмаларини бажариш ва ўқишни билиш.

Техник фикрни ифода этиш воситаси сифатида ва ишлаб чиқариш ҳужжати сифатида чизмаларни ўзлаштириш олий ўқув юртида бутун ўқиш жараёни давомида амалга оширилиши керак. Ушбу жараён муҳандислик ва компьютер графикасини ўрганишдан бошланиб, сўнгра бир қатор умуммуҳандислик ва махсус фанлар билан ривожланиб мустақамланиб боради. Чизмаларни бажариш ва ўқиш қобилиятлари муҳандиснинг касбий фаолиятининг асосий қисмларидан биридир. Чизмаларни ўқиш қобилияти талабага муҳандиснинг касбий фаолиятини чуқурроқ ўрганиш имконини беради, уни ушбу фаолиятдан қониқиш ҳиссини уйғотади ва шунинг учун шахснинг касбий манфаатларини фаоллаштиришга ҳисса қўшади.

Муҳандислик ва компьютер графикасини ўрганишда олинган билим ва кўникмалар умуммуҳандислик ва махсус фанларни ўзлаштиришда, шунингдек кейинги касбий фаолиятни ўрганиш учун зарурдир.

Йилма-йил тасдиқланадиган малакавий талаблар, ўқув режалари, ўқув дастурларини таҳлил қилиб талабаларга ҳеч ким тақдим этмайдиган тўлиқ бўлимлар аниқланди, уларни ўрганишга жиддий эҳтиёж бор. Мутахассисларни интенсив мақсадли тайёрлашда фақат биз фойдаланадиган анъанавий дастурий ҳужжатларга асосланиб бўлмайди деган хулосага келдик.

Муҳандисларни тайёрлашда муҳандислик ва компьютер графикасининг ўрни ва ролини аниқлаш учун биз социологик тадқиқот ўтказишга ҳаракат қилдик. Социологик тадқиқотлар таркибни янгилаш ва фаоллаштиришнинг даражасини ошириш учун катта имкониятларга эга. Улар, бошқа тадқиқотлар билан бир қаторда, жараённинг ҳозирги ҳолати ва ривожланиш тенденцияларини аниқ, чуқур ва ҳар томонлама таҳлил қилишга имкон беради. Бундай тадқиқотларни ҳақли равишда универсал маълумот манбаларидан бири деб аташ мумкин, чунки улар нафақат турли хил муаммоларни аниқлабгина қолмай, балки уларни ҳал қилишнинг самарали усулларини ҳам таклиф қиладилар.

2018 йилдан 2021 йилгача биз турли ихтисосликдаги 3-4 курс талабаларидан тўғри ва аниқ маълумот олиш учун аноним сўров олдик.

Аноним сўровда иштирок этиш учун график қисмини ўз ичига олган (курс ишлари, курс лойиҳалар, битирув малакавий ишлар) деярли барча умумтехник ва ихтисослик фанларни ўрганишни яқунлаган талабаларнинг аниқ контингенти танланди. Биз уларга таълим мазмунига субъектив ёки объектив баҳо беришни таклиф қилдик. Улар ихтисослик фанларни ўқиш жараёнида муҳандислик ва компьютер графикасининг ўрни ва ролини баҳолайдилар ва келгусидаги касбий фаолияти тўғрисидаги кенг тарқалган ғояларни аниқлашга ёрдам берадилар.

Сўров натижалари бизнинг маълумотларимизни тасдиқлади. Ўқув дастурининг қайси фанлари сизнинг касбий ўсишингизда ҳал қилувчи рол ўйнади? деган саволга кўрсатилган 13 та фандан муҳандислик ва компьютер графикаси фанини респондентлар юқори танлаган.

Муҳандислик ва компьютер графикаси, дастурнинг бошқа фанлари қаторида мутахассиснинг малакасини оширишда устунлик қилади. Сўров маълумотлари 1-жадвалда келтирилган.

Иқтисодий ривожланишнинг ҳозирги босқичи, ишлаб чиқаришни техник жиҳозлаш даражаси, мураккаб технологияларнинг жорий этилиши ёш мутахассиснинг шахсияти, унинг малакаси, кўникмаси ва ташкилотчилигига бўлган талабни сезиларли даражада оширди.

Мутахассиснинг касбий ривожланишида муҳандислик ва компьютер графикаси фанининг ўрни ва аҳамияти

1 –жадвал

Анкета жавоб рақами		3.1	3.2	3.3	3.4	3.5	3.6	3.7	3.8	3.9	3.10	3.11	3.12
Сўров йили	2018	3	5	30	10	7	9	22	10	29	26	16	11
	2019	7	6	25	9	4	3	27	12	25	28	15	21
	2020	8	9	29	11	1	4	30	17	30	30	29	23
	2021	11	4	27	7	4	6	31	23	29	15	21	24
2018-2021		7,2	6,0	27,8	9,2	4,0	5,5	27,5	15,5	28,2	24,7	20,2	20,0

Шу муносабат билан, биз сўровномалардан ташқари, социологик маълумотларни тўплашнинг тенг самарали усулини – интервью методини ҳам қўллашни зарур деб билдик. Маълумот манбаи сифатида муҳандис-механик, йўл қурилиш муҳандислиги ва барча мутахассисликларининг иккинчи, учинчи, тўртинчи курс талабалари, ёш мутахассислар, корхона раҳбарлари, бўлимлар бошлиқлари танлаб олинди.

Турли даврларда (2018 йилдан 2021 йилгача) шахсан ва билвосита биз муҳандислик ва компьютер графикасини ўқитиш даражасини, ушбу фан билимларини муддатли ва диплом лойиҳаларини амалга оширишда бошқа фанлардан фойдаланиш даражасини аниқлашга ҳаракат қилдик. Ушбу босқичда бундан ташқари, ушбу мутахассисликлар бўйича курснинг график қисми ва битирув лойиҳаларининг мазмуни ўрганилди. Биз муҳандислик ва компьютер графикаси ўқув дастурининг бошқа мавзулари билан ўзаро боғлиқлик даражасига бевосита ва билвосита таъсир кўрсатадиган шартлар ва омилларни ўрганиб чиқдик.

Хулоса ўрнида қуйидагиларни айтиш мумкин:

1. Тадқиқот натижалари «Муҳандислик ва компьютер графикаси» курсининг ишчи дастурини қайта кўриб чиқиш учун асос яратади.

2. Қуйидаги масалаларни ўрганишга кўпроқ эътибор қаратиш лозим.

- қуйидаги мавзулар бўйича ишларни бажарадиган талабаларнинг маҳоратини ошириш: турлари, бўлимлари, деталларни ишлов бериш ва ихтисослашув элементлари билан монтаж чизмалари;

- чизмаларни расмийлаштириш.

3. Олий таълим муассасаси Кенгаши томонидан тасдиқланадиган танлов фанларидан келиб чиқиб, 5310600- «Транспорт воситалари муҳандислиги» мутахассислиги талабалари учун ва 5340600-«Йўл муҳандислиги»

мутахассисликлари талабалари учун муҳандислик ва компьютер графикаси дарс соатларини 16-20 соат қўшимча кенг ҳажмда ташкил этиш зарур.

4. Мутахассисликка йўналтириб дидактик дарс материалларини шакллантириш ва улардан фаолроқ фойдаланиш.

5. Ўқув жараёнини ташкил қилишда, муҳандислик ва компьютер графикаси график қисмини ўз ичига олган фанлар билан боғланишини оширадиган тадбирларни режалаштириш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. Тошкент шаҳри, 2017 йил 7 февраль ПФ - 4947.

Мирзиев Ш. Ватанмиз тақдири ва келажаги йўлида янада ҳамжиҳат бўлиб, қатъият билан ҳаракат қилайлик. // "Халқ сўзи" газ., 2017 йил, 16 июнь.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистоннинг янги тарққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чоратадбирлари тўғрисида" ги Фармони. Т., 2020 йил 6 ноябрь ПФ-6108

Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида" ги Фармони. // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. –Т., 2017. –Б.39.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикаси инновацион ривожланиш вазирлигини ташкил этиш тўғрисида" ги Фармони // ҚХММБ: 06/17/5264/0339-сон 01.12.2017 й.

Актуальные вопросы методики преподавания начертательной геометрии и черчения в техническом вузе. Лагерь А.И. Содержание, формы и методы обучения в высшей школе: Обзорная информация. НИИ ВШ; вып. X. - М., 1990 – 48 с.

Воронов В.В. Формы представления знания в педагогическом образовании // Педагогика 1999, №4. С.68

Золотарев А.А., Федоров Б.Ф. Технические средства обучения в вузах (Вопросы теории и методики преподавания). - М: Воениздат, 1996.-276 с.

Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси "Адабиёт жамғармаси" нашриёти. Тошкент, 2006.-160 б.

Ибрагимова Г.Н. Интерфаол ўқитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Тошкент, 2017. -38 б.

Ишмухаммедов Р.Ж. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари.–Т.: ТДПУ, 2005.-216 б.

Ишмухаммедов Р., Абдукодиров А., Пардаев А. "Таълимда инновацион технологиялар" (таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар). Ўзбекистон Республикаси президентининг "Истеъдод" жамғармаси, Тошкент, -2008.-180 б.

Кирсанов А.А., Жураковский В.М. Основы инженерной подготовки / -М.: МАДИ (ГТУ); Казань: КГТУ, 2007,-498 с.

Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед.фанл.докт. ... дисс. – Т.: 2007. – 325 б.

Тожибоева Д. Махсус фанларни ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма –Т.: фан ва технология нашриёти, 2007. – Б.81.

Абдуллаева Ў.М. Махсус фанларни ўқитиш жараёнида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий билим ва кўникмаларини шакллантиришнинг методик асослари. П.ф.н. ... диссертация. Тошкент. 2006. – 186 б.

Абдуллаев У. Чизма геометрия ва чизмачилик асослари. Тошкент, "Ўзбекистон" 1997. -216 б.

Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – Москва: Просвещение, 1997. С.335.

O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARI ORKESTRINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.10.65.003>

Alimova Sabohat Zarifovna,
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek xalq cholg'ulari orkestri va ko'p ovozlil orkestrlarni tashkil etilishi hamda ushbu sohada Surxondaryo viloyatida amalga oshirilgan ishlar borasida so'z boradi. Surxon vohasining Termiz shahrida musiqa bilim yurti tashkil etilishi musiqa san'atining yanada keng ko'lamli rivojlanishining yangi bosqichiga ko'tarilishi edi. 1961-yilda asli Buxorolik bo'lgan bir necha ustozlar Termiz musiqa bilim yurtining tashkil etilishi va faoliyatida katta jonbozlik ko'rsatganlar. Ular Buxoro shahridan Termiz shahriga ko'chib keldilar va uzoq yillar vohada musiqa san'atini rivojiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. Shu kabi masalalar ushbu maqolaning asosiy negizini tashkil etadi.

Kalit so'zlar: *Xalq cholg'ulari orkestri, musiqiy cholg'ular, dirijorlik, san'at, partitura, orkestr sinfi.*

ОСОБЕННОСТИ УЗБЕКСКОГО НАРОДНОГО ОРКЕСТРА

Алимова Сабохат Зарифовна,
Преподаватель Термезского государственного университета.

Аннотация: В статье рассматривается создание оркестра узбекских народных инструментов и полифонических оркестров, а также работа, проделанная в этой сфере в Сурхандарьинской области. Открытие музыкальной школы в Термезе, Сурхандарьинский оазис, ознаменовало новый этап в развитии музыки. В 1961 году несколько учителей, родом из Бухары, очень активно участвовали в создании и работе Термезской музыкальной школы. Они переехали из Бухары в Термез и на протяжении многих лет внесли достойный вклад в развитие музыки оазиса. Подобные вопросы составляют основу данной статьи.

Ключевые слова: *Народный оркестр, музыкальные инструменты, дирижирование, искусство, партитура, оркестровый класс.*

SPECIFIC FEATURES OF UZBEK FOLK INSTRUMENTAL ORCHESTRA

Alimova Sabohat Zarifovna,
Teacher of Termez State University

Abstract: This article discusses the establishment of Uzbek folk instruments orchestras and polyphonic orchestras, as well as the work done in this area in Surkhandarya region. The establishment of a music school in Termez, Surkhandarya oasis, marked a new stage in the development of music. In 1961, several teachers, originally from Bukhara, were very active in the establishment and operation of the Termez Music School. They moved from Bukhara to Termez and for many years made a worthy contribution to the development of music in the oasis. Similar issues form the basis of this article.

Key words: *Folk instruments orchestra, musical instruments, conducting, art, score, orchestra class.*

O'zbek xalq cholg'ulari va musiqa ijrochiligi san'ati ko'p asrlilik o'tmishga borib taqaladi. O'zbekiston musiqa cholg'ulari dunyoning qadimiy cholg'ulari sirasiga kiradi. O'rta Osiyoning turli joylaridan, arxeologik qazilmalar orqali topilgan, haykaltaroshlik asarlari ushbu cholg'ularning qadimiy va o'rta asrlarga tegishli ko'rinishlarini saqlab qolgan.

XX asrning 30-yillari oxirlaridan boshlab yurtimizda orkestr ijrochiligiga sezilarli e'tibor berila boshlandi. 1948-yilda O'zbekiston davlat konservatoriyasi qoshida tashkil

etilgan o'zbek milliy xalq cholg'ulari orkestriga dirijorlik fani ham kiritildi.

Dirijorlik musiqa ijrochiligining eng murakkab turlaridan biri, dirijor – bu eng avvalo ijrochi-musiqachi, asarni talqin etuvchi, uning interpretatoridir.

Bugungi orkestr ijrochilarining nafaqat texnik imkoniyatlari, balki ularning umumiy va musiqiy madaniyati yuqori professional darajaga ko'tarildi. Texnik mukammallik hamda orkestrning har bir sozandasi tomonidan ijro etilayotgan materialni umumiy qamrab olinishi ma'nosidagi orkestr ijrosining sifati sezilarli darajada o'sdi.

Bu kabi o'zgarishlar yurtimizning chekka hududlarida ham o'z natijasini ko'rsata boshladi. Surxon vohasining Termiz shahrida musiqa bilim yurti tashkil etilishi musiqa san'atining yanada keng ko'lamlari rivojlanishining yangi bosqichiga ko'tarilishi edi. 1961-yilda asli Buxorolik bo'lgan bir necha ustozlar Termiz musiqa bilim yurtining tashkil etilishi va faoliyatida katta jonbozlik ko'rsatganlar. Ular Buxoro shahridan Termiz shahriga ko'chib keldilar va uzoq yillar vohada musiqa san'atini rivojiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. Dastlab bilim yurtida qashqar rubob va bayan sinfi, 1962-yilda esa nay, chang, g'ijjak sinflari sal keyinroq dutor, rubob prima va afg'on rubob sinflari ochildi. Orkestr sinfini ochilishida Termizdagi Mannon Uyg'ur nomli musiqali drama teatrida faoliyat olib borayotgan aralash orkestrning ham bir muncha ta'siri borligini eslash joizdir. Aralash orkestr deb atashimizning sababi orkestrda faqatgina o'zbek xalq cholg'ulari emas, balki damli cholg'ular ham tarkibda mavjud edi. Termizda xalq cholg'ulari orkestrini tashkil etish va konsert faoliyatini yo'lga qo'yish masalalari biroz mushkulot tug'dirardi, chunki rahbar - dirijyorlar hamda xalq cholg'ulari orkestri tarkibini to'liq tashkil etuvchi sozandalar etishmasdi.

Yillar davomida Termiz musiqa bilim yurti faoliyati ham rivojlana bordi: Dirijyorlik fani, orkestr fani, xalq cholg'ularida ijrochilik sinflari va boshqa yo'nalishdagi fanlar ham o'qitila boshlandi. Xalq cholg'ulari orkestrini sifatli va rang-barang ijrosini ta'minlash uchun musiqachilar uzoq yillar izlanishlar olib borishdi. Orkestrni partitura cholg'ular bo'yicha tashkil etish juda muhimdir, chunki har bir soz tovushi orkestr ijrosida katta ahamiyat kasb etadi. Bu juda muhim masala bo'lib, uning yechimini topish rahbar - dirijyor zimmasidagi vazifa hisoblanadi. Termiz musiqa bilim yurtida bas ovozlari o'rni turli yo'llar bilan to'ldirib, orkestr kamchiliklarini bartaraf etishga harakat qilinar edi. Yo'gon ovozlari o'rni ba'zan akkordeon, ba'zida esa damli cholg'ular (goboy, klarnet, saksofon, tuba) bilan to'ldirilardi. 1980-85-yillarda dutor bas va dutor kontrabaslar, 1990-yillardan g'ijjak kontrabas ham xalq cholg'ulari tarkibida paydo bo'ldi. Qashqar rubobi ijrochilarini dutor bas va dutor kontrabas cholg'usini chalish ko'nikmalarni o'zlashtirishlarini inobatga olib, texnik va hajm jihatdan uncha murakkab bo'lmagan asarlar tanlaganlar. Vaqt o'tgan sari musiqa san'atida ayniqsa cholg'u ijrochiligida qilingan mehnatlar o'z samarasini ko'rsata boshladi, xalq cholg'ulari orkestrida partitura talabi bo'yicha barcha cholg'ular deyarli mavjud edi. (qo'shmay, nay pikkolo va ksilafonlar bundan mustasno)

Agar biz akademik cholg'u ijrochiligi va orkestr ijrochiligi tarixiga nazar tashlasak, qisqa davr ichida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritganimizga amin bo'lamiz. 1940-2021-yillar davomida milliy musiqamizga xos bo'lgan monodik tuzilmadan polifonik yoki gomofonik tuzilmani mukammal o'zlashtirganligimiz, chet el va qardosh xalqlar musiqasini maromiga etkazib ijro qila olishimiz shu bilan birga milliy cholg'ularimizning oiladosh turlarini is'temolda mahorat bilan qo'llanilishi yutuqlarimiz namunasidir[5].

“Orkestr fani” tarkibi - musiqachi tarbiyasining asosi deb ta'riflasak xato bo'lmaydi. Avvalambor, mazkur mashg'ulot sabrga va mehnatga o'rgatadi, ikkinchidan musiqiy qobiliyatingizni shakllantiradi.

Orkestr sozandalarining mashg'ulot paytidagi ko'nikmalari:

- dirijyorning harakatlarini chuqur his qilish;
- notani varaqdan o'qish;
- texnik mahoratni o'sishi;
- musiqiy tafakkur va didni rivojlanishi;
- kasbiy sezgirlik (ijroda uyg'unlikni sezgan holda jo'r bo'lish).

Ulug' mutafakkir shoir Sa'diy Sheroziy musiqani “Ruh ozuqasi” deb atagan. Musiqa shunday ajoyib san'atki, uning uchun hech qanday til to'sig'i yo'q, tarjimonga muhtoj emas, musiqa shu qadar shifobaxshki, kishi uni tinglaganda jaholatdan yiroqlashib ezgu his-tuyg'ularga yaqinlashadi. Ko'p ovoqli ansambl yoki orkestr ijrolarining o'ziga xos ta'sirchanlik xususiyatiga kelsak, cholg'u tovushlari tembrlarining rang-barang ijrosi, ko'p ovoqli bo'lib qo'shilib jaranglashidagi vobastalik hamda uyg'unlik inson

ruhiy olamiga ta'sirchanlik qobiliyatini kamol toptiradi. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, deyarli barcha allomalar musiqa san'atining boy imkoniyatlaridan foydalanishga, san'at orqali ma'naviy yuksaklik cho'qqilarini zabt etishga muvaffaq bo'lganlar. Insoniyat tarixida uning ma'naviy taraqqiyotida san'atning o'rni beqiyosdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, xalqimiz qadimdan yuksak musiqiy salohiyatga ega bo'lganligini qayd etish lozim. Oliy va o'rta ta'lim muassasalarida milliy madaniyatimiz bo'lgan musiqa san'atini o'rganish va targ'ib etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur masalalar tarixidan shu ma'lumki, dirijyorlik san'ati ham boshqa ijrochilik turlari singari o'zining uzoq o'tmish tarixiga ega. Qadimgi Yunonistonda xor jamoalarining lavozimlari bo'lib, ular yer tepinish, qarsak chalish va boshqa vositalar orqali musiqiy o'lcham, taktlarni sanab turganlar.

So'ngra, eramizning 600-yillarida Rim papasi Buyuk Grigoriy bu san'atga asos solgan. Ashula maktablarida xor jamoasini boshqarish uchun qo'l va barmoqlardan foydalana boshlangan[3]. Bu holat manual texnika rivojiga asos solgan. ("manual" so'zi qo'l ma'nosini bildiradi). Keyinchalik nota yozuvi tizimi joriy qilinganidan boshlab qo'l harakati bilan bog'liq haqiqiy dirijyorlik maktabiga asos solindi va professional dirijyorlikning kasbiy vazifalari qo'llanila boshladi. Bugungi kunga kelib dirijyorlik faniga oid barcha nazariy bilimlar amaliy bilan bog'lanib mustaqil ravishda kasb sifatida shakllandi, jumladan Ozbekistonning barcha musiqaga oid o'quv maskanlarida joriy etildi. Malakali mutaxassislar yurtimizning chekka hududlariga ishga yuborildi, ular joylarda o'zlarining kasbiy mahoratlarini targ'ib eta boshladilar.

Termiz musiqa bilim yurtida orkestr fani bilan bir qatorda dirijyorlik san'ati ham fan sifatida qo'llanila boshlandi. Bu davrlar o'tgan asrning (XX-asr) 63-64-yillariga to'g'ri keladi. Shartnoma asosida viloyatimizga ishga yuborilgan tajribali uztuz Muhammadiyev Muhammad Islomovich bu kabi sharafli vazifani imkon qadar uddasidan chiqdi. Uning say'i harakatlari besamar ketmadi, faoliyati ahamiyatga molik edi.

Muhammad Islomovich tashabbusi bilan viloyatimizga Buxorolik musiqachi pedagoglar ko'chib kelishdi va o'z faoliyatlarini Termiz musiqa bilim yurti ravnaqini jadallashtirish, iste'dodli yoshlarni kashf etish ishlari bilan yo'lga qo'yishdi. Ulardan Karimov Amin Karimovich (g'iggak sinfi o'qituvchisi), Muhammadiyev Muhammad Islomovich (qashqar rubobi sinfi o'qituvchisi), Zavqiyev Abdurahmon (nay sinfi o'qituvchisi), Pirov Sangali Aliyevich (chang sinfi o'qituvchisi), Vinogradova Lyudmila (rubob-prima sinfi o'qituvchisi), Fayzullayev A.Q. (g'ijjak sinfi o'qituvchisi), Gavrilin (bayan sinfi o'qituvchisi), Muhammadiyev Bahrom, Muhammadiyeva Sora (chang sinfi o'qituvchilari) va boshqalar shular jumlasidandir. Bilim yurtining rahbari Muhammadiyev Muhammad Islomovich boshqa yo'nalishlarni ham faoliyatini rivojlantirish masalalarini ilgari surdi. U imkonni boricha yoshlarga va uzoqdan kelgan o'qituvchilarga faoliyat olib borishlari uchun shart-sharoit yaratdi shu bilan birga qo'llab quvvatladi[4].

Jamiyatda har qanday sohani rivojlantirish uchun bilim, tajriba va uquv muhim omillardan hisoblanadi, ravhaq uchun esa sabr va mehnat talab etiladi. Yoshlarni vatanga sadoqatli, qalbi go'zal hislarga limmo-lim, ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda musiqaning o'rni beqiyos. Xalq cholg'ulari orkestri va dirijyorlik bir-biri bilan chambarchas bog'liq fan, fanlar mashg'ulotini to'g'ri va uzliksiz tashkil etish bo'lajak musiqachilarning bilim salohiyatini oshiradi, istiqbolini belgilaydi. Termiz musiqa bilim yurti dargohi xalq cholg'ulari yo'nalishida o'z maktabini meros qoldirgan Buxorolik ustozlarning xizmatlarini unutmazlik lozim deya, ta'kidlamoqchiman.

Adabiyotlar

1. A.Lutfullayev. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'ati tarixi. Toshkent.,2010-yil.
2. A.Tashmatova. Ijrochilik san'ati tarixi. Toshkent.,2017-yil.
3. Sh.Rahimov, A.Lutfullayev Cholg'ushunoslik. Toshkent., "Musiq" 2010-yil.
- 4.Sh.Umarov Dirijorlik. O'quv qo'llanma. T., 2016.
5. F.Abdurahimova Orkestr sinfi. O'quv qo'llanma. T., 2012.
6. F.Abdurahimova O'zbekiston taronalari. So'gdiyona orkestri repetuari. T.,
7. M.Akmaljonova Dirijorlik. T., 2017.

**TO'PLAMLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK MANTIQ
ELEMENTLARINI O'QITISHGA DOIR**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.45.77.004>**Allakov Ismoil,***Termiz davlat universiteti professori***Muzropova Nargiza,***Termiz davlat universiteti doktoranti*

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston o'rta ta'lim maktablarida matematika o'qishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida fikr yuritilib, masalaning mohiyati matematikaning muhim tushunchalaridan bo'lgan to'plamlar nazariyasi va matematik mantiq elementlarini o'qitish misolida ochib berilgan. Unda mualliflar o'zlarining tajribalariga tayangan holda takliflar berganlar.

Kalit so'zlar: to'plam, qism to'plam, ta'riflanadigan va ta'riflanmaydigan tushunchalar; to'plamlarning birlashmasi, to'plamlarning kesishmasi, to'plamlarning ayirmasi, simmetrik ayirma, mantiqiy amallar; inkor; diz'yunksiya, kon'yunksiya, implikasiya, ekvivalentlik, teng kuchli formulalar.

**О ПРЕПОДАВАНИИ ЭЛЕМЕНТОВ ТЕОРИИ МНОЖЕСТВ И
МАТЕМАТИЧЕСКОЙ ЛОГИКИ****Аллаков Исмаил,***Профессор Термезского государственного университета***Наргиза Музафарова,***Докторант Термезского государственного университета*

Аннотация: В статье обсуждаются проблемы и пути их решения в обучении математике в средних учебных заведениях Узбекистана, а также раскрывается суть проблемы на примере преподавания элементов теории множеств и математической логики, являющихся важными понятиями математики. В ней авторы, опираясь на собственный опыт, давали рекомендации

Ключевые слова: множество, частное множество, определяемые и не описываемые понятия, объединение множеств, пересечение множеств, вычитание множеств, симметричное вычитание, логические операции, отрицание, дизъюнкция, конъюнкция, импликация, эквивалентность, равносильные формулы.

**THE THEORY OF SETS AND THE TEACHING OF MATHEMATICAL
LOGIC ELEMENTS****Allakov Ismoil,***Professor of Termez State University***Muzropova Nargiza,***Doctoral student of Termez State University*

Abstract: The article gives an idea of the problems in mathematics education in secondary schools of Uzbekistan and ways to eliminate them, the essence of the issue is explained by the example of teaching the theory of sets and elements of mathematical logic, which are important concepts of mathematics. In it, the authors made suggestions based on their own experience.

Keywords: collection, part collection, concepts that can not be described and described, the Union of collections, the intersection of collections, the division of collections, symmetric subtraction, logical operations, negation, dizyunction, conjugation, implication, equivalence, equally strong formulas.

Matematika hamma aniq fanlarga asos.
Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng
tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada
muvaffaqiyatli ishlab ketadi.

Sh.M.Mirziyoyev

Respublikamizda Matematika fanini rivojlantirish va matematikani ta'lim muassasalarida jahon standartlari darajasida o'qinishni tashkil etish sohadagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda matematikaga iqtidori bor yoshlarni aniqlash va ularga fanni chuqur o'rgatish to'g'risida bir qancha qaror va farmonlar qabul qilindi [1,2]. Matematika fani oqituvchilariga keng imkoniyatlar berildi. Ilmiy izlanishlar ko'rsatadiki, inson hayoti mobaynida matematik qobiliyatni rivojlantirishning asosiy va katta qismi maktab davriga to'g'ri keladi. Bu esa maktab matematika fani o'qituvchilariga ulkan ma'suliyat yuklaydi.

Matematik muammolarni hal qilish orqali o'quvchi quyidagilarni o'rganadi:

- fikrlarni umumlashtirish va ular ichidan muhimlarini ajratish;
- tahlil qilish va tizimlashtirish ;
- qonuniyatlarni aniqlash va sabab munosabatlarini o'rnatish;
- xulosa va natijalar chiqarish;
- mantiqiy, strategik va abstrakt o'ylash.

Muntazam matematika bilan shug'ullanish miyaning ishlashini, aql-idrok va kongitiv qobiliyatni rivojlantiradi hamda dunyoqarashni kengaytiradi.

Matematikaning muhim tushunchalaridan biri to'plamlar nazariyasi va matematik mantiq elementlaridir. O'rta maktablarda 11 yillik majburiy ta'lim qaytadan tashkil etilganida zamon talablaridan kelib chiqib fan dasturiga ba'zi o'zgartirishlar kiritildi. Shulardan biri dasturga "To'plamlar nazariyasi va matematik mantiq elementlari" ning kiritilishidir. Buni quyidagi ikki jihat bilan izohlash mumkin:

birinchidan o'rta maktablardagi matematik ta'limni jahon standartlariga yaqinlashtirish;

Bu mavzular Oliy o'quv yurtlarida o'qitiladi edi. Lekin ular matematikaning asosini tashkil qiladi. Matematika fani asosi sifatida to'plamlar qaraladi. Matematikadagi tasdiqlarning rost yoki yolg'on ekanligini aniqlash esa matematik mantiqdagi keltirib chiqarish qoidalari yordamida amalga oshiriladi.

Shuning uchun bu mavzular bo'yicha dastlabki ma'lumotlarni o'rta maktablarda o'rganish maqsadga muvofiqdir.

"To'plamlar nazariyasi elementlari" mavzusini o'tayotganda o'qituvchi tomonidan quyidagilarni ta'kidlash o'tilishini maqsadga muvofiq deb bilamiz:

Barcha fanlarda bo'lgani kabi matematikada ham barcha tushunchalar ikki turga: ta'riflanmaydigan va ta'riflanadigan tushunchalarga bo'linadi. Ta'riflanmaydigan tushunchalar shu fanning eng sodda va asosiy tushunchalar bo'lib ular ta'rifsiz qabul qilinadilar. Ana shu ta'riflanmaydigan tushunchalardan foydalanib faning boshqa tushunchalarga ta'rif beriladi. Biz hozirgacha ta'riflanmaydigan tushunchalardan ba'zilari bilan tanishmiz. Bu geometriyaning planimetriya qismidagi "nuqta" va "to'g'ri chiziq", stereometriya qismiga kelib bular qatoriga "tekislik" tushunchasi ham qo'shiladi. To'plam ham matematikaning ta'riflanmaydigan tushunchasidir. Undan foydalanib matematikaning boshqa tushunchalari ta'riflanadi. To'plam tushunchasini birinchi bo'lib nemis matematigi G.Kantor (1845-1918) fanga kiritgan.

To'plamni tashkil etuvchi predmetlarga uning elementlari deyiladi. To'plamlarni biz lotin alfavitining bosh harflari bilan uning elementlarini esa shu alfavitning kichik harflari bilan belgilaymiz. Agar to'plam chekli sondagi elementlardan tashkil topgan bo'lsa bunday holda unga chekli to'plam, aks holda cheksiz to'plam deyiladi. Chekli to'plamlarni yozishda uning elementlarini yozib ko'rsatish mumkin. Masalan: yozuv to'plamning elementlardan tashkil topganini bildiradi. elementning to'plamga

tegishli ekanligini ko‘rinishida, elementning to‘plamga tegishli emas ekanligini ko‘rinishida belgilaymiz.


Cheksiz to‘plamlar odatda xarakterli xususiyatlari bilan beriladi. Xarakterli xususiyat degan biz faqat berilgan to‘plam uchun o‘rinli bo‘lib qolgan biror to‘plam uchun ham o‘rinli bo‘lmagan xossa tushiniladi. Masalan: N-natural sonlar to‘plami.

Odatda predmetlarni, ob‘yektlarni birgalikda qaraganimizda to‘plam tushunchasiga kelamiz. Lekin bu yuzaki qarash bo‘lib ayrim olingan birta predmetning o‘zi ham to‘plam bo‘la oladi, xattoki birorta elementga ega bo‘lmagan- bo‘sh to‘plam deb ataluvchi to‘plam ham mavjud. Bundan keyin bo‘sh to‘plamni \emptyset -simvoli bilan belgilaumiz.


Bizga ikki va to‘plamlar berilgan bo‘lsin. Agar to‘plamning barcha elementlari to‘plamda mavjud bo‘lsa, u holda to‘plamni to‘plamning qismi (qism to‘plami) deyiladi va ko‘rinishda belgilanadi. Agarda to‘plamning barcha elementlari to‘plamda mavjud bo‘lsa, va aksincha to‘plamning barcha elementlari to‘plamda mavjud bo‘lsa bunday va to‘plamlar teng deyiladi va ko‘rinishda yoziladi. Birorta to‘plamning qismi deb qaralmaydigan to‘plamga universal to‘plam deyiladi.

Tenglamalar, tengsizliklar va ular sistemalarining yechimlarini, funksiyaning aniqlanish sohasini, funksiyaning uzluksizlik nuqtalari to‘plamlarini topish kabi masalalar nuqtaviy to‘plamlarga, ular ustidagi amallarga, to‘plamlarning turli sistemalarini o‘rganishga olib keladi. Berilgan ikki to‘plamga ko‘ra uchinchi to‘plamni hosil qilishning quyidagi usullari mavjud odatda bu usullarga to‘plamlar ustida amallar deb ataladi. Ular quyidagilardir: to‘plamlarning birlashmasi, kesishmasi, ayirmasi, simmetrik ayirmasi va Dekart ko‘paytmasidir. O‘quvchilarga dars o‘tishda shu amallarning barchasiga ta’rif berib misollar bilan tushuntirish lozim bo‘ladi. Bunda Eyler-Venn diagrammalari yordamida tasvirlashdan foydalanish juda ham qilay. Shundan keyin amallarning xossalari keltirib o‘tish joiz bo‘ladi.


To‘plamlarni Eyler-Venn diagrammalari orqali tasvirlashning ba’zi ta’riflarini keltiramiz:




1-shakl. 1) $A \cup A = A$; 2) $A \cup \bar{A} = U$.




2-shakl. $A \cap B$;



3-shakl. $A \cup B$;




4-shakl. A / B ;




5-shakl. B to‘plamni A to‘plamgacha

to‘ldiruvchi to‘plam.



6-shakl. A to‘plamni U universal to‘plamgacha to‘ldiruvchi to‘plam.



7-shakl. A va B to‘plamlarning simmetrik ayirmasi.

Ma'ruzada shuningdek, matematik mantiq elementlarini o'rta maktablarda o'qitish yuzasidan takliflar ham bayon qilinadi.

1-teorema. Universal to'plamning istalgan A,B,C qism to'plamlari orasidagi munosabatlarni ifodalovchi quyidagi tengliklar ayniyatdir:

1. $A \cup (B \cap C) = (A \cup B) \cap C$. 1'. $A \cap (B \cup C) = (A \cap B) \cup C$.
2. $A \cup B = B \cup A$. 2'. $A \cap B = B \cap A$.
3. $A \cup (B \cap C) = (A \cup B) \cap (A \cup C)$. 3'. $A \cap (B \cup C) = (A \cap B) \cup (A \cap C)$.
4. $A \cup \emptyset = A$. 4'. $A \cap U = A$.
5. $A \cup \bar{A} = U$. 5'. $A \cap \bar{A} = \emptyset$.

Agar $A \subseteq B$ va $B \subseteq A$ bo'lsa, u holda $A=B$. Shu xossadan foydalanib yuqorida keltirilgan ayniyatlar isbot qilinadi, ya'ni tenglikning chap tomonidagi har bir element uning o'ng tomonida ham mavjud va aksincha ekanligini ko'rsatish yetarli.

2-teorema. U universal to'plamning istalgan A va B qism to'plamlari uchun quyidagilar o'rinni:

6. Hamma A lar uchun $A \cup B = A$ bo'lsa, u holda $B = \emptyset$.
- 6'. Agar istalgan A uchun $A \cap B = A$ bo'lsa, u holda $B=U$.
- 7 va 7'. Agar $A \cup B = U$ va $A \cap B = \emptyset$ bo'lsa, u holda $B = \bar{A}$.
- 8 va 8'. $\bar{\bar{A}} = A$.
9. $\bar{\emptyset} = U$. 9'. $\bar{U} = \emptyset$.
10. $A \cup A = A$. 10'. $A \cap A = A$.
11. $A \cup U = U$. 11'. $A \cap \emptyset = \emptyset$.
12. $A \cup (A \cap B) = A$. 12'. $A \cap (A \cup B) = A$.
13. $\overline{A \cup B} = \bar{A} \cap \bar{B}$. 13'. $\overline{A \cap B} = \bar{A} \cup \bar{B}$.

2-teoremaning ayrim tengliklari maxsus nomga egadir. Masalan, 10 va 10' - tengliklar idempotentlik qonuni, 12 va 12' - tengliklar yutish qonuni, 13 va 13' - tengliklar de Morgan qonuni deb ataladi.

Mantiq jarayonini turli matematik belgilar bilan ifodalashga intilish Arastuning asarlaridayoq uchraydi. XVI-XVII asrlarga kelib, mexanika va matematika fani rivojlanishi bilan matematik metodni mantiqqa tadbiiq etish imkoniyati kengaya bordi. Nemis faylasufi Leybnits har xil masalalarni yechishga imkon beruvchi mantiqiy matematik metod yaratishga intilib, mantiqni matematiklashtirishga asos soldi. Mantiqiy jarayonni matematik usullar yordamida ifodalash XIX asrlarga kelib rivojlana boshladi.

Teng kuchli formulalarga doir teoremlar.

1-teorema. A va B formulalar teng kuchli bo'lishi uchun \bar{A} va \bar{B} formulalar teng kuchli bo'lishi zarur va yetarli.

Isboti. $A=B$ bo'lsin. U vaqtda hamma holatlarda formulalar bir xil qiymatga ega bo'ladi. U holda \bar{A} va \bar{B} formulalar ham chinlik jadvalining har bir satrida bir xil qiymatlarga ega bo'ladi. Demak, $\bar{A} = \bar{B}$ va aksincha $\bar{A} = \bar{B}$ dan $A=B$ kelib chiqadi.

2- teorema. A va B formulalar teng kuchli bo'lishi uchun $A \leftrightarrow B$ formula aynan chin (taftalogiya) bo'lishi zarur va yetarli.

Isbot. 1. $A=B$ bo'lsin. Bu holda, ekvivalentlik ta'rifiga asosan, $A \leftrightarrow B$ ning hamma satrlaridagi qiymatlari chindan iborat, demak $A \leftrightarrow B$ taftalogiyani ifodalaydi.

2. $A \leftrightarrow B$ taftalogiya bo'lsin. U holda $A \leftrightarrow B$ har bir satrida chin qiymatga ega bo'ladi. Bundan esa A va B ning har bir satrdagi qiymatlari bir xil bo'ladi, ya'ni $A=B$ kelib chiqadi.

2017 -yilda M.A.Mizaahmedov va boshqa matematik olimlar tomonidan ishlab nashrdan chiqqan 10-sinf matematika darsligining I qismi I bobi to'plamlar nazariyasiva matematik mantiq

elementlari mavzulariga bag'ishlanadi. Mavzular sodda va batafsil yoritilgan. Misol va masalalar esa kundalik turmush tarziga mos qilib o'quvchi osonlik bilan tushunib bemalol mustaqil tahlil qila oladi. Fan o'qituvchisidan berilgan mavzularni sinfning har bir o'quvchisiga samarali yetkazib berishi uchun barcha bilim va ko'nikmalarini ishga solib, zamonaviy ped texnologiyalar va interfaol matodlardan foydalanish talab etiladi.

Biz quyida kitobning I bobida keltirilgan mavzularga doir ba'zi misol va masalalarni yechish usullarini tahlil qilib o'tamiz.

1-misol. $U = \{x \mid 0 < x \leq 12, x \in Z\}$, $A = \{x \mid 2 \leq x \leq 7, x \in Z\}$,

$B = \{x \mid 3 \leq x \leq 9, x \in Z\}$, $C = \{x \mid 5 \leq x \leq 7, x \in Z\}$ bo'lsa, quyidagilarni toping: a) B' ; b) C' ; c) A' ; d) $A \cap B$; e) $(A \cap B)'$; f) $A' \cap C$.

Yechish: Bu yerdagi A' , B' , C' lar A , B , C to'plamlarning to'ldiruvchi to'plamidir. To'ldiruvchi to'plamning ta'rifini keltiramiz.

Ta'rif. A to'plamning A' to'ldiruvchisi deb U universal to'plamning A ga tegishli bo'lmagan barcha elementlari to'plamiga aytiladi.

a) $B' = \{1,2,10,11,12\}$; b) $C' = \{1,2,3,4,8,9,10,11,12\}$;
 c) $A' = \{1,8,9,10,11,12,13\}$; d) $A \cap B = \{3,4,5,6,7\}$;
 e) $(A \cap B)' = \{1,2,8,9,10,11,12\}$; f) $A' \cap C = \{1,5,6,7,8,9,10,11,12\}$.

Ushbu misol yechimlarini Eyler-Venn diagrammalarida ko'rsatish maqsadga muvofiq.

2-misol. $U=N$, $A = \{6 \text{ sonining } 31 \text{ dan kichik bo'lgan karralilari}\}$,

$B = \{30 \text{ ning bo'luvchilari}\}$ va $C = \{30 \text{ dan kichik bo'lgan tub sonlar}\}$ bo'lsin. a) A , B , C ;
 b) $n(A \cup B \cup C) = n(A) + n(B) + n(C) - n(A \cap B) - n(B \cap C) - n(A \cap C) + n(A \cap B \cap C)$ tenglikning bajarilishini tekshiring.

Yechish: a) $A = \{6, 12, 18, 24, 30\}$, $B = \{1, 2, 3, 5, 6, 10, 15, 30\}$,
 $C = \{2, 3, 5, 7, 11, 13, 17, 19, 23, 29\}$.

b) $n(A)$ - deb A to'plam elementlari sonini belgilaymiz.
 $n(A) = 5$, $n(B) = 8$, $n(C) = 10$, $n(A \cap B) = 2$, $n(B \cap C) = 3$, $n(A \cap C) = 0$,
 $n(A \cap B \cap C) = 0$ $n(A \cup B \cup C) = 18$.
 $n(A) + n(B) + n(C) - n(A \cap B) - n(B \cap C) - n(A \cap C) + n(A \cap B \cap C) = 5 + 8 + 10 - 2 - 3 - 0 + 0 = 18$;

$n(A \cup B \cup C) = 18$ tenglik isbotlandi.

3. Agar $A = \{x \in N \mid 1 \leq x \leq 3\}$, $B = \{y \in N \mid 2 \leq y \leq 4\}$ bo'lsa, $A \times B$ ni toping va uni dekart tekisligiga chizing.

$A \times B = \{(x, y) \mid 1 \leq x \leq 3, 2 \leq y \leq 4\}$

4. Berilgan $\overline{a \wedge b} \Leftrightarrow \bar{a} \vee \bar{b}$ ifoda mantiq qonuni ekanligini isbotlang.

Yechish: Avvalo berilgan ifodaning rostlik jadvalini tuzamiz:

a	b	\bar{a}	\bar{b}	$a \wedge b$	$\overline{a \wedge b}$	$\bar{a} \vee \bar{b}$
1	1	0	0	1	0	0
1	0	0	1	0	1	1
0	1	1	0	0	1	1
0	0	1	1	0	1	1

E'tibor qilsak oxirgi ikkita ustun bir xil , bundan kelib chiqadiki bu ikkala formula teng kuchli yoki mantiqiy tenglikka ega: $\overline{a \wedge b} \equiv \bar{a} \vee \bar{b}$. Demak berilgan ifoda mantiq qonuni bo'ladi.

3. Quyidagi formulaning bajariluvchi ekanligini isbotlang: $\neg(A \Rightarrow \neg A)$

Yechish: Biz bu misolni asosiy teng kuchli formulalardan foydalanib yechamiz.
 $\neg(A \Rightarrow \neg A) \equiv \neg(\neg A \vee \neg A) \equiv \neg(\neg A) \equiv A$

4. Quyidagi formulalarni aynan rost ekanligini isbotlang: $(A \Leftrightarrow B) \Rightarrow (\neg A \Leftrightarrow \neg B)$.

Yechish: $(A \Leftrightarrow B) \Rightarrow (\neg A \Leftrightarrow \neg B) \equiv ((A \Rightarrow B) \wedge (B \Rightarrow A)) \Leftrightarrow ((\neg A \Rightarrow \neg B) \wedge (\neg B \Rightarrow \neg A)) \equiv ((\neg A \vee B) \wedge (B \vee A)) \Leftrightarrow ((\neg A \vee B) \wedge (B \vee A)) \Leftrightarrow ((\neg A \vee B) \wedge (B \vee A)) \Leftrightarrow ((A \vee \neg B) \wedge (B \vee \neg A)) \equiv 1$

Izoh: $(A \vee \neg B) \wedge (B \vee \neg A) = C$, C-jami amalni bir mulohaza deb qarash, ya'ni C o'zini o'ziga ekvivalensiyasi 1 ga teng.

5. Quyidagi formulalarni aynan yolg'on ekanligini isbotlang:

1) $A \wedge (B \wedge (\neg A \vee \neg B))$;

2) $\neg(\neg(A \vee B) \Rightarrow \neg(A \wedge B))$

Yechish: 1) $A \wedge (B \wedge (\neg A \vee \neg B)) \equiv A \wedge ((B \wedge \neg A) \vee (B \wedge \neg B)) \equiv A \wedge (B \wedge \neg A) \vee A \wedge (B \wedge \neg B) \equiv A \wedge (B \wedge \neg A) \vee 0 \equiv A \wedge (B \wedge \neg A) \equiv A \wedge B \wedge \neg A \equiv 0 \wedge B \equiv 0$

aynan yolg'on. Izoh: $B \wedge \neg B \equiv 0$, asosiy teng kuchli formula.

2) $\neg(\neg(A \vee B) \Rightarrow \neg(A \wedge B)) \equiv \neg(\neg(\neg(A \vee B)) \vee \neg(A \wedge B)) \equiv \neg((A \vee B) \vee \neg(A \wedge B)) \equiv \neg(A \vee B) \wedge \neg(A \wedge B) \equiv \neg(A \vee B) \wedge (A \wedge B) \equiv \neg A \wedge \neg B \wedge A \wedge B \equiv 0 \wedge 0 \equiv 0$ aynan yolg'on.

Matematik va mantiqiy muammolarni to'g'ri hal qilishda qat'iyatlilik, mas'uliyat, aniqlik va tartib talab qilinadi.

O'quvchilar bu matematik masalalarni qanchalik muntazam yechsa, ularning dunyo qarashi kengayib boradi , hayoti davomida uchraydigan muammolarni vazminlik bilan keng mulohaza yuritib ijobiy xal etadi.

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston respublikasi prezidentining "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4708 07.05.2020 qarori.

2. O'zbekiston respublikasi prezidentining qarori "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-4387 09.07.2019 qarori.

3. O'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi.

4. To'rayev H. Matematik mantiq va diskret matematika. Toshkent "O'qituvchi" . 2003 yil.

5. Roziqov U.A., Mamatova N.H. Matematika va turmush. Toshkent- 2020.

6. Mizaahmedov M.A., Ismailov Sh.N., Amanov A.Q. Matematika 10-sinf darslik I qism. Toshkent-2017.

ТЕХНОЛОГИЯ МАШГУЛОТЛАРИДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ҚўЛЛАШНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.83.76.005>

Аскарлов Аброр Давлатмирзаевич,

*Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент.
Термиз давлат университети, Таълим сифатини назорат қилиш бўлими
бошлиғи.*

Аннотация: Мақолада технология таълими машгулотлари жараёнида ахборот технологияларини қўллаш ўрни ва аҳамияти мантиқий кетма-кет, изчил, узлуксиз, узвий ёритилган.

Таянч сўзлар: технология, жараён, имконият, умумқасбий, дидактик имконият, педагогик фаолият, компонент, интегратив, инновация, компетенция.

ПРИМЕНЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ПОДГОТОВКЕ СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Аскарлов Аброр Давлатмирзаевич,

*доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент.
Начальник отдела контроля качества образования, Термезского
государственного университета*

Аннотация: В статье представлена логическая, последовательная, непрерывная, углубленная дискуссия о роли и важности использования информационных технологий в технологическом образовании.

Ключевые слова: технология, процесс, возможность, общепрофессиональный, дидактическая возможность, педагогическая деятельность, компонент, интегративность, инновация, компетентность.

APPLICATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN TECHNOLOGICAL TRAINING COMPARATIVE ANALYSIS

Askarov Abror Davlatmirzayevich,

*Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), associate Professor. Head
of the Department of Quality Control of Education, of Termez State University*

Abstract: The article presents a logical, consistent, continuous, in-depth discussion about the role and importance of using information technology in technological education.

Keywords: technology, process, opportunity, general professional, didactic opportunity, pedagogical activity, component, integrativity, innovation, competence.


Технология таълими жараёнида ахборот технологияларини қўллашнинг ўрни ва аҳамиятини изоҳлаб бериш, бўлажак технология таълими ўқитувчисини тайёрлашда умумқасбий фанларни ахборот технологиялари асосида ўқитишнинг дидактик имкониятлари, замонавий ўқитиш технологиялари ва воситалари асосида умумқасбий тайёргарлик фанларини ўқитишнинг концептуал асослари, умумқасбий тайёргарлик фанларини ўқитишда бўлажак технология таълими ўқитувчисини касбий тайёрлаш мазмуни ва унинг мантиқий-тузилмавий схемаси изоҳлаш таълим самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Ўқувчиларни ўқитишда ахборот технологияларидан фойдаланишга касбий тайёрлашнинг асосий йўналишлари аниқланди ва модели ишлаб чиқилди: ўқувчиларни педагогик фаолият жараёнида ахборот технологияларидан фойдаланишга тайёрлаш ҳолати ўрганилиб, уларнинг технология таълими жараёнида ўқитишнинг ахборот технологияларини қўллаш кўникмалари таъхис қилинди.

Педагогик адабиётлар таҳлили асосида ва ўқувчининг касбий фаолиятида ахборот технологияларидан фойдаланиш талабларидан келиб чиққан ҳолда, тадқиқот давомида куйидаги мезонлар ажратиб кўрсатилди: мотивация ва касбий фаолиятда ахборот технологияларидан фойдаланиш бўйича билимларнинг эгалланганлик даражаси; ўқувчи ўқув фаолиятида ахборот технологияларидан фойдаланишда ижодкорлик кўникма ва малакаларнинг шаклланганлик даражаси.

Технология таълими ўқитувчиларини тайёрлашда ахборот технологияларидан фойдаланишнинг педагогик тузилмаси қиёсий таҳлили схемаси ишлаб чиқилди (1-расм).

Технология таълими ўқитувчисини ахборот технологиялари асосида тайёрлаш педагогик тузилмасининг мақсад компоненти (жамиятнинг рақобатбардош технология таълими ўқитувчисини тайёрлашга ижтимоий буюртмасига кўра, Ўзбекистон Республикаси олий касбий таълимнинг ДТСлари асосида технология таълими ўқитувчисини ахборот технологиялари асосида тайёрлаш ва натижасини аниқлаш, ташкилий компоненти (вазифалар, таълим усуллари, таълим шакллари ва таълим тамойилларини аниқлаш ва ишлаб чиқиш), мазмуний компоненти (“Халқ хунармандчилиги” фани бўйича ишлаб чиқилган дастурлар асосида – инновацион, компетенциявий, интегратив, шахсий-фаолиятли ёндашувларни қўллаб, амалий машғулотларни ташкил этиш орқали бўлажак технология таълими ўқитувчиларида фаолияти вариативлиги, субъективлиги, ижодий индивидуаллигини, шахсий имкониятларни ривожлантириш), натижа компоненти (бўлажак технология таълими ўқитувчиларини ахборот технологиялари асосида тайёрлаш натижаларини аниқлаш) дан иборат.



1-расм. Ахборот технологиялари асосида ўқувчиларнинг тадбиркорлик компетентлигини тайёрлашнинг қиёсий таҳлили

Илмий-тадқиқот ишларини ўрганиш натижасида амалий педагогик тажрибадан келиб чиқиб, бўлажак технология таълими ўқитувчиларини тайёрлашда ИТлардан фойдаланишнинг педагогик тузилмаси схемаси ва натижасини ташхис қилиш модели ишлаб чиқилди.

Бўлажак технология таълими ўқитувчиларини ахборот технологиялари асосида тайёрлаш турли даражадаги вазифаларни бажариш орқали амалга оширилди [4,55]. Вазифаларни бажаришда фаолиятнинг хусусиятига қараб, ахборот технологиялари асосида касбий, педагогик кўникма ва малакаларни ривожлантиришнинг тўрт (интуитив, репродуктив, репродуктив-ижодий, иждодий) даражаси белгиланди.

Бўлажак технология таълими ўқитувчиларини ахборот технологиялари асосида тайёрлашнинг педагогик тузилмаси илмийлик, узвийлик, кетма-кетлик, кўргазмалилик, фаоллик, фанлараро алоқадорлик тамойилларига асосланган, шунингдек, таълим натижасини аниқлаш учун баҳолаш мезонлари аниқланиб олинди. Эксперт баҳолаш мезонларини белгилаш ва уларнинг объективлик, интегративлик, қайтар алоқа ўрнатиш, психологик мослашувчанлик каби ташкилий-функционал имкониятларини тизимлаштириш орқали бўлажак технология таълими ўқитувчиларининг касбий фаолиятга тайёргарлик даражасини педагогик ташхис қилиш методлари (дарсни специфик таҳлил қилиш, иждодий топширик, амалий ишлар) такомиллаштирилди.

Ўқувчиларда касбий билим, кўникма ва малакаларни ахборот технологиялари асосида шакллантириш жараёни вазиятни яратишда мазкур педагогик жараён иштирокчилари, яъни бўлажак технология таълими ўқитувчилари фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари, унинг таркибий қисмлари мазмуни, компьютерни ўқувчининг фаолият объекти сифатида жалб этиш ҳолатлари кузатилди. ахборот технологиялари асосида ўқитишда ўрганилаётган педагогик ҳодиса ёки жараённинг ахборот модели ўқувчи фаолиятининг объекти ҳисобланади.

Ўқувчиларда билим, кўникма ва малакаларни ахборот технологиялари асосида шакллантириш педагогик таъминотининг зарурий шarti педагогнинг мазкур жараёнга тайёрлиги ҳисобланади. Ўқитувчи халқ хунармандчилиги ўқув фанини ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда ўрганиш асосига методик тизим билим, кўникма ва малакаларни шакллантириш дастурига эга бўлиши керак.

Умумтаълим мактаблари технология таълими йўналишлари битирувчилари Малака талаблари ва уларнинг касбий-педагогик тайёргарлик даражаларини ташхислашнинг таҳлилий, лойиҳалаш ва педагогик прогностик компонентлари функцияларини интегратив мувофиқлаштириш асосида бўлажак технология таълими ўқитувчиларини ахборот технологиялари асосида тайёрлашнинг концептуал асоси мазмуни такомиллаштирилди.

Адабиётлар:

1. Сотиболдиев З.Ш. “Дизайн асослари”. -Т.: “Иқтисод-молия”. 2008.Б.22
2. Стефановская Т.А. Педагогика: наука и искусство. –М.: Издательство “Совершенство”. -1998. С.19
3. Ҳабибулло Солих. Рамзий безаклар маъноси. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2003. №3. Б.21
4. Ходжабоев А.Р. Научно-педагогические основы учебно-методического комплекса подготовки учителя труда. Автореф. дисс...д-ра пед. наук. –Т.: 1992. С.55
5. Нишаналиев У.Н. Формирование личности учителя трудового обучения: проблемы и перспективы. –Ташкент: Ўқитувчи, 2000. С.198
6. Shomirzayev, M.Kh. (2019). The ethical characteristics of traditional embroidery of Fergana valley people. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 7 (12). - P. 58.
7. Shomirzayev, M.Kh. (2019). Ethnic peculiarities of artistic embroidery of



the peoples of the Ferghana valley. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 7 (12). -P. 967.

8.Shomirzayev, M.Kh. (2019). Local features of the traditional embroidery of the Ferghana valley. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 7 (12). -P. 971.

9.Shomirzayev, M.Kh. (2020). Education is personally focused technology. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (8), Part. 95.

10.Shomirzayev, M.Kh. et al. (2020). National handicrafts of Uzbekistan and its social – economic significance. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (8), Part III. 135.

11.Shomirzayev, M.Kh. (July, 2020). Technology of Educational Process in School Technology Education. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*. Impact Factor 5.366. -№ 02. -P. 217. (www.usajournalshub.com/index.php/tajssel).

12.Shomirzayev, M.Kh. (30 July, 2020). Developing Educational Technologies in School Technology Education. *The American Journal of Social Science And Education Innovations*, Impact Factor 5.26. -P.II/VII 55. (www.usajournalshub.com/index.php/tajet).

13.Shomirzayev, M.Kh. The Concept Of Pedagogical Technology And Basic Principles. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. (Affiliated to Kurukshetra University, Kurukshetra, India), Vol. 10, Issue 11, November 2020 *Scientific Journal Impact Factor (Sjif 2020-7.13)*. -Part 1561. (<https://saarj.com>)

14.Shomirzayev, M.Kh. (2020). Ethnic characteristics of national traditional crafts. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (12). - P. 221.

15.Shomirzayev, M.Kh. (2020). “Technology” In Secondary Schools Organization of Science Classes. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, Impact Factor 5.525 (11). -P. 401. (www.usajournalshub.com/index.php/tajet).

**УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИ ЎҚУВЧИЛАРИДА ХАЛҚ
ХУНАРМАНДЧИЛИГИГА БЎЛГАН ПСИХОЛОГИК-ПЕДАГОГИК
ИМКОНияТЛАР**

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.86.41.080>

*Аскарлов Абров Давлатмирзаевич,
Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент.
Термиз давлат университети, Таълим сифатини назорат қилиш бўлими
бошлиғи.*

Аннотация. Мақолада мактаб ўқувчиларида халқ хунармандчилигига бўлган психологик – педагогик имкониятлар баён этилган.

Таянч сўзлар: хунарманд, безак, назария, амалиёт, каштачилик, даража, касбий фаолият, омил, композиция.

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ
ДЛЯ НАРОДНЫХ ПРОМЫСЛОВ У УЧАЩИХСЯ СРЕДНЕЙ ШКОЛЫ**

*Аскарлов Абров Давлатмирзаевич,
доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент.
Начальник отдела контроля качества образования
Термезского государственного университета.*

Аннотация. В статье описаны психолого-педагогические возможности школьников в народных промыслах.

Ключевые слова: мастерство, декорирование, теория, практика, вышивка, диплом, профессиональная деятельность, фактор, композиция.

**PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR FOLK
CRAFTS IN STUDENTS OF SECONDARY SCHOOLS**

*Askarov Abror Davlatmirzayevich,
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), associate Professor. Head
of the Department of Quality Control of Education
of Termez State University.*

Abstract. The article describes the psychological and pedagogical capabilities of schoolchildren in folk crafts.

Key words: craftsmanship, decoration, theory, practice, embroidery, diploma, professional activity, factor, composition.

Бугунги глобаллашув даврида замонавий психология ва педагогика узлуксиз таълим тизимида ўқитиладиган барча фанларга янада кенг кириб бормоқда, бу эса умумтаълим мактабларида ўқитиладиган каштачилик соҳасига ҳам тааллуқли бўлиб, ўқувчининг таълим жараёнида ижодий фикрлаши, ўрганган нарсаларини амалиётга татбиқ қилишига кенг йўл очмоқда. Умумтаълим мактабларига илк бор қадам қўйган ва каштачилик сирларини ўрганишни бошлаган ўқувчи нақш элементларининг шакли, унинг композицион тузилиши хусусиятларини, Шарқнинг буюк хунарманд ва усталарининг ижодларини кузатиб, ўрганиб олади. Халқ хунармандчилигини ўрганиш умумтаълим мактаблари ўқувчиларида бадиий-эстетик дидни, меҳнатсеварликни ривожлантиришга ва қатор фойдали кўникма ва малакаларни ҳосил қилишга хизмат қилади, уларнинг ижодий қобилиятларини аниқлаш ва ўстиришга ёрдам беради.

Ўқувчилар бу соҳани мукамал эгаллашлари учун, энг аввало, халқ хунармандчилиги жараёни билан яқиндан танишишлари мақсадга мувофиқ.

Умумтаълим мактабларида амалий ва бадиий безак санъатини ўқитишнинг ахволини ўрганиш билан бирга уни амалиётда қўллаш методикаси тажриба-синов ишлари жараёнида амалга оширилади. Ташкилий ва методик тайёргарлик ишларини бажариш мақсадида тажриба-синов ишларининг самарасини кафолатлайдиган режа ишлаб чиқилди. Бунда тажриба-синов ишларини сифатли амалга оширишга имкон берадиган тажриба-синов майдонлари, бу жараёнда иштирок этувчи синов ва назорат синфлари белгиланди ҳамда тажриба-синовга тақдим этиладиган дидактик мажмуа (дарс ишланмалари, ўқитувчилар учун методик кўрсатмалар, анкеталар ва ҳ.к.) ишлаб чиқилди.

Умумтаълим мактаблари ўқитувчилари нафақат фан асосларини, балки АТларини ҳам эгаллаган бўлишлари, ўзларининг педагогик маҳоратларини тўхтовсиз ошириб боришлари талаб этилади. Ана шу мақсадда:

ўқитувчиларнинг халқ ҳунармандчилигидан назарий ва амалий машғулотларни ўтишда ахборот технологияларининг таълим тараққиётида ҳаракатланувчи куч эканлиги;

замонавий педагогик технологияларнинг тарихий тараққиёт босқичлари; хорижий мамлакатлар таълим тизимида қўлланиб келинаётган интерфаол методлар;

замонавий педагогик технологияларнинг амалий санъат машғулотларида қўлланиш имкониятлари;

халқ ҳунармандчилиги машғулотларида ахборот – коммуникация технологиялари имкониятларидан самарали фойдаланиш, уни амалиётда қўллаш йўллари;

ўқувчиларнинг билими, кўникма ва малакалари ҳамда ижодий иш натижаларини назорат қилиш ва баҳолаш йўналишлари бўйича билимларини аниқлаш зарур.

Маълумки таълим самарадорлигига эришиш йўлида ўқитувчи ўқувчиларнинг билим олиш мотивларига бефарқ қараши асло мумкин эмас. Чунки билим эгаллашга бўлган муносабат ўқувчининг танланган касбига бўлган қизиқиши билан уйғунлашиб кетади. Шунга кўра, ўқувчининг халқ ҳунармандчилигига бўлган қизиқиш мотивларига асосий эътибор қаратилди.

Тажриба-синов жараёнида ўқувчининг нақш композициялари тузиш учун дастлабки билими, кўникма ва малакаларини билиш мақсадида ўтказган суҳбатларимиз ва анкета саволларидан олган жавобларидан маълум бўлдики, деярли 75 % ўқувчида келажакда каштачилик санъатини эгаллаш хоҳиш-истаклари мавжуд.

Психологик жиҳатдан ўқувчиларда каштачилик санъатини ўрганишга бўлган қизиқишни шакллантиришда мустақил билимларни ўзлаштириш, ижодий фаолиятга киришиш, нақш композицияларини тузишда мантикий фикрлаш, қўйилган муаммо ечимини топишга ўргатиш кабилар муҳим ҳисобланади. Бунда ўқувчиларда мустақил таълим эгаллаш йўлида ўз олдига янги талаблар қўя бошлайди. Бу жараён ўз-ўзини тарбиялаш заминиде амалга ошади. Ана шунда таълим ижтимоий бурч даражасига кўтарила боради [3,96]. Чунки таълим ўқувчини меҳнатга, касбий фаолиятга тайёрловчи омил вазифасини бажаради.

Тадқиқий кузатувлар асосида ўқувчиларнинг дастлабки бир ой давомидаги каштачилик санъатига бўлган қизиқиш мотивларини алоҳида ўрганиб чиқдик. Бу жараён икки йўналишда ўз ифодасини топди. Биринчиси – “янги жамоа”ни аста-секинлик билан ўзаро танишуvidан иборат бўлиб, “жамоа” орасида фаолларнинг кўзга ташланиши, айниқса, амалий санъат сирларидан тўла ёки бир оз хабардор бўлган ёш йигит ва қизлар оз бўлса-да, ўзларининг мазкур соҳа борасида амалий тажрибалари билан ажралиб турганлар, иккинчиси кимнингдир маслаҳатига кўра, ўқишга қабул қилинган ўқувчиларнинг таълим жараёнидаги фаолиятлари ўрганилди.

Олиб борилган тадқиқий кузатувлар ижтимоий долзарб масалани талаблар даражасида эмаслигини кўрсатди. Бундай ёндашув асосида салбий омилларнинг шаклланиши ўқувчида дастлабки нотўғри тушунчаларни келтириб чиқариши мумкин.

Ҳозирги ёшларнинг илмий ва ижодий дунё қараши анча кенг бўлиб, буни уларнинг келажакда ким бўлиш ва касб танлаш мотивларидан ҳам билса бўлади. Айниқса, жамиятга фойда келтириш, танлаган касби бўйича уни давом эттириш, ўрганган касбини ёшларга ўргатиш, жамиятда шаклланиб келаётган ёшларнинг амалий санъатга бўлган қизиқишини ўз вақтида аниқлаб, унга тегишли ёрдам ва шарт-шароитлар яратиб бериш, ҳозирги куннинг муҳим вазифаларидан ҳисобланади.

Халқ ҳунармандчилиги турларини мукамал эгаллаган шахснинг шарафли, масъулиятли ва жамият ривожига тугган ўрнини англаб етган шахс келажакда адашмайди [2,112]. Чунки у жамиятнинг ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, маданий ва маърифий-тарбиявий ривожига ўсиб келаётган авлод қўлида эканлигини касб бурчи нуқтаи назардан таҳлил эта олади. Айниқса, ҳаётимни халқ ҳунармандчилигига бағишлаш орзусидан деган ёшлар халқ санъатини ривожлантиришдек эзгу ишга ўз ҳиссаларини қўшиш истагида эканликларини билдиришдилар.

Тадқиқий кузатувларимизнинг кўрсатишича, юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, умумтаълим мактабларида қуйидаги вазифаларнинг ҳал этилиши биринчи даражали аҳамият касб этади:

ўқувчиларнинг касб танлашида методик кўрсатма ва маслаҳатлар беришни кучайтириш;

фан ўқитувчиларининг амалий санъатдан ўқув-методик ишларини режалаштириш;

таълим жараёнининг илғор усулларидан, ўқитишнинг ташкилий шакллари ва воситаларидан оқилона фойдаланиш асосида ёшларга каштачилик санъатидан таълим беришнинг замонавий усулларини ишлаб чиқиш;

таълим-тарбия жараёнининг мантиқий уйғунлигини ошириш, амалий санъат дарслари дастурий материалларнинг такрорланишига йўл қўймаслик, унинг кетма-кетлиги, изчиллиги, узлуксизлиги ҳамда узвийлигини бўлажак каштачи усталарнинг назарий билими, амалий кўникма ва малакаларини шакллантириш нуқтаи назардан таъминлаш;

бўлажак халқ ҳунармандчилиги усталарининг мустақил билим олиш фаолиятига методик раҳбарлик қилишни режалаштириш, такомиллаштириш, ташкил этиш ва назорат қилишнинг оқилона шакллари ишлаб чиқиш;

таълим жараёнини зарур жиҳозлар, жумладан, техник ва кўргазмали воситалар, шунингдек, нақш композицияларини ишлашда компьютер дастурларидан фойдаланишни йўлга қўйиш;

умумтаълим мактабларининг халқ ҳунармандчилиги машғулотларида ўқувчиларнинг онги ва тафаккурини ривожлантириш, назарий билими, амалий кўникма ва малакаларини ҳосил қилиш, фуқаролик бурчи ва мажбуриятини англаб етишни ўргатиб боришда таълим-тарбиянинг турли метод ва воситаларидан кенг фойдаланишни назарда тутати.

Ҳар бир дарс аниқ мақсадни кўзлаган ҳолда, пухта режалаштирилган бўлиши лозим [1,54]. Унинг таълимий ва тарбиявий аҳамияти, дарс босқичлари, кўргазмали материаллардан фойдаланиш, ғоявий, мафкуравий мазмунига мос келиши, назариянинг амалиёт билан боғлиқлиги, кўргазмали воситалар билан жиҳозланиши, ўзига мос усул, метод ва воситалардан самарали фойдаланилган ҳолда ташкил этилиши, ўқитувчи ва ўқувчининг ўзаро фаол муносабатда бўлиши ҳисобга олиниши зарур.

Ўқувчиларни каштачилик санъатига ўргатишда таълимнинг замонавий методларидан фойдаланишга муҳим аҳамият берилган. Ўқувчиларда ўтилаётган

мавзуга нисбатан қизиқиш уйғотиш, назарий билим, амалий кўникма ва малакаларни шакллантириш, мавзуга оид тарқатилган материалларни якка ва гуруҳ ҳолида ўзлаштириб олишлари учун суҳбат-мунозара ташкил этиш, тарқатма ва дидактик материаллар тайёрлаш кабиларнинг бир мақсадга йўналтирилган, олдиндан пухта лойиҳалаштирилган ва қафолатланган натижа беришга қаратилган педагогик жараёнлар ишлаб чиқилган бўлиши керак.

Адабиётлар:

1. Сотиболдиев З.Ш. “Дизайн асослари”. -Т.: “Иқтисод-молия”. 2008.Б.54
2. Стефановская Т.А. Педагогика: наука и искусство. –М.: из-во “Совершенство”. -1998. С.112
3. Толипов Ў.Қ., Шарипов Ш.С., Исламов И.Н. Ўқувчилар дизайнерлик ижодкорлиги. –Тошкент: “Фан”, 2006. Б.96
4. Ҳабибулло Солих. Рамзий безаклар маъноси. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2003. №3. Б.34,356
5. Ходжабоев А.Р. Научно-педагогические основы учебно-методического комплекса подготовки учителя труда. Автореф. дисс...д-ра пед. наук. –Т.: 1992. С.42
6. Нишаналиев У.Н. Формирование личности учителя трудового обучения: проблемы и перспективы. –Ташкент: Ўқитувчи, 2000. Б.312
7. Шомирзаев М.Х. Ўзбек каштадўзликнинг шаклланиш генезиси ва ривожланиш технологияси // Муғаллим ҳем узлуксиз билимлендириў. –Нукус, 2019. – 5-сон. – Б. 73-82.
8. Шомирзаев М.Х. Ўқувчиларда халқ миллий ҳунармандчилиги касбларига қизиқишни шакллантиришда таълим технологияларидан фойдаланиш // Қорақалпоқ давлат университетининг хабарномаси. – Нукус, 2019. – 4 (45)-сон. – Б. 98-102 .
9. Шомирзаев М.Х. Анъанавий каштадўзликда маҳаллий жиҳатлар // Илм сарчашмалари. – Урганч, 2019. – 8-сон. – Б.140-144.
10. Shomirzayev, M.Kh. et al. (2020). National handicrafts of Uzbekistan and its social – economic significance. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (8), Part III. 129-138.
11. Shomirzayev, M.Kh. (July, 2020). Technology of Educational Process in School Technology Education. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*. Impact Factor 5.366. -№ 02. -P. 212 - 223. (www.usajournalshub.com/index.php/tajssel).
12. Shomirzayev, M.Kh. (30 July, 2020). Developing Educational Technologies in School Technology Education. *The American Journal of Social Science And Education Innovations*, Impact Factor 5.26. -P.II/VII 51 - 57. (www.usajournalshub.com/index.php/tajet).
13. Shomirzayev, M.Kh. The Concept Of Pedagogical Technology And Basic Principles. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. (Affiliated to Kurukshetra University, Kurukshetra, India), Vol. 10, Issue 11, November 2020 *Scientific Journal Impact Factor (Sjif 2020-7.13)*. -Part 1554 - 1563. (<https://saarj.com>)
14. Shomirzayev, M.Kh. (2020). Ethnic characteristics of national traditional crafts. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (12). - P. 216-225.
15. Shomirzayev, M.Kh. (2020). “Technology” In Secondary Schools Organization of Science Classes. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, Impact Factor 5.525 (11). -P. 395-405. (www.usajournalshub.com/index.php/tajet).

СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИ ОИЛА ФАРОВОНЛИГИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ СИФАТИДАDOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.27.84.079>

Ахмедов Бахтиёр Турсунович,
Термиз давлат университети Педагогика институти “Психология”
кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация: Оила муқаддас қўрғон бўлиб, уни асраб-авайлаш орқали икки ёш давлат тараққиётига ҳисса қўшади. Зеро, муҳтарам юртбошимиз Ш.М.Мирзиёев оила жамият асоси, деб бежиз айтмаган. Ёшлар бу илоҳий масканга қадам қўяр экан, ўз зиммасига олган муҳим масъулиятни англаб етар экан, оилада тинчлик-осойишталик, фаровонлик таъминланиб, беҳуда сабабларга кўра бўлаётган ажримлар сони камаяди. Бунинг сабаби шундаки, оиладаги тинчлик-тотовлик, ўзаро ҳурмат, яъни соғлом психологик муҳит эр-хотин ўртасидаги муносабатларга боғлиқ. Ўзбекистонда ҳам бу масалага алоҳида эътибор қаратилиб, унинг аҳамияти таъкидланмоқда. Қуйида оила пойдевори, унинг аҳамияти, бу муқаддас жойни асраб-авайлаш ва мустаҳкамлаш учун нима қилиши кераклиги ҳақида батафсил маълумот берилган.

Калит сўзлар: мутафаккирлар таълимотида оиланинг ривожланиши динамикаси, оилавий психологик муҳит, маънавий ва моддий фаровонлик, этно-психологик хусусиятлар.

ЗДОРОВЫЙ ОБРАЗ ЖИЗНИ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР СЕМЕЙНОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ

Ахмедов Бахтиёр Турсунович,
Старший преподаватель кафедры «Психология» Педагогического
института Термезского государственного университета

Аннотация: Семья является священной крепостью и способствует развитию двух молодых государств, сохраняя ее. Неслучайно уважаемый глава нашего государства Ш.М. Мирзиёев сказал, что семья - это основа общества. По мере того, как молодые люди входят в эту божественную обитель и осознают важную ответственность, которую они взяли на себя, в семье будут обеспечены мир и процветание, а количество разводов, прерванных по ранним тщетным причинам, уменьшится. Причина этого в том, что от взаимоотношений пары зависит мир и согласие в семье, взаимоуважение, то есть здоровая психологическая среда. В Узбекистане этому вопросу также уделяется особое внимание и подчеркивается его важность. Ниже приводится подробное описание основы семьи, ее важности и того, что необходимо сделать, чтобы сохранить и укрепить это святилище.

Ключевые слова: динамика развития семьи в учениях мыслителей, семейная психологическая среда, духовное и материальное благополучие, этнопсихологические характеристики.

A HEALTHY LIFESTYLE AS AN IMPORTANT FACTOR OF FAMILY WELL-BEING

Akhmedov Bakhtiyor Tursunovich,
Senior teacher, Department of “Psychology”, Pedagogical Institute of
Termez State University

Abstract: The family is a sacred fortress and contributes to the development of the two young states by preserving it. After all, our esteemed head of state Sh.M.Mirziyoev did not say in vain that the family is the basis of society. As young people realize the important responsibilities they take on as they step into this divine home, peace and prosperity will be ensured in the family and the number of divorces that are broken for early vain reasons will be reduced. The reason for this is that the peace and harmony in

the family, mutual respect, that is, a healthy psychological environment depends on the relationship between the couple. This issue is also given special attention in Uzbekistan and its importance is emphasized. The following is a closer look at the foundation of the family, its importance, and what needs to be done to preserve and strengthen this sanctuary.

Keywords: in the teachings of thinkers development dynamics of families, family psychological environment, spiritual and material well-being, ethno-psychological characteristics.

«Оила кичик ватан, оила тинч бўлса,
бахтли бўлса, ватан тинч бўлади»

Ш.Мирзиёев

Маълумки, жамиятимизда инсон саломатлиги унинг жисмоний ва рухий баркамоллиги оиладаги соғлом турмуш тарзининг таркиб топганлиги, оилавий муносабатларда ўзбекона маданиятнинг мавжудлиги ва миллатга хос муҳим ижтимоий қадриятларнинг шаклланганлиги каби жиҳатларга беъвосита боғлиқ ҳисобланади. Миллат саломатлигини таъминлаш, халқ генофондини бекаму-қўст сақлаш масаласи, оилада шакллантирилган соғлом турмуш тарзи туфайлигина етарлича ижобий тарзда ҳал этилиши барчамизга бирдек маълум. Шундай экан, мазкур мавзу жамиятнинг барча ижтимоий институтлари, хусусан оила, ўқув-тарбия масканлари ҳисобланган мактаб ва маҳалла олдида янада муҳим бўлган жамиятимиз фуқароларига соғлом турмуш тарзи мазмуни ва моҳиятини англайтиш, ёшларни руҳан тетик, маънан билимдон ва баркамол шахс сифатида катта ҳаётга йўллаш масалаларини кўндаланг қилиб кўймоқда.

Шу боисдан ҳам мамлакатимизда оилалар мустаҳкамлигини таъминлаш, уни моддий ва маънавий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири этиб белгиланган. Президент Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек, «Биз учун муқаддас бўлган оила асосларини янада мустаҳкамлаш, хонадонларда тинчлик-хотиржамлик, аҳиллик ва ўзаро ҳурмат муҳитини яратиш, маънавий-маърифий ишларни аниқ мазмун билан тўлдиришдан иборат бўлмоғи зарур. «Оила мен учун муқаддас. Муқаддаслиги шуки, авваламбор қаерда ишлашидан қатъи назар, ким бўлишидан қатъи назар агар оилада тарбия, оилада муҳит, оилада ҳалоллик, муносабат, тарбияга алоҳида эътибор бермаса, ҳеч қачон натижа бўлмайди.

Шу муносабат билан биз мушоҳада юритмоқчи бўлган мавзу бугуннинг ўзига хос долзарб мавзулари сирасидаги психологик муаммо сифатида қаралмоқда.

Маълумки, жамиятнинг турли даврларида оила ва оилавий муносабатлар масаласи олимларнинг диққат марказида бўлиб келган. Жумладан, шарқ мутафаккирлари ва давлат арбоблари –Абу Али ибн Сино, Абу Райҳон Беруний, Юсуф Хос Ҳожиб, Амир Темур, Алишер Навоий ва бошқаларнинг асарларидаги оила-никоҳ муносабатлари, оиладаги шахслараро муносабатлар, ота-онанинг вазифалари, фарзандлар бурчи ҳақида ғоятда ибратли маслаҳат ва ўғитлар баён этилган.

Онгли оила бўлиб яшаш дунёдаги барча махлукот ва жонзотлар орасида фақат инсон зотида хосдир. Оила тарихининг Одам Ато ва Момо Ҳаводан бошлангани ривоят қилинади.

«Севги ҳам Одам Атодан қолган инсон қонида» деб ёзганда шоир

Э. Воҳидов ҳақ эди. Генетика, биология фанлари қонунларига кўра, ҳар бир инсоннинг ўзи бир олам, улар асло бири бирини такрорламайди. Ана шу бири иккинчисига ўхшамайдиган одамларнинг, яъни эр ва хотиннинг ихтиёрий иттифоқидан оила деб аталувчи янги бир олам, бу оламда ўз навбатида яна «янги одам»лар – фарзандлар вужудга келади, муҳими, фарзандлар оилавий ҳаёт мактаби орқали жамият талабларини англайди, ҳис этади.

Зардуштийликнинг муқаддас китоби «Авесто»да келтирилган оила ва

шаръий никоҳ одоблари, ота-оналар ва фарзандлар муносабати, уларнинг бурч ва вазифалари, уйланиш ва келин танлаш хусусидаги ғоятда қимматли фикрлар бугунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган. Шунингдек, «Авесто»да оиланикоҳ муносабатлари, оилавий бурч ва фарзанд тарбияси хусусида бир қатор фикрлар баён қилинган.

Оилавий муносабатлар масалаларига оид ўзининг диққатга сазовор қарашлари билан ажралиб турувчи мутафаккирлардан бири – Абу Али ибн Синодир. Алломанинг, айниқса, аёллар ҳаётда қандай бўлишлари кераклиги ҳақидаги қимматли фикрлари ҳеч қачон ўз аҳамиятини йўқотмаган.

Абу Райҳон Беруний ўз қарашларида, айниқса, хотин-қизлар тарбиясига алоҳида тўхталиб, оилада тинчлик бевосита ақлли, фаросатли, тарбияли аёллар кўлида эканлигига алоҳида урғу берган.

Юсуф Хос Ҳожиб ўзининг машҳур «Қутадғу билиг» асарида ҳам турмуш ўрток танлашда унинг қайси сифат ва фазилатларига эътибор бериш зарурлиги, инсон шахсига хос сифат ва фазилатларнинг оилавий ҳаётни бошқаришдаги роли, ўрни ва аҳамияти, эр-хотин ўзаро муносабатларининг меъёрлари, фаровон турмуш кечиришнинг муҳим шартлари ҳақида қимматли фикрлар келтирилади. Буюк саркарда Амир Темур ҳам оила қуриш масалаларига давлат юмушларидек жуда жиддий эътибор берган. Соҳибқирон, хусусан, келин танлаш ҳақида қуйидаги фикрларни билдирган: «Ўғилларим, набираларим ва яқинларимни уйлантирмоқ ташвишида келин изламоққа эътибор бердим. Бу ишни давлат юмушлари билан тенг кўрдим. Келин бўлмишнинг насл-насабини, етти пуштини суриштирдим. Хос одамлар орқали соғлиқ саломатлигини, жисмонан камолотини аниқладим. Келин бўлмиш насл-насаби, одоб ахлоқи, соғлом ва бақувватлиги билан барча қусурлардан холи бўлсагина эл-юртга катта тўй-томоша бериб, келин тушурдим». Буюк аллома Алишер Навоийнинг эр-хотин муносабатлари, бурчлари, аёллар фазилати, уларнинг оилада тутган ўрни ҳақидаги қарашлари бекиёсдир. «Маҳбубул-қулуб» асарининг «Уйланиш ва хотинлар тўғрисидаги» фаслида мутафаккир уйланиш ва унинг фойдаси, оила одоби ва оилада аёлларнинг фазилатлари ҳақида ажойиб фикрларни баён этган. Навоий аёлнинг турмушдаги ҳиссасига қуйидагича тўхталади: «Яхши хотин – оиланинг давлати ва бахти. Уйнинг озодалиги ундан, уй эгасининг хотиржам ва осойишталиги ундан дея алоҳида таъкидлаб ўтади.

Юқоридаги мулоҳазалардан кўриниб турибдики, оила ва оилавий муносабатлар, унинг фаровонлиги масаласи ўтган асрлардан бери инсоният диққат марказидаги асосий масалалардан ҳисобланади.

Мазкур масалага бугунги кун нигоҳи билан назар ташлайдиган бўлсак,

ижтимоий фанлар тизимида, хусусан Фалсафий, тиббий ва психологик адабиётларда соғлом турмуш тарзини шакллантириш, унинг таркибий жиҳатларига қаратилган ёндошувларни кузатиш имкониятининг мавжудлигини айниқса, соҳага берилаётган эътибор натижаси деб қараш ўринлидир. Натижада, ушбу масаланинг ўзига хос таркибий қисмлари ҳисобланган ижтимоий-психологик, тиббий-гигиеник, жисмоний-иктисодий каби шахснинг ўзига алоқадор мотивацион томонлари тадқиқ этилмоқда. Бироқ, соғлом турмуш тарзининг методологик муаммолари сифатида ижтимоий-психологик, тиббий-гигиеник, жисмоний-иктисодий мезонлари айрим минтақаларнинг ўзига хос иқлимий, географик шароитлари, аҳоли турмуш маданиятининг этник ўзига хос хусусиятлари етарлича ўрганилмаганлиги билан ҳам муҳимдир.

Сир эмаски, юртимизда ўтган йиллар мобайнида оила ва оилавий муносабатларда оналик ва болаликни ҳар томонлама муҳофаза қилиш, соғлом фарзандлар туғилишига эришиш, ёш авлодни маънан ва жисмонан баркамол этиб тарбиялаш борасида кенг қўламли ишлар амалга ошириб келинмоқда. Соғлом авлоднинг дунёга келиши ва вояга етиши, оилаларда соғлом психологик муҳит қарор топишининг ўзига хос хусусиятларини ўзида акс эттирган Давлат дастурларининг қабул қилинганлиги ҳам бу жараёнларнинг узвий давомийлигини таъминлаб келмоқда.

Шу ўринда қайд этиш лозимки, “Оила” маркази “Ўзбекистон миллий

энциклопедияси” билан биргаликда “Оила энциклопедияси”ни 10 минг нусада нашрдан чиқарган. Мазкур “Оила энциклопедияси”да “А”- дан то “Х” ҳарфигача бўлган оила масалалари ва жумладан, оила гигиенасига оид тушунчалар изоҳи ва ана шу тушунчалар борасидаги илмий маълумотлар берилган бўлиб, оиладаги шахслараро муносабатларнинг турлари, оилада соғлом психологик муҳитни шакллантиришда ота-оналарнинг оила бўйича ҳуқуқий, маънавий, тиббий, иқтисодий, психологик билимларини фарзанд тарбиясида қўллай олиш чоралари, соғлом ва бахтли оилани яратиш борасидаги қоидалар ва бошқа кўплаб тавсиялар берилгандир.

Оила мустақкамлигига эришишда албатта, соғлом турмуш тарзининг аҳамияти бекиёс. Соғлом турмуш тарзи - бу кундалик ҳаётда инсоннинг психологик, жисмоний, тиббий, гигиеник, маънавий ва ахлоқий қоидаларга қатъий риоя этиши демакдир. Соғлом турмуш тарзи маданиятининг асосий ўчоғи эса оила маскани саналади.

Соғлом турмуш тарзи ҳақида гап кетганда, гоҳида кўпчилик уни фақат тиббиётга алоқадор ҳодиса деб тушунадилар. Аслида қонуний турмуш қуриш, эр-хотиннинг онгли равишда бир-бирини қўллаб-қувватлаши, ҳурмат қилиши, авайлаши, фарзандлар тақдирига дахлдорлик туйғусининг борлиги ҳамда оилада соғлом психологик муҳитнинг мавжудлиги кабилар билан белгиланади.

Шунингдек, соғлом турмуш тарзининг таркибий қисми сифатида йигит ва қизларимиз ўртасида эрта турмуш қуруш ҳолатларининг олдини олиш биз сўз юритаётган мавзунинг ўзига хос долзарблигини кўрсатувчи омиллар сарасига киритилади. Турмуш қуриш ва оилавий муносабатларга ҳам жисмонан, ҳам руҳан тайёр бўлмаган қиз оилада яхши келин, яхши рафиқа ва яхши уй бекаси бўлолмаслиги турган гап, асосийси, унинг соғлом фарзандларни дунёга келтириши масаласи ҳам бир мунча таҳлика остида қолиши, атрофдаги яқин кишиларни мушкул вазиятга қолдириши табиий. Баъзида ота-онасининг раъйига ёки ўз ихтиёрига кўра эрта турмушга чиқаётган, бунинг оқибатида оила аталмиш кўрғонда яшаб кетолмай бахтини бир умрга йўқотаётган, энг ачинарлиси, эрта туғруқ натижасида ногирон бўлиб қолаётган ёш келинлар фожиасига гувоҳ ҳам бўляпти ҳаётда. Бундай мудҳиш ҳолатларнинг олдини олиш ва чек қўйиш ўз қўлимизда эканлигини афсус билан такрорлашга тўғри келади.

Оилаларимизда маънавий муҳит соғлом бўлсагина, унда соғлом турмуш тарзи қарор топиши мумкин. Афсуски, ўзбек оилалари орасида ҳам носоғлом муҳитга эга хонадонлар албатта йўқ эмас. Ақидаларимизга кўра оилавий муносабатлар ижобий ёки салбий бўлишининг сабабчиси сифатида аёлнинг оиладаги ўрни, унинг психологик саломатлик кўрсаткичи айниқса, ўз оиласини файзга тўлдириши, дилбандларига чинакам меҳр бера оладиган имкониятлар эгаси эканлиги унинг энг муҳим ўзига хос такрорланмас хусусиятларидандир.

Шуни ҳам унутмаслик керакки, оилавий муносабатларда аёл-қизларнинг спорт ва жисмоний машғулотларга бефарқ бўлиши, буларнинг натижасида “соғлом танда соғлом ақл” таркиб топтирилмас экан, том маънода улар бекалик қилаётган оиласида соғлом турмуш тарзи ҳукм суришига ўз таъсирини кўрсатишлари даргумондир. Аҳоли ўртасида спортнинг оммолашаётгани айниқса, “аёллар спрти” масалаларининг давлат сиёсати миқёсидаги масала хусусида муҳокама қилинаётганлиги айниқса, оилаларда соғлом турмуш тарзини таркиб топтиришнинг бир жиҳати эканини тушунишимиз мумкинлигини яна бир бор асослайди.

Охириги йилларда оммавий спортга, оилавий ҳамда болалар, аёллар спортга эътибор янада кучайди. “Баркамол авлод” спорт ўйинлари, “Универсиада”, “Умид ниҳоллари” мусобақалари, Республика аёллар спартакиадаси, бадий гимнастика бўйича халқаро беллашувлар ва бошқалар ўз кўлами ва халқчиллиги билан халқ эътирофини қозонди. Ушбу саъйи ҳаракатлар давлатимизнинг бу борадаги стратегик режаларни муваффақиятли амалга оширишда халқ билан ҳамжиҳат эканлигини исботламоқда. Юртимиз аёллари ва болалар спорт билан фақат ўзининг жисмоний қувватини тиклаш ва бўш вақтини мароқли ўтказиш

учун эмас, балки у орқали соғлом турмуш тарзи кенг тарғибот қилиш, маънавий ва жисмоний камолга интилиш, турли салбий таъсирлар ва зарарли одатлардан ҳалос бўлиш, кучли характерни шакллантириш учун шуғулланаётганликлари ҳар қандай тахсинга лойиқдир.

Бу каби амалга оширилаётган саъй-ҳаракатларнинг барчаси мамлакатимизда амалга оширилаётган кўплаб ижтимоий ислохотларнинг мантикий бир йўналиши бўлган соғлом турмуш тарзининг оилалар ҳаётидан муҳим ўрин эгаллашига замин яратмоқда. Албатта, бу каби ҳаракатлар халқимизнинг тиббий-психологик, репродуктив ҳамда ҳуқуқий маданиятининг оширилишига хизмат қилиб келмоқда.

Фикримизнинг давоми сифатида таъкидлаш жоизки, жамиятда соғлом оилалар сонини ошириш мақсадида қабул қилинган қарорлардан бири бу – “Никоҳланувчи шахсларни тиббий кўриқдан ўтказиш тўғрисида”ги Низомдир. Бу ҳужжат Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 25 августда қабул қилган 365 сонли қарори билан тасдиқланган. Ушбу Низомга кўра, барча барча фуқаролар никоҳдан олдин тиббий кўриқдан ўтишлари зарур. Бунда бўлажак келин-куёвлар бешта асосий хасталик – сил, тери-таносил, гиёҳвандлик, ОИТС, руҳий касалликлар бўйича текширилади. Сабаби, бу бешта касаллик бевосита наслга таъсир қилади.

Кузатишлар ва амалиёт шуни тасдиқламоқдаки, никоҳолди тиббий кўриқдан онгли равишда ўтиш, саломатликни асрашнинг айнан ўзимизга, оиламизга боғлиқ жиҳатларини билиш, болалар спорти, оилавий, оммавий спортни ривожлантириш, оилада соғлом турмуш тарзи кўникмаларини шакллантириш миллатни жипсплаштирувчи, наслни покловчи, давлатни кучли қилувчи омил сифатида баҳоланмоқда. Ўтказилган тадқиқотлар юртдошларимизда “саломатлик” кадриятига муносабатлари ижобий томонга ўзгараётганлигини исботламоқда.

Агар никоҳланувчи шахсларни тиббий кўриқдан ўтказиш натижасида уларнинг биттасида ёки ҳар иккаласида юқоридаги касаллик аниқланган тақдирда, никоҳни қайд этиш никоҳланувчиларнинг ушбу текшириш натижаларидан хабардорлиги тасдиқлангандан кейин амалга оширилади. Оила соғлом бўлиши учун аввало оилавий муносабатларнинг соғлом бўлишлиги ва узоқ умр кўришдаги роли кўпчиликка маълум. Оилани тузишда йигит учун келин, қиз учун куёв танлаш масалалари гоҳида кўпчиликнинг эътиборидан четда қолаётгандек туйилади. Сабаби ирсийлик, унинг мудҳиш оқибатлари, унинг руҳий жароҳатлари деярли бизни безовталамай қўйди. Бироқ, ҳозирги замон табобати қанчалик имкониятли ва серқирра бўлишига қарамасдан, ирсий бузилиш оқибатида нуксон билан туғилган болаларга ҳар қандай илғор даволаш усуллари, энг самарали воситалар ҳам ёрдам беролмаслигини ханузгача исботлаб келмоқда. Ҳаммамизга маълум, қариндошлар ўртасидаги никоҳдан туғилган фарзандларда кўпгина нуқсонлар яширин ҳолатда сақланиб қолади. Онанинг фарзанд кўриш орасидаги фарқ 3 йилдан кам бўлмаслиги, бўлажак она ва бола соғлигини сақлашда катта аҳамиятга эгаллиги кўп бор таъкидланади. Керакли муддат сақланмас экан, онанинг организми аввалги туғишлардан кейин қувватини тиклаб олишга улгурмайди ва аёлнинг саломатлигига путур етиш эҳтимоли баланд бўлади. Бу эса табиий равишда боланинг саломатлигига ҳам салбий таъсир кўрсатади.

Олимларнинг кузатишлари ва тадқиқотлар юртдошларимизда, айниқса, ёш келин-куёвларда хасталикларни олдини олиш ёки бемор бўлиб қолганда доридармонларни истеъмол қилишга муносабати кескин ўзгариб бораётганлигини кўрсатмоқда. Юртдошларимиз бунда энг аввало профилактик тиббиёт, яъни хасталикни олдини олиш учун соғлом турмуш тарзи қонун-қоидаларига риоя этиш, бунда соғлом фикр ва руҳий қувватдан фойдаланиш, бўлган-бўлмаган дориларни истеъмол қилавермаслик кўникмаларини эгаллаб бораётганлиги тасдиқлади. Қишлоқ ҳудудларида аҳоли турмуш тарзи яхшиланиши учун шарт-шароитларини яратиш, хусусан, янгидан-янги маиший техник шахобчаларнинг қурилишига эътиборнинг ортаётганлиги ҳам юртдошларимиз психологиясининг муҳим ўзгаришларидандир.

Бугунги кунда биз жамиятимизга нафақат жисмоний, балки руҳан, ақлан,

фикран соғлом болани тарбиялаб вояга етказишимиз лозим. Фарзандларимиз бардам-бақувват бўлиш билан бирга, шарқона ахлоқ –одоб доирасида тарбия кўрган бўлиши шарт. Соғломлик бўй билан эмас, ўй билан ўлчанади. Фарб дунёсида ҳар бир йигит ва қиз ўзи учун яшайди. Бизда эса аксинча. Фарзандларимиз ўзлари билан бирга ота–оналари, оила аъзолари, қариндош-уруғлари, бошқа яқин кишилари, жамият эл-юрт ва Ватан учун яшайди. Бизнинг миллатга, эл-у элатга ёлғизлик бутунлай ётдир. Кенгашли тўй тарқалмас, деганларидек биз ҳар қандай масалада кенгашиб-келишиб биргалашиб, кўпчиликнинг кучига таяниб яшашга ўрганганмиз. Уйлайманки, бугунда юртимиздаги бунёдкорлик, яратувчанлик, тинчлик, осойишталик, меҳр-оқибат, аҳиллик ва миллий тотувлик ана шу бирдамликнинг мевасидир. Соғлом оилада соғлом эр-хотин муносабатларидан соғлом фарзандлар дунёга келади. Қонуний никоҳ орқали вужудга келган оталик ва оналикдан жамият, давлат манфаат топади, улар олдига баркамол ва соғлом авлод яратишдек маъсулиятли вазифани қўя олади. Юртимизда никоҳ муносабатларини мустаҳкамлаш, оилавий ҳаётда рўй берадиган салбий ҳодисаларнинг олдини олиш оилада соғлом муҳитни шакллантириш, баркамол авлодни тарбиялаш борасида амалга оширилаётган ишлардан кўзланган мақсад ҳам соғлом ва мустаҳкам оила барпо этишдир.

Оиладаги психологик муҳит – жамиятдаги бошқа ҳар қандай гуруҳда бўлгани каби ўзига хос муҳим ва мураккаб жараён дир. Унда кишилар ўз ҳаётининг кўпроқ қисмини ўтказади. Улар бир-бирлари билан кўпроқ самимий туйғулар ва муносабатлар орқали боғлангандир. Оила бахтининг асосида оиланинг психологик муҳити ётади. Оиланинг психологик муҳитига эр-хотинларнинг ҳам, умуман кишиларга ҳам оила аъзоларига ва бир-бирларига бўлган муносабатлари таъсир қилади.

Сўнги вақтлардаги тадқиқот натижаларига кўра социолог-психологлар бахтли ва бахтсиз оилаларда ўзига ва хотинига бўлган муносабатларнинг хусусияларини аниқлаганлар. Улар қизиқарли фактларга эга бўлдилар. Оиладаги психологик муҳит эр-хотин қизиқишларининг умумийлиги билан характерланади, энг муҳими уларнинг иккаласи ҳам қизиқиш билан ҳисоблаша билишларида ва эътибор бера билишларидадир. Эр-хотин катта ижтимоий муаммо ва талаблар билан яшайдиган оилаларгина бахтли бўлишлари мумкин.

Маълумки, оиладаги қулай ахлоқий-психологик муҳит эр-хотин ва оиланинг бошқа аъзоларида ўзига ишониш, кишиларга ишониш, қувноқлик, вазминлик каби фазилат ва туйғуларни шакллантиришга таъсир кўрсатади. Оиладаги психологик муҳит кишиларнинг мувофиқлигида янада аниқ намоён бўлади. Кишилар бир-бирлари билан мувофиқлиги, аввало ҳаётнинг қадри, қизиқишлари, эмоционал кўрсатмаларининг умумий тарзи ҳамоханлиги назарда тутилади, натижада оилада бир-бирини тушуниш, бошқаларнинг қадрини ҳам, шунингдек инсонни қандай бўлса шундайлигича қабул қилади. Оила аъзоларида психологик қулайлик ишонччилик, ҳимояланиш, бир-бирининг муомаласидан қатноатланиш мувофиқликнинг ички субъектив кўрсаткичидир.

Дарҳақиқат, ҳар бир оиланинг соғлом бўлиши, унда ижобий психологик иқлимнинг ҳукм суриши, мана шу муҳитда дунёга келиб шахс сифатида шаклланиб, давлатининг иқтисодиёти, ижтимоий ҳаёт тараққиётини таъминлаш йўлида, иштирокчи инсон бўлиб камол топишида оиланинг тутган ўрни, аҳамияти бениҳоят каттадир.

Шу ўрнида таъкидлаш керакки, ҳозирги вақтда жамиятимиз учун, инсоният тараққиёти учун оилалар мустаҳкамлигини таъминлаш ва бу масалалар тўғри ҳал этилиши асосий йўли бўлмиш ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш масаласини ҳеч кечиктириб бўлмайдиган сусткашликка йўл қуйилмайдиган ўта жиддий эътибор талаб этувчи давлат, ҳукумати микёсидаги долзарб масаладир. Бунинг муваффақиятли амалга ошишига жамиятимизнинг ҳар бир фуқароси ўқувчилар, ота-оналар ҳамма бирдек масъулдир. Чунки инсоният тараққиёти, жамиятимиз тараққиёти шу масалани биз бугун қандай ҳал қилишимизга боғлиқдир. Соғлом турмуш тарзи оила фаровонлигининг муҳим омили мавзусида мулоҳаза юритганда

дастлаб ёшларни оилага тайёрлаш масалаларини ижобий ҳал қилиш мақсадга мувофиқдир. Чунки оилага маънавий тайёргарлик кўрсаткичи оилаларимизда соғлом турмуш тарзини таркиб топтириш асосий мезон ҳамдир. Бу эса ҳар қандай психологик келишмовчиликлар, рухий касалликлар профилактикаси ва саломатлик гарови бўлиб хизмат қилади.

Бунинг учун жамиятимизда мавжуд психолог, социолог, педагог (халқ таълими, олий таълим), маҳалла фуқаролар йиғини, маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш органи, хотин-қизлар қўмитаси, ОАВ вакиллари, тиббиёт ва ҳуқуқ соҳаси ходимлари иштирокида тегишли жойлар ва гуруҳларда оила аъзоларида учраши мумкин бўлган салбий сифатлар ёки иллатлар уларнинг соғлом турмуш тарзига таъсири масалаларида тарғибот ишларини амалга оширишлари лозим бўлади.

Қуйида оилавий муносабатларимизда соғлом турмуш тарзини таркиб топтириш масалалари сифатида қуйидагиларни келтирамиз:

Биринчидан, оилада соғлом турмуш тарзини таркиб топтириш учун, оилавий муносабатларда оила аъзоларининг вазифалари, ҳуқуқ ва мажбуриятини тушунтиришга эришиш;

Иккинчидан, оиланинг иқтисодий, репродуктив, рухий саломатлик, рекреатив ўзаро бир-бирини психологик ва жисмоний жиҳатдан қўллаб-қувватлаш ва коммуникатив функцияларидан боҳабарлигига эришиш;

Учинчидан, оилада ўзаро бир-бирларига ҳурматсизлик, оила боши сифатида эркакларда оиланинг моддий таъминотига бефарқлик ёки ишлашга қизиқмаслик каби иллатларга қарши курашишни йўлга қўйиш;

Тўртинчидан, аёл-қизларимиздаги камчилик сифатида ҳурматсизлик, уй-рўзгор ишларига, оилага эътиборсизлик, урф-одат ва анъаналарни билмаслиги ёки менсимаслигига қарши курашиш;

Бешинчидан, ёш никоҳланувчиларнинг аввало, иш билан банд бўлишга интилиши, оиласини моддий таъминлаш мақсадида ишлаш имкониятларининг бўлишига эришиш шулар жумласидандир.

Оилавий муносабатларда соғлом турмуш тарзининг гарови сифатида келтирилган муаммоли вазиятлар ечимига бориш, бу каби муаммоларни бартараф этиш юқорида таъкидланганидек, тегишли давлат органлари ва жамоат ташкилотларининг ўзаро ҳамкорликда фаолият кўрсатиши бундай муаммолар ечимининг асосий калитидир.

Хулоса қилиб айтганда, оилани асраб-авайлаш, унинг мустақамлигини таъминлаш натижасида соғлом турмуш тарзини таркиб топтиришга эришиш бугунги куннинг энг долзарб муаммоларидан ҳисобланади. Шундай экан, оилавий муносабатларда, тенг ҳуқуқлилиқни таркиб топтириш, ўзаро ҳурмат, қўллаб-қувватлаш, муомала маданиятининг шаклланиши оилавий муносабатларда соғлом турмуш тарзининг таркиб топишига хизмат қилади.

Шунингдек, соғлом турмуш тарзи қоидаларига риоя этган одам ўз оиласида, меҳнат жамоасида, умуман олганда жамиятда ўз ўрнига эга бўлиш билан биргаликда, турли мураккаб вазиятларни енгиб ўтиш, ҳаёт қийинчиликлари олдида ўзини йўқотмасликка психологик тайёр инсон сифатида ҳам ҳаракат қилади. Шундай экан, оилавий муносабатларимизда бу каби кўрсаткичларимиз билан жамиятимиз ривожига муносиб хисса қўшишимиз шубҳасиздир.

Адабиётлар рўйхати

Шоумаров Ш.Б., Шоумаров /Б. Муҳаббат ва оилавий ҳаёт. –Т.: “Ибн Сино”, 1996. –96 б.

Ғ.Б.Шоумаров, Н.А.Соғинов, Ф.А.Акрамова ва бошқалар. Оила психологияси. Дарслик. Тошкент-2010.

Соғинов Н.А. Социально-психологическое особенности удовлетворенности браком в узбекской семье. Дисс. канд. психолог. наук. –Киев.: 1990. –213 с.

«Сунани Термизий». Ҳадислар тўплами. VI жилдлик. I жилд. Таржимон М.Кенжабек(Кенжабоев М.Т.). –Т.: 1999. –668 б.

**PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARIDAN TEXNOLOGIYA FANI
MASHG'ULOTLARIDA FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.42.94.078>

*Abdusalomov Oxunjon Abdusalomovich,
Termiz davlat universiteti magistranti*

Annotatsiya. Mazkur maqola pedagogik dasturiy vositalari yaratish va undan umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fani mashg'ulotlari jarayonida foydalanishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, axborot texnologiyalari

**ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ПРОГРАММНЫХ СРЕДСТВ В ОБУЧЕНИИ ТЕХНИКЕ**

Абдусаломов Охунжон Абдусаломович.

Магистрант Термезского государственного университета

Аннотация: данная статья посвящена созданию педагогических программных средств и их использованию в процессе обучения технологии в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: система образования, информационные технологии.

**THE IMPORTANCE OF USING PEDAGOGICAL SOFTWARE TOOLS IN
TECHNOLOGY SCIENCE TRAINING**

Abdusalomov Oxunjon Abdusalomovich.

Master's degree from Termez State University

Abstract: this article is devoted to the creation of pedagogical software and its use in the process of technology science training in general secondary schools.

Keywords: education system, information technology,

Jahon ta'lim tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalarining yuksak darajada rivojlanib borayotganligining guvohi bo'lib kelmoqdamiz. Shu bois ham olimlarimiz, XXI asrni axborot texnologiyalar asri deb bejiz aytishmagan. Zamonaviy va axborot texnologiyalari kun sayin barcha sohalarida rivojlanayotgani jumladan, ta'lim sohasida ham yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish an'anaviy o'qitish usullaridan ko'ra samarali va yuqori natijalarga olib kelmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini yangi axborotlar bilan ta'minlash rivojlanib bormoqda.

Axborot texnologiyalarining yutuqlarini shaxsiy kompyuterlarning ixtiro etilishi bilan bejiz bog'lamaydilar. Buning sababi axborot texnologiyalarining maxsuli bo'lgan dasturiy vositalarga bo'lgan zaruriyat shaxsiy kompyuterlarning paydo bo'lishi natijasida ortib, kundalik ehtiyojga aylanib bormoqda. Shaxsiy kompyuterlarning o'quv jarayoniga tadbiq etilishidagi muhim yutuqlaridan biri multimedia tizimining (vositalarining) yaratilishidir. Axborot texnologiyalarining maxsuli bo'lgan dasturiy vositalarni qo'llash shaxsiy kompyuterlarning yaratilishi bilan bog'liq bo'lib, ta'lim tizimiga multimedia, ya'ni ovoz, grafika, animatsiya, video vositalarini keng masshtabda tadbiq etish imkoniyatlarini yaratdi. Bular sirasiga virtual kutubxona, virtual o'qitish texnologiyalarini keltirish mumkin[5].

Axborot texnologiyalari hisobida boshqarishni avtomatlashtirish, ish yuritish, moliya ishlarini avtomatlashtirilgan holda holda boshqarishni ta'minlash kabi ishlarni bajarish imkoniyatlari tug'ila boshladi. Bundan tashqari yangi axborot texnologiyalari (YAT) hisobida juda katta imkoniyatga ega bo'lgan muharrirlar, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qiluvchi dasturiy vositalarni keltirish mumkinki, ularning yaratilishi ta'lim

tizimida ham o'z samarasini bermoqda. Bular sirasiga Macromedia Dream Weaver, Microsoft Front Page singari HTML muharrirlari va Microsoft Word, Adobe Photoshop, Corel Draw, Macromedia Flash kabi boshqa dasturiy vositalarni keltirish mumkin. Bulardan HTML - gipermatnni belgilash tili Internet texnologiyalarida ishlash uchun yaratilgan bo'lib, uning hujjatlari (ASCII kodlarida yozilgan) oddiy matnli fayllardan iborat. Ular maxsus belgilangan kodlarni o'z ichiga oladi. HTML-hujjatlarni yaratish va tahrirlash uchun Microsoft Front Page, Macromedia Dream Weaver va shunga o'xshash bir qancha maxsus uskunaviy vositalar ishlatiladi. Bundan tashqari HTML-hujjatlarni quyidagi oddiy uskunaviy vositalardan foydalanib ham yaratish mumkin:

Microsoft Windows NotePad (блокнот), Windows Write tahrirlagichlari;

Microsoft Word tahrirlagichi, Word Perfect yoki ASCII kodida va boshqa matn rejimida ishlaydigan ixtiyoriy tahrirlagichlar.

Bundan ko'rinib turibdiki, HTML-hujjatni yaratish uchun ixtiyoriy (qandaydir) bir matnli tahrirlagich kerak.

Microsoft Windows NotePad yoki Write tahrirlagichida ishlaganda HTML-hujjat matni ko'rinishida saqlash uchun «Сохранить как» => «*.html» buyrug'idan foydalanish lozim.

Oddiy matnli fayldan HTML-hujjatlar maxsus belgilar kodi (teg) bilan farqlanadi. Bu kodlar hujjatni formatlash, tayyor maketni aniqlash, boshqa hujjatlarga ta'alluqli murojaatlarni ifodalash va boshqa ko'pgina amallarni bajaradi. HTML-kodlar odatda bosh harflar bilan yoziladi. Bu esa o'z navbatida ularni asosiy matndan oson farqlashni va tahrirlashni yengillashtiradi.

Maxsus kodlarda yozilgan HTML-hujjatning natijasini ko'rish brouzer (browser) deb nomlanuvchi dastur orqali amalga oshiriladi. HTML-hujjatlar uchun eng ko'p qo'llaniladigan brouzerlarga Internet Explorer va NetsCape Navigator-larni misol keltirishimiz mumkin. Brouzerda HTML-hujjatni tahrirlash imkoniyati yo'q bo'lib, u faqatgina namoyish etadi. Brouzerdan chiqmasdan turib, undagi buyruqlardan foydalanib, Microsoft Windows NotePad uskunaviy vositasi yordamida HTML-hujjatni tahrirlash mumkin.

HTML-hujjatlarni oddiy uskunaviy vositalar (Microsoft Windows NotePad, Microsoft Write va shunga o'xshash oddiy matn muharrirlari) yordamida maxsus belgilar kodlarini kiritib yaratish ko'p vaqtni hamda ularni juda yaxshi bilishni talab qiladi. Yana bir qiyinchilik tomoni shundaki, HTML-hujjatning dizaynini chiroyli va ob'ektlarini optimal joylashtirish uchun juda ko'p mehnat talab qilinadi.

HTML-hujjatni Microsoft Word tahrirlagichi yordamida yaratish uchun maxsus belgilar kodini qo'lda yozish shart emas. Maxsus belgilar kodini Microsoft Wordda yozgan vaqtimizda ham, u oddiy matn sifatida qabul qilinadi. Chunki Microsoft Word HTML-hujjatning kodini kiritish uchun mo'ljallanmagan. Microsoft Word tahrirlagichida HTML-hujjatni yaratish uchun to'g'ridan-to'g'ri uning natijaviy ko'rinishini, ya'ni brouzer namoyish etadigan ko'rinishini yasash va xotiraga - «*.html» formatida saqlash kerak.

HTML-hujjatni Microsoft Word tahrirlagichi yordamida yaratishning qulay tomoni natijaviy ko'rinish yasalishidir. Maxsus belgilar kodini unga mos ravishda Microsoft Wordning o'zi yaratadi. HTML-hujjatni Microsoft Word tahrirlagichi yordamida yaratishning qulay bo'lmagan tomonlaridan biri - uning diskda egallaydigan hajmining kattaroq bo'lishidir.

Maxsus yozilgan dasturiy vositalar yordamida HTML-hujjatni yaratish yoki tahrirlash katta imkoniyatlarga ega. Chunki maxsus dasturiy vositalar bir vaqtning o'zida HTML-hujjatning maxsus belgilar kodi va natijaviy ko'rinishi bilan ishlash imkoniyatini beradi. Maxsus dasturiy vositalar o'zlarining imkoniyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Maxsus dasturiy vositalar yordamida yaratilgan HTML-hujjatning diskda egallaydigan hajmi birmuncha kichik bo'ladi. Bu esa uni brouzerda namoyish etish uchun qulay bo'lib, unda tashkil qilingan ichma-ich giper murojaatlar boshqa

каталогларга ko'chirilgan vaqtda ham bexato ishlaydi.

HTML-hujjatlarga tasvirlarni o'rnatishda birinchi navbatda ularning formatiga e'tibor berish lozim. Har xil formatdagi tasvirlar turlicha sifat va hajmga egadir. Masalan, BMP (Bit Map Page) formatli tasvirlar yuqori sifatga ega bo'lishiga qaramasdan diskda katta joy egallaydi. JPEG (Joint Photographic Expert Group) formatli tasvirlar sifat darajasi BMP-ga yaqin bo'lib, undan deyarli ikki marta kamroq hajmga ega. GIF (Graphic Interchange Format) formatli tasvirlar juda kam hajmga ega bo'lib, faqat uning tasvir sifati BMP va JPG-ga qaraganda ancha past. Bundan tashqari bu tasvirlarning sifati qaysi grafik tahrirlagichda qayta ishlanganligiga ham bog'liq.

HTML-hujjatni chiroyli ko'rinishda rasmiylashtirish uchun animatsiya (tasvirga kiritilgan harakat)lardan foydalaniladi. Animatsiyalar ham xil formatlarga ega bo'lib, hozirda oddiy va ko'p qo'llaniladiganlaridan biri GIF formatli animatsiyadir. GIF animatsiyalarni yaratish uchun bir qancha maxsus dasturiy vositalardan foydalanishadi. Masalan, Ulead Cool 3D, Ulead Gif Animator, Macromedia Flash va boshqalar. Animatsiyalar yaratishda bu dasturiy vositalarning har birini o'ziga xos o'rni bor. Matnlarni animatsiya qilishda Ulead Cool 3D, Ulead Gif Animator dasturiy vositalari katta imkoniyatlarga ega bo'lib, bu dasturiy vositalarda barcha animatsiyalarning namunasi va ularning matn kiritish maydoni beriladi. Matnni kiritgandan so'ng kerakli animatsiya tanlanadi.

Tasvirlarni animatsiya qilishda Macromedia Flash eng yaxshi dasturiy vositalardan biridir. Bu dasturiy vosita yordamida nafaqat GIF, balki SWF va video (avi) formatli animatsiyalarni ham yaratish mumkin. Ahamiyatli tomonlaridan biri shundaki, animatsiyalarni ixtiyoriy formatlarda saqlash mumkin. Macromedia Flash birinchi navbatda animatsiyani FLA formatida saqlaydi. Bu formatdagi animatsiya faqatgina Macromedia Flash muhitida ishlaydi. Bu formatning foydali tomoni shundaki, ixtiyoriy vaqtda animatsiyani qayta tahrirlash mumkin.

Chunki SWF va video formatda saqlangan fayllarni tahrirlab (o'zgartirib) bo'lmaydi. Macromedia Flash dasturiy vositasida animatsiyalarni HTML formatida chop etish mumkin, uning bazasi sifatida SWF formatli fayl yaratiladi. SWF formatdagi animatsiyalar boshqalariga nisbatan hajmi kattaroq bo'lib, ularga tovush, musiqalarni kiritish imkoniyati mavjud va shuning bilan bir qatorda ularni boshqarishni ham ta'minlash mumkin. HTML-hujjatlarda video fayllarni animatsiya sifatida ishlatish mumkin, lekin video fayllar juda katta o'lchamga ega bo'ladi. Bu esa, HTML-hujjatni brouzerda namoyish etish uchun ko'proq vaqt talab qilinadi! - degani. Macromedia Flash ikki o'lchamli animatsiyalarni yaratuvchi eng yaxshi vositalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Ўзбекистон Республикаси Кадрлар тайёрлаш миллий дастури, 29 август, 1997 йил.

Аҳмедов А., Тайлоков Н.И., “Информатика”. Тошкент “Ўзбекистон” 2001 йил.

Мингбоев Н.С., Жуманов И.И., “Информатика”. Самарқанд: СамДУ нашри. 2002 йил.

Шомирзаев М.Х. Технология фанини ўқитиш жараёнида интерфаол методлардан халқ хунармандчилигида фойдаланиш имкониятлари /Таълим-тарбия контекстида фанлараро синхрон ва асинхрон боғланишлар. Илмий-услубий мақолалар тўплами. – Т.: Noshirlik yog'dusi, 2019. - Б.1304.

Шомирзаев М.Х. Технология фанини ўқитишда инновацион педагогик технологиялар. Дарслик. –Т.: Тафаккур, 2021. -226 б.

ФИЗИКАДАН ИННОВАЦИОН ТАЖРИБАЛАРDOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.51.77.077>

Бердиев Урал Буранович

Термиз давлат университети доценти

Хасанова Дилдора Ўктамовна

Термиз давлат университети ўқитувчиси

Аннотация. Мақолада мактабларда физика тўғаракларини ташкил этиши масалалари кўрилган, тўғаракларда содда қизиқарли тажрибаларни кўрсатиши ва уларнинг моҳиятини очиб бериши ўқувчиларнинг физика фанига бўлган қизиқишини кучайтириши ҳамда фанни амалиёт билан боғлаши кўрсатиб берилган. Мақолада бир қанча тажрибаларни бажариши механизми ва моҳияти очиб берилган.

Калит сўзлар: Мактаб, тўғарак, тажриба, штатив, стакан, сув, туз, капилляр, шар, озиқ-овқат ранглари, полиэтилен, рейка, тухум, магнит, батарея, мис сим, тўғноғич.

ИННОВАЦИОННЫЕ ЭКСПЕРИМЕНТЫ ПО ФИЗИКЕ

Бердиев Урал Буранович

Доцент Термезского государственного университета

Хасанова Дилдора Уктамовна

Преподаватель Термезского государственного университета

Аннотация. В статье рассматривается организация физических кружков в школах, показано, как простые забавные занятия в кружках и раскрытие их значения могут повысить интерес учащихся к физике и связать науку с практикой. В статье объясняется механизм и сущность нескольких экспериментов.

Ключевые слова: Школа, кружок, эксперимент, штатив, стакан, вода, соль, капилляр, шар, пищевые красители, полиэтилен, рейка, яйца, магнит, батарея, медный провод, булавка

PHYSICANAL INNOVATION

Berdiev Ural Buranovich

Associate professor of Termez State University

Хасанова Дилдора Ўктамовна

Termez State University, teacher

Abstract. The article discusses the organization of physical circles in schools, shows how simple fun activities in circles and the disclosure of their meaning can increase students' interest in physics and connect science with practice. The article explains the mechanism and essence of several experiments.

Keywords: school, circle, experiment, tripod, glass, water, salt, capillary, ball, food colors, polyethylene, rail, eggs, magnet, battery, copper wire, pin

Тўғараклар ўрта умумтаълим мактабларида ўқувчиларнинг дарсдан ташқари машғулотларини самарали ташкил қилиш воситаларидан биридир. Тўғарак фаннинг маълум бир соҳаси билан шуғулланмоқчи бўлган ўқувчиларнинг ихтиёрий бирлашмасидир. Тўғаракда ўқувчилар ўзаро ҳамкорликда ижодий иш билан машғул бўлади, маълум бир фандан олган билимларини кенгайтиради, чуқурлаштиради, тасаввур қилади ушбу фанга ижодий ёндашади. Тўғарак ўтишда ҳар бир ўқувчининг, қизиқиши, хоҳиш истаги ва имкониятларини эътиборга

олинган ҳолда индивидуал ёндашиш талаб қилинади.

Физика тўғаракларида содда қизиқарли тажрибаларни кўрсатиш ва уларнинг мохиятини очиб бериш ўқувчиларнинг физика фанига бўлган қизиқишини кучайтиради ва фикрлашга ундайди.

Тўғаракларда куйидаги мақсад ва вазифалар амалга оширилади:

- фан ва техниканинг ютуқлари билан тўғарак иштирокчиларни таништириб бориш, амалда ушбу ютуқлардан фойдаланиб янгиликлар яратишга интилиш;
- физик билимларни чуқурлаштириш, кенгайтириш ҳаётга яқинлаштириш, амалиётда қўллаш, амалий натижалар олиш;
- физика курсини ўрганиш жараёнида физик тушунчаларни ўзлаштириш;
- ўқувчиларнинг интеллектуал ва фикрлаш қобилиятини ривожлантириш;
- табиатни ўрганиш усулларини ўзлаштириш;
- физика фанининг жамият тараққиётидаги ўрни ва вазифасини англаш;
- тажрибаларни ўтказиш усулларини ўзлаштириш ва такомиллаштириш;
- қўлдан тайёрланадиган физик асбоб-ускуналарни йиғишни ўрганиш, улардан амалда фойдаланиш;
- фан ва амалиётни бир-бирига яқинлаштириш.

6-7-синф ўқувчилари учун куйидаги инновацион содда, қизиқарли физик тажрибаларни бажариб кўрсатиш ўқувчиларнинг табиатга ва унда кузатиладиган ҳодисаларга қизиқишини кучайтиради, физика фанини ўрганишга мотивация беради.

1-тажриба. “Қўлни ҳўл қилмасдан сув ичидаги тангани олиш”

Керакли нарсалар: Танга, Тарелка, стакан, қоғоз, гугурт.

Топшириқ: Тарелка ичига тангани қўйиб озгина сув қуямиз, ўқувчиларга қўлини сувга урмасдан тангани олиш масаласи қўйилади.

Тушунтириш: Стакан ичига ёнаётган қоғоз киритиб турилади, сўнгра қоғоз тез чиқариб олинади ва стакан тарелкадаги сувга оғзи билан тушурилади, натижада сув стакан ичига тортилиб киради ва қуруқ тангани олиш мумкин бўлади. Сабаби стакан ичидаги ҳаво қизиганда босими ташқи атмосфера босимидан ошиб кетади ва стакандаги ҳавонинг бир қисми чиқиб кетади, босими пасаяди, натижада атмосфера босими остида тарелкадаги сув стакан ичига киради ва танга сувдан халос бўлади.

2-тажриба. “Сехрли сув”

Керакли нарсалар: Бир стакан сув, оқ қоғоз (лист).

Топшириқ: Стаканни сувга тўлдириш устига оқ қоғозни қўйиб қўл билан ушлаб стаканни секин тескари ағдаринг, стакандаги сув тўкилмайди.

Тушунтириш: Стакандаги сувни атмосфера босими ушлаб туради, ташқи атмосфера босими стакандаги сув босимидан каттароқ бўлгани учун сув тўкилмайди.

3-тажриба. “Куймайдиган шар”

Керакли нарсалар: Икки дона шар, шам, гугурт, сув.

Топшириқ: Шарнинг биттасини пуфланг ва шам устида ушлаб туринг, шар ёрилиб кетади. Иккинчи шарни кран суви билан ярмигача тўлдирамиз оғзини боғлаб ёниб турган шам устида ушлаб турамыз шар куймайди ҳам, ёрилиб ҳам кетмайди.

Тушунтириш: Сувнинг иссиқлик сиғими катта бўлгани учун шам бераётган иссиқликни ўзига ола бошлайди ва шарнинг куйишига йўл қўймайди.

4-тажриба. “Оқ полиэтилен халта”

Керакли нарсалар: Полиэтилен халтача (оқ), сув, ўткир учли қаламлар.

Топшириқ: Полиэтилен халтачага ярим қилиб сув қуйинг, сўнгра халтани ҳар томонидан қаламни тешиб киритинг, халтачадаги сув оқиб кетмайди.

Тушунтириш: Қалам полиэтилен пакетни тешиб ўтганда унинг молекулалари ўзаро тортишиб қаламга ёпишади ва сув деярли оқиб чиқмайди.

5-тажриба. “Газета оғирлиги рейкани синдиради”

Керакли нарсалар: Газета, узунлиги 60 см эни 1 см, қалинлиги 0.5 см ли чизгич.

Тажриба: Рейканинг учидан 10 см қисмини столдан чиқиб турадиган қилиб стол устига қўямиз. Рейканинг стол устидаги қисмини очилган газета билан ёпиб қўямиз, агар рейканинг столдан чиқиб турган учига секин боссак газета босиб турган учи газета билан қўшилиб секин кўтарилади. Агар рейканинг столдан осилиб турган учига тез ҳаракат билан урсак газетали учи кўтарилишга улгурмай ва осилиб турган учи синиб кетади.

Тушунтириш: Газета устига атмосфера босими босиб туради. Рейканинг учига тез урганимизда ҳаво газета остига тез кириб улгурмайди, газета устига ҳаво босими тагига кираётган ҳаводан кучли босим кўрсатади, натижада рейка синиб кетади.

6-тажриба. “Қоғоз халқаларни узиш”

Керакли нарсалар: Эни 4-5 смли 2 та қоғоз халқалар (диаметри 10 см)

2 та штатив муфтаси билан, 80 см узунликдаги эни 1,0 см, қалинлиги 0,4-0,6 см ли ёғоч рейка.

Тажриба: Қоғоз халқалар штатив муфталарига бир хил баландликда параллел осилади, қоғоз халқаларнинг пастки учига ёғоч рейкани осиб қўямиз. Агар ёғоч рейканинг ўртасига темир стержек билан тез урсак рейка синиб кетади, аммо қоғоз халқалар йиртилиб кетмайди.

Тушунтириш: Темир стерженнинг ёғоч рейкага урулиш вақти жуда қисқа бўлиб, рейка ҳаракат миқдорини (импульсни) қоғоз халқаларга узатиб улгурмайди ва натижада синиб кетади.

7-тажриба. “Ёнмайдиган рўмолча”

Керакли нарсалар: Қўл рўмолча, сув, спирт, штатив муфтаси билан, гугурт.

Тажриба: Қўл рўмолчани сувга ботириб олинг ва яхшилаб сиқиб ташланг, сўнгра спиргга ботириб олинг штатиб қисқичига қистириб гугурт билан ёқиб юборинг. Рўмолча аланга ичида қолса ҳам қуймайди.

Тушунтириш: Рўмолчанинг куйиб кетмаслигига сабаб спирт ёнганда чиқаётган иссиқлик рўмолча таркибидаги сувни буғлантиришга сарф бўлади.

8-тажриба. “Рангли карам барглари”

Керакли нарсалар: 4 стакан сув, озик-овқат ранглари (4-хил), оқ карам барглари.

Тажриба: 4 стаканга 4 хил ранглари эритинг ва ҳар бирига карам барглари билан биттадан солиб учини баландга чиқариб қўйинг (ёки ҳар бирига оқ қоғоз варақларини солиб учини тепага чиқариб қўйинг) эрталаб карам барглари (ёки оқ қоғоз) ўзи туширилган эритма рангига бўялиб қолганини кўриш мумкин.

Тушунтириш: Капиллярлик ҳодисасига асосан карам барглари ичидаги ингичка трубкалардан рангли сув баргнинг учигача кўтарилади ва рангли барглари ҳосил қилади. Табиатда дарахтлар илдизидаги сувдан озуқа унинг учигача кўтарилиб беради.

9-тажриба. “Чўкмайдиган тухум”

Керакли нарсалар: 2 та стакан, сув, 2 дона тухум.

Тажриба: Биринчи стаканга оддий тоза сув қуйинг, иккинчи стаканга иссиқ сув қуйиб, 4 ош қошиқ тузни эритиб олинг, иккинчи стакандаги сувнинг совушини кутинг. Тажрибани талабалар олдида бошланг 2 та тухумни 2 та стаканга солиб биринчиси чўкиб кетади, иккинчиси эса чўкмайди, сабаби ўқувчиларга тушунтирилади.

Тушунтириш: Тухумнинг ўртача зичлиги сувникидан катта бўлгани учун биринчи тухум чўкиб кетади. Иккинчи стакандаги сувга туз эритилгани учун унинг зичлиги тухумникига тенг ёки катта бўлгани учун 2 чи тухум сувга чўкмайди.

10-тажриба. “Буг машина”

Керакли нарсалар: сув, тухум, игна, ингичка сим, ғалтак ип, шам ёки спирт лампа.

Тажриба: Тухумни қарама-қарши ён томонларидан игна ёрдамида кичкина тешик очинг ва тухум ичидаги суюкликни чиқариб олинг, тухум пўчоғини яхшилаб ювинг ва ичига ярим қилиб сув тўлдириг. Ингичка симни тухум тешикларидан авайлаб ўтказинг ва учларини бирлаштириб ингичка ипга осинг, тагидан шам ёки спирт лампа ёрдамида ёкиб қиздириг, сув қайнаб тешиклардан буғ чиқа бошлагач тухум айлана бошлайди.

Тушунтириш: Бу ерда реактив харакат кузатилади яъни буғ отилиб чиқади ва тухумни ўзидан қарама қарши томонга итаради, натижада тухум айлана бошлайди.

11-тажриба. “Сочларни зарядлаш”

Керакли нарсалар: Болалар шари

Тажриба: Шарни ўқувчига бериб пуфлаб ҳавога тўлдириш, сўнгра оғзини боғлаб бошига кўтариш ва сочларига шарни ишқалаш сўралади. Натижада ўқувчининг сочлари тик вертикал ҳолатда юқорига кўтарилиб қолади. Бу тажриба қизиқарли чиқади ва жисмларнинг ишқаланиш натижасида зарядланишини исботлайди.

12-тажриба. “Симсиз электр занжир”

Керакли нарсалар: Корона батарея 9v, светодиоид, бм маркалик юмшоқ қалам

Тажриба: Оқ қоғозга бм маркалик юмшоқ қалам билан оддий электр занжир схемасини чизинг. Схеманинг бош қисми очик бўлиб батареяни чаппа қилиб қўйганда қутублари тегиб турадиган қилиб чизилиши керак, схема охири хам очик бўлиб светодиоид учларини улашга мўлжалланган бўлиши керак. Схема чизмалари бир-бирини кесиб ўтмаслиги лозим акс ҳолда қисқа туташув бўлиб қоғоз ёниб кетиши мумкин.

Тушунтириш: Бу ерда симсиз лампочканинг ёниши ўқувчиларга қизиқарли туйилади, шу билан бирга қаламнинг (графит) электр токини ўтказиши аниқланади.

13-тажриба. “Электромагнит тайёрлаш”

Керакли нарсалар: Катта 15 см лик мих, 40см ли мис сим, крона 9v лик батарея, калит, магнитга тортиладиган кнопкалар ёки скрипкалар

Тажриба: Мис симнинг учларидан 12 см дан қолдириб симни михнинг устига бир текис қилиб ўранг, сўнгра сим учларини батареяга калит орқали уланг. Калитни уласангиз электромагнит ҳосил бўлади ва ўзига темир металлларни торта бошлайди. Темир ферромагнит модда бўлиб катта магнит сингдирувчанликка эга бўлади электр токидан магнит майдони ҳосил қилади.

14-тажриба. “Магнит мотор”

Керакли нарсалар: кичкина магнит, соат батареяси, мис сим (2 метр), 2-дона кичик тўғноғич, скотч.

Тажриба: Батареянинг икки томонига иккита тўғноғични думалоқ томонини юқорига қилиб скотч билан ёпиштиринг. Мис симни диаметри 1-1.5 см ли халқа қилиб ўранг, батареянинг устига магнитни ёпиштириб қўйинг, симнинг учларини изоляциядан тозалаб тўғноғичдан ўтказинг. Симли ўрамни қўл билан айлангириб юборинг, натижада ўрам (ротор) айланишда давом этади.

Тушунтириш: Батарея ток манбаи ҳисобланади, симли ўрамдан ток ўтганда магнит майдони ҳосил бўлади, у доимий магнитнинг магнит майдони билан ўзаро таъсирлашади (Ампер кучи). Магнит майдон ток кучига перпендикуляр йўналган бўлиб роторнинг айланишини таъминлайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ковалева С.Г., Иванова О.М., Баталева Н.Ю., Стрелецкая Е.В., Крылов В.В. Внеклассная работа-как средство компетентности учащихся. Санкт-Петербург. 2011. 156с.

2. Бердиев У. Б., Кузимуродова М.Ш. Кружковая работа в школе.//Республика илмий-техник анжумани. Нукус. 2019.С.149-152.

**TEKNOLOGIYA TA'LIMI DARSLARINI TASHKIL ETISHNI
TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.36.90.076>*Berdieva Hanifa Meleyvna,**Surxondaryo viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazining kafedra mudiri, pedagogika fanlari nomzodi*

*Amonov Bobur Baxtiyorovich**Termiz davlat universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Texnologiya" fanini o'qitishda o'quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo'llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktab, o'qituvchi, o'quvchi, sinf, ta'lim, tarbiya, texnologiya, kompetensiya, bosqich, yo'nalish, milliy, xalq hunarmandchiligi, kasb, samaradorlik.

**УРОКИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ
МЕТОДИКА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИИ***Бердиева Ханифа Меливовна**Заведующий кафедрой Сурхандарьинского областного территориального центра переподготовки и повышения квалификации работников народного образования, кандидат педагогических наук*

*Амонов Бобур Бахтиёрович**Преподаватель Термезского государственного университета.*

Аннотация: В статье освещены вопросы формирования у учащихся компетенций по обучению предмету "Технология" в общеобразовательных учреждениях, применения в самостоятельной практической деятельности знаний, умений и навыков, полученных в ходе технико-технологического и технологического процесса, выбора профессии, доступа к социальным отношениям на основе национальных и общечеловеческих ценностей.

Ключевые слова: школа, учитель, ученик, класс, образование, воспитание, технология, компетенция, этап, направление, национальные, народные промыслы, профессия, эффективность.

**METHODS OF IMPROVING THE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY
EDUCATION LESSONS***Berdieva Hanifa Meleyvna,**After the Regional Center for retraining and professional development of the staff of public education of the surkhandarya region, candidate of Pedagogical Sciences*

*Amonov Bobur Baxtiyorovich**Lecturer at Termez State University*

Abstract: The article covers the issues of application of the knowledge, skills and skills gained from the operations carried out during the technical-technological and technological process in the teaching of the science of "Technology" in general secondary educational institutions in the independent practical activity, choice of profession, formation of compartments for entering into social relations on the basis of

national and universal values.

Keywords: school, teacher, pupil, class, education, upbringing, technology, competence, stage, direction, National, Folk Art, profession, effect.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil ravishda amalga oshirilayotgan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi respublikamizda rivojlanish taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayonning amaliy natijalari bugungi kunda hayotimizning barcha sohalarida, eng muhimi, xalqimizning ong-u tafakkuri, intilish va harakatlarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Harakatlar strategiyasining to‘rtinchi – Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan ta‘lim tizimini takomillashtirish masalasiga ham alohida e‘tibor qaratilgan .

Davlatimiz rahbari har bir viloyatga tashrifi doirasida o‘tkazilgan yig‘ilishlarda, turli uchrashuvlarda so‘zlagan nutqi va suhbatlarida barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarni sog‘lom turmush tarziga amal qilib yashash masalalariga kun tartibidagi dolzarb masala sifatida qarash zarurligini ta‘kidlab kelmoqda. Prezidentimiz ta‘kidlaganidek: “Agar farzandlarimizga to‘g‘ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada ularning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo‘lib turmasak, ularni ilm-u hunarga o‘rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo‘yishimiz hech gap emas” .

Ma‘lumki, “Ta‘lim to‘g‘risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida” 3 gi qonunlarda ham mamlakatimizda jahon andozalari talablariga javob bera oladigan yuksak malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash vazifalari belgilangan. Jumladan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi – ta‘lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma‘naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘tiladigan “Texnologiya” fani darslari uzoq muddat, ya‘ni birinchi sinfdan to oxirgi sinfgacha bo‘lgan davr ichida o‘qitilishi bilan o‘quvchilar faoliyatida va maktab hayotida o‘ziga xos muhim ahamiyatga egadir. Maktabda “Texnologiya” fani darslari uch bosqichda tashkil etilib, ulardan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarni jismoniy tomondan to‘g‘ri rivojlantirish, mehnat olami va kishilari, mehnat qurollari va amallari, asosiy ishlab chiqarish sohalari va kasblar bilan tanishtirish, ish qurollaridan foydalanish, oddiy buyumlarni yasashga oid mehnat ko‘nikmalarini hosil qilish, ongli ravishda kasb tanlashga yo‘naltirishdan iborat [12,24].

Yuqorida aytilgan bosqichlardan har birining oldiga qo‘yilgan aniq vazifalar mavjud. Jumladan, 1-bosqichda 1-4-sinflardagi “Texnologiya” fani darslarida o‘quvchilarga kishilarning hayotida mehnatning tutgan o‘rni, eng sodda mehnat amallari va ish qurollari, ulardan foydalanishga oid dastlabki ma‘lumotlar beriladi. Qog‘oz, yelim, gazlama, ip, plastilin kabi materiallardan igna, qaychi, pichoq kabi mehnat qurollari yordamida sodda buyumlar, o‘yinchoqlar yasash, tayyorlash orqali ularda dastlabki mehnat ko‘nikmalari shakllantiriladi.

2-bosqichdagi “Texnologiya” fani darslari 5-7-sinflardagi “Texno-logiya” fani darslarini tashkil etadi. Bu bosqichdagi “Texnologiya” fani darslari texnologiya va dizayn (metallarga va yog‘ochlarga ishlov berish texnologiyalari), servis xizmati (pazandachilik asoslari va gazlamalarga ishlov berish texnologiyasi) hamda umumlashgan yo‘nalishlarda tashkil etiladi. Bular ishlab chiqarishning eng muhim ko‘rinishlari bo‘lib, ular deyarli hamma sohada qo‘llaniladi. Masalan, 5-7-sinflardagi bu mashg‘ulotlarda o‘quvchilarga ishlab chiqarishning asosiy bo‘g‘inlari bo‘lgan: yog‘och, metall, gazlamalarga ishlov berish va taom tayyorlash, elektrotexnika va ta‘mirlash ishlariga oid dastlabki umumiy bilimlar beriladi, shu sohalar bo‘yicha ularda mehnat ko‘nikmalari hosil qilinadi, kelgusida biror kasbni ongli ravishda tanlashga yo‘naltiriladi.

3-bosqichdagi “Texnologiya” fani darslari 8-9-sinflarda olib boriladigan

“Texnologiya” fani darslari bo‘lib, bular ham yuqoridagidek uchta yo‘nalishda tashkil etiladi. Buni ikkinchi bosqichdagi darslardan asosiy farqi shundaki, bu bosqichdagi “Texnologiya” fani darslarida bevosita o‘quvchilarga kasb tanlashga oid tavsiyalar va ishlab chiqarish asoslariga oid ma‘lumotlar ko‘proq beriladi. Bunda o‘quvchilarga kasb turlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, kasb tanlashda nimalarga e‘tibor berish zarurligi haqidagi ma‘lumotlar o‘rgatiladi. Bu kasblardan qaysi birini tanlash o‘quvchilarning o‘zlariga havola etiladi.

Mazkur “Texnologiya” fani darslarini o‘qitishdan oldinga qo‘yilgan asosiy ish o‘quvchilarning jismoniy tomondan to‘g‘ri rivojlanishini ta‘minlash, ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish va amaliy ish bajarish ko‘nikmalarini tarkib toptirishdir. Bundan quyidagi maqsad va vazifalar kelib chiqadi.

“Texnologiya” fani darslarining maqsadi:

Texnologiya fani darslarida o‘quvchilar ishlab chiqarish jarayoni, ishlab chiqarish sohalari, bunda qo‘llaniladigan asbob-uskunalar va mexanizm-mashinalar, ularning turlari va ishlatilishi bilan tanishtiriladi hamda oddiy buyumlarni tayyorlash o‘rgatiladi.

“Texnologiya” fani darslari jarayonida turli tabiiy hamda metall va metallmas materiallarga texnologik usullar asosida ishlov berish ishlarini o‘rgatish orqali o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishni yanada kuchaytirish, xalq hunarmandchiligi asoslari, ro‘zg‘orshunoslik, elektrotexnika ishlarini bajarishda kasb-hunarga yo‘llash bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash hamda ularni hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantirish ko‘zda tutilgan.

Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida “Texnologiya” fanini o‘qitishdan asosiy maqsad – o‘quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo‘llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘qitiladigan “Texnologiya” fanining asosiy vazifalari:

- materiallar va ularning xossalari, xususiyatlari hamda texnik obyekt va texnologik jarayonlarga oid ma‘lumotlarni o‘rgatish;
- texnik obyekt hamda texnologik jarayonlarda maxsus va umummehnat operatsiyalarini bilish;
- texnologik jarayonlarni boshqarish, maxsus va umummehnat operatsiyalarini amaliyotda qo‘llay olish;
- texnik va kreativ fikrlashni, intellektual qobiliyatlarini shakllantirish;
- texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni bajarish ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qila olish;
- buyumlarni tayyorlash bo‘yicha mehnat jarayonlarini bajarishga oid xulosalar chiqarish hamda mehnat operatsiyalarini, mahsulot sifatini baholay olish;
- ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash ishlarini amalga oshirishda tayanch va “Texnologiya” faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat.

Har bir dars xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilgan holda tashkil etiladi.

Shuningdek, o‘quvchilarga “Texnologiya” fani yo‘nalishlari bo‘yicha kasb turlari haqida axborotlar beriladi.

O‘zbekiston Respublikasida ta‘limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi:

- mamlakatimizning dunyo hamjamiyatida tutgan o‘rni va tarixiy shakllanish davri haqida aytib bera olish, mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi barcha sohalarda o‘shirish sur‘atlarini bilish; kundalik faoliyatda turli formula, model, chizmalarni o‘qiy olish va



foydalana olish;

– o‘quvchilarda umummehnat ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ularning qiziqishlari, qobiliyatlari, kasbiy moyilliklariga ko‘ra, kasb-hunar turlarini tanlashga asos bo‘ladigan xislatlarini, umummehnat madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish;

– o‘quvchilar tomonidan bajariladigan, moddiy ne‘matlar yaratishga qaratilgan aqliy va jismoniy harakatlar mehnat jarayonidan iborat bo‘lib, ularning mehnat qurollari, vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarini hamda ma‘lum sohadagi ishlab chiqarish mehnatini va malakalarini egalashlariga, ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo‘lida mehnat faoliyatiga qo‘shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifat va tafakkurlarini rivojlantirishga qaratilgan. Shundan kelib chiqib, “Texnologiya” fani DTSda quyidagicha belgilangan:

– turli ishlab chiqarish sohalari mazmuniga taalluqli dastlabki ma‘lumotlarni o‘rgatish, o‘lchash-tekshirish asboblaridan, ma‘lumot manbalaridan foydalana olish, mehnat amaliyot-larini bajarish, erishilgan mehnat natijalarini belgilangan talablar bilan taqqoslash orqali xulosa chiqarishga o‘rgatish;

– xalq xo‘jaligining turli sohalarida ishlatiladigan texnika va texnologiyalar to‘g‘risida bilimlar berish, inson faoliyatining turli sohalari bilan amaliy mehnat orqali yaqinroq tanishishlariga imkon yaratish;

– mexanizatsiyalashtirilgan va elektrlashtirilgan vositalar bilan ishlashni, texnologik bilim va malakalarni, mehnat qonunchiligi, xavfsizlik texnikasi qoidalari, sanitariya-gigiyena talablari asoslarini o‘rganish;

– o‘quvchilarni bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari talablari asosida sifatli, raqobatbardosh iste‘mol mollari, mehnat mahsulotlari yetishtirish va yetishtirilgan mahsulotlarni iste‘molchilarga yetkazish vositalarini o‘rgatish, ish boshqaruvchi (menejerlik), homiylik, ishbilarmonlik sifatlarini shakllantirib borish va rivojlantirish;

– o‘quvchilarga bilimga intilish va mehnatga muhabbat, mehnat kishisiga nisbatan hurmat hissini singdirish, ularni jamoatchilik, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash;

– xalq hunarmandchiligi kasblarini o‘rgatish orqali xalqning milliy ruhini, yashash tarzini, an‘analarini tiklash va rivojlantirish. Milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, xalq ustalarining boy merosini o‘rgatish, ulardan o‘z amaliy faoliyatida foydalanish ko‘nikmalarini mustahkamlash;

– yangi ishlab chiqarish va axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi, yangi texnika va jihozlarning qo‘llanilishi sohalarini zamonaviy talablar darajasida va jahon tajribalariga mos holda o‘rganishlarini ta‘minlash;

– yuqori sinflarda turli mutaxassisliklarning kasbiy faoliyatida qo‘llaniladigan asbob-uskunalar, jihozlar, moslamalardan foydalanishni o‘rgatish.

Bulardan ko‘rinadiki, “Texnologiya” fani maktab o‘quvchilariga ta‘lim-tarbiya berishda katta ahamiyatga ega. Shu sababli “Texnologiya” fani darslarini tashkil etish va o‘tkazishga alohida e‘tibor qaratish zarur. Ayniqsa, bunda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yaxshi natijalar beradi deb hisoblaymiz.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib, shuni aytish joizki, “Texnologiya” fani vazifalari mazmunan murakkab dialektik bog‘liqlikda bo‘ladi. Buni tushunish uchun shuni nazarda tutish kerakki, “Texnologiya” fani vazifalari turli darajada qo‘yiladi va bayon etilgan ma‘lumotlardan ayon bo‘ladiki, o‘quvchilarni o‘qitish, tarbiyalash mashaqqatli ish hisoblanadi. Bunda o‘qituvchining eng mashaqqatli ishlaridan biri shuki, u har bir o‘quvchining shaxsiy (individual) xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarda barcha o‘quvchilarning faolligiga erishishdan iborat. Bu o‘rinda o‘quvchining faolligi o‘z-o‘zidan oshmasligini, balki bu ongli munosabat natijasi ekanligini yoddan chiqarmaslik zarur. Modomiki, faollik onglilik natijasida vujudga kelar ekan, u ta‘lim-tarbiya ishining mazmuni, tashkil etish shakli, amalga oshirish metodlari va vositalarini o‘zaro muvofiqlashtirishni taqozo etadi. O‘qituvchi ongli ravishda o‘quvchilarda o‘qishga qiziqishini yanada oshirishi lozim.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik. // Xalq so‘zi, 2017-yil, 16-iyun.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini jnada rivojlantirish bo‘yisha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // Xalq so‘zi, 2017-yil, 8-fevral. № 28.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlari. –T.: “Sharq”, 1997.
5. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktabida o‘qitish metodlari. –T.: “O‘qituvchi”, 1990. – 232 b.
6. Karimov I. Mehnat ta’limida o‘quvchilar ijodkorlik faoliyatini tashkil etishning uyg‘unlashgan texnologiyalari: Monografiya, uslubiy yo‘nalish. –T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2015. – 172 b.
7. Muslimov N.A. va b. Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi va kasb tanlashga yo‘llash: Darslik. –T., 2014.- 124 b.
8. Sharipov Sh.S. va b. Texnologiya: Darslik, 6-s. –T.: “Sharq”, 2017.
9. Sharipov Sh.S. va b. Texnologiya: Darslik, 7-s. –T.: “Sharq”, 2017.
10. Sattorova Z. va b. Texnologiya: 9-sinf uchun darslik. –T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 160 b.
11. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o‘qitishning samaradorligini oshirish yo‘llari.–T.: 2019. – 72 b.
12. Shomirzayev M.X., Karimov I.I. Texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar.- T.: “Universitet”, 2020. – 192 b.



**ТАБИАТШУНОСЛИК ФАНЛАРИ ВА ОЛАМНИНГ ИLMИЙ
МАНЗАРАСИ**

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.39.78.075>

Бердиев Урал Буранович
Термиз давлат университети, доцент

Хасанова Дилдора Ўктамовна
Термиз давлат университети, ўқитувчи

Қурбонмуродов Умид Жуманазарович
Термиз давлат университети, магистр

Чоршанбиева Нигина Абдуллаевна
Термиз давлат университети, магистр

Аннотация. Мақолада табиатишунослик фанлари физика, кимё, биология, география, экологияларни бирликда кўриб чиқилган ва оламнинг ягона илмий манзараси талқин қилинган. Оламнинг илмий манзарасини тасвирлаида Ньютоннинг классик механикаси алоҳида ўрин тутуши ҳамда умумий ўрта таълим мактабларида ўқувчиларга оламнинг ягона илмий манзараси ҳақидаги тасавурларни бериши масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: Олам, Ньютон, классик механика, тўғарак, механика, термодинамика, электродинамика, оптика, атом ва ядро физикаси, квант механикаси.

ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ И НАУЧНЫЙ ВЗГЛЯД НА ВСЕЛЕННУЮ

Бердиев Урал Буранович
Термезский государственный университет, доцент

Хасанова Дилдора Уктамовна
Термезский государственный университет, преподаватель

Қурбонмуродов Умид Джуманазарович
Термезский государственный университет, магистр

Чоршанбиева Нигина Абдуллаевна
Термезский государственный университет, магистр

Аннотация. Статья посвящена естествознанию, физике, химии, биологии, географии, экологии и интерпретирует единый научный взгляд на мироздание. Классическая механика Ньютона играет особую роль в описании научного ландшафта Вселенной, а также в вопросах формирования у учащихся общеобразовательных школ представления о едином научном ландшафте Вселенной.

Ключевые слова: Вселенная, Ньютон, классическая механика, кружок, механика, термодинамика, электродинамика, оптика, атомная и ядерная физика, квантовая механика.

NATURAL SCIENCES AND A SCIENTIFIC LOOK AT THE UNIVERSE

Berdiev Ural Buranovich
Termez State University, Associate Professor

Khasanova Dildora Uktamovna
Termez State University, teacher

Kurbonmurodov Umid Djumanazarovich
Termez State University, Master

Chorshanbieva Nigina Abdullaevna
Termez State University, Master

Abstract. The article is devoted to natural science, physics, chemistry, biology, geography, ecology and interprets a unified scientific view of the universe. Classical Newtonian mechanics plays a special role in the description of the scientific landscape of the Universe, as well as in the formation of the idea of a single scientific landscape of the Universe among students of general education schools

Keywords: Universe, Newton, classical mechanics, circle, mechanics, thermodynamics, electrodynamics, optics, atomic and nuclear physics, quantum mechanics.

Умумий ўрта таълим мактабларида дарсда ва дарсдан ташқари машғулотларда ўқувчиларга оламнинг илмий манзараси тасаввурини бериш ва табиий фанлар орасидаги боғланишларни кўрсатиб бериш муҳим масала ҳисобланади. Оламнинг илмий манзарасини чизиб беришда Ньютоннинг класик механикаси алоҳида рол ўйнайди. Табиатдаги барча ходисалар Ньютон қонунларига асосланиб тушунтиришга ҳаракат қилинган аммо кейинчалик микрозарралар орасидаги боғланишлар Ньютон қонунлари билан асосланмаслиги аниқ бўлди. Кейинчалик атом тузилиши аниқланиши, радиоактивлик ходисаси элементар зарралар орасидаги боғланиш қонуниятлари квант механикаси қонунларига бўйсунishi аниқланди. Биологик тирик мавжудлар ҳам кимёвий элементлардан ташкил топганлиги эътиборга олинса физика қонунлари биология ва кимёда ҳам қўлланилиши ўринли бўлади. Ўқувчиларда оламнинг илмий манзарасини шакллантиришда синфдан ташқари тўғрақ машғулотларида қизиқарли физик тажрибаларни кўрсатиш ва тушунтириб бериш ҳам ўзига хос ўрин тутади.

Нима учун физика, химия, биология ва ҳақозо кўп сонли табиий фанлар мавжуд? Буларнинг ҳар бири яна бир нечта йўналишларга бўлиниб кетади. Масалан, физикада механика, термодинамика, электродинамика, оптика, атом ва ядро физикаси, квант механикаси ва ҳақозо. Албатта, бундай фанлар ва йўналишларнинг кўплиги бизни ўраб турган оламнинг объектив мураккаблиги ва кўп қирралигидан далолат беради. Бундай ҳолларда фанда муоммоларга куйидаги ёндошув қабул қилинган: аввал анализ (таҳлил) қилиш, сўнгра эса синтез (умумлаштириш). Амалиётда ўрганилаётган масала бир-неча майда бўлақларга, яъни элементларга бўлинади ва улар ўртасидаги боғланишлар, муносабат ва таъсирлар ўрганилади. Таркибий қисмлар анализ қилинади. Сўнгра элементлар яна қайтадан бирлаштирилиб анализ натижалари ўрганилади. Синтез анализ натижаларига суяниб, нарса ва ходисаларни бир бутун сифатида ўрганади. Анализ тадқиқот жараёнида билишнинг тайёргарлик босқичи ҳисобланса, синтез буни яқунлайди.

Табиатшуносликнинг асосий мақсади нима? Бутун олам яхлитдир, унинг ҳамма қисмлари алоҳида - алоҳида эмас, балким бирликда мавжуд. Шунинг

учун бизнинг асосий мақсадимиз оламни фақат бирликда ўрганишдир. Оламни бирликда, яхлит ўрганиш унинг ўзгаришини кузатиш ва олдиндан башорат қилиш имкониятини беради, фан олдиндан башорат қила олсагина фан бўла олади.

Шу нуқтаи назардан, табиатшуносликнинг кўп асрлик ривожланиш жараёнида маълум камчиликлар мавжуддир, масалан, биосфера фаолиятига инсон катта таъсир кўрсатиши сабабли синтезда нафақат табиий фанларни, балки ривожланишга таъсир кўрсатадиган жамиятшунослик ёки ижтимоий фанларни ва жараёнларни ҳам ҳисобга олиш керак бўлади. Ўз- ўзидан маълумки, иқтисодий қонунлар ва жараёнларни ҳам ҳисобга олиш лозим.

Табиатшуносликнинг физикавий асослари, оламнинг табиий -илмий манзарасини асослаш учун жуда қадимги даврларга мурожаат қиламиз.

Эрамиздан олдинги 585 йилда юнон натурфилософи Фалес Қуёш тутилишини олдиндан айтиб берганлиги билан машҳур бўлди. Бу вақтда ҳақиқатдан ҳам Юнонистонда Қуёш тутилиши кузатилган. Эрамиздан олдин VI-асрда яшаган юнон олими Пифагор арифметикада сонлар қаторининг, геометрияда текис шакллар хусусиятларини текширди, ва ўзининг номи билан аталувчи теоремани кашф этди. Бу вақтда табиб, физиолог ва файласуф Эмпедокл Қуёш тутилиши ҳодисасини Қуёш билан Ер орасидан Ойнинг ўтиши туфайли содир бўлишини тушунтириб берди. У ёруғликнинг жуда катта тезлик билан тарқалиши сабабли, биз унинг тарқалиш вақтини сезмаслигимизни тушуниб етди. Қадимги давр олимлари математикада (Евклид, эрамиздан олдинги III-асрда яшаган), астрономияда (Птоломей, эрамиздан олдинги II-асрда яшаган), маълум ютуқларга эришганлар.

Ўрта асрларда Европада фан тўласинча дин таълимотига бўйсунган эди. Астрология, алхимия, сеҳргарлик, жодугарлик ва бошқа сирли билимлар тўғрисидаги таълимотлар бу даврга ҳосидир.

Лекин, бу даврда аста-секин янги-янги илмий фактлар тўплана-борди, назарий фикрлаш мантиқи ўткирлаша борди.

Г.Галилей ва И.Ньютонлар томонидан 16-17 асрларда механикада инқилобий ўзгаришлар қилинди. Галилей инерция қонуни орқали жисмнинг тинч ҳолати билан тўғри чизиқли текис ҳаракатининг тенг ҳуқуқли, эканлигини кўрсатиб, ҳар қандай жисм ўз тезлигининг йўналишини ва қийматини куч таъсирисиз ўзгартиролмаглигини асослади ва биринчи бўлиб механикани назарий фан даражасига олиб чиқди.

Табиатнинг энг фундаментал қонунлари 1687 йилда И.Ньютон томонидан ёзилган «Натур философиянинг математик бошланиши» асарида ўзининг учта асосий қонунларини асослаб берди, шунинг учун классик механика Ньютон механикаси деб ҳам аталади.

Классикмеханика қонунларинисбатанкичиктезликларбиланҳаракатланаётган катта массали жисмларга қўлланилади. Ньютоннинг ҳамма қонунлари кўплаб тажрибаларда олинган фактларни умумлаштириш натижасида вужудга келган. Ньютоннинг биринчи қонунига кўра жисмга бошқа жисмлар таъсир қилмаса у ўзининг тинч ёки тўғри чизиқли текис ҳаракат ҳолатини сақлайди дейди.

Таъсир бўлмаганда, жисмларнинг ўз ҳолатини сақлаш хусусиятига жисмлар инерцияси, қонуннинг ўзи эса инерция қонуни дейилади. Агар санок системада Ньютоннинг биринчи қонуни бажарилса, бундай санок системаси инерциал санок системаси дейилади.

Ньютоннинг иккинчи қонунига кўра жисмнинг тезланиши унга таъсир қилувчи кучга тўғри пропорционал ва жисм массасига тесқари пропорционал бўлади.

Ньютоннинг учинчи қонунига кўра икки жисм бир-бирига тенг ва қарама қарши йўналган куч билан таъсир қилади.

Физика фанида Ньютон қонунларининг машҳур бўлиб кетиши натижасида табиатдаги барча ҳодисаларни шу қонунлардан келиб чиқиб тушунтиришга

уринишлар бошланди аммо микрозарралар орасидаги таъсирлар ва ёруғлик тезлигига яқин ҳаракатлар Ньютон механикаси қонунларига бўйсунмаслиги аниқланди.

Поляк астрономи Н.Коперник Қуёшни коинотнинг марказида туради деган гелиоцентрик назарияни ўзининг «Осмон сферасининг айланиши тўғрисида» (1543й) деган асарида ёритади ва Ер коинотнинг марказида туради деб ишонтириб келган геоцентрик назарияни нотўғри деб топади.

Шу даврда Италиялик олим Ж.Бруно коинотнинг маркази йўқлигини, у чегарасиз бўлиб, чексиз юлдузлар системасидан иборат эканлигини исботлайди. Н.Коперник назариясини ва Ж.Бруно ғояларини Г.Галилей ўзи ясаган телескоп орқали тасдиқлади, у Ойдаги кратер ва тоғ тизмаларини, Сомон йўлини ташкил қилувчи юлдузлар тўпламини, Юпитернинг йўлдошларини, Қуёшдаги доғларни кўра билди. Немис астрономи И.Кеплер Қуёш системаси планеталарининг ҳаракат қонунларини кашф этди. Бу кашфиётлар Коперник назариясини тасдиқлади. Натижада бу ғоялар халқ орасида тез тарқата бошлади. Рим черкови Н.Коперник асарларини таъқиқлади. 1633 йилда Рим черкови инквизицияси Г.Галилей устидан суд жараёни уюштириб уни ўз ғояларидан воз кечишга мажбур қилишди. Галилей «адашганлигини» тан олиб, ўз ғояларидан воз кечишга мажбур бўлди.

XVII-аср охирида математикада инқилобий ўзгариш содир бўлди. Инглиз олими И.Ньютон ва ундан беҳабар ҳолда немис математиги Г.Лейбниц интеграл ва дифференциал ҳисоблашлар тамойилларини беришди. Бу тадқиқотлар математик анализ фанига асос бўлди ва бутун табиатшунослик фанларига математик база бўлди. 17-аср ўрталарида Р.Декарт ва П.Ферми ўз илмий ишлари билан аналитик геометрия фанига асос солишди.

17-асрнинг ўрталарида табиатшуносликка табиат ҳодисаларининг эволюцион ривожланиш ғоялари кириб кела бошлади. Бунда И.Кант, М.В.Ломоносов, П.С.Лапласларнинг қуёш системасининг табиий пайдо бўлиши тўғрисидаги гипотезалар ривожлантирилган илмий ишлари катта роль ўйнади М.В. Ломоносов (1711-1765 й.) моддаларнинг сақланиш қонунини тажрибада аниқлаб, назарий жиҳатдан асослади ва ҳаракатнинг сақланиш қонуни ғоясини берди.

Катта гуруҳ олимлари-Н.Карно, Ю.Р.Майер, Г.Гельмгольц, Р.Клаузиус, У.Томсон, В.Нэрст ва бошқаларнинг илмий ишлари билан термодинамиканинг асосий қонунлари кашф этилди. Улардан бири энергиянинг сақланиш қонуни умумий илмий қонун сифатида қабул қилинди. М.Фарадей ва Дж.К.Максвеллар электромагнит майдон тўғрисидаги таълимотга асос солдилар. Биологияда назарий фикрлашни ривожлантиришга Т.Шванн, М.Шлейден, Я.Э.Пуркинъеларнинг хужайра назарияси, Ч.Дарвиннинг эволюцион таълимоти алоҳида аҳамиятга эга бўлди.

19-асрнинг охиригача ҳамма табиий фанлар ривожланишда эдилар. Бунда механикадан сўнг назарий фанлар сафидан химия, термодинамика, электр тўғрисидаги таълимотлар жой олишди.1861 йилда А.М.Бутлеров молекулаларнинг химик тузилиши тўғрисидаги таълимотни шакллантирди, 1869 йилда Д.М.Менделеев химик элементлар даврий системасини кашф қилди ва 70-йилларда атом жуда кичик зарчалардан иборат деган гипотезани илгари сурди. Организмларнинг хужайралардан тузилганлиги назариясини берган П.Ф.Горьпининг биологиянинг ривожланишидаги хизматлари буюқдир. Физиологияда И.М.Сеченов Олий нерв фаолиятини кашф қилди. И.П.Павлов (1855-1935й) томонидан кашф этилган шартли рефлекслар бу ғоянинг давоми бўлди. 20 аср бошларида физикада, умуман табиатшуносликда, иккинчи инқилоб рўй берди, яъни дунёнинг релятивистик ва квантомеханик манзараси тан олинди. Бунга Г.Герц томонидан кашф этилган электромагнит тўлқинлар, Рентген томонидан -Х- нурлари, М.Беккерель томонидан-радиоактивлик, М.Склодовская

ва П.Кюри томонидан-радий элементи, П.К.Лебедев томонидан-ёруғлик босими, М.Планк томонидан-квант назариясининг биринчи таълимоти ва бошқа кашфиётлар сабаб бўлди. Бу кашфиётлар натижасида дунё физик манзарасининг тарихан алмашилиши рўй берди. Агар Максвеллгача физик борлик моддий нукталар кўринишида деб фикрланган бўлса, ундан кейин эса физик борлик механика нуктаи назардан тушунтириб бўлмайдиган узлуксиз майдонлардан иборат деб қараладиган бўлди. XX асрда янги давр кириб келди, Оламнинг физик манзараси принципиал янги релятивистик ва квантомеханик манзарага айланди.

Оламнинг илмий манзараси фалсафа фани билан аниқ фанлар назариялари ўртасида буғин бўлиб хизмат қилади, (масалан физика фани учун оламнинг физик манзараси). Бундай манбаларнинг ўзаро муносабатларидан табиий фанларнинг янги назарий принциплари ва категориялари пайдо бўлади.

Оламнинг илмий манзарасининг айрим тушунчалари ундаги инсоннинг ўрнини аниқлаб берадиган илм-фаннинг ютуқларини ўз ичига олади. Бунда илмий манзара умумий билимларнинг йиғиндисини эмас, балки табиатнинг умумий хусусиятлари, ҳолати ва қонуниятлари тўғрисидаги тасаввурларнинг тўлиқ системасини кўрсатади. Шундай қилиб, оламнинг илмий манзараси-ҳар хил илмий назарияларнинг синтези ва уларнинг сифатий умумлашмаси бўлиб, ўзига хос билимлар системасининг алоҳида шаклидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

Гейзенберг В. Физика и философия. Часть и целое. М., 1989 г.

Н.Шермухаммедова. Фалсафа ва фан методологияси. Университет. Тошкент, 2005 й.

Мансуров А.Н. Физическая картина мира: Учебник для вузов. Дрофа, 2008 г.

Бердиев У. Б., Қўзимуродова М.Ш. Кружковая работа в школе.//Республика илмий-техник анжумани. Нукус. 2019.С.149-152.

**ТУБ ИСЛОХАТЛАР ШАРОИТИДА ХОР САНЪАТИНИНГ
ЖАМИЯТИМИЗ МАЪНАВИЙ ЯҚДИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА
ТУТГАН ЎРНИ**

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.64.30.074>

Боймўминов Хайриддин Мукулмонкул ўғли

Термиз давлат университети мусиқа таълими кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада XX-аср ўрталарида юртимизда хор санъатининг илк кўриниши ва туб ислохатлар шариоитида ривожланиши ҳолатлари ҳақида ёритилади.

Калит сўзлар: Маориф, композитор, хор, капелла, санъат, интегртив, аратория.

**РОЛЬ ХОРОВОГО ИСКУССТВА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ДУХОВНОГО
ЕДИНСТВА НАШЕГО ОБЩЕСТВА В УСЛОВИЯХ РАДИКАЛЬНЫХ
РЕФОРМ**

Баймуминов Хайриддин Мукулмонкул ўғли

*Преподаватель кафедры музыкального образования Термезского
государственного университета*

Аннотация: В данной статье будет освещено первое появление хорового искусства в нашей стране в середине XX века и его развитие в условиях радикальных реформ.

Ключевые слова: образовательная, композиторская, хоровая, капелла, художественная, интегративная, араториальная.

**THE ROLE OF CHORAL ART IN ENSURING THE SPIRITUAL UNITY
OF OUR SOCIETY IN THE CONTEXT OF RADICAL REFORMS**

Boymo 'minov Hayriddin Musulmonqul o'g'li

Teacher of the Department of music education of Termez State University

Abstract: this article covers the first appearance of the art of Khor in our country in the middle of the XX century and the development cases in the conditions of radical reforms.

Keywords: educational, compositional, choral, a cappella, artistic, integrative, aratorial.

Биринчи президентимиз И.А.Каримов тақидлаганларидек “Ўтмишни унутиб келажакни қуриб бўлмайди”. Зеро ҳар бир фаннинг ўз тарихи ривожланиш босқичлари бўлгани каби, хор санъатининг ҳам ривожланиш босқичлари бўлиб. Вақт доираси таъсирида ривожланди ва ўз кўринишини номоён етиб борди.

XX-асрнинг 20-йилларида хаваскорлик хор жамоалари ва болалар хаваскорлиги кенг ривожланди. Мазкур тўғарақлар катнашчилари ёрдами билан, мактаб ишчи клубларида концерт ва спектакллар нашойиш этила бошланди. Тошкентда Туркистон халқ консерваторияси заманида мусиқа техникуми вужудга келди.

Шу йиллар ичида Темир йўл филиали ҳам 1923-йили темир йўл мусиқа техникуми деб номлана бошланди. Техникумда мусиқа назарияси, мусиқа тарихи, фортепиано, ҳамда хор машғулоти олиб борилар эди.

Ўзбек халқ мусиқа ижодиётини ўрганиш ва уларни ёзиб олиш мақсадида 1919-йил декабрь ойида “Маориф” халқ мусиқий этнографик бўлими тузилди. Бу бўлим шу йили Тошкентда очилган Халқ консерваторияси қошида ўз фаолиятини бошлади. Мазкур мусиқий этнографик бўлим фаолиятида Ғ.Зафарий,

В.Успенский, Н. Миронов, Э.Мелнгайлислар турли мавзудаги кўшиқларни шу жумладан хор асарларини нотага олиб тарғиб қила бошладилар.

1927-йили Тошкентнинг Бешёғоч даҳасида пианиначи А.Тошмухаммедов раҳбарлигида Тошкент шаҳрида 7-йиллик мусиқа мактаби ташкил этилди. Ушбу мактабда истедодли ўғил ва кизлар ўқишга қабул қилинар эди. Мактабда Рейнголд Глер мусиқа назарияси ва солфеджио фанлардан ўқувчиларга тахсил берар эди. 1956 – йили Р.Глер вафотидан кейин ушбу мактаб, 10 йиллик мусиқа интернатига айлантирилди ва Глер номи билан атала бошланди. Туркистон хокимияти Тошкент шаҳри ва вилоятлардаги барча театр ва турли жамоаларни ва шахсий бойларнинг биноларини давлат тасаруфига олиш учун, 1918- йил 22-июльда махсус комиссия тузиб унинг таклифига биноан Тошкент шаҳри ва вилоятлардаги кўп хашаматли бинолар давлат ихтиёрига ўтказилди.

1919-йилда Туркистон республикаси Халқ маориф ташкилоти қарамоғида театр бўлими очилади ва унинг зиммасига қуйдаги вазифалар юкланади:

Республикадаги жамийки театр ишларига умумий раҳбарлик қилиш.

Хаваскор ва профессионал ижодий жамоаларнинг иш фаолиятини юксалтириш ва репертуарларни бойитиш.

Республика буйлаб мунтазам равишда марказ ва вилоятдаги томошабинларга концерт дастурлари уюштириш вазифалари юклатилди.

1927 – йилда ташкил топган Ўзбекистон Радио кумитаси ва унинг қошида ташкил топган мусиқа бош муҳаририяти улуғ бастакор Ю.Ражабий раҳбарлигидаги Ўзбек халқ ансамбли .1936 –йилида ташкил топган симфоник оркестр ва хор жамоалари жуда катта рўл ўйнади.

1936-йил Ўзбек Давлат филармониясининг ташкил этилиши республиканинг машхур созанда ва хонандаларини бир марказга тўплашга ва уларни ижодий самарадорлигини оширишга имконият яратди. Филармония негизида хор капелласи ва халқ чолғу оркестри ҳам ташкил этилди. Ушбу хор капеллага А.Четвертаков раҳбар этиб тайинланди.

30- йилларга келиб ўзбек мусиқа санъатида хусусан, хор соҳасида кўп овозлик услуб қўлланила бошланди.Ўзбекистонда ижод қилаётган композиторлар ўзбек халқ куй ва кўшиқларини гармониялаш йўли орқали кўп овозли асарларни хор учун қайта ишлашди. Хусусан: Н.Миронов, А.Четвертаков каби композиторлар томонидан “Пуртана”, “Ичкарида” спектаклларига ўзбек халқ куйлари асосида икки, уч овозли хор лавҳалари шулар жумласидандир.

Ўзбекистон ва Россия композиторлари ҳамкорликда мусиқали драма учун “Фарход ва Ширин” операсини ёзиш билан бир қаторда, асардаги хор ижроси ўзбек мусиқасидаги илк, кўп овозли асарлар шулар жумласидандир. Шундай қилиб 20 – 30 йилларда юзага келган “Халима, Фарход ва Ширин, Лайли ва Мажнун, Гулсара” каби спектаклларда мусиқали драма жанри ўзбек халқининг анъанавий бир овозли мусиқий мероси ҳамда кўп овозли асарлар асосида шаклланди.

Иккинчи жаҳон уруши йилларда ўзбек мусиқа санъати учун, ўзига хос синовлар даври бўлди. Фашизм устидан ғалаба қозониш инсонларнинг озодлиги учун курашиш, аскарларнинг руҳиятини кўтариш мақсадида урушнинг дастлабки йилларидаёқ Ўзбекистонда 200 дан ортиқ ватан химояси асносидаги марш ва мудофа кўшиқлари, хор асарлари, контата, ораториялар яратилди. Мисол учун: М. Ашрафийнинг хор ва оркестр учун “Улуғ командир” кўшиғи Т.Жалиловнинг “Зафар, Азиз ватан, Ю.Ражабийнинг” Жон фидо”, С.Юдаковнинг “Жонга жон қонга қон” каби хор асарлар шулар жумласидандир.

Композиторлар Б.Арапов, А.Казловскийлар ҳамкорликда 1944- йил Ўзбекистон республикасининг 20- йиллик юбилейига бағишлаб Жалолиддин Хоразмий номли ораториясини 1945-йил эса, С.Юдаков Ғалаба контатасини яратдилар. Шуни алоҳида такидлаш керакки, Ўзбекистон уруш йилларига қарамай маданий ҳаёт сўнмади. Самарқанд, Фарғона ва Андижонда ўзбек давлат филармониясининг

филиаллари очилди.

II- жаҳон урушидан кейинги йилларда яратилган вокал симфоник асарларда Ўзбекистон композиторлари халқ куйларини бевосита кучирмай кўпроқ оҳангдан мавзу яратишга интилдилар. Бу даврда асар қисмларининг кўшиқ боблиги хор ва яккахон вокал номерларнинг мустақиллиги хос бўлган асарлар юзага келди. М.Левиевнинг "Ёрқин йул, С.Бобоевнинг "Хосил" байрами контаталари С.Юдаковнинг "Мирза чўл" вокал симфоник суитаси.

50- йилларда хор вокал симфоник кантата билан бир каторда баллада, одалар ёзила бошланди. К.Вилдановнинг "Тинчликка отланинг" ораторияси М.Ашрафийнинг "Бахт кўшиги", С.Юдаковнинг "Менинг ватаним" кантатаси шу йилларда яратилган. 1967- йил қахрамонлик, ватанпарварлик руҳида биринчи ўзбек Тошкентнома ораторияси яратилди. Ушбу ораторияда халқ образи эпик-лирик, қахрамонона характердаги мавзуларда оркестр лейтмотив ва хор мавзусига алоҳида урғу бериб ўтилган.

М.Бурхоновнинг "Мутолачи" яккахон хор ва оркестр учун ёзилган "Алишер Навоийга касида" (1968 йил А.Орипов шеъри) ўзбек вокал симфоник мусиқасида муҳим ўрин эгаллайди. Ушбу асар Алишер Навоий таваллудининг 525 йиллигига бағишлаб яратилган бўлиб, улуғ шоир хотирасини ўзгача эъзозловчи асар сифатида ўрин эгаллайди. И.Акбаровнинг "Хамса" поэмаси 1972- йил ёзилган уч қисмли асар бўлиб, биринчи ва учинчи қисмлари шоир шеърятига асосланади, ўрта қисмида "Фарход ва Ширин" достони матнидан фойдаланилади. Фарходнинг мусиқали характеристикаси хор ва оркестрга топширилган қахрамонлик руҳидаги мавзуда ўз кўринишини номоён этади. Бу асар ўз навбатида томошабинларни қахрамонлика чорлабгина қолмай, яхшилик, ёмонлик устидан ғалаба қозониши ва ўз навбатида томошабинларни руҳиятини кўтаришга ундайди.

70 - 80 йилларда оратория, кантата кўп қисмли поэма, ода, баллада каби жанрлар этакчи ўринни эгаллаган. М. Бурхоновнинг "Абадий хотира" реквием марсияси Б. Умиджонов ва Б.Лутфуллаев Ф.Алимов каби композиторларнинг хор асарлари шулар жумласидандир. (Ш.Рўзиев "Хоршунослик". Тошкент 1987-йил)

1936-йилда Тошкент Давлат консерваторияси очилди. Ўша вақтларда бир гуруҳ истеъдодли ўзбек ёшлари Москва ва Ленинград консерваторияларида таҳсил ола бошлади. Эндиги навбат хор жамоларини Ўзбекистонда ўз фаолиятини олиб бориш эди. Шу боис хор санъати доирасини кенгайтириш унинг оммалашувига кенг йўл очиш керак эди. Кўп овозли хор маданиятини ўзлаштириш билан, капелланинг 1936 йилда яратилиши ва 1937 йилгача давом этиши ўзбек мусиқали драмаси ва операларининг сахналаштирилиши оммавий кўшиқларнинг пайдо бўлиши хор жамоаларининг малакали раҳбарлари ва хор хонанда артистларни тайёрлаш долзарб бўлиб қолди. 1943 йилда мусиқа педагогика факултети эндиликда, хор дирижёрлиги факултетига айлантирилди. Шу вақтдан бошлаб Ўзбекистонда хор дирижёрлиги таълимининг тизими ташкил этилди.

Республикада хор таълимини ташкиллаштириш ва хор маданиятини ривожлантиришда Ўзбекистон давлат консерваторияси хор дирижёрлиги кафедрасининг хиссаси каттадир. Бунга Ўзбекистондаги барча профессионал хорларни болалар ва хаваскорлик жамоаларини бошқараётган мусиқа олий ва ўрта таълим муассасаларида муваффақиятли таълим бераётган битирувчиларнинг фаолияти бунга далилдир. Йиллар давомида хор дирижёрлик кафедраси мингдан ортиқ хор дирижёрлари ва хор фанлари ўқитувчиларини тайёрлаб келмоқда. Кафедрани 1944-1955- йиллар мобайнида, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган санъат арбоби профессор М.Н.Семёнов 1955-1976 йилларда ажойиб педагог хормейстер профессор В.И. Князатов 1978 – йилда биринчи миллий кадрлардан Н.И.Козиев бошқаришди.

1994-2007 йилларда кафедрани етакчи профессор Н.С.Шарафиева бошқарди айни вақтда кўп йиллар мобайнида ВХДФнинг декани фаолият юритган профессор



Л.Х.Жумаева бошқарган. Ҳозирги кунда келиб ушбу кафедранинг ва хор жамоани Севара Пулатовна бошқариб келмоқда. Республикамизда мусиқа ва хор санъати XX- асрнинг 20-йиллардан бошлаб ривожлана борди. Худди шу йиллардан бошлаб тўғарақлар ташкил топа бошлади.

1930- йилларда етук бастакорлар Ю.Ражабий, Имомжон Икромовлар бир ва икки овозли хор кўшиқлари яратдилар. 1934- йилда биринчи мусиқа бадий олимпиядаси ўтказилди. Бу олимпиадада 1000 кишилик хор катнашди, 1937- йилда Москва- Ўзбекистон декадасида хор жамоалари катнашди. Уруш йилларида хаваскорлик хорлар жангчилар учун концертлар уюштирар эдилар умумий фронт ортида аскарларни руҳиятини кўтариш учун хизмат қилар эдилар. Урушдан кейин республика олимпиядасида хорда 200000 киши катнашди, умумий жамоалар сони 1143 та хор жамоаси, ушбу олимпиадада иштирок этган эди. 1948- йил III- хор олимпиада бўлиб ўтди. Унда 25000 киши иштирок этди. Шу тариқатарғибот - ташвиқот ва композиторлар ижодида хорга талукли кўп овозли ижро ривожлана борди. 50 йилларда Консерватория мусиқа билим юрти ўқитувчилари хаваскорлик хорларга амалий ёрдам бера бошлашди. 60- 70 йилларда хаваскорлик жамоаларини сони ва сифати ошди.

Хор ижрочилиги ҳозирги кунда кенг тарқалган асл халқ санъати турларидан биридир. Коллектив ижрочилиги одамларда чуқур эстетик завқ уйғотибгина қолмай, уларни жипслаштиради, коллектив бўлиб бирлашишга олиб келади, ҳамда маънавий савиясини, бадий дидини оширишга ёрдам беради.

Хор хонандалик жозибаси билан ҳайратга солувчи ўзига хос санъатдир. У инсоннинг энг яхши ҳис-туйғуларини уйғотиб, ҳаяжонлантириш, қизиқтириш хусусиятига эга. Унинг ижодий бойлиги ўрта Осиё ва халқларининг оригинал ва қайта ишланган кўшиқларини ўз ичига олади. Концерт фаолияти ва хор мусиқаси тарғиботчилиги учун 1982 -йилда Ўзбекистон телевидения ва радиоси хори Республикада хизмат кўрсатган коллектив номига сазовор бўлди. Кейинги йиллар давомида республикамизда болалар хори кенг ривожланиб, ўз ижрочилик маҳоратини ошириб келмоқда. Ҳар йили республикада ўтказиладиган анъанавий «Санъат байрами» кўрик танловлар мусиқа ва умумтаълим мактабларининг кўпдан-кўп хор коллективларини жалб қилмоқда. (Ўзбек мусиқа тарихи 1,2 том .Тошкент 1973-йил)

Мусиқа билим юртларида, маданий-оқартув техникумларида, педагогика билим юртларида, педагогика институтларида, маданият институти ва консерваторияда кўплаб хор коллективлари мавжуд. Ҳар йили М. Ашрафий номидаги Тошкент Давлат консерваториясида шаҳар хор коллективларининг «Хор мусиқаси ҳафталиги» кўриги ўтказилади. Ўзбекистон композиторлари хор мусиқасининг турли жанрларида ижод қилиб муваффақиятга эришмоқдалар.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

- 1.Ш.Рўзиев”Хоршунослик”.Тошкент 1987 – Б.17
- 2.Ўзбек мусиқа тарихи 1,2 том .Тошкент 1973- Б.82
- 3.”Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар”16-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материалли.Тошкент 2020-йил
4. www.ziyounet.uz

ПЕДАГОГНИНГ ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИ МОЎХИРОНА ФАОЛЛАШТИРИШИ

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.202.84.65.073>

Болтаева Шоҳида Олимжоновна

Термиз давлат университети алгебра ва геометрия кафедраси ўқитувчи

Аннотация: Ушбу мақолада педагогларнинг ўқитишдаги фаолиятида талабаларнинг ўқув дарсларида фаоллигини ошириши, билим даражасини аниқлашда уларнинг интеллектуал, ижодий кучлари, изчил ривожлантириладиган қизиқиши ўқишнинг доимий қўзғовчи мотиви, ўқув жараёни самарадорлигининг эса муҳим шарти эканлиги қаралади.

Калит сўзлар: билимлар, фаоллик, ички ва ташқи мотивация, таълим, ўқитиш, талаба, шахс, қобилият, долзарб, қизиқиш.

ОСНОВНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА УЧИТЕЛЯ

Болтаева Шоҳида Олимжоновна

Преподаватель кафедры алгебры и геометрии Термезского
государственного университета

Аннотация: В этой статье важно повысить активность учителей в классе, определить уровень знаний, развить их интеллектуальные, творческие способности и способности, психические и возрастные характеристики, а также уровень подготовки, который постоянно развивается.

Ключевые слова: знания, деятельность, внутренняя и внешняя мотивация, воспитание, обучение, студент, личность, умение, настойчивость, интерес.

MASTER ACTIVITY OF THE TEACHER'S LEARNING PROCESS

Boltaeva Shohida Olimjonovna

Lecturer, Department of Algebra and Geometry, Termez State University

Аннотация: In this article, it is important to increase the activity of teachers in the classroom, determine the level of knowledge, develop their intellectual, creative abilities and abilities, mental and age characteristics, as well as the level of training that is constantly evolving. *Кейвордс:* knowledge, activity, internal and external motivation, education, training, student, personality, skill, perseverance, interest.

Keywords: knowledge, activity, internal and external motivation, education, training, student, personality, skill, perseverance, interest.

Дунёда кечаётган бугунги глобаллашув жараёни ҳар бир давлатдан халқаро майдонда ўз ўрнига эга бўлиши учун, аввало, унинг барқарор ривожланиши бирламчи омил эканини талаб қилади. Бунда юксак тараққий этган давлатларнинг асосий устунлиги бевосита таълим тизимининг самарадорлиги ҳамда шахсни ривожлантириш бўйича яратилган мавжуд ички имкониятларга боғлиқ.

Юртбошимиз томонидан олиб борилаётган таълим тизимидаги саъйи ҳаракатлар замирида ёш авлоднинг ақлан етук ва маънан баркамол бўлиб улғайишини таъминлаш, таълим тизимида юқори сифатга эришиш, ўқитишнинг илғор тажрибалари ҳамда замонавий педагогик технологиялардан фойдаланган ҳолда фарзандларимизни кучли, билимли, доно ва, албатта, бахтли бўлишларига эришиш айни пайтда таълим соҳасида фаолият юритаётган ҳар бир педагогнинг бош мақсадига айланган. [1].

Юқори малакали педагог кадрларга бўлган талаблар ортиб бораётган ҳозирги шароитда касбий тайёргарлиги юқори даражада бўлган ҳамда замонавий

педагогик ва ахборот технологияларини яхши ўзлаштириб олган ижодкор педагог кадрларни шакллантириш талаб этилади. Янгиланган таълим тизимини жорий этишда ҳар бир ўқитувчи ўзининг фанига ва баркамол авлод таълим – тарбиясига оид ахборотларни мунтазам ўрганиб бориб, уларни ўз меҳнат фаолиятида изчил қўллай билиш маҳорати оқибатидагина таълим – тарбия жараёнини замон талаблари даражасида ташкил эта олиши керак.

Ўқитувчининг талабаларнинг билимларни ўзлаштириш, уқув ва малакаларни шакллантириш, уларни амалиётда қўллашда қизиқишини, фаоллигини, ижодий мустақиллигини оширишга ёрдам берадиган ўқитиш мазмуни, шакллари, методлари, услубларини ва воситаларини ишлаб чиқиш ва фойдаланишга йўналтирилган собитқадам фаолияти талабаларнинг ўқув фаолиятини фаоллаштириш деб аталади. Талабанинг ўқув жараёнидаги фаоллиги таълимнинг рағбатлантирувчи омиллари (истаклари) билан бевосита боғлиқдир. Рағбатлантириш эса билимларни ўзлаштириш жараёнини жадаллаштириш, янги билимларни мустақил излашга сафарбар қилиши лозим. . [4].

Педагогик маҳорат - педагогик жараёни билиш, уни ташкил эта олиш, ҳаракатга келтира олиш, педагогик жараённинг юқори самарадорлигини белгилловчи шахснинг иш сифати ва хусусиятлари синтези.

Педагогик мулоқот - таълим олувчиларнинг мақсадлари ҳамда уларнинг биргаликдаги фаолиятлари мазмунидан келиб чиқадиган ўзаро алоқаларни ўрнатиш ва ривожлантиришни, бир-бирини англаш ва қўллаб-қувватлашни ташкил этишнинг кўп қиррали жараёни.

Педагогик такт - болалар фаолиятининг турли доираларида улар билан мулоқотда бўлишнинг педагогик тамойили, ўлчови, ўқувчилар билан уларнинг шахсий хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда тўғри мулоқотда бўла олиш малакаси. [5].

Муваффақиятли ишлаш учун ҳар бир ўқитувчи педагогик маҳоратга эга бўлиши зарур. Педагогик маҳорат эгаси оз меҳнат сарф қилиб, катта натижага эришади, ижодкорлик унинг ҳамиша ҳамкори бўлади. Педагогик ишга қобилиятли, истеъдодли кишидагина педагогик маҳорат бўлиши мумкин. Қобилият фаолият жараёнида пайдо бўлади ва ривожланади. Қобилият малака ва уддабуронликдан фарқ қилади. Малака ва уддабуронлик машқ, ўқиш натижасидир. [6].

Шундай экан, педагогнинг талабалар ўқув фаолиятини мохирона фаоллаштиришида таълим-тарбия жараёнида вужудга келиши мумкин бўлган муаммоли вазиятларда ўқувчилар фаоллигини таъминлаш ва фаолиятини мувофиқлаштириш кўникмаси, ўқувчи-талабаларлар билан ҳамкорликда фаолият кўрсатиш ва ташкилотчилик услубларидан оқилона фойдаланиш кўникмаси, мулоқотга осон киришиш кўникмаси, турли шароитларда инсонлар билан ҳамкорликда фаолият кўрсатишга мос бўлган ўзаро таъсир кўрсатиш кўникмаси, ахборотлар тўплаш, таҳлил қилиш, объектив баҳолаш, қайта ишлаш ва ахборотлар алмашилиш кўникмаси катта аҳамият касб этади.

Методлар ва услубларнинг талабаларнинг фаол тадқиқот фаолиятини ривожлантиришга йўналганлигини таъминловчи талабаларнинг билиш фаолликларининг фаоллашувига ёрдам берувчи асосий шартлардан бири муаммолар ва масалаларни қўйиш ҳамда илмий билиш методларидан фойдаланиб ечиш йўли билан ўқитишдир.

Талабалар фаолиятини янада юксалтиришда педагогдан ижодкорлик талаб қилинади. Педагогик ижодкорлик манбаи бу педагогик тажрибадир. Педагогик тажриба эса ҳамиша муаммоли вазиятларга бой бўлади. Илғор педагогик тажриба деганда ўқитувчининг ўз педагогик вазифасига ижодий ёндошишини, талабалар таълим-тарбиясининг янги, самарали йўл ва воситаларини қидириб топиши тушунилади. Педагогик фаолият кўрсатаётган ўқитувчи маҳоратли равишда ўтаётган дарсининг таълим-тарбиявий томонларини тушунарли қилиб, талабалар

фаолиятини табиат ва жамият фаолиятидаги ўзгаришлардаги кўникмаларни малакаларга айлантиради. Ўқитувчи-педагог меҳнатининг ўзига хослиги унинг кўп қирралилиги ва мураккаблигидир. Шу билан бирга бу касб кенг билимдонликни, пухта амалий тайёргарлик, юксак педагогик маҳорат ва ижодкорликни талаб этади. Шунинг учун ҳам мустақил Ўзбекистон давлатининг барча таълим соҳаларида ишлайдиган педагоглар:-педагогик фаолиятга қобилиятли, ижодкор, ишбилармон;-миллий маданият ва умуминсоний қадриятлар, дунёвий ва диний илмлардан бохабар, маънавий баркамол; Ўзбекистон мустақил давлат сифатида тарққий этишига ишонган, ватанпарварлик бурчини тўғри англаган, ихтисосликка доир билимларни пухта эгаллаган; эркин ва ижодий фикрлай оладиган, талабчан, адолатли, одобли бўлмоғи керак.

Фойдаланилган адабиётлар:

Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргалликда барпо этамиз. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2016 йил.

Леонтьев А.Н. Избранные психологические произведения: В 2 т. - М., 1983.

Ишмухамедов Р. Ж “Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари” – Тошкент, 2016.

Бердиева Ҳ. Б. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. Услубий қўлланма. Термиз-2015й.

Искандаров К. А Ўқитувчиларнинг касбий маҳоратини такомиллаштиришга муносабат: изланишлар, муаммолар, ечимлар. // Молодой ученый-2016.

Искандаров К. А Ўқитувчиларнинг касбий маҳоратини такомиллаштиришга муносабат: изланишлар, муаммолар, ечимлар. // Молодой ученый-2016.

СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТНИНГ КОНТИНЕНТАЛ ТАБИЙ-ХЎЖАЛИК ШАРОИТЛАРИ

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.48.51.072>

Бутаяров Абдуқодир Тухтаевич
техника фанлари фалсафа доктори, (PhD) доцент

Аннотация: Бугунги кунда глобал иқлиқ ўзгариши шароити сабабли дунёнинг хар бир жойида сугориши сувига бўлган талаб тобора кучайиб бормоқда, шу муносабат билан мавжуд чекланган сув ресурслари танқислигига учраб борилмоқди, мавжуд чекланган сув манбаларидан эҳтиёткорона фойдаланиши бугунги кунинг долзарб муоммоли вазифаси хисобланмоқда. Республикамизда мавжуд чекланган сув ресурсларини оқилона боиқариши ва улардан самарали фойдаланишига оид маълумотлар таҳлили, дала шароитида сув ресурсларида фойдаланиши самарадорлигини ошириши, замонавий сув тежамкор сугориши технологияларни кенг қўллаш ва уларни ишлаб чиқаришига тадбиқ қилиши имкониятлари, муоммоларни ечиши бўйича тахлиллар, ортиқча сув йўқотилишига бархам бериши бугунги куннинг асосий вазифасидир.

Калит сўзлар: глобал иқлим, сугориши тартиби, сув, ресурстежамкор, техника, технология.

КОНТИНЕНТАЛЬНЫЕ ПРИРОДНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Бутаярова Абдуқодира Тухтаевич
доктор философских наук, (PhD) доцент

Аннотация: В связи с глобальным изменением климата потребность в воде для орошения растет во всем мире, и в связи с этим наблюдается нехватка доступных водных ресурсов, а бережное использование имеющихся водных ресурсов является актуальной проблемой сегодня. Анализ данных по рациональному использованию и эффективному использованию ограниченных водных ресурсов в стране, повышению эффективности водопользования на полях, широкому применению современных водосберегающих технологий полива и их применению в производстве, анализ проблем, устранение лишних потерь воды это основная функция.

Ключевые слова: глобальный климат, режим орошения, вода, ресурсосбережение, техника, технология.

CONTINENTAL NATURAL AND ECONOMIC CONDITIONS OF SURKHANDARYA REGION

Butayarov Abduqodir Tuxtaevich
Doctor of Philosophy in Technical Sciences, (PhD) Associate Professor.

Abstract: Due to global climate change, the demand for irrigation water is growing all over the world, and in this regard, there is a shortage of available water resources, and the careful use of available water resources is a pressing issue today. Analysis of data on the rational management and efficient use of limited water resources in the country, improving the efficiency of field water use, the widespread use of modern water-saving irrigation technologies and their application in production, analysis of problems, elimination of excess water loss is the main function.

Keywords: global climate, irrigation regime, water, resource saving, technique, technology.

Кириш: Сурхондарё вилоятининг иқлими, ёзнинг юқори ҳароратли иссиқлиги ва қишнинг қаттиқ совуқлиги ҳамда иссиқ ҳарорат узоқ давом этиши билан бошқа жойдан тубдан фарқланиб туради. Сурхондарё вилоятининг Жарқўрғон туманида сизот сувлари сатҳи 0,5 – 1,0 м чуқурликда жойлашган ерлар майдони 64 га, 1,0 – 1,5 м чуқурликда 53 га; 1,5 -2,0 м гача 676 га; 2,0 – 3,0 м гача 4196 га; 3,0 – 5,0 м гача 9216 га; 5,0 м дан юқори бўлган майдон 13284 га ни ташкил қилади. Сизот сувлари сатҳи маълумотлари 10-иловада келтирилган. Вилоятнинг Термиз, Музробод, Шеробод, Қизирик туманларида сув тақчил бўлган йиллар ер ости сувларидан фойдаланиб ғўзани суғориш мумкин бўлади[2].


Иссиқ давр йил давомида 210-240 кундан иборат бўлиб, айрим кунлари ҳаво ҳарорати 45-55 0С га етади. Ғўзанинг ўсиб – ривожлана олиши мумкин бўлган юқори ҳарорат 38–39 0С ҳисобланади. Сўнгги кузатишлар кўрсатадики, кўсак туғиш даврида ҳароратнинг 42 0С гача кўтарилиши кўсакдаги чигит ва толанинг ривожланишини тезлаштиради. Шунга кўра, энг юқори ҳарорат 37 0С деб ҳисоблаш керак. Ҳароратнинг 41,5 0С дан юқори бўлиб кетиши ғўза тўқималарини киздириб юборади, 450 С ва ундан юқори ҳарорат эса ғўза ўсимлигига қаттиқ салбий таъсир қилади. Сурхондарё вилояти Ўзбекистоннинг жанубий қисмида жойлашган бўлиб, суғориладиган ерлари асосий қишлоқ хўжалик экинлари етиштириладиган майдон бўлиб ҳисобланади[10]. Вилоятда суғориладиган ерлар асосан, Амударё, Сурхондарё, Шерободдарё сувларидан ва мавжуд сув омборлари сувларидан фойдаланилади. Вилоят геоморфологик тузилишига кўра, Сурхон воҳаси икки қисмга бўлинади:

1. Тоғ олди қисми, ярим чўл минтақаси оч тусли бўз тупроқ минтақаси.
2. Текислик қисми, дашт минтақаси-тақирсимон тупроқлар минтақасидан иборат[3].


Улар денгиз сатҳига нисбатан 550-1000 м баландликда жойлашган. Ушбу минтақада қишдан баҳорга ўтишда ҳаво ҳарорати тез-тез ўзгариб туради. Февралда ҳавонинг ўртача ҳарорати 4,9 0С, мартда 10,1; апрелда 160С даража бўлиб, дашт минтақасига нисбатан об-ҳаво шароити қисман юмшоқлиги билан фарқ қилади. Бу минтақада йиллик ёғингарчилик миқдори 250-350 мм ни ташкил этади. Чўл қисми (жанубий дашт қисми) - бу ерда тақирсимон, оч тусли бўз, тақир-ўтлоқи, чўл кумоқ, чўл ўтлоқи ва шўрхоқ тупроқлар тарқалган[4]. Паст текисликлар қисми денгиз сатҳидан 350-450 м баландликда жойлашган. Вилоятнинг ушбу жанубий дашт минтақасида ҳам қишдан баҳорга ўтишда ҳаво ҳароратининг кескин ўзгариши кузатилади. Февраль ойида ўртача кунлик ҳаво ҳарорати 6,5-7,4 0С, мартда 12,4 0С ва апрелда 18,2-19,9 0С, майда 27-31 0С, июнда 30-36 0С даража иссиқ бўлади. Йил давомида ўртача 110-154 мм миқдорда ёғингарчилик бўлади. Йиллар кесимида ҳаво ҳарорати, ҳавонинг нисбий намлиги, намлик етишмовчилиги, ёғингарчилик миқдори Термиз метеостанция маълумотлари 1,2,3,4-расмларда келтирилган.

Вилоят иқлим шароити кескин континентал ўзгарувчан бўлиб, йиллик, ойлик, кунлик ҳаво ҳарорати ўзининг ўта қуруқлиги ва қишда ҳавонинг совуқлиги билан бошқа минтақа иқлимидан ажралиб туради. Ҳаво ҳарорати баъзи кунлари бир кун давомида 2-3 ҳолатга ўзгаради ва ҳаво ҳарорати ёзда бир суткада 400С даражадан, эртаси куни 250 С гача камаяди. Бу ҳолат ва тез-тез эсиб турадиган кучли афғон шамоли вилоятнинг жанубий дашт қисмида бир йилда 20-25 мартагача такрорланади. Афғон шамоли бир-икки кунгача давом этади. Бу эса қишлоқ хўжалик экинлари ўсиши, ривожланиши ва ҳосил тўплашига салбий таъсир кўрсатади. Ёғингарчиликнинг кам бўлиши чигитни ундириб олиш учун экиш олди суви беришни талаб этади. Асосан чўл минтақасига Жарқўрғон, Термиз, Музробод, Шеробод, Қизирик, Ангор ва Қумқўрғон туманларининг маълум қисми киради. Воҳанинг чўл қисмида ҳарорат юқори, бу ерларда йиллик ўртача ҳарорат 18,10 С даража бўлса, Термиз туманида 18,20 С, Шеробод туманида 16,60 С даража иссиқ


бўлади. Мавсум давомида ушбу туманларда ўртача ҳарорат +28,3-29,80 С даража иссиқ бўлиб, ёзда 32,10 С ўртача даражани ташкил этади, кунлик ҳарорат 37,2-39,90 С даражагача кўтарилади. Бу ерларда энг юқори ҳарорат -45-530 С га етади. Термиз метеостанциясининг 2020 йилги маълумотлари келтирилган. Энг паст ҳарорат эса -120 С совуқ бўлади. Йиллик фойдали ҳароратлар йиғиндиси 29960 С дан 36750 С гача, умумий ҳароратлар йиғиндиси 6320-72800 С га етади. Илик кунлар йил давомида 248-272 кун, ёғингарчилик миқдори 136-154 мм, мавсумий давомида эса 38-42 мм бўлади. Ҳавонинг нисбий намлиги баъзи ойларда 19-22% гача пасаяди. Тупроғи тақирсимон, тақир-ўтлоқ тупроқлар бўлиб, чиринди ва озикаларга камбағаллиги, карбонатларга (8-11%) бойлиги, шўрланишга мойиллиги билан бошқа минтақа тупроқларидан фарқ қилади[8]. Сурхондарё вилоятида континентал иқлим шароитларидан келиб чиқиб, бир-биридан фарқ қиладиган турли хил тупроқ-иқлим шароитлари мавжуд бўлиб, экинлар экиб парваришлашида ҳам анча катта фарқ бўлишини эътиборга олиш лозимлигини тақозо қилади. Жарқўрғон тумани дала тажрибаси жойлашган ҳудуднинг табиий-иқлим шароитининг тез ўзгарувчанлиги, ғўза далалари, экинлар ва бошқа зироатлар учун ерларни мелиоратив ҳолатини, континентал иқлим ўзгариши, қулайлик даражаси, об-ҳавонинг кескин ўзгариши, иқлим шароитига кўра, уларни жойлаштириш зарурлигини илмий асослаш, уларни мўътадил назорат қилишга ихтисослаштириш учун жуда муҳим.




1-расм. Ҳаво ҳарорати, °C



2-расм. Ёғингарчилик миқдори, мм



3-расм. Ҳавонинг нисбий намлиги, %



4-расм. Намликнинг етишмаслиги, мм.

Табиий-иқлим шароитлари ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш ва қишлоқ хўжалик экинларини етиштиришда янги суғориш технологияларни татбиқ қилиш, экинлардан мўл ҳосил олинишида, ресурс тежамкор суғориш техникаси - технологиясини қўллаш, сув ресурслари исрофгарчилигининг олдини олишда катта таъсир кўрсатади[6]. Томчилатиб суғориладиган ерларда етиштириладиган пахта экинлари маҳсулдорлигини янада ошириш фақат анъанавий мақбул суғориш тизимидан қочган ҳолда, балки томчилатиб суғориш усулида ўғитлар билан озиклантириш тартибига мувофиқ равишдагина эмас, балки тупроқ ҳарорати, қурғоқчиликка бардошлилик ва ҳавонинг нисбий намлиги, сувларининг сатҳий жойлашишига ҳам боғлиқ[3]. Ундан ташқари, бунда муайян хўжалик омиллари, хусусан, ишчи кучи камлиги, сув билан таъминланганлик даражаси бир меъёрда бўлиши, сувни исрофгарчилиги йўқлиги, суғориш технологияси, шу жумладан, ўсимликларни томчилатиб суғоришдаги озиклантириш тартиблари ҳам муҳим

аҳамият касб этади[9].

Сурхондарё вилояти иқлимнинг ўзига хослиги шундан иборатки, у қурғоқчил, ёруғлик ва иссиқлиги мўл-кўл ҳамда кескин беқарор. Бу ер иклими йиллар бўйича ва йиллар давомида беқарор ўзгариб туради. Ўзбекистон ҳудудининг жанубий қисми субтропик иқлим минтақаси эса шимолий қисми саҳро ила тавсифланади[7]. Иқлимнинг шаклланишида совуқ, мўътадил ҳамда субтропик ҳаво оқимини циркуляцияси кўринади. Тупроқни пасттексисликда жойлашган пахтачилик минтақасини тавсифга асосан, иқлим иссиқлиги ва қуруқлиги ёзи, сернамли баҳор, куз ҳамда кўпинча совуқ қиш билан ажралиб туради[1].

Ўтлоқлашиб бораётган оч тусли бўз тупроқ минтақасида ҳавонинг ғўза амал даврида ўртача ҳарорат 19,10 С – 29,70 С ни ташкил этади. Апрель ойида ўртача ҳавони ҳарорати – 19,40 С, июлда – 32,30 С, октябрда эса 16,60 С бўлди. Ҳаво ҳароратининг ўртача уч йиллик ўзгариши 1-расмда келтирилган. Ҳавони ўртача ҳарорати 10-апрелда 19,40 С дан, 21-апрелда 27,90 С дан ортади. Ғўза ўсимлиги учун фойдаланиш ҳарорат йиғиндиси 11-апрелдан 11- октябргача 59120 С га этади.

Хулоса: Дала экспериментал тадқиқотлар даврида тажриба даласи ҳудудида иқлим шароити кўп йиллик қийматлардан фарқ қилди: Ҳаво ҳарорати 18,10 С ҳавонинг намлиги -50% 1-расмда, ёғингарчилик миқдори 9,9 мм 2-расмда, йиллик буғланиш 214,5 мм 3-расмда, жумладан, вегетация даврида 159 мм. 2017-2019 йилларда ушбу қийматлар қуйидагича бўлган: ҳаво ҳарорати 18,1; 18,4 ва 19,20 С, ҳавонинг намлиги 50,1; 46,4; 53,8%, намлик етишмовчилиги 17,9; 16,9; 14,8 мм, ёғингарчилик миқдори 118,6, 122, 146,9 мм. Ушбу аниқланган чекланишлар суғориш муддати ва суғориш меъёри қийматига сезиларли таъсир кўрсатади. Тадқиқот ишлари ўтказилган йилларда вегетация давридаги буғланиш 2019-1091 мм, 2020 й- 1063, 2021 - 1081 мм ни ташкил этди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхаги:

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси сув хўжалигини ривожлантиришнинг 2020 - 2030 йилларга мўлжалланган концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги 2020 йил 10 - июлдаги ПФ-6024 - сон фармони.

Бутаяров А.Т., Серикбаев Б.С., Расчет режима капельного орошения хлопчатника нового сорта “Султан”. // “IRRIGATSIYA va MELIORATSIYA” jurnali. №2(16). –Тошкент, 2019. -С. 10-14.

Бутаяров А.Т. «Аму – Сурхон» ИТХБ ҳудудидаги фермер хўжаликларида сувдан фойдаланишни такомиллаштириш. // “AGROILM” jurnali maxsus son 4.(60). -Тошкент, 2019. –Б. 79 - 81.

Бутаяров А.Т., Серикбаев Б.С., Серикбаева Э.Б., М.Т. Муҳаммадиева, Суғорма дехқончиликда сувдан тежамли фойдаланиш технологияси. “Суғорма дехқончиликда сув ва ер ресурслардан оқилона фойдаланишнинг экологик муаммолари” мавзусидаги Республика илмий - амалий анжумани I-жилд. – Тошкент. 2017 йил, 24-25-ноябрь. –Б. 109-111.

Бутаяров А.Т., Серикбаев Б.С. Аму-Сурхон ИТХБ ҳудудидаги фермер хўжаликларида сувдан фойдаланишни такомиллаштириш. TerDU ilmiy xabarnomasi ilmiy - uslubiy jurnal. №1.(01) Сентябрь. –Термиз, 2019. -Б. 16-19.

Бутаяров А.Т. Аму-Сурхон ирригация тизим ҳавза бошқармасида сувдан фойдаланиш ҳолати. Международная конференция инновационное развитие науки и образования. Ноябрь 2020 г. «Сборник научных трудов Павлодарь, Казахстан» Ноябрь, 2020 г. -Ст. 132-139.

Postel, S. Drip Irrigation Expanding Worldwide [Электронный ресурс] // NEWSWATCH.NATIONALGEOGRAPHIC.COM: National Geographic. URL: <http://newswatch.nationalgeographic.com/2012/06/25/drip-irrigation-expandingworldwide/> (дата обращения: 06.08.2012). –Рр. 171.

Справочник эколога - климатических характеристик. г. Москвы. А.А.Исаева. МГУ, 2005. -412 с.

Ҳамраев Ш.Р. Мамлакатимиз сув хўжалиги соҳасида олиб борилаётган ишлар ва эришилган натижалар. “IRRIGATSIYA va MELIORATSIYA” jurnali. –Тошкент. -1-сон, 2015. -Б. 6-7.

Ҳамидов М.Х., Бегматов И.Б., Маматалиев А.Б. Қишлоқ хўжалигида сувдан фойдаланиш. Ўқув қўлланма. –Тошкент. 2013. -186 б.

ТАЖРИБА ДАЛАСИНИНГ ЎХШАШЛИГИНИ АСОСЛАШDOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.36.84.071>

Бутаяров Абдуқодир Тухтаевич

Техника фанлари фалсафа доктори, (PhD) доцент

Аннотация: Бугунги кунда глобал иқлиқ ўзгариши сабабли дунёнинг ҳар бир жойида суғориш сувига бўлган талаб тобора кучайиб бормоқда, шу муносабат билан мавжуд чекланган сув ресурслари танқислигига учраб борилмоқди, мавжуд чекланган сув манбаларидан эҳтиёткорона фойдаланиш бугунги кунинг долзарб муоммоли вазифаси ҳисобланмоқда. Шу муносабат билан ерларнинг рельефларига қараб уларни тузилишлари турли хил бўлади. Тупроқнинг мелиоратив ҳолати ва таркиби турлича бўлади. Тупроқни минерал озика миқдорларига қараб турича бўлиши, механик таркибига кўра ҳам турлича бўлиши мумкин. Тажриба ўтказиш жараёнида тупроқнинг ухшашлигини асослаш жуда муҳим вазифа ҳисобланади.

Калит сўзлар: тажриба даласи, ухшашлик, тупроқни механик таркиби, сизот сувлар сатхи, ресурстежамкор, техника, технология.

ОБОСНОВАТЬ ПОДОБИЕ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОГО ПОЛЯ

Бутаярова Абдуқодира Тухтаевич

доктор философских наук, (PhD) доцент

Аннотация: Сегодня, в связи с глобальным изменением климата, потребность в воде для орошения растет во всем мире, и в связи с этим наблюдается нехватка имеющихся водных ресурсов, бережное использование имеющихся ограниченных водных ресурсов является актуальной проблемой сегодня. В связи с этим в зависимости от рельефа земель их структура будет разной. Мелиоративное состояние и состав почвы различны. Почва может быть разной в зависимости от количества минеральных элементов питания, а также механического состава. Обоснование подобия почвы в ходе эксперимента - очень важная задача.

Ключевые слова: опытное поле, подобие, механический состав почвы, уровень подземных вод, ресурсосбережение, техника, технология.

SUBSTANTIATE THE SIMILARITY OF THE EXPERIMENTAL FIELD

Butayarov Abduqodir Tuxtaevich

Doctor of Philosophy in Technical Sciences, (PhD) Associate Professor.

Abstract: Today, due to global climate change, the demand for irrigation water is growing all over the world, and in this regard, there is a shortage of available water resources, careful use of available limited water resources is a pressing problem today. In this regard, depending on the reliefs of the lands, their structure will be different. The reclamation condition and composition of the soil varies. The soil can be different depending on the amount of mineral nutrients, as well as the mechanical composition. Substantiating the similarity of the soil during the experiment is a very important task.

Keywords: experimental field, similarity, mechanical composition of soil, groundwater level, resource-saving, technique, technology.

Кириш: Ҳозирги кунда қишлоқ хўжалигида ерга бўлган эҳтиёж сезиларли равишда ошиб боришини инобатга олиб, хўжаликга ердан фойдаланиш имконият даражаси ортиб бормоқда. Аҳоли сонининг кескин ўсиши, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштириш мунтазам равишда кўпайиб бориши муносабати билан ер ва сув ресурсларига бўлган эҳтиёж, кун сайин ортиб кетмоқда[1]. Шу боисдан ҳам ер ва сув ресурслари ниҳоятда таҳсил бўлиб бораётган ҳозирги шароитда ер ва сувни жуда тежаб - тергаб фойдаланиш ҳамда сарфлаш, барча мавжуд ер ва сув манбаларини тартибга солиш ва сувнинг шимилиб, исроф бўлишини камайтириш, суғоришга берилаётган сувнинг ҳар кубометридан тўғри ва оқилона фойдаланиш самарадорлигини ошириш борасида амалга ошириладиган чора-тадбирларга аълоҳида эътибор қаратилган. Бу ҳолат эса қишлоқ хўжалиги экинларини сув тежамкор суғориш усулини қўллаш ва такомиллаштириш, янада купроқ жорий

қилишни тақозо этмоқда Тажриба даласининг тупроғи ўтлоқлашиб бораётган оч тусли бўз, механик таркибига кўра, ўрта кумоқ тупроқдан иборат бўлиб, таркибида чиринди микдори унча кўп эмас, минерал коллоидлар шимилиши жуда тез[2]. Юқори қатламларда уларнинг ўзгариши 8 дан 9 мг.экв (100 г тупроқда) гача ўзгаради. Тажриба даласи тупроғининг сув – физик хоссалари зичлиги, каттик фазанинг зичлиги, тупроқнинг ғоваклилиги, максимал гидроскопиклик, намлик захираси, тўғрисидаги бирламчи маълумотлар. Тажриба майдончасини танлаш Сурхондарё вилоятининг жануби - шарқий зонаси табиий – хўжалик шароитларидан келиб чиққан ҳолда ва ушбу қишлоқ хўжалигининг барча ҳудудига мос келади[4].

Участкаларнинг аломатлари бўйича таққослаш учун В.В. Шабанов ва Е.П. Рудаченко услубиятидан фойдаланамиз. Ҳисоблаш жараёнида ҳар бир аломат учун аломат ўлчами чегарасидан чиқмаган ҳолда унинг статистик ҳарактеристикалари ҳамда арифметик қийматлари (тасодифий катталиқ) аниқланганлиги келтирилди[6].

$$X_1 - X_2 - X_3, \dots, X_n \quad (1)$$

Ўрта квадратик чекиниш куйидаги (2-формула) боғлиқлик орқали белгиланди:

$$\sigma = \sqrt{(X_n - X)^{n-1}} \quad (2)$$

бунда X – кўрсаткичнинг ўртача қийматини (3-формула)да кўришимиз мумкин.

$$\bar{X} = \frac{\sum X_n}{n} \quad (3)$$

n – ўлчанган катталиқлар ўртача сони.

Масала тақсимот қонунларидан фойдаланиб ҳал қилинди (Гаусс қонуни). “ X ” тасодифий катталиқлар юқоридаги қонуният асосида тақсимот зичлиги бўйича тақсимланган[9].

$$f(x) = \frac{1 \cdot e^{-\frac{(x-m)^2}{2\sigma^2}}}{\sigma \sqrt{2\pi}} \quad (4)$$

Ёки

$$f(x) = \frac{1}{\sigma \cdot \sqrt{2\pi}} \cdot \left\{ \frac{(x-m)^2}{2\sigma^2} \right\} \quad (5)$$

α участкадан β участкагача нормал тақсимланган “ X ” тасодифий катталигининг бир вақтда тутилишини ҳисоблаш куйидагича аниқланади.

$$P(\alpha < X < \beta) = \Phi^* \left(\frac{\beta - X}{\sigma} \right) - \Phi^* \left(\frac{\alpha - X}{\sigma} \right) \quad (6)$$

бунда α ва β эталон диапазоннинг куйи ва юқори чегаралари.

σ – таққосланувчи объектнинг ўрта квадратик узоклашиши;

Φ – эҳтимоллик интегралли;

X – аломатнинг ўрта қиймати.

Ҳисоблар жадвал кўринишида олиб борилди [10].

1-тартибли ўхшашлик аломатлар сифатида куйидагилар қабул қилинган:

-ҳажмий масса, сув ўтказувчанлик, тупроқнинг механик таркиби, тупроқ фаол қатламдаги гумус микдори[7].

2-тартибли ўхшашлик аломатлар сифатида эса куйидагилар қабул қилинган:


- сизот сувлари сатҳи;

- энг кичик намлик сифими;

- қатлам қалинлиги;

- тупроқдаги туз микдори[5].

Белгиланган кўрсаткичлар асосида умумий ҳолда муқобиллаштириш учун блок – схема тузамиз. Бу муқобиллаштириш блок схемасини 1-расмда тасвирланган.



1-расм. Муқобиллаштириш блок – схемаси.

Тажриба даласини танлангандан сўнг у ердаги даланинг тажрибани жойлаштириш тартибини билиш лозим. Шунинг учун Каченский услубидан фойдаланган ҳолда, тажриба даласининг муқобиллашган блок схема асосида далани ўрганиб чиқилади[3]. Ўрганилган дала майдончаси ҳар бир кўрсаткич асосида таҳлил қилиниб, жадваллар асосида ўрганиб, тажриба ўтказишга мос ёки мос эмаслиги кўриб чиқилади. Таҳлилларга асосан, ўтказиш кераклиги ҳақидаги маълумотлар асосида олиб борилади.

Ҳисоблаш формуласи куйидаги кўринишга эга бўлади

$$P = P_1 \cdot P_2 \cdot P_3 \cdot P_4 \cdot [1 - (1 - P_5) \cdot (1 - P_6)] \cdot [1 - (1 - P_7) \cdot (1 - P_8)] \quad (7)$$

бунда $P_1 - P_2 - P_3 - P_4 - P_5 - P_6 - P_7 - P_8$ - мос равишда, филтрация коэффиценти, тупрокнинг ҳажмий массаси, сув ўтказувчанлик, энг кичик намлик сифими, қоплам ётқизиклари қуввати, тупроқдаги гумус миқдори, туз (хлор) миқдори, сизот сувлар сатҳи аломатлари 1-жадвалда берилган[8].

1- жадвал

Тажриба даласининг ўхшашлигини асослаш.

Т/ Р	Белгилар	Шартли белгилар	Ўлчов бирлиги	Тажриба майдончаси			Сурхондарё вилоятнинг жанубий худуди	Мос тушиш эҳтимоли
				Ўртача қиймат	Ўрта квадратик чекланиш	Ўлчашлар сони	Эталон диапазон	Аналитик диапазон
1.	Филтрация коэффиценти P_1	К	м/с	0,36	0,15	12	0,12-0,4	0,84
2.	Тупрокнинг ҳажмий оғирлиги P_2	D	T/м ³	1,36	0,16	20	1,2-1,42	0,99
3.	Сув ўтказувчанлик, P_3	К ₁	м/с	0,05	0,020	20	0.0026-0.1085	0,98
4.	Энг кичик намлик сифими, P_4	НВ	%	69	27	18	53-75	0,88
5.	Қоплам ётқизиклари қуввати, P_5	Н	м	5	3,2	15	3-10	0,68
6.	Тупроқдаги гумус миқдори P_6	Г	%	1.1	0.13	20	0.930-1.50	0,92
7.	Туз (хлор) миқдори, P_7	S	%	0.007	0.0022	15	0.005-0.02	0,88
8.	Сизот сувлари сатҳи, P_8	УГВ		3.3	0.56	11	3.2-3.4	0,95

Хулоса: Юқоридаги жадвал ва формулалардан фойдаланиб, куйидагиларни ҳисоблаймиз.

$$P^1 = \Phi^x \cdot \left(\frac{0.5 - 0.3}{0.14} \right) - \Phi^x \cdot \left(\frac{0.1 - 0.3}{0.14} \right) = 0,84 \quad P^2 = \Phi^x \cdot \left(\frac{1.43 - 1.3}{0.16} \right) - \Phi^x \cdot \left(\frac{1.2 - 1.3}{0.16} \right) = 0,99$$

$$P^3 = \Phi^x \cdot \left(\frac{0.1085 - 0.05}{0.020} \right) - \Phi^x \cdot \left(\frac{0.0026 - 0.05}{0.020} \right) = 0,98$$

$$P^4 = \Phi^x \cdot \left(\frac{75 - 69}{27} \right) - \Phi^x \cdot \left(\frac{53 - 69}{27} \right) = 0,88 \quad P^5 = \Phi^x \cdot \left(\frac{10 - 5}{3.2} \right) - \Phi^x \cdot \left(\frac{3 - 5}{3.2} \right) = 0,68$$

$$P^6 = \Phi^x \cdot \left(\frac{1.50 - 1.1}{0.13} \right) - \Phi^x \cdot \left(\frac{0.930 - 1.1}{0.13} \right) = 0,92 \quad P^8 = \Phi^x \cdot \left(\frac{3.4 - 3.2}{0.5} \right) - \Phi^x \cdot \left(\frac{3.0 - 3.2}{0.5} \right) = 0,95$$

Сурхондарё вилояти шароитида дала тажриба майдондаги натижаларни татбиқ қилиш имконияти.

$$P = 0.84 \cdot 0.99 \cdot 0.98 [1 - (1 - 0.88) \cdot 1 - 0.68] \cdot 0.92 [(1 - 0.88) \cdot (1 - 0.95)] = 0,67 \quad (8)$$

Суғориладиган майдонларнинг 67 % га майдонига татбиқ қилиш қуйидаги формуладан топилади.

$$F_p = H_{ум}^n \cdot P = 326,0 \cdot 0,67 = 223,3 \quad \text{минг/га} \quad (9)$$

$H_{ум}^n$ – умумий ер майдон (326000 га).

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси сув хўжалигини ривожлантиришнинг 2020 - 2030 йилларга мўлжалланган концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги 2020 йил 10 - июлдаги ПФ-6024 - сон фармони.

Бутаяров А.Т., Серикбаев Б.С., Серикбаева Э.Б., Муҳамадиева М.Т., Суғорма дехқончиликда сувдан тежамли фойдаланиш технологияси. “Суғорма дехқончиликда сув ва ер ресурслардан оқилона фойдаланишнинг экологик муаммолари” мавзусидаги Республика илмий - амалий анжумани I-жилд. – Тошкент. 2017 йил, 24-25-ноябрь. –Б. 109-111.

Справочник эколога - климатических характеристик. г. Москвы. А.А.Исаева. МГУ, 2005. -412 с.

Ҳамидов М.Х., Бегматов И.Б., Маматалиев А.Б. Қишлоқ хўжалигида сувдан фойдаланиш. Ўқув қўлланма. –Тошкент. 2013. -186 б.

Эсанбеков М.Ю. Ирригацион эрозиясига мойил бўлган тупроқларда ғўзани суғориш технологияси элементларини такомиллаштириш. Қишлоқ хўжалиги фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2017. –Б. 18-19.

Эгамбердиева Ш., Бараев Ф.А. Рахмонов З. Суғориладиган ерлар унумдорлигини оширишнинг ноанъанавий усуллари. // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали. -2017. -4-сон. –Б. 45.

Холиқов Б.М. Тупроқ унумдорлиги: муаммолар, тадқиқотлар ва натижалар // ЎзПИТИ тўпл. Тошкент, 2004. -138 б.

Пиримқулов Ж., Икрамова С. Ер-сув ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишнинг зарурияти// Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. -2016. -5-сон. –Б. 43.

Мирзажонов Қ. Тупроқ таркибини экин ҳосили ва сифатига таъсири. // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. -2016. -6-сон. –Б. 42.

Болтаев С.М. Бентонит ва гўнг асосида тайёрланган компостларнинг тупроқ унумдорлигига ва ғўза ҳосилдорлигига таъсири. Диссертация. УДК: 633.51.631.879.4. –Тошкент, 2011.-160 б.

JADIDCHILARNING MA'RIFATPARVARLIK HARAKATLARI VA ULARNING XALQ MA'NAVİYATINI YUKSALTIRISHDAGI O'RNIDOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.21.25.070>*Bobonazarov Orif Abraykulovich**TerDU, Ishimoiy ish kafedrasida katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada Turkiston o'lkasida jadidchilik harakatining vujudga kelishi. Turkistonda jadidchilik harakatining yuzaga kelishida tarixiy sharoit bilan birga, XIX asrning so'nggi choragida uyg'ongan ma'rifatchilik, ma'rifatparvarlik qarashlarining ta'siri doirasida xalq ma'naviyatini yuksaltirish aks etgan. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr boshlarida milliy uyg'onish va milliy ong yuksalishida qilgan xizmatlariga keng e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston, Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Fayzullo Xo'jayev, So'fizoda, Tavallo, Ishoqjon Ibrat Jadidchilik, ma'rifat, ma'rifatparvarlik, millat, g'oya, ozodlik, xalq, diniy-axloqiy, milliy, ma'naviy-axloqiy, g'oyaviy-nazariy

ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДОВ И ИХ РОЛЬ В ПОВЫШЕНИИ ДУХОВНОСТИ НАРОДА*Бобоназаров Ориф Абрайкулович**Старший преподаватель кафедры социальной работы ТерГУ*

Аннотация: В статье зарождение джадидского движения в Туркестанском крае. Наряду с историческими условиями, в возникновении джадидского движения в Туркестане нашли свое отражение возросшие в последней четверти XIX века в рамках влияния просветительских, просветительских взглядов воззрения народа на духовность. Большое внимание джадидизм уделяет своим заслугам в национальном возрождении и подъеме национального сознания в конце девятнадцатого и начале двадцатого веков.

Ключевые слова: Туркестан, Бехбудиди, Фитрат, Чулпан, Абдулла Кадир, Абдулла Авлони, Мунавваркори, Файзулло Ходжаев, Суфизода, Тавалло, Исаакжон Ибраат джадидизм, просвещение, просвещение, нация, идея, свобода, народ, религиозно-нравственный, Национальный, духовно-нравственный, идейно-теоретический,

EDUCATIONAL MOVEMENTS OF THE JADIDS AND THEIR ROLE IN RAISING THE SPIRITUALITY OF THE PEOPLE*Bobonazarov Orif Abraykulovich**Senior Lecturer of the Department of Social Work of TerSU*

Abstract: In the article the origin of the Jadid movement in the Turkestan region. Along with historical conditions, the emergence of the Jadid movement in Turkestan reflected the views of the people on spirituality that increased in the last quarter of the XIX century within the framework of the influence of educational, enlightening views. Jadidism pays great attention to its merits in the national revival and the rise of national consciousness in the late nineteenth and early twentieth centuries.

Keywords: Turkestan, Behbudi, Fitrat, Chulpan, Abdullah Kadiri, Abdullah Avloni, Munavvar kori, Fayzulla Khodjaev, Sufizoda, Davalo, Isaakjon Ibrat jadidism, enlightenment, enlightenment, nation, idea, freedom, people, religious and moral, National, spiritual and moral, ideological and theoretical.

Turkistondagi jadidchilik harakati bu bir tasodif xodisa bo'lmay, balki hayotimizdagi ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar maxsuldir. XIX asrning boshlaridan

Buxorodagi ma'rifatparvar musulmon ruhoniylari va ziyolilari orasida madrasa va maktablar tizimiga hamda islom diniga kirib qolgan bid'atlarni isloh qilish fikri paydo bo'la boshlaydi. Shunday islohot tarafdorlarini jadidchilar, ya'ni yangilik tarafdorlari deb atay boshlaydilar. Jadidizm (arabcha "jadid" so'zidan olingan bo'lib "yangi" degan ma'noni bildiradi). O'sha davrlardan boshlab bunga qarama-qarshi turgan oqim, ya'ni feodal-o'rta asrchilik, diniy fanatizm ruhida bo'lgan kishilarni esa qadimistlar, deb atay boshladilar. XIX asr oxiri-XX asrning boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko'p joylarida jadidchilik harakati kuchayib ketdi. Bu harakat mavjud jamiyatning ijtimoiy-madaniy asoslarini qayta qurishga qaratilgani sababli eski tuzum, eski turmush, eski maktab tarafdorlarining kuchli qarshiligiga duch keldi [1]. Bu qarshi kuch vakillari qadim yo qadimchilar deb atalgan bo'lsa, yangi hayot shabadalarini olib kelishga uringan kishilar esa jadid yoki jadidchilar degan nom oldilar. Shu tarzda asrimiz boshlarida jadidlar va jadidchilik harakati yuzaga keldi. Turkiston xalqining boy ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, madaniy taraqqiyotida XIX asrning birinchi choragidagi davr o'zining nihoyatda sermazmun va inqilobiy suronliligi, g'oyaviy-nazariy va mafkuraviy harakat shakllarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu holat ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos yo'nalishi edi. Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari Turkistonni o'rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish, "Usuli qadim" ni inkor etgan holda o'lkani, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiy yo'lga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, konstitutsion, parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat ko'rish, turkiy tillarga davlat tili maqomini berish, milliy pul birligi, milliy qushin tuzish rus taraqqiyparvarlari, ma'rifatchilarining Turkiston o'lkasida ma'rifatparvarlik g'oyalarini tarqatish uchun imkoniyatlar yaratish edi. Demak, Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi asta-sekin bo'lsada milliy ozodlik mafkurasiga asoslanib bordi. Bu jarayon o'lkadagi maxalliy xalqning ongiga o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Natijada ular Turkistonda mustaqillik, milliy taraqqiyot uchun, xalqning manfaatlari uchun kurash olib borishga milliy-ozodlik harakati uchun zamin tayyorlashga muvaffak bo'ldilar. Yerli xalqlar orasida mustamlakachilikka qarshi ma'rifatchilik g'oyalari tarkala boshladi, yangi ta'lim-tarbiya shaxobchalari, yangi maktab, maorif, madaniy targibot, jadidchilik harakati rivoj topdi [2]. Mana shunday sharoitda Turkistonda ko'plab ma'rifatchilar yetishib chiqdi.

Turkistonda jadidchilik harakati uch soha orqali faoliyat ko'rsatdi.

Bular :

maorif (yangicha maktablar ochish, ta'lim usulini yangilash),

san'at (badiiy adabiyot, teatr)

matbuot. (gazeta jurnallar)

Asosiy maqsad millatni, bir tomondan, ilm-ma'rifatli qilish bo'lsa, ikkinchi tomondan uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg'unlashuvi natijasida, uzligini, o'z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga yetkazish edi. Turkiston jadidchilari tomonidan ana shu maqsadni amalga oshirish yo'lida katta ishlar qilindi.

Turkistonda jadidchilik harakatining yuzaga kelishida tarixiy sharoit bilan birga, XIX asrning so'nggi choragida uyg'ongan ma'rifatchilik, ma'rifatparvarlik qarashlarining ta'siri katta bo'ldi. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Turkistonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga e'tibor bersak, marifatparvarlik mafkurasi demokratik va milliy-vatanparvarlik harakatlarining g'oyaviy mazmunini tashkil etganligini ko'ramiz. Mamlakatimizda marifatparvarlik g'oyasining kelib chiqishiga asosiy sabab, birinchidan, rus istilochilik siyosatining chuqurlashib borishi natijasida paydo bo'lgan milliy ozodlik harakatlari, ikkinchidan, g'arbdan kirib kelayotgan demokratik harakatlarning istilochilar tomonidan bo'g'ib qo'yilishi, uchinchidan, millatparvar - fidoiy kishilarning qattiq takib ostiga olinganligi va xatto ularning qatl

etila boshlaganligi edi.

Jadidchilik harakati vakillari o'zlarining ma'rifatparvarlik mafkurasiga bir tomondan o'sha davr uchun dolzarb bo'lgan demokratik g'oyalarni: ilm o'rganish, fan va texnika yutuqlaridan baxramand bo'lish, ilmiy-tabiiy fanlarni rivojlantirish, so'z va fikr erkinligini joriy qilish, demokratik davlat q'urilishiga asoslangan milliy davlatchilikni vujudga keltirish, milliy g'oyalar qatlamini shakllantirish, adabiyot va san'atning zamonaviy janrlarini rivojlantirish, ikkinchi tomondan mustamlakachilik siyosati ta'siri ostida o'z milliy qiyofasini yo'qotayotgan turkiy til va milliy qadriyatlarni tiklash, milliy ma'naviy-axlokiy takomillarni yanada kuchaytirish, milliy o'zligini anglash, milliy ong, milliy tafakkurni va diniy e'tiqodlarni mustaxkamlash kabi g'oyalarni asos qilib oladilar. Albatta bu vazifalarni amalga oshirishda an'anaviy islom dini, shariat asoslari va xadislari ham o'z ta'sir kuchini saqlab turgan ta'limotga suyanadilar.

Jadidchilar o'zlarining ilg'or g'oyalarini Xalq o'rtasida tarqatish uchun milliy matbaachilikni rivojlantirish orqali, zamonaviy ta'lim sistemasini joriy qilish, ilg'or g'arb mamlakatlariga maxalliy yoshlarni o'qishga junatish yo'li bilan amalga oshirishga harakat qildilar. Turkiston ma'rifatchiligining dastlabki bosqichlarida axloqiy g'oyalar asosan badiiy va didaktik shakllarda o'z aksini topdi. Shu jihatdan o'zbek, va tojik xalqlarining mutafakkirlari Ahmad Donishning (1827 - 1897) «Navodir ul - vaqo» asari diqqatga sazovor. Ahmad Donish o'z asarlarida Buxoro amirligi davlat tuzumini Rossiya davlat tuzumi bilan solishtirib, uni isloh qilish lozimligini ta'kidlaydi. Ayni paytda, an'anaviy axloqiy tushunchalar bilan fikr yuritar ekan, u adolatni ham podsho - hukmdor shaxsiga, ham davlat tizimiga xos fazilat sifatida olib qaraydi. Agar hukmdor adolatli siyosat yurgizsa, mamlakat hayotining hamma sohasi uchun adolatni mezon qilib olsa, san'atning gullab yashnashiga yo'l ochib bersa – xalq hayoti farovon bo'ladi, fazilatlar kuchayib, illatlar zaiflashadi. U, hukmdor donishmandlik fazilatiga albatta ega bo'lishi lozim, davlatning mohiyatini aql belgilaydi, degan xulosaga keladi: oqilona boshqarilgan mamlakat aholisigina ma'rifatli va yuksak axloq egalari bo'la oladi. Jadidchilik aslida ma'rifatparvarlik harakatining ko'rinishidir. Shuning uchun biz bu o'rinda masala bayonini ma'rifat va ma'rifatparvarlik tushunchalari va uning ahamiyatini izohlashdan boshlashni lozim topdik.

Ma'rifatning lug'aviy ma'nosi bilish, tanish, bilim demakdir. Boshqacha aytganda ma'rifat bilmoq, kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonidir. Ma'rifat so'zining ko'pchilikdagi ma'nosi maorifdir. Ma'rifat atama sifatida – tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma'lumotlar majmuasini bildiradi. Ma'rifatli degani – bilimli, muayyan sohada ma'lumoti bor, demakdir. Fanlar chuqur va keng rivojlanib borayotgan hozirgi davrda bilim va ilmga intilgan har bir kishi, talaba, fan namoyondasi ilmning, ya'ni ma'rifatning ma'lum sohasinigina egallashga erisha oladi. Masalan, kimyoning ma'lum sohasini, xuddi shuningdek matematika, fizika, biologiya, medisina va boshqalarning ham ma'lum yo'nalishlarini egallaydilar.

Ma'rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi. Demak ma'rifat - bilim va madaniyatning qo'shma mazmuni bo'lib, maorif esa ana shu mazmuni yoyish quroli, vositasidir. Ma'rifat asosan umumiy va o'rta maxsus bilim beruvchi maktab va o'quv yurtlarida tarqatiladi. Ma'rifat tushunchasi maorif tushunchasidan keng bo'lib, bilim va madaniyatni yoyish va yuksaltirishning hamma turlari, shakllari va sohalarini o'z ichiga oladi. Jamiyatda ma'rifat, ya'ni bilim ma'rifatparvarlar orqali yoyiladi. Ma'rifatparvar – ma'rifat uchun ko'rashuvchi; ilm, bilim chirog'ini yoquvchi; ma'rifat homiysi va tarafdori demakdir [3].

Insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga bir tarixiy davrdan ikkinchi bir tarixiy davrga o'tishi ma'rifatparvarlikdan boshlanadi. Zamonaning eng yetuk, ongli, oq-qorani tanigan, fidoyi, elim, yurtim deb yashovchi, uzoqni ko'zlovchi ma'naviyatli kishilari ma'rifatparvarlik bilan shug'ullanadilar. Ma'rifatparvarlar odatda davr uchun, jamiyatning, mamlakatning, xalqning buguni va kelajagi uchun muhim g'oyalarni

ilgari suradilar, shu g'oyalarni amalga oshirish uchun kurash olib boradilar.

Ma'rifat ma'naviy qaramlik, qo'rquv va hadisni bartaraf etadi, insonga beqiyos ilohiy qudrat, mislsiz salohiyat bahsh etadi. Shuning uchun ozodlik uchun kurashchilar mamlakat, millat ozodligini xalqning ma'rifiy uyg'oqligida deb biladilar va ma'rifat uchun kurashadilar. Bizning xalqimiz azal-azaldan ma'rifatga intilib yashagan. Bu o'lkadan dunyo ilmi rivojiga ulkan hissa qo'shgan allomalar yetishib chiqqan. Ular ham dunyoviy, ham diniy ilmlar sohasida dunyo ilmi ahlini hayratga solganlar. Bunga 1998 yilda Ahmad al Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi va hadis ilmi sultoni Imom al Buxoriy tavalludining 1225 yilligi keng nishonlanganligini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. O'tmishda ijod etgan allomalarimiz al Farobiy, al Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek va boshqalar nafaqat ilm cho'qqilarini egallab qolmay, uni - ya'ni ma'rifatni keng targ'ib etganlar, shogirdlarni tarbiyalaganlar.

Turkiston ma'rifatchilik maktabi boy o'tmish va ulkan merosga ega. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li, Abdulqodir Shakuriy, Ashurali Zohiriy, Saidrasul Saidaziziy, Ishoqxon Ibrat va Ahmad Donishlar XIX asr oxirlarida faoliyat boshlab, mamlakatni, xalqni milliy zulm va qoloqlikdan xalos etishning yagona yo'li ma'rifatda deb bildilar. Bu fidoyi zotlar mustabid tizim va jaholatga, ma'naviy qullik va zulm-zo'ravonlikka qarshi bor kuchlari bilan kurash olib bordilar. Bu ma'rifatparvar bobolarimiz dunyo kezib, dunyo xalqlarining ilm fan madaniyati bilan tanishib, mustamlaka o'lkani, uning kishanlarini ilm chirog'i bilangina ozodlik sari boshlamoq, parchalamoq mumkin ekanini chuqur his etdilar. Shu sababli ham eng avvalo yurtimizda maktab-maorif ishlarini rivojlantirishda ham amaliy, ham nazariy jihatdan azmu shijoat namunasini ko'rsatdilar [4].

Jadidlar paydo bo'lgan ilk kunlardan boshlab ular ham Chor hokimiyati, ham mahalliy hukmdorlarning qarshiliklariga duch keldilar. Binobarin, ular xalqni shu ikki zulm o'chog'idan, shu ikki qoloqlik botqog'idan xalos etmoqchi bo'ldilar. Abdulla Badriy «Yosh buxoroliklar kimlar?» degan risolasida jadidlarni ko'zda tutib, bunday yozgan edi: «... onlarning fikriy xayollari va muddaolari biz, bechora va qashshoqlarni g'urbatdan, ya'ni amirlar, beklar va boylarning zulmlaridan ozod qilmoq va bizlarnang rohatimiz va tinchligimiz uchun harakat va taraddud qilmokdir». Dastlab asosan ma'rifiy vazifalarni amalga oshirish maqsadi bilangina maydonga kelgan jadidlarning birlashishi va keng qanot yozishida o'zbek jadidchilik harakatining yo'l boshchisi Mahmudxo'ja Behbudiyning xizmatlari beqiyosdir. U kelajakda milliy bosmaxona va nashriyotni tashkil etish, qo'shni xalqlar hayoti, jumladan, maktab va maorifi bilan tanishish, bu mamlakatlardagi taraqqiyparvar kuchlarning tajribalarini o'rganish va o'zbek jadidlarining xalqaro aloqalarini izga solish uchun Rossiyaning bir qancha sanoat markazlariga va yaqin sharq mamlakatlariga bordi. Buxoroda tashkil etilgan «Tarbiyai atfol» jamiyatining sa'y-harakati bilan Fitrat ikki birodari bilan birga Turkiyaga tahsil ko'rgan bordi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz lozimki, jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr boshlarida milliy uyg'onish va milliy ong yuksalishida katta rol o'ynagan. Jadidchilik g'oyalarini uning yorqin vakillaridan Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Fayzullo Xo'jayev, So'fizoda, Tavallo, Ishoqjon Ibrat kabilar g'oyat og'ir sharoitlarda targ'ib etishga harakat qilganlar. Ular millatning kamolotini yuksaltirish, uning qadr-qimmatini yerga urishga yo'l qo'ymaslik borasida katta ishlar qilganlar. Ma'rifatchi jadidchilar og'ir moddiy qiyinchiliklar, g'oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay, millatning ma'naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Tarixning murakkab, mas'uliyatli burilish davrlarida millatning milliy ongini yuksaltirish, milliy iftixor to'yg'usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o'z zimmalariga oldilar. Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori va boshqa millat uchun jonkuyar jadidlar maktablar ochar, ularda o'zlari dars berar, o'quv qo'llanmalari yozar, nashr etar va bu yo'lda jonbozlik ko'rsatar edilar. Bu yo'lda hatto o'z mablag'larini



ayamaganlar. Bunday saxovatpeshalik, savobtalablik kabi ezgu ishlar bizning hozirgi mustaqil rivojlanishimiz uchun ham nihoyatda zarur.

Bugunda ma'rifatparvar-jadidchilarning bebaho asarlari, ilmiy, nazmiy va nasriy meroslari ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g'oyalari o'zbek xalqining ma'naviyat va ma'rifatini, milliy qadriyatlar va ongini yuksaltirish yo'lida xizmat qilib, avlodlar qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini tarbiyalab kelmoqda. Mustaqillik tufayli ma'rifatchi-jadidlarning nomlari tiklanayapti, tavallud topgan kunlari tantanali nishonlanayapti, asarlari qayta-qayta chop etilayapti. Ularning dunyoqarashlarida bayon etilgan falsafiy-axloqiy fikrlari xalqimizning madaniy-ma'naviy, qadriyatlar sifatida xanuzgacha saqlanib kelmoqda.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

K. Xoshimov, S. Nishonova "Pedagogika tarixi". –T.:2005 yil 213 b.

Muhammadjonova L., Jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. –T.: O'zMU. 2007.

Mahmudova G. Jadidizm va Turkistonda axloqiy-estetik fikr taraqqiyoti. -T.: Davr-press, 2006.

Sharq allomalari va ma'rifatparvar adiblarining barkamol avlod tarbiyasiga oid ma'naviy-axloqiy qarashlari. G. Niyozov, Q. Axmedov, Q. Tojiboev O'zbekiston 2010 yil.

**МАКТАБ ЎҚУВЧИСИНИНГ ТЕХНОЛОГИК ХАВФСИЗЛИКНИ
ТАЪМИНЛАШДА ФАНЛАР ИНТЕГРАЦИЯСИ**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.93.41.069>

Давлатова Сайёра Тошпўлатовна

Тошкент давлат Аграр университети, Термиз филиали ўқитувчиси

Анотация: Талабаларда технологик хавфсизликни таъминлашда фанлар интеграция дидактик тамойиллар асосида мазмуни мантқиқан кетма-кет, изчил, илмий баён қилинган.

Калит сўзлар: умумбашарий, ҳалокат, муаммо, вазият, табиат, жамият, имконият, компетенция, фаолият, омил, метод, ҳолат, фаол, муносабат.

**ТЕХНОЛОГИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ ШКОЛЬНИКОВ
ИНТЕГРАЦИЯ НАУК В ПОСТАВКУ**

Давлатова Сайёра Тошпўлатовна

Ташкентский Государственный Аграрный Университет, Учитель
Термезского филиала

Аннотация: Содержание логически непротиворечивое, связное, научно изложенное на основе дидактических принципов интеграции дисциплин в обеспечении технологической безопасности студентов.

Ключевые слова: универсальный, разрушение, проблема, ситуация, природа, общество, возможность, компетентность, активность, фактор, метод, ситуация, активность, отношение.

**TECHNOLOGICAL SAFETY OF SCHOOL STUDENTS INTEGRATION
OF SCIENCES IN SUPPLY**

Davlatova Sayyora Toshpulatovna

Tashkent State Agrarian University Termez branch teacher

Abstract: The content is logically coherent, coherent, scientifically stated on the basis of didactic principles of integration of disciplines in ensuring technological safety in students.

Keywords: universal, destruction, problem, situation, nature, society, opportunity, competence, activity, factor, method, situation, active, attitude.

Маълумки, яқунланган XX аср фан ва техника ютуқлари асри бўлди. Ҳозирги замон фан-техника тараққиёт ютуқларидан фойдаланиш билан бир қаторда ноқулай экологик вазият қамрови жиҳатдан аҳамиятга молик экологик хавфни келтирмоқда.

Умумбашарий аҳамиятга молик экологик хавфни юзага келтиради.

Экологик хавфнинг келиб чиқиши сабаблари табиат, жамият, инсонлар ва техника орасидаги муносабатларни мувофиқлаштириш ҳамда экологик хавфга йўл қўймаслик бугунги куннинг асосий муаммоси бўлиб қолди. Мазкур ноқулай бадий экологик вазият инсон учун муҳим таъсир қилмоқда. Шу муносабат билан умумбашарий ва минтақавий экологик хавф, унинг келиб чиқиш сабаблари, инсон ва табиат, жамият ва табиат орасидаги муносабатларни мувофиқлаштириш, экологик ҳалокатга йўл қўймаслик ҳозирги куннинг долзарб муаммоси ҳисобланади.

Мақтаб ўқувчиларига экологик таълим-тарбия беришда ўрганилаётган материаллар бевосита табиат билан танишиш жараёнида муҳим аҳамият касб этади. Табиат хилма-хил кўринишлари билан инсонни қуршаб турган моддий

оламдан тузилган. Мактаб ўқувчиларига экологик таълим-тарбиянинг фанлараро тушунтиришдан мақсад-табиатни билиш ва уни асрашга ўргатиш, экологик таълим-тарбияга оид фанлараро назарий билим, амалий кўникма ва малакаларни шакллантиришдан иборат. Мактаб ўқувчиларида экологик таълим-тарбияга оид тушунчаларни табиий фанлараро шакллантириш тахлили кўрсатади.

Текшириш давомида ўқув фанларини интеграциялаш жараёнида фаол ақлий фаолиятга ёрдам берувчи омиллар – интеграциялаш учун фанларнинг маъқул бирлашиши, ўқитувчи ва ўқувчи ҳаракатларини ҳисобга олган ҳолда, методларни танлашдан иборат.

Умумтаълим мактабларида ўқитиладиган барча фанлардан интеграциялашнинг маълум бир имкониятлари мавжуд бўлиб, уни интеграциялашган ҳолда ташкил этиш бир қатор шартларга боғлиқ. Шунинг

учун педагог ва методистлар янги дастурини яратишдан аввал шу ҳолатларнинг барчасини эътиборга олишлари лозим. Ўқув фаолиятдаги қийинчиликларнинг сабабларидан бири интеграциялашдан атрофлича фойдаланмаслик.

Ўқувчининг бир фанни мувофақиятли ўзлаштиришининг сабаби, бошқа бир фанидан яхши билимга эга бўлишлари билан ҳам боғлиқ бўлиши мумкин.

Мисол учун катта ҳажмдаги матни саводли кўчириб олиш учун уни тез ва тўғри ўқий олиш малакаси талаб қилинади. Агар бундай имконият ҳақида гапирмасдан туриб, ўқитувчи ўргатадиган ҳар бир фанни бошқаси билан солиштирмасдан, таққосламасдан, унинг маъмуотларидан фойдаланмасдан ўргатиш анча қийин ва зарарли бўлиши мумкинлигини хис қилиш зарур. Жумладан, интеграциялашган дарсларини ташкил қилиш орқали ўқувчилар билан мунозара қилиш, синфлараро мусобақаларни ташкил этиш, савол-жавобларни. Бундай замонавий дарс турларини қўллашдан асосий мақсад ўқув жараёнида ўқувчиларни фаоллаштириш, ўқув материални ўзлаштиришнинг юқори даражасига эришишдан иборат. Ана шундай технология ўқувчида дунёни ўзгача тасаввур қилишга ўргатади, амалиётни ҳаёт билан боғлашга, назарий қоидаларни сўзма-сўз ёдламасликка, шахс ва жамият уйғунлигини англашнинг юзага келиши уларнинг интеграциялашишига ёрқин далил бўлади.

Фанлараро алоқадорлик принципи турдош ўқув фанлараро муносабатларнинг мураккаб жиҳатларини тўлиқ ўзлаштиришни таъминлаб, билимларнинг ички моҳиятига кириб боришни таъминлайди. Натижада, турли тизимлар ички алоқадорлик, интегротив яхлитлик вужудга келади. Жумладан, гуманитар фанлар ўртасидаги алоқадорлик, ўзаро боғлиқликни таъминлаш, ўқувчиларга биологик билимларнинг муайян тансифга мувофиқ бериш уларда табиатни билишга бўлган қизиқишни шакллантириш омили сифатида кўзга ташланади.

Дарс жараёнида экологик тушунчалардан фойдаланиш юқори синф ўқувчиларида экология оид билимларни ўрганишга қизиқишни юзага келтиради. Шунингдек, уларни ўқитишда фанлараро боғланиш амалга ошириш табиат ва жамиятдаги борлик, уларда борадиган ҳодиса ва жараёнлар ўзгаришларининг мазмун-моҳияти англаш, мазкур ўқув фанлари мазмунидаги умумий ва хусусий тушунчаларни яхлит тасаввур қилиш амалиётга қўллаш кўникма, малака ва компетенцияларни таркиб топтириш орқали ўқувчида экологик тушунчаларни шакллантириш жараёнини вужудга келтиришда муҳим аҳамиятга касб этади.

Умумтаълим мактаблари ўқувчиларига экологияни ўқитишда фанлараро алоқадорликни йўлга қўйишга асос бўладиган тушунчалар қуйидаги гуруҳларга ажратилган:

1. Табиат ва жамиятнинг ўзаро боғлиқлиги асосида юз берадиган ҳодисаларнинг умумийлиги яхлитлаш узлуксизлиги ва узвийлиги.

2. Бўладиган ҳаётий жараёнлар ва ўзгарувчанликларни тушунишда, муоммоли ўқув топшириқларни ҳал этишда табиат ва жамият қонунлари фойдаланиш орқали фанлараро алоқадорликни амалга ошириш.

3. Моддий борлиқдаги ҳодиса ва воқеаларни ўрганишнинг зарурияти, экологик фожеаларнинг сабаблари ва уларни бартараф этиш тадбирлари.

4. Инсон томонидан табиат – жамият қонунларини ўрганиш ва ундан самарали ва оқилона фойдаланиш йўллари.

Фанлараро боғланиш ўқувчининг фикрлаш қобилитини ривожлантириди, мустақиллигини оширади. Шунингдек, унинг фанларга бўлган қизиқишини ривожлантириш билан бирга меҳнат, кўникма малака ва компетенцияларини шакллантиради ва экологик маданиятини тарбиялашга катта ёрдам беради.

Табиат ва жамият билан бевосита, фаол мулоқотда бўлиш умумтаълим мактаблари ўқувчилари томонидан ташкил этилаётган ақлий фаолият жараёнини жадаллаштиради. Бу ҳолат ўқувчиларнинг фикрлаш тарзига таъсир ўтказиб, уларда табиатни билишга бўлган қизиқишини ҳосил қилади ҳамда ақлий қобилиятларини такомиллаштиради.

Шунингдек, бугунги кунда ўқувчиларда табиатга нисбатан инсонпарварларча муносабатни ривожлантириш масаласи кўндаланг турган экан, педагог кадрлар ўз меҳнат фаолияти давомида ўқувчиларда табиат ва жамият қонунлари, инсон ва табиат, уларнинг ўзаро муносабати, табиий мувозанатни сақлаш ҳақидаги билимларни ва булар негизида экологик мавзулардаги таълим – тарбиявий ишларни пухта режалаштиришлари ва амалга оширишлари лозим бўлади.

Хусусан, ҳозирги экологик муаммолар кескинлашиб бораётган шароитда экологик хавфсизликни таъминлаш, табиат бойликларини келажак авлодга қолдириш, улардан оқилона фойдаланиш ва муҳофаза қилиш, бу мақсадда қонунчиликни такомиллаштириб бориш, экологик-ҳуқуқий таълим – тарбияни оилада янада кучайтириш устувор ва зифабўлиб қолмоқда. Бу эса, мамлакатимиздаги мавжуд табиий бойликларни келажак авлод учун бир-бутун қолдиришга уларни асраб-авайлашга, эъзозлашга ҳамда улардан оқилона фойдаланиш ва муҳофаза қилишга хизмат қилади.

Ўқув жараёнида алоқадорликни таъминлаш қўйидагилардан иборат:

- жонли, жонсиз табиатнинг ўзаро алоқадорлиги ва фарқи;
- табиат жисмлари ва уларнинг бадиий хусусиятлари;
- табиатнинг экологик компонентлари ва уларнинг ўзаро алоқадорлиги;
- табиат ҳодисалари ва уларнинг бадиий таъсири;
- Ўзбекистон табиати ва уни экологик жиҳатдан муҳофаза қилиш;
- атрофимиздаги табиатга оқилона муносабатларни шакллантириш.

Табиат ва жамият тараққиёт қонуниятлари тўғрисида экологияга оид билимларни ўзлаштиришда ўқувчиларда фанлар интеграцияси асосида дастлабки, экологик тушунчалар олиб бориш мақсадга мувофиқ. Умум таълим мактабларнинг юқори синф ўқувчиларида фанлар интеграцияси асосида экологик тушунчаларни шаклланишига имконият яратади.

Табиий фанлар дастурини мазмунан мақсадга мувофиқ таҳлил қилиш, уларни фанлараро экологик тарбиянинг узлуксиз ва узвийликда боғланишни аниқлаш, уларни таълим-тарбия жараёнида қўллаш ўқувчининг билиш фаолиятини фаоллаштириш муҳим аҳамият касб этади. Табиий фанларни ўқитишда уларни интеграциялаш, яъни фанлараро горизонтал-вертикал боғланишни амалга ошириш таълим-тарбия жараёнининг муҳим дидактик шартли бўлиб, у қўйида ва зифаларни бажаради:

Ўқувчиларни учун асосий билим манбаи бўлган ўқув материалининг илмийлиги ва зичлиги, бошқа табиий фанлардан ўзлаштирилган тушунчаларнинг дидактик боғлиқлигини таъминлайди.

Ўқувчи томонидан билимларни ўзлаштиришга бўлган қизиқиш ортади ва ақлий ривожланиш тезлашади.

Табиий фанларни интеграциялаш, яъни ўқитишда фанлараро горизонтал ва вертикал-босқич амалга ошириш орқали ўқувчиларнинг илмий дунёқарашини кенгайтиришга имкон яратади.

Табиий фанлар ўртасида ўзаро таъсир в фанлар таркибидаги ўзига

хос қонуниятларнинг жиҳатлари фақатгина муайян ўқув фанлари мазмунида турли билим ва тушунчаларни ифодалаш билан чекланиб қолмайди. Ўқитишда фанлараро алоқадорликни таъминлашга оид педагогик тадқиқот ишларида уни мустақил тадқиқот йўналиши сифатида мужассам ривожланаётган шахсга нисбатан педагогик таъсир кўрсатиш имконияти сифатида қараш талаб этилади.

Мураккаб дунёқарашлар илмий, экологик ғоялар ўқувчи тушуниши учун қулай, образли мавзуларда ўз аксини топган, улар йил мундарижасини тузишга имкон беради. Булар тартибга солинган тизим бу интегратив таълимнинг ўзига хос хусусияти.

Таълим жараёнида фойдаланилаётган метод, шакл ва воситалар турли-туманлиги билан ажралиб туради. Мамлакатимизда амалга оширилаётган таълим ислоҳатлари натижаси ўлароқ янги ўқув режаларида ва дастурларга ўтиш мобайнида жамият ва атроф-муҳит ўртасидаги алоқаларни уйғунлаштириш, атроф-муҳитга ижобий муносабатни ўрнатиш ва ривожлантириш масалалари муҳим аҳамият касб этади.

Ўқитувчининг ижодкорлиги шундаки, улар фан учун маълум, аммо ўқувчи билмайдиган томонларни, энг аввало ўзи лойиҳалайди ва ўқувчиларни ҳам шунга ундайди. Модомки шундай экан, ўқувчиларда экологик тафаккурни устириш учун модуль дарсларини ташкил қилиш орқали интеграцияни амалга ошириш самарали усул ҳисобланади.

Юқоридаги фикрларга асосланиб, табиий фанларни горизантал ва вертикал боғлаб ўқитишда ўқувчи экологик тафаккурини ривожлантиришини назарда тутган ҳолда, умумтаълим мактабларида табиий фанлар аро ўқув режалар ва дастурларини таҳлил қилиш, улар ўртасидаги узлуксизлик узвийлик, яъни фанлараро алоқадорликни аниқлаш, ўқувчиларнинг ёш ва психологик хусусиятларини эътиборга олган ҳолда табиий фанларни горизантал ва вертикал боғлаб ўқитишга доир дарс ишланмаларини ишлаб чиқиш ва биология ўқитувчилари учун методик тавсиялар яратиш зарурияти вужудга келди.

Табиий фанлар алоқадорлиги ҳозирги кунда интеграциянинг бир нечта усуллари қўлланилади.

Биринчиси, бир фанга бирлаштириш. Шу масалада чоп этилган ҳалқаро педагогика тажрибаларни ўрганиш натижалари кенг қамровли, кўпгина хорижий мамлакатлар мактабларининг ўзига хос хусусияти интеграцияланган курслар яратилмоқда.

Экологик таълимни такомиллаштиришда атроф-муҳитни, табиатни, инсонни муҳофаза қилиш, табиий захиралардан тўғри ва оқилона фойдаланиш, тозалик масалаларига эътибор бериш керак. Бу масалалар ўқув режалари, тарбия бўйича дастурлар, факультатив машғулотлар таркибига, иш режалари мазмунига киритиш лозим.

Табиий фанларни горизантал ва вертикал боғлаб ўқитишда ўқувчиларнинг экологик тафаккурини ривожлантириш жараёнида биёкимёвий ва физик ходисалар, жараёнлар ва қонуниятлардан фойдаланиш ўқувчиларда экологик тафаккурга оид тушунчаларни ривожлантиришга, ижтимоий фанлар юзасидан олган билимларнинг пухта бўлишига ва уларнинг чуқур ўзлаштирилишига олиб келади.

Дарс жараёнида фанлараро алоқадорликни самарали амалга ошириш ўқувчиларни янги ўқув материалларини қабул қилишга тайёрлаш, фанлараро, мавзулараро боғланишни амалга ошириш, муаммоли вазиятларни яратиш, шунингдек, ҳар бир дарсни режалаштириш ва уларни моҳирона ўтказиш ўқитувчидан чуқур ва пухта тайёргарлик кўришни талаб қилади. Бу эса ўз навбатида дарс самарадорлигини ортиришга хизмат қилади.

Умумтаълим мактаблари учун зарур ва устувор йўналишларидан бири – бу таълим мазмунининг янгиланиши, дарсни интеграциялашган тажриба ва ғояларга таяниб, замонавийлаштирилган, такомиллаштирилган ҳамда инновацион технологиялар асосида ўтиш заруриятини келтириб чиқаради. Чунки дарс таълим-

тарбия беришнинг асосий негизи. Ўқувчининг ўқув фанларини чуқур ўрганиб бориши давомида билими мустаҳкамлашади.

Дарҳақиқат, табиат ва жамиятда содир бўладиган турли воқеа ҳодисаларнинг, улар орасидаги алоқаларнинг бир-бирига боғлиқ ҳолда ривожланишини фанлараро алоқадорлик асосидагина тушуниш мумкин. Табиат ва жамиятга оид фанларни алоҳида-алоҳида ўрганиш уларга оид тарқоқ билимларни шакллантиришга олиб келади. Бундай билимлар табиат ва жамият яхлитлиги, инсониятнинг табиатда тутган ўрни, инсоният олдида турган глобал муаммолар моҳиятини тўғри тушуниш ва уни оқилона ҳал қилиш учун тизимли ёндашув зарурлиги ҳақидаги тасаввур ҳосил бўлишига имкон бермайди. Хорижий мамлакатларди фан ва технологиянинг жадал суръатда ривожланиши олимлар олдида мураккаб муаммоларни келтириб чиқармоқда. Шу боис табиат ва жамият тараққиёти қонуниятлари ҳақидаги янги назарий ва амалий билимларини таълим мазмунига сингдириш, барча

Фанлардан ўзаро алоқадорликда зарур билим, кўникма, малака ва компетенцияларини шакллантириш, ижтимоий ҳаёт тажрибалари ва илм-фаннинг турли соҳалари учун муҳим бўлган билимларни ўқувчилар эгаллашлари учун юксак билим, кўникма, малака ва компетенцияга эга бўлган педагогларни тайёрлаш ниҳоятда зарур.

Бугунги кунда умумтаълим фанларни бирлаштиришга нисбаттан янги ёндашув босқич бошланади. Фанлараро боғлиқлик дастурли бир-бирига яқин бўлган фанларни яқинлаштириш, интеграцилаш муаммосига мурожаат қилмоқда.

Мазкур вазифаларни етиш учун ўқув жараёнида фанлараро алоқадорликни таъминлашни илмий жиҳатдан асослаш мақсадида ҳар бир ўқув фанининг фанлараро алоқадорликдаги мазмунини танлаш, таълим жараёнида қўлланилаётган замонавий таълим технологияларидан фойдаланган ҳолда ўқув фанларининг бир-бири билан боғланган тизимини шакллантириш лозим.

Умумтаълим мактаблари ўқувчилари жисм ёки ҳодисани табиий шароитларда кузутарёкан, уларнинг алоҳида объект сифатида эмас, балки бир бутун экотизимнинг муҳим бўлаги сифатида қабул қиладилар, уларнинг алоҳида объект сифатида эмас, балки бир бутун экотизимнинг муҳим бўлаги сифатида қабул қиладилар, улар ўртасида ўзаро боғлиқлик ва алоқадорликни англашга интиладилар. Бунинг натижасида ўқувчилар эътиборига ҳавола этилаётган алоҳида объектнинг ўзигагина хос бўлган томонларни ажрата оладилар, уларнинг ўзаро таъсири хусусиятига эга предметлар билан таққослаш, умумий жиҳатларини гуруҳлаш асосида ўзларини қизиқтираётган саволларга жавоб топадилар.

Интегратив таълим оддийдан мураккабгача, билишдан-илмгача, тартибсизликдан уйғунликка, чанқоқликдан мохирликка ва ижодга бўлган ҳаракатни таклиф қилади. Сўзларни, сонлар сирини, яшил белгилар қадимий афсоналар сирларини очишга интилади. У макон ва замон бўйлаб саёҳатга отланади.

Билим фаолиятининг объекти сифатида табиат мактаб ўқувчиларига табиий ҳодисалар, уларнинг ўзига хос хусусиятлари, улар ўртасидаги ўзаро боғлиқлик, табиий муҳитнинг инсонлар ҳаётидаги муҳим аҳамияти тўғрисида етарли даражада маълумот бера олиш имкониятига эга.

Жумладан умумтаълим мактаблари ўқувчиларига адабиётни ижтимоий фанлар билан горизантал ва вертикал боғлаб ўқитиш жараёнида кимёвий ва физик тушунчаларни сингдириб бориш, уларда атроф муҳитга, табиатга нисбатан эҳтиёткорона муносабатни шакллантиради, жонли ва жонсиз табиатнинг ўзаро алоқадорлигини хис этади. Шунингдек, уларда табиат ва жамият қонуниятларини билишга бўлган қизиқишини юзага келтиради.

Умумтаълим мактабларида ўқитиладиган табиий фанлар мазмуни назарий жиҳатдан таҳлил этиш кўрсатадики уларда биологик билимлари ҳақида маълумот берувчи ўқув матераилларни у ёки бу даражада ўз ифодасини топган. Уларнинг ҳар бири муайян вазифаларни амалга оширишда муҳим аҳамиятга эга бўлиб, ўқувчиларни табиат ва жамият яқинлашишига, у билан доимий мулоқатда бўлишга

рағбатлантиради. Таъкидлаш жоизки, ўқув фанларининг мактаб ўқувчиларида табиат ва жамиятни билишга бўлган қизиқишини шакллантиришдаги имкониятлари бир хил эмас. Шу ўринда табиий фанларнинг етакчи ўрин тутиши, уларнинг таркибий тузилмасида муайян тизим кетма-кетликка асосланувчи экологик тафаккурга доир билимларнинг ўз ифодасини топиш ўқувчилар учун табиат ва жамият ҳодиса ва жараёнларнинг кечиш тўғрисида асосли маълумотларни олиш, уларда табиатни билишга бўлган қизиқишини шакллантиришга имкон беради:

-фаннинг муҳим ғояларини очиб беришда биринчи даражали аҳамиятга эга бўлган ўқув фанлари асосий жиҳатларига ўқувчилар эътиборини жалб этиш;

- доимий равишда идрок этишни мураккаблаштириб бориб, ўқувчилар ижодий ташаббускорлига ва ўқув-билиш фаолияти мустақиллиги кўламини кенгайтириш, кўп томналама ўқув жараёнида фанлараро алоқадорликни самарали йўлга қўйиш учун дидактик воситаларнинг ҳар хил турларини қўллаб, ўқув жараёнида фанлараро алоқадорликдан фойдаланиш бўйича ташкилий ишларни босқичам- босқич ошириш;

-турли дидактик воситалар ёрдамида ўқув фанларнинг ўзаро узвий бирликда ўзлаштирилишга эришиш;

-ўқитувчилар ва ўқувчилар ўртасида ижодий ҳамкорликни вужудга келтириш;

Ҳозирги вақтда замонавий умумтаълим мактабларида интеграция ва педагогик муаммоларни ечимини топувчи, мактабдаги фаолиятни фаоллаштиришга, педагоглар жамоаси салоҳиятини оширувчи, уларга таъсир этишнинг оптимал йўллари топишга хизмат қилувчи омилdeb қаралмоқда.

Дарҳақиқат, бугунги кун таълим тизимида ўқувчиларда фанлараро алоқадорликка оид билимларни ахборот технологияларини татбиқ этиш орқали амалга оширилмоқда. Бу эса Ватанимиз келажаги учун масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир ва жисмоний, маънавий соғлом, баркамол авлодни тарбиялаш учун зарур бўлган барча шароитларни яратиш бўйича кенг кўламли чора-тадбирларни амалга ошириш имконини туғдиради.

Ахборот маданияти ўқувчиларнинг кундалик ҳаёти ва фаолиятида ахборот технологияларининг барча турларида ўқув-билиш жараёнида мақсадли фойдалана олиш кўникма, малака ва компетенциялар таълим тизими олдида ўқувчиларнинг ахборот олиш вақайтиш ишлаш маданиятини шакллантириш ва ривожлантириш вазифалари турибди. Бу жараёнинг мувофақиятли кечишида ўқитувчи маслаҳатчи йўл-йўриқ кўрсатувчи, ўқув жараёнининг бошқарувчисига айланиб боради. Ўқитувчи ахборот тарқатувчи функцияларини ахборот технологиялари зиммасига юклайди.

Адабиётлар:

- Зверев И. Д. Экология в школьном образовании. –М.: Знание, 1988. -96 с.
- Зиёмуҳаммедов Б. Экология ва маънавият. –Тошкент: Меҳнат, 1997. -104 б.
- Каримов Ю. Олий таълим муассасалари талабаларига экологик таълим беришнинг назарий асослари. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995. -116 б.
- Маркович Д. Ж. Социальная экология. –М.: РУДН, 1997. -436 с.
- Махмудов Ю. Ф. Экологиядан маълумотнома. –Тошкент: Фан, 1997. -40 б.
- Турдиқулов Э. О. Физика ва экологик таълим. –Тошкент: Ўқитувчи, 1992. -228 б.
- Жўраев Й. О., Гуломов М. Х. Экология: жиноят ва жазо. –Тошкент: Ўзбекистон, 1990.
- Шодиметов Ю. Ш. Региональные проблемы социальной экологии. –Ташкент: Узбекистан, 1992. -110 с.

**ПАХТА ХОМ АШЁСИНИ ТОЗАЛАШ ТЕХНИКАСИ ВА
ТЕХНОЛОГИЯСИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ҲОЛАТИ ТАҲЛИЛИ**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.23.96.068>

Джуроев Музаффар Гуламжонович

Термиз давлат университети

Миллий либос факультети ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада пахта хомашёсини ифлосликлардан тозалашда иштиладиган ускуналарнинг аввалги вақтдаги ва ҳозирги ҳолати, таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Шнек, колосник, регенерация, сепаратор, пахта хомашёси, пахта хомашёсини йирик ифлослиги пахта хомашёсини майда ифлослиги.

**АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ И ТЕХНОЛОГИЙ ОЧИСТКИ
ХЛОПКОВОГО СЫРЬЯ**

Джуроев Музаффар Гуламжонович

Термезский Государственный Университет, Преподаватель факультета
национального костюма

Аннотация: В статье анализируется прошлое и современное состояние оборудования, используемого для очистки хлопка-сырца.

Ключевые слова: Шнек, решетка, регенерация, сепаратор, хлопок-сырец, мелкого сора хлопок-сырца, крупного сора хлопок-сырца.

**ANALYSIS OF MODERN METHODS AND TECHNOLOGIES FOR
PURIFICATION OF COTTON RAW MATERIALS**

Djuraev Muzaffar Gulamjonovich

Termez State University, Teacher of the Faculty of National Costume

Abstract: The article analyzes the past and current state of the equipment used for cleaning raw cotton.

Keywords: Auger, grate, regeneration, separator, raw cotton, fine litter of raw cotton, large litter of raw cotton.

Оддий ва мураккаб тозаланадиган селекция пахта хом ашёсини тозалаш учун тозалагичлар оқим чизигининг оптимал миқдорий таркибини асослаш учун авваламбор майда ва йирик ифлосликлардан тозалагичлардаги ишчи органларнинг миқдорини асослаш керак бўлади.

ХЧЕ дастлабки маҳаллий майда ифлосликлардан тозалагичларда диаметри 400 мм остида тешикли тўрли бешта планкасимон барабанлар қўлланилган бўлиб, улар битта текисликда горизонталга нисбатан 30° бурчак остида жойлашган ва пахта хом ашёсидан ажратиб олинган ифлос чиқиндиларни йўналтирилган тарзда бўшатиб олишга мўлжалланган умумий бункер билан таъминланган. Барабанларнинг айланиш тезлиги 500 айл/мин, иш унумдорлиги – 10-12 т/с, тозалаш самараси -30 % ни ташкил қилади.

Тозалаш самарасини ошириш мақсадида мазкур тозалагичга горизонтал текисликда жойлашган худди шундай бешта планкасимон барабанлар бириктирилган. Бу тозалагич ОХБ-10 деб номланди. Барабанлар сонини ўнтагача ва уларнинг айланиш частотасини 520 айл/мин гача оширилиши натижасида тозаланиш самараси 50 % гача ошди.

Ўтган асрнинг 60-йилларининг бошларида пахта хом ашёсини машинада йиғиб олишни татбиқ этилиши билан уни титиш ва майда ҳамда йирик ифлосликлардан тозалаш учун 6А-12 пахта хом ашёсининг шнекли тозалагичидан фойдаланиш

бошланган бўлиб, унда диаметри 500 мм бўлган улардан 50 мм юқорида чиқиб турадиган ташқи томонидан радиал қозикчалар пайвандланган шнеklar қўлланилган. Шнеklar остида тешикли тўр ўрнатилган бўлиб, улардан пахта хом ашёси узатишган.

Шнеklarнинг айланиш частотаси 410 айл/мин, тозалагичнинг иш унумдорлиги 10-12 т/с, тозалаш самараси 60-65%ни ташкил қилган. 6А-12 тозалагичларининг эксплуатациясини кўрсатишича, тозаланаётган пахта хом ашёсининг намлиги 10 % дан юқори бўлганида, шнеklar уни тугунга айлантириб, бунда намлик қанчалик юқори бўлса, шунчалик пахта хом ашёсининг тугунларга айланиши ҳам юқори бўлган ва бу ҳолат ишлаб чиқарилаётган тола сифатини ёмонлашишига олиб келган.

Шнекли тозалагичнинг тозалаш самараси ОХБ-10 тозалагичига нисбатан юқори бўлганлиги учун ОХБ 13 турдаги тозалагичига қозикчали планкасимон барабанлар киритилиши билан бир хил тозалаш самараси олинishi ҳисобланган. Шнекли тозалагичлар 60-йиллардаги батарея компоновкали тозалагичларга хос бўлган ускуналар комплексларида қўлланилган бўлиб, уларда қуритишдан сўнг жараёнга иккита параллел ўрнатилган 6А-12 тозалагичларидан иборат батареялар ишга туширилган, сўнгра кетма-кет тарзда йирик ифлосликлардан тозалайдиган олтига параллел ўрнатилган ЧХ-3М2 тозалагичларидан иборат иккита батарея, кейин эса яна битта иккита 6А-12 тозалагичли битта батарея ўрнатилган.

Пахта хом ашёсини йирик ифлосликлардан тозалагичи бўлган ЧХ-3М2 таъминлаш валигидан иборат таъминлагич ва тешик тўрли қозикчали планкасимон титиш барабани ва учта колосникли панжарали арралаш барабанлари ҳамда иккита олиб қўювчи четкали барабанлар билан жиҳозланган.

Жараён бўйича иккита биринчи (юқоридаги) арралаш барабанлари кетма-кет тарзда пахта хом ашёсини тозалайди, учинчиси (остки) регенерацион аррали барабан чиқиндилардан пахта хом ашёсининг толаларини тортиб олади ва уларни ифлосликлардан тозалайди.

ЧХ-3М2 тозалагичининг иш унумдорлиги 2 дан 3 т/с, умумий тозалаш самараси 60% гач, йирик ифлосликлар бўйича 70 % ни ташкил қилган. Кўрсатилган чегараларда иш унумдорлигини оширилиши натижасида пахта хом ашёсини чиқиндиларга ўтиб қолиши пропорционал тарзда ошган ва тозалаш самараси тушиб кетган. Иш унумдорлигини кейинги оширилишида чиқиндиларни сурувчи шнек тозалагичларнинг чиқиндиларига тушаётган пахта билан тикилиб қолган, сўнг эса тозалагичларнинг ўзлари ҳам пахта хом ашёси билан тикилиб қолган.

ЧХ-3М2 тозалагичларининг асосий камчиликларига, биринчидан, қозикчали планкасимон титиш барабанини унинг остидаги тешикли тўр ва биринчи ўтим (юқори) бўйича арралаш барабани билан номувофиқ жойлашганлиги бўлиб, бунда пахта хом ашёси ушбу барабанга порциялар билан узатилишига олиб келган, иккинчидан, иккита арралаш баранабларида пахта хом ашёсини кетма-кет тозаланиши бўлиб, бу регенерацион барабанга нисбатан зўриқишни орттирган, шунга мос тарзда тозалаш самарасини туширган ва чиқиндилар таркибида пахта хом ашёсининг миқдорини оширган.

Батареяли компоновкани амалга ошириш учун кўп сонли узатиш воситаларидан фойдаланилган: батареялардаги тозалагичларда пахта хом ашёсини тақсимлаш шнеklари, тозалагичлардаги тозалашдан сўнг пахта хом ашёсини териб олувчи шнеklar ёкигоризонтал тасмали транспортерлар ва битта батареядан иккинчи батареяга пахта хом ашёсини узатувчи оған тасмали транспортерлар.

Батареяли компоновкани қўлланилишининг сабаби тозалагичларни йирик ифлосликлардан тозлаша бўйича иш унумдорлигини паст бўлиши ва 3 т/с чегарасида эканлиги билан изоҳланиб, бунинг натижасида улар ҳар бир батареяда 5-6 доналаб ўрнатилиши туфайли уларга хизмат кўрсатишни мураккаблаштирган ва бутун пахта тозалаш комплекси ускуналарининг энергия ҳажмдорлигини

ошириб юборган.

Юқорида баён қилинганлардан кўриниб турибдики, тозалагичларни батареяли компановкасида пахта хом ашёси 6А-12 тозалагичларида (қайта ҳисобда 13 та қозикчали планкасимон барабанлар) кетма-кет тозаланган, кейин эса иккита ЧХ-3М2 тозалагичларидаги тўртта асосий арралаш барабанларида ва яна қайта 6А-12 тозалагичларидан ўтказилган. Умумий ифодаланган бу 26 та қозикчали планкасимон ва 4 та арралаш барабанларини ташкил қилади.

Батареяли компановкада кўп сонли пахта хом ашёсини тозалагичлари ва ташиш-тақсимлаш воситаларини қўлланилиши натижасида ўрнатилган электродвигателларнинг умумий қуввати 220 кВт га етди. Бундан ташқари, ташиш-тақсимлаш тизимлари ҳавони сўриб олиш тизими билан таъминланмаганлиги учун тозалаш цехларидаги ҳавонинг чангланиш даражаси санитар-гигиеник нормалардан ошиб кетган.

Пахта хом ашёсининг тозалагичларини батареяли компановкасининг камчиликларини ҳисобга олган ҳолда ПЛПХ оқим чизиги ишлаб чиқилиб, дастлабки вариантда пахта хом ашёсини майда ифлосликлардан тозалайдиган сепаратор тозалагич СЧ, сўнгра кетма-кет тарзда пневмоюритма билан ўзаро уланган пахта хом ашёсини йирик ифлосликлардан тозалайдиган учта 1ХП тозалагичлари, яна битта СЧ сепаратор тозалагич, ва яна учта 1ХП тозалагичи ва яна битта СЧ сепаратор тозалагич таркибида бўлган.

Оқим чизигининг иш унумдорлиги 6 т/с ни ташкил қилиб, шунинг учун пахта заводларида иккитадан чизик параллел тарзда ўрнатилган. Ҳар бир СЧ тозалагич сепараторда остида новдасимон пнажарали 8 тадан қозикчали планкасимон барабанлар қўлланилган бўлса, ҳар бир 1ХП тозалагичида эса асосий ва колосникли панжарали регенерацион барабанлар ва олиб қўядиган четкали барабанлар қўлланилади.

Мазкур оқим чизигининг асосий камчилигидан бири бу 1ХП тозалагичлари бўйлаб пахта хом ашёсини пневматик узатишни қўлланилганлиги бўлиб, бунда улар билан бир хил кенгликка эга бўлган пневмоюритгичларга уланганлар ва тозалагичда пахта хом ашёсини тозалашга имкон берувчи ёки уни пневмоюритма бўйлаб транзит тарзда ўтказувчи айлантриш клапанлари билан таъминланган.

Ҳар бир сепаратор тозалагичнинг иши электродвигателининг қуввати 55 кВт бўлган юқори босимли ВЦ-12 вентиляторини ўрнатилишини талаб қилган. Оқим чизиги томонидан истеъмол қилинаётган қувват миқдорини камайтириш мақсадида унинг таркибидан ўртадаги СЧ сепаратор тозалагични олиб ташланган, 1ХП тозалагичларнинг сони бештагача қисқартирилган, бунда кейинчалик пахта заводларида эксплуатация қилишда 2-3 та тозалагичлар ишга туширилган, бошқалари эса айланиб ўтилган.

Бунда ўтим бўйича пахта хом ашёсининг охириги сепаратор-тозалагичи электродвигателининг қуввати 75 кВт бўлган янада кучли босимли Ц-7 вентиляторини қўлланилишини талаб қилди. Шунга қарамасдан, иккита оқим чизикларида ўрнатилган электродвигателларнинг умумий қуввати 248 кВтни ташкил қилди ва пахта хом ашёсини тозалагичларининг батареяли компановкали комплексининг умумий қувватидан ҳам ортиб кетган.

Машина тажриба синов станциясида дастлабки вариантдаги оқим чизиги билан ўтказилган синовларнинг кўрсатишича, унинг тозалаш самараси 93% га етар экан, бироқ уни саноатга камайтирилган сонли тозалагичлар билан таъбиқ этилганида ва жараёнга 16 та санқичлик планкали ва 4 та аррали барабанларни киритилиши унинг тозалаш самарадорлигини пахта хом ашёсининг намлигига боғлиқ тарзда 80-85% гача тушириб юборди, бу эса сифатли толани ишлаб чиқариш учун етарли ҳисобланмаган.

Шу пайтнинг ўзида ўтган асрнинг 70-йилларида пахта заводлари қийин тозаланадиган пахта селекция навларидан (Ан-Баяут-2 ва унга ўхшашлар)

тезкорлик билан пахта хом ашёсини тайёрлаш ҳажмини ошира бошлаган натижада бу унинг тозалаш самарадорлигини оширишни талаб қилиб, бунинг учун ўша пайтда жараёнда тозолагичлар сонини кўпайтиришни тақозо этарди.

Шунинг учун оқим чизиклари пахта хом ашёсини тозалаш жараёнига тозолагичларни батареяли компановкали кўринишидаги тозолагичларида кўшимча тарзда тозалашни киритиб, бу қийин тозаланадиган пахта селекцияларидан сифатли толани олиш имконини берди, аммо пахта хом ашёсини тозалаш учун кетган электрэнергия сарф ҳаражатлари икки баробар ошиб кетган. Бу ҳолда пахта хом ашёси умумий равишда 42 та қозикчали планкали ва ўртача 6 та асосий аррали барбанларда тозалаш жараёнидан ўтган.

ПЛПХ пахта хом ашёсини тозалаш оқим чизиклари ҳамда батареяли компановкали тозолагичлар комплексини алмаштириш учун УХК пахта тозалаш агрегати ишлаб чиқилган бўлиб, унинг таркибида ўзаро бирлаштирилган орасида узатиш воситалари мавжуд бўлмаган тўртта комбинациялашган секциядан ташкил топиб, уларнинг ҳар бирида ЕН178 қозикчали планкали серияли барабанларидан икки жуфтдан ўрнатилган, уларнинг оралиғида иккита четкали барабанли таъминлагичи ва серияли олиб қўядиган четкали барабани ва маҳкамлайдиган четкали ва колосникли панжарали асосий ҳамда регенерацион серияли аррали барабанларни ўз таркибига олган ЕН177 аррали секция уларнинг остида ўрнатилган бўлади. Ҳар бир секциянинг ифлосликларни чиқарувчи шнекли умумий бункери бўлган.

УХК агрегатида пахта хом ашёсини майда ифлосликлардан тозалайдиган остида тешикли тўрли қозикчали планкасимон барабанларнинг умумий сони 16 тага етган, пахта хом ашёсини йирик ифлосликлардан тозалаш учун эса колосникли панжарали асосий аррали барабанларнинг сони тўртта бўлган.

УХК агрегатларини эксплуатацияси шунинг кўрсатдики, пахта хом ашёси ўтими бўйича биринчи бўлган ЕН177 арралаш секцияси ва удан юқорида турувчи таъминлагич кўпинча текилиб қолиб, бу ҳолат пахта хом ашёсини таъминлагич орқали фақатгина иккита қозикчали планкасимон барабанлар билан узатилишида етарли даражада титилмаганлиги билан изоҳланган.

Ушбу сабаб туфайли кескин тўхташларнинг олдини олиш мақсадида агрегатнинг биринчи комбинациялашган секциясига пахта хом ашёсини майда ифлосликлардан тозалайдиган 1ХК тозолагичи уланган бўлиб, унинг таркибида тешикли тўрли саккизта серияли қозикчали планкасимон барабанлари бўлиб, агрегатнинг тозалаш самарасини ошириш учун эса пахта хом ашёсининг охириги комбинациялашган секциясига яна битта 1ХК майда ифлосликлардан тозолагич ўрнатилганидан сўнг агрегатдаги қозикчали планкасимон барабанларнинг умумий миқдори 32 тага етган.

Шундай қўп сонли тозалаш барабанларига эга УХК агрегатининг тозалаш самараси 90 % гача бўлиб, бу яхши сифатли толани ишлаб чиқаришни таъминлаб берган. УХК агрегатининг пасортдаги иш унумдорлиги 6 т/с ни ташкил қилган. Шунинг учун тозалаш цехларида бир-бирига параллел бўлган иккита УХК агрегатлари ўрнатилган.

ПЛПХ оқим чизиклари ва УХК пахта тозалаш агрегатларида асосий ишчи органларнинг айланиш частотаси бир-бирига яқин бўлган ёки деярли яқин бўлган: аррали барабанлар 280-300 айл/мин (чизикли тезлиги 7.5-8 м/сек), қозикчали планкасимон барабанлар 420-480 айл/мин (чизикли тезлиги 8.8-10.0 м/сек), олиб қўядиган четкали барабанлар 950-960 айл/мин (чизикли тезлиги 14.9-15.1 м/сек).

Бунда тавсия этиладиган оралиқ тирқишлар ҳам бир хил бўлган: қозикчали планкасимон барабанлар ва тешикли тўрлар орасида 14-16 мм, аррали барабанлар ва колосниклар 14-16 мм, аррали ва олиб қўядиган чўткали барабанлар 0-2 мм.

Бу қуйидагилар билан изоҳланади, яъни юқорида келтирилган серияли ишчи органларнинг тезлик режимлари ва техник параметрлари ўтган асрнинг

60-70-йилларида оптималлаштирилган ва ўша даврдан бери қайта кўриб чиқилмаган. Шунинг учун бошқа конструкцияга эга ишчи органларга эга янги оқим чизигини ишлаб чиқиш маълум бўлган тажриба натижалари ва таҳлилий тадқиқотлар асосида ўзгартирилади.

Юқорида келтирилган пахта тозалаш ускунасини ривожланишини таҳлили ва УХК пахта тозалаш агрегати ва 1ХК тозалагичларнинг иш тажрибаларини ўрганишдан қуйидаги хулосани қилиши мумкин, яъни ишлаб чиқилаётган оқим чизигига ўзаро алмашилиб турадиган майда ифлосликлардан тозалайдиган тўртта 1ХК туридаги тозалагични ва йирик ифлосликлардан тозалайдиган ЕН177 дан иборат бўлган самарали конструкцияли ишчи органларга эга учта секцияларни киритиш мумкин.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

1. Хакимов Ш.Ш. Пахта хомашёси хомашёсини тозалагичининг юқори ишончли рақобатбардош технологияси “Фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциялашуви шароитида инновацион технологияларнинг долзарб муаммолари” Республика илмий-амалий конференцияси илмий мақолалар тўплами. - Тошкент. 2014. - б. 4-5

2. Хакимов Ш.Ш. Тозалаш жараёни кетма-кет технологияли аррали тозалагичнинг ишлаб чиқариш шароитида технологик кўрсаткичлари // “Фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциялашуви шароитида инновацион технологияларнинг долзарб муаммолари” Республика илмий-амалий конференцияси илмий мақолалар тўплами. - Тошкент. 2015, - б. 27.

3. Бородин П.Н., Хакимов Ш.Ш. Разработка высокоэффективного линейного уловителя посторонних тяжелых примесей из хлопка-сырца // отчет ОАО «Пахта тоzalash ПChB», тема 0812. 2009 г.

4. Хакимов Ш.Ш., Бородин П.Н., Лугачев А.Е. О создании высокоэффективного и экологичного сушильно-очистительного агрегата для хлопка-сырца // Межвузовская научно-техническая конференция молодых ученых и студентов «Студенты и молодые ученые КГТУ – производству» Кострома. 2006 г.

5. Зикриёев Э.З. Пахта хомашёсини дастлабки ишлаш. // Тошкент, “Меҳнат”, 2002 й.



**KULOLCHILIK HUNARMANDCHILIGI TARIXINI ORGANISH –
MILLIY QADRIYATLARIMIZNI E'ZOZLASH MEZONI SIFATIDA**

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.54.29.067>

Yuldashov Kaxraman Kamulovich

Urganch davlat universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada xalq hunarmandchiligi ishlari sa'nati tarixini organish va yoshlarni milliy qadriyatlar hamda urf-odatlar ruhida tarbiyalash haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: milliy tarbiya, milliy qadriyat, tarix, usta, kulolchilik, kulolchilik maktabi, hunarmandchilik, texnologiya, mahalliy, maxsulot.

**ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ГОНЧАРНОГО ремесла КАК КРИТЕРИЯ
УВАЖЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ**

Юлдашов Кахраман Камулович

Старший преподаватель Ургенчского государственного университета

Аннотация. В статье рассказывается об истории развития народных промыслов и воспитании молодежи в духе национальных ценностей и традиций.

Ключевые слова: национальное воспитание, национальная ценность, история, ремесленник, гончарство, гончарная школа, ремесло, технология, местный, продукт.

**ORGANIZATION OF THE HISTORY OF POTTERY CRAFTSMANSHIP
AS A CRITERION OF RESPECT FOR OUR NATIONAL VALUES**

Yuldashov Kaxraman Kamulovich

Senior lecturer at Urgench State University

Summary: The article talks about the organization of the history of the people's craftsmanship and education of youth in the spirit of national values and traditions.

Keywords: National Education, National value, history, master, ceramics, School of ceramics, craftsmanship, technology, local, product.

Kulolchilik hunarmandchiligi – Xiva, Surxondaryo va Farg'ona hududlaridagi eng qadimiy hunarlardan biri bo'lib sanaladi. Darhaqiqat bu haqda arxeologik topilmalar ashyoviy dalil sifatida guvohlik beradi. Jumladan, Katta Farg'ona kanalini qazish paytida miloddan avvalgi I-ming yillikka oid xumlarining qoldiqlari, Quva shahridan V-VI asrlarga oid uzunligi 120 sm, diametri 26 sm bo'lgan quvurlar topilgan. Bu quvurlar 4 km uzunlikda ko'milgan va bundan suv o'tkazilganligi aniqlangan. XVIII-XIX asrlarda aholining katta qismini kulolchilik mahsulotlaridan keng foydalanishi bu sohani yanada rivojlanishiga turtki bo'lgan. Farg'ona vodiysining yirik kulolchilik markazi bo'lgan Rishton qishlog'ida yasalgan yuqori sifatli buyumlar butun O'rta Osiyoda mashhur bo'lib ketgan edi. Jumladan, 1899-yili Parijda ish boshlagan butunjahon ko'rgazmasi uchun O'rta Osiyodan Rishton buyumlarini tanlab olinishi fikrimizni tasdiqlaydi. Tadqiqotchi E.Golovin o'z xotiralarida bu yerda ustalarning mahsulot ishlab chiqarish sharoitlarini yaxshilash evaziga buyumlarni hatto Yevropa bozorlariga ham chiqarish mumkinligi haqida yozgan edi. Rishton kulollari avlodlarining boshlanishi XVI asrlarga borib taqaladi. Hunarmandlar Bahovuddin Naqshbandni o'zlarining piri va hunarmandchilikni bu yerda boshlanishiga sababchi deb bilar edilar. Asrlar davomida Rishtonda kulolchilik hunarini rivojlanishi bu yerda ko'plab mohir usta kulollarni yetishtirdi. Chunonchi Rishton kulollaridan usta Abdullo, usta Bobo Niyozmatovlarning asarlari mashhur va yuqori baholangan. Usto Uzoqboy Shermatov, usto Muso Ismoilovlar tayyorlagan mahsulotlar esa o'zining rangi, jozibadorligi, naqshlarning nozikligi bilan ajralib

turgan. O'Imas Ortiqboev, Abdulla To'xtayev, Hakimboy Bogayev, Boysalim ko'zagar, Matyoqub G'oziyev, Mirraim Hikmatullayev kabi ustalar yasagan kosa, piyola va boshqa buyumlar aholi tomonidan katta qiziqish bilan olinar edi.

Kulolchilik Xiva va Qo'qon xonligining so'nggi yillarida ham rivojlanishda davom etib, yilda bir marta davlat xazinasiga salmoqli miqdorda pul bilan soliq to'lab turilgan. Shuningdek, XIV asrda Buxoroda yashagan Said Amir Kulol bu yerdagi kulollarning piri ustoz deb sanalib, bu avliyoning "avlodlariga" nazr ko'rinishida yig'im ham berganlar.

XX asr boshlarida ham kulolchilik Rishtonda o'z ahamiyatini saqlab qoldi. Lekin sobiq sho'rolar davrida ustalar majburan turli hunarmandchilik uyushmalariga birlashtirila boshlangan. Xususan 1927-yilda Rishtonda birinchi kulolchilik arteli tuzilib, keyinchalik barcha ustalar shu artelga birlashganlar. Bu yerdagi to'rtta artel "Yangi hayot" deb atalgan va unda 100 dan ortiq usta faoliyat yuritgan. Bu jamiyatlarda asosan mahsulotning miqdori hisobga olinib, sifati e'tiborga olinmas edi. Natijada buyumlarning yuksak badiiy jihatlari o'z ahamiyatini yo'qota boshlagan. Shunga qaramay, katta an'ana maktabiga tayangan mashhur kulollar o'zlarining sulolaviy hunarlarini davom ettira olganlar. XX asr o'rtalarida Rishtonda tajribali ustalardan Y.Hamroyev, Matyoqub G'oziyev, B.Mirsalimov, To'xtabachcha, G.Yunusov kabi ustalar faoliyat yuritgan. Keyingi yillarda ham Rishtonda taniqli kulollar azaliy an'analarni davom ettirmoqdalar. Shunday ustalardan biri Komiljon Ibragimov bo'lib, u 7-avlod kulol tovoqchi hisoblangan. U hunarni otasi usta Dododan (1898-1951), o'z navbatida Dodo esa usta Madamindan, ya'ni usta Abdulloning shogirdidan o'rgangan. K.Ibragimov 60 yil mobaynida keramika zavodida ishlagan. U Rishtondagi Sohibi-Hidoya Roshidoniya maqbarasini qayta tiklashga katta hissa qo'shgan. 1996-yilda YUNESKONing "Ustoz-shogird" stipendiyasi bo'ldi, 1998- yilda esa birinchilardan bo'lib "O'zbekiston xalq rassomi" faxriy unvoniga sazovor bo'ldi. 2000-yilda uning uy muzeyi tashkil etildi. Mohir usta tomonidan yuksak sifatli buyumlar O'zbekiston san'at muzeyida, Badiiy ko'rgazmalar direksiyasida, O'zbekiston rassomlar akademiyasida, Farg'ona o'lkashunoslik muzeyida, Moskvadagi Sharq xalqlari san'ati muzeyida, Sankt-Peterburgdagi etnografiya muzeyi va Davlat Ermitajida saqlanmoqda.

Vodiyda nom qozongan yana bir rishtonlik mashhur kulol va kosagar Meliboy Boboniyozmatovdir. U 1837-yilda tug'ilgan. Meliboy kulolchilikni otasi Boboniyozmatdan o'rgandi. U Rishton uslubida ishlanadigan sopol idishlarning barcha turlarini yasash, naqshlash, pishirish texnologiyasini yaxshi egallab oldi. Yangi-yangi va xilma-xil bo'yoqlarda ajoyib idishlar yasagani uchun kulollar unga "chapidast usta" deb nom qo'ygan. U kulolchilik san'atining markazlaridan biri G'ijduvonda yangi tarqalgan "tagi siyoh" uslubini mukammal o'rganib oldi, shu uslubdagi idishlarni yasashda Rishton kulollari orasida birinchilikni olgan edi. Boboniyozmatovning "tagi siyoh" texnologiyasi asosida tayyorlagan idishlaridan namunalari Tonkentdagi O'zbekiston xalqlari muzeyi fondida saqlab kelinmoqda.

Vodiydagi yana bir ancha rivojlangan kulolchilik markazi G'urumsaroydir. Bu yerda kulolchilikni vujudga kelishi usta Ko'ki nomi bilan bog'liq. Bizningcha u vodiyga xos ko'k rangdan ko'p foydalangani uchun unga shu nom berilgan bo'lsa kerak. Bizdagi ma'lumotlarga ko'ra, usta Ko'kidan kulolchilikni Usmondiyor va Otajon tovoqchilar, Usmondiyordan o'g'li Jo'ra Kenja, qaynog'asi usta Uzoqboy, bojasi usta Boltaboy, amakivachchasi Satim tovoqchi, o'g'li usta G'ofurlar o'rgangan. Satim tovoqchining lagani Italiyadagi ko'rgazmalarda namoyish etilgan bu ustaning dong'i jahon bo'ylab yoyilgan edi. Uning lagani o'zining ajoyib go'zalligi, betakror yarqiroqligi va o'ta nozik rangi bilan o'zgalar mahsulotidan ajralib turar edi. Satim tovoqchi bir yilda a'lo navli yuqori badiiy asarlardan 30 taga yetkazib tayyorlay olar edi. Bunday asarlar faqat badiiy fond salonlari uchun yuqori bahoda sotib olinar edi. Shuningdek, Usmondiyordan amakivachchasi To'xta tovoqchi, undan o'g'li Mahmud tovoqchi, Rahim tovoqchining boshqa o'g'li Odiljon hunarni egallagan. Usta Ko'kini boshqa shogirdi Otajondan esa jiyan Turob tovoqchi, ukasi usta Hakim, undan o'g'li usta Xaitboy, Turob tovoqchi o'g'li usta Akrom, o'g'li usta Maqsud, undan o'g'li Odiljon, shogirdi Vahobjon o'rgangan. Bu

shajarani 2003-yilda g'urumsaroylik usta Vahobjon Buvayev tuzgan. G'urumsaroyda kulolchilik XX asrda ham rivojlanishda davom etdi. Ayniqsa, 1970-1980-yillarga kelganda bu yerda M.Rahimov, M.Turopov, X.Hakimov, X.Sotimovlar sulolalarining faoliyat yuritishi bu maktab dovrug'ini butun vodiya tanitgan. Hatto g'urumsaroylik mashhur Sotim tovoqchining nabirasi Maqsudali Turopov 1974-yilda YUNESKO e'tirofiga ko'ra, Madaniyat vazirligi tomonidan faxriy yorliq bilan taqdirlangan va "Usto" guvohnomasini olgan.

Kulolchilik hunarmandchiligi vodiya Termiz, Xiva, Rishton va Namangan shaharlaridan tashqari Qo'qon, Marg'ilon, O'sh shaharlarida ham rivojlangan edi. Xususan, Chuqur-Ko'chin volostida namanganlik Daliboy Yoqubovga tegishli do'kon bo'lib, bir dastgohda yiliga 2000 tagacha, 75 so'mlik buyumlar tayyorlangan. Boshqa Sardoba volostidagi namanganlik M.Soliboyevga tegishli ustaxonada 100 so'mlik, Amirboyev ustaxonasida 100 so'mlik, Otaboy Qaymurotovboev ustaxonasida 50 so'mlik buyumlar yasalgan. Bunday yirik ustaxonlardan biri namanganlik Ustaboy Yusupovga tegishli bo'lib, uning ustaxonasida yiliga 8000 ta buyum yasalgan. Daromadi 400 so'mga teng bo'lgan. Yuqorida sanab o'tilgan ustalar do'konlarida yasalgan kosalar donasi 3 tiyindan sotilgan bo'lsa, ustaboy Yusupov do'konida yasalgan buyumlar sifatli bo'lib, to bir so'mgacha sotilgan. Bu ustaxonalarda, shuningdek, xum va boshqa ro'zg'or buyumlari ham yasalgan. Qadimdan vodiya kulolchilik rivojlangan maskanlaridan biri Chust qishlog'i bo'lib, bu yerdan ko'plab qadimiy kulolchilik buyumlari qoldiqlari topilgan. Odatda fanda bu topilmalarni Chust madaniyati deb ataladi. Bu davrdagi chustliklarning sopol idishlari silliq loydan pishirilib, ustiga qizil kesakdan sidirg'a bo'yoq surtilgan, ba'zilariga sidirg'a sayqal berib yaltiratilgan, ba'zilarini esa qora bo'yoq bilan ziynatlangan.

Kulolchilik hunari bir necha sohalarga bo'lingan. Masalan, Farg'ona ustalari kosagar, ko'zagar, lagansoz, tog'orasoz, xurmachi, xumchi kasblariga bo'lingan. Sopol idishlarning o'zi esa sirlanmagan, sirlangan va chinni buyumlarga bo'lingan. Sirlanmagan idishlarga uy-ro'zg'or buyumlari – xum, xumcha, ko'zacha, obdasta, tandir kirgan. Ular qo'lda tasma holiday loy bo'laklarini birlashtirib yasalgan. Kichik yog'och asbob bilan birlashgan joylar silliqilgan.

XX asr boshida Rishtonda 80 ta ustaxona bo'lib, ularda usta asosan o'zining oila a'zolari va 1-2 tadan shogirdi bilan mehnat qilgan. Buyum tayyorlash mavsumiy bo'lib, shogirdlarga mahsulot qiymatidan kelib chiqib xaq to'langan. 6-7 oy davom etadigan mavsumda bir ustaxonada 1500-1700 tagacha buyum tayyorlangan. Bunda har bir usta ma'lum mahsulot turini tayyorlashga ixtisoslashgan. Hatto bir turdagi buyumlar ham o'zaro farq qilgan, turli shakllar ishlab chiqilgan va buyum yasash jarayoni takomillashib borgan. Har bir ustaning mahsulotiga maxsus belgi qo'yilgan.

Rishtonda turli xil idishlar yasalgan bo'lib, kosa va ko'za eng ko'p yasaladigan buyumlar qatoriga kirgan. Ular shakli, rangi, siri bilan ajralib turgan. Rishtonda bu mahsulotlarning boshqa kulolchilik maktablariga xos bo'lmagan turlari ham tayyorlangan. Masalan, filitalik deb nomlanuvchi ko'za, qorin qismi yassi ko'rinishdagi yumaloq, tik jumrakli, qo'chqor boshli tusdagi shakldor ko'za, geometrik naqshlari ko'p nurli ko'rinishdagi obdasta, moviy deb nomlanuvchi bir tusli ko'za, qisqa bo'yinli oftoba, qush va tuya shaklida ishlangan obdasta, o'rdak obdastalar shular jumlasidandir. Ko'zagarlar soz tuproqdan loyini biroz qattiqroq ishlov berilgan holda mahsulot tayyorlaganlar. Buyum uchun qizil tusli tuproq eng yaxshi xom-ashyo bo'lib, Rishtonning o'zidan olingan buyumga naqsh berilmagan. Ularning tayyorlagan idishlarida suv, bug'doy, ichimliklar quyish va saqlash mumkin edi. Bunday idishda saqlangan suyuqlik o'z hidi, mazasi, rangi va tarkibini yo'qotmas edi. Kosa yasashda shaklni loydan ustaning o'zi yoki uning shogirdi yasar edi. Buyum shakli ustaxonaning o'zida tayyorlanar edi. Rishtonda ham katta buyumlardan xum ham tayyorlangan bo'lib, XIX asrda yashagan usta O'lmas Ortiqov xum yasashda mashhur bo'lgan.

G'urumsaroy maktabi mahsulotlari o'zining yasalishi, rangi, guli, sirlanishi va biroz

qalinligi bilan boshqa maktab mahsulotlaridan farq qilgan. Bu erda har bir ustaning o'z uyida do'koni bo'lib, unda butun oila a'zolari bilan ishlagan. Har bir ustaxonada alohida ishlab chiqarish vositalari bo'lgan. Masalan mashhur usta Satim tovoqchining ustaxonasida og'ir tosh maydalagich bo'lib, u bilan oq toshlar un holatiga keltirilib, unga mis va temir kukunlari aralashtirilib loy hosil etib buyum shakli yasalgan. So'ng idish ishqor bilan sirlangan. Bunday uslubda mahsulot tayyorlash tartibi, me'yorlari va muddati o'ta nozik bo'lib, yuqori didni talab etar edi. Hunar avloddan avlodga meros bo'lib o'tib borgan. Qishloqda ko'proq tovoqchilik bilan shug'ullanilgan. Buyum yasash uchun G'urumsaroy kulollari seldan so'ng vujudga keladigan tuproqni yaxshi xom-ashyo, ya'ni shirali tuproq deb hisoblaganlar. Ma'lumki, g'urumsaroylik kulollar vodiya o'zlarining yirik hajmli xumlar bilan tanilganlar. Odatda xumlar 50 l dan 200 l gacha suv sig'adigan hajmda yasalgan. Ko'pincha xumlar yo'l bo'yiga yerga ko'milib, atrofi chim bilan yopib chiqilgan va daryo suvi bilan to'ldirilgan. Suv bu yerda muzlab toza ichimlik suviga aylangan. Bu mahsulotlarning naqshlardagi gul nusxalari o'simliklardan olingan bo'lib, ko'proq yirik hajmli gul nusxalari bu yer kulolchiligiga xos bo'lgan. Bu yerda ustalar naqshlarning "Larzana", "Tuyako'z", "Anorgul", "Baliq nusxa", "Ilonyo'lli" kabi nusxalaridan ko'proq foydalangan. Odatda G'urumsaroyda quyoshning qizdirish haroratiga moslab katta va kichik, qalin va yupqa idishlar yasalar edi. Quyosh yetarli isimagan bahor faslida yupqa va kichik tovoqlar yasalar edi. Keyinchalik zamonaviy kulolchilik o'chog'i yaratilib, mahsulotni quritish ishlari ancha osonlashib va tezlashib qolgan edi. G'urumsaroyda buyum yasash, naqsh, tepaga sir berish uchun ishqor To'raqo'rg'ondan, oq tosh Chorkesardan olib kelingan. Kulolchilikda buyum tayyorlashning mas'uliyatli bosqichi, bu buyumga naqsh va sir berish jarayonidir. Xususan rishtonlik ustalar buyumlarini ko'proq lojuvari siridan keng foydalanib, ko'k-havorang, yashil-havorang, jigarrang yoki jigarrang-binafsha kabi ranglari bilan naqshlaganlar. Naqshlar ko'pincha o'simliklardan olingan islimiy ko'rinishda, turli-tuman bo'lgan. Oddiy buyumlar rangsiz ishqor bilan sirlansa, nafis yasalgan buyumlar qalay-qo'rg'oshin tusli qalayi yoki qo'rg'oshin bilan sirlangan. Vodiya kulollar ko'k, sariq, qizil, qora, zangori, oq va boshqa ranglarga o'rik yelimi, un, qum, temir kukuni aralashtirib ham idishlarni ranglarga bo'yaganlar. Idishlarga ayrim ustalar qolip yordamida ham naqsh tushirganlar. Odatda qalami uslubida naqshlangan ko'k yoki jigarrang tus berilgan buyumlar oshqovoq, sabzi, lavlagi kabi sabzavotlardan yasalgan qoliplar orqali naqshlangan. E.N.Pesheryevani eslashicha, 1950-yillarga kelganda Rishtonda bunday naqshli buyumlar yasashni faqat usta Abdul Qosim Boltaboy davom ettirayotgan edi. O'simliklardan esa go'zanak, tikanak, quruq ko'saklari ham shu maqsadda ishlatilgan. Rishton ustalari uchun tovoqning makaziy aylanasiga islimiy va geometrik naqshlarni, trapesiyasimon shakldagi to'g'ri burchaklarni, uchburchakli shakllarni joylashtirish xos bo'lgan. Naqshlardan islimiy naqshlar, ayniqsa, Sharq udumiga xos bo'lgan anorgul naqshi ko'p uchraydi. Rishton kulolchilik buyumlari o'ziga xosligi, tugallanganligi, puxta o'ylanganligi, tanlangan rang kompozitsiyasi, ko'p turdagi islimiy va geometrik naqshlari bilan kishini o'ziga jalb etadi. Umuman olganda kulolchilik aslida erkaklar kasbi hisoblansa-da, Rishton ayollari ham kulolchilik ishlarida qatnashganlar. Masalan, usta Boy Niyozmatning ayoli buyumga rasm chizishda mashhur bo'lib, hatto boshqa ustalarning buyumlariga ham rasmlar chizib berar edi. Kulolchilik buyumlari Rishtonda mahsulotlarini ko'tarasiga sotib oluvchi savdogarlar orqali sotilgan. Shuningdek, aravasi bor kishilar ham sopol idishlarni kulollardan olib, mahsulotni qishloqlarga olib borib sotar edilar.

Kulolchilikning nodir sohasi, bu – chinni buyumlar tayyorlash tarmog'i bo'lib hisoblanadi. Odatda bo'yoq berib bo'yalgan sopol buyumga rangsiz sir berish chinnigarlik deb atalib, bu hunar Rishtonda XIX asr o'rtalaridan paydo bo'lgan deyishadi. Tarmoqni vujudga kelishi aka-uka usta Jalil va Quri Abdujalil nomi bilan bog'liq. Bizgacha yetib kelgan ma'lumotlarga ko'ra, usta Jalil Qoshg'orga boradi va sirlash, chinni loy tayyorlash sirlarini o'rganadi. Ayrimlar esa usta Quri Abdujalil savdogarlik bilan Mashhad va

Qashqarga borib, bu hunarni o'zlashtirgan degan taxmini bildiradilar. Jumladan, chinni tayyorlash jarayonini xitoyliklarining uslubiga o'xshashligini hisobga olib, tadqiqotchi A.A.Grebenkin ham buyum yasash usulini Sharqiy Turkiston maktabi an'analari bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Lekin rishton-liklar chinni tayyorlash hunarini shunday takomillashtirdilarki, natijada XIX asr oxiriga kelganda ular o'z chinni buyumlari bilan butun O'rta Osiyoda mashhur bo'lib ketdilar. Ammo ayrim tadqiqotchilar buyum tayyorlash texnologiyasi mahalliy ildizga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Faqat XIX asr oxirida ko'k naqshli xitoy chinnisining qimmatlashuvi oqibatida bu mahsulotga bo'lgan talab kuchaydi. Natijada xitoy mahsulotlariga o'xshatib o'z buyumlarini tayyorlayotgan mahalliy ustalar idishlarga "chinni" buyumlarga qo'yiladigan belgilar qo'ygan holda yasay boshladilar. Bu esa "chinni" deb atalgan buyumlarni o'lkada ko'payishiga olib kelgan. Lekin bu tarmoq rus chinni buyumlari bilan raqobatlashuvi natijasida tarmoq ishlab chiqarishi birmuncha qisqardi. Ustalarining bildirishicha, chinni yasash uchun 60% gilbo'taga 40 kvarts (sang) yoki yana 10% loy qorilishi kerak bo'ladi. Odatda rishtonlik ustalar o'tga chidamli oq tuproqni tog'li hududlardan – Isfara va Angren vohasidan olib kelishgan, kvarts (sang) va ishqorni esa qirg'izlardan sotib olishgan.

Shunday qilib, jamiyat uchun faoliyat ko'rsatgan, uning boyligiga o'zining shaxsiy hissasini qo'shgan, o'z kasbini doimo ulug'lagan, o'zгалarni baxtli qilishga chorlagan, Abdurahmon Jomiy aytganidek, "Mehnat tufayli qo'lda paydo bo'lgan qabariqdan rohat topgan odam – baxtli kishidir".

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

Mirziyoyev Sh.M.Tanqidiy tahlil, kat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar. -T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b.

Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. //O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. -T.: O'zbekiston, 2016.

Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.

"2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlari. //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.

Abdulaxatov N., Hoshimov B. Mo'yi Muborak. -F., 2000. 18-b.

Akramov V. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O'zbekistonda hunarmandchilik. "O'IF" j. -1973 yil, 1-soni, 58-b.

8.Shomirzaev M.X. O'quvchilarda xalq hunarmandchiligi kasblariga qiziqishni fanlararo shakllantirish omillari. // Maktab va hayot. -T., 2019. -6-son. -B.24.

9.Shomirzaev M.X. Ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muammolari. // Zamonaviy ta'lim. – T., 2019. – 9 (82)-son. – B. 27.

10.Shomirzaev M.X. O'zbek kashtadozligining shakllanish genezisi va rivojlanish texnologiyasi. // Mug'allim hem uzluksiz bilimlendirio'. –Nukus, 2019. – 5-son. – B. 77.

11.Shomirzaev M.X. O'quvchilarda xalq milliy hunarmandchiligi kasblariga qiziqishni shakllantirishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. // Qoraqalpoq davlat universitetining xabarnomasi. – Nukus, 2019. – 4 (45)-son. – B. 101

**МАКТАБ О'QUVCHILARIGA TEMIRCHILIK, MISGARLIK
VA ZARGARLIK HUNARLARI TARIXINI O'RGATISH - MILLIY
TARBIYANING OMILI**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.26.65.066>*Yuldashov Kaxraman Kamulovich**Urganch davlat universiteti katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada maktab o'quvchilariga xalq hunarmandchiligi sa'natining temirchilik, misgarlik va zargarlik hunarlari tarixini orgatish va yoshlarni milliy qadriyatlar hamda urf-odatlar ruhida tarbiyalash haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: maktab, o'quvchi, milliy tarbiya, milliy qadriyat, tarix, usta, temirchilik, misgarlik, zargarlik, hunar.

**ОБУЧЕНИЕ ШКОЛЬНИКОВ ИСТОРИИ КУЗНЕЧНОГО,
КУЗНЕЧНОГО И ЮВЕЛИРНОГО РЕМЕСЕЛ - ФАКТОР
НАЦИОНАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ***Юлдашов Кахраман Камулович**Старший преподаватель Ургенчского государственного университета*

Аннотация. В статье рассказывается об обучении школьников истории народных ремесел, кузнечного, кузнечного и ювелирного ремесел, а также о воспитании молодежи в духе национальных ценностей и традиций.

Ключевые слова: школа, ученик, национальное воспитание, национальная ценность, история, мастер, кузнечное дело, ювелирное дело, ремесло.

**TEACHING SCHOOLCHILDREN THE HISTORY OF
BLACKSMITHING, COPPER CRAFT AND JEWELRY CRAFT - THE
FACTOR OF NATIONAL EDUCATION***Yuldashov Kakhraman Kamulovich**Senior lecturer at Urgench State University*

Summary: The article tells about the organization of the history of the craft of blacksmithing, copper and jewelry and the upbringing of young people in the spirit of national values and traditions.

Keywords: School, pupil, National Education, National value, history, master, blacksmithing, copper, jewelry, craft.

Temirchilik ko'hna hunar turlaridan biri bo'lib, qadimdan uni xalq tilida chorhunar deb atalgan. Bu jihat mazkur hunarni serqirra, sertarmoqligini bildiradi. Odatda temirchilarning piri Odam alayhissalomdan boshlangan payg'ambarlarning o'n yettinchisi – Dovud payg'ambar deb hisoblanadi. Rivoyatlarda uning qo'llarida temir go'yoki xamir kabi egilib-bukilib ketishi aytib o'tiladi.

Metall ishlashning muhim sohasi temirchilikning xo'jalik uchun ahamiyati katta bo'lgan. Chunki unda dehqonchilik va hunarmandchilikning boshqa sohalari uchun ko'plab mehnat qurollari yasalgan. Bu davrda keng tarmoqli temirchilik mehnat taqsimoti natijasida tor ixtisoslashgan edi. Masalan ulardan ayrimlari faqat ketmon, o'roq yoki turli qaychilarni yasash bilan shug'ullanganlar. Vodiydagi eng yirik temirchilik markazlari Termiz, Xiva, Qo'qon, Marg'ilon, Shahrixon, Andijon, O'sh, Namangan, Chust, Asht, Qo'shtegirmon, Konibodom, Chodak, Chimyon, Uchqo'rg'on, Aravon, Qorasuv, Qo'qonqishloq, O'zgan, Kosonsoy edi. Metall ishlash va temirchilik bo'yicha vodiya Asht aholisi katta tajriba orttirgan edi. Umuman olganda, tayyorlaydigan mahsulotlariga qarab temirchi ustalarni 3 guruhga bo'lish mumkin. Jumladan, birinchisi – eshik zanjiri

va halqalari, ot va eshak taqalari, kavush va etik nag'allari, har xil mixlar, arava g'ildiragi uchun temir halqalar, otlar uchun uzangi, duradgorlar uchun temir randalar va shunga o'xshash buyumlar tayyorlovchi ustalar. Ikkinchisi – toshtarosh ustalar, dehqonlar va binokorlar uchun turli asboblar, jumladan ketmon, o'roq, bolta, tesha yasovchi ustalar. Bu ustalar qo'lda ketmon, kapgir, tesha, bolta, pichoq, halqa, o'roq, chopqi, zulpin, olov kurak kabi temirchilik buyumlari yasovchi hunarmandlar. Uchinchi guruhga – pichoq, qaychi, pakki, arra, otashkurak, qora chiroq, bigiz va hakoza tayyorlovchi hunarmandlar kirgan. Shuningdek temirchilikning alohida, ya'ni qurolsozlik sohasi ustalari – miltiq va to'plar yasovchilar ham ajralib turgan. Odatda temirchi ustalar o'z ustaxonasida asosan oila a'zolari va shogirdlari ishtirokida mahsulot tayyorlaganlar. Agarda oilada ustadan boshqa ishga yaroqli odam bo'lmasa, alohida bitta shogirdni bolg'achi sifatida ishga yollab, unga 3-4 so'm oylik to'langan. Shogird temirchilikda dam bosish va ko'mir solish kabi oddiy ishlardan hunar o'rganishni boshlab, asta-sekin otga taqa qoqishgacha bo'lgan murakkab ishlarni ham o'rganib borardi. Shogirdlar temirchilik hunarini o'rganish bilan birga ustaning uy va dehqonchilik yumushlarini ham bajarar edi. Hunarni o'rganish muddati turlicha hisoblanardi. Shogird usta qo'lida kamida 8-10 yil bo'lardi. Masalan, shogird hunar o'rganishga kelgandan so'ng oradan 4-5 yil o'tgach, haftada bir marta ustaning ruxsati bilan ayrim kichik ishlar bilan shug'ullanib, hokandoz, otashkurak, tesha, bigiz va shunga o'xshash buyumlar yasab, bozorga olib chiqib sotardi. Shogird haftaning juma kunlari ota-onasinikiga borib turardi, hunarni o'rganib bo'lgandan so'ng ustaning roziligini olish uchun bolaning otasi katta ziyofat berardi, ustaga bosh-oyoq sarpo qilardi. Ziyofat paytida usta va hurmatli kishilar tomonidan shogirdning hunarni egallab usta bo'lganligini e'lon qilinib, bundan buyon uni do'kon ochib, mustaqil ishlashiga rozi bo'lishib, unga muvaffaqiyat tilashar edi. Odatda bir temirchi usta ertalabdan to kun botgunga qadar 30 dona taqa yasay olgan, bir oyda 9-10 pud temir, 25 pud ko'mir, bir yilda esa 100-120 pud temir va 300 pud ko'mir miqdoridagi xom-ashyodan foydalangan. Ketmon yasovchi temirchi usta esa o'z shogirdi bilan 2 kunda 3 ta ketmon yasardi, bir yilda esa o'rta hisobda 450 ta ketmon tayyorlardi.

Surxondaryo, Xiva va Farg'ona hududlarida dehqonchilik rivojlangan bo'lib, ketmon mahsulotiga talab katta edi. Masalan, XX asr boshida birgina Qo'qonda 250-300 ta ketmon yasovchi usta bo'lgan. Bu hunar turi ham avloddan-avlodga o'tib, ustaxonalar o'z salohiyatiga ko'ra yirik, o'rtacha va kichik bo'lgan. Kichik ustaxonalarda oila a'zolari ishlab, buyurtma bo'yicha ketmon yasaganlar. Yirik ustaxonalarda yollanma ishchi kuchidan foydalanilgan. Manbalarga ko'ra, qo'qonlik Yo'ldoshboy do'konida 10 kishi ishlagan va omoch tishi, o'roq, dastkalla, uzum qaychi kabi buyumlar ham tayyorlangan. Yasaladigan ketmonlar geografik sharoit va ish turiga ko'ra qalin, yupqa, katta-kichik, yelkador, tig' qismi burchakli, yumaloq shakllarda yasalgan. Ushbu hunar turi bo'yicha Qo'qon yaqinidagi Qo'shtegirmon qishlog'i yirik markaz sifatida ajralib turgan. Shuningdek, bu davrda katta qishloqlardagi temirchilar aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan barcha temir buyumlarni yasashar va singan asboblarni ham ta'mirlab berishar edi. Qishloq ustaxonalarida dehqonlar buyurtmalari tayyor bo'lguncha ko'pincha temirchiga yordam berish maqsadida dam bosish, o'choqqa ko'mir solish, taqalashga olib kelingan otni ushlab turish, pichoq yoki o'roqni charxlatgani olib kelinsa, charxni tortish kabi yordamchi ishlarni bajarar edilar. Agar usta dehqondan katta ishni buyurtmaga olsa buyurmachi unga choy, non, ovqat va turli mevalar olib kelar edi. Umuman bunday joylarda usta jamoa ta'minotida bo'lgan. Boshqa qishloqdan kelib, ayrim asboblarni tuzattiradigan yoki ba'zi narsalarni buyurtirgan odamlar ustaga qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan, ko'pincha don bilan haq to'laganlar. Pul bilan haq to'lash kam uchragan. Hattoki temirchi ustalar turli ekinlar urug'lari bilan ham ta'minlangan. Agar usta boshqa qishloqdan kelib temirchilik qilayotgan bo'lsa, qishloq aholisi hosildan usta haqi deb kapsan ajratib, unga keltirib berardi. Dehqon o'z buyurtmalarini tayyorlatish uchun ustaga ko'mir va o'tin ham olib kelgan. Pichoqchilik temirchilikning eng

rivojlangan tarmoqlaridan biridir. Pichoq insonning yarim rizqi hisoblanadi. Pichoqqa kundalik turmushda ehtiyoj ko'p bo'lib, erkaklarning ajralmas quroliga aylangan. Chust pichog'i o'ziga xos bo'lib, u teri g'ilofda olib yurilgan. Pichoqni taqib yurish milliy an'ana darajasiga ko'tarilgan. Chust pichog'i metallining qalinligi, bichimining o'ziga xosligi, zanglamasligi bilan ajralib turgan. Pichoq asosan tig', sop, gulband qismlardan iborat. Pichoq yasash texnologiyasi ko'p mehnat talab qiladigan jarayon bo'lib, tayyor pichoq bo'lguncha 76 marta qo'ldan-qo'lga o'tgan. Odatda pichoq, xanjar va qilich kabi tig'li asboblarga har xil suyaklardan yasalgan chiroyli dastalar xilma-xil o'yma gullar bilan bezatilardi. Asrlar davomida butun Sharq va G'arbga vodiyni mashhur qilgan pichoqlar Chust, Qorasuv, Shahrixon, O'ratepada yasalib, bu an'analar zamonamizgacha saqlanib kelmoqda. Sayyoh A.Vamberi ham Chustda yasalgan qurollarga yuqori baho bergan edi. Bu yerga xom ashyo Burchmulladan – "xarxun" (eshak qoni) yo'li bilan keltirilgan. 48 sandonda ustalar 4-5 shogirdi bilan ishlagan. Bibi ona mozori atrofida ustalar sayili o'tkazilgan.

Metallga ishlov berishning muhim tarmoqlaridan yana biri misgarlik bo'lib, misgarlar misdan qumg'on, tovoq, cho'mich, qozon, ko'za, barkash, choy idish, obdasta, samovar, choynak, jom, shamdon, lagan, chilim, paqir va milliy musiqa asbobi hisoblangan karnay singari buyumlarni yasashardi. XIX asr o'rtalarida yashab ijod qilgan qo'qonlik Azimboy miskar "Usta Mulla", "Katta miskar" nomlari bilan Farg'ona vodiysida shuhrat qozondi. Azimboy yasagan chilim, qumg'on, dastsho'y, oftoba va boshqa buyumlar O'zbekistondagi muzeylarga qo'yilgan. Bu davrda misgarlar tayyorlagan turli buyumlarga aholi orasida talab katta edi. Ancha yirik, kam bezak beriladigan buyumlar: qozon, yirik mis ko'za uchun qizil misdan, kichik, ko'pincha sirti naqshlanuvchi buyumlar ishlov berilgan sariq mis "birinj"dan yasalgan. Shuningdek ular bunday idishlarga har xil naqshlar ham chekkanlar. Shaharlar bilan bir qatorda yirik qishloqlarda ham tajribali misgarlar ko'p edi. Ular o'rtasida ham mehnat taqsimoti mavjud bo'lib, har bir usta ma'lum buyumnigina yasardi. Masalan ustalardan biri chilimni qalaylasa va qumg'on yasasa, boshqalari qozon va lagan yasardi. Mis buyumlar mis taxtadan bolg'a bilan sandon ustida qizdirmasdan urib yasalgan, qumtoshli charxda pardozlangan. Eng yirik misgarlik markazi Qo'qon bo'lib, Chorsu yaqinida alohida misgarlik mahallasi bo'lgan. Vodiy misgarlari tayyorlagan buyumlar chet elda ham juda mashhur bo'lgan. Misgarlik buyumlari yuksak badiiy ahamiyatga ega san'at asari sifatida juda qadrlangan. Misgarlar oddiy asboblardan yordamida o'ziga xos shaklli, nozik naqshli buyumlar tayyorlay olganlar. Misgar ustaxonasida kichik o'choq, katta-kichik sandon, turli qisqich, qaychi, bolg'alar, ombir, egovlar asosiy ish qurollari hisoblangan. Mis buyumlarga naqsh tushirish kandakorlik deb atalgan. Farg'ona kandakorligining o'ziga xos xususiyatlaridan biri naqshlarining sayoz, islimiyliigi, jumladan Qo'qonda mayda gulli naqsh berishning urfga kirganligida edi. XIX asr oxirida mis patnislarga Xudoyorxon o'rdasi, hayvonlar, odamlar timsolidagi naqshlarni berish ham tarqalgan. Buyumlar qimmatbaho toshlar bilan masalan, feruza, yoqut, marjonlar bilan ziynatlangan. Marg'ilonlik kandakorlarning esa sevimli naqsh elementi bodomsimon ko'rinishidagi qalampir naqshi hisoblangan.

Vodiyda cho'yan quyish (degrezlik) hunarmandchiligi ham rivoj topgan bo'lib, ular mahsulotining 80-85 % omoch tishidan iborat bo'lgan. Qo'qon, Namangan, Andijon yirik degrezlik markazlari bo'lgan. Ushbu tarmoq Chust, Kosonsoy, Konibodom, Rishton, Marg'ilonida ham rivoj topgan. Cho'yan quyuvchilar qishloq xo'jalik mehnat qurollari bilan birga qozon ham quyganlar. Shu sabab tarmoqning nomi Qo'qonda degrezlik, ya'ni tojikcha "deg" – qozon, "rez" – quyish – qozon quyish ma'nosini bildirgan. Bugungi kunda ham ushbu nom shaharda toponim sifatida saqlanib qolgan. Xorazm va buxoroda bu tarmoq "pozachi" – "omoch tishi" quyish deb atalgan. Cho'yan quyadigan asboblardan metallsozlar qoliplarni yasaydigan chorcho'p, charx, belkurak, iskanja, lavgir, lattosh, sixcha, taganak (tevonak), tarnov (shovva), chanoq, cho'mich, ettaxta, chiroq va h. foydalanganlar. Degrezlar odatda manqaldon, juvoz boshmog'i,



rus uslubidagi o'choq plitasi, paxta tozalash – "jin" dastgohi maxovigi, choy idish, tamaki tuyish uchun keli sopi, aspak, qora chiroq, arava g'ildiragi takcho'yoni yoki halqa quyganlar.

Cho'yan quyish ustaxonasi loydan qurilgan bosqonli o'choq va yopiq binodan iborat inshoot bo'lgan. Farg'onada bu o'choq "yon do'kon" deb atalgan. Bu yerda o'tga chidamli g'ishtdan metall ichiga havo haydovchi "ko'z" darcha qilingan. Havo echki terisidan qilingan dam orqali berilgan. Hovlida qish paytida quyilgan qoliplar quritiladigan "xumbaz" joylashtirilgan. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerak-ki, cho'yan quyish o'lkada zarur darajada rivojlana olmadi. Chunki hunarmandlar tayyorlagan cho'yan buyumlar bu yerga Ural zavodlarida quyilib keltirilayotgan zavod mahsulotlari bilan raqobatlasha olmas edi. Mahalliy ustalar asosan bu davrda ushbu keltirilgan buyumlarning siniqlarini qayta quyish bilan shug'ullanar edilar. Butun O'rta Osiyo, shu jumladan, Farg'ona viloyati aholisini ham shu zavodlar mahsulot bilan ta'minlaganlar. XIX asr o'rtalarigacha degrezchilar xom ashyoni mahalliy konlardan olganlar. Keyinchalik rus mustamlakachiligi davrida Rossiyadan keltirilgan temir-tersaklardan foydalanilgan. Orenburg va Troisk orqali Uraldan Kostinskiy zavodining (Rastorguevga tegishli) mahsulotlari, yuzlab tonna cho'yan buyumlari O'rta Osiyoga keltirilgan.

Jez quyish metall buyumlar yasashning murakkab sohasi bo'lib, ushbu sohaning vodiya qadimdan rivojlanganligini arxeologik topilmalar ham tasdiqlaydi. Jumladan 1953-yil Chustda o'tkazilgan arxeologik ekspeditsiya tomonidan milloddan avvalgi II-ming yillikka oid bronza buyumlar, 1951-yilda Pomir-Farg'ona ekspeditsiyasi tomonidan esa Vodilning Jangoyil mavzesidan II-V asrlarga oid zargarlik, misgarlik, temirchilik, pichoqchilik mahsulotlari, bronza yoki qizil misdan yasalgan oyna, bronza sirg'a, qo'ng'iroq uzuk, temir pichoq, o'q uchi topilishi yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi. Mis va temir rudasi Isfara, yuqori Nesa, G'ovasoy, Novqat, Arslonbob, Ohangaron konlaridan olingan. Arab sayyohi Maqdisiy "Musulmon mamlakatlarida O'rta Osiyoning hamma buyumlari ichida eng mashhurlari Zarafshon ipak va ip to'qimalari va Farg'onaning metallardan yasalgan qurollaridir" deb yozgan edi. Vodiyaq temir koni haqida Zahiriddin Bobur ham xabar berganligi ko'pchilikka ma'lum. XIX asrda esa vodiya ustalari asosan Chor Rossiyasidan keltirilgan metall xom ashyosidan foydalanganlar. Shu davrda sanoat usuli bilan tayyorlangan rus metall buyumlarining O'rta Osiyo bozorlariga kirib kelishi muayyan darajada mahalliy hunarmandlar ishining qisqarishiga olib kelgan. Biroq tarmoq faoliyati butunlay to'xtab qolmadi. Chunki ular tayyorlagan buyumlar aholi hayot tarziga moslab, didini hisobga olib tayyorlanar va narxi ham arzonroq edi.

XX asr boshlarida Farg'ona vodiysining deyarli barcha yirik shahar-qishloqlarida qimmatbaho metallardan buyum tayyorlash – zargarlik kasbi ham rivoj topgan edi. Zargarlar asosan mahalliy savdogarlardan olgan xom ashyo – kumushdan buyum yasaganlar. Qimmatbaho metallarni quyish ishi Rossiya va Kavkaz bilan aloqalar tufayli yuzaga kelgan bo'lsa ajab emas. Kumushni qoraytirish texnikasi Qo'qonda rivoj topgan. Zargarlik buyumlaridan asosan yosh ayollar foydalanib, ular turmushga chiqqan ilk yillarda mehmondorchilikda yoki turli bazm, to'y-hashamlarda bezak sifatida taqqanlar. Vodiyaq keng tarqalgan peshonaga taqiladigan bezaklardan biri bu tillabargak bo'lib hisoblangan. Ushbu bezak turi rombsimon shakldagi ko'zli metall plastinkalar birlashmasi ko'rinishida bo'lgan, quyi qismida ko'plab osilib turuvchi shokilalari bo'lgan.

Vodiyaq keng tarqalgan zargarlik buyumlaridan biri – kumush bilaguzuk bo'lib, sirtiga o'yib naqsh berilib, qoraytirish uslubida pardoqlangan. Farg'ona vodiysi ayollari orasida quloqqa taqiladigan bezaklardan qashqarbaldoq, baldoq va sirg'alar keng yoyilgan edi. Shuningdek Turkistonbaldoq, aravabaldoq, Andijonning oynakli zira, Marg'ilonning zilzilabaldoq sirg'alari mashhur bo'lgan. Burunga osiladigan buloqi ham sirg'alar turkumiga kirgan. Oltin, kumush va boshqa qimmatbaho toshlar Rossiya, Eron, Hindiston, Buxoro shaharlaridan va mahalliy konlardan olingan. Zargarlar asosan uyiyaq do'konda buyum yasaganlar. Do'konda kichkina sandon, bir necha xil bolg'a,

qaychi, ombir, tutqich, sim yasaydigan kira, kichik bosqonli o'choq va misdan yasalgan bahandam, arracha va turli naqsh beradigan metall qalamlar asosiy asbob-uskunalar bo'lgan. Bu asboblarda odatda avloddan-avlodga o'tgan. Har bir zargarning mo'jizalar tarozisi bo'lgan. O'lchov birligi misqol (ruscha-zolotnik) va naxud deb atalgan.

Mustamlakachilik yillarida tarmoq Rossiyadan keltirilgan arzon fabrika mahsulotlari bilan raqobatlasha olmay asta-sekin tushkunlikka uchray boshladi. 1901-yilda "Turkistanskies vedomosti" gazetasi: "Zargarlik hunari sinyapti, chunki ko'plab mahalliy hunarmandlarning buyumlari bizning mahsulotlar tomonidan siqib qo'yilmoqda", deb yozgan edi. Lekin qadimiy an'analarga ega vodiy zargarligi butunlay to'xtab qolmadi. U rivojlanishda davom etdi va aholi ehtiyojlarini qondirib turdi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.

Akramov V. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O'zbekistonda hunarmandchilik. "O'IF" j. -1973 yil, 1-soni, 58-b.

Boburnoma. -T., 1989. 94-b.

Вестник истории мировой культуры. -М., БСЭ, 1957.

Кустарные промыслы в быту народов Узбекистана в XIX-XX в.в. -Т., 1986.

6. O'zbek ensiklopediyasi. -T., 1980., 14-jild.

7. O'zbek ensiklopediyasi. -T., 1972. 2-jild.

8. Soatov S. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. -T., 1973. -38-b.

9. Shomirzayev, M.Kh. (2019). The ethical characteristics of traditional embroidery of Fergana valley people. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 7 (12). - P. 60.

10. Shomirzayev, M.Kh. (2019). Ethnic peculiarities of artistic embroidery of the peoples of the Ferghana valley. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*. -7 (12). -P. 970.

11. Shomirzayev, M.Kh. (2019). Local features of the traditional embroidery of the Ferghana valley. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*. -7 (12). -P. 972.



**MAKTAB TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIDA XALQ
HUNARMANDCHILIGI ISHLARINI O'RGANISH
(5-sinfda yog'och o'yamakorligi ishlarini o'rganish misolida)**

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.73.80.065>

Йулдашов Кахраман Камулович

Урганч давлат университети катта ўқитувчиси

Annotatsiya: Maqolada maktab o'quvchilariga xalq hunarmandchiligi sa'natining temirchilik, misgarlik va zargarlik hunarlari tarixini orgatish va ularni milliy qadriyatlar hamda urf-odatlar ruhida tarbiyalash haqida mushohadali fikr-mulohazalar yritilgan.

Kalit so'zlar: maktab, o'quvchi, milliy tarbiya, milliy qadriyat, tarix, usta, temirchilik, misgarlik, zargarlik, hunar.

**ИЗУЧЕНИЕ НАРОДНЫХ ПРОМЫСЛОВ НА УРОКАХ ШКОЛЬНОГО
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРЕДМЕТА**

(На примере изучения работы по резьбе по дереву в 5 классе)

Юлдашов Кахраман Камулович

Старший преподаватель Ургенчского государственного университета

Аннотация. В статье собраны размышления о том, как научить школьников народным ремеслам, истории кузнечного, ювелирного и ювелирного ремесел и воспитать их в духе национальных ценностей и традиций.

Ключевые слова: школа, ученик, национальное воспитание, национальная ценность, история, мастер, кузнечное дело, ювелирное дело, ремесло

**TO EXAMINE THE WORK OF FOLK CRAFTSMANSHIP IN SCHOOL
TECHNOLOGY SCIENCE LESSONS**

(On the example of the study of wood carving works in the 5th grade)

Yuldashov Kakhraman Kamulovich

Senior lecturer at Urgench State University

Summary: In the article, the schoolchildren were given a thought-provoking opinion on the organization of the history of blacksmithing, copper and jewelry crafts and their upbringing in the spirit of national values and traditions.

Keywords: School, pupil, National Education, National value, history, master, blacksmithing, copper, jewelry, craft

Bugungi kunda yoshlarni kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirish, ularda turli kasb-hunarlariga qiziqishni oshirish, kasblarni e'zozlash va faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kelajagi buyuk davlatimizning kelgusi taqdiri shu masala bilan chambarchas bog'liqdir. Buni o'z o'rnida to'g'ri hisobga olgan hukumatimiz doimo hunarmandchilikni rivojlantirish va yoshlarni hunar o'rganishga yo'naltirish ishiga alohida ahamiyat qaratib kelmoqda. Xususan, yurtboshimiz tomonidan qabul qilingan "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini rivojlantirishni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2008 yil 1 apreldagi PF-3983 sonli, 2010 yilning 30 martidagi "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini rivojlantirishni yanada qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmonlarida xalq ijodiyoti sohasiga aholining keng qatlamini, ayniqsa, yoshlarni jalb etish uchun qulay sharoitlarni ta'minlash yo'llari belgilab berilgan. Bu tadbirlarning barchasi, ayniqsa, kasb-hunar kollejlarning bitiruvchilari uchun keng imkoniyatlar yaratilayotganligidan darak beradi. Bunday yuksak natijalarga erishmoq uchun bizningcha barcha o'quv yurtlarida "Kasbim mening – faxrim mening",

“Hunar, hunardan unar”, “Hunarli odam xor bo‘lmas”, “Ishlaganning umri bezor, ishlagandan el bezor”, “Hunarni bilgan, ko‘p narsani biladi” mavzularida davra suhbatlari, turli tadbirlar o‘tkazib borish o‘quvchilarni kasbga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi. Shu maqsadda so‘nggi yillarda respublika hududidagi ko‘plab kasb-hunar ta‘limi muassasalarida o‘quvchilar faolligini oshirish, kasbni ulug‘lashga bag‘ishlangan tadbirlar o‘tkazib kelinmoqda. Bu ishlar yoshlarning farovon kelajagi uchun muhimdir. Zero, mashhur pedagog A.S.Makarenkoning fikrlari bilan aytganda, “Qo‘lidan ko‘p ish keladigan, nimagaki urinsa, uddasidan chiqadigan, ishi tez o‘ngidan keladigan, har qanday sharoitda ham o‘zini yo‘qotib qo‘ymaydigan, buyumlarga egalik va xo‘jayinlik qila oladigan odamlarning naqadar quvnoq va baxtli yashashlarini yaxshi bilamiz”.

Shu maqsadda quyida “Yog‘ochga ishlov berish sohasidagi xalq hunarmandchiligi kasblari. Yog‘och o‘ymakorligida qo‘llaniladigan asboblar” mavzusidagi dars ishlanmasini beramiz

Darsning maqsadi: a) ta‘limiy – o‘quvchilarda yog‘ochlarga ishlov berish asosida rivojlangan milliy hunarmandchilik kasblari haqida, bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish; b) tarbiyaviy – o‘quvchilarda milliy hunarmandchilik kasblariga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish, ularda hunarmandchilik ishlarida rioya qilinadigan xavfsizlik qoidalari hamda sanitariya-gigiyena talablari to‘g‘risida ma‘lumot berish; s) rivojlantiruvchi – o‘quvchilarning milliy xalq hunarmandchiligi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

Darsning jihozi: kasb turkumlariga oid ko‘rgazma va mavzuga oid testlar, ish qurollari, yog‘och o‘ymakorligi ishlaridan namunalar, slaydlar, kodoskop.

Dars turi: nazariy.

Dars tipi: kirish darsi.

Darsda qo‘llaniladigan o‘qitish usullari: hikoya, ko‘rgazmalilik, suhbat.

Darsning borishi:

Tashkiliy qism (darsni tashkil qilish, salomlashish, davomatni aniqlash).

II. O‘tilgan mavzuni so‘rash:

1. Uy-ro‘zg‘orda qanday ta‘mirlash ishlarini bajarish mumkin?

2. Ta‘mirlash ishlarida qanday asbob-usukuna va moslamalar ishlatiladi?

3. Ta‘mirlash ishlarida qanday xavfsizlik qoidalar va sanitariya - gigiyena talablariga rioya qilish kerak?

III. Yangi mavzu bayoni. Hurmatli o‘quvchilar! Sizlar bilan oldingi darslarimizda uy-ro‘zg‘orda tuzatish ishlarini o‘rgangan edik. Bugungi darsimizdan boshlab sizlar bilan xalq hunarmandchiligiga oid ishlar bilan tanisha boshlaymiz. Bugungi darsimizda yog‘och o‘ymakorligi ishlariga oid ma‘lumotlar bilan tanishamiz. Yog‘och o‘ymakorligi o‘zbek xalq amaliy bezak san‘atining keng tarqalgan bir turi bo‘lib, bunda biror naqsh yoki tasvir taxta yoki yog‘och buyumlarga chizib, kesib, o‘yib ishlanadi. Badiiy san‘atning bu turi deyarli barcha xalqlarda bo‘lib, qadimgi Sharqda antik dunyo mamlakatlari arxitekturasida keng ishlatilgan. Asrlar davomida Yevropa va Osiyo mamlakatlarida yog‘och o‘ymakorligi rivojlanib, o‘ziga xos badiiy uslublari kelib chiqqan. Shu singari O‘rta Osiyoda ham yog‘och o‘ymakorligi qadimdan rivojlanib, kishilarning uy-ro‘zg‘or buyumlarida va arxitekturasida juda keng qo‘llanilgan. Bu o‘ymakorlik qadimiy arxitekturaning eshik, darvoza, ustunlar, har xil to‘sin, stol, xontaxta, quticha, ramka, qalamdon va boshqa buyumlarni bezashda ishlatilib kelingan (1-rasm). V-VI asrlarga oid yog‘och o‘ymakorligi namunalari Surxondaryo vohasidagi Yumaloq tepa tubidan topilgan. Olimlarimizning aniqlashicha bundan 1-1,5 ming yil muqaddam mazkur joyda naqsh o‘ymakorligi san‘ati bo‘lib, u juda yaxshi rivojlanganligi isbotlangan. XIX - XX asr-larda yog‘och o‘ymakorligi, misgarlik, naqqoshlik va san‘atning boshqa turlari rivojlanib har bir shaharning o‘ziga xos yog‘och o‘ymakorligi paydo bo‘ldi. Qo‘qondagi Xudoyorxon saroyi, Toshkentdagi knyaz N.K.Romanovlarning saroyi, Quvadagi Zayniddin boyning uyi, Marg‘ilondagi Saidahmadxo‘ja madrasasi va Buxorodagi

Sitorai Mohi-Xosa va boshqalarda yog‘och o‘ymakorligi namunalari yaratildi.



1-rasm.

Shunday ekan, yog‘och o‘ymakorligida duradgorlikni bilmasdan turib o‘ymakorlikni tushunib yetish qiyin. Chunki har bir o‘ymakor usta o‘yladigan buyum detallarini alohida tayyorlab, ya’ni detalni o‘lchab, arralab randalab tayyorlaydi. O‘quvchilar yog‘ochga ishlov berish sohasidagi xalq hunarmandchiligida duradgorlik kasbidan xabardor bo‘lishi va shu kasbda ishlatiladigan asboblarni bilishlari lozim. Duradgorlik kasbi shunday kasblardanki, bunchalik xalq turmushiga singib ketgan kasblar kam topiladi. Duradgor yasagan buyumlar har bir xonodonda ko‘plab topiladi. Shuning uchun bu kasb o‘quv predmetiga aylanib, har bir o‘quvchilar uyi va saroylarida, maktablarda va oliy o‘quv yurtlarida o‘qitilib, o‘rgatilib kelinmoqda. Bundan tashqari naqqoshlik, beshikchilik va sandiqchilik kasblari ham xalq orasida keng tarqalgan kasblardan hisoblanadi.

Yog‘och o‘ymakorlik ishlarini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar quyidagi ustaxona xavfsizligi texnikasi va yong‘in xavfsizligi qoidalariga amal qilishlari lozim. Yog‘och o‘ymakorlik ustaxonasi binoning birinchi qavatida joylashishi, unga yorug‘lik yaxshi tushib turadigan bo‘lishi kerak. Ustaxonaning yarim podval yoki podvalga joylashishi gigienik nuqtai nazardan qat’iyan man qilinadi. Ustaxona uchun qo‘yladigan maxsus talablardan biri – unga tabiiy yorug‘lik yaxshi tushishi, xona isitilishi va shamollatilishi kerak. Eng muhimi, ustaxonada xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish kerak.

Ustaxonada yong‘in xavfsizligiga alohida e’tibor berish lozim. Chunki, yog‘ochdan chiqqan qirindilar tez yonadi. Shuning uchun elektr isitgich asboblari, elektr plitalarga maxsus belgilangan joy bo‘lishi lozim. Ustaxona o‘t o‘chirish moslamalari (inventarlari) bilan jixozlanishi va bunda quyidagilarga e’tibor berish lozim.

1. Ish boshlashdan oldin ish kiyimlarini to‘g‘ri kiyib, ularni tugmalarini taqib olish.
2. Ishlayotganda kerakli yog‘ochni dastgohga mahkamlab, uning mustahkamligini tekshirib ko‘rish.
3. Kesuvchi asboblarning tig‘ini tekshirish, agar o‘tmas bo‘lsa o‘tkirlash.
4. Arra bilan ishlaganda gaplashmasdan, hushyorlik bilan ishlash.
5. Randa bilan ishlaganda randaning sozligini tekshirish.
6. Yelim tayyorlashda, uni eritishda elektr asboblardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish.
7. Ishdan keyin qolgan materiallar va tugatilmagan ishlarni navbatchiga topshirish.
8. Asboblarni artib, tozalab joyiga qo‘yish.
9. Ish dastgohlarini qirindi – payraxalardan tozalashda maxsus cho‘tkalardan foydalanish.

10. Ustaxonada medisina aptechkalari bo'lishi shart.

Agar biror o'quvchining qo'li kesuvchi asboblari bilan jarohatlanib, qon ketayotgan bo'lsa, uni to'xtatish uchun jarohatlangan joyni yuqori qismidan bog'lab qo'yish va uni tezda yaqin oradagi tibbiy yordam ko'rsatish bo'limiga olib borish lozim.

Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan asboblari

Yog'och o'ymakorligida naqsh kompozitsiyalarini chizish, o'lchash va boshqalarda bir qancha ish, o'lchov va nazorat asboblari ishlatiladi. Masalan metr, chizg'ich, go'niya, porsiy go'niya, pargor (ruscha – sirkul), kronsirkul, nutromer, qalam, knopka, o'chirg'ich, reysfeder, reysshina, transportir kabilar o'lchov va nazorat asboblari kiradi (2-rasm).

Pargor (sirkul) – uchlari sharnirli briktilirilgan ikki yoqli chizmachilik asbobi bo'lib, bir uchida qalam sterjeni, ikkinchi uchida nina sterjen o'rnatilgan bo'ladi. Bu asbob o'lchov olish, o'lchamni aniqlash, aylana va yo'ylar chizish uchun ishlatiladi.


Knopka – qog'oz yoki biron narsani chizma taxtaga yoki devorga mahkamlab qo'yish uchun ishlatiladi.

Qalam – shakl chizishda qo'llaniladi. Qalamlar ko'mir, grafit, qo'rg'oshin, quruq bo'yoqdan qilinadi. Ishlatilish sohasiga qarab qalamlar – qattiq qalamlar (T, 2T, 3T), yumshoq qalamlar (M, 2M, 3M, 4M yoki V, 2V, 3V) va o'rtacha yumshoqlikdagi qalamlar (TM, NV) ga bo'linadi.

Metr – yog'ochdan yoki yupqa po'latdan yasalgan bo'lib, tuzilishi o'rama (ruletka) yoki to'g'ri ko'rinishda bo'ladi.


Go'niya (ugolnik) – o'zaro 900 burchak ostida briktilirilgan kunda va lineykadan iborat asbob bo'lib, buyumlarni to'g'ri burchakli ekanligini tekshirishda hamda o'lchov chiziqlarini chizishda qo'llaniladi. Go'niyaning porsiy go'niya (yerunok), surma go'niya (malka) kabi turlari ham bor.

O'chirg'ich – naqsh, kompozitsiyalar chizishda ortiqcha chiziqlarni o'chirish uchun qo'llaniladi. Qalamda chizilgan chiziqlarni yumshoq oq yoki ko'k o'chirg'ichda, siyoh yoki tush bilan chizilgan chiziqlarni esa tarkibida maydalangan qumi bo'lgan qizil o'chirg'ichda o'chiriladi.



2-rasm.

Yog'och o'ymakorligida turli ish asboblari ishlatilib, ular o'ziga xos ishlarni bajaradi (3-rasm). Yog'och o'ymakorligidagi asboblari ikki turga bo'linadi, ya'ni naqshni o'yish uchun "o'yma qalamlar" va ikkinchisi "naqsh qalamlar".



3-rasm.

Asboblarning shakli va bajaradigan ishiga qarab iskanalarning bir necha xillari bo‘ladi. Masalan, iskana, morpech iskana, baliq sirti iskana, zamin iskana, kovza iskana, chekma iskana va boshqalar. Iskanalar shakliga va bajaradigan ishiga qarab sakkiz guruhga bo‘linadi:

1. To‘g‘ri iskanalar – 4 xil bo‘lib, mayda (tig‘ining kengligi 1,5 mm) iskana, o‘rta iskana, katta iskanalarga bo‘linadi. Ular o‘yma naqsh elementlarining atroflarini va geometrik shakldagi bog‘dodi naqshlarning chetlarini kesishda, zamin olishda va ularni tekislashda ishlatiladi.

2. Kurakcha iskanalar – 2 xil bo‘lib, tig‘ining kengligi 15-25 mm bo‘ladi.

Bu iskanalar kesadigan tig‘ining uchi bir tomonga qiya qilingan bo‘lib, kurakcha shaklida bo‘ladi. O‘yuvchi usta o‘ng qo‘li bilan iskananing dastasidan ushlab, naqsh chizig‘i ustidan, ma‘lum bir chuqurlikda sanchigan holda o‘zi tomon kesadi. Bu iskana asosan buyumlarning chetiga ensiz zanjir va hoshiya naqshlar o‘yishda qo‘llaniladi.

3. Nova iskanalar – nova iskananing tig‘ining uchi nov shaklida bo‘lib, eni 2 mm dan 15 mm gacha bo‘ladi. Bu iskanalar yog‘och buyumlarning yuziga turli shakldagi o‘simliksimon, islimiy, qavartma naqshlarni o‘yish va pardoqlashda ishlatiladi. Nova iskanalar to‘rt xil: nuqta nova iskana, kichik nova iskana, o‘rta nova iskanadir.

4. Baliq sirti iskana – bu iskanalarning tig‘i botiq, kamalaksimon ko‘tarilgan, baliq qovurg‘asi shaklida bo‘lib, tig‘ining kengligi 3, 6, 10, 15 mm gacha bo‘ladi. Yog‘ochga chizilgan naqshni o‘yish uchun usta iskanani chap qo‘lida ushlab, tig‘ini chiziq ustiga tik qo‘ygan holda bolg‘acha bilan urib kesadi.

5. Zamin iskanalar – 2 xil bo‘lib, tig‘ining kengligi 5-7 mm gacha bo‘ladi. Ular buyumlarning yuziga chizilgan islimiy va girih naqshlarning zaminini o‘yib olishda ishlatiladi.

6. Chekma iskanalar – buyumning iziga o‘yilgan naqshlar zaminining bir tekis bo‘lishi, naqsh chiziqlarining aniq ko‘rinishi uchun ishlatiladi. Naqshni o‘yishda o‘quvchilar iskanani chap qo‘l kaftining orasiga olib, uni tik ushlagan holda bolg‘acha bilan naqsh zaminini bir chetdan cheklab chiqadi. Chekma iskanalar bir tishli, uch tishli, besh tishli, o‘n olti tishli bo‘ladi.

7. Morpech iskanalar – 4 xil bo‘lib, tig‘ining kengligi 5, 8, 15, 20 mm gacha bo‘ladi. Bu iskanalar buyumlarga o‘yilgan naqshlarning chetlaridagi zanjiri, hoshiya, yarim doiralar, nuqtalar chiqarishda ishlatiladi. Morpech iskana ham bolg‘acha bilan urib ishlatiladi.

8. Kovza iskanalar – 3 xil bo‘lib, tig‘ining kengligi 5, 8, 12 mm gacha bo‘ladi. Bu iskanalarning to‘g‘ri tig‘li va egri tig‘li deb yuritiladigan turlari ham bor. Kovza iskanalar buyumlarning yuziga o‘yilgan naqsh chiziqlarining ustiga uch qirrali qavariq yo‘llar chiqarish va parallel chiziqlar tushirishda ishlatiladi.

Yuqorida ko‘rsatilgan o‘ymakorlik asboblari bilan buyumlarga turli xil naqshlarni o‘yish mumkin. O‘ymakorlik asboblardan foydalanar ekanmiz, agar ular o‘tmas bo‘lsa,

ish sifatsiz, ko'ngildagidek chiqmaydi, shuning uchun ham "ustani o'zi usta emas, asbobi usta" deb bejiz aytmaganlar.

IV. Darsni mustahkamlash:

1. Yog'ochga ishlov berish sohasidagi qanday xalq hunarmandchiligi kasblarini bilasiz?

2. Yog'och o'ymakorligi qanday san'at turi hisoblanadi?

3. Yog'och o'ymakorligi qachon paydo bo'lgan?

4. Yog'och o'ymakorligida qanday asboblardan foydalaniladi?

5. Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan qanday o'lchov asboblarini bilasiz?

V. Darsni yakunlash: a) o'quvchilarni baholash va rag'batlantirish; b) uyga vazifa – uylarida yog'och yog'och o'ymakorligiga oid qanday buyumlar borligini, yog'ochga ishlov berish sohasiga oid kasblarni va yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan asboblardan qanday foydalanishni o'rganib kelish.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. //O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. -T.: O'zbekiston, 2016.

Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.

"2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlari. //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.

Abdulaxatov N., Hoshimov B. Mo'yi Muborak. -F., 2000. 18-b.

Akramov V. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O'zbekistonda hunarmandchilik. "O'IF" j. -1973 yil, 1-soni, 58-b.

Boburnoma. -T., 1989. 94-b.

Вестник истории мировой культуры. -М., БСЕ, 1957.

Головин Э. Кустарные промыслы Туркестана. -Т., 1909. -10-с.

Шомирзаев М.Х. Технология обучения народному-прикладному искусству, трудовое и эстетическое воспитание учащихся V-VII классов общеобразовательных школ. Монография. – Т.: Yangi nashr, 2019. – 144 с

10.Shomirzaev, M.Kh. (2020). "Technology" In Secondary Schools Organization of Science Classes. The American Journal of Social Science and Education Innovations, Impact Factor 5.525 (11). -P. 400. (www.usajournalshub.com/index.php/tajet).

11.Shomirzaev M.X. Maktab o'quvchilarida xalq hunarmandchiligi kasblariga qiziqishni fanlararo shakllantirish // "Mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani material-lari. –Buxoro, 2019.- B.29.



**TEKNOLOGIYA FANI DARSLARIDA TO‘QIMACHILIK
HUNARMANDCHILIGI TARIXIGA OID MATERIALLARDAN
FOYDALANISH**

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.58.73.064>

Йулдашов Кахраман Камулович

Урганч давлат университети катта ўқитувчиси

Annotatsiya: Maqolada maktab o'quvchilariga xalq hunarmandchiligi sa'natining temirchilik, misgarlik va zargarlik hunarlari tarixini orgatish va ularni milliy qadriyatlar hamda urf-odatlar ruhida tarbiyalash haqida mushohadali fikr-mulohazalar yritilgan.

Kalit so'zlar: maktab, o'quvchi, milliy tarbiya, milliy qadriyat, tarix, usta, temirchilik, misgarlik, zargarlik, hunar.

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МАТЕРИАЛОВ ПО ИСТОРИИ ТЕКСТИЛЬНОГО
РЕМЕСЛА НА УРОКАХ ТЕХНИКИ**

Юлдашов Кахраман Камулович

Старший преподаватель Ургенчского государственного университета

Аннотация. В статье собраны размышления о том, как научить школьников народным ремеслам, истории кузнечного, ювелирного и ювелирного ремесел и воспитать их в духе национальных ценностей и традиций.

Ключевые слова: школа, ученик, национальное воспитание, национальная ценность, история, мастер, кузнечное дело, ювелирное дело, ремесло

**THE USE OF MATERIALS ON THE HISTORY OF TEXTILE
CRAFTSMANSHIP IN THE LESSONS OF TECHNOLOGY SCIENCE**

Yuldashov Kakhraman Kamulovich

Senior lecturer at Urgench State University

Summary: In the article, the schoolchildren were given a thought-provoking opinion on the organization of the history of blacksmithing, copper and jewelry crafts and their upbringing in the spirit of national values and traditions.

Keywords: School, pupil, National Education, National value, history, master, blacksmithing, copper, jewelry, craft.

XX asr boshi Turkiston xalqlari iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy-ma'naviy hayotida katta o'zgarishlar davri sifatida namoyon bo'ldi. Shu jumladan mamlakat aholisini asosiy mahsulotlar bilan ta'minlovchi hunarmandchilik tarmog'i ham bu xususiyatni o'zida yaqqol aks ettiradi. Hunarmandchilik ishlab chiqarishi xalqimizning asrlar davomida rivojlanib kelgan boy amaliy tajribalarini o'zida ifoda etuvchi tarmoq bo'lib, bunday jihatlarini XX asr boshigacha ham saqlab kelmoqda edi. Turkistonda hunarmandchilikning yirik maskanlaridan biri Farg'ona vodiysi bo'lib, XX asr boshida vodiy aholisining katta qismini ushbu tabaqa vakillari tashkil etgan. Jumladan, 1897-yilgi rasmiy ma'lumotlarga ko'ra Namanganda aholining 64%, Qo'qonda 52%, Marg'ilonida 50% ni hunarmandlar tashkil etishi bu fikrimizni tasdiqlaydi.

Surxondaryo, Xiva va Farg'ona hududlaridagi hunarmandchilikning metallga ishlov berish, kulolchilik, mato to'qish va boshqa ko'pdan-ko'p tarmoqlari rivoj topgan bo'lib, bu tarmoqlar o'z navbatida yana tor ixtisosliklarga bo'lingan. Chunonchi, metallga ishlov beruvchi hunarmandchilik tarmog'ini ichida turli xil buyumlar tayyorlashga ixtisoslashgan 19 ta mustaqil sohalar mavjudligi ma'lum. Shuningdek vodiyda muayyan mahsulot tayyorlashga ixtisoslashgan hunarmandchilik markazlari ham vujudga kelgan bo'lib, Qo'qon, Marg'ilon turli gazlamalar, Chust, Shahrixon, Qorasuv – metall

mahsulotlar, Rishton, Andijon kulolchilik buyumlari tayyorlashning markazlari bo'lib shakllangan. XX asr boshida ham hunarmandchilik ishlab chiqarishida oddiy dastgohlar saqlanib qolgan, qo'l mehnatini ko'p talab qiluvchi ishlab chiqarish munosabatlari ustun turib, mahsulot asosan uyda yoki do'konda, odatda usta va uning shogirdi ishtirokida tayyorlangan.

XX asrda Farg'ona vodiysi hunarmanchiligi ishlab chiqarish taraqqiyoti darajasi o'lkada sodir bo'layotgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar tufayli o'zgarib bordi. Xususan, vodiya ko'plab arzon sanoat mollarining kirib kelishi ma'lum hunarmandchilik tarmoqlarini tanazzulga uchrashiga olib kelsa, muayyan hunarmandchilik tarmoqlari mahsulotlarining chetga eksport qilinishining ortishi bu tarmoqlar rivojini ta'minladi. Farg'ona vodiysida mahalliy paxtadan ip-mato to'qish tarmog'i azaldan taraqqiy etib kelgan bo'lib, u ayniqsa Qo'qon shahrida rivoj topgan edi. XX asr boshida Qo'qonda 500 ga yaqin to'qimachi hunarmand faoliyat yuritgan. Shahar hunarmandlari tomonidan asosan bo'z, alacha, dona, chit, to'qilgan bo'lib, shuningdek shoyi, atlas, beqasam kabi ipak matolar ham tayyorlangan. Hunarmand bir kunda ikki bo'lak mato (bo'z) tayyorlay olgan bo'lib, uning bir bo'laki 20 tiyin-dan sotilgan. Andijonda ham ip-mato to'qish ishlari rivoj topgan bo'lib, 1887 yilga nisbatan shaharda mato to'quvchi do'konlar miqdori 1913-yilga kelib 2157 taga ko'payganligi buni tasdiqlaydi. Bunga sabab avvalo metro poliyadan keltirilayotgan ip-gazlamalardan mahalliy matolar arzon turib, ular iste'molini bu jihatdan katta bo'lishini taminlasa, eng asosiysi mahalliy matolar o'z to'qilish uslubi, naqsh elementiga ko'ra xalq didiga, mentalitetiga yaqin bo'lib, uni aholi orasida xaridorgir bo'lishini ta'minlagan. Lekin to'qimachilikka yondosh hunarmandchilik tarmog'i boshlagan bo'yoqchilik haqida bu fikrlarni ayta olmaymiz. 1897-yilda Andijon shahrida 40 ta bo'yoqchilik do'koni bo'lgan bo'lsa, 1907-yilga kelib bunday do'konlar soni 29 taga tushib qolgan edi. Bo'yoqchilik do'konlarini qisqarishiga, Rossiyadan arzon anilin fabrika bo'yoqlarining kelishi va mahalliy bo'yoqlarni iste'moldan chiqa boshlashi bilan bog'lash mumkin. Chunki yangi sharoitdagi bozor munosabatlari, hunarmandlar an'analaridan ustun chiqib, hunarmandlarni arzon va oson ishlov beriluvchi, lekin sifatsiz bo'yoqlarni o'z ishida qo'llashlariga olib kelgan. Lekin fabrika mahsulotlarining o'lka to'qimachiligi tarmoqlariga ta'siri doimo birday salbiy bo'lmadi. Xususan, Farg'ona vodiysida azaldan rivoj topgan ipak buyumlar tayyorlash tarmog'i ayniqsa bu yillarda yanada rivojlandi. Marg'ilon butun Turkistonda ipak buyumlar tayyorlash markazi bo'lib, Turkistondagi ipak yetishtiruvchilarning yarmi shu yerda faoliyat yuritgan. Shaharda 2000 dan ortiq do'konda ipak va yarimi ipak matolar to'qilgan (Izoh: "do'kon" – mahalliy matolar to'qiladigan dastgoh).

Mustamlakachilik davrida ham tarmoqni rivoj topib borishi Rossiyada tarmoqni rivojlantirish imkonining yo'qligi va bu eksport jihatidan qimmatli mahsulotni shu mintaqani o'zida taraqqiy ettirish zaruriyatidan kelib chiqishi natijasida edi. Lekin bo'yoqchilik sohasidagi o'zgarishlar, ya'ni fabrika bo'yoqlarini tarmoqqa jalb etilishi bu tarmoqda ham mahsulot sifatining buzilishiga olib keldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, vodiydagi to'qimachilik tarmog'i XX asr boshidan o'zgarishlar tufayli tanazzulga uchrash boshladi. Lekin shunga qaramay, hunarmanchilik mahalliy aholi xo'jaligining ajralmas qismi sifatida aholiga zarur mahsulot yetishtirib beruvchi muhim bir tarmoq bo'lib qolaverdi.

Gazlamashunoslik darslarida shohi to'qish hunari tarixiga doir materiallardan foydalanish. O'zining muborak ikki ming yoshini qarshi olgan qadim Marg'ilonning ta'rifu-tavsiflari behisob: uni hech ikkilanmay "Azizu-avliyolar shahri", "San'atkorlar shahri", "Hunarmandlar shahri", "Olimu-fuzalolar shahri" desak, aslo yanglishmaymiz. Negaki bularning barchasida haqiqat bor. Shu bilan birga mazkur shahri qadimning, Marg'ilonsoy bo'ylarida qad rostlagan muazzam tarixiy makonning yana bir e'zoz-u hurmatga loyiq sifati ham bor-ki, buni eslab o'tmaslik aslo mumkin emas. Gap shundaki, Marg'ilon – butun dunyoga dong'i ketgan, o'rishi ham, arqog'i ham tabiiy ipakdan to'qiladigan, o'rishi abr usulida rang-barang naqshlar bilan bezatiladigan bir yuzlama

mayin mato bo'lmish atlasning vatanidir. Garchi "atlas" arabcha so'z bo'lib, tarjimada "tuksiz, silliq" degan ma'nolarni berib, atlas matoning xususiyatlarini aks ettirsa-da, bu atlasning arabiy kelib chiqishga egaligini bildirmaydi. Zero X asrga oid arab tarixiy manbalarida, atoqli ma'rifatparvar Ishoqxon Ibratning "Farg'ona tarixi" kitobida, akademik V.V. Bartoldning "Turkiston mo'g'ullar istilosi davrida" nomli monografiyasi va boshqa ko'plab asarlarida "Marg'ilon" ("Marg'inon") toponimi tilga olinar ekan, marg'ilonliklarning usta kosib-hunarmand kishilar ekanligiga ham alohida urg'u berib o'tiladi. Fikrimizcha, bu o'rinda ularning ipakdan ajoyib tarzda tovlanuvchi mayin matolar yaratganliklari ham nazarda tutilgan.

Tarixchilarning yakdillik bilan guvohlik berishlaricha, atlas matosining dunyoga kelishi bevosita Marg'ilon bilan chambarchas bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, Marg'ilonning jahonga dovruc taratishi ko'p jihatdan atlas gaz mollarning ko'hna savdo-sotiq yo'llari, karvonlar bilan G'arbu-Sharqqa tarqalishi, eng nozik ta'b xotinqizlarning, ayniqsa, Mashriq ayollarining suyumli, qadrlil, husni-latofatini o'n chandon oshirishga qodir qadriyatga aylanganligi bilan ham bog'liqdir. Ayniqsa, o'rta asrlarda Bag'dod va Qashqar, Xuroson va Mashhad, Misr va Yunoniston bozorlarida marg'ilonlik usta kosiblar mahoratidan yal-yal yashnab turgan atlasning, xususan, xonatlas, sariq atlas, qora atlas, sakkiz tepki atlasning xaridorlari g'oyatda ko'p bo'lgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shaharda shoyi matolar to'qish bilan yuzlab kosiblar mashg'ul bo'lgan. Sho'ro tuzumining dastlabki yillarida, "yangi iqtisodiy siyosat" davrida ular 4 artelga birlashtirilgan. 1963-yilda ushbu artellar negizida dastlabki yirik sanoat korxonasi – "Atlas" firmasi tashkil etilib, atlas matolar asosan mexanizatsiyalashgan usulda ishlab chiqarila boshlandi. 1976-yilda firma ko'p tarmoqli ipakchilik ishlab chiqarish birlashmasiga aylantirildi. O'tgan asrning 70 - 80-yillarida bu yerda serjilo atlas matolarning ikki yuzdan ortiq turli ishlab chiqarilar, ayniqsa, bargikaram, chaqirim, yahudiy nusxa, namozshomgul, shaxmat, qorako'zim turlari xaridorgir edi. Marg'ilon atlaschilari o'z kasb-hunarlarini sirlarini boshqalarga ham sidqidildan o'rgatib, Samarqand, Qo'qon, Namangan, Andijon shaharlarida, qo'shni Tojikistonning Xo'jand shahrida shohi to'qish korxonalarini ishga tushirilishida boshqosh bo'ldilar. Atlas ko'hna Marg'ilon va marg'ilonlik kosiblar, to'quvchi-ustalar, injener va texnologlarga jahonaro ulkan shon-shuhrat keltirdi. Kanadaning Monreal shahrida 1967-yilda hamda sobiq Yugoslaviyaning Zagreb shahrida 1978-yilda o'tkazilgan xalqaro ko'rgazmalarda Marg'ilon atlaslari oltin medallar bilan taqdirlandi. Toshkent Modellar uyi modeler-dizaynerlari xonatlasdan tikkan liboslar nusxalariga Yaponiyaning Osaka shahrida (1970-y.), Vengriyaning Budapesht shahrida (1987-y.), Iroqning Bag'dod shahrida (1988-y.), Hindistonning Dehli shahrida (1989-y.), AQShning Vashington (1998-y.) va Chikago (1999-y.) shaharlarida o'tkazilgan nufuzli xalqaro tanlovlarda yuksak baholar berildi. Mustaqillik shohi to'qish san'atini yangi bosqichga ko'tarmoqda, demak, asriy an'analar davom etadi.

Kiyim-bosh muayyan xalqning moddiy madaniyatini muhim qismi sifatida ushbu xalq etnogenezi va madaniyati tarixini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Kiyim-bosh bu xalqni yashash tarzi, estetik didi va milliy o'ziga xosliklarini ham ifoda etishi bilan ham muhim o'rinni egallaydi. O'rta Osiyo, jumladan, Farg'ona vodiysi aholisining kiyim-kechaklari ko'p asrlik tarixga ega. Chunonchi, arxeologik qazilmalardan topilgan qadimiy katta devoriy rasmlar, har xil buyumlarga tushirilgan tasvirlar, o'rta asrlardagi kitob miniatyuralari ajdodlarimizning o'tmishdagi kiyim-kechaklari to'g'risida boy ma'lumotlar beradi. O'rta asrlarga oid minyaturalar o'zbek kiyimlarining asosiy tipi bu davrda shakllanib ulgurganligi va bu xususiyat keyingi davrlargacha saqlanganligini namoyish qiladi. Ma'lumki O'rta Osiyo xalqlariga xos kiyim-kechaklar xar bir etnosning etnik belgilari, hududiy iqlim sharoiti, aholining yosh, jins xususiyatlarini hisobga olgan holda yuzaga kela borgan. Mazkur kiyim-kechaklar tarixini bir maqola doirasida tadqiq qilishning imkoni yo'qligi sababli, biz asosan Farg'ona vodiysi aholisining kiyim-boshlari tarixiga to'xtalib o'tamiz.

Ma'lumki, bosh kiyimi aholi kiyim-kechagining muhim elementi sifatida o'zining uzoq tarixiga ega bo'lib, uni o'rganish bizga qiziqarli ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Qadimdan Farg'ona vodiysi aholisi orasida turli ko'rinishlardagi bosh kiyimlaridan foydalanilganligi ma'lum. Jumladan, ularning dastlabki turlari to'g'risida arxeologik izlanishlar bizga ma'lumot beradi. Chunonchi, XX asrni so'nggi o'n yilligida shimoliy Farg'onaning Munchoqtepa manzilgohida olib borilgan izlanishlar farg'onaliklarning V-VIII asrlardagi turmush tarzi, eng asosiysi, islom diniga qadar bo'lgan bosh kiyimlari to'g'risida muhim ma'lumotlar beradi. Kiyim-boshlar ipakli, ipli, junli matolardan tayyorlangan. To'qimachilik asboblari, urchuqlar ham bu sohada muhim o'ringa ega. Munchoqtepa qabrlaridagi kattalar va bolalar jasadlarini peshonasida uzunligi 40 sm, eni 4-6 sm peshonabandlar bog'langan. Shunga o'xshash lentalar Kengko'l mozorlarida va vodiyning birinchi ming yillikning birinchi yarmiga doir mozorlarida ham uchraydi. Elshunoslar fikricha peshonabandlar mahalliy aholining qadimiy bosh kiyimlaridan bo'lib, undan odatda aholining yosh qizlari va kelinlari bosh kiyim sifatida foydalangan.

Surxondaryo, Xiva va Farg'ona hududlaridagi aholisi orasida eng ko'p tarqalgan qadimiy bosh kiyimi bu shubhasiz do'ppi bo'lib, do'ppining qadimdan eron va turkiy xalqlar orasida keng tarqalganligi ma'lum. Do'ppi bosh kiyimi tarixini o'rganish ham bizga ko'plab qiziq, yangi tarixiy ma'lumotlar olish imkonini beradi. Do'ppini ilk ko'rinishlarini hozir aniqlash qiyin, albatta. Lekin uning o'rta asrlardagi ko'rinishi yuqori qismi murabba ko'rinishida baland bo'lganligi, XX asr boshiga kelib do'ppini yuqori qismi tekis ko'rinish ola boshlaganligini aytish mumkin. Bu davrda do'ppi Turkiston xalqlari orasida (ayniqsa O'zbekiston va Tojikistonda) milliy bosh kiyim turiga aylanib bo'lgan edi.

O'zbek do'ppilari tayyorlangan joyi, shakli, bezagiga ko'ra farqlanadi. Bu farqlar do'ppining tepa (aylana va to'rtburchak shaklda bichiladi), kizak (gardishi) va jiyak (gardish bezagi) qismlarining o'ziga xosligida seziladi. O'zbekistonda vodiyning Chust, Andijon, Marg'ilon, Qo'qon nusxa do'ppilari mashhurdir. Chust do'ppisi eng keng tarqalgan do'ppi nusxasi bo'lib, u to'q yashil shoyi yoki satindan 4 karj qilib tayyorlanadi: tepasining har bir karjida qalampir nusxa yoki bodom shakli, kezagining har bir karjida to'rttadan mehrob (yarimdoira) shakli bilan sidirg'a qoplab oq ip (yoki ipak) da tikiladi. Bunday qalampir, bodom shakli "ko'zdan asrovchi" ma'nosiga ega shakllar hisoblanadi. Tayyor do'ppining tepasi kizagidan murabba shaklida bo'rtib chiqadi (boshqa do'ppilarning tepasi yarim doira shaklida bo'ladi). Shakli ko'p jihatdan Chust do'ppisiga o'xshash bo'lgan Marg'ilon do'ppisi gullari nisbatan ingichka va uzun qalampir shaklining sidirg'a qoplamasi bilan farq qiladi. Bu do'ppilarni kishi bir qarashda konus shaklidagi Toshkent, Samarqand, Shahrisabz do'ppilardan ajrata olgan. Chunki o'tmishda har bir etnik guruhning kiyim-bosh an'analari qat'iy saqlangan. Shunga ko'ra kishining do'ppisiga qarab u qaysi hududdan tashrif buyurganligini aytish mumkin bo'lgan. Do'ppilar yuqorida aytilgandek shakli, ishlatilgan ranglari va naqshlariga ko'ra farqlangan. Lekin keyingi davrlarda do'ppilarning turli lokal etnik an'analarni saqlab kelgan turlari kamaya boshladi. Chust, Marg'ilon, Xo'jand, O'rtatepa turlari umumiy iste'molda bo'la boshladi. Keyingi davrlarga kelib esa do'ppi kiyish odati, unga bo'lgan e'tibor xalqimiz vakillari orasida tobora kamayib bormoqda. Hozirgi davrga kelib esa do'ppilarning an'anaviy turlari o'rniga, yangi turlarini kiyish, xususan, keksalar, o'rta yoshlilar, yoshlar, bolalar orasida usti tekis, bezagi aylana, mashina chok berilgan, oq yoki qora rangli ip, matodan tayyorlangan do'ppi turlarini kiyish keng taralmoqda. Tarixiy manbalar Farg'ona vodiysida avval ham oq do'ppilar ba'zan kiyilganligini va u so'fi do'ppi deyilganligini ko'rsatmoqda. Do'ppilar qadimdan erkaklar kiyim-boshining eng tantanavor, aziz qismi bo'lib uni tayyorlashga alohida ahamiyat qaratilgan. Xalqda aziz mehmonga, yaqin kishisiga unga sog'liq, omad va baxt tilab do'ppi taqdim etish an'anasi bo'lgan. Yosh qizlar o'z bo'lajak umr yo'ldoshiga atab maxsus do'ppilar tikkanlar.

Surxondaryo, Xiva va Farg'ona hududlari aholisi bosh-kiyimlari sirasiga salla

o'rash ham kiradi. Salla bu oq bo'z matodan boshga o'raladigan bosh kiyimi bo'lib, islom diniga e'tiqod qiluvchi xalqimiz orasida keng tarqalgan. Lekin tarixiy ma'lumotlar bu kabi matodan boshga o'raluvchi bosh kiyimlari juda qadimda ham bo'lganligini ko'rsatmoqda. Xususan, Kushonlar davri terrakoto haykalchalari tasviridagi bosh kiyimlar buni tasdiqlaydi. Tarixshunos V.A. Meshkeris Kushon tosh haykalchalaridagi ayollarning sallasimon bosh kiyimlari o'lkamizga qadimda shimoliy-g'arbiy Hindistondan (gandxara haykaltaroshligi) kirib kelgan deb hisoblaydi. Sallani aholining barcha tabaqa vakillari o'rasada, ular rangi, o'ralish shakliga ko'ra kishining jamiyatda tutgan o'rniga ko'ra farqlangan. Xususan, ruhoniylar katta, ko'p bog'lamli sallalar o'raganlar. Salla o'rashishi mo'tabar va mas'uliyatli ish bo'lib, badavlat xonadonlarda sallalarni katta hajmda va chiroyli qilib o'raydigan maxsus kishilar toifasi xizmatda bo'lgan.

Xullas, Surxondaryo, Xiva va Farg'ona hududlari aholisi bosh kiyimlari uzoq tarixiy o'tmishga ega bo'lib, doimo rivojlanib kelgan. Uni xilma-xil turlari ichida do'ppi alohida o'ringa ega. Vodiy bosh kiyimlari tarixini chuqur o'rganish esa o'tmishdagi boy an'analarimizni qayta jonlashtirish va uni negizida yosh avlodni barkamol insonlar sifatida tarbiyalashi mkonini beradi. Zero, o'z an'alarini yaxshi biladigan, undan ruhiy quvvat oladigan avlod boy tajribaga tayanadi va kelajakka ham dadil qadam tashlay oladi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. //O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. -T.: O'zbekiston, 2016.

Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.

“2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi” to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida” va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida”gi qonunlari. //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.

Abdulaxatov N., Hoshimov B. Mo'yi Muborak. -F., 2000. 18-b.

Akramov V. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O'zbekistonda hunarmandchilik. “O'IF” j. -1973 yil, 1-soni, 58-b.

Boburnoma. -T., 1989. 94-b.

Вестник истории мировой культуры. -М., БСЕ, 1957.

Головин Э. Кустарные промысли Туркестана. -Т., 1909. -10-с.

10.Shomirzayev, M.Kh. (2020). “Technology” In Secondary Schools Organization of Science Classes. The American Journal of Social Science and Education Innovations, Impact Factor 5.525 (11). -P. 395-405. (www.usajournalshub.com/index.php/tajet).

11.Shomirzaev M.X. Maktab o'quvchilarida xalq hunarmandchiligi kasblariga qiziqishni fanlararo shakllantirish // “Mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani material-lari. –Buxoro, 2019.- B.28-30.

12.Shomirzaev M.X. O'zbek milliy hunarmandchiligining shakllanish genezisi va rivojlanish texnologiyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. –T.: Yangi nashr, 2016. -88 b.

13.Шомирзаев М.Х. Технология обучения народному-прикладному искусству, трудовое и эстетическое воспитание учащихся V-VII классов общеобразовательных школ. Монография. – Т.: Yangi nashr, 2019. – 144 с.

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA MADANIYATI
DARSLARINING MAZMUNI HAMDA KOMPETENTLIK DARAJASI**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.86.73.063>*Choriyev Bekzod Bahrom o'g'li**Termiz Davlat Universiteti, musiqa ta'limi kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarining mazmuni hamda kompetentlik darajasi" o'rganildi hamda yoritildi.

Kalit so'zlar: Ta'lim va tarbiya, musiqa madaniyati, san'at, pedagog, kompetentlik, integratsiya.

**СОДЕРЖАНИЕ И УРОВЕНЬ КОМПЕТЕНТНОСТИ УРОКОВ
МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ***Чориев Бекзод Бахром угли**Преподаватель кафедры музыкального образования Термезского
государственного университета*

Аннотация: В данной статье изучено и освещено "содержание и уровень компетентности уроков музыкальной культуры в общеобразовательных школах".

Ключевые слова: Образование и воспитание, музыкальная культура, искусство, педагог, компетентность, интеграция.

**CONTENT AND LEVEL OF COMPETENCE OF MUSIC CULTURE
LESSONS IN SECONDARY SCHOOLS***Choriyev Bekzod Bahrom O'g'li**Teacher of the Department of music education of Termez State University*

Abstract: This article examines and highlights «the content and level of competence of music culture lessons in secondary schools».

Keywords: Education and training, Music Culture, Art, pedagogy, competency, integration.

Har bir mamlakatning musiqa tarbiyasi g'oyaviy-siyosiy jihatdan xalqning sotsial tuzumiga xizmat qiladi. Har bir xalqning maorifida musiqa tarbiyasi metodikasi pedagogikaning didaktik qonuniyatlariga va shu xalqning milliy musiqa madaniyati, tili va madaniy an'analariga asoslanadi. Shu bilan birga musiqa tarbiyasining strukturasi, sistemasi (tizimi) va ilmiy-metodik yutuqlar boshqa millatning ma'rifiy madaniyatiga ham ijobiy ta'sir etadi.

Jamiyatimiz taraqqiyotida ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash bugungi kunda bizning eng ustuvor vazifalarimizdan biri sanaladi. Zeroki qator aytilgan bu fikrlar zamirida har doimgidek yoshlar turadi, sababi ularning bugungi kundagi olgan ta'lim-tarbiyasi nafaqat o'zlari uchun balki yurtimiz taraqqiyoti uchun eng muhim po'ydevordir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bejizga "Agar mendan sizni nima qiynaydi - deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman" - degan serma'no fikrlari yuqoridagi fikrimizning yaqqol dalilidir. Biz yashab turgan jamiyat taraqqiyotida musiqa va san'atning o'rni beqiyosdir.

(O'zbekiston Respublikasi prezidentining Namangan viloyatiga tashriflari yakunidagi majlisda madaniyat sohasiga e'tibor qaratish bo'yicha nutqlaridan. <https://t.me/madaniyatvazirligi>.)

Har bir millat va elatlarni birlashtirishda, an'analarimizni mustahkamlashda ham musiqa va san'atning o'rni beqiyosdir. Har qanday ko'ngilni o'ziga rom eta oladigan, insonlarni qalbiga ezgulik urug'ini ekib boshqa yomon illatlarga qarshi kurashadigan

ham musiqa desak mubolag'a bo'lmaydi. Musiqaning inson ruhiyatiga ta'sir qilish borasida keng imkoniyatlar qadimdanoq musiqashunoslar, mutafakkirlar va olimlar diqqatini o'ziga jalb qilgan.

Ular musiqa san'atining insonlarni shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir qiladigan xususiyatlarini aniqlashga urinishgan. Darhaqiqat jahon fani ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz komil insonni tarbiyalashda musiqaning o'rnini chuqur anglab, shaxs kamolotidagi ahamiyatini o'z asarlarida, pedagogik qarashlarida tadqiq qilib bizga beqiyos manbalar qoldirganlar. Buyuk mutafakkirlar Al Forobiy, Abu ali Ibn Sino, Abdulqodir Marog'iy, Sharafiddin ali Yazdiy, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Sadiy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Kavkabi, Darveshali Changiy, Komil Xorazmiy, Alisher Navoiy, Zahridin Muhammad Bobur kabi allomalarning qator asarlarida keltirilgan musiqaga oid ma'lumotlar bugungi kunda o'z ilmiy, nazariy hamda tarbiyaviy jihatdan yosh avlodni tarbiyalash jarayonida eng dolzarb va eng kerakli manba ekanligini ko'rishimiz mumkin. Maqolada musiqa madaniyati fani o'qitilishida bugungi kunda mavjud muammolar, kompetentli yondashuv asosida o'quvchilar kompetentligini oshirishning sinfdan hamda maktabdan tashqari musiqa madaniyati faoliyati, integrallashtirilgan ta'lim orqali, qiziqish uyg'otish maqsadida maktabdan tashqari faoliyatida ham integratsiyani boshqa ta'lim maskanlari bilan aloqadorlik o'rnatishning nazariy jihatdan yoritib o'tildi.

O'ylashimcha musiqa tarbiyasini avvalo oiladan boshlash eng maqul yo'l

Sanaladi [3]. Sababi shundaki musiqaga qiziqish oiladagi muhitga juda bog'liq. Agar oilada o'zaro san'atga bo'lgan munosabat yuqori ruhda, baland ishtiyoq hamda hurmatda bo'lsa bolada o'z-o'zidan qiziqish, ijtimoiy- psixologik muhit paydo bo'ladi.

Ma'lumki yaxshi oilaviy muhitda tarbiyalangan bolaning hayot haqidagi turli voqea-hodisalar, urf-odat, madaniyat va san'atga oid taassurotlari ko'pincha ijobiy kechadi. Oiladagi birlikda televizor ko'rish, konsert tomosha qilish, teatr tomosha qilish va o'z taassurotlarini o'rtoqlashish kabi muloqotlar bolalar dunyoqarashini o'stirib, hayotiy voqealarni aks ettiruvchi adabiyot, san'at musiqani mohiyatini tushunish va badiiy idrok etishga olib keladi. Asosan eng avvalo musiqaga oilaviy muhiti yiroq bo'lgan bolalarni qiziqtirish uchun ham va qiziqqan bolalarni yanada dunyoqarashini oshirish uchun ham o'rta ta'lim maktablarida, maktabgacha ta'lim muassalarida san'at ustalari bilan ijodiy uchrashuvlar ko'ngilochar tadbirlarni tashkillashtirish ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, o'quvchi yoshlarning qiziqishini o'stirib, bo'sh vaqtlarini behuda sarflamasliklarini oldini olishda qo'l keladi. Bejizga davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan: "Besh muhim tashabbus"ni joriy qilmaganlar. Aynan shu besh tashabbusimizning birinchi yo'nalishi musiqa va san'atga bag'ishlangan. Mana shundan ham ko'rinib turibdiki musiqaning yosh avlod tarbiyasida o'rni katta.

Biz insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, albatta bu maqsadga musiqa san'atisiz erishib bo'lmaydi.

- a) Musiqa - o'z tabiatiga ko'ra hissiy va ruhiy kechinmalar uyg'otuvchi,
- b) Musiqa - kishilarda nozik didni tarbiyalovchi,
- c) Musiqa - tinglovchini ham, ijrochini ham nafosatga, ma'naviy barkamolikka undovchi kuchli vosita.

Albatta musiqa shaxsni shakllantirish, uning ijobiy fazilatlarini o'z-o'zidan belgilab bermaydi. Biz aytmoqchi bo'lgan fikr shundayki musiqaning g'oyaviy mazmuni nafaqat yosh avlod balki butun insonyat tarbiyasi bilan bog'liqdir. Bolalar tomonidan musiqaning idrok etilishi avvalo milliy musiqamizni idrok etishdan boshlanishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, musiqa tarbiyasi shaxs sifatida shakllanayotgan bolalarning qalbida milliy ruhni kamol toptirish, ma'naviy va axloqiy madaniyatni musiqiy didni shakllantirish, musiqiy tasavvurlarini yanada boyitish hamda ularda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini, tashabbuskorlik qobiliyatlarini kamol toptirishdir.

Ushbu jarayonda ya'ni Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarining mazmuni hamda kompetentlik darajasini oshirishda bizda ko'plab muammolar mavjud;

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarini o'qitilishida videodarsliklarning yetishmasligi;

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarini o'qitilishida online darslar va masofaviy ta'limni rivojlantirish yo'lida boshqa yevropa davlatlari bilan hamkorliklar o'rnatish yo'lga qo'yilmaganligi zeroki musiqa san'ati til va millat tanlamaydi;

Shuningdek xalqaro yevropa davlatlari bilan bevosita masofaviy master-klas darslarini tashkillashtirish .

O'quvchilar olgan bilimlarini tezlik bilan amalda faol foydalanishni boshlashadi. Chunki bilimlari osonroq amaliyotga xos xususiyatlarni aniqlaydi, yangicha fikrlay boshlaydi, fanni tez o'zlashtiradi, uning boshqa fanlarga bo'lgan munosabatini ravshanlashtiradi». Maktabda mavjud hamma fanlar o'ziga xos integratsion imkonga ega.

Lekin ularning bir-biriga mos bo'lishi integrallashgan kurslarning samaradorligi sharoitlarga bog'liq. Shuning uchun yangi dastur yaratishdan oldin pedagoglar va uslubchilarga integratsiyaning imkoniyati va zaruriyati xulosa ishiga yordam beradigan vaziyatlarni hisobga olish kerak.

Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini oldin tahlil qilishi, ularning ma'naviy xususiyatlarini, o'rganishga qiziqishlarini o'rganadi. O'quv faoliyatida mavjud bo'lgan qiyinchiliklar integratsiya usulidan foydalanish sabablaridan biri bo'lishi mumkin [5]. Ba'zi o'quvchilarning bir fandagi muvaffaqiyati ikkinchi fandan olgan bilim va ko'nikmalariga bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan: o'quvchi savodli va tez matn ko'chirishga tez va to'g'ri o'qishi bog'liq. Lekin agar aniq bunday hamkorlik ko'rsatilmasa ham yoki umumiylik bo'lmasa bir fan rejasidagi mazmunga to'g'ri baho bersa o'qituvchi alohida dars berishini yetarli emasligini ko'rish mumkin. Biz bilamizki, dunyo bir, u sanoqsiz ichki aloqalar bilan bog'langan, shuning uchun bitta muhim masalani, boshqa ko'pgina masalalarga tegmasdan yechish qiyin. Shunga o'xshash solishtirishlar integratsiyaga asos bo'la oladi. Bir qator fanlarning dasturlarida "chorrahalar" bor, ya'ni umumiy muomala va masalalar bilan bir bo'lgan, tez-tez bir hodisa, ya'ni boshqa-boshqa nuqtalardan bir ob'ektni o'rganiladi. Bularning barchasi integratsiyaga talabnoma. Lekin birlashtirish asosi juda chuqur. Agar o'qituvchi o'zi dars berayotgan fandan shunday o'zaro muloqotga oid joylarini aniqlasa ular o'z navbatida o'qitish samaradorligini oshirishga yordam berish mumkinligini aniqlasa qo'yilgan maqsadga erishish uchun uning texnologiyasini ishlab chiqish kerak. O'qituvchi va o'quvchi faoliyatini hisobga olsak integrallashgan dars sharoitida u tez-tez bahs va kelishmovchilikka sabab bo'ladi. Tabiiyki, har bir sinfda o'quvchilar guruhlari bor. Ular bir -birlaridan xotira turlariga ko'ra farq qilishadi, qabul qilish va diqqat jihatidan farqlanadi.

Ularning ba'zilarini o'qituvchi olib borgan dars tezligi qoniqtiradi, kimgadir tezlik qiladi. Kimgadir darsda ishlatilgan jadval tushunarli, boshqalari qayta-qayta izohlagandan keyin tushunadi. Mustaqil tashkiliy ish o'quvchilarning imkonlarini bir oz tenglashtiradi, chunki har biri o'ziga xos qarorni tanlashga yo'l izlaydi, lekin albatta bir muammo qoladi - o'quvchiga qo'yilgan maqsadni topishga qanaqa usul, vosita bilan qurollantirish kerak. Darsning cheklangan vaqti ham, har bir o'quvchining topshiriqni bajarish vaqti ham mos emas, lekin ularning faoliyatini ta'minlovchi yagona shaxs o'qituvchidir.

Integrallashgan darsning xususiyati bu jarayonda 2 yoki 3 ba'zida undan ham ko'p pedagoglar qatnashishi mumkinligi. Bunday integrallashgan darsni o'tish osonmi, murakkabmi? Ko'pincha bu o'qituvchilarga bog'liq. Lekin, dars bu ishning muhim qismi ekanligini unutmaslik kerak. Aynan dars orqali asosiy masalalar integrallashgan kursda

amalgam oshiriladi va natija omadli yoki omadsiz bo'lishi mumkin. Lekin integrallashgan dars tushunchasi hamon bahsli bo'lib qolmoqda. Integratsiyalangan darsning belgi-alomatlari qanday?

1) Integrallashgan kursning o'zi yangi murakkab birlik bo'lib, umuman boshqacha shaklda bo'ladi hamda masalalarni aniq va samarali echishga qaratiladi.

2) Ular 2 yoki 3 ta fan asosida rejalashtiriladi. Shuning uchun bir nechta o'qituvchi yoki bir nechta o'quv fanlari materiallari mexanik usulda birlashtiriladi.

3) O'rganishga qiziqish jarayonini faollashtirishning usullari, malaka va ko'nikmalari ishlab chiqiladi.

O'qituvchilar darsni birga yoki alohida o'tkazishlari mumkin, lekin natijalar umumiy harakatlar orqali yechiladi [2]. Ko'pincha 5-sinfda yangi o'qituvchilar kirishadi va o'quvchilarga turlicha talablar qo'yishadi, ancha vaqt qiynalishadi. Bundan ko'rinadiki, maktablarimizda pedagoglarimiz umumiy ta'lim siyosatiga ega emaslar, bir jamoa bo'lib harakat qilishmaydi. Integrallashgan darsning chegarasida o'qituvchilar oldindan nima muhim, nima ikkinchi darajali ekanini aniqlashlari lozim. O'quvchilar bu darsda o'z ishlarini lo'nda va aniq ifoda etishni, og'zaki savollarni to'g'ri tuzishni, o'z-o'zini nazorat qilishni, o'ziga baho qo'yishni o'rganishi kerak. O'qituvchilar ana shunday hamkorlik asosida tuzilgan darslar integrallashgan bo'ladi, lekin ular asosida o'rganilgan material bir-biri bilan hamohang bo'lmaydi. Bunday darslarni integratsiyaning 1-darajasiga kiritish mumkin. 2-va 3-darajali integratsiyali darslar eng keng tarqalgan darslardir. 2-daraja deb tushuncha ma'lumotli o'quv fani masalan: Takrorlash darslariga qo'shimcha kiritish, mavzuga qo'shimcha material tanlash. 3-darajada solishtirish umumlashirishda gap materialni o'rganish masalalari bilan bog'liq. O'quvchilar hodisa va ob'ektlarni solishtirish va taqqoslash bilan bog'laydilar. Bunday darsda

2 ta o'qituvchi ishtirok etishi mumkin. Eng chuqur deb integratsiyaning 4-darajasi olinadi. O'quvchilar faktlarni solishtira boshlashdi, bitta hodisani, voqeani muhokama qilishadi, ular orasidagi aloqalarni aniqlashadi, hamkorlikda o'quv ko'nikmasini birgalikda ishlab chiqishadi. Integratsiyalangan dars maqsadi yuqoridagilarda qamrab olingan jarayon nazorat qilinadi. Qo'yilgan fikrlarni shakllantirish o'quvchining talabiga, qiziqishi, intilishiga ko'ra rivojlantiriladi. O'qituvchilar va o'quvchilar orasida taqsimlangan vazifalarni hisobga olinganda integrallashgan darslar har xil shaklga ega, Masalan: 1) Bilim almashish darsi: O'quvchilar guruhlariga bo'linadi. Har xil mavzularda topshiriq berilib, bir-birlariga xabar beradilar. Bunday shakl o'quv fanlar bir-biriga o'xshash bo'lganda eng samaralidir.

2) O'zaro tekshirish darslari: Guruh va juftliklarda ish olib boriladi. Bu o'quvchilardan yaxshi tayyorgarlik talab qiladi. Faoliyatning hamma turlarida ob'ektiv va aniq baholash talab etiladi. Sinfdoshlarining bilimlarini tekshirganda har bir o'quvchi ko'rsatkichlari jadvali bo'lishi shart.

3) Ijodiy izlanish darsi: O'quvchilar o'zlari mustaqil tarzda muammoning yechimini izlashadi. Lekin izlanish uslublari o'qituvchi tomonidan ilgari o'tilgan darslarda ko'rib chiqilgan bo'ladi. Bunday dars samarasi yuqori bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Апраксина Р.А. Методики музыкального воспитания в школе. – Москва: Просвещение, 1983. – 294 с.

Хо'jayeva М. Musiqa idroki va uni rivojlantirish // Xalq ta'limi – Toshkent, 2005. – №1. – B.122

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini usta hofizlar an'anasi misolida tarbiyalash. (To'plam. Musiqada ta'lim va tarbiya birligi). – Toshkent: TDPU, 1996. – B. 55.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va uzluksiz ta'lim tizimiga tadbiiq etish to'g'risida"gi qarori//Xalq so'zi. – Toshkent, 1998. – 5-may.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori//Ta'lim taraqqiyoti. – T.:1999.

**TEKNOLOGIYA TA'LIMI O'QITUVCHISINING TEKNOLOGIK
MADANIYATI**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.96.18.062>*Haydarov Ramazon Mamayusupovich**Termiz davlat universiteti Texnologik ta'lim kafedrasida o'qituvchisi*

Annotasiya: Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish, kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy pedagogik texnologiyalar, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, texnologik madaniyat,

**ПРЕПОДАВАТЕЛЬ ТЕХНОЛОГИИ ОБРАЗОВАНИЯ
ТЕХНОЛОГИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА***Хайдаров Рамазон Мамаюсупович**Преподаватель кафедры технологического образования Термезского государственного университета.*

Annotasiya: Данная статья посвящена формированию и развитию профессиональных компетенций при подготовке учителей современного педагогического образования, разработке профессионально ориентированных технологий обучения.

Ключевые слова: современные педагогические технологии, личностный подход, технологическая культура,

**EDUCATIONAL TECHNOLOGY TEACHER TECHNOLOGICAL
CULTURE***Khaidarov Ramazon Mamayusupovich**Lecturer at the Department of Technological Education, Termez State University.*

Abstract: This article is devoted to the formation and development of professional competencies in the preparation of teachers of modern pedagogical education, the development of professionally oriented teaching technologies.

Keywords: modern pedagogical technologies, personal approach, technological culture,

Pedagogika Oliy ta'lim muassasalarida (POTM) bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishda kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarni ishlab chiqish, amalda qullashga katta e'tibor berilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilar tarkibi tomonidan ishlab chiqilayotgan va foydalanilayotgan o'qitish texnologiyalari bo'lajak mutaxassis kasbiy kompetentligining qaror topishi va tarbiyalash ta'lim tizimining tarkibiy qismi bulib, kasbni egallashning kasbiy-ahamiyatli bazasini dastlabki yaratishga, kasbiy faoliyatni yuqori darajada amalga oshirish uchun nazariy, amaliy va motivatsiyali tayyorgarlik, kasbiy kompetentlik shakllanishiga yordam beradi.

Hozirgi davr talabi zamonaviy o'qituvchilarni tayyorlashning yuqori sifatiga qaratilgan.

Pedagogika Oliy ta'lim muassasalarida quyidagi muammolar mavjudligi tadqiqotimiz davonida aniqlandi. Ular quyidagilar; [2]

o'qituvchilar tomonidan hal etilayotgan nazariy va amaliy muammolar, ta'limni yangilash va o'qituvchilarning mavjud tayyorgarligiga qo'yiladigan yangi talablar etarli darajada emasligi;

-kasbiy pedagogik ta'lim tizimidagi yondashuvlarning, xususan, texnologik

madaniyatning etarli darajada uslubiy ishlab chiqilmaganligi;

o'quv jarayonida mustaqil ishlar ulushining ortishi va bilim, ko'nikma va mahorat, mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etishga psixologik tayyorgarlik darajasining etarli emasligi;

-o'qituvchiga qo'yilayotgan hayotning zamonaviy talablari, xususan, uning texnologik madaniyatni egallashi va fan o'qituvchilarini tayyorlashning amaldagi tizimi, asosan, muayyan fanni o'qitish funksiyasini amalga oshirishga qaratilganligi;

-mashg'ulotlarda subekt-obe'kt munosabatlaridan obe'kt-obe'kt munosabatlariga o'tishdagi muammolarning mavjudligi;

-Oliy ta'lim muassasalarining texnologik madaniyatga ega yuqori malakali o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyoji;

yangi o'quv, shu jumladan axborot kommunikatsion texnologiyalarini o'quv amaliyotiga nisbatan muvaffaqiyatli joriy etish va texnologik madaniyatni shakllantirishning etarli darajada emasligi;

zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularni qo'llashning noan'anaviy usullari sifatiga doimiy ravishda ortib borayotgan talablar;

texnologik madaniyatni shakllantirish zarurati va ushbu muammoni hal qilish uchun zarur o'quv-uslubiy jihozlarning etishmasligi;

eng yaxshi o'qituvchilarning kasbiy faoliyati natijasida paydo bo'lgan texnologik madaniyatni o'zlashtirish mezonlari va oldingi baholash usullari.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun maqsadlar, mazmun, shartlar, vositalar va natijalar o'rtasidagi barqaror aloqalarni ta'minlaydigan turli ta'lim darajalarida o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligining zamonaviy modelini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish kerak. U o'qituvchining texnologik madaniyatini shakllantirish g'oyasiga asoslanishi kerak.

Bo'lajak o'qituvchilar tadqiqot yo'nalishi sifatida o'qituvchilarning texnologik madaniyatini shakllantirish zarurati madaniy bilimlarni kasbiy pedagogik madaniyat va pedagogik texnologiyaga joriy etishning dolzarbligini tushunishga asoslanadi. Texnologik-madaniy yondashuv faqat tarixning nazariy siklini o'z ichiga olgan madaniyatshunoslik va jahon san'at madaniyatining predmetli fanlaridan kengroqdir. Uning kengayishi umumiy kasbiy tayyorgarlik, ilmiy-tadqiqot va tarbiyaviy faoliyat orqali bilimlarni, dunyoqarashni va texnologik madaniyatni shakllantirishning amaliy faoliyati bilan bog'liq.[1]

Madaniyatning xususiyatlari haqidagi zamonaviy g'oyalar «o'qituvchining texnologik madaniyati» tushunchasini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi, uning funktsional bloklariga kiritilgan tegishli tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatdi. Texnologik madaniyat tarkibining murakkabligi aniq, chunki bu tarkib umuman olganda o'qituvchining kasbiy faoliyati doirasida etarlicha o'rganilmagan. Texnologik madaniyatning yangi kontseptsiyasini, uni kasbiy madaniyatning an'anaviy doirasidan tashqariga olib chiqishni asoslash uchun tadqiqotning asosini tashkil etuvchi va uning boshlang'ich nuqtalarini aniqlaydigan nazariy g'oyalarni tanlash kerak edi.

Bizning tadqiqotimizda asosiy, tizimni tashkil etuvchi tushuncha "texnologik madaniyat"dir. Ushbu hodisaning mohiyatini ochishga yordam beradigan asosiy tushunchalar doirasi jahon umumiy va pedagogik madaniyati tajribasini tahlil qilish orqali aniqlanadi. Biz jahon madaniyati kontseptsiyasiga uning umumiy ekanligi va shuning uchun ham pedagogik, ham texnologik madaniyat jahon madaniyatiga xos bo'lgan ma'lum maqsad va funksiyalarni amalga oshirishidan kelib chiqqan holda murojaat qildik. O'qituvchilik kasbining ijodiy xususiyatini hisobga olgan holda, Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida biz har bir talaba, magistr, o'qituvchi shaxsini ijodiy o'zini-o'zi anglash, uning ijodiy individualligini aniqlash va shakllantirish uchun shart-sharoitlarni ishlab chiqilishi lozim deb hisoblaymiz. Texnologik madaniyatni shakllantirish uchun pedagogik ta'limda nafaqat ommaviy reproduktiv, balki individual ijodiy yondashuv ham muhim.[3]


Bo'lajak o'qituvchining texnologik madaniyatni o'zlashtirish jarayoni ijodiy

muammolarni, innovatsion faoliyatni, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda - bo'lajak o'qituvchining, ayniqsa, gumanitar fanlarning, dunyo qadriyatlarini o'zlashtirishi fonida rivojlanishi kerak.

Bizning fikrimizcha, texnologik madaniyat o'qituvchi shaxsining o'ziga xos kasbiy faoliyati orqali amalga oshiriladigan murakkab uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangan ta'limdir. Madaniyatning faoliyat kontseptsiyasi uni inson faoliyatining o'ziga xos usuli sifatida o'rganishni nazarda tutadi va inson, uning faoliyati va madaniyatining uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi.

Demak, inson faoliyatining o'ziga xos turlari qancha bo'lsa, madaniyatning ham ko'p turlari mavjud. Shu asosda, o'tkazilgan tahlilga muvofiq, pedagogik madaniyat kasbiy madaniyatning bir turi - jamiyatning kasbiy faoliyat bilan shug'ullanadigan odamlarning madaniy darajasiga qo'yadigan talablarini aks ettiruvchi sifatida ajralib turadi; texnologik madaniyat kasbiy pedagogik tayyorgarlikning qadriyat asosi hisoblanadi.[5]

O'qituvchining texnologik madaniyati umuminsoniy tip sifatida madaniyatning umumiy yaxlit tizimida mavjud (1-rasm). O'qituvchining texnologik madaniyat sifatleri zanjiri.



Bu tushunchani zanjirda tahlil qilamiz: texnologiya – pedagogik texnologiya – texnologik madaniyat. Texnologiya - bu, birinchi navbatda, ularning yashash muhitining moddiy muhitini tushunishni yaxshilash, ushbu muhit ustidan nazoratni yaxshilash va uni yanada oqilona boshqarish uchun vositalarni yaratish jarayonlari uchun umumiy atama.

Pedagogik texnologiya-o'qitishda shaxsning “ruxsat beruvchi imkoniyatlari”ni ro'yobga chiqarishga qaratilgan bo'lsa, loyihalash ana shu “ruxsat beruvchi imkoniyatlar”ni izlashga qisqartiriladi; agar texnologiya maqsadlar va ta'lim vositalarining birligini qayta birlashtirishga intilsa, u holda maqsadlarni tanlash va shakllantirish jarayoni dizayn vazifasi hisoblanadi.

Texnologiya o'quv maqsadlariga erishish yo'llari va vositalari to'g'risidagi bilimlar tizimi sifatida, o'quv jarayonida qo'llaniladigan tartib-qoidalar majmuasi, ketma-ketligi sifatida ushbu bilimlarni tizimlashtirishni, talab qilinadigan jarayonlarni izlashni, ya'ni loyihalashtirishni talab qiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarda komponentlar ajralib turadi: mazmun va protsessual. Shuning uchun loyihalashda o'quv topshiriqlarining mazmunini tanlashga, faoliyatning protsessual masalalariga, shu jumladan maqsadlarga erishish natijasida ushbu faoliyatni baholashga murojaat qilish kerak. Pedagogik texnologiyalar pedagogik voqelikka qarashni amalga oshirishni kutayotgan rivojlanish potentsiallari majmui sifatida belgilaydi. Bo'lajak pedagogik faoliyatni o'ylash, rejalashtirish bosqichida pedagogik texnologiyalarni loyihalash haqida gapirish mumkin. O'qituvchilarning texnologik madaniyatini shakllantirish darajasi bevosita bo'lajak o'qituvchi shaxsining rivojlanish darajasiga bog'liq deb hisoblaymiz. Bo'lajak o'qituvchi shaxsining rivojlanish darajasi ushbu shaxs rivojlangan kontekstda ushbu universal madaniyat

turing qadriyat tuyg'usini o'zlashtirish darajasiga bog'liq.

Texnologik madaniyatning zamonaviy ustuvor universal turi - texnologik mazmunini o'zlashtirgan holda, bo'lajak o'qituvchi bir vaqtning o'zida ushbu zamonaviydan oldingi universal madaniyat turlarining mazmunini o'zlashtiradi; bo'lajak o'qituvchi shaxsining o'zi juda murakkab tizim bo'lib, madaniyatning universal turi - texnologik kontekstda pedagogik qiymat ma'nolarini yaratishga qodir va kasbiy pedagogik ta'lim darajasi pirovard natijada unga bog'liqdir.

Shu bilan birga, texnologik madaniyat - bu shaxsiy ta'lim bo'lib, hayotning qadriyatlari va mazmunini tushunish va qayta ko'rib chiqish orqali texnologik madaniyat tashuvchisi shaxsiy madaniyatning barcha boshqa turlarini o'z vaqtida moslashtirish va adekvat rivojlanishini ta'minlaydi. Texnologik madaniyat tabiatan ma'naviy tarbiyadir. Ma'naviyat insonning o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojining paydo bo'lishiga asos bo'lib, so'ngra texnologik madaniyatning rivojlanishida ana shu o'z-o'zini rivojlantirishni ta'minlovchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. O'z vazifalarini amalga oshirish usuliga ko'ra, texnologik madaniyat psixologik shakllanish - inson ongining ma'lum bir rivojlanish darajasidir. U insonning shaxsiy xususiyatlarini birlashtiradi. Bundan tashqari, texnologik madaniyat axloqiy tarbiya bo'lib, u haqida axloqiy madaniyatning bir turi sifatida gapirish mumkin.

Bizning fikrimizcha texnologik madaniyat, zamonaviy o'qituvchining kompetensiya modelining ajralmas qismidir. Shu sababli, ko'p bosqichli ta'lim sharoitida har xil turdagi, ayniqsa umumiy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga e'tibor qaratish juda zarur.

Texnologik madaniyatni shakllantirish modelining asosi o'zaro bog'liq bo'lgan tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: maqsad, vazifalar, tamoyillar, mazmun, tashkiliy shakllar, usullar, vositalar.

Texnologik madaniyatni shakllantirishning maqsadi: zamonaviy sharoitda bo'lajak o'qituvchining texnologik madaniyatini shakllantirish jarayonini modernizatsiya qilish.

Vazifalar: talabalar tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan texnologik bilimlarni, qobiliyatlarni, ko'nikmalarni o'zlashtirish; gumanistik pedagogika talablarini hisobga olgan holda ularning texnologik dunyoqarashi va tafakkurini shakllantirish; kasbiy pedagogik faoliyat normalari, tamoyillarini o'zlashtirish, o'quv va mehnat faoliyatini birlashtirish, bo'lajak o'qituvchilarni ushbu faoliyat turlariga kiritish; ularning faol professional pozitsiyasini shakllantirishdan iboratdir. Natija mustaqil pedagogik faoliyat uchun zarur bo'lgan texnologik madaniyatga ega bo'lgan professional malakali o'qituvchini tayyorlashdir.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати

1. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш. Монография. – Тошкент: Фан, 2004. – 128 б.

2. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари. Пед. фан. докт. Дисс – Тошкент, 2007. – 45 б.

3. Муслимов Н.А., Қўйсинов О.А. Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашда мустақил таълимни ташкил этиш. Методик қўлланма. – Тошкент: ТДПУ, 2006. – 46 б.

4. Қўйсинов О.А. Компетентли ёндашув асосида бўлажак ўқитувчи-ларнинг касбий-педагогик ижодкорлигини ривожлантириш технологияси. Пед. фан. докт. дисс. – Т., 2019. – 218 б.

5. Шомирзаев М.Х. Мактаб технология таълимида миллий хунармандчиликнинг спектрал-вариатив компонентларини фанлараро такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича докторлик (ДSc) дисс. - Тошкент, 2021. – 219 б.

6. Шомирзаев М.Х. Мактаб технология таълимида миллий хунармандчиликнинг спектрал - вариатив компонентларини фанлараро такомиллаштириш. Монография. -Т.: Tafakkur, 2020. - 330 б.

7. Shomirzayev, M.Kh. (July, 2020). Technology of Educational Process in School Technology Education. The American Journal of Social Science And Education Innovations. Impact Factor 5.366 № 02. P. 212-223. (www.usajournalshub.com/index.php/tajsssel).

**AXBOROT-TA'LIM MUHITIDA KASBIY O'QITUVCHILARNI
PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.86.21.061>

Kucharov Sardorbek Akmalovich

Termiz davlat universiteti, «Texnologik ta'lim» kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya: Axborot muhitida texnologiya ta'lim o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlashga alohida e'tibor qaratilgan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Texnologik ta'lim, axborot ta'lim muhiti, kasbiy faoliyat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), kompyuter.

**ПОДГОТОВКА ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ПЕДАГОГОВ К
ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ИНФОРМАЦИОННО-
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ**

Kucharov Sardorbek Akmalovich

*Термезский государственный университет, преподаватель кафедры
«Технологическое образование»*

Аннотация: В среде электронного обучения особое внимание уделяется подготовке учителя технологии для профессиональной работы. Обсуждается важность использования информационных и коммуникационных технологий.

Ключевые слова: электронное обучение, среда электронного обучения, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ) для профессиональной деятельности, компьютер, технология.

**PREPARATION OF PROFESSIONAL TEACHERS FOR PEDAGOGICAL
ACTIVITY IN THE INFORMATION-EDUCATIONAL ENVIRONMENT**

Kucharov Sardorbek Akmalovich

Termez State University, «Technological education» teacher of the department

Abstract: In the e-learning environment, special attention is paid to preparing a technology teacher for professional work. The importance of using information and communication technologies is discussed.

Keywords: e-learning, e-learning environment, information and communication technologies (ICT) for professional activities, computer, technology.

The comprehensive reforms being carried out in the education system of the country are aimed at ensuring a high level of quality of education. acquisition of skills and abilities, as well as scientific research of innovative information-didactic forms of education. This, in turn, requires a radical reform of the education system, as a perfect education system plays a crucial role in educating young people to be creative, independent in all respects, which will determine the future intellectual potential and development of the republic. Today, research is being conducted in the education system of the country to improve the education system based on innovative technologies, strengthen its national base, bring the training of socially active and qualified competitive personnel to world standards. Quality changes and high efficiency in education depend on their compatibility with global educational requirements and the extent to which the competencies that educators acquire in their future careers are put into practice. As a result of qualitative changes in education and high efficiency, the introduction of positive innovations in this area will ensure the quality and effectiveness of education and create a process of pedagogical innovation. Pedagogical innovation is a process that prepares future professionals to work in a new environment, which is based on previous knowledge, a qualitative change in education and a new approach to achieving high

efficiency.

The rapid penetration and improvement of information and communication technologies in the education system necessitates the creation and implementation of electronic didactic tools in the educational process. That is why information and communication technologies, as one of the advanced trends in scientific and technological development, cover many aspects of modern society.

Information is an important tool for the development of professional activity and the basis for its development. Providing professional information with new information technologies plays an important role in meeting people's need for a variety of information.

Because of information, theory combines with practice. Practice does not exist without theory, and theory does not exist or develop without practice. Today, the complex of information in various forms of society is wide and developed, and its role in professional activities is innumerable. It has several interpretations. Information is a necessary tool for development. Information is a set of scientific and technical data, knowledge about the results of the development of science and technology. In other words, information, according to this interpretation, scientific and technical activity is a product and «raw material» of the information service system.

Information is a set of products that form the basis of scientific and technical activities and training in various fields in information service systems.

Today, the e-learning environment in the teaching of technology in any educational process includes:

- a telecommunications software environment that provides the educational process, its information and documents on the Internet to any educational institution, regardless of their professional skills and level of education.

- understands the interactions used to acquire knowledge in a digital system through an online computer.

- a telecommunications software environment that provides the educational process, its information and documents on the Internet to any educational institution, regardless of their professional skills and level of education.

- Independent work with electronic materials using a personal computer, PDA, mobile phone, DVD player, television and other electronic materials;

- Opportunity to consult, evaluate, work remotely from a remote (regional) expert (teacher);

Creating a distributed community of users (social networks) to lead shared virtual learning activities;

The education system, despite being the most conservative system, has its own characteristics in the process of transition to an informed society:

- Individualization of the educational process with the help of information technology;

- Diversification of the standard learning process;

- Development of a system of flexible individual training programs;

- Decentralization of educational institutions: home schooling, organization of various study groups;

- Informatization of educational institution management: provision of educational institutions with information systems, automation of management activities, creation and use of databases on various subject areas.

The qualitative and quantitative level of the education system allows us to think about the level of information in the country. One of the most pressing issues facing the modern education system is the involvement of everyone in it. This problem has economic, social and technological aspects. One of the challenges facing the modern information society is to involve all members of society in the system of continuing education. Due to the ever-changing nature of society, everyone is required to receive continuous education, not to lag behind the times, to change professions, to take their place

in the social system. New methods of teaching, especially distance and multimedia, are becoming increasingly important. Information technology allows people living in remote areas of the country to access specialized educational resources that are not available in their communities. In a developed information society, information superhighways technically realize this potential. Experience has shown that the use of multimedia in the education system has significantly increased the effectiveness of education. Along with the hypertext structure of the educational material, multimedia technologies allow to create highly effective teaching aids. These are e-books, multimedia encyclopedias, computer movies, databases. In an informed society, the school may be partially or completely detached from the traditional classroom system. This will create all the conditions for the organization of a full education system for the disabled. However, the Director-General of UNESCO, F. Mayor, stated: «Technology is evolving faster than it can be used in education.» the relevance of the idea remains to this day. We can take some of the events mentioned above as trends in the developed information society.

List of used literature:

1. Inoyatov U.I. International Scientific-Practical Conference “Modern Problems of Continuing Education: Innovation and Prospects” 2018-P.3.
2. Simonovich S. and dr. Special informatics. Uchebnoe posobie. M. AST-PRESS, 1998
3. Sennov A. Access 2003. Prakticheskaya razrabotka baz dannyx. Uchebnqy course. M. PITER, 2005
4. Ivanov O. A. Ispolzovanie IKT na urokax tekhnologii kak innovatsionnyy metod obucheniya // Pedagogika: traditsii i innovatsii: materialy IX Mejdunar. nauch. konf. (Kazan, January 2018). - Kazan: Buk, 2018. - p. 103-105.
5. Kataeva.S Tomsk gosudarstvennyy pedagogicheskiy universitet Metody v sistemax elektronnoy obucheniya. Russia December 2015 P-96-110. \
6. Dushaboyev X.A. - «Theoretical bases of preparation of future teachers of technological education for professional activity in the information environment» - Science and Education Scientific journal - 666-669.



**ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА АХБОРОТ ВА ПЕДАГОГИК
ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ**

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.55.13.060>

*Кучаров Сардорбек Акмалович
Термиз давлат университети ўқитувчиси*

*Шагдаров Наврўз
Термиз давлат университети 2-босқич талабаси*

*Аннотация: Ахборот муҳитида технология таълим ўқитувчиси ахборот
ВА педагогик технологиялардан фойдаланишига эътибор қаратилган. Ахборот-
коммуникация технологияларидан фойдаланишнинг аҳамияти муҳокама
қилинади.*

*Калит сўзлар: Технологик таълим, ахборот таълим муҳити, ахборот-
коммуникация технологиялари (АКТ), компьютер, масофавий таълим.*

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧАЮЩИХ ТЕХНОЛОГИЯХ**

*Кучаров Сардорбек Акмалович
Преподаватель Термезского государственного университета.*

*Шагдаров Наврўз
Термезский государственный университет, студент 2 курса*

*Аннотация: В информационной среде основное внимание уделяется
использованию информационных И педагогических технологий учителем
технологического образования. Будет обсуждена важность использования
информационных и коммуникационных технологий.*

*Ключевые слова: Технологическое образование, информационная среда
обучения, информационные и коммуникационные технологии (ИКТ), компьютер,
дистанционное обучение.*

**USE OF INFORMATION AND PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN
TEACHING TECHNOLOGY**

*Kucharov Sardorbek Akmalovich
Lecturer at Termez State University*

*Shagdarov Navruz
Termez State University, 2nd year student*

*Abstract: In an information environment, the focus is on the use of information
AND pedagogical technologies by the technology education teacher. The importance
of using information and communication technologies will be discussed.*

*Keywords: Technological education, information learning environment,
information and communication technologies (ICT), computer, distance learning.*

*Бугунги кунда ўқувчи ёшларга таълим–тарбия бериш, яъни уларни ҳар
томонлама давлат таълим стандартлари талабларига жавоб берадиган етуқ
малакали мутахассис даражасида тайёрлаш мамлакатимизнинг долзарб
вазифаларидан биридир.*

*Технология фанини ўқитиш жараёнида таълимнинг замонавий методлари,
педагогик ва ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланишнинг ўзига
хос жиҳатлари бор. Ўқувчиларни технология фанини тўлиқ ўзлаштиришлари учун*

Ўқитишнинг илғор ва замонавий усулларидан фойдаланиш, янги информацион-педагогик технологияларни тадбиқ қилиш муҳим аҳамиятга эгадир. Фанни ўзлаштиришда дарслик, ўқув ва услубий қўлланмалар, тарқатма материаллар, электрон материаллар, виртуал стендлар ҳамда ишчи ҳолатдаги машиналарнинг ишлаб чиқаришдаги намуналари ва макетларидан фойдаланилиши, технология фанига оид телевизор, радиода берилган эшитиришларни кўриш, ўрганилган иш усулларини бажариш, журнал ва газеталарда берилган маълумотларни ўрганиб бориш, технология фанига оид атамаларни топишда медиа воситалардан фойдаланиб, дидактик топшириқларни бажариш ахборот манбаларидан (телевизор, радио, аудио-видео ёзув, телефон) фойдалана олиш; файлларни очишда медиа-маданиятга ривож қилиш муҳим аҳамият касб этади. Мазкур фанни онлайн ўқитиш жараёнида таълимнинг замонавий ахборот коммуникацион технологияларидан фойдаланишимизда фан бўйича ўтказиладиган амалий машғулотларда замонавий компютер технологиялари ёрдамида тақдиротларнамоиш қилганимизда ўқувчилар кўриш орқали чуқурроқ тасаввур ва билимга эга бўладилар. Бизнингча технология дарсларида ахборот коммуникацион технологияларидан фойдаланиш катта ижобий натижа беради. Ахборот коммуникацион технологияларидан фойдаланиб тасвирга олинган меҳнат операцияларининг видеодарсларини ўқувчиларга ҳавола этиб, ўқувчилар ишини ўқитувчи томонидан бемалол назорат қилиш имконини беради, ўқувчиларнинг билим даражаларини сезиларли даражада оширишга имкон беради. Ахборот коммуникацион технологияларидан фойдаланишнинг яна бир аҳамиятли томони шундаки, ўқувчиларга малакали дурадгорлар, чилангарлар, ошпазлар, тикувчилар ва турли соҳадаги ҳунармандларимиз томонидан бажарилган ўқув машғулотлари “Мастер класс” ларни намойиш этиш орқали уларда турли хил меҳнат кўникмаларини шакллантириш, касб-ҳунарга йўналтириш ишларини ҳам яхши йўлга қўйиш имкониятини беради. Бунинг учун технология фани ўқитувчиларимиз ахборот технологиялари соҳасида билим, кўникма, малакага эга бўлишлари керак бўлади. Бу эса ахборот ва коммуникацион компетенция (ахборот коммуникацион технологиялар компетенцияси) технология таълими ўқитувчисининг касбий компетенциясининг муҳим таркибий қисмидир. ахборот коммуникацион технологиялар соҳасидаги бўлажак ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини ахборотлаштириш шароитида таълим натижалари сифатини таъминлаш учун зарур шарт сифатида кўриб чиқамиз. М.П. Лапчик томонидан бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг ахборот коммуникацион технологиялар қобилиятининг таърифига амал қиламиз: «Бўлажак касб таълими ўқитувчисининг ахборот коммуникацион технологиялар қобилияти касбий фаолиятида ахборот-коммуникация технологияларидан амалий фойдаланишга қаратилган ва компютер саводхонлиги таркибий қисмларини ўзлаштириш билан чекланмаган. ахборот коммуникацион технологиялар компетенцияси кўп жиҳатдан нафақат билим, балки таълим соҳасидаги мутахассиснинг шахсий ва касбий фаолиятига хос бўлиб, ўз касбий фаолиятида барча тўплам ва турли хил компютер воситалари ва технологияларидан мақсадли ва одатий фойдаланишга юқори даражада тайёрланади: ўқитувчи, коллеж психологи, ишлаб чиқариш устаси, таълим муассасаси менежери ёки раҳбари [1].

Ўқитувчининг касбий компетентлигини фаолиятнинг энг муҳим икки йўналиши: фан ўқитувчиси ва ўқитувчи нуқтаи назаридан кўриб чиққан М.П.

Лапчик ахборот коммуникацион технологиялар компетенциясини билим соҳасидаги илмий-тадқиқот ишларида ва таълимни самарали амалга ошириш учун ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш қобилияти сифатида белгилайди. [2].

Бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг ахборот коммуникацион технологиялар компетенциясини шакллантириш ва ривожлантириш ахборотни қайта ишлаш учун компютер технологияларини назарий ва амалий ўрганиш

орқали амалга оширилади;

- турли мақсадлардаги (умумий, махсус, ўқув) дастурий таъминотни ўрганиш ва уни касбий фаолиятда қўллаш имкониятларини таҳлил қилиш; ахборот коммуникацион технологиялардан фойдаланиш имкониятини ҳисобга олган ҳолда фанни ўқитишнинг услубий тизимини ўзгартириш ва телекоммуникация технологиялари орқали педагогик тажриба алмашиш маданиятини сингдириш ва ҳоказо. Шундай қилиб, бўлажак касб таълими ўқитувчисининг ахборот-коммуникацион қобилияти ҳозирги кунда бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий ривожлантиришнинг муҳим хусусияти ҳисобланади [3].

Электрон ўқитиш бўйича бўлажак касб таълими ўқитувчисининг касбий фаолияти қуйидагиларни ўз ичига олади:

-ўқитилаётган фаннинг электрон ўқув-услубий мажмуасини ишлаб чиқиш қобилияти;

-интерфаол, мультимедиа электрон таълим ресурсларини яратиш ва тайёрларидан фойдаланиш учун дастурий воситалардан фойдалана олиш қобилияти;

- ўқувчилари учун тармоқ таълим шакллари (телекоммуникацион лойиҳалар, викториналар, телеконференциялар, олимпиада ва бошқалар) ишлаб чиқиш ва ўтказиш қобилияти;

- компьютер алоқаси воситаларидан фойдалана олиш қобилияти. Электрон таълимни ривожлантиришнинг замонавий тенденциялари тармоқ фойдаланувчиларининг биргаликдаги фаолиятини ташкил этишга асосланган Nemis масофавий таълим сайтидан фойдаланиш билан боғлиқ. Электрон таълим учун дидахборот коммуникацион технологияларик ва технологик ечимлар, шунингдек, масофадан туриб ўқитиш тизимларидан (Nemis) фойдаланишга йўналтирилган бўлиб, улар қуйидагиларни таъминлайди: ўқув жараёнини автоматлаштирилган бошқариш, ўқув таркибини жойлаштириш учун ягона технологик платформа, ўқув жараёнини режалаштириш ва ўқув жараёнининг барча иштирокчилари ўртасида масофавий алоқани ташкил этиш. Шундай қилиб, электрон таълим соҳасида ўқитувчининг касбий ваколатининг мажбурий компоненти талабаларнинг самарали ўзаро ҳамкорлигини ташкил қилиш учун Nemis масофавий таълим сайтидан фойдаланишни билишдир.

Бўлажак касб таълими ўқитувчисини касбий ривожлантиришнинг муҳим шартининг касбий ўзини ўзи ўқитиш учун мотивацияси. Талабаниннг ўзини ўзи ўқитиш фаолиятининг мотивацион соҳаси қуйидаги таркибий қисмларни ўз ичига олади.

-ижодий фаолиятни амалга оширишда мустақиллик мотиви талабани муаллифликлик дастурларини тайёрлаш бўйича автоном ишлаш имкониятини назарда тутди;

-шахсий ривожланиш мотиви касбий ва мартаба кўтарилиш истаги билан тавсифланади;

-ўзини тасдиқлаш мотиви тажрибани умумлаштиришга, илмий ва амалий нашрлар, очик мастер-класслар тайёрлашга ёрдам беради;

-рақобат мотиви нуфузли профессионал мусобақалар учун номзодликка, унвонлар, мукофотлар бериш, ҳамкасбларнинг эътирофига ҳисса қўшади [5].

Ўз-ўзини тарбиялаш деганда шахснинг маънавий эҳтиёжларини, ижодини, барча шахсий имкониятларини очиш ва бойитиш борасидаги фаолияти тушунилади. Таълимни ахборотлаштириш шароитида касб таълими ўқитувчисининг ўз-ўзини тарбиявий фаолияти виртуал методологик бирлашмалар мазмунида маълум психологик, педагогик, методик мавзу бўйича олиб бориладиган тадқиқот ишларида намоён бўлади. Бугунги кунда педагогик фан ютуқлари ва илғор педагогик тажрибаларни мустақил ўрганиш электрон кутубхоналар материаллари, тажрибали ўқитувчилар томонидан ўтказиладиган

онлайн тадбирлар ёрдамида олиб борилмоқда.

Масофавий семинарларда, конференцияларда, педагогик ўқишда касб таълими ўқитувчисининг маъруза ва нутқларда иштирок этиши унинг ўз-ўзини ўқишга бўлган хоҳишининг кўрсаткичидир.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлашимиз мумкинки, замонавий ахборот коммуникацион технологиялардан фойдаланиш бўлажак касб таълими ўқитувчисининг ўзини ўзи ўқитиш фаолияти мотивациясини кучайтиради, чунки бу ижодий самарали касбий фаолиятнинг индивидуал услубини шакллантириш ва ривожлантиришга, касбий маҳоратни, касбий фаолият ва компетенция сифатларини ва профессионал интроспекция қобилиятларини ривожлантиришга ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Острейковский В.А. Информатика. Учебное пособие для вузов. - М.: Высшая школа, 2000, 511 с.

2. Рутковская Д., Пилинский М., Рутковский Л. Нейронные сети, генетические алгоритмы и нечеткие системы. -М.: Горячая линия - телеком, 2004, 452 с.

3. Тарков М.С. Нейрокомпьютерные системы. Учебное пособие. -М.:Интернет-Университет Информационных технологий; БИНОМ. Лаборатория знаний, 2006, 142 с. 4. Абрамян, Г.В. Теоретические основы профессионального становления педагога в информационной среде: дис. ... д-ра. пед. наук: 13.00.08 / Абрамян Геннадий Владимирович. – Санкт-Петербург, 2001. – 510 с. 5. Алиев Р.А., Алиев Р.Р. Теория интеллектуальных систем. Учебное пособие. - Баку: Чашиогли, 2001. - 720 с.

6. Адўлова З.Т., Марахимов А.Р., Игнатъев Н.А, Мадрахимов Ш.Ф.Обеспечение информационной безопасности сетей передачи данных и автоматизированных систем.-Т.:Национальный университет РУз, 2004,150 с.

7. Мухаммадиева Д.Т. Моделирование слабоформализуемых процессов на основе обработки нечеткой информации. -Т.: Институт информатики А.Н РУз, 2007, 231 с.

8. Информатика в 2-томах. Под ред. Н.В.Макаровой. -М.:Финансы и статистика, 2001.

9. <http://www.intuit.ru>- сайт Интернет-университета информационных технологий. Курсы лекций «Интеллектуальные системы».

10. <http://www.google.com>

**РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ
ХУНАРМАНДЧИЛИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
ДИДАКТИК ИМКОНИЯТЛАРИ**

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.25.93.059>

Қодиров Бахтиёр Эшмурзаевич

*Термиз давлат университети, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори
(PhD)*

Аннотация: Мазкур мақола умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларининг компетенцияларини рақамли технологиялар асосида ривожлантиришида дидактик имкониятларини очиб беришга бағишланган.

Калит сўлар: технология, трансформация, рақамли технологиялар, аудио-визуал, ахборот технологиялари, дидактик воситалар, хунармандчилик.

**ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ У СТУДЕНТОВ
РЕМЕСЛЕННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ**

Кодиров Бахтиёр Эшмурзаевич

Термезский государственный университет, Доктор педагогические наук

Аннотация: Статья посвящена открытию дидактических возможностей развития компетенций учащихся общеобразовательных школ на основе цифровых технологий.

Ключевые слова: технологии, трансформация, цифровые технологии, аудиовизуальные средства, информационные технологии, дидактические инструменты, ремесла.

**DIDACTIC OPPORTUNITIES TO DEVELOP STUDENTS' CRAFT
COMPETENCIES ON THE BASIS OF DIGITAL TECHNOLOGIES**

Kodirov Bakhtiyor Eshmurzaevich

Termez State University, Doctor of Philosophy

Abstract: This article is dedicated to revealing the didactic potential of secondary school students in the development of competencies on the basis of digital technologies.

Keywords: technology, transformation, digital technology, audio-visual, information technology, didactic tools, crafts.

Жаҳонда таълим тизимини трансформациялаш, рақамли технологиялар (РТ) ни ишлаб чиқиш ва ўқитиш жараёнида қўллаш, фанларнинг методик таъминотини такомиллаштириш, ўқувчиларнинг фанга оид компетенцияларини ривожлантириш, дарсларда анимацион, аудио-визуал воситаларни ҳамда ахборот-коммуникация технологияларини қўллаш бўйича тадқиқот ишлари олиб борилмоқда [8]. Ушбу тадқиқотларда фанларни ўқитишда РТни энг сўнгги педагогик қонуниятлар асосида ишлаб чиқиб, ўқувчиларда ўзига ишонч, фанга қизиқиш, меҳнатсеварлик, ўзгалар меҳнатини қадрлаш, замонавий билим олиш, хунар эгаллашга бўлган қизиқиш, мустақил касб танлаш, креативлик хислатларини ривожлантиришда муҳим ўрин эгаллайди. Бу эса технология фанини ўқитишда электрон ахборот таълим муҳитида фойдаланиш бўйича методик тизимни яратишни тақозо этмоқда.

Технология фани умумий ўрта таълим мактабларининг ўқув режасида амалий фанлар блокадаги фан ҳисобланади. Ҳафталик умумий юкламаси 12 соатни ташкил этади. 1-4-синфларда ҳафтасига 1 соатдан, 5-7-синфларда 2 соатдан, 8-9-синфларда 1 соатдан машғулотлар ташкил этади. Умумий ўрта таълим мактабларида технология фани бошланғич таълим йўналишида умумлашган

ҳолда, 5-9-синфларда “Технология ва дизайн”, “Сервис хизмати” йўналишларида ўқитилади [9]. Маълумки, технология фанини ўзлаштириш учун ўқув дастурида белгиланган барча мавзуларнинг негизида халқ ҳунармандчилиги технологиялари элементлари мавжуд.

Ўзбекистон Республикасида таълим узлуксизлиги ва узвийлиги, ўқувчи шахси ва қизиқишлари устуворлигидан келиб чиқиб, уларнинг ёш хусусиятларига мос равишда таянч компетенциялар шакллантирилади.

Технология фанининг халқ ҳунармандчилиги технологияси бўлими 8-синф технология ва дизайн йўналишида 9 соат, сервис хизмати йўналишига 12 соат, 9-синф технология ва дизайн йўналишига ҳам, сервис йўналишларига ҳам бир хил, яъни 8 соатдан ўқув режа бўйича ажратилган. Энг муҳими шундаки, 1-9-синфлардаги ҳар бир мавзу негизида халқ ҳунармандчилигининг элементлари мавжудлиги ўқувчиларнинг ҳунармандчиликка оид таянч компетенцияларини ривожлантиришдаги ўрни муҳим эканлигини кўрсатади [8]. Технология фани машғулотларини ўқувчиларга ўқитиш жараёнида ҳунармандчиликка оид таянч компетенцияларни ривожлантиришда рақамли технологияларни қўллаш ўқувчиларга катта имкониятлар беради.

Таълимнинг қайси босқичида ўқитилишидан қатъи назар, ҳар қандай фаннинг муҳим вазифаларидан бири – айна фан бўйича билимлар тизимини шакллантириш жараёнини таъминлаш. Билимлар тузилмасининг мантиқий-генетик таҳлили асосида билимлар тизимида қуйидаги асосий элементлар ажратилади: илмий далил, тушунчалар, қонунлар, назариялар, назарий билимларнинг амалий қўлланилиши, оламнинг илмий манзараси. Қайд этилган билимларнинг тузилмавий бирликлари барча табиий ва ижтимоий фанлар учун умумий ҳисобланади. Бу эса, фанлардан электрон қўлланмаларни ишлаб чиқиш ва амалиётда қўллаш кераклигини кўрсатмоқда. Электрон қўлланмалар ранг-баранглиги, кўргазмалиги ва кўрсатмалиги, анимацияларга, аудио-визуал воситаларга бойлиги билан ўқувчиларни ўзига тортади.

Электрон қўлланмаларни яратишнинг дастурий воситалари: электрон ўқув қўллан-маларни яратиш воситаларининг мақсади ва бажарадиган функциялари, техник таъминотга бўлган талаблар, қўллаш хусусиятларини ўз ичига олган комплекс мезонлар бўйича гуруҳларга ажратиш мумкин. Бу мезонларга мос равишда электрон қўлланмаларни яратиш воситаларини қуйидагича синфларга ажратиш мумкин: аънавий дастурлаш тиллари; умумий мақсадларга мўлжалланган инструментал воситалар; мультимедиа воситалари; гиперматн ва гипермедиа воситалари.

Технология фанини ўқитиш жараёнида ўқувчиларнинг ҳунарманд-чиликка оид таянч компетенцияларини ривожлантиришда РТни яратиш ўқув фаолиятининг қуйидаги турларида қўллаш мумкин: янги назарий материалларни ўрганиш ва баён этишда; назарий ва амалий машғулотларни ташкил этишда; ўрганилган ўқув материални мустаҳкамлаш, назорат қилиш ва текширишда; ўқувчиларнинг мустақил ишларида; очик дарслар, телеконференциялар, аудиоконференциялар, намунавий машғулотларни ўтказишда; амалий машғулотларда.

Ахборот асрида таълим оловчиларнинг мустақил билим олиш ва амалий фаолият кўникмаларини шакллантириш асосий вазифалардан бири ҳисобланади. Педагоглар ўқувчиларга билим бериш жараёнининг асосий мақсади нафақат билимларни ўзлаштириш, балки ўқувчиларнинг билиш қобилиятларини ривожлантириш ва ижодий салоҳиятини орттиришдан иборат. Таълимда шахсий натижаларга эришиш, таълим оловчиларнинг таълимга мослашиш ресурсларини ривожлантириш шахсга йўналтирилган таълим жараёнини амалга оширишни, ҳар бир ўқувчи учун алоҳида таълим дастурлари ҳамда йўл хариталарини тузишни талаб этади [2].

Шахсга йўналтирилган таълим ўз моҳиятига кўра, таълим жараёни барча

иштирокчиларининг тўлақонли ривожланишларини кўзда тутди. Бу таълимни лойиҳалаштирилади, албатта, маълум бир таълим олувчининг шахсини эмас, аввало, келгусидаги касб танлаш фаолияти билан боғлиқ, ўқиш мақсадларидан келиб чиққан ҳолда ёндашишни назарда тутди [3].

Олиб оборилган психологик-педагогик ва дидактик тадқиқотларда ўқитиш методикасида АКТни қўллаб амалга ошириш зарурлигини, таълим беришда таълим олувчилар қизиқишлари, имкониятлари ва қобилиятларини ҳисобга олиш, уларнинг эркин фикр билдириши ва топшириқларни бажаришда креатив ёндашиш, мавзуга оид маълумотларнинг янги манбаларини эгаллаш, жараён ва объектларни компьютер воситасида моделлаштиришдан фойдаланиш, ўқитишни индивидуаллаштириш ҳамда бошқаларни таъминлайди.

Психологик-педагогик адабиётларда таъкидланишича, турли хил мактаб муҳитидан фарқли, ҳар бир ўқувчининг индивидуал имкониятлари, қизиқишлари субъектив тажрибаси, ўқиш ва реал ҳаётда тўплаган билимларини инobatга олиб, амалга оширилган таълим жараёни самаралироқ ҳисобланади.

Ўқувчиларнинг хунармандчиликка оид компетенцияларини РТда ривожлантириш ахборот-ўқув фаолиятининг мутлақо янги методи.

Д.Маматовнинг фикрича, «электрон ахборот-таълим муҳити» тушунчасини аниқ бир мақсадга йўналтирилган ўқув жараёнини таъминловчи дастурий, ахборот-техник, ўқув-методик тизимлар мажмуи [2].

РТда ўқувчиларнинг хунармандчилик компетенциялари куйидаги типологик белгиларга кўра тавсифланади:

ҳар қандай таълим тизимидаги РТ илмийлик, тизимлилик, изчиллик ва мураккаб тузилмали объект бўлиб ҳисобланади; РТнинг аниқ бир мақсадга йўналганлик ва тизимлиликка эришиш, тарбияланувчининг таълим-тарбиявий мақсадларини ўзида мужассамлаштиради; РТ таълим-тарбия ишларининг самарадорлигига таъсир кўрсатувчи омил бўлиши билан бирга унинг хунармандчиликка оид қобилиятларини ривожлантириш воситаси ҳам.

Шу билан бир қаторда, РТни таърифлашда бир қанча узаро фарқ қилувчи қарашлар мавжуд, жумладан:

шахс билан таълим муҳитининг субъект сифатида узвий боғланган ахборот, техник, ўқув-методик таъминотнинг ташкиллаштирилган мажмуаси; электрон ахборот ташувчилар, виртуал кутубхоналар, тақсимланган маълумот базалари, ўқув-методик мажмуаларини мужассамлаштирувчи компьютер, АКТ интеграцияси асосида қурилган ягона ахборот-таълим муҳити ҳисобланади [12].

РТни ишлаб чиқишда ва уни бошқаришда тизимли ёндашувни жорий қилиш талаб этилади. Ушбу ёндашувнинг дастлабки босқичида замонавий таълим мазмунига мос равишда таълим муассасаси РТни қўллашнинг мақсади белгиланади [5]. Педагогик фаолиятда таълим мақсади тизимлаштирувчи вазифани бажаради. Айнан белгиланган мақсад таълим мазмуни, мақсади, ташкилий шакллари танлаш учун асос бўлиб хизмат қилади. Замонавий таълимнинг мақсади ДТСлари талабларига мос равишда шакллантириладиган билим, кўникма ва малакалар тизимидан таркиб топиб, у тегишли таълим стандартларида ўз аксини топади [6].


Бундан ташқари, педагогикнинг замонавий талабларига кўра, ўқувчи шахси педагогик жараён объектига бўлиб қолмасдан, балки унинг субъектига ҳам айланиб бормокда. Бундай ҳолатларда ўқувчи мустақил таълимнинг аҳамияти ортади ва мустақил таълим олишни режалаштириш, Интернет, илмий ҳамда ўқув ахборотларидан фойдалана олиш, электрон ахборот-таълим ресурслари устида ишлаш, замонавий ахборот технологиялари воситалари орқали тақдим этилган мавзуларни ўзлаштириш, электрон дарслик билан ишлаш кўникма ва малакаларни шакллантириш талаб этилади [7].

РТ куйидаги учта асосий вазифани бажаради:

ташқи муҳит субъектларига замонавий ахборот технологиялари ёрдамида

таълим муассасасининг РТ тўғрисида тасаввур ҳосил қилишга ёрдамлашиш; таълим муассасаси ходимларининг ўзаро ҳамкорлигини ошириш ва ўзаро электрон ахборот-таълим ресурслари алмашиши муҳитини юзага келтириш; таълим муассасасида РТ воситасида самарали ахборот алмашинувини ташкил этиш ва бошқариш [8].

РТ асосида умумий ўрта таълим мактабларини ўқувчиларнинг хунармандчилик компетенцияларини ривожлантириш мақсадини белгилаш тўртта жараённинг даврий кетма-кетлигини эътиборга олган ҳолда амалга оширилади (1-расм).



1-расм. РТ асосида ўқувчиларнинг хунармандчиликка оид компетенцияларини ривожлантиришнинг даврлари.

Умумий ўрта таълим тизимида РТни қўллашнинг мақсади ўқувчиларга хунармандчилик компетентцияларни шакллантириш ва улар орқали ижодий қобилиятларини такомиллаштириш билан бевосита боғлиқ ҳолда ишлаб чиқилади. Ўз навбатида ўқувчиларда хунармандчиликка оид таянч компетенцияларни шакллантириш ўқувчиларда онгли равишда ўзлари қизиққан касб-хунарни танлашга ва кейинги меҳнат фаолияти давомида доимий равишда ўз-ўзини ривожлантириб боришига қаратилган сифатларни таркиб топтиришга алоҳида эътибор қаратилади.

Шу ўринда, умумий ўрта таълим мактабларида РТ асосида электрон муҳитни ташкил этиш хунармандчиликка оид компетенцияларни шакллантириш, таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш педагогик таълимнинг РТни қўллашни, интеграллашган ахборот-таълим ресурсларини яратиш таълим сифатини оширувчи омил сифатида тадқиқ этишни тақозо этади[10].

Юқорида юритилган фикрлардан шундай хулоса чиқариш мумкинки, дарслардаги конструкторлик-технологик фаолият продуктив (ижодий) ва репродуктив (билиш-ижрочилик) фаолиятларини бир-бирига қўшиш йўли билан амалга оширилиши, яъни ўқувчилар техникавий модель ёки асбобни ишлаб чиқиши ёки такомиллаштирилиши мумкин экан. Технология фанидан дарсларини ташкил этишда кўرғазмали методларни қўллаш юқори самара бериши илмий тадқиқот ишларида аниқланган бўлиб, айниқса, у иш-ҳаракат фаолиятини виртуал тарзда намойиш қилиш натижасида ўқувчиларнинг хунармандчиликка оид таянч компетенцияларининг ижобий таъсир кўрсатади.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Мақамасининг 2017 йил 6 апрелдаги 187-сон “Умумий ўрта таълим ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг Давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори билан тасдиқланган

умумий ўрта таълимнинг технология фани бўйича малака талаблари асосида тузилган ўқув дастури. Технология, тасвирий санъат, чизмачилик, музика маданияти, жисмоний тарбия. (1-9-синфлар). – Тошкент, 2017.

Маматов Д.Н. Электрон ахборот-таълим муҳитида касбий таълим жараёнларини педагогик лойиҳалаштириш. PhD док.дис. –Тошкент, 2017. – 150 б.

Мукумова Ф.Х. Thinking motives that encourage students to be creative. In Proceedings of TECHMIND-2021, 3rd Global Congress on Contemporary Sciences & Advancements, organized by E-Conference Globe on April 6th -7th, 2021.

Олимов Қ.Т. Махсус фанлардан ўқув адабиётлари анги авлодини яратишнинг назарий-услубий асослари.: Пед. фан. докт... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 44 б.

Қўйсинов О.А. “Improving the methodologies of raising the effectiveness of continuous education on the basis of ensuring content consistency” // «Actual Problems Of Modern Science, Education And Training» Electronic Journal. July, 2021-7/1. ISSN 2181-9750. KHOREZMSCIENCE.UZ

Қодиров Б.Э. “Development of basic Competencies of students in crafts in technology lessons” // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 4, 2020, Part ISSN 2056–5852

Қодиров Б.Э. The role of e-learning environments in developing students' basic craft skills// International Virtual Conference On Innovative Thoughts, Research Ideas and Inventions in Sciences Hosted from Newyork, com January 20 th 2021. – P. 469-470

Қодиров Б.Э. Электрон ахборот таълим муҳитида ўқувчиларнинг хунармандчиликка оид таянч компетенцияларини ривожлантириш методикаси. Дис. ... п.ф.ф.д. (PhD) – Термиз.: 2021. – 143 б.

Шомирзаев М.Х. Мактаб технология таълимида миллий хунармандчиликнинг спектрал-вариатив компонентларини фанлараро такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича докторлик (ДSc) дисс. - Тошкент, 2021. – 219 б.

Шомирзаев М.Х. Технология фанини ўқитиш жараёнида интерфаол методлардан халқ хунармандчилигида фойдаланиш имкониятлари /Таълим-тарбия контекстида фанлараро синхрон ва асинхрон боғланишлар. Илмий-услубий мақолалар тўплами. – Т.: Noshirlik yog'dusi, 2019. - Б.130-136.

Шомирзаев М.Х. Ўзбекистонда миллий хунармандчилик ривожланишининг тарихий – ижтимоий асослари / Таълим-тарбия контекстида фанлараро синхрон ва асинхрон боғланишлар. Илмий-услубий мақолалар тўплами. – Т.: Noshirlik yog'dusi, 2019. - Б.52-57.

Шомирзаев М.Х. Каримов И.И. Технология фанини ўқитишда инновацион педагогик технологиялар. Ўқув қўлланма. –Тошкент: Universitet, 2020. -192 б.

**ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ҲУНАРМАНДЧИЛИККА ОИД ТАЯНЧ
КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ЭЛЕКТРОН АХБОРОТ ТАЪЛИМ МУҲИТИДА
РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДИДАКТИК МОДЕЛИ**

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.37.29.058>

Қодиров Бахтиёр Эшмурзаевич

Термиз давлат университети, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори
(PhD)

Аннотация: Мазкур мақола умумий ўрта таълим мактабларида технология фанини ўқитиш жараёнида ўқувчиларнинг ҳунармандчиликка оид таянч компетенцияларини электрон ахборот таълим муҳитида ривожлантиришнинг дидактик моделини ишлаб чиқишга бағишланган.

Калит сўзлар: электрон таълим, электрон ресурс, таълим, модел, тизим, дидактика, қизиқиш, қобилият, креатив фикрлашни, интеллектуал қобилиятлар.

**ДИДАКТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ОСНОВНЫХ
КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ СРЕДЕ В
ЭЛЕКТРОННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ**

Кадыров Бахтиёр Эшмурзаевич

Термезский государственный университет, Доктор педагогические наук

Аннотация: Статья посвящена разработке дидактической модели развития базовых компетенций учащихся в области технологий при обучении технологиям в общеобразовательных школах в электронной информационно-образовательной среде.

Ключевые слова: электронное обучение, электронный ресурс, образование, модель, система, дидактика, интерес, способность, творческое мышление, интеллектуальные способности.

**DIDACTIC MODEL OF DEVELOPMENT OF STUDENTS 'CRITICAL
COMPETENCES IN THE ELECTRONIC EDUCATIONAL ENVIRONMENT**

Kodirov Bakhtiyor Eshmurzaevich

Termez State University, Doctor of Philosophy

Abstract: This article is devoted to the development of a didactic model for the development of basic competencies of students in the field of technology in the teaching of technology in general secondary schools in an electronic information educational environment.

Keywords: e-learning, e-resource, education, model, system, didactics, interest, ability, creative thinking, intellectual ability.

Мамлакатимиз таълим тизимида амалга оширилаётган ислохотлар талабларига тўла жавоб берувчи, келажакда мустақил, қизиқиш, қобилият ва мойилликларига мос келувчи касбни танлаш, ишлаб чиқариш соҳасида юзага келган рақобатга бардошли, кескин ўзгаришларга мослаша олувчи, шунингдек, меҳнат бозорида танлаган касби малакасига қўйилаётган талаблар даражасида самарали фаолият юритувчи шахсни шакллантиришда умумий ўрта таълим мактабларининг ҳиссаси катта [5]. Бугунги кунда мамлакатимизда таълим тарбиянинг мақсад ва вазифалари тубдан ўзгарди. Шу сабабли, умумий ўрта таълим мактабларида электрон ахборот таълим муҳити (ЭАТМ)ни ташкил этишга аълоҳида эътибор қаратилмоқда.

Таълим муассасаларида ўқув жараёнининг реал шароитлари ушбу жараёни қўллаб-қуватловчи тизимлар учун бир мунча ўзига хос талабларни белгилайди [4]. Бу эса ушбу талабларни бажаришда инновацион таълим муҳити каби бир хил майдонни эгаллайди. Умумий ўрта таълим ўқув муҳитининг вазифалари таълим соҳасига оид вазифаларига мутаносиб бўлиши ва умумий ўрта таълимда табиий, аниқ фанлар ва амалий фанлар билан ажралиб туради.

Бизнинг фикримизча, умумий ўрта таълим мактабларида ЭАТМда тизимли хусусиятга эга бўлиши керак [5]. Айнан шунинг учун, биз ўқувчиларнинг ҳунармандчиликка оид таянч компетенцияларини ривожлантиришда ЭАТМни

педагогик тизим сифатини қараб чиқамиз.

Сўнгги йилларда умумий ўрта таълим мактабларида ўқувчилар технология фанини ўзлаштириш жараёнида фанга оид билимларни ўзлаштириш билан бир қаторда, уларда ҳунармандчиликка оид таянч компетенцияларини ривожлантиришга қаратилган педагогик тизимлар ишлаб чиқиш ҳар қачонгидан ҳам долзарб ҳисобланади. Бу ўзгаришларнинг моҳияти шундаки, бунда ўқувчилар технология фанини ўзлаштириш жараёнида қуйидагиларни эгаллаши лозим:

материаллар ва уларнинг хоссалари, хусусиятлари ҳамда техник объект ва технологик жараёнларга оид маълумотларни ўрганиш; техник объект ҳамда технологик жараёнларда махсус ва умуммехнат операцияларини билиш; технологик жараёнларни бошқара олиш ҳамда махсус ва умуммехнат операцияларини амалиётда қўллаш олиш [4]; креатив фикрлашни, интеллектуал қобилиятларини шакллантириш; технологик жараён ва тайёрланган маҳсулотларни бажариш кетма-кетлиги ҳамда маҳсулот сифатини таҳлил қилиш; буюм ва жараёнларни бажаришга оид хулосалар чиқариш ҳамда мехнат операцияларини, маҳсулот сифатини баҳолаш; онгли равишда касб танлашга тайёрлаш ишларини амалга оширишда таянч ва технология фанига оид компетенцияларни шакллантириш ҳамда ривожлантиришдан иборат.

Ўқувчиларнинг ушбу билимга эга бўлишида технология фани ўқитувчисининг роли юқори ҳисобланади. Технология фани ўқитувчиси фанга ва касбига оид билимларга эга бўлиши билан бир қаторда қуйидаги фазилатларга эга бўлиши лозим:

янгича ёндашувда шахсни ўқитиш, тарбиялаш ва ривожлантиришдаги маълум бўлган қолип ва бир хилликдан воз кечиш; амалдаги меъёрлар доирасидан четга чиқиб, ўқитишнинг янгича усулларини қўллаш [1]; шахсий йўналтирилган таълим жараёнини самарали қўлаган ҳолда янги технологияларни адекват равишда англаш; ўқув жараёнида соҳасига оид энг сўнгги технологияларини билиши ва қўллаш; таълим-тарбия жараёнида анъанавий таълим муҳитидан воз кечиш, ЭАТМни ташкил эта оладиган билим қўникма ва малакаларга эга бўлиш [3].


Мазкур тадқиқот ишимизда “тизим” тушунчасининг моҳиятини очиб беришга ҳаракат қилдик. Тизим – бу ўзаро боғлиқликда бўлган ва тартибли равишда жойлашган қисмлар бирлигини ифодаловчи яхлитлик [3]. Тизим ҳақида гапирилганда, “тизим” ҳамда “муҳит” тушунчаларининг ўзаро нисбатини қараб чиқиш мақсадга мувофиқ бўлади [2]. Тизим – юнонча сўздан олинган бўлиб, система-қисмлардан тузилган, бирлаштирилган) маълум бир яхлитликни ҳосил қилувчи, бир-бири билан маълум бир муносабат ва боғланишларда бўлган элементлар мажмуаси.

Муҳит барча тизимлар мужассамлашуви бўлиб, у тадқиқ қилинаётган, ажратиб олинган ва айни вақтда атрофимизни ўраб турган оламнинг бизни қизиқтираётган қисмидан ташқарида ётади. Бундан хулоса чиқариш мумкинки: тизим – бу қандайдир йўл билан муҳитдан ажратиб олинган объектлар тўплами [7].

Тизим ва муҳит ўртасида ўзаро алоқалар мавжуд бўлиб, улар ёрдамида муҳит ва тизимнинг ўзаро таъсирлашуви амалга ошади [5,6]. Тизим ва муҳит ўртасидаги ўзаро муносабат қуйидагича тасаввур этилади.

Модель – педагогик муаммонинг қисмарга бўлинган ҳолда кичик объектларда ўрганилиши, жараёнларнинг ташкил этилиш натижасида умумий глобал мақсадга йўналтирилган ҳолда, босқичма-босқич таълим натижаларига эришиш ҳамда бир бутун ҳолатда жараённи юритиш ва назорат қилиш имкониятида яхлит мақсадга эришиш [5].

Ўқувчиларнинг ҳунармандчиликка оид таянч компетенцияларини ЭАТМда ривожлантиришни бир бутун тизим сифатида таҳлил қилиш мақсадида дидактик модель ишлаб чиқилди (1-расм). Мазкур модель учта блок (мақсадли блок, жараёнли блок, натижали блок)га ажратилиб, мақсадли (таълимий, тарбиявий, ривожлантирувчи, вазифалар), жараёнли (таянч компетенция турлари (махсус, касбий), педагогик жараён (мазмун, шакл, метод, восита, қўлланиш соҳаси)), натижавий (баҳолаш мезонлари (репродуктив, продуктив, креатив) ҳамда натижа) ни ўз ичига олади.



1-расм. Ўқувчиларнинг хунармандчиликка оид таянч компетенцияларини ЭАТМда ривожлантиришнинг дидактик модели

Моделнинг мақсади уч даражада: таълимий – ЭАТМдан фойдаланган ҳолда «Технология» фанини ўқитиш жараёнини ташкиллаштириш, ўқувчиларни хунармандчиликка оид тушунчалар билан таништириш; тарбиявий – ўқувчиларда хунармандчиликка оид таянч компетенцияларни ЭАТМда ривожлантириш (хунармандчиликнинг турлари, буюмларни ясаш жараёни)ни ўргатиш [8];

ривожлантирувчи – ўқувчиларнинг хунармандчиликка оид илмий маълумотларни ЭАТМда ўрганиш, уларни элементар таҳлил, синтез қилиш ҳамда хулоса чиқариш қобилиятини ривожлантириш киритилди.

Модель тўртта вазифани қамраб олган бўлиб, унда умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларига ЭАТМни яратиш жараёнига таъсир кўрсатувчи педагогик-психологик омилларни ўрганиш, таълим сифати ва самарадорлигини ошишига хизмат қилишига қаратилган дидактик имкониятларини такомиллаштириш, ЭАТМда ўқувчиларнинг хунармандчиликка оид таянч компетенцияларини ривожлантиришда когнитив (билим), аффектив (ҳиссий-қадриятли) ва психотор (ҳаракатли) мақсадлар асосида дидактик моделини ишлаб чиқиш ва ЭАТМда ўқувчиларнинг хунармандчиликка оид таянч компетенцияларини ривожлантиришга хизмат қилувчи дастурий ва методик таъминотини яратишни ўзига вазифа сифатида қабул қилади.

Ўқувчиларнинг хунармандчиликка оид таянч компетенцияларини ЭАТМда ривожлантиришга таъсир кўрсатувчи компетенциянинг турлари таянч, касбий ва махсус компетенциялар ҳисобланади.

Моделда педагогик жараён куйидаги даражалар билан методик элементлари аниқланди: мазмун (амалий фанлар ДТС, ўқув дастури: «Технология» фанини ўқитишга оид хужжатлар, илмий адабиётлар, электрон қўлланмалар ва манбалар, дидактик манбалар, кўргазмали қуроллар, макет ва тренажёрлар, техник объектлар); шакл (жамоавий, гуруҳли ҳамда индивидул машғулотларни ташкил этиш); метод (анъанавий ва инновацион технологиялар); восита («Android Book Ark», «HotPotatoes», «iSpring, QuizMaker», «AutoPlay Media Studio» дастурлари ҳамда HTML дастурлаш тилида ўқувчиларнинг хунармандчиликка оид таянч компетенцияларини ривожлантиришга қаратилган дастурий методик таъминотини яратиш); қўлланиш соҳаси («Технология» фанига оид, хунармандчиликка оид тўғарак машғулотларида ва мустақил таълимни ташкил этиш жараёнида) узвий боғланган.

Ушбу педагогик жараённи баҳолаш репродуктив, продуктив, креатив мезонларга кўра амалга оширилади. Бу мезонларга асосланиб, ўзлаштиришнинг юқори, яхши ва ўрта даражалари ишлаб чиқилиб, ЭАТМда ўқувчиларнинг хунармандчиликка оид таянч компетенциялари ривожланганлиги баҳоланади. Натижада, ўқувчиларнинг хунармандчиликка оид таянч компетенциялари ЭАТМ орқали ривожлантиришга эришилди [7].

Педагогик жараённинг таркибий қисмларидан бири жараённи амалга ошириш учун машғулот керак бўлади. Мазкур моделда машғулотларни дарсда ва дарсдан ташқари машғулотларда амалга ошириш тадқиқ этилди.

Синфда назарий, амалий, кўргазмали, дарсдан ташқари машғулотлар, тўғарак, экскурсия, устоз-шогирд тизимида ташкил этилди.

ЭАТМда ўқувчиларнинг хунармандчиликка оид таянч компетенцияларини ривожлантиришнинг педагогик тизими элементлари сифатида куйидагилар тақлиф этилди: мақсад ва вазифалар; ЭАТМда ўқувчиларнинг хунармандчиликка оид таянч компетенцияларини ривожлантириш босқичлари; хунармандчиликка оид таянч компетенцияларни ривожлантириш мазмуни, шакл, метод ва воситалари; натижавий-баҳолаш [7].

Юқорида баён этилган тизимли ёндашувнинг асосий тушунча, илмий хулосалар, тизимларни таҳлил ва синтез қилишдаги мантиқий ҳаракатларнинг келтирилган кетма-кетлиги, тизимли ёндашувнинг биринчи методологик вазифасини ташкил қилади, яъни тизим сифатида тадқиқ қилинадиган ҳамда лойиҳаланадиган объектларни тасаввур қилиш учун воситаларни таъминлаб беради. Санаб ўтилган ўқувчиларнинг хунармандчиликка оид таянч компетенцияларини ривожлантириш педагогик тизим ичида кечади, лекин бу тизим фаолияти самарали бўлиши учун уни ўраб турган муҳит, яъни ижтимоий-маданий, ЭАТМ талаб даражасида бўлиши

зарур.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, бозор муносабатлари шароитида ишлаб чиқариш корхоналарига янги техника ва технологиялар ҳамда бошқарувнинг янги усуллари жорий этилиши барча таълим муассасаларида ўқувчиларни мустақил касб танлашлари ва танлаган касби билан чекланиб қолмасдан бир нечта хунар эгаллашга тайёрлаш мазмунини модернизациялашга асос бўлди. Умумий ўрта таълим мактабларида ўқувчиларни сўнгги ва замонавий билимларга эга шахс этиб тарбиялаш тизимида таълим олувчи ва таълим берувчилар ўртасидаги субъект-объект муносабатларидан субъект-субъект муносабатларига ўтилиши таълим жараёнининг компетентли ёндашув асосида қурилишига замин яратди.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати

Маматов Д.Н. Электрон ахборот-таълим муҳитида касбий таълим жараёнларини педагогик лойиҳалаштириш. PhD док.дис. – Тошкент, 2017. – 150 б.

Мукумова Ф.Х. Thinking motives that encourage students to be creative. In Proceedings of TECHMIND-2021, 3rd Global Congress on Contemporary Sciences & Advancements, organized by E-Conference Globe on April 6th -7th, 2021.

Олимов Қ.Т. Махсус фанлардан ўқув адабиётлари анги авлодини яратишнинг назарий-услубий асослари.: Пед. фан. докт... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 44 б.

Қўйсинов О.А. Компетентли ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий-педагогик ижодкорлигини ривожлантириш технологиялари: Педагогика фанлари бўйича докторлик (DSc) дисс. – Тошкент, 2019. – 200 б.

Қодиров Б.Э. “Development of basic Competencies of students in crafts in technology lessons” // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 4, 2020, Part ISSN 2056–5852

Қодиров Б.Э. The role of e-learning environments in developing students' basic craft skills// International Virtual Conference On Innovative Thoughts, Research Ideas and Inventions in Sciences Hosted from Newyork, com January 20 th 2021. – P. 469-470

Қодиров Б.Э. Электрон ахборот таълим муҳитида ўқувчиларнинг хунарамандчиликка оид таянч компетенцияларини ривожлантириш методикаси. Дис. ... п.ф.ф.д. (PhD) – Термиз.: 2021. – 143 б.

Шомирзаев М.Х. Мактаб технология таълимида миллий хунарамандчиликнинг спектрал-вариатив компонентларини фанлараро такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича докторлик (DSc) дисс. - Тошкент, 2021. – 219 б.

ЎҚИТУВЧИ КАСБИДА МУЛОҚОТ ВА МУОМАЛА ОДОБИНИНГ ЎРНИ

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.58.20.057>

Қурбонова Зебинисо Мамаражаб қизи

*Термиз давлат университетининг Педагогика Институтини, Психология
кафедраси ўқитувчиси*

Аннотация: Ушбу мақолада ўқитувчи касбида мулоқот ва муомала одоби ҳамда ўқитувчининг талаба ёшлар билан педагогик мулоқоти хусусида фикрлар баён этилган.

Калит сўзлар: мулоқот, муомала, маънавият, одоб, ахлоқ, ҳурмат.

РОЛЬ ОБЩЕНИЯ И ЭТИКЕТА В ПРОФЕССИИ УЧИТЕЛЯ

Курбанова Зебинисо Мамаражаб қизи

*Педагогический институт Термезского государственного университета
Преподаватель кафедры психологии*

Аннотация: Данная статья посвящена к проблеме общения и культуре поведения учителя и их общения со студентами.

Ключевые слова: культура, поведения, общения, уважения.

THE ROLE OF COMMUNICATION AND ETIQUETTE IN THE TEACHING PROFESSION

Kurbanova Zebiniso Mamarajab qizi

*Pedagogical Institute of Termez State University, Teacher of the Department of
Psychology*

Abstract: This article deals with the problem of teachers relations with students and their cultural addresses.

Keywords: address, personal, contact, culture, beha viver, respect.

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикасида мухтарам президентимиз Ш.М.Мирзиёев раҳнамолигида ўқитувчиларга катта эътибор қаратилмоқда. Хусусан, Президентимиз Ш.Мирзиёев 2019 йил учун мўлжалланган энг муҳим устувор вазифалар ҳақидаги Олий Мажлисга Мурожаатномасида: “Мамлакатимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлиги биринчи навбатда ижтимоий соҳадаги ислохотларимиз самараси билан чамбарчас боғлиқ. Ёшларимизга муносиб таълим бериш, уларнинг илм-фанга бўлган интилишларини рўёбга чиқаришимиз керак. Шу мақсадда, мактабгача таълим тизимини ривожлантиришимиз, ўрға ва олий ўқув юртларининг моддий-техник базасини, илмий ва ўқув жараёнлари сифатини тубдан яхшилашимиз керак” -деб таъкидлаган эдилар. Таълим тизимида фаолият олиб бораётган барча мураббий ўқитувчилар ҳар томонлама иқтисодий маънавий қўллаб қувватланмоқда. Шундай экан авваломбор ўқитувчининг маънавий қиёфаси унинг мулоқот маданиятида ифодаланади. У ўзининг хис туйғусини, ички туйғусини, орзу умидларини мулоқот жараёнида баён этади. Мулоқот- кишининг ички ва ташқи оламини намоён этувчи ўзаро муносабатларнинг муҳим шаклидир.

Мулоқот жараёнида кишининг ташқи олами, жамиятнинг турмуш тарзи, унинг ижтимоий-иқтисодий турмуш тарзи, маънавий ҳаётидаги қарашлари, тасавури ва хиссиёти ифодаланади. Ўқитувчи касбига хос бўлган муҳим талаблардан бири мулоқот ва муомала одобининг юксак даражада бўлиши, болаларни севиш, уларнинг ҳаёти билан қизиқиш, ҳар бир шахсни ҳурмат қилишдан иборатдир. Ўқитувчининг ўқувчилар билан мулоқоти юксак даражада муваффақиятли бўлиши унинг педагогик қобилиятга қанчалик эга

эканлигига боғлиқ. Ўқитувчиларнинг фаолияти ёш авлодни маънавий баркамол шахс даражасида тарбиялашда ва касбий билимларни чуқур эгаллаган ёшларни тайёрлашда намоён бўлади.

Ўқитувчилик касбига хос бўлган бундай фазилатларни ундаги педагогик одоб шакллантиради. Педагогик одоб ўқитувчининг юксак касбий фазилатидир. У ўқитувчининг саботли бўлиш, ўз хиссиётини идора қила олиш, болаларга педагогик таъсир ўтказиш восита ва меъёрларини белгилаш ва аниқлашига ёрдам берадиган фазилат ҳисобланади. Юксак педагогик одобга эга бўлган ўқитувчигина синфда мўътадил психологик иқлим ўрната олади, болалар қалбига тез йўл топа олади.

Жамият аъзоларининг ўзаро ижтимоий муносабатлари, турмуш шароитлари ўзгариши билан уларнинг моддий олам ҳақидаги тасаввурлари, тушунчалари, дунёқарашлари, одоб ва ахлоқ нормалари ҳам ўзгармоқда. Бугунги кунда таълим-тарбия соҳасида ҳам ўқитувчи ва ўқувчи, талаба ўртасидаги мулоқот муомала маданияти ҳам янги дунёқарашлар асосида жамиятда қабул қилинаётган демократик ислохотлар асосида ўзгариб бормоқда. Муомала категорияси умумий психология фанининг асосий категорияларидан биридир.[1] У шахслараро муносабатнинг муҳим механизмларини ўз ичига қамраб олади.

Муомала ҳамкорлик фаолиятининг эҳтиёжидан вужудга келиб чиқувчи шахслараро мулоқот ривожланишининг кўп қиррали жараёнидир.

Педагогик муомала бу ўқитувчининг талабаларга таъсир ўтказиш услубларининг муайян тизимидир.

Ҳамкорлик- иштирокчиларнинг ўзаро ахборот алмашинуви;

Турлича коммуникатив воситалар ёрдамида ўқитувчи томони талабалар билан ўзаро таъсир ва ўзаро муносабатларни ташкил этиш;

Муайян мақсадни дастурий асосда амалга оширишни режалаштириш ва ўтказиш функциясини бажаради ;

Педагогик фаолиятда муомала,

биринчи ўқув фаолиятини яқкаҳол бажаришнинг воситаси эканлиги ;

иккинчидан тарбия жараёнини таъминлашнинг ижтимоий – психологик тизим эканлиги;

учинчидан таълим-тарбиянинг муваффақиятини таъминловчи ўқитувчи билан талабалар ўзаро муносабатининг муайян тизимини ташкил қилишнинг услуби эканлиги;

- Тўртинчидан талаба индивидуаллигини такомиллаштириш истеъдодини қарор топтиришимконини берувчи жараён эканлиги;

- Бешинчидан яқкаҳол фаолиятнинг субъект сифатида рўёбга чиқиши.

Педагогика муомала деганда ўқитувчи ва талаба, ўқувчилар жамоасининг ўзаро таъсир малакаси усули ва тизими алмашилиб, унинг моҳияти, ўзаро ахборот алмашиш таълимий, тарбиявий таъсир ўтказиш, ўзаро тушунишга эришиш ва уни ташкил этиш тушўунилади. Муомала жараёнида уни мақсадга мувофиқ амалга оширишни таъминлаш учун ижтимоий назорат ва ижтимоий қонун-қоидалар муҳим аҳамиятга эга. Бу назоратда 3 та муҳим таъсир этиш воситаси иштирок этади: маъқулламаслик, қоралаш ва жазолаш. Муомала жараёнида бир хатти-харакат, ўйланмай билдирилган фикр, ортиқча имо-ишора одобсизликни келтириб чиқаради. Бу натижасида муомала фикр алмашув ўзини вазифасини низоли вазиятга бўшатиб беради. Педагогик муомалада психологик алоқа ўрнатишалоҳида аҳамиятга эга. Бунда ўқитувчи талабанинг ҳуқуқ ва мажбуриятини жамоада, оилада бажарадиган роли нимадан иборат эканлигини эътибордан четда қолдирмаслиги лозим.[2]

Демак мулоқот маданиятига, одобига амал қилиш кишини юксаклик сари етаклайди. Ҳаётда иззат хурматда бўлишга сазовор этади. Муомала одобинсон кўрки, инсонга бўлган самимий меҳр-мурувват мезонидир. Биз профессор

ўқитувчилар ўз шоғирдларимизга қанчалик самимий бўлсак, улар бизни шунчалик қадрлайдилар. Муомала одоби аслида “Ассалому алейкум, Ваалейкум ассалом” сўзларидан бошланади. Биз ота-оналар, тарбиячи, мураббийлар анашу саломлашиш одобини қанчалик ёш авлодга сингдириб, кўникма малакага айлантирсак, муомала маданияти ҳам чиройли чиқади. Устозларнинг шоғирдлар саломига алик олмаслиги уни лоқайдлигини ифодалайди.

Ўзбекистонда муомала одобининг зийнати фақат самимий саломлашишдагина эмас, айтиш мумкин бир-биримизга сизлаб мурожаат қилишда ҳамдир.

Шарқ маданияти ва анъаналари руҳида ота-оналар, ўқитувчилар, тарбиячилар фарзандларга сизлаб муомала қилсак бир-биримизга самимий ҳурмат ва эҳтиромда бўламиз. Таълим-тарбия борасида Шарқ халқлари қадимданмуомала маданиятига жуда катта эътибор берганлар. Бугунги кунимизда ҳам бу муаммо ўз аҳамиятини йўқотгани йўқ. Халқимизнинг қадимги урф-одатлари, анъаналари ва муомала одоби ҳисобланган меросини ўрганиш мустақиллик маданиятини шакллантиришнинг энг асосий шартларидан биридир.

Шуни айтиш керакки узлуксиз таълим тизимида ўқитувчи профессорлар ўқувчиларга, талабаларга ўз фани бўйича асосий вазифа билим бериш деб, ҳисоблайдилар аммо, таълим ҳаётга боғланмаса у тарбиявий асослар билан изоҳланмаса, тингловчилар онгига кириб бормайди. Таълим ва тарбияни миллий маданиятдан ажратган ҳолда йўлга қўйиш инсонларни ажодлар меросидан насл-насабидан узоқлаштиришга олиб келади. Айниқса ўз-ўзини англашнинг шаклланмаслиги миллий маданий масалалар юзасидан ҳеч нарсани билмаслик миллий худбинликнинг юзага келишига сабаб бўлади. Шу боис биз юқорида санаб ўтган сифатларни шакллантиришда ҳадислар, буюк боболаримиз Имом Бухорий, Имом Термизий, А.Навоий каби кўплаб буюк зотларнинг билимдонлиги, ғоят ҳалол ва поклик ҳақида ғоялари бугунги ижодкор ўқитувчиларимизга дастури амал бўлиб келмоқда. [3]

Ислом динининг муқаддас китоблари – Қуръони Карим ва Ҳадиси Шарифда таъкидланган ота-онага ҳурмат, меҳр-муҳаббат, эъзоз, моддий ва маънавий ёрдам, қариндош уруғлару, дўст-биродарларга оқибат ҳақидаги ғоят қимматли ўғитлар ёш авлод онгига сингиб борса, бундан жамиятимиздаги кўплаб муаммолар ўз-ўзидан ечилиб бошлайди, жамият аъзоларининг янгича дунёқараши шаклланади ва мулоқот маданияти ҳам янгича тус олади.

Ўзбек халқи мулоқотида ҳам бошқа миллатлар каби мақтов, эркалатиш, кўнгилликўтариш, кўплаб сўзлар ва иборалар борки уларни маданият даражасида ўрганиб инсон руҳиятига мослаштириб, мулоқот қилса доимо суҳбатлар мазмунли, мақсадли, ижобий самара беради. Республикаимиз ўқитувчилари орасида ўз ишининг устаси, халқ ўқитувчиси, хизмат кўрсатган ўқитувчи деб тановинган, ота-оналар, ёшлар эъзозлаб устоз деб атайдиган мўътабар инсонлар кўплаб топилади. Улар педагогик ишда фидойилик билан ўқитувчилик бурчини ҳалоллик, гўзаллик, ҳақиқат, одоб-ахлоқ нуруни сингдира олганликларихуш муомала бўлганлари учун ҳам бундайобрў ва ҳурматга эришганлар. Баркамол ижодкор шахсни шакллантиришга, тарбиялашга доир ахлоқий меъёрлар педагогик этикада ифодаланган. Тарбияланувчига ижобий таъсир ўтказиш шартларидан бири ўқувчи талабага ишонч билан унга нисбатан талаблар бирлигида. Бу қоида педагогик амалиётда кўп синалгандир.

Ўқитувчилар талабалар билан ўтказилган суҳбат нагизалари шундан далолат берадики таълим масканларида хушмуомалали ўқитувчилар билан бир қаторда талабаларга беҳуда дўқ уриб, бақариб муомала қиладиган ўқитувчилар ҳам учрайди. Бундай муомала жамиятда қабул қилинган умуминсоний ва миллий ахлоқий меъёрларга тўғри келмайди. Бундай ўқитувчилар талабалар ўртасида обрў орттира олмайдилар. Ўқитувчи характерида қалбдан меҳрибонлик, талабчан

бўлиши шарт. Бу унинг муваффақиятли ишлашининг биринчи шarti. Дастлабки энг юксак талабларни ўқитувчи ўзига тақдим қилиши керак, чунки ўзингда йўқ нарсани бировлардан талаб қила олмайсан. Педагог талабчанлиги билан бирга оқилона тарбиячи бўлиши ҳам лозим. Педагогик жараёнларда бўлиб турадиган кескинликларни холис қилиш учун тарбиячига хазил мутойиба туйғуси ёрдам беради. “Қувноқ педагог хўмрайганидан кўра, яхшироқ ўқитади” деб, бекорга айтилмаган. Унинг кўламида тайёр хазил, мақол, яхши, дўстона пичинг-ижобий эмоционал холат яратишга ёрдам беради ва ўқувчиларни ўзга вазиятга кулгили томондан қарашга имконият беради. [4]

Ўзбекона муомала одоби айниқса хотин-қизларимизга нисбатан ҳар томонлама ҳар қандай шароитда ҳам кўпол муносабатда бўлмасликни тақозо этади. Шу боис Расули икром “Тангри аёллар билан яхши муомалада бўлишларингизни тавсия этади чунки улар қизларингиз, жуфти ҳалолларингиз, опа сингилларингиздир” деб таълим берганлар.

Муомала одоби яна шуни тақозо этадики ҳар бир киши бошқалар томонидан иззат-икром ва ҳурмат қилишларини истар экан у бошқаларнинг ҳам ҳурматини жойига қўйиши керак. Хулоса сифатида мен кўп йиллик педагогик тажрибага эга бўлган устоз сифатида ўз касбдошларимга шогирдларимга бугунги ёшлар билан чиройли муомалада бўлиб, уларга маданий муносабатда бўлишга даъват қиламан зеро ёшлар бизнинг келажагимиздир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев. 2019 йил учун мўлжалланган энг муҳим устувор вазифалар ҳақидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Тошкент, 28.12.2018

Ш.М.Мирзиёев “Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз”. Тошкент “Ўзбекистон”-2017 йил.

Х.Ж.Худойкулов “Ўзбекистон ғурури унинг одобида” Тошкент “Фан” нашриёти 2008 й

Х.Ж.Худойкулов, А.Э.Кенжабоев Педагогик маҳорат асослари ўқув кўлланма. Тошкент 2013 йил.

ПАХТАНИ МАЙДА ИФЛОСЛИКЛАРДАН ТОЗАЛОВЧИ ТОЗАЛАГИЧНИНГ КОНСТРУКЦИЯСИДАГИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР ТАХЛИЛИ

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.85.31.056>*Кулмуминов Олимжон Хуррамович
Термиз давлат университети уқитувчиси*

Аннотация: Мақолада Пахтадан майда ифлосликлардан ажратувчи барча тозалагичлар бир хил йўсинда ишлайди, пахта қозиқчали барабанларда титкиланиб ғалвир юзли сиртлар орқали ҳаракатлантирилади. Бу жараён бир неча маротаба такрорланади ва пахта майда ифлосликлардан тозаланади. Тозаланиш самарадорлиги қозиқчали барабанлар айланиш сонига, унинг конструкциясига, ғалвир юзасига ва пахтанинг сифат кўрсаткичларига боғлиқ.

Калит сўзлар: Пахта, қозиқчали барабан, ғалвир, тозалагич, тозаланиш самарадорлиги, сифат кўрсаткичлари, жараён, қопламалар дисклар, болт-гайкалар.

АНАЛИЗ ТЕХНОЛОГИЙ ПОСТРОЕНИЯ ХЛОПКОВОГО ОЧИСТИТЕЛЯ

*О.Х.Кулмуминов
Термизский Государственный Университет*

Аннотация: В статье все чистящие средства, отделяющие мелкие загрязнения от хлопка, работают одинаково, хлопок натирается на ворсовых барабанах и перемещается по гладкой поверхности. Этот процесс повторяется несколько раз, и хлопок очищается от мелких загрязнений. Эффективность очистки зависит от количества оборотов барабана, его конструкции, поверхности сита и качества хлопка.

Ключевые слова: хлопок, колышковый барабан, сито, очиститель, эффективность очистки, показатели качества, процесс, покрытие дисков, болты-гайки.

ANALYSIS OF TECHNOLOGIES IN THE CONSTRUCTION OF A COTTON CLEANSER CLEANER

*О.Х.Kulmuminov
Termiz State University*

Abstract: In the article, all the cleaners that separate the cotton from the fine impurities work in the same way, the cotton is rubbed on the pile drums and moved through the smooth surface. This process is repeated several times and the cotton is cleaned of fine impurities. The cleaning efficiency depends on the number of revolutions of the pile drums, its construction, the surface of the sieve and the quality of the cotton.

Keywords: Cotton, pile drum, sieve, cleaner, cleaning efficiency, quality indicators, process, coating discs, bolt-nuts.

Пахтани майда ифлосликлардан тозалаш муҳим жараён ҳисобланиб, уни кейинги босқичда қайта ишлаш, яъни жинлаш ва толани тозалаш жараёнларига катта таъсир этади. Агар майда ифлосликлар етарли даражада тозаланмаса у пассив ифлосликдан актив ифлосликга ўтади ва тола тозалагичда ажралиши қийинлашади. Пахтадан майда ифлосликларни ажратувчи барча тозалагичлар бир хил йўсинда ишлайди: пахта қозиқчали барабанларда титкиланиб ғалвир юзли сиртлар орқали ҳаракатлантирилади. Бу жараён бир неча маротаба такрорланади ва пахта майда ифлосликлардан тозаланади. Тозаланиш самарадорлиги қозиқчали


барабанлар айланиш сонига, унинг конструкциясига, ғалвир юзасига ва пахтанинг сифат кўрсаткичларига боғлиқ.

Титувчи қозикчали барабанларнинг айланиш сони пахта чигити механик шикастланиши ўсиши, ғалвир юзасининг майдони эса пахтанинг ифлос аралашмалар таркибига ўтиши билан чегараланган.

Ўтган асрнинг 40-йилларида ўрта ва ингичка толали пахтани майда ифлосликлардан тозалаш учун диаметри 400 мм. бешта титувчи барабани бўлган ХЧЕ русумидаги тозалагичлардан фойдаланилган. Биринчи барабан шпагат ип ушловчи узун қозикли барабан, қолганлари эса қозикли-парракли барабан бўлган. Ҳар бир барабан тагида колосникли ғалвир ўрнатилган. Титувчи барабанлар айлана тезлиги 500 мин-1, ишлаб чиқариш унумдорлиги

5-6 т/соат, тозалаш самарадорлиги 30 %.


Кейинги тозалагичлар ОХБ10 да (1-расм) ҳам қозикли-парракли барабанлар ишлатилган. Тозалаш самарадорлиги 60% га эришилган. Тозалагич ингичка толали пахталарни тозалаш учун ишлатилган. Ўрта толали пахталар эса 6А-12 шнекли тозалагичларда тозаланган [1].



1-расм. ОХБ-10 тозалагичи

1-таъминлагич, 2-қозикли – парракли барабан, 3-ғалвирли юза


Ундан кейин қозикли-парракли саккиз барабанли СЧ тозалагичи ўрта ва ингичка толали пахтани тозалашга ишлатилган. Бу тозалагичларда колосникли панжара ва юзасида 6x50 мм тешиклари бўлган ғалвир қиёсий ўрганилганда улар ўрнатилган тозалагичларда тозалаш самарадорлиги бир хил эканлиги аниқланган. Шунинг учун кейинги барча майда ифлосликни тозалагичларда юзасида 6x50мм тешиклари бўлган ғалвирлар ўрнатилган. СЧ тозалагичида барча саккизта тозаловчи барабан бир асосга ўрнатилган, шу сабабли кейинги оқим йўналиши пахтани майда ифлосликлардан тозаловчи тозалагичларни йиғишни осонлаштириш учун таркибида бир жуфт қозикли-парракли барабан бўлган ЕН 178 русумли бўлинма яратилди. (2-расм) Бу бўлинмалардан тўрттаси йиғилиб СЧ тозалагичга ўхшаш ІХК русумидаги (3-расм) саккиз барабанли тозалагич ишлаб чиқарилди. ЕН 178 бўлинмаларнинг қулайлиги улардан фойдаланиб ҳоҳлаган сонли қозикли-парракли барабанга эга майда ифлосликлардан тозаловчи тозалагич ҳосил қилиниши мумкин. Бу бўлинмалардан УХК агрегатида ҳам фойдаланилган.



2-расм. EH 178 русумли тозалагич бўлинмиси

1-рама, 2-қозикли-парракли барабан, 3-ғалвир


Таҳлилдан кўриниб турибдики, узок йиллардан буён майда ифлосликдан тозаловчи ХЧЕ, ОХБ-10, СЧ, 1ХК тозалагичларида бир хил қозикли-парракли барабанлар ишлатилиниб келиняпти.



3-расм. 1ХК тозалагичи

1-бошланғич меъёрлаштирилган қозикчали бўлим EH.178.01 (таъминловчи валиклар билан); 2,4-устун, 3-меъёрлаштирилган қозикли-парракли бўлим EH.178.02, 5-бункер

Унинг конструкцияси (4-расм) вал (1), диск (2), қопламадан (3) ташкил топган. Қоплама (3) қобирғасимон бўлиб, бу қобирғаларнинг ўртасига 150 мм. қадамларда 75 дона қозикчалар пайвандланган. Барабанда қопламалар сони тўртта. Шу ҳисобдан барабанда жами 300 дона қозикча бор. Қопламалар дисklarга ва бири-бирига болт-гайкалар ёрдамида маҳкамланган. Улар маҳкамланган жойда барабан периметри бўйича паррақлар ҳосил бўлган. Шу муносабат билан бу тозалаш барабанлари қозикчали-парракли барабан деб номланган. Бу барабанларнинг асосий камчилиги уларни тайёрлаш технологиясининг мураккаблиги ва эксплуатация жараёнида қозикчаларнинг қобирғаларга пайвандланган жойдан ажралиб кетиши оқибатида тез-тез алмаштиришдир.



4-Расм. Қозикли-парракли барабан.

1-вал, 2-диск, 3-қобик 4-қозикча, 5-болт, 6-болт,гайка

Қозикчалар тез-тез алмаштирилиши оқибатида қоплама ўз ҳолатини йўқотади ва уни ҳам алмаштириш зарур бўлади. Ундан ташқари қобирғаларда ҳосил бўлган тешиклардан барабан бўшлиғига ифросликларнинг кириши оқибатида барабаннинг динамик мувозанати бузилади ва барабан вали подшипник ўрнатилган қисм ейилади, подшипник ишдан чиқади. Бу ҳолатлар эса эксплуатация харажатларнинг ошишига сабаб бўлади. Шу сабабли қозикли-парракли барабан конструкциясидаги камчиликларни ҳисобга олган ҳолда янги титиш барабанларни ўрганиш илмий изланишнинг йўналишларидан биридир.

Адабиётлар:

1. Джаббаров Г.Д и др. Первичная обработка хлопка. Москва. “Легкая индустрия”. 1978
2. Зикриёев.Э.З Пахтани дастлабки ишлаш. Тошкент, “Меҳнат”, 2002 й



MILLIY HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA RANGLARNING TUTGAN O'RNI

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.44.38.055>

Muhamadiyeva Nargiza Qudratovna

Termiz davlat universiteti Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta'lim) mutaxassisligi magistranti

Annotasiya: Maqolada milliy hunarmandchilikni rivojlantirishda ranglarning tutgan o'rni, ahamiyati va jihatlari yoritilgan. Davlatning rivojlanib taraqqiy etishida texnologiya fanining muhim o'rni haqidagi fikrlar bayon qilingan. Ranglar insonda ichki his uyg'otish orqali hunarmandchilik sohasini rivojlantirish, hunarmandchilik kasb egalarini kengaytirilishi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: hunarmandchilik, rang, qiziqish, texnologiya fani, ta'lim, tarbiya, hunar, konikma, malaka, kasb.

РОЛЬ ЦВЕТОВ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ РЕМЕСЕЛ

Мухамадиева Нургиза Кудратовна

Магистрант Термезского государственного университета по специальности Теория и методика обучения (технологическое образование)

Аннотация: В статье освещаются роль, значение и аспекты цвета в развитии национальных ремесел. Изложены мысли о важной роли науки о технологиях в развитии государства. Цвета символизируют расширение ремесленной профессии, развитие ремесленной сферы за счет пробуждения внутреннего чувства в человеке.

Ключевые: ремесло, цвет, интерес, наука о технике, образование, воспитание, ремесло, навык, квалификация, профессия.

THE ROLE OF COLORS IN THE DEVELOPMENT OF NATIONALCRAFTS

Mukhamadiyeva Nargiza

Termez state university, Theory and methods of education (Technological education) specialty master

Abstract: The article discusses the role, importance and aspects of colors in the development of national crafts. Thoughts on the important role of technology in the development of the country are presented. It is said that colors evoke an inner feeling in a person, develop the craft industry, and expand the craft profession.

Keywords: Crafts, colour, interest, technology science, education, craft, skill, profession.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning ta'kidlashicha, "Biz yoshlarimizda tadbirkorlik tashabbusini rivojlantira olsak, ularga mablag'lardan to'g'ri foydalanishni o'rgatsak, nafaqat iqtisodiy, balki ko'plab ijtimoiy muammolarni ham hal etgan bo'lamiz" [1, 23].

Shunday ekan, har bir yoshlarimizning tadbirkorlikka, hunarmandchilikka bo'lgan qiziqishini uyg'otishda hunarmandlarimizning yasagan, tayyorlagan, tikkan hunarmandchilik mahsulotlariga bo'lgan qiziqishini mahsulotlardagi ranglar ham zavqlantirib qiziqish uyg'otish mumkin.

Rang insonda ko'zlar vositasida, yorug'lik ta'sirida tashqi qo'zg'atuvchanlikni vujudga keltiradigan hissiyotdir. Uning vazifasi, insonning atrofini o'rab turadigan muhitda qulay va yoqimli holatni vujudga keltirishda muhim ahamiyatga egadir. Rang inson hissiyotiga yeng kuchli ta'sir etuvchi vositadir. Hayotiy tajriba, tarixiy rivojlanish,

tabiat o'zgarishi va atrof-muhitga bog'liq holda, har bir xalq o'zining sevimli rang uyg'unliklariga egadir. Bu ularga xos rang uyg'unliklar ularning kiyimlari va interyerlarida aks etadi Ushbu an'analar shunchalik chuqurlikka egaligi bizga sharoit, insonlarning turmush tarzi va ish faoliyatlari o'zgargan taqdirda ham, hozirgi zamonda o'z mavqeini umuman yo'qotmaganligidan dalolat beradi. [2, 63].

Insonda ranglar ichki hissiyot, zavq shu bilan birga istedod ham iyg'otish mumkun. Buning uchun hunarmand yaratgan mahsulotida ranglarning tanlanishini, o'rmini to'g'ri tanlay olishi lozim. Buning uchun tadbirkor hunarmand o'z ishining mohir ustasi bo'lishi lozim. Tabiatda uchraydigan barcha ranglar ikki guruhga bo'linadi. Ular axromatik ranglar va xromatik ranglar guruhidan iborat. Axromatik ranglarga qora, kulrang, oq ranglar bir-biridan oqishlik bilan farq qiladigan ranglar

hisoblanadi Xromatik ranglar esa tusi oqishlik va to'yinganligi bilan farq qiladigan rang bo'lib, uning spektrida inson ko'zi 150 ga yaqin ranglarni farqlay oladi. Quyidagi ranglar spektr ichida namoyon bo'luvchi xromatik ranglardir-qizil, qizg'ish-olov rang, olov rang, sarg'ish olov rang, sariq, sarg'ish-yashil, yashil, yashil-moviy, moviy-ko'k, ko'k binafsha va binafsha ranglardan iborat. Ilmiy tadqiqotlarga qaraganda olov rang, qizil ranglar asab tizimini to'lqinlantiradi, nafas olish va yurak urushini tezlashtiradi, muskul tizimi ishlashini faollashtiradi. Ko'k va binafsha ranglar inson asab tizimiga tormozlantiruvchi hissiyot bag'ishlab, nafas olishni va yurak urushini sekinlashtiradi. Bu ranglar shartli ravishda sovuq deb ataladi, chunki ular chuqur va sovuq hissiyotlarni baxsh etadi. Bundan tashqari ranglar iliq ranglarga ham ajratiladi, ko'rinib turibdiki ranglarning tutgan o'rni juda katta ahamiyatga ega. Ular inson hissiyotiga ta'sir etayotgan ba'zi ranglar bizning turmush tarzimiz, rasm-rusumlarimizning shartli ma'nolariga ega bo'lib qolgan. Masalan qizil-jo'shqinlik, faollik; Qora-motam va tushkunlik ramzi.

Oq-poklik, tozalik, soflik bo'lib davlatimiz bayrog'ida ham o'z aksini topgan. Shuningdek, bayrog'imizda moviy va yashil ranglar ham aks etib, ularning ham millatimiz bilan bog'liq ramziy ma'nolari mavjud[8].

Asosiy yoki bosh rang deb ko'k, sariq va qizil ranglar olinadi, chunki ularni rang aralashtirish yo'li bilan hosil qilib bo'lmaydi. Qolgan barcha ranglar oraliq ranglar ya'ni ranglar aralashmasi hisoblanadi. Bu bilimlarga ega bo'lish va ularni amalda qo'llay olish uchun texnologiya fanining ahamiyati muhim rol o'ynaydi.

Hunarmandchilik mahsulotlaridan kashta juda katta tarixiy taraqqiyotga ega. Kashtada ranglar joy-joyiga to'g'ri tanlangan bo'lsa, xuddi tabiiyday, jonliday bo'lsa, tirikday tasvirlangan bo'lsa, buni ko'rgan inson men ham shunday tirikdayin, jonlidayin chiqaraman deb o'zi bilmagan holda hunarmandchilikka qiziqib shu sohaga kirishib ketib o'z hunarining mohir ustasi bo'lib yetishib chiqadi. Bundan ko'rinib turibdiki kasb-hunar egallashiga ranglar sababchi bo'lishi lozim ekan. Rang birikmalarini hosil qilish. Rassom tamoshabinda ma'lum bir rangda bo'lgan hissiyotni uyg'otishda, o'z sifatidagi kerakli rang-tusini yaratish uchun, ranglarni tuzish va ularni qo'shish mahoratidan voqif bo'lishi kerak. rassom rangshunoslik amaliyoti ko'nikmasiga ega bo'lishi shart.

Rangshunoslik amaliyotida rang birikmalarini hosil qilish quyidagi usullar orqali hosil bo'ladi.

1. Bo'yoqlarni mexanik aralashtirish rangli bo'yoqlarni bevosita aralashtirish yoki bir rang ustiga ikkinchi rangni yotqizish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda bo'yash zarralari bir-biri bilan mexanik tarzda aralashib ketadi. Masalan, ko'k va sariq ranglar aralashmasi yashil rangni hosil qiladi.

2. Optik aralashtirish ko'z to'r pardasidagi ikki va undan ortiq ranglarning birlashib turishidan, bir rang hosil bo'lganday tasavvurga ega bo'lishga aytiladi. Bunday aralashtirish usuli masalan: rangli pirpirakni aylantirish yo'li bilan amalga oshiriladi. [2, 65].

O'zbekistonda hunarmandchilik chuqur ixtisoslashgan bo'lib, o'zida xilma-xil kasbkorlarni birlashtirgan. Masalan, terini qayta ishlash sohasida ko'nchilar, etikdo'zlar, maxsido'zlar, kovushchilar, egar-jabduqchilar, telpakchilar, po'stinchilar, kamarchilar,

to'qimachilik sohasida bo'zchilar, atlaschilar, gilamchilar, sholcha va namatchilar; metallni ishlash sohasida temirchilar, taqachilar, misgarlar, chilangarlar, zargarlar kabi kasblar bo'lgan. Bular hunarmandchilikning tarmoq strukturasi belgilagan.

Sharqdagi musulmon ustaxonalarida bo'lgani kabi O'zbekistonda chevarlik, kashtachilik bilan ayollar uyda o'tirib shug'ullanishgan. Hunarmandchilikning ijtimoiy strukturasi usta, xalfa va shogird kabi ijtimoiy toifalar mavjud bo'lgan. Hunarmandchilikning ichki tartib va qoidalarini uning nizomi sifatidagi «Risolarlar» belgilab bergan. Har bir kasbning o'z rahnamosi, ya'ni piri va «Risolasi» bo'lgan, avloddan-avlodga o'tuvchi odatlari va udumlariga rioya etilgan. Masalan, ish boshlashdan oldin usta o'z pirini yodga olib undan madad so'rash, shogirdiga fотиha berish kabi odatlarga amal qilgan.

O'zbekiston Rossiya mustamlakasiga aylangach, hunarmandchilik metropoliya sanoatining raqobatiga duch kelib, o'zining ilgari mavqei yo'qotgan bo'lishiga qaramay, uning ko'p tarmoqlari saqlanib qoldi, chunki u milliy ehtiyojni qondiradigan mahsulotlarni, chunonchi, kiyim-kechak, idish-tovoq, turli uy-ro'zg'or buyumlari, mayda mehnat qurollarini yaratib, ularni mahalliy bozorga yetkazib berdi. Hunarmandchilikning yashovchanligini ta'minlashda chet eldan keltirilgan xom ashyo, materiallar, kichik uskunarlar muhim rol o'ynadi. Masalan, AQShdan keltirilgan teri bo'yog'idan foydalanib ko'nhilar amirkon deb nomlangan yupqa charm ishlab chiqara boshladi. Shu munosabat bilan amirkon etik, mahsi va kovushlar paydo bo'ldi. Germaniyadan «Zinger» firmasining tikuv mashinalari keltirilishi bilan tikuvchilik (chevarlik) keng yoyildi.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng hunarmandchilik rivojida yangi davr boshlandi, xalq hunarmandchiligi bozor qoidalari zahirida qaytadan tiklandi. O'zbekistonda mahalliy sanoat korxonalarining birinchilar qatori xususiylashtirilishi natijasida mayda davlat korxonalari hunarmandlarning xususiylashtirilishiga aylantirildi, yangi hunarmandchilik korxonalari ochildi. Hunarmandchilik faqat ichki bozorga emas, balki eksportga ham ishlay boshladi. Hunarmandchilikning tashkiliy shakli ham o'zgardi: kichik oilaviy korxonalar, yakka tartibdagi mehnat faoliyati shaklida rivojlana bordi. 1995 yil 24—25 oktabrda Toshkentda BMTning O'zbekistondagi doimiy vakolatxonasi bilan amaliy hamkorlikda O'zbekiston xalq ustalari va hunarmandlari 1-Respublika yarmarkasi o'tkazildi. 1997 yilda respublika xalq amaliy san'ati va hunarmandlari ustalarining «Usto» ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi tashkil topdi.

Xulosa o'rnida shunday fikr bildira olaman. Bizning kelajagimiz bo'lgan yosh avlodga texnologiya fani maktab yoshidan boshlab o'tilishi o'quvchini hayotiy bilimlarini rivojlantirib, o'z o'rnini topishida juda katta ahamiyatga egadir. Hunarmandchilik qilib ro'zg'or tebratib qolmasdan, balki kashta tikish orqali sabr, bardosh, milliy urf odatlarimiz orqali esa ibo, hayo, tortinish, uyalish hislarini shakllantiradi. Texnologiya ta'limini mukammal egallagan yoshlari bor yurt hech qachon qashshoq bo'lmaydi, sababi bu yoshlarda ijodkorlik, yaratuvchanlik malakalari shakllangan bo'ladi. Qizlarimiz ro'zg'origa kerakli buyumlarni o'zlari yaratib ro'zg'orini but qilishga harakat qiladi. Yo'qdan bor qilish bilim, ko'nikma, malakasiga ega bo'ladi. Qolaversa hunarining o'z ustasi bo'lib, ishbilarmon, tadbirkor boladi.

Hunarmandlarimiz ish o'rnini yaratib ishsizlikning oldini olmoqda Texnologiya fani Davlatning rivojlanishi uchun zarur va o'qitilishi shart bo'lgan muhim fan hisoblanadi.

Адабиётлар:

1. Shavkat Mirziyoyev Bilimli avlod-buyuk kelajakning, tadbirkor xalq-farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir.

Toshkent:—"O'zbekiston"—2019. B.23.

2.S.Sh. Tashpulatov, M.K. Ramazonova, G.G'.Alimova, Sh.G. Jo'raeva. "Keng assortimentdagi kiyimlarni loyihalash, modellash va badiiy bezash". "Faylasuflar" nashriyoti Toshkent- 2016. B.63,65.

**TEKNOLOGIYA TA'LIMIDA RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM
TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.44.32.054>

Maxmudov Yusup Ganievich

Termiz davlat universiteti texnologik ta'lim kafedrası professori,
pedagogika fanlari doktori

Annotatsiya: Maqolada muallif maktab texnologiya ta'limida mehnat va kasb ta'limiga oid ayrim mavzularni o'tishda ularni matematika, fizika, biologiya kabi fanlarga, shuningdek, qishloq ho'jaligi va texnika sohasiga oid amaliy ko'rinishdagi masalalarni yechishning mazmun-mohiyatini yoritib bergan.

Tayanch so'zlar: maktab, pedagog, o'quvchi, ta'lim, tarbiya, texnologiya, metod, rivojlantiruvchi ta'lim, amaliy, masala, ko'nikma, kasb, samaradorlik.

**МЕТОДОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕРЕДОВЫХ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ
ОБРАЗОВАНИИ**

Махмудов Юсуп Ганиевич

Профессор кафедры технологического образования Термезского
государственного университета, доктор педагогических наук

Аннотация: В статье автор описывает содержание решения некоторых практических тем в трудовом и профессиональном образовании в школьном технологическом образовании, таких как математика, физика, биология, а также практических задач в области сельского хозяйства и техники.

Ключевые слова: школа, педагог, ученик, образование, воспитание, технология, метод, развивающее обучение, практика, проблема, умение, профессия, эффективность.

**METHODOLOGY OF USING ADVANCED EDUCATIONAL
TECHNOLOGIES IN TECHNOLOGICAL EDUCATION**

Maxmudov Yusup Ganievich

Associate Professor of Technological Education, Termez State University, Doctor
of Pedagogical Sciences

Abstract: In the article, the author gave an insight into the essence of solving some of the topics related to Labor and vocational education in school technology education in such subjects as mathematics, physics, biology, as well as practical issues in the field of rural economics and technology.

Keywords: school, teacher, pupil, education, education, technology, method, developing education, practical, issue, skill, profession, effectadorlik.

“Pedagogik atamalar ro‘yxati”da “rivojlanish” va “rivojlantiruvchi ta’lim” atamalariga quyidagicha ta’rif berilgan:

“Rivojlanish – individning tug‘ilganidan boshlab hayotining so‘ngigacha davom etadigan shakllanish jarayoni” [11,166].

“Rivojlantiruvchi ta’lim – har bir o‘quvchi yoki talabanning ta’lim vositasida bir sifat bosqichidan ikkinchisiga o‘tishini ta’minlovchi jarayon; har bir o‘quvchining imkoniyatini hisobga olgan holda o‘qitish jarayoni”¹.

“Pedagogika: 1000 savolga 1000 javob”² kitobida esa rivojlantiruvchi ta’limning xususiyatlari quyidagicha ochib berilgan: “Rivojlantiruvchi ta’lim o‘quvchilarning ichki imkoniyatlarini oshirish va ularni ro‘yobga chiqarishga yo‘naltiriladi. Rivojlantiruvchi ta’limda, ko‘proq, treninglardan foydalaniladi. Treninglar ta’lim oluvchilarda muayyan

bilimlarni puxta o'zlashtirish, ularni amaliyotda samarali qo'llay olishga doir ko'nikma-malakalarni shakllantirishga, bu jarayonda ularning imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida rivojlantiruvchi ta'limni qo'llashda taqdimotlardan ham samarali foydalanish tajribasi to'plandi. Mazkur metod ta'lim oluvchilarda o'quv faoliyatini tashkil etishga ijodiy yondashish, o'z ustida ishlash, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini ham rivojlantirishga yordam beradi"³.

“Texnologiya” fani bo'yicha yangi bilimlarni berish, mehnat ko'nikmalarini shakllantirish darslarida trening usulini qo'llash. “Texnologiya” fani mashg'ulotlarida o'quvchilarga mexanizmlar haqida ham tushunchalar berishga to'g'ri keladi. Bunday darslarni treninglardan foydalanib, quyidagicha tashkil etish mumkin. Mashg'ulotni o'qituvchi aqliy hujum usuli bilan boshlaydi: “Detal nima?”. O'quvchilarning javoblari xattaxtaga yoziladi va tayanch so'zlar tagiga chizilib, umumiy qoidalar ishlab chiqiladi: “Mashina va mexanizmlarning boshqa tarkibiy qismlarga bo'linmaydigan yaxlit qismlari detal deb nomlanadi”. Shundan so'ng o'qituvchi qatnashchilarni uchta kichik guruhga bo'ladi, birinchi guruh “O'q nima?”, ikkinchi guruh “Val nima?”, uchinchi guruh “Shpindel nima?” degan savollarga 2 daqiqa davomida javob topishlarini va har bir guruhdan bir o'quvchini gapirib berishini iltimos qiladi. O'quvchilar javob berib bo'lganlaridan so'ng o'qituvchi stanok va chizmalar yordamida o'q, val va shpindel haqida batafsil ma'lumot beradi.

O'quvchilar charchab qolmasliklari uchun orada o'yin o'tkaziladi. O'qituvchi o'quvchilarga to'p otib biror-bir narsaning ma'nosini so'raydi, o'quvchi esa zudlik bilan javobini aytib to'pni qaytarib otishi lozim. Misol uchun “Tipik detal nima?”, “Maxsus detal nima?”, “O'q nima?” va h. O'yin oxirida “Mexanizm nima?” deb so'raydi va javobsiz qolgan to'pni olib, keyingi mashg'ulotni boshlaydi. O'qituvchi o'quvchilarga savol beradi: “Mexanizm deganda nimani tushunasiz?”. Javoblar xattaxtaga yoziladi va umumlashtirib ta'rif ishlab chiqiladi: “Yetaklovchi va yetaklanuvchi zvenolardan tashkil topgan hamda harakatni uzatuvchi mexanik qurilmalar mexanizm deyiladi"⁴.

Shundan so'ng darsning ikkinchi qismi boshlanadi. Bunda o'qituvchi qatnashchilarni ikki guruhga bo'ladi va “Mashina deganda nimani tushunasiz?”, “Mashina qanday qismlardan tashkil topgan bo'ladi?” kabi savollarga javob topishlarini so'raydi. Guruhlar tayyor bo'lgach, javoblar muhokama qilinadi va o'qituvchi o'quvchilar yo'l qo'yan xatolarni tuzatadi, qo'shimchalarni kiritadi hamda darsni yakunlaydi.

Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar dars yakunida baholanadi. Berilgan savollarga eng ko'p to'g'ri javob topgan guruh g'olib hisoblanadi. Dars davomida g'olib guruhni aniqlash uchun alohida yasalgan belgi-emblemalardan foydalanish mumkin. Maxsus tayyorlangan belgilar guruhlariga beriladi va dars yakunida yig'ilgan belgilar hisoblanadi, shular asosida ball beriladi. Shuni ta'kidlab aytish lozimki, o'quvchilar kichik guruhlarda ishlaganlarida o'qituvchi ularga yo'llanma berib, xatolarini to'g'rilashga yordam berib borishi lozim.

Mavjud ma'lumotlar asosida istiqbolni belgilash (aniqlash) metodi. Bu tarixiy va hozirgi paytda mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosida buyum, mexanizm va mashinani kelgusida qanday ko'rinishda bo'lishini tasavvur qilish, qanday tamoyillar asosida ishlashi va ishlatilishini aniqlashda qo'l keladi. Buning uchun, masalan, quyidagi ko'rinishlardagi jadvallardan foydalanish mumkin:

Nomi	Bor edi, bo'lgan edi (tarixiy ma'lumot)	Hozir mavjud	Kelgusidagi holati
Ruchka	Cho'p, pat, siyohli ruchkalar	Sharikli ruchkalar	Elektron ruchkalar
Soat	Qum, mexanik, elektron	Mexanik, elektron	?
Televizor	Lampali	Mikrosxemali	?
Kompyuter monitori	Elektron nurli	Elektron nurli, plazmali	?
...	?

“Agar men...” metodi. Bunda o‘quvchilardan ma’lum bir kasb kishisi sifatida shu sohaga oid muammolarni qanday bartaraf etishi mumkinligi haqida o‘z fikrlarini bildirishlari so‘raladi. Masalan, “Agar men avtokonstruktor bo‘lganimda... mashinani yaratgan bo‘lar edim” (Agar men avtokonstruktor bo‘lganimda tog‘larda ham yura oladigan mashinani yaratar edim. Buning uchun mashinaga vertolyotni harakatlantiradigan tizimni qo‘llar edim). “Agar men aviakonstruktor bo‘lganimda... samolyotni yaratar edim” [7, B.42] va h.k. Bu usulning eng afzal tomoni shundaki, bunda o‘quvchilarning xayolot (fantaziya), taqqoslash, tasavvur qilish qobiliyatlari tez rivojlanadi.

“Texnologiya” fani darslarida amaliy ko‘rinishdagi matematik masalalardan foydalanish. Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi “Texnologiya” fani, kasb-hunar kollejaridagi kasb ta’limi darslarida amaliy ko‘rinishdagi matematik masalalarni yechish bu fanni o‘qitishda o‘quvchilar tomonidan tez va oson o‘zlashtirilishini ta’minlovchi omillardan biridir. Ayniqsa, mehnat va kasb ta’limiga oid ayrim mavzularni o‘tishda ularni matematika, fizika, biologiya kabi fanlarga, shuningdek, qishloq ho‘jaligi va texnika sohasiga oid masalalarni yechish bilan bog‘lab olib borilsa o‘quvchilarning bu fanlarni o‘zaro bog‘liq holda o‘rganishlari uchun qulay imkoniyatlar yaratiladi. Shu maqsadda biz quyidagi bir necha masalani tavsifiya etamiz.

1-masala. Tomonlari 15 sm bo‘lgan kvadrat ko‘rinishdagi to‘sin tayyorlash uchun yog‘ochning ko‘ndalang kesimi, ya’ni diametri yoki aylana uzunligi kamida qancha bo‘lishi kerak? (4-rasm).

Berilgan: $AB=BC=CD=DA=15\text{sm}$.

A

B

Topish kerak: $BD=d=?$


Yechish: Pifagor teoremasiga asosan:

$$d = \sqrt{a^2 + a^2} = a\sqrt{2}$$

Bu yerda $a=15\text{ sm}$.

D

Uni o‘rniga qo‘ysak: $d=15 \times 1.41=21,15 \sim 21,2$



Demak, tomoni 15 sm bo‘lgan kvadrat ko‘rinishdagi to‘sin tayyorlash uchun yog‘och (xoda) ning diametri kamida 21,2 sm bo‘lishi kerak. Lekin odatda yog‘ochning diametri uzunasi bo‘ylab bir xil bo‘lmaydi. Shu sababli zarur o‘lchamdagi diametrni aniqlash uchun yog‘ochning aylana uzunligi C ni topish zarur bo‘ladi. Bu holda $C=2R$ formuladan foydalaniladi. Bunda aylana chetlarini, 4-rasmdagidek B, D nuqtalardan o‘tadi deb faraz qilsak, u holda BD kesma aylananing diametriga aylanadi. Shundan kelib chiqib, raqamlarni o‘rniga qo‘ysak $C=66,5\text{ sm}$ ekanligi ma’lum bo‘ladi. Demak, aylana uzunligi 66,5 sm bo‘lgan yog‘ochdan tomoni 15 sm bo‘lgan kvadrat ko‘rinishidagi to‘sin tayyorlash mumkin ekan. Bu masalani 8-sinfidagi geometriya va 7-8-sinfdagi texnologiya fani darslarida qo‘llash mumkin.

Endi amaliy ko‘rinishga ega bo‘lgan bir nechta masalani keltiramiz.

2-masala. Qalinligi 3 sm bo‘lgan taxta keltirildi. Tomonlari $4\text{m } 5\text{m}=20\text{ kv m}$ bo‘lgan xonani pol qilish uchun qancha taxta zarur bo‘ladi? Taxtaga ishlov berishda o‘rtacha 5 mm qismi payrahaga chiqib ketishini hisobga oling (6-sinf matematika, 8-sinf geometriya, 5-7-sinf mehnat ta’limi).

3-masala. Quvvati 100 Vt bo‘lgan lampochka 2 soat yoniq tursa qancha elektr energiyasi sarf bo‘ladi? Buni bir oy va bir yil bo‘lgan hol uchun hisoblang. Agar o‘nta lampochka shuncha vaqt yoniq tursa qancha elektr energiyasi sarf bo‘ladi? 1 kVt elektr energiyasi o‘rtacha 143 so‘m bo‘lsa, yuqorida sarflangan elektr energiyasi uchun qancha pul to‘lanadi? (5-sinf matematika, 6-sinf fizika, 5-6-7-sinf texnologiya fani).

4-masala. O‘lchamlari $3\text{m } 3\text{m}=9\text{ kv.m}$ bo‘lgan materialni qanday qilib to‘rt bo‘lakka bo‘lib, uchta teng kvadrat hosil qilish mumkin (5-6-sinf matematika, texnologiya fani)?

5-masala. Paxtaning hosildorligi gektaridan o‘rtacha n sentner bo‘lsa, 3 mln. tonna

“oq oltin” yetishtirish uchun qancha maydonga paxta ekilgan bo‘lishi kerak? 20; 25; 30; 35 bo‘lgan hollar uchun masala javobini toping (5-6-sinf matematika; qishloq xo‘jaligi asoslari).

6-masala. Har gektar ekin maydonida 75000 tup g‘o‘za ko‘chati mavjud. Agar har bir tup g‘o‘za bir grammdan paxta terilmay qolsa, 200 gektar maydonda qancha paxta qolgan bo‘ladi? (5-6-sinf matematika; qishloq xo‘jaligi asoslari).

7-masala. Ma‘lumki, paxta qayta ishlovdan o‘tkazilganda undan paxta tolasi, chigit, paxta momig‘i olinadi. Olingan paxta tolasining massasi paxta massasining 35,5-36% ini, chigit massasi esa 60-61,5% ini tashkil etadi. Bir tonna paxtadan 300 m ip-gazlama, 100-110 kg o‘simlik moyi, 200-250 kg kunjara olish mumkin. Shu ma‘lumotlarni hisobga olib, quyidagi jadvalni to‘ldiring (5-6-sinf matematika; qishloq xo‘jaligi asoslari).


Miqdori	Tola (kg)	Chigit (kg)	Ip-gazlama (m)	O‘simlik moyi (kg)	Kunjara (kg)
1 t.	355-360	600-610	300	100-110	200-250
5 t.					
100 t.					
1000 t.					
1000000 t.					
3000000 t.					

8-masala. Agrotexnika talablariga ko‘ra, donni uzoq vaqt saqlash uchun uning namligi (kondension holati) – 14% bo‘lishi zarur. Agar yangi yig‘ishtirib olingan donning namligi 22% bo‘lsa, uni kondension holatgacha quritilganda massasi qancha foizga kamayadi (5-6-sinf matematika; qishloq xo‘jaligi asoslari, texnologiya fani)?


9-masala. Silos bostirishda namligi 75% bo‘lgan ko‘k massa hosil qilish uchun namligi 80% va 35% bo‘lgan o‘simliklardan qanchadan olish kerak (5-6-sinf matematika; qishloq xo‘jaligi asoslari, texnologiya fani)?

10-masala. Metall konstruksiyali fermaning sterjeni uzunligi 5 dm bo‘lib, har bir sterjen 2 dm dan uzayib boradi. 7 ta sterjenning uzunligini toping (5-rasm. 9-sinf algebra; texnika, texnologiya fani)?

11-masala. Qulay sharoitda bitta bakteriya bir minutda ikkitaga ko‘payadi. 7 minutdan so‘ng bakteriyalar soni qancha bo‘ladi (6-rasm. 9-sinf algebra; biologiya, texnologiya fani)?



5-rasm.



6-rasm.

12-masala. Ma‘lumki, tokarlik stanogida kesish tezligi formula bo‘yicha hisoblanadi. Bunda D ishlov berilayotgan sirtning diametri (mm hisobida), n – detalning bir minut-dagi aylanishlar soni. O‘zgaruvchi n ni o‘zgarimas kattalik deb hisoblab tokarlik-revolver stanogi uchun bog‘lanish grafigini yasang.

Bunda $D=70$ mm deb olib, 6-rasm $n=70, 105, 158, 220, 330, 494$ bo‘lgan holatlar uchun grafik yasang (8-9-sinf algebra va kasb ta‘limi).

Bunday masalalarni ko‘plab keltirish mumkin. Bulardan mehnat va kasb ta‘limi darslarida muntazam foydalanib borish orqali o‘quvchilarning fanlarga va kasblarga

bo'lgan qiziqishlarini oshirish, turli fanlarning turmushda va texnikada qanday qo'llanilishini ishonarli tarzda ko'rsatib berish mumkin.

Yuqorida bayon etilgan ma'lumotlardan ayon bo'ladiki, o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash mashaqqatli ish hisoblanadi. Bunda o'qituvchining eng mashaqqatli ishlaridan biri shuki, u har bir o'quvchining shaxsiy (individual) xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlarda barcha o'quvchilarning faolligiga erishishdan iborat. Bu o'rinda o'quvchining faolligi o'z-o'zidan oshmasligini, balki bu ongli munosabat natijasi ekanligini yoddan chiqarimaslik zarur. Modomiki, faollik onglilik natijasida vujudga kelar ekan, u ta'lim-tarbiya ishining mazmuni, tashkil etish shakli, amalga oshirish metodlari va vositalarini o'zaro muvofiqlashtirishni taqozo etadi. O'qituvchi ongli ravishda o'quvchilarda o'qishga qiziqishini yanada oshirishi lozim.

“Inson hayoti bir manzildan ikkinchi manzilga qarab yuriladigan yo'lga o'xshaydi. Bu yo'lning tekis, ravonligi, past-balandligi ko'p bo'lar ekan. Biz bu zamon bamisoli tog' oshayotgan odamlarmiz. Tog' yo'li mardlik, jasoratni ham, bag'oyat hushyorlikni ham talab etadi,”⁵– degan edi sevimli shoirlarimizdan biri, O'zbekiston Qahramoni E.Vohidov. Xuddi shu singari o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish, ularni kasb-hunar tanlashga yo'llash ham mashaqqatli ish hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, umumta'lim maktablarida boshqa fanlardan farqli ravishda “Texnologiya” fani mashg'ulotlarida o'quvchilarning faolligini oshirish orqali ularda ishlab chiqarish sohalari haqidagi tushunchalarni shakllantirishda katta imkoniyatlar mavjud. Chunki “Texnologiya” fani mashg'ulotlarida nazariy ta'lim amaliy ta'lim bilan uzviy bog'lab olib boriladi. Bu o'quvchilarning mustaqil ishlashini, imkoniyat darajasida o'z qobiliyatlarini namoyon etishlarini ta'minlaydi. O'quvchilar mashg'ulotlar davomida o'zlari yaratgan buyumlarni ko'rib quvonadi, yonidagi o'rtoqlari yasagan buyumlar bilan taqqoslaydi, yutug'idan mag'rurlanadi, kamchiligi bo'lsa to'g'rilaydi. Bu esa o'quvchilarni mustaqil shaxs bo'lib kamolga yetishishlaridagi ilk qadamlari bo'ladi. Bunday ishlarni tashkil etishda o'qituvchining mahorati, xususan, mashg'ulot ko'rinishiga qarab o'qitish shakli va metodlarini qo'llashi muhim amiyatga egadir.

Keyingi paytlarda mamlakatimizda ta'lim sohasida katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Buni ta'lim tizimini isloh qilishga qaratilgan direktiv hujjatlar, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va yaratilayotgan adabiyot-lar hamda qad rostlayotgan yangi ta'lim muassasalari misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Shu bilan birga, o'z yechimini kutib turgan ayrim ishlar ham mavjud. Shulardan biri darslarda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlash va ishlay olish faoliyatiga o'rgatishning yanada samarali shakl va usullarini ishlab chiqib, hayotga tatbiq etishdir.

Ta'lim mazmuni yaxshilash, o'qitishning turli xil faol usullaridan foydalanish zamon talabiga aylanib qoldi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi mehnatining natijasi ko'p jihatdan o'quvchilarning faolligiga bog'liqdir. Buning uchun o'qituvchi yangiliklar izlashi, tashabbuskorlik va ijodkorlik namunalari ko'rsatishi kerak. Shuning uchun “Texnologiya” fani darslarini takomillashtirish, bunda o'quvchilarning nazariy va amaliy ish faoliyatini faollashtirish, ularda faol ishlashga oid mehnat ko'nikmalarini shakllantirish katta ahamiyatga egadir, deb hisoblash mumkin.

Yuqorida bayon qilingan fikrlarga asosan quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

1. O'quvchilarni ishlab chiqarishning asosiy bo'g'inlari, sohalari bilan tanishtirishda, ularni mustaqil hayotga tayyorlashda va turli kasblarni tanlashga yo'naltirishda “Texnologiya” fani darslarida katta imkoniyatlar mavjud. Shu sababli “Texnologiya” fani darslarini tashkiliy-uslubiy, ilmiy-texnikaviy, g'oyaviy-siyosiy tomondan puxta o'tkazishga erishib borish har bir “Texnologiya” fani o'qituvchisining kasbiy burchidir.

2. “Texnologiya” fani darslarida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularda ijobiy va ijodiy ishlash ko'nikmalarini shakllantirish – o'ta muhim pedagogik, psixologik, fiziologik va texnik-texnologik omillar orqali amalga oshiriladigan murakkab

jarayondir. Shuni unutmaslik kerakki, bu ishlarni amalga oshirishda o'qituvchining o'rnini hech narsa bosa olmaydi. Shu sababli avvalo o'qituvchining o'zi tinmay kasbiy mahoratini, ilmiy-uslubiy saviyasini oshirib borishi kerak.

3. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ta'lim-tarbiya ishlarida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, amaliy ishlarni tushun-gan holda bajarish ko'nikmalarini singdirish – asta-sekinlik bilan amalga oshiriladigan va uzoq davom etadigan pedagogik faoliyat jarayonidir. Ya'ni o'quvchi birdaniga faol, ishni tez va mukammal bajaradigan bo'lib qolmaydi. Shuning uchun bu ishlarda shoshma-shosharlik qilish yaramaydi. Balki ishni uzoq istiqbolni ko'zlagan holda chidam bilan olib borishga to'g'ri keladi. Turli davrlarda yashab o'tgan barcha buyuk allomalar tomonidan yoshlarni yangicha yashashga va tafakkur yuritishga o'rgatish hamma vaqt ham davr talabi ekanligi ta'kidlangan. Bunda o'quvchilarning faolligini oshirish muhim ahamiyatga egadir. Chunki o'quvchi ta'lim-tarbiya jarayonida faol bo'lsa – u a'lochi va jamoatchi o'quvchi bo'ladi. Shu ruhda tarbiyalangan o'quvchi esa kelajakda ham o'zining bu xususiyatini saqlab qolgan holda, hatto rivojlantirgan holda faol ishchi-xizmatchi, bir so'z bilan aytganda, jamiyatning faol a'zosi, fuqarosi bo'lishi mumkin.

4. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tiladigan "Texnologiya" fani mashg'ulotlarida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish va bu jarayonda ularning faolligini oshirish uchun oddiy, ya'ni o'qitishning an'anaviy shakl va metodlari bilan bir qatorda innovatsion pedagogik texnologiyalardan ham foydalanish yaxshi natija beradi. Bu ishlarning samaradorligini oshirish uchun avvalo shu ishlarni amalga oshirish bosqichlarini oldindan puxta loyihalashtirib olish kerak. Odatda har qanday odamga bilgan narsalari haqidagi ma'lumotlarni berish ular uchun unchalik qiziq tuyulmaydi. Shuning uchun ham biz o'quvchilarga bilishni xohlagan narsalari haqida ma'lumot bersak ular uchun qiziqarliroq bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. –T.: "O'qituvchi", 1990. – 132 b.

2. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. –T.: O'qituvchi, 2004. – 136 b.

3. Karimov I. Mehnat ta'limi darslarida o'qitishning interfaol metodlaridan foydalanish. –T.: RTM, 2009. – 124 b.

4. Raxmatillayev A., Shomirzayev M.X. va boshq. Interfaol metodlar samaradorligining dinamikasi. –T.: "Abu matbuot-konsalt", 2015. –60 b.

5. Sharipov Sh.S. va b. Texnologiya: Darslik, 7-s. –T.: "Sharq", 2017.

6. Sattorova Z. va b. Texnologiya: 9-sinf uchun darslik. –T.: "O'zbekiston", 2019. – 160 b.

7. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitishning samaradorligini oshirish yo'llari. –T.: "Gold print nashr", 2019. – 42 b.

8. Shomirzayev M.X. O'zbek milliy hunarmandchiligining shakllanish genezisi va rivojlanish texnologiyasi. – T.: "Yangi nashr", 2019. – 52 b.

9. Shomirzayev M.X. O'zbek milliy hunarmandchiligida innovatsion jarayonlar. – T.: "Yangi nashr", 2019. – 88 b.

10. Shomirzayev M.X. O'zbek milliy hunarmandchiligining spektral-variativ komponentlari. – T.: "Yangi nashr", 2019. – 27 b.

11. Shomirzayev M.X., Karimov I.I. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: "Universitet", 2020. – 164-167 b.

ОСНОВНЫЕ КРИТЕРИИ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЯ К УЧЕБНОМУ ПРОЦЕССУ

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.83.90.053>

Мукумова Феруза Худайкуловна,

Преподавательница Термезского государственного университета

Аннотация. В этой статье предусмотрено подготовка учителя к учебному году планному учебно-воспитательной работы, а также подготовки мастерских классов к учебному процессу.

Ключевые слова: мастерская, дидактика, трудовое обучение, кабинеты, цехи, стройплощадки, оборудования, перспективный план, годовой, полугодовой, меж предметные связи, односторонний подход, методист, пособие, детская психология, школьная гигиена.

BASIC CRITERIA FOR PREPARATION OF TEACHERS FOR TECHNICAL PROCESS

Mukumova Feruza Xudaykulovna

Lecturer at Termez State University

Abstract: in this state predusmotrenno podgotovka uchitelya k uchebnomu godu plannomu uchebno-vospitatelnoy raboty, a takje podgotovki masterskix klassov k uchebnomu protsessu.

Keywords: workshop, didactics, labor training, offices, workshops, construction sites, equipment, long-term plan, annual, semi-annual, inter-subject relations, one-sided approach, methodologist, manual, child psychology, school hygiene.

Подготовка учителя к учебному году состоит из заранее продуманного планирования учебно-воспитательной работы, а также подготовки мастерских классов к учебному процессу. Планирование трудового обучения выражается в точной организации работы, которые отвечают принципам дидактики и программе подготовки учащихся к трудовому обучению, по этому большое внимание уделяется планированию. Без этого нельзя достичь хороших результатов в учебно-воспитательной работе. Планирование учебного образования в школе включает следующее:

Выполнение учебного плана и программы по труду;

Правильный подбор учебно-производственных объектов, отвечающих требованиям содержания материала по труду;

Связь трудовым обучением, и с другими общеобразовательными предметами, в первую очередь с физикой, химией, черчением, биологией и другими предметами.

Эффективное использование материально-учебной базы (мастерская, кабинеты, учебно-воспитательные участки, учебные цехи, стройплощадки, оборудования).

С материально-технической точки зрения создание материально-образовательной базы (оборудования, приборы учебные приспособления и технологические документы, их закупка и подготовка)

Своевременное выполнение строительных работ, запланированных учащимися трудовых объектов, своевременная их доставка заказчикам;

В случае когда всем учащимся не хватает необходимого оборудования. Соблюдение графика обмена рабочими местами учащимся;

Поддержание на высоком уровне научно-технических знаний; навыков и квалификаций;

При планировании трудового обучения необходимы следующие документы.

По труду (полугодовой) перспективный календарно-тематический план.

По каждому виду труда-список производственной работы (полугодовой и годовой отчёт).

Сводный тематический план естественно-научных предметов, отражающих межпредметные связи:

План конспекта определённой темы.

Передовые опыты некоторых школ подтверждают необходимость подготовки документов, относящихся к трудовому обучению, учитывая все стороны учебного процесса. Односторонний подход к этой проблеме может привести к серьёзным недостаткам в работе учителя труда.

Если «Организационная форма обучения», «Список образовательных методов» не внесены в календарно-тематический план, тогда учитель не будет знать какую часть учебного материала каким методом преподавать учащимся. Такой урок будет скучным, однообразным и мало эффективным.

Рассматриваемый этот план обязательно должен касаться других отделов, то есть списков технических, технологических документов. Как известно в программе трудового обучения темы и микротемы не распределены по урокам, и на них не выделены соответствующие часы. Решение этой работы возлагается на учителя.

Здесь учитель должен мастерски и методически распределить объём материала так, чтобы текст и по содержанию и смыслу должен иметь логическое завершение.

Вместе с тем учитель каждую тему должен правильно именовать в соответствии с характером и содержанием, темы которые входят в него.

В этом календарно-тематическом плане надо обязательно указать список необходимых оборудования, приборов, материалов и документов.

Без предварительной подготовки, которые могут обеспечить эффективность в освоении изучаемых операций, без учета специальных оборудования нельзя достичь успехов.

Некоторые методисты выступают сторонниками упрощения календарно-тематического плана. Они считают, что учитель, особенно, только начинающий, не в состоянии справиться с этой тяжёлой работой. Известно, что любое упрощение или не точно спланированный учебный процесс обязательно приведёт к нарушению и снижению, а также возникновению ошибок в учебной работе.

При разработке календарно-тематического плана от учителя труда требуется не только знание вопросов различного характера, но и быть высококвалифицированным, иметь глубокие знания по методике педагогической подготовки. Например, если у учителя нет специальной методической подготовке, тогда ему придётся трудно в передаче содержания текста и организации метода и формы обучения, а также будет нелегко в организации учебного процесса и проведении урока.

Календарно-тематический план, подготовленный учителем по труду (должен быть составлен до ухода учителя в отпуск) является своеобразным требованием который, представляется заведующему для приобретения недостающих оборудования, приборов, материалов, наглядных инструментов, пособий, учебной литературы.

Календарно-тематический план по труду составляется на основе программы. Этот план предварительно рассматривается и обсуждается в метод объединении учителей труда, где вносятся поправки, изменения (если необходимо) после чего представляется директору школы для утверждения.

Виды календарно-тематических планов (по обработке дерева, металла, сельскохозяйственному труду) и для других составляются по отдельности.

Одним словом учителю трудового обучения при подготовке к учебному году и занятиям целесообразно выполнить следующие работы.

Для проведения трудового обучения необходимо изучить и анализировать государственный образовательный стандарт.

Глубокое изучение и анализ учебной программы школьного трудового обучения.

По методике трудового обучения усвоению соответствующих разделов учебников по общей педагогике, психологии, детской физиологии, школьной гигиены, а также других методических пособий.

По школьному трудовому обучению изучить и усвоить учебники по физике, химии, биологии, черчению и другие методические пособия.

По подготовке к учебному году и занятиям осуществить все планируемые

работы.

По тематике занятий конспектирование содержания учебного материала.

Для выполнения практической части урока подготовить наглядные пособия, образцыпредметов, а также технологическую карту.

Занимательные виды проверки знаний и умений, к которым относятся различные дидактические игры, конечно, не заменяют традиционных способов контроля и оценки усвоения учащимися программного материала. Но игровой подход вносит в учебный процесс дух поиска, творчества, соревновательность, стимулирующие познавательную активность учащихся. Причем масштаб использования игровой деятельности в обучении достаточно велик - от включения в ткань учебного процесса отдельных игровых моментов до организации в игровой форме целого занятия. Например, чтобы повысить активность и внимание учащихся во время текущего опроса в 5-м классе, я использую простой прием. Задавая вопрос, бросаю мягкую игрушку любой ученице. Если ответ правильный, она задает свой вопрос и перепаивильный, она задает свой вопрос и перебрасывает игрушку другой девочке, а если неверный, то возвращает ее мне.

На уроках 75% времени отводится на практические занятия, следовательно, на объяснение нового материала и опрос учащихся остается не более 10-15 мин. Для того чтобы уложиться в отведенное время при опросе, вопросы, ответы и их проверка должны быть краткими.

На уроках технологии можно проводит дидактические игры в виде эстафет, викторин, различных конкурсов, которые позволяют выявить качество знаний как по отдельным темам и разделам, так и по программе в целом. При подведении итогов обязательно надо поощрять всех участников, чтобы кто-либо из них не чувствовал себя обиженным, в дальнейшем не ощущал боязни перед проверкой знаний. Одновременно надо отмечать наиболее старательных, стремится к тому, чтобы дети испытывали чувство гордости не только за себя, но и за удачу своих друзей-соперников. У многих учителей есть свои методические находки в проведении игровых уроков по проверке знаний. Ниже предлагаю одну из дидактических игр - конкурс «Раскладка выкройки на ткани».

На уроках учащиеся научатся различным способам раскладки деталей выкройки на ткань в зависимости от ее ширины, фактуры и направления рисунка. Игра – конкурс проводится, чтобы выявить знания и умения учащихся по темам «Подготовка выкройки к раскрою» и «Раскладка деталей выкройки прямой юбки на ткань», научить применять полученные знания и умения развевать мотивацию к творческому труду.

Для проведения этого контурса заранее заготавливаются образцы различных видов «ткани» (из миллиметровой бумаги) шириной 90 и 140 см с направленным и ненаправленным рисунком, а также в полоску в М 1: 4 и трафареты переднего и заднего полотнищ прямой юбки в том же масштабе.

Проверку знаний можно провести в виде эстофеты. Бригады получают одинаковые образцы «ткани» и комплект трафаретов изделия, а каждый член бригады выполняет только свой этап работы. Один готовит выкройку на ткань и обводит по ним выкройку, четвертый откладывает припуски на обработку и обводит по ним выкройку, пятый подсчитывает расход ткани. Побеждает та команда, которая быстрее выполнит данную работу и использует меньше ткани.

Проведение этого конкурса потребует от учителя довольно трудоемкой подготовки, так как трафареты деталей юбки и образцы «ткани» изготавливаются каждый раз заново. Однако результативность несколько высока, что затраты времени и материалов вполне оправданы[7].

Дидактические игры можно провадить и по кулинарным работам в виде технологической карты, схемы приготовления, кроссворды, карточки-задания устных и письменных ответов, которые учитель может использовать при закреплении знаний учащихся, при повторении ранее пройденного материала и проведении самостоятельных практических работ[6].

Для быстрого проведения опроса учащихся применяются карточки-задания и заранее подготовленный учителем альбом (тетрадь) контрольных листов с ответами на них. Работая с такой карточкой, ученик на чистом листе бумаги

сначала пишет свои фамилию, имя, а затем письменно отвечает на вопросы, т.е. записывает ответы по номерам, соответствующим номерам вопросов, или, наложив карточку на свой лист и продлив выноски за ее пределы, пишет ответы на них (рис.1).

Для проверки учитель сверяет список ответов по контрольным записям или накладывает лист с ответом на контрольный (заранее приготовленный) лист альбома, совмещает горизонтальные линии выносок с линиями на контрольном листе, сравнивает ответы и выставляет оценку. Эту карточку можно преобразовать в перфокарты и выноски проводить внутри вырезанных окон (такой способ больше нравится пятиклассникам).

Ответы на карточки-задания другого типа выполняются на кальке (рис.2). Калька накладывается на карточку, обводится контур, содержание не переписывается. Нужные ответы соединяются стрелками. Учитель накладывает кальку на контрольный лист и, совмещая контуры, проверяет правильность ответа. На кальке же даются ответы на некоторые карточки по моделированию. Использование таких карточек облегчает подготовку учителя к уроку, дает возможность многократно использовать изготовленный дидактический материал.

Для проведение устного повторения эффективен фронтальный опрос с использованием карточек содержащих вопросы различной степени сложности.

При проведение практических работ по кулинарии учащиеся могут сами оценивать свои умения и навыки с помощью карточек оценки знаний и умений, выполненных в виде перфокарт. Карточка накладывается на подписанный лист бумаги, и плюсами отмечаются все правильно выполненные операции, а минусами – выполненные неправильно или не выполненные совсем. Оценка проставляется в зависимости от соотношения числа плюсов и минусов.

Приготовление овощного рагу								
Организация труда	Оценка	Техника безопасности	Оценка	Вид работы	Оценка	Качество выполнения работы Оценка	Оценка	Итого
Наличие спецодежды, продуктов соблюдение санитарно-гигиенических требований, уборка рабочего места	+	При работе с нажом, кипящими, электрогревательными приборами.	-	1.Первичная обработка Нарезки овощей.20 мин. 2.Обжаривание муки 10 мин 2.Пассеровка лука,маркови 3.Тушение овощей 4.Сервировка стола 20 мин. 5.Дегустация-10 мин	+ + + + +	1.Качество нарезки овощей 2.Качество готового блюда 3.Соблюдение норм времени	+ + -	4
Положительная оценка 8 Отрицательная оценка 2 Наличие положительных оценок соответствует оценка « 5 » Каждый минус отнимает от оценки 0,5 балла.								

Список использованных литератур:

1.Муслимов Н.А и другие “ Мехнат таълими ўқитиш методикаси “ Ташкент ТДПУ 2007 гг.

2.Пошшахужаева А “ Хизмат кўрсатиш меҳнати” Ташкент “ Мехнат” 1997 гг.

3.Старикова Е.В ,Корчагина Г.А « Дидактический материал по трудовому обучению » Москва « Просвещение» 1996 гг.

4.Шарипов Ш, Муслимов Н и другие « Мехнат таълими» Ташкент « Шарк » 2012 гг.

Кўйсинов О.А. “Improving the methodologies of raising the effectiveness of continuous education on the basis of ensuring content consistency” // «Actual Problems Of Modern Science, Education And Training» Electronic Journal. July, 2021-7/1. ISSN 2181-9750. KHOREZMSCIENCE.UZ

Қодиров Б.Э. “Development of basic Competencies of students in crafts in

МИЛЛИЙ ХУНАРМАНДЧИЛИК ТАРИХИНИ ЎРГАНИШДА ЎҚУВЧИЛАРНИ ИЖОДКОРЛИККА ҚИЗИҚТИРИШНИНГ ДИДАКТИК ИМКОНияТЛАРИ

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.77.73.052>

Мукумова Феруза Худойқуловна

Термиз давлат университети, технологик таълим кафедраси катта
ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада миллий хунармандчилик тарихини ўрганишда ўқувчиларнинг креативликка қизиқтиришнинг дидактик имкониятларини ўрганиш йўллари ёритилган.

Калит сўзлар: Мискарилик, мис, қуроллар, тарихий, меъморчилик, обида, миллий, хунармандчилик, ганч ўймакорлиги, ёғоч ўймакорлиги.

BASIC CRITERIA FOR PREPARATION OF TEACHERS FOR TECHNICAL PROCESS

Mukumova Feruza Xudaykulovna

Termez State University senior teacher of the Department of technological education

Abstract: This article covers the ways in which students learn didactic opportunities to be interested in creativity while studying the history of national craftsmanship.

Keywords: Copper, copper, weapons, historical, architecture, Monument, National, craftsmanship, ganch carving, wood carving.

Инсоният тарихида меҳнат тақсимооти, қўшимча маҳсулотларнинг вужудга келиши, қишлоқ хўжалиги ва чорвачиликнинг ривожланиши хунармандчиликнинг пайдо бўлишига олиб келди. Дастлабки хунармандлар ёввойи ва уй ҳайвонлари терисини ажратиб олиш ва улардан чармлар тайёрлаш, дарахтларнинг пўстлоғидан уй буюмларини тўкиш ва лойдан рўзғор учун идишлар ясаш билан шуғулланишган. Вақтлар ўтиши билан бундай табиий материал (хомаки ашёлар) ни қайта ишлашнинг илк услуб ва усуллари янада мазмунли бўлиб борди ва нафақат ички талаблар, балки эстетик эҳтиёжларни қондиришга ҳам имкон бера бошлади. Шунингдек, меҳнат қурол ва асбоб-ускуналари ҳам такомиллашиб борди, уларнинг ишлатилиши ҳам мос ҳолда ишончли ва қулай бўлиб борди. Инсонлар бунинг учун хомашё сифатида ўзлари яшаётган жойга яқин бўлган – лой, тош, юмшоқ метал бўлақчалари, ёғочлардан фойдаланганлар.

Жамиятнинг ривожланиш тарихида темирчилик хунармандчилиги глобал аҳамиятга эга бўлди. Дастлаб буюмлар соф металдан тайёрланар эди. Одатда, бундай металллар ер юзасида учрайдиган олтин ва кумушлар бўлган. Чунки уларга қайта ишлов бериш учун кўп вақт, куч ва қийинчилик талаб этилмаган. Аммо улардан тайёрланган буюмлар (уй-рўзғор буюмлари ва меҳнат қуроллари)нинг ишлаш муддати унча узоқ бўлмаган. Бундан ташқари, бундай хом ашёларнинг миқдори анча ноёб эди. Маълум вақтлар ўтиши билан ибтидоий усталар металл қотишмаларидан фойдалана бошлаганлар. Археологик қазилмаларга кўра, бундай қотишмалардан олинган энг дастлабки металл мис бўлган, яъни ўша даврларда “осмондан тушган” соф олтин ва кумушлардан фарқли равишда мис хом ашёдан ажратиб олинган ва мис учун маъдан хом ашёсининг асосий манбаи жуда кам ва ўзига хос материал – малаҳит минерали бўлганлиги маълум. У камида бир неча асрлар давомида шундай хом ашё бўлиб колди (малаҳитдан эриган мис олишни эрамиздан аввалги уч ярим минг йилликларда кўриш мумкин). Бу қандай содир бўлган? [6,10].

Малаҳит ўз-ўзидан ёрқин яшил ранг берувчи жозибали минерал бўлиб, ўзига хос тузилишга эга, шунинг учун у турли хил заргарлик буюмларини тайёрлашда безак материали сифатида ишлатилган (энг қадимги бу топилмалар ўн

минг йилликларга бориб тақалади). Ажабланарлиси шундаки, аждодларимизни малаҳит яқинида олов ёқишга нима илҳомлантирганини аниқлаб бўлмайди. Бунинг сабаби шунчаки овқат пишириш, оловда исиниш ёки “чиройли яшил тошларни” ёрқинроқ қилиб кўришни хоҳлаганлигимиз, бу номаълум малаҳитнинг бир қисми тасодифан оловга тушиб қолганми ёки йўқми, аниқ эмас. Аммо диққатни тезда жалб қилиш учун мис аралашмалари билан тўғридан-тўғри ишлаш натижасида олов “яшил ранга айланди”(бир неча асрлар ўтгач, бундай “рангли чироқларга” қараш одамларни спектрни кашф этишга олиб келади). Аждодларимиз шунчалик диққат билан кузатганки, кўмирни қазийда, кўмир орасида малаҳитнинг мутлақо қорайган (мис оксиди чиқарилиши сабабли) ўткир қирраларида майда ялтироқ музлатилган томчиларни пайқашган. Бу томчиларни бошқа тошга уриш билан ажратмоқчи бўлганда, улар ажралмади, аксинча текисланиб, эгилувчанлигини намойиш этди. Ўткир зеҳнли аждодларимиз шунчаки тасодифий тажрибани кўп миқдордаги асрлар давомида мисни худди шундай “амалий тошларни” киритиб, “яшил тошлар” дан металл шаклида олишди. Бундай тажриба тош асридаги металлургия босқичи эди [11].

Металчиликнинг кашф этилиши ва ҳўжаликда мис қуролларининг жорий қилиниши бир неча аср давомида содир бўлган. Бу эса меҳнат қуролларини янада такомиллаштиришда муҳим роль ўйнади.

Мискарлик - мисдан қуроллар, уй-рўзғор ашёлари, турли буюмлар ясаш касби. Қадимда мискарлар соф мисни совуқлайин ишлаганлар, шу туфайли мис буюмлар юмшоқ ва мўрт бўлган. Кейинроқ мискарлар буюмларни мис ва қалай қотишмасидан ҳосил қилинган бронзадан ясаганлар ва бундай буюмлар бирмунча пишиқроқ бўлган.

Металларнинг ривожланиши билан параллел ҳолда хунармандчиликнинг бошқа турлари ҳам ривожлана бошлади. Нарсаларни сақлаш, овқат тайёрлаш ва уларни истеъмол қилиш учун турли хил идишлар талаб қилина бошланди. Уларни тайёрлаш учун қулай ва идеал материал лой ҳисобланган ва кейинчалик керамика ва қулолчилик хунармандчилигининг вужудга келишига сабаб бўлган. Бу эса қозон ва печларининг ихтиро қилинишига олиб келган. Керамика идишлари ҳар хил сурат (расм, тасвир) лар билан безатилган [4,8].

Керамика (юнон. keramos - лой) - маҳсус тупроқ ёки тупроқ билан бошланган турли минераллар аралашмасидан ҳосил қилинган лойни пишитиб, ундан тайёрланган ва кейин қаттиқ қиздириб ҳосил қилинган маҳсулотлар ҳисобланади. Улардан рўзғорда (сопол ва чинни идишлар, буюмлар), қурилишда (ғишт, черепица, плита, қошин, қувур ва бошқалар), техникада, айниқса, электротехникада (масалан, электр изоляторлар) кенг фойдаланилади. Керамика буюмларини тайёрлашда асосан кўлда қориб лой қилинади (сопол, чинни идишлар), пишитилиб, қулол чархида, қолип ёрдамида ёки пресслаб шакл берилади, кейин хумдонда, маҳсус печларда 800°C дан (ғишт, қулоллик маҳсулотлари) то 1400°C гача (кучли иссиқликка бардош берадиган маҳсулотлар) қиздирилади. Керамика маҳсулотларини қиздириш техникаси узоқ асрлар мобайнида оддий гулхандан хумдонгача ва механизациялаштирилган маҳсус печларгача бўлган тараққиёт йўлини босиб ўтди.

Қулолчилик - хунармандчиликнинг лой (гил)дан турли буюмлар (сопол идиш, қурилиш материаллари ва б.) тайёрлайдиган тури. Қулолчиликда асосий хом ашё - тупроқ. Келиб чиқиши ва таркиби турлича бўлган тупроқлардан турли хил қулоллик буюми ясаш жараёни ва қулолчилик маҳсулотлари тайёрланади. Лой қанча кўп пишитилса, сополнинг сифати шунча яхши бўлади. Қулолчиликда асосий қурол қулоллик чархи уста унда идишлар тайёрлайди ва уларга шакл беради. Тайёрланган идишлар қурилиб, хумдонда қиздирилади. Идишларнинг турларига кўра, хумдонлар ҳам турлича (катта-кичик) бўлиши мумкин. Сирланадиган идишлар сирланганидан сўнг яна бир бор хумдонда қиздирилади. Одатда, қулоллар маълум идишлар ишлаб чиқариш бўйича ихтисослашган бўлади

(мас, косагар, кўзагар, кошинпаз, тандирчи ва б.).

Тўқиладиган ва тўқилмайдиган материаллардан буюмлар ва либослар тайёрлашга бўлган эҳтиёж тўқувчилик ҳунармандчилигининг пайдо бўлишига сабаб бўлди. Жумладан, бундай буюмларни ишлаб чиқариш қадимдаёқ пайдо бўлган. Қўлда ип тайёрлаш ва газлама тўқиш Ҳиндистон, Хитой, Миср ва Ўрта Осиёда милоддан бир неча аср илгари маълум бўлган. Тўқилмайдиган материаллар буюмларни тайёрлаш механик технологияси қўлда тўқиш-тикиш, игна санчиш ва тўқиш-босиш усулларида иборат. Физик - кимёвий технология эса намлатиш, толаларни елимлаб ёпиштириш ва бошқа усулларга бўлинади. Тўқилмайдиган материаллар учун хом ашё сифатида пахта, жун толалари, кимёвий, сунъий ва синтетик толалардан фойдаланилган [5].

Ҳунармандчиликнинг тарихий илдизлари ривожланиши ва тараққиёти натижасида Ўзбекистонда миллий ҳунармандчилик ривожланган.

Миллий ҳунармандчиликнинг турли соҳаларини ўрганишда ўқувчилар куйидаги билимларга эга бўладилар ва уларда ижодкорликка қизиқиш уйғонадилар:

маълум касб-ҳунар соҳаларининг тарихи, келиб чиқиши, этник илдизлари, халқ усталари ва уларнинг ижодий фаолиятлари;

ҳунармандчиликнинг шакл ва жаҳон маданиятида тутган ўрни, соҳаларининг тарқалиши, жуғрофияси, турлари, уларнинг йўналишлари;

Тошкент, Самарқанд, Хива, Бухоро, Термиз, Нукус, Андижон, Фарғона, Наманган, Риштон, Ургут ҳунармандчилик мактаблари усталари ва уларнинг ўзига хос йўллари;

тарихий меъморчилик обидалари, уларнинг қурилиши, сақлаш ва таъмирлаш; маҳаллий меҳнат ва хом ашёларининг, заҳираларининг манбалари, турлари, тарқалиши, уларнинг ҳунармандчилик марказларининг шаклланишига ва ривожланишига таъсири, ҳунармандлар сулоалари, рисоалари, халқ амалий ва тасвирий санъати ҳамда ҳунармандчиликнинг ўзаро боғлиқлиги ҳамда алоқаси ва бошқалар .

Миллий ҳунармандчилик тарихи ва асосларини эгаллашда ўқувчилар куйидаги амалий кўникма ва малакаларга эга бўладилар:

турли хилдаги материалларни танлаш ва уларга ишлов бериш; ҳунармандчилик асбоблари, мосламалари билан ишлаш; маълум соҳаларда фойдаланиладиган электр ва механизациялаштирилган қурилмалар, мосламалар ва ускуналар билан ишлаш; буюмларни ҳунармандчилик асарларини асраш, таъмирлаш ва фойдаланиш муддатини узайтириш; йўл-йўриқли, операцияли, технологик ва ишлаб чиқариш меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар билан ишлаш; жараёнларни амалга ошириш, бозор иқтисодиёти шароитида тайёрланган буюмларни ва асарларни истеъмолга чиқариш ва бошқалар.

Бевосита халқ хўжалиги (маҳаллий) тармоқларига боғлиқ бўлмаган турли умуммеҳнат, махсус кўникмаларни ўқувчиларга ўргатишда миллий ҳунармандчиликнинг дидактик имкониятлари катта. [34].

Халқ ҳунармандчилиги соҳаларини ўрганиш бўйича олиб борилаётган машғулотларнинг моддий, хом ашё, материаллар билан таъминланишини йўлга қўйишда деярли барча мактабларда маҳаллий имкониятлар мавжуддир.

Халқ ҳунармандчилигининг меҳнат ва касб-ҳунар таълимида мунтазам ўрганилиши ўғил ва қиз болалар меҳнатини, қишлоқ ва шаҳар мактабларида муқобил машғулотларнинг ташкил этилишини ва қолаверса, ўқувчиларнинг таълим муассасасини битирганларидан сўнг доимий иш ўринлари билан таъминланишларини маълум тартибга солади. Халқ ҳунармандчилиги соҳаларини ўрганиш ва ўргатиш меҳнат юмушларини кетма-кет бажарадиган “ишчи-роботлар”, “ишчи-механизмлар” тайёрлашни қисман бўлса-да инкор этади ва ижодий фикрлайдиган, мустақил фаолият кўрсата оладиган, юқори даражада инсонийлик фазилатларига эга бўлган, муомалали, одоб-ахлоқли инсонларни тарбиялашда миллий ҳунармандчиликнинг имкониятлари катта эканлигини

кўрсатади [12].

Республикамизда халқ бадий хунармандчилиги ва амалий санъатини ривожлантириш борасида яратилаётган имкониятлар натижасида хунармандчилик фаолияти кундан кунга ривожланиб, уларнинг маҳсулотлари экспортга чиқарилмоқда.

Хунармандчилик фаолияти – юридик шахс бўлмаган жисмоний шахсларнинг хунармандчилик буюмлари ёки товарлари (ишлари, хизматлари)ни ишлаб чиқариш бўйича фаолиятидир. Ўзбекистон Республикасининг «Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида»ги Қонунига мувофиқ хунармандчилик фаолиятини амалга ошираётган якка тартибдаги тадбиркорлар товарлар тайёрлаш (ишлар бажариш, хизматлар кўрсатиш) учун кўпи билан беш нафар шогирдни уларга тегишлича ҳақ тўлаган ҳолда жалб этишга ҳақли [7,9].

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, мазкур имтиёз Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Халқ бадий хунармандчиликлари ва амалий санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» ги фармони билан тасдиқланган хунармандчиликнинг қуйидаги асосий 25 та фаолият тури рўйхати асосида қўлланилади.

1. Ганч ўймакорлиги.
2. Ёғоч ўймакорлиги.
3. Суяк ўймакорлиги.
4. Тош ўймакорлиги.
5. Ёғочдан халқ хунармандчилиги буюмлари яшаш.
6. Металл ва тунукадан буюмлар яшаш.
7. Қилич, ханжар ва пичоқ яшаш.
8. Зарб, ўйма тасвир (чеканка) усулда ясалган буюмлар.
9. Чинни (фарфор), сопол ва ганчдан буюмлар яшаш.
10. Қимматбаҳо металллардан заргарлик буюмлари яшаш.
11. Кўлда гилам тўқиш.
12. Кўлда газлама ва тўқима буюмлар тўқиш.
13. Шиша буюмлар тайёрлаш.
14. Зардўзлик буюмлари тикиш.
15. Каштачилик, каштадўзлик.
16. Матога гул босиш ва чокли буюмлар тикиш.
17. Миллий халат (чопон) ва бош кийимлар тайёрлаш.
18. Мусиқа асбоблари яшаш.
19. Миниатюралари, расмли (тасвирли), орнаментли (нақшли) ва сирли безаклар бериш.
20. Ҳажмли ва фигуралари (шаклдор) қолипли (андозали) куйма буюмлар яшаш.
21. Кичик ҳайкалчалар яшаш.
22. Ўйинчоқлар яшаш.
23. Новдалардан буюмлар тўқиш.
24. Теридан буюмлар ва оёқ кийимлари тикиш.
25. Совға (сувенир) эсдалик буюмлари тайёрлаш [10].

Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикасининг «Оилавий тадбиркорлик тўғрисида»ги Қонуни қабул қилиниб, унда оилавий корхона ўзи ишлаб чиқарган халқ бадий хунармандчилиги ва амалий санъати буюмларини реализация қилишдан олинган тушум бўйича ягона солиқ тўловини тўлашдан озод қилиниши белгиланди.

Ўзбекистон Республикасида амалга оширилаётган иқтисодий ислохотлар самарадорлигини таъминлаш, ёшларни бозор иқтисодиёти муносабатларида фаол иштирок этишга тайёрлаш педагогика фани олдида турган муҳим вазифаларидан бири ҳисобланади. Республикамизни жаҳон ҳамжамияти мамлакатлари сафидан муносиб ўрин эгаллаши, ривожланган давлатлар билан тенглик тамойили асосида ўзаро ҳамкорликка эришишида, ёшларнинг иқтисодий билимларни

пухта эгаллашлари ҳамда ҳунармандчилик негизда тадбиркорлик фаолиятини самарали йўлга қўя олишлари муҳим аҳамият касб этади [10].

Биргина ишлаб чиқаришда бозор муносабатига асосланишнинг ўзи жамият иқтисодийнинг юқори даражада ривожланишини кафолатлай олмайди ва бу ўринда бир қатор омилларнинг мавжудлиги талаб қилинади. Энг муҳим омиллардан бири – бу жамият аъзоларининг ишлаб чиқаришга бўлган муносабатларини кескин ўзгартириш, уларни боқимандалик кайфиятидан халос қилиш ва иқтисодий билимларни кенг тарғиб этиш орқали уларда иқтисодий маданиятни шакллантириш ҳисобланади. Ёшларнинг иқтисодий онг ва фаолият кўникмаларига эга бўлишларида оила ва таълим муассасаларида ана шу йўналишда ташкил этилувчи фаолият ўзига хос ўрин тутади.

Тадбиркорлик – кишиларнинг фойда олиш мақсадида, жамиятнинг маънавий-ахлоқий меъёрлари, амалдаги қонунлари доирасида маҳсулотлар ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш ва мустақил ташаббускорлик фаолияти саналади. Ушбу тушунча мустақиллик йилларида истеъмолда кенг қўлланилиб, кишилар онгида мустаҳкам ўрин эгаллади. Мазкур ҳолатни баҳолар экан, Ўзбекистон Республикаси Президенти қуйидагиларга эътиборни қаратади: “Тобора кўпроқ кишиларимиз фойдали тадбиркорлик соҳасида ташаббус, омилкорлик, маҳорат кўрсатмоқдалар. Тобора кўпроқ ёшлар мусобақа ва рақобатга асосланган эркин меҳнатда муваффақиятга эришиш учун зарур бўлган иқтисодий билимларни ва ишлаб чиқариш маҳоратини эгаллаб олишга интиломоқдалар.”

“Тадбиркорлик” тушунчасини ёшлар онгига сингдириш, уларда тадбиркорликка оид тушунчаларни шакллантириш ҳамда улар томонидан тадбиркорлик фаолиятининг самарали ташкил этилишига эришиш кўп босқичли ва мураккаб жараён. Бинобарин, тадбиркор сотиб фойда олиши мумкин бўлган, бозор талаб қилган маҳсулотни ишлаб чиқара олиши, хизмат турини танлай билиши, ўз маҳсулоти ёки хизматини таклиф этиши, шунингдек, уларнинг харидорлигини ошира олиши зарур. Мазкур жараённинг муваффақиятли ташкил этилиши эса тадбиркорнинг фаолият кўрсатиш соҳасини танлаш, шахсий ташаббус кўрсатиш, ишнинг натижалари учун жавобгарликни ҳис этиш, ўзи ишлаб чиқараётган маҳсулот ёки кўрсатаётган хизматга, талабнинг ўзгаришига тез мослашиш каби сифатларга эга бўлишликни тақозо этади. Ёшларнинг бу каби сифатларга эга бўлишлари уларнинг ижодкорликка ва тадбиркорлик фаолиятини ташкил этишга руҳан тайёр эканликларини кўрсатади [25].

Гарчи “тадбиркор” атамаси бозор муносабатларининг муҳим таянч тушунчаси сифатида қўлланилаётган бўлса-да, айтиш мумкинки, унинг этимологик ривожланиши кишилик фаолиятининг муҳим кўриниши бўлган ҳунармандчиликнинг шаклланиши билан боғлиқ. Ҳунармандчилик Шарқ халқлари турмуш тарзида ўзига хос ўрин тутади ҳамда оила аъзоларининг барчасини муайян ишлаб чиқариш фаолиятига жалб эта олиш хусусиятига кўра муҳим таълим-тарбиявий аҳамиятга эга. Шу билан бирга ҳунармандчилик оила даромадини шакллантириш ва жамғарма орттириш имкониятини берувчи фаолият тури эканлигига кўра тадбиркорлик билан ўзаро уйғунлик ҳосил қилади [36].

“Устоз-шогирд” анъанаси ўсмирлар билан бевосита ишлаш, уларнинг индивидуал хусусиятларини инобатга олган ҳолда ёндашиш, мавжуд иқтидорларининг янада ривожлантирилиши ва ижодкорлиги учун қулай шарт-шароитни яратиши билан янада аҳамиятли. Бу каби ҳолатлар ўсмирларда нафақат ижодкорлик кўникмаларини шакллантиришга хизмат қилади, балки меҳнат ва ишлаб чиқариш фаолиятига масъулият билан ёндашиш, ўзгалар меҳнатини қадрлаш, ҳалол меҳнат қилиш, меҳнат самарадорлигидан ғурурланиш каби маънавий-ахлоқий сифатларни тарбиялайди.

Умумий ўрта таълим мактабларида миллий ҳунармандчилик тарихини ўрганишда ўқувчиларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш жараёнида қуйидаги камчиликларнинг мавжудлиги кузатилди:

- ўқувчиларнинг миллий ҳунармандчилик бўйича яратувчан ижодкорлик қобилиятини тарбиялаш ва ривожлантиришга устувор ўрин ажратилмаслиги;
- ўқувчиларнинг миллий ҳунармандчилик бўйича яратувчан ижодкорлик қобилиятини тарбиялаш ва ривожлантиришнинг методологик асослари махсус ўрганилмаслиги;
- ўқувчиларнинг миллий ҳунармандчилик бўйича яратувчан ижодкорлик қобилиятларини тарбиялаш ва ривожлантиришда изчил ва комплекс ёндошувга амал қилинмаслиги;
- ўқувчиларнинг миллий ҳунармандчилик бўйича яратувчан ижодкорлик қобилиятини тарбиялаш ва ривожлантириш истиқболининг таҳлил қилинмаслиги;
- ўқувчиларнинг миллий ва умуминсоний, маданий-тарихий, интеллектуал, миллий ҳунармандчилик бўйича яратувчан ижодкорлигини ривожлантириш жараёни мазмунини янгилашга эътибор қаратилмаганлиги;
- ўқитувчилар томонидан ўқувчиларнинг миллий ҳунармандчилик бўйича креативлик қобилиятларини ривожлантиришнинг педагогик технологияларини амалиётга татбиқ этишга аҳамият қаратилмаслиги кабилар [32].

Юқорида айтилган камчиликларни ўқувчиларни миллий ҳунармандчилик бўйича ижодкорлик қобилиятини ривожлантиришга тайёрлаш амалиётида нафақат илмий-асосланган назарий-педагогик, балки бу жараённинг назарий-амалий (унинг хусусиятлари, томонлари, мақсадга интилувчанлиги, касбий-шахсий мезонлари, натижаларини таҳлил қилиш) асослари етарлича ёритилмаганлиги билан изоҳлаш мумкин. Натижада, ўқувчиларни яратувчан ижодкорлик қобилиятларини ривожлантиришга тайёрлаш жараёни мазмунини модификациялаштиришга ўқитувчилар тузилишли-мазмунли тизимга эга бўлмай, иккиланиб ишончсиз муносабатда бўлади. Ўқувчиларнинг ижодкорлик қобилиятларини ривожлантиришнинг тузилмавий-мазмуний тизимида хиссий - психологик, мотивацияли, идрок этиш, шакллантирувчи ҳамда ривожлантирувчи, интеллектуал-ижодий, фаолиятли, ижтимоий-тарбиявий, ўзига баҳо бериш ҳамда ўзини такомиллаштириш каби муҳим компонентлари мавжуд бўлиши керак.

Юқорида кўриб чиқилган фикрларга асосланиб, айтиш жоизки, тажриба-синов ишларини ўтказишда ДТС талабларига мос келадиган мавзуларни таҳлил қилганимизда деярли барча бўлимларида ҳунармандчиликнинг элементларини кўришимиз мумкин.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар:

Маҳмудов Ю.Ғ., Қодиров Э.Х. Ўқувчиларда ҳунармандчилик касбларига фанлараро қизиқишни шакллантириш. Услубий қўлланма. – Тошкент: Дизайн Пресс, 2011. – 32 б.

Машбиц Е.И. Психолого-педагогические проблемы компьютеризации обучения. – М.: Педагогика, 1988. – 192 с.

Мукумова Ф.Х. Milliy do'ppilar tarixini o'rganishda Surxondaryo do'ppilarining tutgan o'rni // “Бойсун-бахори” очик фольклор фестивалини “жаҳон цивилизациясида бойсуннинг моддий ва маънавий маданияти” // мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференцияси илмий мақолалар тўплами, –Термиз.: 2019. –Б.261-262

Мукумова Ф.Х. The role of heredity in develepoment of creativity // In Proceedings of EuroScience-2021 // International Conferense on Social and Humanitarial research, organized by Evro-Aziya Conference on April 25th and 26th,2021.

Мукумова Ф.Х. Thinking motives that encourage students to be creative.In Proceedings of TECHMIND-2021,3rd Global Congress on Contemporary Sciences & Advancements, organized by E-Cjnference Globe on April 6th -7th, 2021.

Муравьев Е.М. Общие вопросы методики преподавания технологии // Е.М. Муравьев. – Брянск: НМИЦ «Технология», 2000. - 296 с.

МЕДИАТАЪЛИМ АСОСИДА ИШЛАБ ЧИҚИЛГАН “АТОМ ФИЗИКАСИ” ЭЛЕКТРОН ЎҚУВ ҚЎЛЛАНМАСИНИНГ ТУЗИЛИШИ ВА ДИДАКТИК ИМКОНИАТЛАРИ

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.74.77.051>

Нарбаев Азамат Бахрамович

Термиз давлат университети, Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация: Ушбу мақолада Атом физикасини ўқитиши медиатаълим имкониятларидан фойдаланилган «Атом физикаси» электрон ўқув қўлланмаси ва унинг дидактик имкониятлари ҳақида сўз боради. Унинг талабаларда атом физикасининг мураккаб тушунчалари ҳақида тўлиқ тасаввур ҳосил қилиши учун керакли дастурий педагогик восита эканлиги кўрсатиб берилган.

Калит сўзлар: Атом физикаси, медиатаълим, дастурий педагогик восита, анимация, AutoPlay 8.5, электрон ўқув қўлланма, офлайн, симуляция, тест.

СТРУКТУРА И ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ЭЛЕКТРОННОГО УЧЕБНОГО РУКОВОДСТВА «АТОМНАЯ ФИЗИКА», РАЗРАБОТАННОГО НА ОСНОВЕ МЕДИА-ОБРАЗОВАНИЯ

Нарбаев Азамат Бахрамович

Термезский государственный университет, Доктор философии педагогических наук (PhD)

Аннотация: В статье рассматривается электронный учебник «Атомная физика» и его дидактический потенциал, использующий возможности медиаобразования для преподавания атомной физики. Было показано, что это программный педагогический инструмент, необходимый для того, чтобы дать студентам полное понимание сложных концепций атомной физики.

Ключевые слова: Атомная физика, медиаобразование, программный педагогический инструмент, анимация, AutoPlay 8.5, электронное руководство, офлайн, симуляция, тест.

STRUCTURE AND DIDACTIC POSSIBILITIES OF THE ELECTRONIC EDUCATIONAL BOOK «ATOMIC PHYSICS» DEVELOPED ON THE BASIS OF MEDIA EDUCATION

Narbaev Azamat Baxratovich

Termez State University, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

Abstract: This article discusses the electronic textbook «Atomic Physics» and its didactic potential, which uses the opportunities of media education to teach atomic physics. It has been shown to be a programmatic pedagogical tool needed to give students a complete understanding of complex concepts of atomic physics

Keywords: Atomic physics, media education, software pedagogical tool, animation, AutoPlay 8.5, electronic textbook, offline, simulation, test.

Медиатаълим асосида ишлаб чиқилган “Атом физикаси” электрон ўқув қўлланмаси гиперҳавола тизимига эга бўлиб, AutoPlay 8.5 дастурида ишлаб чиқилган ва офлайн режимда ишлайди. Унда асосан атом физикаси фани мавзулари медиахабарлар (видео, аудио, фото, симуляция, анимация ва бошқалар) асосида тушунтирилган. Бундан ташқари электрон тест тизими орқали ўқувчилар ўзини ўзи баҳолашлари мумкин. Адабиётлар бўлимида эса қўшимча равишда бугунги кундаги атом физикаси таълимига ихтисослашган бир қатор Интернет сайтлари келтирилган. Медиатаълим асосида ишлаб чиқилган “Атом физикаси” электрон

ўқув қўлланмаси қуйидаги тузилишига эга (2.5-расм).



2.5-расм. “Атом физикаси” электрон ўқув қўлланмасининг тузилиши.

“Атом физикаси” электрон мультимедиа ўқув қўлланмаси Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги Интеллектуал мулк агентлиги “Интеллектуал мулк консультатив маркази” давлат унитар корхонаси томонидан № 001868 гувоҳнома асосида рўйхатга олинган. [1].

Олий таълимда атом физикасини ўқитиш бўйича ўрганишлар натижаси шуни кўрсатмоқдаки, бугунги кунда университетларда атом физикасини ўқитиш билан боғлиқ бир қатор мураккабликлар мавжуд. Бу мураккабликлар қуйидагилар:

талабаларда микродунё хақида уч ўлчамли тасаввур ҳосил қилиш мураккаблиги;

атом физикаси дарсларида фойдаланиладиган чизмаларнинг мураккаблиги ва уни доскага чизиш учун кўп вақт талаб қилиниши;

микродунё объектларинининг ҳаракатларини тушунтиришдаги мураккабликлар;

атомдаги электронларнинг ҳаракатини тушунтиришдаги мураккабликлар;

атом нурланишини тушунтиришдаги мураккабликлар;

микродунё объектлари хақидаги тажрибаларни ўтказишдаги мураккабликлар;

талабаларнинг квант структуралар хақида тасаввурни ҳосил қилишдаги мураккабликлар;

ва бошқа шу каби бир қатор мураккабликлар.

Юқоридаги мураккабликларни камайтириш ва тасаввур ҳосил қилиш тўлиқ бўлиши учун электрон ўқув қўлланмадан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир [2].

Мазкур электрон ўқув қўлланма, унга қўйилган талабларга кўра, ОТМ нинг физика таълим йўналиши бакалаврият талабалари учун мўлжалланган. Унда мавзулар баёни маълумотлар, графиклар, расмлар, жадваллар, флеш дастурлар, анимациялар ва видео файллар асосида очиб берилган [3].

Шунингдек, электрон ўқув қўлланма талабаларда мустақил ишлаш қобилиятларини шакллантиради, атом физикаси бўйича тўлиқ тасаввур қилиш билан бирга уларнинг бу фанига бўлган қизиқишларини ҳам оширишга ёрдам беради (2.6-расм).



2.6-расм. “Атом физикаси” электрон мультимедиали ўқув қўлланмаси.

Бу электрон ўқув қўлланма Атом физикаси фан дастури асосида ишлаб чиқилган бўлиб, жами 18 та маърузадан иборат ва ҳар бир маърузани ўқитишга инновацион ёндашилган. 18 та маърузанинг номлари фан дастуридаги мавзуларнинг номи билан мос тушади.

Электрон ўқув қўлланмада 26 та овозли медиатаълим асосида ишлаб чиқилган илмий асосга эга бўлган видео файллардан, 100 дан ортиқ расм, анимация, симуляция ва матнлардан фойдаланилган. Флеш дастурли анимациялардан кенг фойдаланилган.

Бу электрон қўлланма мураккабликлардан ҳоли бўлиб, содда кўринишга эга. Ундан ўқувчилар ортиқча қийинчиликларсиз фойдалана олишлари мумкин. Унда қуйидаги тугмачалар мавжуд:

- “Дастурга кириш” – дастурни бошлаш;
- “Мавзулар” – мавзулар бўлимига ўтиш;
- “Тестлар” – тестлар бўлимига ўтиш;
- “Адабиётлар” – фойдаланилган адабиётларни кўрсатиш;
- “Ёрдам” – фойдаланиш йўриқномасига ўтиш;
- “Муаллифлар – муаллифлар ҳақида маълумотлар;
– кейинги слайдга ўтиш;
- “ ” – Олдинги слайдга ўтиш;
- “Мундарижа” – мавзулар бўлимига қайтиш;
- “Меню” – асосий менюга ўтиш;

Дастурдан чиқиш учун экрандаги тугмаси босилади.


Электрон ўқув қўлланмани тузишда, асосан, чет эл адабиётлари ва дарсликлари, электрон таълимга ихтисослашган интернет сайтлари, янги адабиётлар ва телевидение, видео материалларидан фойдаланилган. Адабиётлар ҳақидаги тўлиқ маълумотларни электрон ўқув қўлланманинг “Адабиётлар” бўлиmidан олиш мумкин бўлади.

“Тестлар” бўлимига ўтилганда жами бир вариантда 20 тест бўлиб бу бутун атом физикаси фани бўйича тузиб чиқилган. Ҳар сафар янгидан тест бошланганда янги вариантлар тақдим этилади.


“Атом физикаси” электрон ўқув қўлланма қуйидаги дидактик имкониятларга эга:

- талабаларнинг микродунё ҳақидаги 3-ўлчамли тасаввурларини ривожлантириш;
- дарс вақтини тежаш;
- ўқитувчиларга услубий ёрдам кўрсатишни ташкил этиш;
- интернетдан маълумотларни қидириш кўникмаларини ривожлантириш;
- тест тизимидан фойдаланган ҳолда талабалар ўзини-ўзи баҳолаш орқали янги билимларга эга бўлиш;
- талабаларда дастурий воситалар билан ишлаш кўникмаларини ривожлантириш.

Ушбу электрон ўқув қўлланма асосида ўқитиш орқали талабаларнинг атом физикаси фани олган билимлари бўйича тажриба-синов ишларини ўтказд ўтказиш учун Термиз давлат университети физика таълим йўналишининг 301 ва 302 гуруҳлари танлаб олинди. Бунда 301 гуруҳ тажриба гуруҳи 302 гуруҳ талабалари эса назорат гуруҳи сифатида қатнашди. Талабаларнинг билимлари мавзуга оид 20 та тест топшириқларини бажариш орқали баҳолаб олинди. Натижалар таҳлил қилинганда қуйидаги кўрсаткичларни берди: 301 гуруҳдаги жами 25 нафар талабадан 9 нафари 86-100 %, 9 нафари 71-85 %, 7 нафари 55-70 %, ўртача 75,64% га ўзлаштирди. 302 гуруҳдаги жами 25 нафар талабадан 4 нафари 86-100 %, 10 нафари 71-85 %, 11 нафари 55-70 %, ўртача 71,04% га ўзлаштирди. Натижаларнинг график кўриниши 4-5 расмларда келтирилган.



4-расм: Талабалар ўзлаштириш кўрсаткичининг сонига боғлиқлиги графиги



5-расм: 301 ва 302 гуруҳларнинг ўзлаштириш кўрсаткичларини солиштириш графиги

ХУЛОСА. Натижалар таҳлил қилинганда, 301 гуруҳдаги (Таҷриба) жами 25 нафар талабадан 9 нафари 86-100 %, 9 нафари 71-85 %, 7 нафари 55-70 % , ўртача 75,64% га ўзлаштирди. 302 гуруҳдаги (Назорат) жами 25 нафар талабадан 4 нафари 86-100 %, 10 нафари 71-85 %, 11 нафари 55-70 %, ўртача 71,04% га ўзлаштирди. Юқоридаги натижалардан хулоса қилиб айтиш мумкинки, бу электрон таълимий воситалардан фойдаланиш орқари атом физикаси ўқитишда ўзлаштириш кўрсаткичини қарийб 4,6 % га ўсишига эришилди.

Шуни таъкидлаш керакки, бугунги кунда дунё жадаллик билан ривожланишга юз тутган. XXI аср техника ва технологиялар асри эканлиги ҳеч кимга сир эмас. Биз ҳам шу йўлдан бориб, ахборот ва инновацион технологиялардан фойдаланилган ҳолда атом физикасини ўқитиш самарадорлигини оширишга хизмат қилувчи мультимедияли электрон ўқув қўлланмани ишлаб чиқдик. Бу ўқув қўлланма ёш авлод тарбиясида ва унинг микродунё ҳақидаги билимларини юксалтиришга ёрдам беришига ишонамиз.

Фойдаланилган адабиётлар:

А.В.Нарбаев, А.С. Қосимов. “Atom fizikasi” elektron o‘quv qo‘llanma. Toshkent 2018 y.

А.Б.Нарбаев, Астрономия ўқитишда медиатеология воситаларидан фойдаланиш авфзалликлари. Педагогика ва психологияда инновациялар журнали 2-сон. Тошкент 2018 й.

Иванов А. Учебник будущего // Высшее образование в России. – 2001. – №6.

Гомулина Н.Н. Применение новых информационных и телекоммуникационных технологий в школьном физическом и астрономическом образовании: дис.... канд. пед. наук / Н.Н Гомулина. – М., 2003. – 247 с.



**ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ
САМАРАДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ**

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.26.88.050>

Норбошева Мехри Ачиловна

*ТерДУ Педагогика институти Психология кафедраси мудири
Психология фанлари номзоди, доцент*

Аннотация: Мазкур мақолада боланингоиламуҳити, оилавий муносабатларини ўрганишининг таълим-тарбияга таъсири, бола шахси шаклланишида оиладаги ўзаро муносабатларнинг ўрни масалалари баён этилган.

Калит сўзлар: оилавий муносабатлар, “мен”, оила расми, ота-онага муносабат, шахслараро муносабат, психологик портрет, таълим, тарбия

**ВЛИЯНИЕ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ
ОБРАЗОВАНИЯ**

Норбошева Мехри Ачиловна

*Заведующей кафедры Психологии Педагогического института ТерГУ
Кандидат психологических наук, доцент*

Аннотация: В статье описывается семейное окружение ребенка, влияние изучения семейных отношений на образование и воспитание, роль семейных отношений в формировании личности ребенка.

Ключевые слова: семейные отношения, “Я”, образ семьи, отношение к родителям, межличностные отношения, психологический портрет, образования, воспитания

**INFLUENCE OF FAMILY RELATIONSHIP ON EDUCATION
EFFICIENCY**

Norbosheva Mehri Achilovna

*Head of the Department of Psychology, Pedagogical Institute TerSU
PhD in Psychology, Associate Professor*

Abstract: The article describes the child's family environment, the impact of studying family relations on education and upbringing, the role of family relations in the formation of the child's personality.

Keywords: family relations, «I», family image, attitude to parents, interpersonal relationships, psychological portrait, education, upbringing

Мавзунинг долзарблиги: Боланинг сифатли таълим олиши учун албатта яратилган шарт-шароитлар муҳим ҳисобланади. Айниқса, бола яшаётган оила муҳитининг маънавий-психологик иқлими соғлом бўлишлиги унинг таълим-тарбиясига ижобий таъсир кўрсатади. Оиланинг болани ўқиши учун масъулиги “Таълим тўғрисида”ги Қонуннинг 51-моддасида: “Вояга етмаган таълим олувчиларнинг ота-онаси ва бошқа қонуний вакиллари боланинг ўқиши, тарбияланиши, жисмоний, маънавий ва интеллектуал ривожланиши учун масъулдир... ўз болаларини инсонпарварлик, ватанпарварлик, меҳнатсеварлик, маънавий, миллий ва умуминсоний кадриятларни ҳурмат қилиш руҳида тарбиялаши; ўз болаларининг интеллектуал, маънавий ва жисмоний ривожланиши учун шарт-шароитлар яратиши”[1] белгилаб қўйилган.

Ўзбекистонда оилаларни мустаҳкамлаш, уларни ижтимоий ҳимоялаш, баркамол шахс, маънавий етук, жисмонан соғлом авлодни тарбиялаш йўлида ижобий ишлари ўз ифодасини топмоқда. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 2019 йил 3 майдаги ПҚ–4307-сон қарорига мувофиқ ёшларни мустақил ҳаётга кафолатли тайёрлаш, тарбиянинг ҳомиладорлик давридан бошланиб, 18 ёшигача давом этадиган, тадрижийлик ва узлуксизлигига асосланган методикани ишлаб чиқиш ва ҳаётга татбиқ этиш, ёшларни шахс сифатида ўз-ўзини ривожлантиришга йўналтириш, дунёқараши кенг, фаол фуқаролар этиб тарбиялаш мақсадида “Узлуксиз маънавий тарбия концепцияси”[3] тасдиқланди. Оилавий тарбия ижтимоий тарбияга нисбатан болаларнинг руҳий оламига, ҳиссиёти ва туйғуларига чуқур таъсир кўрсатади. Ҳозирги шароитда оилаларда умуминсоний ва миллий кадриятларга таянган, шарқона ахлоқий хусусиятлар акс этган маънавий-ахлоқий муносабатлар қарор топмоқда ва оилаларда ҳуқуқий, ахлоқий ва руҳий асослар такомиллашиб бормоқда. Уйда соғлом ахлоқий муҳит, ўзаро муомала маданияти, ахлоқий тамойил чуқур илдиз отмаса, оилада бўшлиқ, салбий ҳолатларнинг қарор топиши муқаррардир.

Ота-оналар ва педагоглардан талаб қилинадиган нарса эса – бу катта сабр, меҳр ва бола тарбиясига илмий асосланган ягона ёндашувдир. Тўғри йўсинда олиб борилган тарбия натижасида бола мустақил фикр юритишга ва катта ҳаётга дадил қадам қўйишга тайёр бўлади. Болаларнинг оилада ўз “мен”ини англаши жуда муҳим ҳисобланади. Педагоглар ва психологлар оила муаммоларини, унинг анъана ва удумларини, бола шахсининг шаклланишида оиланинг таъсирини кўплаб тадқиқотларда ўрганганлар. Бола ота – онанинг фақатгина тарбиявий таъсир этиш маҳсули эмас. У ўз оиласини ўзича тушунади ва қабул қилади. Оиладаги ўз ўрнини ўзаро алоқада белгилайди ва оилада ўзини шахс сифатида англайди. Болалар оилада рўй бераётган ҳодисаларга катталарга нисбатан бошқача баҳо берадилар. Биз қачонки атрофимиздаги оламни бола кўзи билан кўришга ўрганиб олганимиздан сўнггина, уларни тўғри тушунамиз, ҳаяжонларига, қайғуларига ёрдам бера оламиз. Бугунги амалий психология ва болалар психологиясида мактабгача ва кичик мактаб ёшдаги болаларнинг оилада болани шахс сифатида идрок этилиши ва унинг бола умумпсихик тараққиётига таъсири, оила аъзоларининг ўзаро муносабатлари доирасида ижтимоий роллар ҳақидаги тасаввурлар шаклланиши, катталарга тақлид орқали мулоқот кўникма ва малакаларининг таркиб топиши каби масалалар ўрганилмоқда.

Методика. Ҳозирда кўплаб психодиагностик воситалар тестлар, методикалар, сўровномалар мавжуд бўлиб улардан ўқувчи шахсининг оилавий муносабатларини ўрганишда кенг фойдаланилмоқда. Шундай ташхис воситаларидан бири бу “Оила расми” номи билан кенг тарқалган проектив тестиدير. Эстон психологи Г.Хоментас[10] томонидан ишлаб чиқилган машҳур «Оила расми» тести катталарга дунёни бола кўзи билан кўришга ёрдам берувчи воситадир. Бу тест боланинг ўз оиласига берган шахсий баҳоси ҳақида, оила аъзолари билан бўлган муносабатлари, бола нималарни идрок қила олмаслиги, нималарни кучли ҳаяжон билан ҳис қилиши ҳақида тушунча беради. Нималар болани онгсиз равишда хавотирга солса, худди шу нарсалар болаларнинг расмларида ифодаланади. Оила расми бола шахсининг психологик портретидир. Бу тестни 3 ёшдан 10 ёшгача бўлган болаларда қўллаш мумкин. Психологлар бу тестдан боланинг оиладаги “Мен”ини ўрганиш мақсадида фойдаланадилар. Бу тестни ўтказиш педагогик

ва психологик амалиётда қулай ва оммабоп. Бу тестни ўқитувчилар, таълим муассасалари психологлари ва ҳатто ота – оналар ўтказишлари мумкин.

Тадқиқотни ўтказиш учун 21 x 29 см ҳажмидаги оқ қоғоз, ўчирғич керак. Болага: «Илтимоc, ўз оиланг расмини чизиб бер» – деб айтилади. Лекин «оила» нима эканлиги ҳақида тушунтирилмайди, чунки, тест талаби шуни тақозо этади. Агар, болага тушунча берилса тадқиқот ўтказишнинг мақсади ўзгаради. Болага расм чизиш топшириқ берилганда вақт чегараланмайди. Топшириқни бола бажараётганда қуйидагиларга эътибор бериш керак: таркибларни чизиш кетма – кетлиги, таркибларни ўчирилиши, боланинг изоҳларга, ҳис – ҳаяжонга берилиши ва ҳ.к.

Топшириқ бажариб бўлгандан сўнг болага қуйидаги саволлар берилиб суҳбат ўтказилади:

- 1) Айтчи, сен бу расмда кимларни чиздинг?
- 2) Улар қаердалар?
- 3) Улар нима қияптилар?
- 4) Улар хурсандмилар, ёки бирон нарсадан зерикканмилар?
- 5) Улардан қайси бири бахтли? Нимага?
- 6) Улардан қайси бири жуда бахтсиз? Нимага?

“Оила расми” методикаси натижаларини таҳлил қилишда боланинг ёши, оила аъзоларининг сонини ҳамда ака, ука, опа, ёки сингилларининг ёшини билиш мақсадга мувофиқ.

Шунингдек, бола чизган расм таҳлил қилинаётганда суҳбатдаги маълумотлар методиканинг шкалаларига қатъий эътибор қаратишни талаб қилади.

Оила расми тести боланинг ёш хусусиятлари билан боғлиқдир. 3 – 4 ёшдаги болалар одам гавдасини чизиқлар билан тўлиқ бўлмаган ҳолда чизадилар. 5 – 10 ёшли болаларнинг расми эса анча бойроқ бўлиб, гавда тузилишлари тўлиқ, расмлар тугалланган бўлади. Демак, болалар томонидан чизилган оила расмлари синчковлик билан ҳар бир деталига эътибор бергани ҳолда таҳлил қилиниши лозим бўлади. Бу тест учун миқдорий баҳо белгилаш тизими ишлаб чиқилган ва 5 хил аломат мажмуаси ажратиб кўрсатилган

Маълумки, оилани кинетик расми методикаси фақат бугунни, ўтмишни акс эттириб қолмай шу билан бирга келажакка қаратилгандир, чунки бола расм чизишда вазиятни тушуниб олишга интилади, оилавий муносабатлар ҳал қилади. Оиланинг кинетик расми икки қисмдан расм чиздириш ва расмдан кейин суҳбатлашишдан иборат. Тадқиқот давомида болаларга кўрсатмага мувофиқ оқ қоғоз, қора қалам ва ўчирғич берилди. Вазифа тушунтирилгач, болалар катта қизиқиш билан расм чиздилар. Болаларни 2 та гуруҳга ажратиб олинди, 1- гуруҳ 5-7 ёшлилар, 2- гуруҳ 7-10 ёшлилар бўлди. Болалар билан расм чизиш давомида чизаётган расмларига шарҳлар беришди, жумладан, онам бу ерда туради, синглим ухлаб қолгани учун кўринмайди, дадам йўқлиги учун онамни 2 марта чизсаммикан?, бобомниям чизсам майлими? каби мулоҳазалар кузатилди. Болалар ўзлари чизган расмларни бир-бирларига кўрсатиб изоҳлаб ҳам бердилар. Расм чизишни яқунлаган болалар билан олиб борилган суҳбат натижаларига кўра таҳлил умумий тарзда қуйидагича ўз аксини топди.

1-жадвал

№	шкалалар	Умумий таҳлил натижалари					
		Болалар сони	фоизда	Шундан кизлар	фоизда	Шундан ўғил болалар	фоизда
1	оиладаги барча аъзоларнинг расмини чизган	31	73,8	19	45,2	12	28,5
	оила аъзоларидан биронтаси чизилмаган	11	26,1	7	16,6	4	9,5
2	оилага тааллуқли бўлмаган одамларнинг расми чизилган	13	30,9	5	11,9	8	19
3	ўзини ота ва онасининг ўртасида чизиб кўрсатган	21	50	13	30,9	8	19
	кичик укаси ёки синглисини умуман чизмаган	9	21,4	3	7,1	6	14,3
4	бола ўз расмини чизмаган	13	30,9	6	14,3	7	16,6
	фақат ўзинигина чизган	8	19	3	7,1	5	11,9
5	Оила ўрнига ҳайвонлар ва қушларни чизган	8	19	3	7,1	5	11,9
6	оила аъзоларининг расмини қўллари туташган ва бир қаторда чизган	31	73,8	19	45,2	12	28,5
7	оила аъзолари гуруҳ – гуруҳ бўлиб чизилган	10	23,8	6	14,3	4	9,5
8	Оила аъзоларининг кийимларида қўп таркибларнинг борлиги, ранглиги	28	66,6	19	45,2	9	21,4
	оила аъзоларининг гавдалари тўлиқ эмаслиги, кийимсиз ёки тугатилмаганлиги	14	33,3	6	14,3	8	19
9	отаси ва онасини жуда катта қилиб чизган	30	71,4	18	43	12	28,5
10	ўзини ота ва онасидан ҳам катта қилиб чизган	12	28,5	7	16,6	5	11,9
11	ўзини оила аъзоларига нисбатан жуда кичик чизган	21	50	16	38	5	11,9
12	бола ўз расмини қўлларини юқорига кўтарган ҳолда, бармоқларини узун қилиб чизган	17	40,4	10	23,8	7	16,6
13	оила аъзоларининг қўлларини муштча тугилган ҳолда, бармоқлари узун ҳолатда чизган	9	21,4	3	7,1	6	14,3
14	ўзининг тишларини катта қилиб чизган	17	40,4	10	23,8	7	16,6
	оила аъзоларини тишларини катта қилиб чизган	10	23,8	4	9,5	6	14,3

Хулоса. Оилани кинетик расми методикаси фақат бугунни, ўтмишни акс эттириб қолмай шу билан бирга келажакка қаратилгандир, чунки бола расм чизишда вазиятни тушуниб олишга интилади, расмида ифодаланган оиладаги шахслараро муносабатларни ўзига хос тарзда талқин қилади, оила ҳақидаги тасаввурини намоён этади. Ҳар бир расмда боланинг тасаввурдаги “ота-она” ижтимоий роллари акс этади, оилавий муносабатлар психологияси кўринади. Таҷриба натижаларига кўра синалувчиларнинг 71,4% отаси ва онасини жуда катта қилиб чизган, демак, оиладаги муносабатлар тенглик асосида, бола ўзини оилада катталардек хис қилади деган хулосага келиш мумкин. Бундай оилаларда бола шахси шаклланишига ижобий таъсир кўрсатувчи муҳитнинг мавжудлиги қувонарли албатта. Аммо, оиласининг ўрнига ҳайвонлар ва қушларни чизган болалар 19%ни ташкил этди, бундай болаларга оиласида эътибор ва ҳиссий мулоимлик етишмаслиги ачинарли ҳол. Бундай муҳитда ўсаётган болада ўзига ишончи паст, одамовилик, мулоқотга киришишда қийинчилик, мустақил фикрлай



олмаслик каби ҳолатлар кузатилади.

Тадқиқотчилар фикрича, ота-она ва фарзанд ўртасидаги муносабат бола шахси шаклланишидаги етакчи омилдир. Мактабгача ва кичик мактаб ёшдаги болаларнинг оила ҳақидаги тасаввурларини ўрганиш, ҳар бир боланинг оилавий муҳити ва ота-онасининг болага муносабати ҳақидаги маълумотлар тарбиячи-педагогларга оила билан ҳамкорликда муҳим манба сифатида хизмат қилади. Бу эса таълим ташкилотларида олиб бориладиган таълим-тарбия жараёнининг сифати ва самарадорлигини таъминлайди.

Адабиётлар:

Ўзбекистон Республикаси “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 12.10.2021 й., 03/21/721/0952-сон)

Абрамова Г.С. Практическая психология. М.,Триеста. 2005. 496с

Узлуксиз маънавий тарбия концепцияси. Тошкент-2019 йил

Норбошева М.О. Мактабгача таълимда психодиагностика Термиз, 2015

Норбошева М. Мактабгача ёшдаги бола шахсини ривожлантиришда ўйинли технологиялардан фойдаланишнинг аҳамияти. ж.Педагогика. 2021 2-сон, 125 б

Норбошева М.А. Болалар психологияси ва психодиагностикаси. Т.,2020

Норбошева М.А. Оилада маънавий тарбияни такомиллаштиришда

мумтоз асарларнинг ўрни. ж. Педагогика ва психологияда инновациялар №8, 2020. 15-22б

Narbasheva M. A. The importance of pedagogical and psychological literacy of parents in preparing children for school education// ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal Vol. 11, Issue 1, January 2021 p.728-732

Ғозиев Э.,Самарова Ш. Болалар психологияси Т.,2012

Хоментаускас Г.Т. Семья глазами ребенка. М.,Педагогика. 1989 110 с

**CHIZMACHILIK DARSLARIDA REZBALARNI CHIZMADA
TASVIRLASH VA BELGILASHGA OID METODIK TAVSIYALAR**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.31.50.049>*Mamatqulov Ilxomjon Chorshanbiyevich**TerDU, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası o'qituvchisi,**Omonova Rayhon Rahmatillayevna**TerDU, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası o'qituvchisi*

Annotasiya: Ushbu maqolada chizmachilik darslarida rezbalarni hosil qilish, uning turlari va ularni chizmalarda tasvirlash va belgilashga oid nazariy va amaliy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zi: chizmachilik, ajraladigan birikmalar, mashinasozlik chizmachiligi, standart, rezba, sbeg, metrik rezba, quvurli rezba, tirak rezba, trapetsiyasimon rezba.

**МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ИЗОБРАЖЕНИЮ И
ОБОЗНАЧЕНИЮ РЕЗЬБЫ НА ЧЕРТЕЖЕ НА УРОКАХ РИСОВАНИЯ***Маматкулов Илхомжон Чоршанбиевич**Преподаватель кафедры изобразительного искусства и инженерной
графики ТерГУ**Омонова Райхон Рахматиллаевна**Преподаватель кафедры изобразительного искусства и инженерной
графики ТерГУ*

Аннотация: В данной статье представлена теоретическая и практическая информация по формированию резьбы на уроках рисования, ее видам и их изображению и обозначению на чертежах.

Ключевое слово: чертеж, разъемные соединения, машинное черчение, стандарт, резба, сбэг, метрическое резба, трубчатое резба, Топольное резба, трапециевидное резба.

**METHODOLOGICAL RECOMMENDATIONS ON THE IMAGE AND
DESIGNATION OF THE CARVING IN THE DRAWING IN DRAWING LESSONS***Mamatkulov Ilxomjon Chorshanbiyevich**Teacher of the Department of Fine Arts and Engineering Graphics of TerSU**Omonova Raykhon Rahmatillayevna**Teacher of the Department of Fine Arts and Engineering Graphics of TerSU*

Abstract: This article presents theoretical and practical information on the formation of carving in drawing lessons, its types and their image and designation in drawings.

Keyword: drawing, detachable joints, machine drawing, standard, thread, run, metric thread, tubular thread, poplar thread, trapezoidal thread.

Mashinasozlikda rezbalar keng tarqalgan bo'lib, o'zining universalligi, yuqori darajada mustahkamligi, katta kuch ta'sirlariga chidamliligi bilan munosib o'rin olgan.

Rezbalar yordamida detallar bir-biri bilan mustahkam biriktiriladi va osongina ajraydi. Yoki maxsus detallar yordamida (bolt, vint, shpilka kabilar) biriktiriladi va ajratiladi [1].

Barcha birikmalar rezbalar yordamida amalga oshiriladi. Rezbalar tasnifi:

a) rezbalar profiliga qarab uchburchakli, trapetsiyasimon, yumaloq, to'g'ri burchakli va boshqacha profillarga ajratiladi;

sirtiga qarab ular silindrik va konussimon rezbalarga ajratiladi;
sirtga nisbatan joylashishiga qarab ular tashqi va ichki rezbalarga ajratiladi;
foydalanilishiga qarab ular biriktiruvchi (metrik), zichlab biriktiruvchi (konussimon, trubasimon), suriluvchi (tirakli, trapetsiyasimon), maxsus rezbalarga ajratiladi;

vintli sirtining yoʻnalishiga qarab ular oʻng va chap yoʻlli rezbalarga ajratiladi;
kirimining soniga qarab rezbalar bir kirimli va koʻp kirimli (ikki kirimli, uch kirimli va x. k.) guruhlarga ajratiladi.

Profiliga qarab rezbalarning har biri uchun alohida standartlar mavjud:

- rezbaning vint chizigʻi - silindrik yoki konussimon sirtida nuqtaning aylanma va ilgarilama harakati natijasi-da chizgan chizigʻiga vint chiziq deyiladi;


- rezbaning vintli sirti - vint chizigʻi boʻyicha silindrik yoki konussimon sirtida qirqilgan rezbaning sirti;

- silindrik va konussimon rezba - toʻgʻri doiraviy silindr va konus sirtlarga oʻyilgan rezbalar;

- rezbaning oʻrami - nuqtaning sirt yuzasida bir marta aylanib chiqqan geometrik yoʻli;

- oʻng va chap yoʻlli rezba - silindr yoki konus sirtida soat mili yoʻnalishi boʻyicha qirqib hosil qilingan rezba chap, soat mili yoʻnalishiga teskari harakat qilib oʻyilgan rezba oʻng yoʻlli rezba deyiladi;

- bir kirimli va koʻp kirimli rezba - bitta nuqta orqali chizilgan vint chizigʻi orqali qirqilgan rezba (P) bir kirimli, bir vaqtning oʻzida ikkita va undan ortiq nuqtalar chizgan vint chiziqdari orqali qirqilgan rezbalar (Pn) koʻp kirimli rezba deyiladi (1-chizma).



1-chizma


Rezbaning asosiy elementlari va parametrlari:

- rezbaning oʻqi - vint sirti hosil boʻlgan sirtning oʻqi;

- rezbaning profili - rezbaning oʻqi orqali hosil qilingan kesimdagi tishning chiqqan qismi shakli;

- rezbaning yuqori va ostki qismi - vintli rezba sirtining yuqori qismi va ichki, yaʼni rezba ariqchasining tub qismi;

- rezbaning ichki diametri (d1) - sirtga oʻyilgan rezbaning ichki diametri (2-chizma, a), teshikka oʻyilgan rezbaning tashqi diametri qismi sirti (2-chizma, b). [3]



2-chizma

- rezbaning nominal diametri - rezba oʻlchamini shartli belgilashda qoʻllanadigan

diametr;


- rezbaning qadami (P) - rezbaning bir o'rami, ya'ni silindr yoki konus sirtida nuqtaning bir marta aylanib chiqqandagi chizgan vint chizig'iga teng masofa;

- rezbaning sbegi - detalning silliq qismidan rezbaning to'liq o'yilgan joyigacha bo'lgan masofa (2-chizma);

- konus rezbaning keltirilgan o'rtacha diametri - tashqi yoki ichki konus rezbaning profili chiziqli va burchak elementlarining o'lchami bilan aniqlangan o'rtacha nominal diametric [2].

Rezba turlari:

Silindrik metrik rezba (GOST 8724-81 va GOST 9150-81) (3-chizma) o'zining burchak profili $\alpha=60^\circ$ bilan (profil - teng tomonli uchburchak) xarakterlanadi. Profilning nazariy balandligi $H=0,86602P$ ga, xizmat balandligi $H=0,54126P$ ga teng.




3-chizma

Metrik rezbalarni shartli belgilashda M harfi, nominal diametri, mayda yoki yirik qadamliligi, chap yo'lli rezbalar uchun LH lar qatnashadi. Masalan, nominal diametri 24 mm, yirik qadamli metrik rezba - M24 deb belgilanadi. Shu o'lchamdagi mayda qadamli ($r=1,5$) rezba - M24x1,5, agar shu o'lchamdagi rezba chap yo'lli yirik qadamli bo'lsa, M24LH, mayda qadamli bo'lsa, M24x1,5LH ko'rinishida belgilanadi.


Metrik rezba ko'p kirimli bo'lsa, qavs ichida P ning qiymati ko'rsatiladi. Nominal diametri 24 mm, kirimi 3 mm, qadami 1 mm bo'lsa, M24x3(P1) deb yoziladi, shu o'lchamdagi rezba chap yo'lli bo'lsa, M24x3(P1)LH deb belgilanadi.

Konussimon metrik rezba (GOST 25229-82) (4-chizma). Konussimon metrik rezbalar 1:16 nisbatdagi konus sirtiga o'yiladi. Ularning nominal diametri 6 mm dan 60 mm gacha bo'lishi mumkin [3]. Konussimon rezbalarni shartli belgilashga misol: MK harflari, nominal diametri, qadami qatnashishi lozim.



4-chizma

Silindrik quvurli rezba (GOST 6357-81) (5-chizma). Quvurlarni bir - biri bilan ulashda ishlatiladi. Quvurli rezbalar duyuumlarda G harfi bilan belgilanadi.




5-chizma

A sinf aniqligidagi 1½ o'lchamdagi silindrik truba rezbaning belgilanishiga misol: G1½-A. Shu o'lchamdagi B sinf aniqligidagi, chap yo'lli trubali rezba-G1½LH - B deb belgilanadi. Tashqi va ichki rezbalarni birlashtirishda ularning aniqliklari bir xil bo'lsa, G1½-A/A, har xil bo'lsa, - G1½-A/B ko'rinishida belgilanadi.

Konussimon quvurli rezba (GOST 6211-81) 1:16 konuslikdagi sirtga o'yladi. Konussimon quvurli rezbalarni shartli belgilashda R harfi qatnashadi. Tashqi konussimon truba rezba - R1½, ichkisi - Rc1½, shu rezba tashqi chap yo'lli bo'lsa, R1½ LH, ichki chap yo'lli bo'lsa, Rc1½ LH deb belgilanadi. Trubalarni bir - biriga o'tqazishda Rc/R1½-A/B kabi yoziladi. Ba'zi hollarda ichki silindrik truba rezbaga tashqi konussimon truba rezbalar o'tqazilishi mumkin. Shunda ular quyidagicha belgilanadi: G/R½-A; G/R1½ LH-A.

Trapetsiyasimon rezba (GOST 9484-81) larning (6-chizma) profili teng yonli trapetsiyadan iborat bo'lib, uchidagi burchagi 30° ga teng. Standartga ko'ra bu rezbalar 10 mm dan 640 mm gacha bo'lgan diametrlarda tayyorlanishi mumkin. Bunday rezbalar harakatlantiruvchilar guruhiga kiradi.




6-chizma

Trapetsiyasimon rezbalar mayda, yirik qadimli, bir kirimli, ko'p kirimli, o'ng yo'lli va chap yo'lli bo'ladi.

Ko'p kirimli trapetsiyasimon rezbani belgilashda, uning qadami Pn (P - qadami, n - kiritimlar soni) kiritiladi. Masalan:, Tr50x8/P4/ - nominal diametri 50 mm, kiritimi 8 mm,

qadami 4 mm, shu parametrlil rezba chap yo'lli bo'lsa, Tr50x8/P4/LH deb belgilanadi.

Tirak rezba (GOST 10177-82) larning (7-chizma) yasovchisi teng yonsiz trapetsiyadan iborat bo'lib, ish bajaruvchi tomoni 3° burchak, ikkinchi yoni 30° burchak tashkil qiladi. Rezba profilining o'yiqli qismi yumaloqlanadi, uchlari esa tekis kesilgan bo'ladi.



7-chizma


Tirak rezbalar yirik, mayda qadamli, bir kirimli, ko'p kirimli, o'ng yo'lli va chap yo'lli bo'ladi. Tirak rezbalar asosan o'q bo'yicha bir tomonga yo'nalgan, katta kuch bilan yuklanadigan vintlar (domkrat, iskanja) da ishlatiladi.

Rezbaning qancha burab kiritilganligiga misol: S50x18-7e-150 (bu yerda 150 – rezbaning burab kiritilganlik uzunligi).

Tirak rezbali birikmaning tasvirlanishiga misol: S50x8/P4/-7H/7e yoki S50x8/P4/LH-7H/7e.


Rezbalarni chizmada tasvirlash va belgilash (O'z DSt 2.311:2003). Rezba sterjen sirtida o'yilgan bo'lsa, tashqi rezba deyilib, u bolt, shpilka, vintlarda uchraydi. Teshikka o'yilgan bo'lsa, ichki rezba deyilib, u gayka, mufta, shpilka uyalarida tatbiq qilinadi.

Sterjendagi rezbaning tashqi (katta) diametri d asosiy tutash yo'g'on chiziq bilan ichki (kichik) diametri d_1 ingichka tutash chiziq bilan, tasvirlanadi (8-chizma, a). Teshikdagi rezbaning tashqi (katta) diametri d ingichka tutash, ichki (kichik) diametri d_1 asosiy yo'g'on tutash chiziqlar bilan tasvirlanadi (8-chizma, b). Rezballi teshik qirqimga tushmasa, ikkala (tashqi va ichki) diametr bir xil yo'g'onlikdagi shtrix chiziq bilan tasvirlanadi (8-chizma, c).



8-chizma


Konussimon rezbalarning chizmalarda tasvirlanishi 9-chizmada ko'rsatigan. tashqi ichki



9-chizma

Rezbaning katta diametri $d = 20$ mm. bo'lsa, kichik diametri $d_1 = 0,85$ bo'lib, $d_1 = 17$ mm da chiziladi (10-chizma, a, b). Sterjenning o'qiga parallel tekislikdagi tasvirida rezbaning ichki diametri ingichka tutash chiziqda sbegsiz tasvirlansa, toretsiga parallel tekislikdagi tasvirida rezbaning ichki diametri aylananing taxminan 3/4 qismiga teng ingichka tutash chiziqda tasvirlanadi [4].


Rezba detallarning qirqimi va kesimida yuzalar rezbaning konturiga shtrixlanadi (11-chizma, a, b).



10-chizma

11-chizma


Berk teshikdagi rezbalar 12-chizma, a, b, c dagidek tasvirlanadi.



12-chizma

Chizmalarda faskalar torets ko'rinishida tasvirlanmaydi (13-chizma, a, b, c).


Profil standart bo'lmagan rezbalar butun kerakli o'lchamlari, ya'ni kirimlar soni, chap yo'lliligi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan birga «Rezba» so'zi qo'shib ko'rsatiladi (14-chizma, a, b).




13-chizma

14-chizma

Rezbali birikmalarda sterjenning uchi teshik yuzasii bilan to'g'ri kelsa (15-chizma, a) yoki sterjen chiqib tursa (15-chizma, b). Sterjen uchi chiqib turmasa (15-chizma, c), teshik rezbasii tasvirlanadi.



15-chizma



16-chizma

Trapetsiyasimon, tirak, to'g'ri burchakli rezbali birikmalarda rezba profilini yaqqolroq ko'rsatish uchun rezbaning bir qismi mahalliy qirqimda ko'rsatiladi (16-chizma).

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

Odilov P. va boshqalar. "Chizmachilik".-T.: "TDPU rizografiya" 2000-y.

Rahmonov I.va Abdurahmonov A "Chizmachilikdan ma'lumotnoma" T "A.Navoiy nomidagi milliy kutubxona nashriyoti", 2005-y.

Rahmonov I. va boshqalar. "Chizmachilik". T.: "Voriz-nashriyot", 2016-y., 207-209-betlar.

Abdurahmonov A "Chizmachilikdan grafik ishlar tizimi" T. "Cho'lpon" 2005-y

Ashirboyev A. "Chizmachilik".-T.: "Yangi nashr". 2008-y.

Yodgorov J. va Narzullaev A. "Mashinasozlik chizmachiligi" T. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti". 2009-y.



**BO'LAJAK MUHANDIS O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA
SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYASI**

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.32.23.048>

Nazarov Abdulla Abduvaxob o'g'li

Termiz davlat universiteti texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi.

Majidova Dilnoza Bahramovna
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Bu maqolada bo'lajak muhandis o'qituvchilarini tayyorlashda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi va unga muvofiq ravishda insonparvarlik texnologiyasi, hamkorlik texnologiyasi, erkin tarbiya texnologiyasi va boshqa bir qator texnologiyalar va ularning mazmun, mohiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ta'lim texnologiyasi, bilish nazariyasi, insonparvarlik texnologiyasi, hamkorlik texnologiyasi, erkin tarbiya texnologiyasi, individuallik tamoyili, sub'ektklik tamoyili, rag'batlantirish-motivatsiyali, faoliyatning reflektiv analizi, operativ – faoliyatli, nazorat – tuzatish, muloqot ko'nikmalarining shakllanishi.

**ИНДИВИДУАЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В
ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ИНЖЕНЕРИИ**

Назаров Абдулла Абдувахоб ўғли

*Преподаватель кафедры технологического образования Термезского
государственного университета.*

Мажидова Дильноза Бахрамовна
Преподаватель Термезского государственного университета.

Аннотация: В статье рассматриваются технологии личностного образования в подготовке будущих учителей инженерного дела и, соответственно, гуманитарные технологии, технологии совместной работы, технологии бесплатного обучения и ряд других технологий, их содержание и сущность.

Ключевые слова: образовательные технологии, когнитивная теория, гуманитарные технологии, технология сотрудничества, технология бесплатного обучения, принцип индивидуальности, принцип субъективности, мотивация-мотивация, рефлексивный анализ деятельности, оперативно-деятельностный, контроль-коррекция, формирование коммуникативных навыков.

**INDIVIDUAL EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN THE TRAINING OF
FUTURE ENGINEERING TEACHERS**

Nazarov Abdulla Abduvaxob o'g'li

Lecturer at the Department of Technological Education, Termez State University.

Majidova Dilnoza Bahramovna
Lecturer at Termez State University

Abstract: This article discusses the technology of person-centered education in the training of future engineering teachers and, accordingly, humanities technology, collaboration technology, free education technology and a number of other technologies and their content and essence.

Keywords: educational technology, theory of knowledge, humanities technology, collaboration technology, free education technology, individuality principle, subjectivity principle, motivational-motivational, reflexive analysis of activity, operative-activity, control-correction, communication formation of skills.

Oliy ta'lim jarayoni o'zining mazmuni bilan bo'lajak mutaxassisni shakllantirishga qaratilgan vazifani amalga oshiradi. Unga ilmiy yondashuvlar esa ta'lim mazmunini bilim, ko'nikma va malakalar, qarashlar hamda e'tiqodlar, shuningdek, bilish nazariyasi kuchi, amaliy tayyorgarliklar rivojlanishining muayyan darajadagi tizimlarning yig'indisi sifatida izohlaydi.

Ta'lim mazmunining mohiyati turli xil ta'lim texnologiyalar bilan belgilanadi.

Shaxsga qaratilgan texnologiyalar butun ta'lim markaziga shaxsni qo'yadilar, uning tabiiy qobiliyatlarini rivojlantirish, uning rivojlanishi uchun xavfsiz sharoitlar yaratib berishni o'z maqsadi deb biladi. Bu texnologiyalarda shaxs ta'lim tizimining maqsadi bo'lib chiqadi. Bu texnologiyalar uchga bo'linadi:

Insonparvarlik texnologiyasi – boshqalardan insonparvarlik mohiyati, shaxsga yordam berishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Ta'lim beruvchining ta'lim oluvchiga nisbatan hurmat va muhabbat g'oyalari o'lg'a suradi.

1. Hamkorlik texnologiyasi - ta'lim beruvchining ta'lim oluvchilar o'rtasidagi demokratik munosabatlarni ifodalaydi. O'qituvchi va talabalar birgalikda maqsadni, ta'lim mazmunini aniqlaydilar, baholaydilar, hamkorlikda izlanadilar.

2. Erkin tarbiya texnologiyasi – shaxsga uning hayotidagi ma'lum miqdorda mustaqil tanlash uchun sharoit yaratib berishni nazarda tutadi. Shunda shaxs tashqi ta'sir orqali emas, balki ichki tuyg'ulardan kelib chiqqan holda maqsadga intiladi.

Bo'lajak muhandis o'qituvchilarini tayyorlashda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida o'qitishda talabalarning erkin fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, mashg'ulotlar davomida fanga nisbatan qiziqishlari o'sadi, bir – birini fikrini hurmat qilish madaniyati shakllanadi.[1]

Muhandis o'qituvchilarini tayyorlashda o'quv jarayonini strukturalashni o'tkazishning mazmunli asosi sifatida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosiy g'oya bo'ladi.

Ushbu yetakchi g'oyalarni belgilari:

- talaba shaxsining rivojlanishi va rivojlanishining ta'minlanishi, bu talabaning bilish va predmetli faoliyatining individual xususiyatlar natijasida paydo bo'lishida;

- talabaning qobiliyatlariga, uning qiziqishiga, sub'ekt tajribaga asoslanib, har bir talabaga bilishda o'zini amaliyotga tadbiiq etish imkoniyatini ochib berishida;

- O'qitishning vosita va metodlarini, ta'limning mazmunini shunday tanlash kerakki, talaba materialni, uning ko'rinish va shaklini tanlash qobiliyatini ko'rsatishda namoyon bo'ladi.

Ushbu g'oyalardan chiqib ulardan eng muhimlari talabaning shaxsi, uning qiziqishi, qobiliyatlari, bilimdonlik imkoniyatlari va talablari, bilimga munosabati kabi hisoblanadi.

Eng avvalo, o'quv jarayonining shaxsiylashgan yo'nalishi darsda aniqlanadi. Darsning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasining shaklini tuzishda quyidagi tamoyillar amalga oshiriladi:

- O'zini faollashtirish tamoyili (talabani o'zining qobiliyatlarida faollashtirish);

- Individuallik tamoyili (talaba shaxsi individualligining rivojlanishi);

- Sub'ektlilik tamoyili (o'quv faoliyatini tashkillashtirishning xilma – xil shakl va metodlarini tanlash);

- Talaba tomonidan maqsadli, o'quv mashg'ulot tashkillashtirishning shakl va metodlarini tanlash tamoyili (darsda didaktik materiallarini ishlatish);

- Ijod va muvofiq tamoyili (barcha faoliyatdagi omadga erishish, talaba shaxsining "MEN" – pozitiv konsepsiyasining shakllanishi);

- Ishonish va qo'llab - quvvatlash tamoyili (talabaga ishonish, uning o'zini amaliyotga bo'lgan intilishini qo'llab - quvvatlash).

Ushbu tamoyillar o'qituvchining pedagogik shiori bo'lmog'i kerak. Ularga asoslanib, o'qituvchi pedagogik faoliyatning usullarini tanlaydi.[2]

Muhandis o'qituvchilarini tayyorlashda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasining maqsadi talabalar individualligini rivojlantirish uchun yaratilgan sharoitlardan iborat.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasining vazifasi:

- Sub'ektlilik tajribalarni faollashtirish va rivojlantirish asosida bo'lgan talabaning ilmiy bilimlar tizimining shakllanishi;

- Talabalarga tanlash, o'zini rivojlantirishda erkinlik berish;
- O'zining individual xosligini va o'quv faoliyatining tezligini tanlashda talabalarga yordam berish;

- Talabalarining o'zining fikriga ega bo'lishi;
- Talabalarining «MEN» konsepsiyasini shakllantirishda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda reflektiv bilimlarini o'zlashtirishda yordam berishdan iboratdir.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasining tashkil etilishi quyidagicha:

- Talabaning individual xususiyatlarini hisobga olib o'qituvchi va talabaning orasida bo'lgan o'zaro aloqani o'rnatilishi;

- Talabalarining sub'ektiv tajribasini rivojlanishida shakl va metodlarning qo'llanilishi;

- Talabaning vazifani bajarishning turlari, shakllarni tanlashga yordam berayotgan didaktik materialni ishlatilishi;

- Muvofiq atmosferani yaratilishi;

- Pedagogik qo'llab - quvvatlashning usullaridan foydalanilishi;

- Dialog asosida bo'lgan muloqot shakllarini tanlanilishi;

- Faoliyatning reflektiv analizining har xil usullaridan samarali foydalanilishi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasida pedagogning roli o'zgaradi. O'qituvchi nafaqat bilimlarni yetkazuvchi sifatida, balki ta'lim oluvchining o'quv faoliyatini tashkillashtiruvchi va koordinatori sifatida bo'ladi.

Demak, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasining xususiyatlari quyidagilardan iborat:

maqsadli:

- dolzarb rivojlanish zonasiga munosibligi;

- yaqin rivojlanish zonasiga munosibligi;

- rag'batlantirish-motivatsiyali;

- faoliyatni bajarishda xilma – xil usullarni rag'batlantirish;

- faoliyat usullarining tahlili;

- pedagogik qo'llab-quvvatlash;

- operativ – faoliyatli;

- o'rganilayotgan mavzuga nisbatan bo'lgan sub'ektiv tajribani aniqlash;

- talabalarining orasida tajriba almashish;

- didaktik usullarni qo'llash;

- bilim sub'ekti tajribasining rivojlanishi;

- ijodiy tajribaning rivojlanishi;

- muloqot ko'nikmalarining shakllanishi;

- shaxsiy imkoniyatlarni tadbiiq etish qobiliyatining shakllanishi;

- didaktik materialining tanlash erkinligi(talabaning);

- nazorat – tuzatish:

- material murakkablik darajasini talaba tomonidan tanlash;

- bilimlarni o'zlashtirish daraja va sifatining tizimli, o'z vaqtida aniqlash;

- o'qituvchi bahosining va talabaning o'zini baholashning bir – biriga to'g'ri kelishi;

- refleksiv:

- qilingan ishni baholash;

- xususiy rivojlanish kelajagini aniqlash;

- shaxsiy tajribani boyitish.[3]

Ma'lumki, shunday komponentlarning kombinatsiyalari ko'p, ularning alohida biri samarali deb bilish qiyin. Bizning fikrimizcha, muhandis o'qituvchilarini tayyorlashda barcha vaziyatlarni o'rganishda aniq kombinatsiyalarni emas, ularni yaratishning samarali usullarini o'rganish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avliyoqulov N.H. O'qitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari. B.: BOO va YESTI, 2001.- 100 b.

2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T: Nizomiy nomidagi TDPU, 2003.- 174 b.

3. Danilova V.I. Didakticheskoe strukturovanie protsessa obucheniya studentov v pedagogicheskom VUZe: Dis. ... kand. ped. nauk. – Perm': PGPU, 2003. – 139 b.

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TA'LIMIY QADRIYATLAR ASOSIDA
TAYYORLASH**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.63.17.047>

Nazarov Abdulla Abduvaxob o'g'li

Termiz davlat universiteti texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi.

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida muhim ta'limiy qadriyatlar, ularning psixologik-pedagogik jihatlari haqida hamda bo'lajak o'qituvchining ijtimoiy faolligi nimalarga yo'naltirilishi, nazariy xususiyatga ega va zamonaviy ta'limiy qadriyatlar xususida so'z boradi va bu jarayonda o'qituvchilarni ta'limiy qadriyatlar asosida tayyorlashda nimalarga e'tibor berishi zarurligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'limiy qadriyatlar, psixologik-pedagogik jihatlari, didaktik tamoyillar, interfaol metodlar, pedagog kadr, zamonaviy metodologiya, konseptual yondashuvlar, mantiqiy-psixologik yondashuv, intellektual-ijodiy faoliyat, professiogramma, kasbiy bashorat - oldindan «ko'ra bilish», individuallik.

**ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ**

Назаров Абдулла Абдувахоб угли

Преподаватель кафедры технологического образования Термезского государственного университета.

Аннотация: В статье рассматриваются важные образовательные ценности в процессе подготовки будущих учителей, их психолого-педагогические аспекты, а также направления социальной активности будущего учителя, теоретические и современные образовательные ценности и информация о том, на что обращать внимание. для подготовки учителей на основе образовательных ценностей в процессе.

Ключевые слова: образовательные ценности, психолого-педагогические аспекты, дидактические принципы, интерактивные методы, педагогический состав, современная методология, концептуальные подходы, логико-психологический подход, интеллектуально-творческая деятельность, профиограмма, профессиональное прогнозирование - заранее знать », индивидуальность.

**TRAINING OF FUTURE TEACHERS ON THE BASIS OF
EDUCATIONAL VALUES**

Nazarov Abdulla Abduvakhob son

Teacher of the Department of technological education of Termez State University

Abstract: The article discusses the important educational values in the process of training future teachers, their psychological and pedagogical aspects, as well as the direction of social activity of the future teacher; theoretical and modern educational values. and information on what to look for in the training of teachers based on educational values in the process.

Keywords: educational values, psychological and pedagogical aspects, didactic principles, interactive methods, pedagogical staff, modern methodology, conceptual approaches, logical-psychological approach, intellectual-creative activity, professiogram, professional prediction - in advance to know », individuality.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida muammoning mavjud holatini o'rganish va tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelishga imkon berdi: ta'limiy qadriyatlar

pedagog kadrlarni tayyorlash hamda ularning kasbiy malakalarini takomillashtirish maqsadida pedagogika oliy o'quv yurtlarida alohida mavzu sifatida o'rganilmaydi; pedagogika oliy o'quv yurtlari ta'limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlar tayyorlashga oid tavsialarga muhtojdirlar.

Quyida muhim ta'limiy qadriyatlar, ularning psixologik-pedagogik jihatlari ochib beriladi:

- zamonaviy ta'lim mazmuni, uni takomillashtirishning metodologik va nazariy yo'nalishlari;

- bo'lajak o'qituvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasiga qo'yiladigan talablar, malakali pedagog kadrlarni sifatli tayyorlashga imkon beruvchi omillar va ushbu holatni yorituvchi ko'rsatkichlar;

- shaxsiy-kasbiy sababiylik omili;

- didaktik tamoyillar;

- zamonaviy ta'lim shakli, metod, vositalari, tizimi, texnologiyasi va asosiy elementlari; zamonaviy pedagogik texnologiyalarning turlari, interfaol metodlar;

- malakali pedagog kadrlarni tayyorlashning eng ilg'or tashkiliy shakl, metod va usullari;

- bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy tizimi, ma'ruza turlari, ularni tashkil etishga qo'yilgan talablar;

- malakali pedagoglarni tayyorlash jarayonida talabalarning faolliklarini oshirishga xizmat qiluvchi, ularni intellektual-ijodiy faoliyatga yo'naltiruvchi suhbat, bahs-munozara, bellashuv hamda o'yin texnologiyalaridan foydalanish;

- bo'lajak o'qituvchilarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyati, uni tashkil etish texnologiyasi; talabalarning ilmiy ishlariga qo'yiluvchi talablar.[1]

Bo'lajak o'qituvchining ijtimoiy faolligi quyidagilarga yo'naltiriladi: ta'lim jarayonida an'anaviy milliy qadriyatlarga tayangan holda talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash; ularning o'z-o'zini takomillashtirib borishlari uchun sharoit yaratish.

Nazariy xususiyatga ega ta'limiy qadriyatlar quyidagilardan iborat: zamonaviy ta'lim mazmuni, uning xususiyatlari va natijalariga qo'yiluvchi talablar; «o'qitish-o'rganish» tizimida tashkil etiluvchi didaktik munosabatlar, uning g'oyalari, tamoyillari, ta'limni tashkil etishga konseptual yondashuvlar; zamonaviy ta'lim yo'nalishlari (xususiyatlari), insonparvarlashtirish, standartlashtirish, ko'p imkoniyatlilik, axborot berish, individuallashtirish, muntazamlilik, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslanganligi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash mazmunini tubdan yangilashga quyidagi metodologik omillar yordam beradi:

- ta'limning zamonaviy metodologiyasi, xususan, O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida yaratilgan oliy pedagogik ta'lim konsepsiyalari, davlat ta'lim standartlari, professiogrammlar;

- jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishi, ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlari, jamiyat ijtimoiy hayoti;

- ilm-fan va ishlab chiqarish yutuqlarining ta'lim mazmunida aks etishi; ta'lim, fan va amaliyot birligi;

- kasbiy-pedagogik vazifalarining takomillashtirilganligi;

- fan, shu jumladan, pedagogika fanining taraqqiyoti;

- Sharq mutafakkirlari va xalq pedagogikasi g'oyalarining ustuvorligi;

- milliy va xorijiy mamlakatlar pedagogikasi erishgan yutuqlar;

- ta'lim va tarbiya jarayoniga majmuaviy, tizimli, mantiqiy-psixologik yondashuv, shuningdek, talabalar idrok etish, intellektual-ijodiy va tadqiqotchilik faoliyatining tashkil etilishiga alohida e'tibor berish;

- ta'lim jarayonida bilim olish, rivojlanish va tarbiya jihatlarning o'zaro aloqalarini kuchaytirish, ta'lim jarayonida tarbiyaning ustuvorligi;

- zamonaviy ta'lim mazmunining yirik axborotlar hajmiga egaligi;
- ta'lim mazmunining bo'lajak mutaxassis tomonidan tashkil etiluvchi faoliyati mazmuni va tuzilishiga mos kelishi;
- o'quvchining ta'lim jarayonining eng yetakchi sub'ekti va ob'ekti ekanligi;
- bo'lajak mutaxassis shaxsi, uning har tomonlama shakllanishi hamda barkamol rivojlanishiga e'tiborning qaratilishi;
- zamonaviy o'qituvchi modeli, uning shaxsi va faoliyatiga qo'yiluvchi talablar, mutaxassislik ko'rsatkichlari va o'lchovlaridan xabardorlik.[2]

O'quv dasturlarini, o'quv rejalarini, avvalo psixologiya, pedagogika va xususiy fanlar metodikasi, chunonchi, ijtimoiy, gumanitar va tabiiy fanlar bo'yicha yaratilgan va yaratilayotgan o'quv dasturlari mazmunini yangilash maqsadga muvofiqdir.

Yangilangan ta'lim mazmuniga muvofiq bo'lajak o'qituvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlari darajasiga qo'yilayotgan talablarni takomillashtirishga e'tiborni qaratish zarur.

Ayni o'rinda zamonaviy o'qituvchi tomonidan puxta o'zlashtirilishi talab etilayotgan tushuncha (bilim)lar xususida so'z yuritamiz. Ular quyidagilardan iborat:

- zamonaviy ta'lim konsepsiyalari, psixologiya, pedagogika hamda kasb-hunar ta'limi mohiyatini yorituvchi axborot xizmatlari;
- idrok etish faoliyatini yo'lga qo'yish shartlari, omillari;
- zamonaviy o'qituvchi (pedagog)ning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, emotsional va umumiy pedagogik madaniyati, ijtimoiy-pedagogik faoliyati, mahorati hamda «Men» konsepsiyasiga qo'yiluvchi talablar;
- pedagogik texnologiyalar borasidagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash;
- pedagogik maqsadlarga erishish uchun mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish;
- natijalarning samarali bo'lishini ta'minlovchi pedagogik texnologiyalarning maqbul metod va usullarini tanlay olish.[3]

Mavjud shart-sharoitlarga muvofiq pedagogik harakatlarni bajarishda o'ziga xos mahorat talab etiladi. Xususan: ko'nikmalar; o'quv materiallarining mazmuni bilan tanishib chiqish, eslash yoki bevosita qayta tiklashga yo'naltirilgan harakatni faollashtirish; munosabatlar va faoliyat davomida (tabiiy va maqsadga muvofiq ravishda) amalga oshiriladigan ijtimoiy tajribani egallash jarayoni va «Men» konsepsiyasining dolzarblashtirilishi; pedagogik jarayonda o'qituvchi (boshqaruvchi) xulqining namoyon bo'lishi.

Mutaxassislik qobiliyatlarini aniqlash pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatli tashkil etilishi va yanada rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Ular shaxs rivojlanishning natijalari bo'lib, ma'lum pedagogik faoliyatni tashkil etish jarayonida kuzatiladi. Bo'lajak o'qituvchilar pedagogik usul va uslublarni tez, mustahkam, oson va chuqur egallab olishlari kerak (agarda talaba tanlagan kasbiga qiziqadigan bo'lsa, ayniqsa yaxshi o'zlashtiradi). Shu bilan birga muayyan qobiliyatning o'zi turli pedagogik faoliyatlarning asosiy sharti bo'lishi mumkin (chunonchi, aqliy salohiyat).

Bo'lajak o'qituvchining qobiliyatlari o'zida individual xususiyatlarini namoyon etadi.

Muhim ahamiyatga ega bo'lgan qobiliyatlar sirasiga quyidagilar kiradi:

- pedagogik sezgirlik, kasbiy bashorat - oldindan «ko'ra bilish», pedagogik taxmin qilish;
- faol ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil eta olish;
- «Men» konsepsiyasini qadriyat sifatida tan olish va unga nisbatan ongli munosabatda bo'lish;
- shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini takomillashtirish talabi.

Shunday qilib, pedagogik ta'limning asosiy qadriyati sifatida bo'lajak o'qituvchi shaxsi, uning shakllanishi, rivojlanishi va takomillashuviga sabab bo'luvchi omillar e'tirof etiladi.[4]

Zamonaviy ta'limiy qadriyatlar majmui quyidalardan iborat:

Ta'lim-tarbiya jarayonida talaba faolligini ta'minlashga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalar.

1. Talaba (o'quvchi) shaxsining ta'lim jarayonidagi yetakchi mavqei, uning ta'lim tarbiya jarayonining asosiy sub'ekti sifatida tan olinishi, shuningdek, uning shaxsini hurmat qilishga bo'lgan ijtimoiy talabning qaror topishi.

2. Yangilangan ta'lim mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvor o'rin tutishi.

3. Ta'lim jarayonining insonparvar va demokratik tamoyillari.

Uzluksiz ta'limning har bir bosqichida talabalarda ma'lum kasbiy hamda shaxsiy sifatlar tarbiyalanadi. Talaba shaxsining faolligi yuzaga keltiriladi. Ushbu jarayon ana shu xususiyatiga ko'ra rivojlantiruvchi ta'lim deb ataladi. Ayni o'rinda ta'lim jarayonini takomillashtirish, talabalarda mustaqil bilim olishga xizmat qiluvchi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy jihatdan puxta tayyorgarlikka ega bo'lishlari ta'lim samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Bizning nazarimizda bo'lajak pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarlik ko'rsatkichlari quyidagi holatlar bilan aniqlanadi: bo'lajak o'qituvchilar tomonidan o'zlashtirilgan kasbiy bilimlarning sifati, ularda zaruriy ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasi; ularning ma'naviy-axloqiy qiyofasi; ijodkorlik xislatiga egaliklari, pedagogik faoliyatni tashkil etishga nisbatan ijodiy yondasha olishlari; o'zi ustida doimiy izlanishlar olib borish ko'nikmalarining shakllanganligi.

Pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mazmunida o'z ifodasini topgan ta'limiy qadriyatlardan yana biri - sababiylik omili va unga yangicha yondashuv iisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchiga pedagogik kasbining ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish, shuningdek, uning shaxsiy va kasbiy imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash zarurdir.

Sababiylik omillari shaxsni faoliyatga chorlaydi, uning faoliyati va harakatlarini boshqaradi. Sub'ektning jamoadagi o'rni hamda ijtimoiy munosabatlarining mazmuni, xulq-atvori, xarakteri, shuningdek, atrofdegilar bilan muloqotlarni tashkil eta olish layoqati asosida qaror topadi. Talabada mustaqil faoliyat yuritish, erkin fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, uni ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishga yo'naltirish kasbiy yetuklik sari olib boruvchi yo'l sanaladi. Ayni vaqtda jahon ta'limi oldida turgan asosiy muammolardan biri talaba (o'quvchi)ni shaxs sifatida shakllantirishdir.

Zamonaviy pedagog kadrlarni tayyorlashda shaxsiy-kasbiy xususiyatga ega bo'lgan quyidagi ta'limiy qadriyatlarni alohida qayd etish maqsadga muvofiqdir:

- o'zini tarbiyalash, muayyan faoliyatni tashkil etish, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini kuzatish, nazorat qilish, aniqlash, ifoda etish, baholash va o'z-o'ziga hisobot berish;

- pedagogik faoliyatning individual xususiyatini namoyon eta olishi (pedagogik amaliyot davrida);

- bo'lajak o'qituvchining o'zi haqidagi tasavvurlari tizimi bo'lgan «Men» konsepsiyasi.

Shaxsiy «Men» obrazi - o'z-o'ziga ko'rsatma hisoblanib, uning mohiyatida quyidagilar aks etadi: shaxsiy sifatlar, qobiliyatlar, tashqi ko'rinishi, o'zini anglash, o'zini hurmat qilish, o'zini yaxshi ko'rish, o'z faoliyatini ijobiy baholash. Ushbu jihatlar shaxsiy tajribaga asoslanuvchi ijtimoiy o'zaro aloqalarning natijasi, shuningdek, shaxs sifatida shakllanishga imkon beruvchi shart-sharoitdir. Shaxsning o'zi haqidagi tasavvuri, «Men»ining idealligi, dinamikligi va hatto fantastik xususiyatga egaligi unda o'z kuchiga ishonchni qaror toptiradi, uni kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etishga undaydi.

Muloqotlar va faoliyat davomida yuzaga keladigan shaxs psixologik qiyofasining

muhim elementi bo'lgan «Men»ning tashkil topish sabablari, ijtimoiy-madaniy omillari, faoliyatni tashkil etish jarayonida bo'lajak o'qituvchiga o'z-o'zini kuzatib borish asosida muayyan tartibga solishga, o'z-o'zini anglashga imkon beradi.

«Men» kontsepsiyasi individual xususiyatga ega. Individuallik - insonning boshqalardan ijtimoiy ahamiyatli farqi, psixikasi, shaxsining o'ziga xosligi, uning takrorlanmasligidir.

U shaxs temperamenti, xarakteri, talablari, qiziqishlari va qobiliyatining o'ziga xosligida namoyon bo'ladi. Pedagogik faoliyatning individual uslubi-u yoki bu pedagogik faoliyatning tashkil etilishiga imkon beruvchi usul, metod va vositalarning o'ziga xos tizimidir.

Shaxsning ijtimoiy faolligi asosiy sifatlardan biri bo'lib, u muayyan faoliyatni amalga oshirishda samaradorlikka erishishga imkon beradi. Masalan, turli individual-tipologik xususiyatlarga ega talabalar faoliyat samaradorligiga turli yo'llar bilan erishadilar. Shuningdek, o'zlarining individual xususiyatlariga tayangan holda ayrim vaziyatlarda muvaffaqiyatlarga ham erishadilar.

O'qituvchi bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, pedagogik faoliyatni tashkil eta olish layoqatiga egaligi, tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilish jarayonini nazorat qilib turishi, tahlil qilishi va baholab borishi lozim.

Bo'lajak o'qituvchilarda ta'limning yangi konsepsiyasi, shuningdek, didaktik g'oyalar va ularni pedagogik amaliyotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri sanaladi. Ushbu jarayonda pedagogik faoliyatning ko'rgazmalilik, onglilik, faollik, muntazamlilik, ketma-ketlik, nazariya va amaliyotning uzviyligi, ta'limning umuminsoniy va milliy qadriyatlariga asoslanishi kabi xususiyatlarni namoyon etishiga e'tibor kuchaytiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davidov V.V. Teoriya razvivayushogo obucheniya. — M.: MITOR, 1996 g.
2. Doklad mejdunarodnoy komissii po obrazovaniyu dlya XXI veka «Obrazovanie sokritoe sokrovishe». — M.: Izd-vo YUNESKO, 1997 g.
3. Podlasiy I. P. Pedagogika. Noviy kurs. — T. 1,2 — M.: VLADOS, 1999.
4. Mardonov SH. Yangi ta'limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. — T.: Fan, 2006 y.



O'RTA OSIYO HUDUDIDA CHOLG'U ASBOBLARINING VUJUDGA KELISH TARIXI

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.65.48.046>

Nazarov Xolmurod Abdujafforovich

Termiz Davlat Universiteti musiqa ta'limi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda qadim-qadimdan musiqa madaniyati shakllanish jarayoni. Xususan cholg'u asboblarining yaralish tarixi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Afrosiyob (Samarqand), Osiyo arfasi, Marv, Ur dinastiyasi, Terrakotalar, ud, arfa.

ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ МУЗЫКАЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА ТЕРРИТОРИИ СРЕДНЕЙ АЗИИ

Назаров Холмурод Абдужафорович

*Преподаватель кафедры музыкального образования Термезского
государственного университета*

Аннотация: В этой статье представлен процесс формирования музыкальной культуры в нашей стране с древнейших времен. В частности, освещается история создания музыкальных инструментов.

Ключевые слова: Афросиёб (Самарканд), Азиатская Арфа, Марв, династия УР, терракота, уд, Арфа.

HISTORY OF THE FORMATION OF MUSICAL INSTRUMENTS IN THE TERRITORY OF CENTRAL ASIA

Nazarov Kholmurod Abdujafforovich

Teacher of the Department of music education of Termez State University

Abstract: In this article the process of formation of music culture in our country from ancient times. In particular, the history of the injury of musical instruments is illuminated.

Keywords: Afrasiab (Samarkand), Asian harp, Marv, Ur Dinastia, Terracotta, ud, harp.

Yurtimiz istiqloлга erishgandan so'ng, barcha sohalar kabi milliy san'at durdonalarini asrab-avaylashga, qadriyatlarimizni tiklashga alohida ahamiyat berila boshlandi. Xalqimiz tarixi, o'tmishi, urf-odatları, va madaniy merosimizga munosabat tubdan o'zgardi. Shu bois, urf-odatlar va an'analardan keng foydalanish, azaliy qadriyatlarimizni tiklash va ular vositasida yoshlar ongida milliy mafkurani shakllantirish muhim vazifalardan biriga aylandi. Bu jarayonda muqaddam musiqa ijrochiligida umuman foydalanilmayotgan, unutilish darajasiga yetib qolgan sodda musiqa cholg'ulari qayta jonlandi. Nafaqat havaskor folklor jamoalari faoliyatida, balki akademik yo'nalishdagi professional jamoalar va hatto, estrada ijrochiligida ham chang, qo'biz, sibizg'a, do'mbira, sopol nay kabi xalqimizning qadimiy cholg'ularidan foydalanish boshlandi.

Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobida Samarqand shahri yaqinidagi Mo'minobod qishlog'i hududida ayol kishining qabridan tilla va bronza buyumlari qatorida suyakdan yasalgan nay topilganligi, bu esa zaminimizda bronza davrida ham o'ziga xos musiqa madaniyati mavjud bo'lganligi faxr bilan e'tirof etiladi. Farg'ona tog' tizmasida joylashgan Saymalitosh qoya chizmalarida topilgan va marosim qatnashchilari o'rtasida tasvirlangan aylana shaklidagi doyraga o'xshash cholg'u ham eramizdan avvalgi II asrga oid deb hisoblanadi. Xuddi shuningdek, mustaqillik davrida topilgan va jahon moddiy

merosining durdonalari ro'yxatiga kiritish uchun tavsiya etilayotgan "Sarmishsoy petrogliflari"da uchraydigan ayrim musiqa cholg'ularining tasviri ham buni yana bir bor isbotlaydi.

O'rta Osiyo hududida juda qadimgi zamonlardan boshlangan tarixiy jarayon eramizdan avvalgi birinchi ming yillikning yarmidan boshlab o'z o'rnini boshqa turmush tarziga, ya'ni davlatchilikning shakllanishiga bo'shatib berdi. Buning natijasida ushbu hudud va Eron zaminida eramizdan avvalgi IV-III asrlardayoq bir nechta davlat paydo bo'ldi. Ushbu davlatlardagi shahar madaniyati asosan o'troq dehqonchilik va hunarmandchilikka asoslangan bo'lib, aholining boshqa bir qismi ko'chmanchilik turmush tarzini saqlab qoldi va ularning asosiy faoliyati chorvachilik bilan bog'liq bo'lganligini tarixdan bilamiz. Bu yerda yashagan aholining musiqa madaniyati ularning turmush tarzi bilan bevosita bog'liq bo'lganligini isbotlab o'tirishning hojati yo'q.

Afrosiyob (Samarqand) xarobalaridan topilgan jang qurollari, maishiy va badiiy sopol buyumlar, tangalar va boshqa ashyolar qatorida topilgan sopol terrakotalar (loydan yasilib, keyin olovda pishirilgan, orqa tomoni yassi, yuza qismi esa bo'rttirilgan ko'rinishdagi, bo'yi va eni taxminan 9-10 sm. bo'lgan sopol)da aks ettirilgan musiqachi erkak va ayollarning tasvirlari o'sha davr musiqa cholg'ulari haqida juda qimmatli ma'lumotlarni beradi. Ularning taxminiy yoshi eramizdan avvalgi III-I asrlariga oidligi aniqlangan.

Afrosiyob terrakotalarida eng ko'p tasvirlangan musiqiy cholg'u ud hisoblanadi. Bu esa ushbu cholg'uning o'sha davrda juda keng tarqalgan sevimli cholg'u ekanligidan dalolat beradi. Tasvirlarda udning uch va to'rt torli ko'rinishda ifodalangani kuzatiladi. Terrakotalar yaratilgan davrdan keyingi o'tgan 7-8 asr davomida ham bu cholg'ularning ko'rinishi va torlarining sonida deyarli o'zgarish bo'lmagan. Abu Nasr Farobiy tomonidan yaratilgan "Musiqqa haqida katta kitob"da ham ud cholg'usi xuddi shunga yaqin tasvirlangan. Farobiydan keyin yaratilgan musiqiy risolalarda esa udning to'rtinchi toriga qo'shimcha ravishda Farobiy tomonidan beshinchi tor kiritilganligi va uning sozi kvarta oralig'ida sozlana boshlanganligi bayon etilgan.

Afrosiyob xarobalarida topilgan cholg'ular tasviri orasida arfa cholg'usi ham o'z aksini topgan bo'lib, uning vatani Misr hisoblanib kelingan. Biroq Old Osiyoda olib borilgan qazilmalar natijasida Ur dinastiyasining birinchi bo'g'ini bo'lgan Shumer malikasi xilxonasidan (eramizdan oldingi 3 ming yil) topilgan 11 torli nafis bezakli arfaning topilishi bu cholg'uning tarqalish hududi (geografiyasi)ni kengligini, u nafaqat Misrga balki Old Osiyoga ham tegishli ekanligini anglatadi. Manbalarda qayd etilishicha, burchakli arfa yoysimon arfadan keyin paydo bo'lgan va u Misrga Osiyodan keltirilgan. Shuning uchun ham uni "Osiyo arfasi" deb atashgan.

Rus tilida "prodolnii" deb nomlanadigan ijro uslubini biz Afrosiyob topilmalari orasidagi yonlama nay tasviri borligini hamda u eramizdan oldingi III-I asrlarga taalluqliligini eslatib o'tamiz. Demak, yonlama nayning vatanini O'rta Osiyo deb belgilash mumkin. Bu topilmalar orasida kichik hajmdagi bo'ylama cholg'u tasviri ham uchraydi. Muallif bu cholg'uning qay turdagi nay tipiga kirishi to'g'risida aniq fikr bildirmasa-da, sibizg'a yoki sopol nay bo'lishi ehtimolligini bayon etadi. Shuningdek, Afrosiyobda topilgan terrakotalarda tanbursimon cholg'ular va zarbli cholg'ular (baraban, tarelka) tasviri ham uchraydi.

Naysa ritonlarida tasvirlangan tarelkalar ikki xil ko'rinishga ega. Birinchisi – raqqosa ayollar qo'liga maxsus tasma bilan bog'langan piyolasimon shaklda bo'lsa, ikkinchisi – cholg'uchilar qo'lidagi yassi ko'rinishdagi tarelkalaridir. Rossiyadan O'rta Osiyoga kelib (19 asrning oxiri) kapelmeyster lavozimida faoliyat ko'rsatgan Avgust Eyxgorn tomonidan jamlangan kolleksiyadagi tarelka yassi tarelkaga yaqin ko'rinishga ega.

(O'.Toshmatov,X.Beknazarov cholg'ushunoslik .Tosh 2018-yil.)

Turkmanistonning janubiy qismida muqaddam hukm surgan Marg'iyona davlatining markazi Marv (hozirgi Bayram Ali shahri yaqini) o'rnida topilgan

terrakotalarda ham musiqa cholg'ularining tasviri uchraydi. Bu yerda Afrosiyob udiga o'xshash ud cholg'usi va undan farqlanadigan, suvoriy (otliq) qo'lida tasvirlangan do'mbrasimon cholg'uni alohida ko'rsatish mumkin. Muallifning fikricha, suvoriy qo'lidagi cholg'u Tog'li Oltoy va Xakasiya o'lkalarida "toshpur", "xomus" kabi nomlanadigan baxshilar cholg'ulariga juda o'xshab ketadi. Nima uchundir ushbu cholg'uning hozirgacha Surxondaryo va Qashqadaryo baxshilarining sevimli cholg'usi bo'lgan do'mbira bilan aloqadorligi masalalari yoritilmagan.

Hozirgi Surxondaryo viloyati hududida xukm surgan Kushon davlatining eski shaharlari o'rni (hozirgi Xolchayon va Dalvarzintepa) da olib borilgan qazilma ishlari natijasida ham musiqa cholg'ulariga oid (eramizdan oldingi I asr) artefaktlar topilgan. Xususan, Xolchayondagi Saroy xarobalarida topilgan loydan ishlangan va yupqa bo'yoq berilgan haykallar majmuasi ichida ud ushlagan ayolning tasviri alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, to'la saqlanmagan bo'lsa-da, uning libosi va yuz tuzilishiga ko'ra bu ayol mahalliy aholi vakili ekanligini aniqlash mumkin. Dalvarzintepadan topilgan terrakotalarda ham ud va arfa ijrochilarining tasviri uchraydi.

Biz tahlil etayotgan davrda madaniy almashuvlar uzoq o'lkalarga qaraganda yonmayon joylashgan mamlakatlar bilan kengroq bo'lgan. O'rta Osiyo va Eron o'rtasidagi madaniy almashuv haqida shunday fikrlar mavjud. O'sha davrda So'g'd va Xurosonda bir xil cholg'ular mavjud bo'lgan. Qizig'i shundaki, Sosoniylar davridagi Fors davlatining mashhur musiqachisi bo'lgan Borbad asli O'rta Osiyolik (Marvlik) bo'lgan va Eron musiqa tizimidagi yetti asosiy maqomlar (pardalar)ning ixtirosini uning nomi bilan bog'lashadi. Xusrav II saroyiga kelgan Borbad mukammal shakllangan musiqachi bo'lib, o'zi bilan vatanida juda keng tarqalgan barbat cholg'usi bilan birga, unda ijro etish texnikasini ham olib kelganligi aniq.

Yapon imperatorlariga sovg'a qilingan buyumlar orasida O'rta Osiyodan keltirilgan (IX-X asr) ud cholg'usining deka qismiga tushirilgan tasvirda ikkita cholg'uchi ifodalangan. Ularning biri mizrob bilan ud chalayotgan holda tasvirlangan bo'lsa, ikkinchisi kamon bilan tik holda cholg'uni ijro etayotgan holatda uncha tiniq tasvirda ifodalangan. Bu cholg'u ikki torli kamon bilan chalinadigan rubob yoki qoshiqsimon ko'rinishda tayyorlanadigan qo'biz cholg'usi bo'lishi mumkin. Qo'biz cholg'usining qozoqlarda paydo bo'lishi (musiqashunos B.Sariboyev fikricha) yarim afsonaviy Qo'rqut nomi bilan bog'lanadi.

O'zbek xalq cholg'u asboblari ijro etish san'ati o'z taraqqiyotining ko'p asrlik an'alarini meros qilib oldi. Ularning ildizlari qadim-qadim davrlarga borib taqaladi. 1933 yildagi Ayratom shaxristoni arxeologik qazilmalarida topilgan madaniy boyliklar, qadimiy adabiy manbalar, o'zidan ilgari turli musiqa asboblari mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Eramiz boshlarida turli tuman xalq cholg'u asboblari kundalik turmushda, ovda, saroy hayotida, madaniy bayram marosimlarida, xalq sayillarida ijrochilikda keng foydalanilgan. Xalq musiqa cholg'u asboblari asrlar davomida inoslarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirib kelgan. Tasviriy san'at asarlari, sopol haykalchalar va turli xil miniatyuralar eramizning VII asrdayoq ikki turdagi xalq cholg'u ansambli mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. O'rta asrlarda xalq musiqa ijodining og'zaki an'analari keng tarqalgan bo'lib, ular cholg'u musiqasinnig har xil janrlari, turkumlari, rang-barang musiqa san'ati turlari, ulkan madaniy meros sifatida avloddan-avlodga o'tib kelgan. O'rta asrlarda musiqa ijrochiligi bir-biridan farqi o'laroq uch xil mustaqil uslub kasb etadi. 1) Farg'ona – Toshkent yo'nalishidagi (chor maqom) 2) Xorazm ijrochilik yo'nalishi (olti yarim maqom, panjgox ham kirgan) 3) Samarqand – Buxoro ijrochilik uslubi, ya'ni shashmaqomdir. 4) Qashqadaryo–Surxandaryo dostonchilik sanatlari XIX asr oxiri XX asr boshlarida xalq cholg'ularida ijrochilik san'ati rivojlanishi, yangi ijtimoiy-siyosiy sharoit, Ovropaning madaniyati ta'siri bilan bog'lanadi. XX asrning 50-chi yillaridan yangi sozlarning orkestr tarkibiga kirib kelishi va ularning orkestrdagi imkoniyatlari oshdi. O'zbek xalq cholg'u asboblari takomillashtirish (oilalarga bo'lish) kabi qator ilmiy izlanishlardan so'ng, o'zbek xalq

cholg'ulari soni anchaga ortdi. Shunday qilib, O'zbek xalq cholg'u asboblarning paydo bo'lishi va takomillashining boy tarixi bilan bog'liq bilimlar, musiqa ijrochilik texnikasi, imkoniyati va taraqqiyoti qonuniyatlarini ochishga yordam beradi. (T.Yo'ldoshev ud darsligi 15-17 bet.Tosh.2008-yil.)

“O'zbek xalq cholg'u asboblari tarixi” va nazaryasini o'rgatish, yoshlarning badiiy-estetik dunyoqarashini shakllantirish, musiqa san'atini rivojlantirish hamda ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va ahloqiy sifatlarini oshirishda katta xizmat qiladi.

Bundan yaqqol ko'rinib turibdiki,yurtimizda musiqa sohasida xususan, cholg'u sohasida ajdodlarimizning qiziqishi yuqori bo'lganligi va cholg'u asboblarning yaratilish tarixi qadim o'tmishdan bizgacha sayqallanib yetib kelishida ajdodlarimizning xizmati beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O'.Toshmatov, X. Beknazarov “Cholg'ushunoslik” (Oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv qo'llanma) Nasaf nashriyoti 2006 y.

G'.Ergashev “Afg'on rubob” darsligi” Toshkent darslik 2004 362-bet.

R.Qosimov “An'anaviy tanbur ijrochiligi” T. O'quv qo'llanma, 2002 y.

M.Abdukarimov “Cholg'ushunoslik” (Oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv qo'llanma) Nasaf nashriyoti 2006 y.

N.Sharipov “Rubob primada ijro etishni o'rganish metodikasi”. T.; darslik 2002 y.

**BO'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINI INNOVATSION
FAOLIYATGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI**

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.38.15.045>

Nurmamatov Zuxriddin Shavkat o'g'li

Termiz davlat universiteti texnologik ta'lim kafedrasi o'qituvchisi.

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar : Tenologiya, o'qituvchi, innovatsiya, faoliyat, tayyorlash.

**ТЕХНОЛОГИЯ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ-
ТЕХНОЛОГОВ К ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

Нурмаматов Зухриддин Шавкат угли

Преподаватель кафедры технологического образования Термезского государственного университета.

Резюме: В статье описан процесс подготовки будущих учителей-технологов к инновационной деятельности.

Ключевые слова: технология, учитель, инновации, деятельность, обучение.

**TECHNOLOGY OF PREPARATION OF FUTURE TECHNOLOGY
TEACHERS FOR INNOVATIVE ACTIVITIES**

Nurmamatov Zukhriddin Sh

Teacher of the Department of technological education of Termez State University.

Abstract: The article describes the process of preparing future technology teachers for innovative activities.

Keywords: Technology, teacher, innovation, activity, training.

Mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash, ularning qobiliyat va iste'dodi, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2017 yil 20 apreldagi - Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlarning ham mantiqiy davomi, ham uni yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Qarorning eng muhim jihatlaridan biri, unda oliy malakali mutaxassislar tayyorlashda xalqaro standartlar mezoniga rioya qilish, uning 9 darajasida shart-sharoit yaratish, ruhi va talabiga mos zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilgan.[2]

Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, pedagogik tafakkurini kengaytirish, ularda fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun zarur bo'lgan metodik bilim, ko'nikmalarni shakllantirishdan iboratdir.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasi, bugungi kunda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Innovatsiyalar u yoki bu faoliyat sohasida samaradorlikni oshirish uchun inson aqli erishgan, yutuqlardan (kashfiyot, ixtiro, ilmiy va konstruktorlik loyihalari va hokazo) foydalanishni anglatar ekan, mos ravishda innovatsiyalar texnologik, iqtisodiy, ekologik, boshqaruv, harbiy,

siyosiy, ijtimoiy-madaniy, huquqiy va boshqa turlarga taqsimlanadi. Innovatsiyalar dunyosi inson faoliyati sohalari kabi rang-barang va turli-tuman ko'rinishga ega. Innovatsiyalarning qudrati jamiyat turmush tarzi, salomatligini himoyalash, ilmiy salohiyatini oshirishda katta imkoniyatlarni taqdim etadi.

Innovatsiya (ing . innovationas — kiritilgan yangilik, ixtiro) — 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; ilmiy-texnika yutuklari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalari va faoliyat doiralarida qo'llanilishi.[7]

Ta'lim texnologiyasi- Innovatsion texnologiyaning ilmiy aspektini belgilash uchun ishlatiladi. Bu texnik va inson resurslarini hamda ularni o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi hamkorligini hisobga olgan holda, dars berish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli usuli. Bugungi kunda ilmiy va ommabop adabiyotlarda «Innovatsion texnologiya» tushunchasini ta'riflashda turli xil tasniflarni uchratishimiz mumkin. O'zbekistonlik olim N.Sayidaxmedov fikricha: «Innovatsion texnologiya- bu o'qituvchi (tarbiyachi) tomonidan o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir»

«Innovatsion texnologiya- tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta'lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob'yektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro ta'sirini inobatga olib, ta'lim maqsadlarini oydinlashtirib, o'qitish va bilim o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmuidir». U Innovatsion texnologiyaga ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmui deb qaraydi. «Innovatsion texnologiya ta'lim-tarbiyaning ob'ektiv qonuniyatlari, diagnostik maqsadlar asosida o'quv jarayonlari, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir», -deb ta'rif beradi. Innovatsion texnologiyaning fan sifatidagi vazifalarini o'qitishning har bir bosqichida ta'limning mazmunini belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, predmetning mazmuniga kiritish uchun vaziyatli matnlar, testlar tayyorlash, shaxsda shakllantirish nazarda tutilgan kasbiy sifatlar va ma'naviy fazilatlarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ta'limning natijasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash ularni ob'ektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi.[8]

Innovatsiya – bu u yoki bu faoliyat sohasida samaradorlikni oshirish maqsadida yangi texnika-texnologiyalarni yaratish, ish faoliyatni boshqarishning takomillashgan usul va shakllarini ishlab chiqish hamda ularni joriy etishga qaratilgan ilmiy-ijodiy faoliyat natijasi. Innovatsiyalar u yoki bu faoliyat sohasida samaradorlikni oshirish uchun inson aqli erishgan yutuqlardan (kashfiyot, ixtiro, ilmiy va konstruktorlik loyihalari va hokazo) foydalanishni anglatar ekan, mos ravishda innovatsiyalar texnologik, iqtisodiy, ekologik, boshqaruv, harbiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy, huquqiy va boshqa turlarga taqsimlanadi. Innovatsiyalar dunyosi inson faoliyati sohalari kabi rang-barang va turli-tuman ko'rinishga ega. Innovatsiyalarning qudrati jamiyat turmush tarzi, salomatligini himoyalash, ilmiy salohiyatini oshirishda katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Shu munosabat bilan innovatsiyalardan keng va samarali foydalanish.

Innovatsion texnologiyalarning afzalliklari

- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi;
- o'z vaqtida aloqalarni ta'minlanishi;
- tushunchalarni amaliyotga qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi;
- o'qitish usullarining turli xil ko'rinishlarini taklif etilishi;
- motivatsiyani yuqori darajada bo'lishi;
- o'tilgan materialni yaxshi eslab qolishi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasini takomillashishi;

- o'z-o'zini baholashning o'sishi;
 - o'quvchilarning predmetning mazmuniga, o'qish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabati;
 - nafaqat mazmunini o'zlashtirishga yordam bermay balki, tanqidiy va mantiqiy fikrlarning rivojlanishi;
 - muammolar yechish ko'nikmalarini shakllanishi.
- Inovatsion texnologiyalarning kamchiliklari
- ko'p vaqt talab etilishi;
 - o'quvchilar har doim ham kerakli nazorat qilish imkoniyatining pastligi;
 - juda murakkab mazmundagi material o'rganilayotganda ham o'qituvchi rolini past bo'lishi;
 - "kuchsiz" o'quvchilar bo'lganligi sababli "kuchli" o'quvchilarning ham past baho olishi.[5]

Texnologiya fani darslarida hamkorlikda o'qitish texnologiyalarini bosqichlari va vazifalari. Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari hamkorlik pedagogikasi asosida shakllangan bo'lib, u an'anaviy pedagogikadan quyidagicha farqlanadi: An'anaviy ta'limda o'qituvchi pedagogik jarayonning subyekti, o'quvchi esa obyekt deb qaraladi. Hamkorlik pedagogikasida esa o'quvchi o'z o'quv faoliyatining subyekti sifatida qaraladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchi pedagogik jarayonning subyektlari sifatida tenglashib, hamkorlik pedagogikasi jarayoni hosil bo'ladi. Ular o'zaro hamkor, hamdo'st, hamijodkor, hamishtirokchi, hamdard, hamboshqaruvchi bo'ladilar. Hamkorlik munosabatlari o'qituvchilar orasida, ma'muriyat bilan o'quvchilar va o'qituvchilar tashkilotlari bilan, rahbarlar, ota-onalar, jamoatchilik orasida ham o'rnatiladi. Hamkorlik pedagogikasi o'quvchining ta'lim-tarbiya olish, motivlarini rivojlantirib borish orqali hamda o'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish tamoyillarini amalga tatbiq qilgan, holda yuqori natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Hamkorlikda o'qitish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

- o'quvchining o'rganish jarayonini boyitadi;
- o'quvchilarga ular o'rtasida taqsim qilinib, o'zlashtirilgan kognitiv axborotlar to'plamini beradi;
- o'quvchilarda materialni o'rganishga ishtiyoq uyg'otadi;
- o'quvchilarning o'z shaxsiy bilim va dunyoqarashlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- axborotlarni ikki tomonlama almashish samaradorligini oshiradi;
- o'quvchilarga mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlarni beradi;
- turli xil madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar o'rtasida ijobiy o'zaro munosabatlarni oldinga suradi.

Xulosa qilib aytganda Texnologiya fani darslarida hamkorlikda o'qitish texnologiyalarini bosqichlari va vazifalari. Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari hamkorlik pedagogikasi asosida shakllangan bo'lar ekan. U an'anaviy pedagogikadan quyidagicha farqlanib, barchasi innovatsion faoliyatni yaxshilashga qaratilgan ishlar jamlanmasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev. Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob halqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" 2017.
2. Mirziyoyev. Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" 2016.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoyevning 2017 yil 20 apreldagi „Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi Qarori
4. "Ta'lim to'g'risidagi qonun" Toshkent 1997 y
5. Ishmuhamedov. R. J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

**TA'LIMDA MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISHDA INNOVATSION
TEKNOLOGIYALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.45.72.044>

Nurmamatov Zuxriddin Shavkat o'g'li

Termiz davlat universiteti texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi.

Qodirova Malika Abdupatto qizi
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada ta'lim muassasalari o'quv rejasiga kiritilgan maxsus fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan. Ammo, respublikamizda va yaqin xorijiy mamlakatlardagi mavjud ilmiy-metodik maqola va adabiyotlarning tahlili, maxsus fanlarni to'laqonli zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida shaxsga qaratilgan o'qitishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq qilish bo'yicha yetarlicha ilmiy-metodik izlanishlar olib borilmaganligidan dalolat berilib borilgan.

Kalit so'zlar: Tenologiya, o'qituvchi, innovatsiya, faoliyat, tayyorlash, maxsus fanlar, ilmiy-metodik maqola.

**ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИХ ВОЗМОЖНОСТИ В
ПРЕПОДАВАНИИ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ В ОБРАЗОВАНИИ**

Нурмаматов Зухриддин

Преподаватель кафедры технологического образования Термезского
государственного университета

Кадырова Малика

Преподаватель Термезского государственного университета.

Аннотация: Статья направлена на повышение эффективности преподавания специальных предметов, включенных в учебные программы образовательных учреждений. Однако анализ существующих научно-методических статей и литературы в нашей стране и в странах ближнего зарубежья показывает, что проведено недостаточно научных и методических исследований для изучения теоретических и практических аспектов личностно-ориентированного преподавания специальных предметов на основе полной современной образовательные технологии.

Ключевые слова: технология, учитель, инновация, деятельность, обучение, специальные дисциплины, научно-методическая статья.

**INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND THEIR OPPORTUNITIES IN
TEACHING SPECIALTIES IN EDUCATION**

Nurmamatov Zuhridin Shavkat o'g'li

Lecturer at the Department of Technological Education,
Termez State University

Qodirova Malika Abdupatto qizi
Lecturer at Termez State University

Abstract: The article aims to increase the effectiveness of teaching special subjects included in the curriculum of educational institutions. However, the analysis of existing scientific and methodological articles and literature in our country and neighboring countries shows that insufficient scientific and methodological research has been conducted to study the theoretical and practical aspects of person-centered teaching of special subjects on the basis of full modern educational technologies. visited

Keywords: Technology, teacher, innovation, activity, training, special disciplines, scientific-methodical article.

Respublikamizning pedagogik olimlari va metodistlari tomonidan ta'limni takomillashtirish, ya'ni sifatini yaxshilash jarayonini texnologiyalashtirish, jadallashtirish va mazmunini boyitish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashga oid nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ko'pgina ilmiy-uslubiy tadqiqotlar olib borilgan va olib borilmoqda. Masalan, H.Rashidov tomonidan "O'zbekistonda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik va nazariy-metodologik asoslari" ishlab chiqilgan. N.A.Muslimov "Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish muammolari"ni tadqiq etganlar. Ushbu izlanishlar ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitish va ishlab chiqarish ta'limini takomillashtirish masalalari bo'yicha olib borilgan.

Ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarishning bugungi yuksak taraqqiyoti o'z-o'zidan yangi ijtimoiy talablarni kun tartibiga qo'yimoqda. Mazkur ijtimoiy talablar sirasida jamiyat, qolaversa, uning negizida sohalar rivojini harakatga keltiruvchi kuch – malakali kadrlarni tayyorlash, ana shu maqsadga yo'naltirilgan tizimni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Malakali kadrlarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj ishlab chiqarish korxonalari paydo bo'lgan, sanoat sohasi rivojining ilk bosqichlarida yuzaga kelgan bo'lsada, hanuzgacha o'z dolzarbligini yo'qotmay kelmoqda. Buning asosiy sabablari jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga bog'liq ravishda yangidan yangi yo'nalishlar, ixtisosliklarning paydo bo'lishi, ular bo'yicha kadrlar tayyorlash zaruriyatining vujudga kelishi, o'zgaruvchan, tezkor davrda mutaxassislarining kasbiy bilim, malaka va mahoratlarini izchil ravishda oshirib borishga bo'lgan ehtiyojning shakllanishi, shuningdek, mutaxassis sifatida mehnat bozoridagi kuchli raqobatga bardosh bera olishga bo'lgan talabning ortishi sanaladi.[9]

Ushbu ishlar ta'lim muassasalari o'quv rejasiga kiritilgan maxsus fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan. Ammo, respublikamizda va yaqin xorijiy mamlakatlardagi mavjud ilmiy-metodik maqola va adabiyotlarning tahlili, maxsus fanlarni to'laqonli zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida shaxsga qaratilgan o'qitishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq qilish bo'yicha yetarlicha ilmiy-metodik izlanishlar olib borilmaganligidan dalolat beradi. Maxsus fanlarni o'qitishda, o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlarini o'rganishdan oldin, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida maxsus fanlarning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

1. O'quv materialida texnikaga bog'liq masalalar yoritilgan maxsus fanlar.
2. O'quv materiallarida mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasiga bog'liq masalalar yoritilgan maxsus fanlar.
3. O'quv materialida xom-ashyo materiallariga bog'liq masalalarni yorituvchi maxsus fanlar.
4. Ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish va iqtisodiyoti to'g'risida o'quv materiallarini o'zida qamrab olgan maxsus fanlar.[5]

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish – innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi [8]. «Innovatsion pedagogika» termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Yevropa va AQShda 60-yillarda paydo bo'ldi. Yangilik kiritishning sotsial-psixologik aspekti amerikalik innovatik E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifa(tip)lari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilikdir. A.I.Prigojin

Innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida maxsus fanlardan o'quv adabiyotlarini yaratish

va amalda joriy etish metodikasi A.G'afforov, o'quv adabiyotlarini ekspertizadan o'tkazish jihatlari H.Saidova tomonidan o'rganilgan hamda ularni takomillashtirish bo'yicha qator takliflar berilgan. Kasb-hunar maktablari o'quvchilari maxsus fanga tegishli faoliyat usuli bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. U.D.Xidirov, K.J.Mirsaidov, R.K.Choriyevlar maxsus fanlarni o'rganishdan maqsad «o'quvchilarda hozirgi zamon texnikasi va ishlab chiqarish texnologiyasi bo'yicha kasbiy mahoratni shakllantirishdir», deb fikr yuritib, maxsus fanlarni o'qitishda qo'yiladigan didaktik tamoyillarni keltirganlar. Maxsus fanlardan o'quv dasturlarini tuzish va dars jarayonini mazkur dasturlar asosida tashkil etish uchun quyidagilarni inobatga olish lozim:

1. O'quv dasturlari va ish rejalarini tuzishda fanlar va mavzularning ketma-ketligiga e'tibor qaratish;

2. Kasb-hunar maktablari o'quvchilarining umumiy o'rta ta'lim maktabidan olgan bilimlarini chuqurlashtirish va mukammallashtirish maqsadida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida fizika, kimyo va matematika fanlaridan chuqurroq bilim berish;

3. Maxsus fanlardan yangi pedagogik texnologiyalarini joriy etishda o'quvchilarga ko'proq turli ishlab chiqarish korxonalaridan tomonidan chiqariladigan mahsulotlarni tayyorlashda bajariladigan texnologik jarayonlarning amaliy yo'nalishini kuchaytirishga e'tiborni qaratish kerak.[6]

Ta'lim berishda zamonaviy o'qitish texnologiyalarini amalda qo'llash mexanizmini har bir ilm ma'rifat dargohida faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim beruvchilar mukammal bilishlari lozim. Inkor qila olmaymizki, hozirgi kun ta'lim oluvchilari, avvalgi ta'lim oluvchilardan o'z salohiyatlari bilan tubdan farq qiladilar. Masalan, zamonaviy o'qitish texnologiyasini dars jarayonida foydalanilishi uchun o'qituvchi:

- kommunikasiya-axborotlarni qabul qilish va yetkazib berish;
- o'quvchilarni ta'lim olishga motivasiya-qiziqitirish;
- o'qitishni vizuallashtirish-ko'rgazmalilik tamoyili (yuqori darajada amalga oshirish) asosida boshqarish kabi mahoratlariga ega bo'lishi zarur.[7]

Zamonaviy o'qitish texnologiya usullarini o'zida shakllantira olgan, ko'nikma hosil qilgan o'qituvchi, o'z ish faoliyatida, ya'ni dars berish jarayonida albatta, kompyuter, kodoskop, flipchart va pinbord o'quv xona taxtasi kabi texnik vositalardan foydalanish mahoratiga ega bo'ladi. Dars jarayonida ta'lim maqsadini amalga oshirish ya'ni ta'lim oluvchilarga ta'lim mazmunini yetkazib berishda motivasiya (qiziqish) uyg'otish va vizuallashtirish usullari, didaktik materiallar, texnik vositalar majmuasidan jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi uchun iqtisodiy o'sish omillarining sifat jixatdan takomillashib borishi jarayoni xos.

Fan texnika taraqqiyotining ilg'or natijalarini qo'llash, ishlab chiqarishni intensivlashtirish, yuqori samarali innovatsion texnologiyalardan foydalanish bilan bir qatorda eng muhimi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash bu boradagi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.[4]

Hozirgi kunda ishchi kuchining miqdor va sifat jihatlari o'rtasidagi nisbat keskin o'zgarib bormoqda. Mustaqil ishni bajarish uchun talabaga axborot manbasi sifatida darslik va o'quv qo'llanmalar, uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalar, ma'lumotlar to'plami va banki, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar, internet tarmog'idagi tegishli ma'lumotlar, berilgan mavzu bo'yicha avval bajarilgan ishlar banki va boshqalar xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda ta'lim rahbariyati tomonidan talabalarga mustaqil ishlarni o'z vaqtida bajarish uchun amaldagi me'yorlar asosida jihozlangan o'quv zaliga ega bo'lgan kutubxona, uslubiy kabinetlar, auditoriyalar, yetarli kompyuter texnikasiga ega bo'lgan kompyuter sinflari va internet tarmog'idan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratilgan bo'lishi zarur deb o'ylayman. Innovatsion texnologiyalar asosida o'qitish usullaridan foydalanib, o'quvchilarga bilim berish hozirgi kunda muhim o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Mirziyoyev. Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob halqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" 2017.
2. Mirziyoyev. Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" 2016.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoyevning 2017 yil 20 apreldagi „Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi Qarori
4. "Ta'lim to'g'risidagi qonun" Toshkent 2020 y
5. Ishmuhamedov. R. J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
6. A. Abduqodirov, R. Ishmuhammedov. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" T.: 2008. – 128 b.
7. Shomirzayev M. X. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik.. –T.: "TerDU nashr-matbaa markazi", 2020. – 226 b.
8. Shomirzayev. M. X. Texnologiya fanini o'qitishning samaradorligini oshirish yo'llari. O'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma. –T.: 2019. – 72 b.
9. Khodjamkulov, U., Botirova, S., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). Journal of Critical Reviews, 7(12), 166-169.

МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЖОДИЙ ИШ БАЖАРИШ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.79.36.043>

Пахратдинова Рита Отеулиевна,

Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети катта ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада технология фани машғулотида ўқувчиларнинг мустақил ва ижодий иш бажариш қобилиятларини шакллантириш орқали меҳнат фаолияти жараёнида ўқувчиларда фикр юритиш, тасаввур қилиш, иш бажариш, шакл ҳосил қилиш ва уни ўзгартириш каби хусусиятлар ривожлантириш масалаларининг мазмун-моҳияти апрофлича ёритиб берилган.

Калит сўзлар: мактаб, ўқувчи, синф, дарс, ижодий, қобилият, технология, қизиқиш, фаоллик ақлий ҳужум, тафаккур, дебат, нуқтаи назаринг бўлсин, эстафета, интерфаол, усул, самарадорлик.

ТЕХНОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШКОЛЬНИКОВ

Пахратдинова Рита Отеулиевна,

Старший преподаватель Каракалпакского государственного университета им. Бердах.

Аннотация. В статье подробно рассматривается развитие у студентов способности мыслить, воображать, выполнять, формировать и изменять в процессе труда через формирование у студентов способности работать самостоятельно и творчески на технологических классах.

Ключевые слова: школа, ученик, класс, урок, творческий, способность, технология, интерес, активность умственная атака, созерцание, дебаты, получить свою точку зрения, реле, интерактив, метод, эффективность.

TECHNOLOGY FOR THE FORMATION OF SCHOOL STUDENTS CREATIVE PERFORMANCE

Paxratdinova Rita Oteulievna,

He is a senior lecturer at Berdakh Karakalpak State University

Summary: In the state rassmatrivaetsya detailed development of students' abilities to think, imagine, perform, form and change in the process of labor through the formation of students' ability to work independently and creatively in technological classes.

Keywords: schools, shoe makers, education, upbringing, boskiy, street, skills, profession, izhodi, inventor, mental mind, morphologist, analysis, synthesis, inventive, algorithm, synectics.

Технология фани машғулотида ўқувчиларнинг мустақил ва ижодий иш бажариш қобилиятларини шакллантириш учун қулай имкониятлар мавжуд. Чунки технология фани дарсларида ўқувчилар кўп ҳолларда амалий ишларни бажарадилар. Бунда улар ўз қўллари билан турли хил кўринишдаги деталь ёки буюмларни тайёрлайдилар. Мана шу меҳнат фаолияти жараёнида ўқувчиларда фикр юритиш, тасаввур қилиш, иш бажариш, шакл ҳосил қилиш ва уни ўзгартириш каби хусусиятлар шаклланади ҳамда ривожланади. Дарс жараёнида ўқувчиларнинг қизиқиши ва фаоллигини ақлий ҳужум, танқидий тафаккур, кичик гуруҳларда ишлаш, дебат, нуқтаи назаринг бўлсин, ҳар ким ҳар кимга ўргатади, пресс услуги, бинго ўйини, эстафета, мозаика каби интерфаол усуллардан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Юқорида бу усулларнинг айримларидан қандай фойдаланиш



хусусида фикрлар келтирилди. Энди технология фани дарсларида ўқувчиларнинг ижодкорлик фаолиятини ташкил этишга имкон берувчи бошқа айрим усуллардан мисоллар келтирамиз.

Интерфаол методлар. Бугунги кунда таълим жараёнида ўқувчиларни билим олишга қизиқтириш жиддий муаммога айланиб бораётганлиги ҳеч кимга сир эмас. Бу муаммони ҳал этиш ечимини топиш учун бир қатор илмий-услубий ва ташкилий ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан таълимда янги педагогик технологиялардан фойдаланиш шундай ишлардан биридир. Янги педагогик технология бу таълим жараёнида қўлланилаётган ўқитишнинг фаол усулларини умумий номланиши бўлиб, унинг турлари, шакллари, воситалари ҳамда амалга ошириш йўллари ҳам турли-тумандир. Шулардан бири интерактив ёки интерфаол усуллар ҳисобланади. Интерактив ёки интерфаол усул нима дегани ўзи?

Кузатишларимиздан шундай ҳолат ва вазиятлар аниқландики, кўпчилик ўқитувчилар интерфаол усулнинг моҳияти ҳамда уни қўллаш йўллари яхши билмайдилар [15]. Шунинг ҳисобга олган ҳолда кўйида интерфаол усуллар ва ундан қандай фойдаланиш ҳақида фикр юритмоқчимиз. Аввало шунинг таъкидлаш кераки, "интерактив" атмаси икки сўзнинг, яъни интер (ёки интервал) -аро (ёки оралик) ва актив (фаол) сўзларидан ташкил топган. Бундан кўринадики, таълимда интерфаол усуллар қўлланилганда ўқитиш, ўргатиш ишлари ўқитувчи билан ўқувчи (ўқитувчи+ўқувчи), ўқувчи билан ўқувчи (ўқувчи+ўқувчи), ўқувчи билан синф (ўқувчи+синф) каби ораликда амалга оширилади. Натижада ўқитувчи бутун синф ўқувчилари билан ишлай олиш имкониятига эга бўлади.

Бугунги кунда интерфаол методнинг кўплаб шакллари яратилган бўлиб, улардан амалда самарали фойдаланиб келинмоқда. Бу усуллар қаторига, жумладан музёра, ўргимчак тўри, занжир, ақлий ҳужум, кластер, мунозара (дебат), Глобал-алфавит, абстракт фикрлаш, зиг-заг, инсерт карта, тўхтаб-ўқиб таҳлил қилиш каби кўплаб усулларни киритиш мумкин. Дарслар мана шундай усуллар асосида ташкил этилса, мароқли, қизиқарли ва мазмунли бўлади, ҳеч бир ўқувчи бундай дарсда зерикмайди; ўқувчиларда бундай дарсларга нисбатан қизиқиш кучаяди, уларда қатнашишга кучли иштиёқ ҳосил бўлади, ўзини ҳар томонлама кўрсатишга имконият яратилади [16].

Дарсларда бундай усулларни қўллаш орқали ўқувчиларда:


- атрофлича, кенг ва чуқур фикрлаш, ўз фикрини эркин баён қилиш, асослаш ва ҳимоя қилиш; воқеа ва ҳодисаларни, нарсаларнинг хусусиятларини англаш ва тасаввур эта олиш;

- билимларнинг узлуксизлигини таъминлаш;

- олган назарий билимларни амалда қўллаш олиш, ҳаракатли амалий фаолиятга киришиб кета олиш;

- кичик гуруҳларда ва жамоа ичида ишлай олиш, ўзаро ҳурмат;

- мустақил ва ижодий ишлаш каби кўникмаларни ҳосил қилиш мумкин. Натижада дарс жараёнида ўқувчиларнинг фаолияти фаоллашади, ҳар бир ўқувчи фикрлайди ва ишлайди, улар бир-бирларининг қарашларини, фикрларини ҳурмат қиладилар ва ўз фикрлари билан тўлдирадилар. Ўқувчилар ўртасида шахслараро ижтимоий муносабат, бир-бирларини қўллаб-қувватлаш каби ҳислатлар юзага келади. Мазкур жараённи 1-расмда ифодаланган схема орқали ифодалаш ҳам мумкин (1-расмга қаранг).



1-расм. Интерфаол методлардан фойдаланиш технологияси.

Маълумки, ҳар бир дарснинг мақсади, вазифаси мавжуд бўлади, бу одатда топшириқ сифатида гавдаланади. Мазкур топшириқни бажариб, бирор натижага эришиш учун маълум усуллар мажмуасидан фойдаланилади. Бу усулда турли воситалар орқали амалга оширилади. Бунда синфдаги ўқувчиларнинг фаолияти, яъни ижтимоий муҳит катта аҳамиятга эга. Бинобарин топшириқни фақатгина воситалар ёки ижтимоий муҳит орқали бажариб, бирор натижага эришиб бўлмайди. Шунинг учун юқорида айтилган усуллар мажмуаси воситалар ва ижтимоий муҳит ҳолатни ўзаро уйғунлаш-тирган ҳолда дарсни ташкил этиш зарур. Ўқитувчининг мана шу оралиқларда олиб борадиган фаолияти интерфаол усул деб номланади. Дарс ёки машғулот чегараланган вақт ва маълум сондаги ўқувчилар билан олиб борилганлиги учун мазкур тизимни шартли равишда берк ҳолатда, яъни тўртбурчак ичида тасвирланди.

Интерфаол усуллардан фойдаланиш ҳозирги пайтда, асосан, ақлий хужум, чакирув, фикрлаш, англаш каби босқичларда амалга оширилмоқда. Яъни дарс бошланишида ўқитувчи мавзу бўйича ўқувчиларга турли муаммоли саволлар билан мурожаат қилади ва бу билан уларни ақлни ишлатишга, мияга “фикрий хужум” қилишга ундайди. Бу орқали ўқувчилардан керакли маълумотларни “тапиртириб” олишга эришади. Навбатдаги босқичда ўқувчилар берилган жавобларни фикрлаб кўрадидилар, ўзаро таққослайдилар, улардан энг мақбул-ларини танлаб олиб, уларнинг моҳиятини англашга ҳаракат қиладилар. Натижада фикрлаш орқали ўқувчини янгилик яратиш ва англаш орқали уни ёдида сақлаб қолишига имконият яратилади. Бу ишлар ўз навбатида ўқувчиларда мустақил фикрлаш ва ижодий ишлаш кўникмаларини таркиб топтиради. Шунингдек, бундай дарсларни янада қизиқарлироқ ташкил этиш мақсадида дарс бошида, ўртасида ва охирида “Тропик ёмғир”, “Мевалар”, “Шеригингни топ”, “Сичқон ва мушуклар”, “Кемачалар” каби қизиқарли ўйинларни ҳам ўйнаш мумкин. Бу одатда энер-жайзер усули деб юритилади. Бунинг аҳамияти шундаки, ўқитувчи ўқувчиларнинг ташқарига чиқиб кетаётган фикрларини ўзига жалб қилиб, қайтариб олади. Ҳар бир ўқитувчи машғулотларида ўз имкониятидан келиб чиққан ҳолда муайян шароитни ва ўқувчиларнинг шахсий ақлий ва физиологик хусусиятларини ҳисобга олиб шундай усулларни қўллаб бориши – давр талаби бўлиб қолди. Мана шундай усуллар орқали дарс ўтадиган ўқитувчиларнинг дарси доимо қизиқарли бўлади, ўқувчилар ҳам бундай ўқитувчиларни ўзгача ҳурмат қилади. Хулоса қилиб айтганда, интерфаол методларида машғулот ўтказиш методикасининг қисқача тафсилоти қуйидагича: унинг кириш қисмида рақамли карточкалар бўйича микрогуруҳлар ташкил қилинади ва ҳар бирмикрогуруҳ аъзолари ўзаро маслаҳатлашиб, унинг



номини аниқлайдилар, сўнгра тингловчиларга машғулотнинг ўқув мақсадлари эълон қилинади ва улар муҳокама қилиниб, тасдиқланади. Машғулотдаги барча билиш жараёнлари тасдиқланган ўқув мақсадларни рўёбга чиқаришга қатъий йўналтирилган бўлади. Машғулотнинг иккинчи қисмида мавзуга оид ўқув материаллари мустақил ўзлаштириш учун микрогуруҳларга тарқатилади. Улар энг мақбул бўлган интерфаол усуллардан фойдаланиб, мавзунини ўзлаштириб, тақдирот учун кўргазмалар тайёрлайдилар ва ҳар бир микрогуруҳ вакили уларнинг тақдиротини ўтказди. Мунозаралардан сўнг ўқув мақсадларига эришганлик даражаси аниқланади ва камчиликлар тўлдирилиб, ўқув материалининг пухта ўзлаштирилишига эришилади. Машғулотнинг якуловчи қисмида ҳар бир микрогуруҳ ва унинг аъзоларини машғулот давомидаги фаоллиги алоҳида қайд этилади. Машғулотларни бундай усулда ўтиш машғулотда ҳар бир тингловчининг фаол бўлишини таъминлайди ва фикрлаш қобилиятини ривожлантирилади. Тингловчиларда содир бўладиган зўриқишларнинг олдини олиш мақсадида “Мевалар”, “Мен ўйлаган исмни топ”, “Хотира машқи” каби чарчокни баргараф қилиб, руҳни енгиллаштирувчи ёки бошқа психологик ўйинлардан фойдаланиш яхши самара беради. Бундай ўйинлардан самарали фойдаланиш тингловчиларнинг ўқув мотивларини машғулот давомида бир маромда сақлаб туришга имконият яратади, бу эса машғулотларнинг самарадорлигини оширувчи асосий омиллардан биридир. Қуйида айрим интерфаол методлар ва уларни қўллашга оид намуналар келтирамиз.

Ақлий ҳужум (фикрлар ҳужуми – брейнсторминг, фикрлар бўрони – амалий ёки илмий муаммони ҳал қилишда ғояларни жамоа бўлиб илгари суриш) методини қўллаш. Бу методдан кўзланган мақсад ўқувчиларни бир хил фикрлашдан холис қилиш, ижодий вазифаларни ечиш жараёнида дастлаб пайдо бўлган ноаниқ фикрларни енгилдир. Бу метод 1953 йилда А.Ф.Осборн томонидан тавсия этилган. Бунда ўқувчиларда қўйилган муаммонинг моҳиятини англаган ҳолда дастлабки фикр юритиш кўникмалари шаклланади. Шу билан бирга улар ўзларининг фикрларини эркин баён этишни, асослашни, ҳимоя қилишни, бошқаларнинг фикрларини эшитишни ва ҳурмат қилишни ўрганадилар. Фикрлар ҳужуми вақтида иштирокчилар биргаликда қийин масала ёки муаммони ечдилар. Иложи борича кўпроқ ғоялар таклиф этилиб, улар танқид остига олинмайди, рад этилмайди. Бу усулнинг афзаллиги ҳам шундан иборат бўлиб, ҳар қандай ғоя, ҳатто мантиқсизлари ҳам ҳисобга олинади. Уларнинг ҳаммаси ёзилади, таҳлил қилинади, баҳоланади ва шундан кейингина улар ичидан энг самарали, мақбул ечим танлаб олинади. Фикрлар ҳужумида 15 тагача иштирокчи бўлиб, 1 соатгача давом этади. Бу методдан кичик гуруҳларда ва катта аудитория (60 кишигача)да фойдаланиш мумкин (бу методдан фойдаланиш ҳақида юқорида айрим мисоллар келтирилган эди).

Модификациялашган дарс – шакли ўзгартирилган таълим усули бўлиб, бунда дарсни ўқитувчи ўқувчилар билан мулоқот тарзида ташкил этган ҳолда мавзунини ёритиб беради.

Импровизация – тайёргарликсиз баён этиш усули бўлиб, савол, топширикларни ўқувчилар муддатсиз, тайёргарлик кўрмай таҳлил қиладилар.

Мультимедиа – маълум бир вақтга мўжалланган, кўргазмалар, режали, дастур асосида қурилган ва компьютер техникаси воситасида намойиш этиладиган, тушунтириш ва ҳаракат акс этирилган дарс шаклидир.

Кластер – тармоқланиш усули бўлиб, бу ўқувчиларни бирор бир мавзунини тармоқларга бўлиб чуқур ўрганишларига ёрдам беради.

Бумеранг технологияси. Бу технология бир машғулот давомида ўқув материалларини чуқур ва яхлит ҳолатда ўрганиш, ижодий тушуниб етиш, эркин фикр юритишга йўналтирилган. Бир машғулот давомида ҳар бир иштирокчининг турли топширикларни бажариши, навбат билан ўқувчи ёки ўқитувчи ролида чиқиши мумкин.

Скоробей технологияси. Бу технология ўқувчиларда фикрий боғлиқлик, мантиқ, хотиранинг ривожланишига имконият яратади, бирор муаммони ҳал қилишда ўз эркин ифодалаш маҳоратини шакллантиради.

Тарози технологияси. Бу технология мунозарали, мураккаб мазмунли мавзуларни ўганишда қўл келади. У танқидий, мантиқ, ижодий, импровизация, фикрий тажрибаларни ривожлантиришга йўналтирилган.

Елпиғич технологияси. Бу технология мураккаб, кўп тармоқли, мум-кин қадар муаммоли кўринишдаги мавзуларни ўрганишга қаратилган. Бунда мавзунинг турли тармоқлари бўйича бир йўла ахборот берилади. Уларнинг ҳар бири алоҳида нуқталардан муҳокама этилади. Масалан, ижодий ва салбий томонлари, афзалликлари ва камчиликлари, фойда ва зарарлари белгиланади.

Муаммоли вазият. Бунда ўқитувчи томонидан ўқувчиларга муаммо билан боғлиқ бўлган ҳаётий воқеа, ҳодисалардан мисоллар келтирилади. Бу муаммони ўқувчилари ўзлари мунозара шаклида ечадилар. Натижада ўқувчиларнинг фикрлаш доираси кенгайди, улар муаммони тўғри ечишга ўрганадилар.

Танқидий тафаккур. Бу усулда маълум бир ҳолат, вазият мисол қилиб ўртага ташланади. Масалан, таълим-тарбияга оид ёки инсон ҳуқуқидаги камчи-ликлар орқали салбий ҳолат, вазиятнинг юзага келишини ўқувчилар таҳлил қиладилар, уни ижодий ҳал қилишга ўрганадилар, мустақил фикр юритадилар, бош қотирадилар. Бу ҳолат вазиятнинг ечимини тўғри топишга имконият яратади.

Муайян ҳолат ва вазиятни ўрганиш. Ўқитувчи ўқувчиларга бирор мавзу юзасидан савол ёки топшириқни беради, улар эса ўз имкониятларини доирасида таҳлил қиладилар, ҳар бир ўқувчи бошқа бир ўқувчининг фикрига танқидий ёндашади. Ўз фикрини асослашга ўрганади. Бу усулни қўллашда маълум бир тартиб-қоидаларни ишлаб чиқадиладар. Масалан, ўзгалар фикрини бўлмасдан охиригача тинглаш, танқидни дўстона қабул қилиш, тўғри тушуниш, бир-бири билан жанжаллашмаслик ва ҳ.

Нуқтаи назарнинг бўлсин. Ўқитувчи томонидан ўқувчиларга бирор савол ёки топшириқ берилади. Ўқувчилар бу савол, топшириқларга ўз муносабатларини, нуқтаи назарларини билдирадилар. Қайси ўқувчининг фикри тўғри бўлса – у рағбатлантирилади ва бошқа ўқувчиларга намуна қилиб кўрсатилади. Бу усулда ҳар бир ўқувчининг ўз шахсий позицияси, йўли, фикри шаклланади, дунёқараши ўсади, оғзаки нутқи ривожланади.

Ўқувчиларни кичик гуруҳларга бўлиш методи. Бунда уларда жамоа бўлиб фикрлаш ва иш бажариш, ўз жамоасининг ғолиб бўлишига интилиш хислатлари ривожланади.

Инсерт методи – самарали ўқиш ва фикрлаш учун белгилашнинг интерфаол тизими ҳисобланиб, мустақил ўқиш-ўрганишда ёрдам беради. Бунда маъруза мавзулари, китоб ва бошқа материаллар олдиндан ўқувчига вазифа қилиб берилади. Уни ўқиш чикиб, шартли белгилар орқали ўз фикрини ифодалайди. Масалан “Дурадгорлик арралари ва арралаш” мавзусини ўрганиш бўйича ўқувчиларга қуйидаги қисқача матн-топшириқни бериш мумкин: арраларнинг турлари, арраларни ишга сошлаш, арраларни чархлаш, арралаш станогиди ишлаш, арралаш қоидалари. Ўқувчи мазкур матн-топшириқ билан танишиб чиқади ва унга ўзининг муносабатини билдиради. Матнни белгилаш қуйидагича амалга оширилади:

– мен билган нарсани тасдиқлайди.

Қ – янги маълумот.

– – мен билган нарсага зид.

? – мени ўйлантирди. Бу борада менга қўшимча маълумот зарур.

Буни жадвал кўринишида ҳам тасвирлаш мумкин (8-жадвалга қаранг):

8-жадвал. Инсерт жадвали.

Мавзу	✓	Қ	–	?
Арралаш	арраларнинг турлари	арраларнича рхлаш	арралаш стано-гида ишлаш	арралаш коидалари
Мавзу	...	Қ	...	?

Арралаш арраларнинг турлари арраларнича рхлаш арралаш стано-гида ишлаш арралаш коидалари

Шунингдек, режалаш, рандалаш, ўйиш-тешиш, эговлаш, пардозлаш каби иш амаллари бўйича ҳам юқоридаги каби ишни амалга ошириш мумкин. Буни қуйидагича бажарса ҳам бўлади (9-жадвалга қаранг):

Мавзу	✓	Қ	–	?
Режалаш				
Рандалаш				
Ўйиш-тешиш				
Эговлаш				
Пардозлаш				

9-жадвал. Ўқувчига тошпирик. Қуйидаги жавални тўлдилинг.

Ишбилармонлик ва ролли-сюжетли ўйинлардан фойдаланиш. Бунда ўқувчиларнинг мустақил, ижодий иш бажариш қобилиятлари намоён бўлади ҳамда ривожланади. Олдин эгаллаган билим ва кўникмаларни бойитиш, янги вазиятларда қўллаш имкониятлари очилади.

Муаммоли савол ва ҳолатларни таҳлил қилиш. Бу усул ўқувчилар-нинг ижодий, манتيқий фикр юритишларига, илмий, эркин баҳс-мунозарага киришишларига, муомала маданиятини ўрганишларига, тоқирлик хислат-ларини ривожланишига қаратилган. Мазкур усуллар ўқувчилар ва талабалар-нинг фикрлаш, англаш, тасаввур қилиш, амалий иш бажариш қобилият-ларини ривожлантиришга имкон берувчи оддий ва самарали усуллар ҳисобланади.

Баҳс, мунозара методи – ўз фикрини ифода этишни хоҳловчилар ора-сида бирор бир мунозарали масалани муҳокама қилиш, ҳақиқатни аниқлаш ва тўғри қарорни қабул қилишда қўлланилади, ўқув машғулотларини ташкил этишнинг фаол методларидан бири ҳисобланади. Мунозаранинг асосий мақсади – ўқув материални умумлаштириш ва тизимга солиш, шунингдек, ўрганилаётган ўқув материалнинг амалий аҳамиятини ўқувчилар томонидан англаб олинишига ёрдам беришдир. Мунозара машғулоти тайёрларлик кўриш, мустақил ишлаш, мунозара ўтказиш якунлаш каби босқичларда ташкил этиш ва ўтказиш мумкин. Бу методни “Кийиниш маданияти – инсон зийнати”, “Пазандалик – санъат”, “Овқатланиш ва инсон саломатлиги”, “Халқ ҳунар-мандчилиги – халқ менталитети”, “Қишлоқ хўжалиги тарққийети – тўкинчилик мабаи” каби мавзуларда қўллаш мумкин.

Семинар дарси методи – ўқувчилар эгаллаган билимларни кенгайтириш ва чуқурлаштириш учун қўлланилади. Буни қуйидаги мавзу мисолида кўриб ўтайлик.

Мавзу: Буюмларни пардозлаш усуллари.

Мақсад: ўқувчиларнинг пардозлаш усуллари ва ишлари ҳақидаги билимларини кенгайтириш.

Мавзу бўйича саволлар

(саволларга жавоб беришда фикрингизни бирор буюм мисолида асосланг):

Пардозлаш деб нимага айтилади?

Пардозлаш қандай усулларда амалга оширилади?

Пардозлашда қандай асбоблар, мослама ва материаллар ишлатилади?

Пардозлаш ишларида қандай санитария-гигиена талабларига амал қилинади?

Пардозлаш ишларида қандай хавфсизлик қоидаларига амал қилинади?

Маъруза билан сўзга чиқиш методи – нисбатан кенгрок ҳажмли ўқув материалларини, илмий ахборотларни монолигик тарзда баён қилишда қўлланилади. асосий ўтиш услубига кўра маърузалар кириш маърузаси, шарҳловчи маъруза, маъруза-ахборот, муаммоли маъруза, визуал маъруза, бинар (2 кишилик) маъруза, аввалдан режаланган хатоли маъруза, маъруза-анжуман, маъруза-консультатция каби кўринишларда бўлиши мумкин.

Маъруза усулининг самарадорлигини таъминлаш учун ўқитишнинг фаол усуллари, жумладан, муаммоли, анжуман, консептсиз маъруза, муаллиф-лик маърузаси, мунозарали маъруза, аниқ ҳолатларни ечишга қаратилган

маъруза, маъруза-диалог каби усулларидан фойдаланиш; видео, графопроектор, схема каби восита ҳамда кўргазмаларни қўллаш мумкин.

Эссе методи – тақлиф этилган мавзу бўйича 1000 дан 5000 гача сўз ҳажмидаги иншо ёзиш. Эссе – бу муаллифнинг таъкидлаб ўтадиган индивидуал позициясидаги эркин ифода этиш шакли; бирор предмет, воқеа, таассуротлар бўйича умумий ёки дастлабки дунёқарашни ўз ичига олади. Бу методни “Мен севган касб”, “Саёҳат таассуротлари”, “Фан ва техника янгилликлари” каб и мавзуларда қўллаш мумкин.

Б-Б-Б методи – ўқувчилар эгаллаган билимларни ҳисобга олган ҳолда уларни кенгайтириш ва чуқурлаштиришда қўлланилади (10,11-жадваллар). Бу метод Блум таксономияси деб юритилади. Бу методни ҳам юқорида келтирилган “Дурадгорлик арралари ва арралаш” мавзуси мисолида кўриб чиқайлик (10-жадвалга қаранг).

10-жадвал. БББ методи жадвали.

Т.р.	Мавзу ёки тушунчалар	Биламан	Билишни хоҳлайман	Билиб олдим
1	Арралаш	арра турларини, ёғочларни арралашни	арралаш стано-гида ишлашни	арралаш коидаларини, арралар-ни чархлашни
...	

11-жадвал. Ўқувчига тоштириқ. Қуйидаги жавални тўлдириш.

Т.р	Мавзу ёки тушунчалар	Биламан	Билишни хоҳлайман	Билиб олдим
1	Режалаш			
2	Ридалаш			
3	Ўйиш-тешиш			
4	Эговлаш			
5	Пардозлаш			
6	Иш асбоблари			
7	Режалаш, ўлчаш ва назо-рат қилиш асбоблари			
8	СТД-120 ёғоч-токарлик станог			
9	ТВ-6 винткесар-токарлик станог			
10	Пармалаш станог			
11	Фрезалаш станог			
12	Электрлаштирилган дастаки асбоблар			
13	Ток манбалари			
14	Электр истеъмолчилари			
15	Электр занжири			
16	Ёғоч материаллари			
17	Пластмасса ва полимер материаллар			
18	Металл материаллар			
19	Газлама материаллар			
20	Пазандачилик ишлари			
...

Изоҳ: мазкур жадвални мавзуларга мос ҳолда бир неча кўринишда тайёрлаб

олиш ҳам мумкин.

Мавжуд маълумотлар асосида истиқболни белгилаш (аниқлаш) методи (12-жадвал). Бу тарихий ва ҳозирги пайтда мавжуд бўлган маълумотларни ўрганиш ва таҳлил қилиш асосида бирор-бир буюм, механизм ва машинани келгусида қандай кўринишда бўлишини тасаввур қилиш, қандай тамойиллар асосида ишлаши ва ишлатилишини аниқлашда қўл келади. Бунинг учун, масалан, -жадвалдан фойдаланиш мумкин (бу усул муаллиф томонидан ишлаб чиқилган – И.К.).

Номи	Бор эди, бўлган эди (тарихий маълумот)	Ҳозир мавжуд	Келгусидаги ҳолати
Ручка	Чўп, пат, сиёҳли ручкалар	Шарикли ручкалар	Электрон ручкалар
Соат	Механик, электрон	Механик, электрон	?
Телевизор	Лампали	Микросхемали	?
Компьютер монитори	Электрон нурли	Электрон нурли, плазмали	?
12-жадвал	Мавжуд маълумотлар асосида истиқболни белгилаш (аниқлаш).		
...

“Агар мен ...” методи. Бунда ўқувчилардан маълум бир қасб кишиси сифатида шу соҳага оид муаммоларни қандай бартараф этиши мумкинлиги ҳақида ўз фикрларини билдиришлари сўралади. Масалан, “Агар мен автоконструктор бўлганимда ... машинани яратган бўлар эдим” (Агар мен автоконструктор бўлганимда тоғларда ҳам юра оладиган машинани яратар эдим. Бунинг учун машинага вертолётни ҳаракатлантирадиган тизимни қўллар эдим). “Агар мен авиаконструктор бўлганимда ... самолётни яратар эдим” ва ҳ. Бу усулнинг энг афзал томони шундаки, бунда ўқувчиларнинг ҳаёлот (фантазия), таққослаш, тасаввур қилиш қобилиятлари тез ривож-ланади. Булардан ташқари бошқа методлардан, жумладан, конструкциялашга ўргатиш методидан фойдаланиш ҳам технология фани дарсларида ўқувчиларнинг ижодкорлик фаолиятини ривожлантиришда катта аҳамиятга эгадир.

Фойдаланилган адабиёт:

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Тошкент, 2020 йил 24 январь.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистоннинг янги тарққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Фармони. Т., 2020 йил 6 ноябрь ПФ-6108.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Т.: O'zbekiston, 2017. – 488 б.

Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида” ва “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида”ги қонунлари. // -Т.: Шарқ, 1997.

Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат: Ўқув қўлланма. – Т.: ТДПУ, 2003. – 174 б.

8. Бабанский Ю.К. Ҳозирги замон умумий таълим мактабида ўқитиш методлари. Т.: Ўқитувчи, 1990. – 232 б.

9. Балл Г.А. Теория учебных задач: Психолого-педагогический аспект. М.: Педагогика, 1990. – 184 с. 120.

10. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. М.: Педагогика, 1989. – 192 с.

11. Голиш Л.В. Таълимнинг фаол усуллари: мазмуни, танлаш ва амалга ошириш. Методик қўлланма. Т.: ЎМКХТРИ, 2001. – 128 б.

ИЖОДИЙ МАСАЛАЛАРНИ ЕЧИШДА МОРФОЛОГИК ЖАДВАЛДАН Фойдаланиш

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.18.43.042>

Пахратдинова Рита Отеулиевна,

Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети катта ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада умумий ўрта таълим мактабларида технология фани дарсларида ўқувчиларнинг ижодий-ихтирочилик масалаларини ечиш назарияси (ТРИЗ) ҳамда ақлий ҳужум, морфологик анализ ва синтез қилиш, ихтирочилик масалаларини ечиш апрофлича ёритиб берилган.

Калит сўзлар: мактаб, ўқувчи, таълим, тарбия, босқич, кўникма, малака, касб, ижодий, ихтирочилик, ақлий ҳужум, морфологик, анализ, синтез, ихтирочилик, алгоритм, синектика, самарадорлик.

В РЕШЕНИИ ТВОРЧЕСКИХ ВОПРОСОВ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МОРФОЛОГИЧЕСКОЙ ТАБЛИЦЫ

Пахратдинова Рита Отеулиевна,

Старший преподаватель Каракалпакского государственного университета им. Бердах.

Аннотация. В статье подробно описана теория решения творческих и изобретательских задач (ТРИЗ) учащихся на занятиях по технологическим наукам в общеобразовательных школах, а также мозговой штурм, морфологический анализ и синтез, решение изобретательских задач.

Ключевые слова: школа, ученик, образование, воспитание, этап, умение, умение, род занятий, творчество, сообразительность, ментальная атака, морфология, анализ, синтез, изобретение, алгоритм, синектика, эффективность.

IN SOLVING CREATIVE ISSUES USE OF MORPHOLOGICAL TABLE

Paxratdinova Rita Oteulievna,

He is a senior lecturer at Berdakh Karakalpak State University


Summary: The article describes in detail the theory of creative and inventive problem solving (TRIZ) of students in technology science classes in secondary schools, as well as brainstorming, morphological analysis and synthesis, solving inventive problems.

Keywords: schools, shoe makers, education, upbringing, boskiy, street, skills, profession, izhodi, inventor, mental mind, morphologist, analysis, synthesis, inventive, algorithm, synectics.

Ҳозирги вақтда ижодий-ихтирочилик масалаларини ечиш назарияси (ТРИЗ) ҳамда ақлий ҳужум, морфологик анализ ва синтез қилиш, ихтирочилик масалаларини ечиш алгоритм (АРИЗ), КАРУС, синектика, функционал анализ каби 40 дан ортиқ усуллари ишлаб чиқилган. Булардан, айниқса, морфологик анализ ва синтез қилиш (қисқача морфологик жадвал) усули ўқувчиларнинг ижодий ишларини ташкил этишда оддийлиги, самарадорлиги, ўқувчиларнинг ёш ва билиш хусусиятларига мос келиши, шунингдек, бу усул берилган бирор турдаги деталь ёки буюмни тайёрлашда ўқувчиларни кам вақт сарфлаб ўзларига маъқул бўлган кўринишни танлаб олишда, уни бошқа кўринишлар билан таққослашда жуда қўл келар экан (мазкур усул морфологик кути усули асосида муаллиф томонидан такомиллаштирилган – П.Р.). Шундай экан, технология фани дарсларида бу усулдан қандай фойдаланиш мумкин? Айтайлик, бизга телефон апаратыни қўйиш учун манзарали, шаклдор столча тайёрлаш вазифаси берилган бўлсин. Бу масалани ечишда ўқувчиларни ишларини қуйидаги босқичларда

ташқил этиш мумкин.

1-босқич. Масала шартини таҳлил қилиш. Маълумки, телефон узоғимиз-ни яқин, оғиримизни енгил қилувчи муҳим алоқа воситаси ҳисобланади. Телефон аппаратларидан қулай фойдаланиш ва уларнинг хизмат муддатини узайтириш мақсадида ҳар хил тагликлар ишлатилади. 32-расмда шундай тагликлардан уч хили кўрсатилган.



32-расм. Телефон аппаратини қўйиш учун мўлжалланган тагликлар:

1 – осма таглик; 2 – курсича; 3 – шаклдор столча.

Булардан биринчиси, яъни осма таглик фойдаланиш учун анча қулай. Лекин масала шартига кўра биз столча кўринишидаги таглик тайёрлашимиз зарур. Иккинчи, яъни миллий курсича кўринишидаги таглик яхши. Лекин уни тайёрлаш учун кўп вақт ва материал сарфланади. Бундан ташқари, энг муҳими, бундай курсичаларни кўпчилик V-VII синф ўқувчилари чиройли, бежирим қилиб тайёрлай олмайдилар. Шу сабабли, бизнингча, масала шартини қаноатлантирадиган ечим – 3-кўринишдаги столчани тайёрлашдир. Чунки бунда ўқув дастурида белгиланган ёғочларни дастгоҳларда ишлашдан ташқари наққошлик, ўймакорлик каби халқ амалий санъатига оид бўлган ишлар ҳам бажарилади. Шунингдек, бу столчанинг тузилиши ҳам унчалик мураккаб эмас. У устки тахтача, устунча (асос) ва оёқлардан иборат. Мана шу таҳлил қилиш ишлари морфологик анализ дейилади.

Ўқувчиларнинг амалий, ижодий ишларини ташқил этиш мақсадида ўқитувчи уларга расмда кўрсатилган столчадан бошқачароқ кўринишга эга бўлган, яъни ҳар бир боланинг ўз дидига мос, ўзига ёққан кўринишдаги столчани танлашни тавсия этади. Бунда ўқувчиларнинг ишларини осонлаштириш учун махсус морфологик жадвал тузилади. Жадвал масалани ечишдаги асосий восита бўлиб хизмат қилади. Шу сабабли бундай жадвалларни тузишга ва улардан фойдаланишга алоҳида эътибор бериш зарур. Бундай жадвални қуйидагича тузиш мумкин. Столчанинг қисмлари, яъни тахтаси, асоси ва оёқлари алоҳида хона – катакчаларга устун кўриниши-да ёзиб чиқилади. Шунингдек масалани ойдинлаштириш учун қисмлар ёзилган катакчаларда уларнинг материали, шакли ва безатилиши деган сўзлар ҳам қайт этилади. Шундан сўнг, ана шуларга оид бўлган маълумотлар муқобил кўринишларда ҳар бирининг рўпарасига ёзиб чиқилади. 4-жадвалда берилган морфологик жадвал ана шундай тузилган ва унда манзарали столча тайёрлашга оид маълумотлар берилган. Шуни алоҳида таъкидлаш ўринлики, тавсиф этилган

жадвал фақат шу кўриниш-лардан иборат бўлмай, балки ундан кенгрок ёки торроқ маънода бўлиши ҳам мумкин. Бу буюмлар-нинг тузилиши ва тузувчининг маҳоратига боғлиқ.

2-босқич. Столчани лойиҳалаш. Жадвал зарур бўлган маълумотлар билан тўлдирилгач (ёки олдиндан тайёрлаб қўйилган жадвал бўлиши ҳам мумкин), ундан фойдаланган ҳолда ўқувчиларга ўзларига ёққан кўринишдаги столчани танлаш тавсия этилади. Бунда столчанинг қисмларига тегишли бўлган маълумотлар мос ҳолда тик ва кўндаланг йўналишларда белгиланган рақамлар орқали ифодаланади.

4-жадвал. Телефон аппаратини қўйиш учун мўлжалланган шаклдор столчаниясашга оид морфологик жадвал

Буюмнинг қисмлари	Мукобил кўринишлари					
	1	2	3	4	5	6
I. Тахтаси						
1. Материали	тахта	пластмасса	металл	фанер	сопол	...
2. Шакли	думалок	овалсимон	5 қирра	6 қирра	8 қирра	...
3. Безатилиши	расмсиз	нақш чизилган	нақш куй-дирилган	нақш ўйилган	инкрустацияли	...
II. Асоси						
1. Материали	ёғоч	пластмасса	металл	сун.ойна	ганч	...
2. Шакли	думалок	3 қирра	4 қирра	6 қирра	8 қирра	...
3. Безатилиши	шаклсиз силлик	шаклдор	нақш куй-дирилган	нақш ўйилган	инкрустацияли	...
III. Оёқлари						
1. Материали	ёғоч	пластмасса	металл	сун.ойна	фанер	...
2. Шакли	думалок ёйсимон	думалок тўғри	3 қирра тўғри	4 қирра тўғри	кўп қирра тўғри	...
3. Безатилиши	расмсиз	шаклдор	нақшли
4. Сони	3 та	4 та	5 та	6 та	8 та	...
IV. Қўшимча вазифаси:	гул қўйиш у-н	дафтар қўйиш у-н	китоб қўйиш у-н	шахмат қўйиш учун	бошқа нарсалар қўйиш у-н	...

Бунда ҳар бир қисмга оид бўлган ишларга фақат биттадан кўриниш танлаб олинади. Яъни бунда синтез қилиш ишлари бажарилади. Масалан, 4-жадвалдан қуйидагича кўринишдаги столчани танлаш мумкин: I: 1-1; 2-4 ;3-2. II: 1-1; 2-1; 3-2. III: 1-1; 2-1; 3-1; 4-4. IV: 1-2.

Бу белгиланишлар қуйидагича ўқилади:

Тахтаси (I): материали (1) - тахта (1); шакли (2) - олти қиррали (4); безатлиши (3) - нақш чизилган (2).

Устунча - асоси (II): материали (1) - ёғоч (1); шакли (2) - думалок (1); безатилиши (3) - шаклдор (2).

Оёқлари (III): материали (1) - ёғоч (1); шакли (2) - ёйсимон (1); безатилиши (3) - расмсиз (1); сони (4) - тўртта (2).

Қўшимча вазифаси (IV) - столча телефон аппаратини қўйишдан ташқари дафтар ва ручка қўйиш учун ҳам мўлжалланган (1-4).

3-босқич. Столчани тайёрлаш. Ўқувчилар шу тариха жадвалдан фойдаланиб ўзларига ёққан кўринишдаги столчани танлаб олганларидан сўнг, энди бевосита уни тайёрлашга киришадилар.

Юқорида кўрганимиздек, бу жараён ҳам бир неча босқичдан иборат бўлиб, уларнинг нечта ва қандай бўлиши қайси кўринишдаги столчани танлашга ва тайёрлашга боғлиқдир. Бунда ўқувчиларнинг ижодкорлик фаолияти қуйидаги масалаларни ҳал қилишга қаратилади:

Столча қисмларининг ўлчамларини аниқлаш ва уларни ўзаро мослаштириш, мутаносиблаштириш.

Столча қисмлари учун материаллар танлаш.

Керакли асбоб-ускуна, мосламаларни танлаш, уларни ишга сошлаш.

Столча қисмларига ишлов беришни режалаштириш ва уни амалга ошириш (столча қисмларини керакли ўлчамга келтириб арралаш, рандалаб силлиқлаш, бадий ишлов бериш – гул чизиш, нақш солиш ёки ўйиш, лаклаш ёки бўяш ва ҳ.).

Столча қисмларини йиғиш ва пардозлаш (столчанинг айрим қисмларини, жойларини жилвирлаш, лаклаш, бўяш ва ҳ.).

Столчани синаб кўриш – текшириш. Қилинган ишларни таҳлил этиш, столчанинг конструкцияси – тузилишини яхшилаш орқали унинг нуқсонларини бартараф этиш, хизмат доирасини кенгайтириш йўлларни ахтариш.

Мазкур ишни 6-7-синф ўқувчилари технология фани дарсларида ёки дардан ташқари вақтлардаги машғулотларда бажаришлари мумкин. Бундай жадваллардан фойдаланиш ўқувчиларнинг вақтини тежашга, дунёқарашларини кенгайтиришга, уларнинг ижодий фаолиятини кўр-кўрона, тасодифий эмас, балки илмий асосда, мушоҳада воситасида, маълум бир йўналишларда ташкил этишга, айнан битта масалани бир неча хил кўринишларда ечиш мумкинлигини кўрсатишга имкон беради [8]. Айниқса, улар 5-6-синф ўқувчиларининг ижодий ишларини ташкил этиш ва ўтказишда жуда қўл келади. Бундай жадвалларни турли хил соддароқ кўринишдаги буюмларни тайёрлаш юзасидан тузиш, уларни каттароқ ўлчамли қоғозларга чизиб, ёзиб, ўтиладиган мавзуларга мос ҳолда зарур бўлган синфларда фойдаланиш мумкин. Дастлаб оддийроқ кўринишдаги жадваллардан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Қолган жадваллар шу мақсадда тузилган. Шунингдек, қолган жадваллардан ҳам ўқувчиларнинг мустақил ижодий ишларини ташкил этишда фойдаланиш мумкин.

5-жадвал. Сабзавот маҳсулотларини қирқиб бўлаклаш тахтчасини тайёрлашга оид морфологик жадвал

Буюмнинг қисмлари	Муқобил кўринишлари				
	1	2	3	4	5
I. Тахтча:					
1. Материали	ёғоч	пластмасса	сун. ойна	металл	сопол
2. Шакли	думалоқ	овалсимон	3 бурчак	4 бурчак	ромбсимон
3. Безатилиши	расмсиз	нақш куйдирилган	нақш чизилган	инкрустацияли	нақш ўйилган
II. Қўшимча вазифаси	Иссиқ ҳолдаги идишлар учун	хонага илиб бе-затиш у-н	бошқа нарсалар қўйиш у-н

6-жадвал. Озиқ-овқат маҳсулотларини қирқиш учун ишлатиладиган пичоқни тайёрлашга оид морфологик жадвал

Буюмнинг қисмлари	Муқобил кўринишлари				
	1	2	3	4	5
I. Тиғи:					
1. Материали	металл	пластмасса	тош	суяк	электрон нур
2. Шакли	узун тўғри	узун эгри	думалок тишли	тиғи икки томонда	калта тўғри
3. Безатилиши	расмли	расмсиз	ёзувли	ёзувсиз	...
II. Дастаси:					
1. Материали	ёғоч	пластмасса	сун. ойна	суяк	металл
2. Шакли	тўғри	чеклагичли	бармоқлар ўрни бор
3. Безатилиши	расмли	расмсиз	ёзувли	ёзувсиз	инкрустацияли
III. Сақланиши	хинли	хинсиз	илгакли
IV. Қўшимча вазифаси	бурама михларни бураш	шиша идишлар қопқоғини очиш	катта нарсаларни қирқиш	қулфларни очиш учун	бошқа мақсадлар у-н

7-жадвал. Синф хаттахта (доска)си тайёрлаш юзасидан морфологик жадвал

Буюмнинг қисмлари	Муқобил кўринишлари				
	1	2	3	4	5
I. Паннели:					
1. Материали	тахта ёки фанер	пластмасса	сунъий ойна	фанер ва линолеум	линолеум
2. Шакли	думалок	овалсимон	шарсимон	квадрат	трапеция
3. Конструкцияси	йиғиладиган	суриладиган	айланадиган	погонали	комбинациялашган
II. Ўрнатилиши:	мих ёрдамида	магнит майдони ёрдамида	кронштейн ёрдамида	роликли	бошқа усулда
III. Қўшимча вазифаси:	телевизор ўрнатиш учун	вентелятор ўрнатиш учун	таъминлаш қурилмаси ўрнатиш у-н	радиокарнай ўрнатиш учун	бошқа нарсаларни ўрнатиш у-н

Хуллас, морфологик жадвалдан фойдаланиш орқали ўқувчиларни ижодий масалаларни қийналмай ечишга ўргатиш мумкин. Шунинг учун бу усулни маълум маънода ижодкорликка ўтиш даври фаолиятини ўтайди деб аташ ўринлидир. Яна шуни алоҳида қайд этиш зарурки, бу усул бизнинг мактабларимизга эндигина кириб келмоқда, фаолиятимизда эндигина қўлланилмоқда. Шу сабабли бу усул ҳали тажрибаларда кўп марта синаб кўрилади, янада такомиллаштирилади ва технология фани дарсларида худди инструкцион ёки технологик карталардек мустаҳкам ўрин олади, деган умиддамиз.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Тошкент, 2020 йил 24 январь.



2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистоннинг янги тарққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Фармони. Т., 2020 йил 6 ноябрь ПФ-6108.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Т.: O'zbekiston, 2017. – 488 б.

4. Ғозиев Э. Тафаккур психологияси: Ўқув қўлланма. Т.: Ўқитувчи, 1990. – 184 б.

5. Michelle A. Morrell. The development of creativity in adolescents: A qualitative study of how and where creativity develops. For the degree of master of arts Colorado state university, Fall 2015

6. Shomirzayev, M.Kh. (2019). The ethical characteristics of traditional embroidery of Fergana valley people. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 7 (12). - P. 60.

7. Shomirzayev, M.Kh. (2019). Ethnic peculiarities of artistic embroidery of the peoples of the Ferghana valley. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences.-7 (12).-P. 969.

8. Shomirzayev, M.Kh. (2019). Local features of the traditional embroidery of the Ferghana valley. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences.-7 (12). -P. 970.

МАКТАБ ТЕХНОЛОГИЯ ТАЪЛИМИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЖОДКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.78.19.041>

Пахратдинова Рита Отеулиевна,

Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети катта ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада умумий ўрта таълим мактабларида технология фани дарсларида ўқувчиларнинг ижодкорлик фаолиятида инновацион педагогик технологиялардан фойдаланиш орқали оддий буюмларни ясашига оид меҳнат малакаларини ҳосил қилиш ва онгли равишда касб танлашга йўналтиришнинг таълимий ва тарбиявий аҳамияти ёритилган.

Калит сўзлар: мактаб, ўқувчи, дарс, синф, технология фани, таълим, тарбия, босқич, фаолият, кўникма, малака, касб, қизиқиш, меҳнатсеварлик, самарадорлик.

ПОВЫШЕНИЕ ТВОРЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ В ШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Пахратдинова Рита Отеулиевна,

*Старший преподаватель Каракалпакского государственного
университета им. Бердаха.*

Аннотация. В статье освещается учебно-педагогическая значимость формирования трудовых навыков в создании простых предметов за счет использования инновационных педагогических технологий в творческой деятельности учащихся технологических классов общеобразовательных школ и осознанного выбора ими профессии.

ключевые слова: школа, ученик, курс, класс, технология, образование, воспитание, этап, деятельность, умение, квалификация, профессия, интерес, трудолюбие, работоспособность.

IMPROVING THE CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS IN SCHOOL TECHNOLOGY EDUCATION

Paxratdinova Rita Oteulievna,

He is a senior lecturer at Berdakh Karakalpak State University

Summary: The article highlights the educational and pedagogical significance of the formation of labor skills in the creation of simple objects and the conscious choice of profession through the use of innovative pedagogical technologies in the creative activities of students in technology classes in general secondary schools

Keywords: school, student, course, class, technology science, education, upbringing, stage, activity, skill, qualification, occupation, interest, diligence, efficiency.

Мустақиллик йилларида республикамизда таълим соҳасида катта ўзгаришлар юз берди. Жумладан, “Таълим тўғрисида”, “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида”ги Қонунлар асосида Давлат таълим стандартлари, таянч ўқув дастурлари, кўплаб дарслик ва бошқа қўлланмалар яратилди ҳамда яратилмоқда. Республикамиздаги бир қатор тадқиқотчи-педагог олимлар томонидан ўқув жараёнига педагогик технологияларни олиб кириш масалалари ҳам атрофлича ҳал этиб келинмоқда. Хусусан, педагогик технологияларнинг моҳиятини республикамиздаги педагог олимлардан У.Н.Нишоналиев: “Дидактик мақсад, талаб этилган ўзлаштириш даражасига эришиш, таълим жараёнини аввалдан лойиҳалаштириш”, Н.Саидахмедов: “Ўқитувчининг ўқитиш (тарбия) воситалари ёрдамида ўқувчиларга муайян шароит ва изчиликда таъсир кўрсатиш ҳамда мазкур фаолиятнинг маҳсули сифатида уларда олдиндан белгиланган сифатларни

шакллантириш жараёни”, Б.Л.Фарберман: “Таълим жараёнига нисбатан ўзига хос ёндашув; ижтимоий-муҳандислик тафаккурининг педагогик ифодаси, технократик онгининг педагогикага кўчирилган тасвири, таълим жараёнининг муайян стандарти”[11] – деб ифодалашга ҳаракат қилганлар.

Юқоридагилардан кўринадики, турли тадқиқотчилар томонидан педагогик технология тушунчаси турлича таърифланган бўлса ҳамуларнинг пировард маъноси битта, яъни бугунги кунда педагогик технология тушунчаси ўқувчи (ўрганувчи) ларга таълим бериш, уларни тарбиялашда қўлланиладиган, таълим жараёнида уларнинг билиш фаолиятини фаоллаштирадиган усул ва воситалар мажмуи ҳамда уларни амалга ошириш тартибини белгиловчи тизим сифатида намоён бўлмоқда. Яна ҳам соддароқ қилиб айтадиган бўлсак, янги педагогик технология қандай қилиб, қандай усуллар билан ўқитилса натижа яхши бўлади, деган саволга жавоб беради. Янги педагогик технологияларнинг асосида ўқитувчининг ўқувчилар билан ўзаро ҳамкорлиги ва ҳаракати ётади. Синф (гурух)да психологик бирлик вазиятини яратиш, ҳар бир ўқувчи (ўрганувчи)нинг ўз шахсини, ўз имкониятларини намоён этишини таъминлаш, улар билан мулоқот қилишнинг ўзига хос ёндашув йўллари топиш, уларнинг ташаббускорлигини бошқариш ўқитувчининг касбий маҳоратига боғлиқ. Ўқитувчи ҳар бир ўқувчининг қалбига етиб бориши учун ўзининг дидактик усулларини, ташкилий шакллари тўғри йўлга сола олиши керак [12]. Натижада дарсда ўқувчиларнинг фаолиятини фаоллаштиришганафақат ўқитувчи, балки ўқувчиларнинг ўзлари ҳам ҳисса қўша оладилар. Бунда аввал аълочи ўқувчилар, кейин бошқа ўқувчилар ўқитувчининг топшириғини қандай бажарганликларини айтиб, қолган ўқувчиларни ҳам фаолликка ундайдилар. Педагогик технологиянинг бошқарувчанлиги шундан иборатки, бунда таълим жараёнини режалаштириш билан бирга уни ташҳис қилиш, натижаларни таҳлил қилиш ва уларга тузатиш киритиш имкониятлари мавжуд. Бунда таълимдан кутилган натижага эришилади, бу эса педагогик технологиянинг самарадорлиги демакдир.

Мазкур соҳада амалга ошириладиган айрим ишлар республикамиздаги кўпгина таълим муассасаларида ўтказиб келинаётган илмий-амалий анжуманларда ҳам муҳокама этилиб, педагогик технологиялардан фойдаланишнинг назарий ва амалий масалаларига эътибор қаратилмоқда. Шунингдек, республикамизда фаолият кўрсатаётган таълим соҳасидаги журнал ва газеталарда ҳам бу борада олиб бориладиган ишлар кенг ёритиб келинмоқда.

Шундай қилиб, таълим технологияси гуманизм тамойилларига таянади. Фалсафа, педагогика ва психология фанларида бу йўналишнинг ўзига хослиги ўқувчиларнинг индивидуал хусусиятларига алоҳида эътибор бериш орқали намоён бўлади. Шулардан келиб чиққан ҳолда технология фанига оид таълим технологияларини лойҳалаштиришда куйидаги асосий концептуал ёндашув-ларга эътибор бериш керак.

Таълимнинг шахсга йўналтирилганлиги. Ўз моҳиятига кўра бу йўналиш таълим жараёнидаги барча иштирокчиларнинг тўлақонли ривожланишини кўзда тутди. Бу эса Давлат таълим стандарти талабларига риоя қилган ҳолда ўқувчининг интеллектуал ривожланиши даражасига йўналтирилиб қолмай, ўқувчининг руҳий-касбий ва шахсий хусусиятларини ҳисоб-га олишни англатади.

Тизимли ёндашув. Таълим технологияси тизимнинг барча белгиларини ўзида мужассам қилиши зарур: жараённинг мантиқийлиги, унинг бўлақларининг ўзаро алоқадорлиги, яхлитлиги.

Амалий ёндашув. Шахсда иш юритиш хусусиятларини шакллантиришга таълим жараёнини йўналтириш; ўқувчи фаолиятини фаоллаштириш ва интенсивлаштириш, ўқув жараёнида унинг барча лаёқати ва имкониятларини, синчковлиги ва ташаббускорлигини ишга солишни шарт қилиб қўяди.

Диалогик ёндашув. Таълим жараёнидаги иштирокчи субъектларнинг

психологик бирлиги ва ўзаро ҳамкорлигини яратиш заруратини белгилайди.

Натижада эса шахснинг ижодий фаоллиги ва тақдимот кучаяди.

Ҳамкорликдаги таълимни ташкил этиш. Демократия, тенглик, субъектлар муносабатида ўқитувчи ва ўқувчининг тенглиги, мақсадини ва фаолият мазмунини биргаликда аниқлашни кўзда тутаяди.

Муаммоли ёндашув. Таълим жараёнини муаммоли намойиш қилиш ўқувчи билан биргаликдаги ҳамкорликни фаоллаштириш усуллари билан бирдир. Бу жараёнда илмий билишнинг объектив зиддиятларини аниқлаш ва уларни ҳал қилишнинг диалектик тафаккурни ривожлантириш ва уларни амалий фаолиятда ижодий равишда қўллаш таъминланади.

Ахборот беришнинг энг янги восита ва усулларидан фойдаланиш, яъни ўқув жараёнига компьютер ва ахборот технологияларини жалб қилиш.

Юқоридаги концептуал ёндашув ва технология ўқув фанининг йўналиши таркиби, мазмуни, ўқув-ахборот ҳажмидан келиб чиққан ҳолда ўқитишнинг кўйидаги усул ва воситалари танлаб олинди:

Ўқитишнинг усуллари ва техникаси: мулоқот, муаммоли усул, ўрга-тувчи ўйинлар, эстафета, ақлий ҳужум, инсерт, “Биргаликда ўрганамиз”, пин-борд, маъруза, семинар, баҳс, анжуман ва бошқалар.

Ўқитишни ташкил қилиш шакллари: ёппа (фронтал), гуруҳли (звено, бригада), якка (индивидуал) тартибда ва ўзаро ҳамкорликка асосланган.

Ўқитиш воситалари: одатдаги ўқитиш воситалари (дарслик, конспект, технологик карта, кодоскоп)дан ташқари график органайзерлар, компьютер техникаси ва ахборот технологиялари.

Ўзаро алоқа воситалари: назорат натижаларини таҳлил қилиш асосида ўқитиш истиқболлини режалаштириш (диагностика, ташҳис).

Бошқаришнинг усули ва воситалари. Ўқув машғулотини технологик карта кўринишида режалаштириш. Технологик карта ўқув машғулотининг босқичларини белгилаш, қўйилган мақсадга эришишда ўқувчи ва ўқитувчининг ҳамкорликдаги фаолиятини, ўқувчиларнинг синфдан ташқари мустақил ишларини аниқлаб олишга хизмат қилади.

Мониторинг ва баҳолаш. Ўқув машғулоти ва бутун курс давомида ўқитиш натижаларини кузатиб бориш, ўқувчи фаолиятини ҳар бир машғулоти ва йил давомида рейтинг асосида баҳолаш.

Хулоса қилиб айтганда, таълим технологияси – педагогика фанининг бир қисми бўлиб, таълим бериш мақсадига оптимал эришиш қонунлари, қоидалари, усул ва воситалар борасида изланувчи фан ҳисобланади.

Педагогик технология бу – тизимли категория бўлиб, умуман ўқув жараёнини технологиялаштиришни билдиради.

Таълим технологиясини ўқитиш технологиясига синоним сифатида ҳам ишлатиш мумкин. Таълим технологияси бошқа фанлар услубларидан фарқли ўлароқ “қандай ўқитиш керак?” деган саволга эмас, “қандай қилиб натижали ўқитиш мумкин?” ҳамда “қандай қилиб ўқув жараёнини оптимал ташкил қилиш мумкин?” деган саволларга жавоб беради. Бунда лойиҳалаштирилади- ган ва амалга ошириладиган таълим технологияси:

- аниқ натижаларга мўлжалланади;
- ўқувчиларнинг муваффақияти уларнинг ўз фаолияти ҳисобига таъминланади;
- ўқув материалларининг ортиқчилиги ёки етишмовчилиги бўлмайди;
- ўқитувчи дарсни унинг мақсади ва натижалари, ўқув жараёнининг кечиш шартларини аниқлаб олгандан кейин бошлайди (“Мақсад-вазифа-натижа”).

Бу ерда ўқитувчи бошқарувчи (ташқилотчи, воситачи, маслаҳатчи, ахборот манбаи, кузатувчи ва таълим жараёнини уйғунлаштирувчи) бўлиб, ўқувчи эса ўзи мустақил ижодий фаолият олиб борувчи субъект, шу билан

бирга бошқарувчининг таъсир объекти бўлиб ҳисобланади.

Педагогик технологиянинг асосини қуйидагилар ташкил этади: аниқ шахсга мўлжалланган таълимот; диалог сифатида ёндашув; ҳамкорликда ўқи-тиш (ўқитувчи, ўқувчи, ахборот технологияси); амалий ёндашув; муаммоли ўқитиш.

Ҳозирги пайтда педагогик технологиялардан фойдаланиш бўйича республикамизда бир қатор ижобий ишлар амалга оширилган, муайян тажрибалар тўпланган бўлса-да, бу соҳада айрим муаммолар ҳам мавжуд. Энг аввало шуни таъкидалаш зарурки, педагогик технология тушунчаси ва ундан фойдаланиш ғояси ҳали ҳам барча таълим берувчиларнинг маънавий мулкига тўла айланиб улгургани йўқ. Шундан келиб чиқиб айтиш мумкинки, хусусий фанларни ўқитиш методикаси дарслари жараёнида педагогик технология-лардан суфт фойдаланилмоқда, педагогик технологиялардан фойдаланиш бўйича тўпланган умумий тажрибалар хусусий фанларни ўқитиш методикаси дарслари жараёнига секинлик билан жорий этилмоқда. Булардан ташқари тарбия технологияларини ишлаб чиқиш ишлари ҳам жуда секинлик билан бормоқда. Ҳозирги пайтда таълим жараёнида компьютер техникасидан фойдаланиб дарсларда слайдлар, виртуал маърузалар, мультимедиялар намойиш этилмоқда. Бу эса ўз навбатида бундай экран қўлланмаларини яратишга ва улардан фойдаланишга нисбатан қўйиладиган услубий, ташкилий, санитария-гигиена қоидаларини, талабларини ишлаб чиқишни ҳамда амалга жорий этишни талаб қилмоқда. Бундан ташқари ҳозир ўқитиш ишларида “Замонавий технология”, “Янги педагогик технология”, “Педагогик технология”, “Ўқитиш технологияси”, “Таълим технологияси”, “Ноанъанавий усул” каби атамалар кенг қўлланилмоқда. Хусусий ҳолларда бу атамалар ўзига хос айрим маъноларни билдиради. Масалан, “Педагогик технология” – умумий номни билдирса, “Таълим технологияси” – унинг илмий йўналишини, “Ўқитиш технологияси” эса амалий йўналишини ифодалайди. Қолганлари эса ҳосилавий атамалардир. Мазкур атамаларни умумлаштириб, таълим (ўқитиш) нинг фаол (ёки фаоллаштирилган) усуллари деб айтиш мумкин. Чунки мазкур атама ва номлар қандай айтилишидан қатъий назар, уларнинг замирида ўқувчиларга билим бериш, уларни тарбиялаш ишларини фаоллаштириш масаласи ётади. Ўйлаймизки, мазкур муаммоларни ижобий ҳал қилиш таълим-тарбия ишларининг келгусидаги самарадорлигини оширишга, демакки, баркамол авлод ва етук мутахассисларни тарбиялашдаги муҳим омиллардан бўлиб ҳисобланади.

Инновацион таълим технологиялари. Ҳозирги пайтда таълим муасса-саларида ўқитиш ишлари жараёнида янги усуллар – инновацион усуллардан самарали фойдаланишга ҳаракат қилинмоқда. Бу эса инновацион таълим асосида ташкил этилаётган педагогик жараёнларнинг мазмун-моҳиятини тўлиқ тушуниб етишга ва уларни янада самарали, қизиқарли, сифатли бўлишини таъминлашга, мазкур усулларнинг янги-янги қирраларини очишга имкон бермоқда.

Қуйида инновацион – янги таълим усулларига тавсиф беришга ҳаракат қиламиз.

“Инновация” – инглизча сўз бўлиб, унинг луғавий маъноси “ин” – “янги”, “вацион” – “киритиш, қўллаш, татбиқ этиш” деган маъноларни билдиради, яъни инновация таълим жараёнига янгилекларни киритиш, қўллаш, татбиқ этиш деганидир. “Ақлий хужум”, “Дебат”, “Туруҳларда ишлаш”, “Модификациялашган таълим”, “Импровизация”, “Мультимедиа”, “Фикрлар хужуми”, “Кластер”, “Бумеранг технологияси”, “Скоробей технологияси”, “Тарози технологияси”, “Елпигич технологияси”, “Муаммоли вазият”, “Муайян ҳолат, вазиятни ўрганиш”, “Танкидий тафаккур”, “Нуқтаи назаринг бўлсин” ва бошқа шу кабилар инновацион таълим усулларида ҳисобланади. Бу усуллар қаторига, яна жумладан музёра, ўргимчак тўри, занжир, ақлий хужум, кластер, мунозара (дебат), Глоб-алфавит, абстракт фикрлаш, зиг-заг, инсерт карта, тўхтаб-ўқиб таҳлил қилиш каби кўпжа усулларни киритиш мумкин [17]. Дарслар мана шундай усуллар асосида ташкил

этишса, мароқли, кизиқарли ва мазмунли бўлади, ҳеч бир ўқувчи бундай дарсда зерикмайди; ўқувчиларда бундай дарсларга нисбатан қизиқиш кучаяди, уларда қатнашишга кучли иштиёқ ҳосил бўлади, ўзини ҳар томонлама кўрсатишга имконият яратилади. Дарсларда бундай усулларни қўллаш орқали ўқувчиларда:

- атрофлича, кенг ва чуқур фикрлаш, ўз фикрини эркин баён қилиш, асослаш ва ҳимоя қилиш; воқеа ва ҳодисаларни, нарса-буюмларнинг хусусият-ларини англаш ва тасаввур эта олиш;

- билимларнинг узлуксизлигини таъминлаш;

- назарий материалларни амалда қўллаш олиш, ҳаракатли амалий фаолият-га киришиб кета олиш;

- кичик гуруҳларда ва жамоа ичида ишлай олиш, ўзаро ҳурмат;

- мустақил ва ижодий ишлаш каби кўникмаларни ҳосил қилиш мумкин.

Натижада дарс жараёнида ўқувчиларнинг фаолияти фаоллашади, ҳар бир ўқувчи фикрлайди ва ишлайди, улар бир-бирларининг қарашларини, фикрларини ҳурмат қиладилар ва ўз фикрлари билан тўлдирадилар. Ўқувчилар ўртасида шахслараро ижтимоий муносабат, бир-бирларини қўллаб-қувватлаш каби хислатлар юзага келади.

“Блиц-ўйин” технологияси. Технология ҳақида қисқача маълумот. Ушбу технология ўқувчиларни ҳаракатлар кетма-кетлигини тўғри ташкил этиш, мантиқий фикрлашга, ўрганаётган предмети асосида кўп, хилма-хил фикрлардан, маълумотлардан кераклигини танлаб олишни ўргатишга қаратилган. Ушбу технология давомида ўқувчилар ўзларининг мустақил фикрларини бошқаларга ўткази оладилар, чунки бу технология шунга тўлиқ шароит ярати беради.

Мақсад: Ушбу технология ўқувчиларга тарқатилган қоғозларда кўрсатилган ҳаракатлар кетма-кетлигини аввал якка холда мустақил равишда белгилаб, сўнгра ўз фикрини бошқаларга ўткази олиш ёки фикрида қолиш, бошқалар билан ҳамфикр бўли олишга ёрдам беради.

Ўтказиш технологияси. Ушбу технология бир неча босқичда ўтказилади:

1-босқичда ўқитувчи ушбу дарс бир неча босқичда ўтказилиши ҳақида ўқувчиларга тушунча беради. Ҳар босқичда вазифани бажаришга аниқ вақт берилиши, ўқувчилар эса шу вақтдан унумли фойдаланишлари кераклиги ҳақида уларни огоҳлантиради. Ўқитувчи ҳамма ўқувчиларга алоҳида-алоҳида тарқатма материал беради ва ўқувчилардан ушбу материални синчиклаб ўрганиб чиқишларини сўрайди; ўқитувчи тарқатма материал мазмуни ва бажариладиган вазифани тушунтиради, яъни тарқатма материалда берилган маълум бир сондаги (мисол учун 11 та) ҳаракатнинг кетма-кетлигини тўғри белгилаш кераклиги, белгини эса қоғоздаги алоҳида ажратилган бўлимга рақамлар билан белгилаш кераклигини тушунтиради; қўйилган вазифа аввал якка тартибда бажарилишини айтади.

2-босқичда ўқитувчи биринчи берилган вазифани ҳар бир ўқувчи томонидан якка тартибда бажарилишини кузатади, кийналганларга ёрдам беради ёки қайтадан тушунтиради; ҳар бир ўқувчи тарқатма материалдаги «Якка баҳо» бўлимига шу ерда берилган ҳаракатлардан ўзининг шахсий фикри асосида мантиқий кетма-кетлигини рақамлар билан белгилаб чиқади, яъни берилган 13 ҳаракатдан унинг фикрича қайси бири, биринчи бўлиши, қайси бири эса иккинчи бўлишини ва ҳ. Бу вазифани бажариш учун ўқитувчи ўқувчиларга 5 дақиқа вақт беради.

3-босқичда ўқитувчи ўқувчилардан 3 кишидан иборат кичик гуруҳлар ташкил этишларини сўрайди (3 кишилик гуруҳлар ўқувчиларнинг хоҳиш-ларига қараб ёки рақамлар бўйича ташкил этилиши мумкин). Кичик гуруҳ-ларда ўқувчиларнинг ҳар бири ўз қоғозидаги «Якка баҳо» бўлимида белги-ланган ҳаракатлар кетма-кетлиги билан бир-бирларини таништирадилар, ке-йин 3 кишида уч хил бўлган кетма-кетликни биргалашиб, бир-бирлари билан тортишиб, бахслашиб, бир-бирларига таъсир ўтказиб, ўз фикрларига ишонти-риб келишган холда бир муҳим қарорга келиб, уларга тарқатилган қоғоздаги «Гуруҳ баҳоси» бўлимига рақамлар

билан белгилаб чиқадилар. Ўқитувчи кичик гуруҳлардаги тортишувларда иштирок этмайди, фақат кичик гуруҳлар ва ҳар бир ўқувчи фаолиятини кузатади. Бу вазифани бажариш учун 10 дақиқа вақт берилади.

4-босқичда барча кичик гуруҳлар ўз ишларини тугатгач, ўқитувчи ҳаракатлар кетма-кетлиги бўйича тўғри жавобни беради, яъни ўқувчилардан уларга тарқатилган қоғозлардан «Тўғри жавоб» бўлимини топишни ва унга ўқитувчи томонидан айтилган ҳаракатлар кетма-кетлигининг рақамларини ёзишни сўрайди.

5-босқичда ўқитувчи «Тўғри жавоб» бўлимида берилган рақамлар билан «Якка баҳо» бўлимида берилган рақамларни (ёки аксинча) солиштиришни ва агар бу рақамлар мос келса, «Якка хато» бўлимига «+» белгисини қўйишни, мос келмаса «-» белгисини қўйишни сўрайди. «Якка хато» бўлимидаги «+» белгилари сонини юқоридан пастга қараб санаб чиқиб, умумий сонини ёзиб қўйиш кераклигини уқтиради.

6-босқичда худди шу тартибда «Тўғри жавоб» ва «Гуруҳ баҳоси»даги рақамларни солиштириб чиқилиб, «Гуруҳ хатоси» бўлими, «Якка хато» бўлими каби тўлдирилади. Сўнгра юқоридан пастга қараб «+» белгилари сони санаб чиқилади ва умумий сон ёзиб қўйилади.

7-босқичда ўқитувчи якка ва гуруҳ хатоларининг умумий сони бўйича тушунча беради, уларни алоҳида-алоҳида шарҳлаб беради. «Якка хато» бўлими ва «Гуруҳ хатоси» бўлимидаги умумий сонларнинг шарҳи: ўқувчиларнинг (гуруҳнинг) жавоблари ўқитувчи томонидан берилган «Тўғри жавоб» нинг 1-25 % ига тўғри келган бўлса – 1 балл; 26-50 % ига тўғри келса – 2 балл; 51-75 % ига келган бўлса – 3 балл; 76-99 % ига тўғри келган бўлса – 4 балл; 100% тўғри келган бўлса – 5 балл деб баҳолаш мумкин.

8-босқичда мисол тариқасида «Юбка тикиш кетма-кетлигини тартибланг» мавзусидаги блиц-ўйиннинг чизмасини келтириш мумкин (бунда ҳар бир ўқитувчи ўтаётган ёки ўтган мавзуси асосида блиц-ўйин шаклидан фойдаланиб, ўйин мазмунини ишлаб чиқиши мумкин).

Ўқитувчи дарсини яқунлайди. Гуруҳларнинг баъзиларига, уларнинг фаолиятларига ўз фикрини билдиради. Унда ўқитувчи уларни нималарга ўргатганини, уларнинг шу дарс орқали нималарни билиб олишганлари билан кизиқади ва керакли саволларни беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Тошкент, 2020 йил 24 январь.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистоннинг янги тарққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Фармони. Т., 2020 йил 6 ноябрь ПФ-6108.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Т.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.

Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида” ва “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида”ги қонунлари. //-Т.: Шарқ, 1997.

Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат: Ўқув қўлланма. – Т.: ТДПУ, 2003. – 174 б.

8. Бабанский Ю.К. Ҳозирги замон умумий таълим мактабида ўқитиш методлари. Т.: Ўқитувчи, 1990. – 232 б.

9. Балл Г.А. Теория учебных задач: Психолого-педагогический аспект. М.: Педагогика, 1990. – 184 с. 120.

10. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. М.: Педагогика, 1989. – 192 с.

11. Фарберман Б.Л. Илғор педагогик технологиялар.Т.:Фан, 2000.– 125 б.

МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИННОВАЦИОН ИЖОДКОРЛИК ФАОЛИЯТИ

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.17.60.040>

Пахратдинова Рита Отеулиевна,
Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети катта ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада умумий ўрта таълим мактабларида технология фани дарслари уч босқичда таъкил этилиши масалалари, ўқувчиларни жисмоний томондан тўғри ривожлантириши, меҳнат олами ва кишилари, меҳнат қуроллари ва амаллари, асосий ишлаб чиқариши соҳалари ва касблар билан таништириши, иш қуролларидан фойдаланиши орқали касб танлашга йўналтириши масаласи ёритилган.

Калит сўзлар: мактаб, ўқувчи, таълим, тарбия, инновация, технология, кластер, усул, фаолият, лойиҳа, билим, кўникма, касб.

ТЕХНОЛОГИИ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШКОЛЬНИКОВ

Пахратдинова Рита Отеулиевна,

Старший преподаватель Каракалпакского государственного университета
им. Бердах.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы организации занятий технологией в общеобразовательных школах в три этапа, правильного физического развития учащихся, ознакомления с миром труда и людей, инструментов и практик, основных производств и профессий, профориентацией посредством использования инструменты

Ключевые слова: школа, студент, образование, воспитание, инновации, технология, кластер, метод, деятельность, проект, знания, умение, профессия.

TECHNOLOGIES OF DESIGN OF INNOVATIVE CREATIVE ACTIVITIES OF SCHOOL STUDENTS

Paxratdinova Rita Oteulievna,

He is a senior lecturer at Berdakh Karakalpak State University

Summary: The article deals with the organization of technology science classes in general secondary schools in three stages, the correct physical development of students, acquaintance with the world of work and people, tools and practices, the main industries and professions, career guidance through the use of tools

Keywords: school, student, education, upbringing, innovation, technology, cluster, method, activity, project, knowledge, skill, profession.

Янги билимларни бериш, меҳнат кўникмаларини шакллантириш дарслари моҳиятига кўра таълим жараёнида асосий ўринни эгаллайди. Мазкур дарслар икки йўналишда: назарий дарслар ва амлий дарслар (ёки машғулотлар) тарзида ташкил этилади. Бу дарс типининг асосий вазифаси ўқувчиларга ўрганилаётган фан ёки ўқув предметига оид янги маълумот ва тушунчаларни (қонуниятларни, қоидаларни, ғояларни, фактларни) бериш, ўргатиш орқали уларнинг билими, дунёқарашларини кенгайтиришдир. Билимларни ўзлаштириш кенг қамровли тушунчадир. Ўзлаштиришнинг уч хил даражаси мавжуд: а) билимни идрок этиш, маъносини тушуниш, хотирада сақлаш даражасида ўзлаштириш; б) билимларни ўқшаш шароитларга татбиқ эта олиш даражасида ўзлаштириш; в) билимларни янги шароитларга татбиқ эта олиш даражасида ўзлаштириш.

Ўқувчилар янги ўқув материални ўрганиш дарсларида билимларни ўз

сўзлари билан айтиб бера олиш, ўрганилган билимларга доир факт келтира олиш, бугун ўрганилган билимларни олдин эгалланган билимлардан ажрата билиш даражасида ўзлаштирмоғи лозим. Бу дарс типидида куйидаги вазифалар ҳал этилади: ўқув материалнинг асосий ғояси, мақсадини англаш; шу билимларни инсон фаолиятидаги аҳамиятини фаҳмлаш; янги ўқув материалга оид билимларнинг умумий қурилишини идрок этиш; уларнинг асосий хусусиятларини тушуниш; ўрганилган билимни қайта эсга олиш йўлини ва уни амалиётга татбиқ эта олиш йўллари эгаллаш. Бу ишлар одатда назарий дарсларда амалга оширилади. Амалий машғулотларда эса ўқувчиларда янги меҳнат кўникмалари шакллантирилади. Бу дарслар ҳам муҳим аҳамиятга эга бўлиб, бу берилган назарий маълумотларни ўқувчилар томонидан амалда синаб кўришга ва шу орқали мавзу бўйича олинган дастлабки билимларни янада кенгроқ ўзлаштиришга ҳамда мустаҳкамлашга

олиб келади. Меҳнат кўникмаларини сингдиришга қаратилган амалий машғулотлар куйидаги уч хил кўринишда – даражада амалга оширилади:

- биринчи даража ёки бошланғич босқич – асбоб-ускуна, механизм ва машиналарнинг тузилишини, уларни ишга созлашни ҳамда материалларнинг турлари, хоссалари, ишлатилишини ўрганишга оид амалий машғулотлар;

- иккинчи даража ёки ўрта босқич – бирор иш усули (операцияси) ни бажаришни ҳамда асбоб-ускуналарни ишлатишни ўрганишга оид амалий машғулотлар;

- учинчи даража ёки юқори босқич – бирор турдаги деталь ёки буюмлар-ни тайёрлашга оид амалий машғулотлар.

Ўқувчиларнинг ижодий ишларини ташкил этишда тўртинчи босқич ишларини ҳам ўтказиш мумкин. Бунда тўртинчи босқичдаги ишлар буюмни такомиллаштириш, хизмат доирасини кенгайтириш каби ишлардан иборат бўлади.

Янги билимларни бериш, меҳнат кўникмаларини шакллантириш дарсларида қўлланиладиган педагогик технологияларга тренинг, ижодий масала, морфологик жадвал, ақлий ҳужум, семинар, мунозара, мозаика, эстафета ва бошқа шу каби усулларни киритиш мумкин [13].

Кластер ва БББ усулларидадан фойдаланиш. Ўқувчиларга мавзулар бўйича маълумот ва тушунчалар бериш дарсларида кластер, яъни тармоқла-ниш усулидан фойдаланиш мумкин. Бунда дарсдан олдинги тайёргарлик ишлари учун бир мунча кўп вақт сарфланади. Дарс жараёнида эса ўқитувчи фақатгина ўқувчиларнинг фикрларини йўналтириш, улар билдирган ёки ифода этган тушунчаларни умумлаштириш, хулоса чиқариш билан кифояланади. Масалан токарлик-винткесар станокларининг тузилиши ва ишлатилишига оид мавзунини ўрганиш ўқувчиларга бироз оғирлик қилиши мумкин. Шунинг учун биз бу мавзунини ўрганишда кластер ва БББ усуллари таниладик. Чунки бу усуллар соддалиги, ортиқча оварагарчиликлар келтириб чиқармаслиги билан ўқитувчи учун ҳам, ўқувчилар учун ҳам қулайдир.

Масалан ўқувчиларга кластер усули ёрдамида токарлик станокларининг асосий турларини ўргатишда 5-6-расмларда ифодаланган кластер усулидан фойдаланиш мумкин. Бунда кластер усулида металл кесиш станокларининг асосий турлари кўрсатилган бўлиб, бу расмлар воситасида ўқувчилар металл кесиш станокларининг асосий турларини яхши эслаб қоладилар. Бу усулнинг афзаллиги ҳам шундадир.



7-расм воситасида эса ўқувчилар токарлик ва токарлик-винткесар станогининг асосий фарқини тезда илғаб оладилар.

8-расмдан токарлик-винткесар станогидида бажариладиган иш турлари кўрсатилган бўлиб, бу шакл воситасида ўқувчилар токарлик-винткесар станогидида бажариладиган иш турларини осонгина тасаввур эта олдилар.

3-жадвалда берилган маълумотлар эса БББ усулида ўқувчиларнинг билган, билиб олган ва билишни истаган маълумотларни аниқлаш имконини беради. Бу усулнинг муҳим жиҳати шундаки, бунда ўқитувчи ўз фаолиятини таҳлил қилиши,

Ўқувчиларнинг эса қандай малумотларни билишни исташларини ташҳис қилиши мумкин.

5-расм. Металл кесиш станокларининг асосий турлари (1-кўриниш).



7-расм. Токарлик-винткесар ва токарлик станокларининг асосий фарқи.



8-расм. Токарлик-винткесар станогиида бажариладиган асосий иш турлари.

Биламан	Билиб олдим	Билишни хоҳлайман
Токарлик станокла-рининг тузилишини	Токарлик станогида йўнишни	Токарлик станогида резьба очишни
Токарлик кескичлари-нинг турларини	Токарлик кескичлари-ни ишлатишни	Кескичларни чарх-лашни
Токарликда ишлатиладиган мосламаларни	Мосламаларни ишга созлашни	Уч кулачокли патрон-нинг ички тузилишини
...

3-жадвал. Б-Б-Б усулида ўқувчилар эгаллаган ва билишни истаган маълумотларни аниқлаш.

Шундай қилиб юқорида фойдаланилган усуллар орқали VII синфда технология фани дарсларида “Машина, механизм, станок ва мосламалар” бўлимини интерфаол методларни қўллаб ўқитиш анънавий усуллар билан ўқитишга нисбатан самарали бўлиши маълум бўлди. Бундай машғулотларни ташкил қилиш орқали, биринчидан, ўқувчиларнинг ўз устларида ишлаш қобилиятини ривожлантиришга; иккинчидан, машғулотларда уларнинг фаоллигини оширишга, оғзаки фикр юритиш, кўриш ва сезиши хислатларини ўстиришга; учинчидан хотирасини мустаҳкамлашга, тафаккур қила олиш қобилиятини яхшилашга эришамиз.

Ролли ўйинлар усули. Маълумки, инсон организми учун сабзавот ва мевалар таркибидаги моддаларнинг аҳамияти катта [12]. Шу сабабли ўқувчиларга таом тайёрлаш, кишлоқ хўжалиги экинларига оид машғулотларда мева ва сабзавотлар, уларнинг шифобахш хусусиятлари, келиб чиқиш тарихи ҳақидаги маълумотлар бериб борилади. Бундай машғулотларда ўқувчиларнинг фаоллигини ошириш учун кичик гуруҳларда ишлаш усулининг ролли ўйин кўринишини қўллаш мумкин. Бу усулни қўллаш учун синф ўқувчилари тўрт гуруҳга бўлинади. Бунда 1-гуруҳ “Тарихчилар”, 2-гуруҳ “Табиатшунослар”, 3-гуруҳ “Пазандалар”, 4-гуруҳ “Назоратчилар” деб номланади. Номланишидан ҳам аён бўладики, “Тарихчилар” гуруҳи аъзолари сабзавот ва меваларнинг келиб чиқиши тарихи ҳақида; “Табиатшунослар” сабзавот ва меваларнинг таркиби, турлари, ўсиш шароитлари ҳақида; “Пазандалар” эса сабзавот ва мевалардан фойдаланиш, қайта ишлов бериш ҳақидаги маълумотларни ўрганиб, ўша сабзавот ёки мева тимсолига кириб гапириб беришади.

“Назоратчилар” эса юқордаги ишларга балл (баҳо) қўйиб борадилар. Юқорида айтилган фикрларни қуйидаги мавзу мисолида кўрсатишга ҳаракат қиламиз.

Мавзу: Ўлкамизда етиштириладиган сабзавот ва мевалар.

Мақсад: Ўқувчиларга ўлкамизда етиштириладиган турли сабзавот ва мевалар, уларнинг келиб чиқиши, таркиби, шифобахш хусусиятлари, қайта ишлов бериш кабилар ҳақида маълумот бериш.

Жихоз: Турли хил сабзавот ва мевалар, расм, схемалар, дунё харитаси.

Дарснинг бориши. Хурматли ўқувчилар! Маълумки, серкўёш, жаннат-макон ўлкамизда турли хил сабзавот ва мевалар етиштирилади. Бугунги дарсимизда сизлар билан картошка, помидор, турп, шалғом, пиёз, беҳи ҳақида, уларнинг келиб чиқиши, таркиби, шифобахш хусусиятлари, уларга қайта ишлов бериш кабилар ҳақидаги маълумотларни ўрганамиз. Аввал келишганимиздек, сўзни гуруҳ аъзоларига берамиз.

Картошка ҳақида. 1-ўқувчи: Мен картошкман. Менинг асл ватаним – Жанубий Америка. XVI асрда Европага олиб келишган. XVIII асрда Францияга ўтганман. Мени бу ерда “Ер олмаси” деб ҳам аташарди. Сизларнинг юртингизда 120 йилдан бери экила бошлаганман.

2-ўқувчи: Мени “Иккинчи нон” деб ҳам таърифлайдилар, чунки менинг таркибимдаги озуқа моддаларнинг тўқ тугарлиги нондан қолишмайди. Менинг

таркибимда 18% крахмал, 2% оксил, 1% шакар моддаси ва бир қанча витаминлар бор.

3-ўқувчи: Мендан турли хил лаззатли таомлар тайёрлашади. Мендан бифстронинг, картошка манти, картошка қуймоқ ва турли таомлар солинади. Яна картошкани пўстлоғини қайнатиб сувини тиндириб, докадан ўтказиш керак ва ундан сувини крахмал ўрнида фойдаланиш мумкин. Куйган жойга ҳам картошкани бўлиб қўйса даво бўлади.

Помидор ҳақида. 1-ўқувчи: Менинг ватаним – Жанубий Америка. Мен Жанубий Америкадан Перуга, Перудан Испанияга, Испаниядан Европага келтирилганман. XVI асрда Европадан Ўрта денгиз ҳавзаларидаги мамлакатларга тарқалганман. Кейинчалик мен Греция орқали Туркияга ва бу ердан 1850 йилда Қиримга келтирилганман. Қиримда мени “Муҳаббат олмаси” деб атаганлар.

2-ўқувчи: Мен қуёш нурида жуда ҳам мазали бўлиб пишаман. Менинг носқовоқ, юрак, тимики, жийна, қора бургут, чилги, картошка палак, “Ўзбекистон” нави каби қариндошларим бор.

3-ўқувчи: Мендан тоmatлар, помидор соки, турли хил салатлар тайёрлайдилар, овқатларга солинса ажойиб мазза бераман. Ари чакса ўша жойга памидорни 2 га бўлиб қўйилса арини захрини тортиб оламан.

Шалғом ҳақида. 1-ўқувчи: Мен – Шалғомман, мен ҳамма жойда ўсаман. Россия ва Ўзбекистонда кўп тарқалганман.

2-ўқувчи: Мени ҳавоси салқинроқ жойларга экилса тахирлигим йўқ, камтомир, хандалакдек катта, бир қайновда сарикёғдек мулойим пишадиган бўлиб етиламан. Мен Ўзбекистон ерида оқ, қизил ва зангори пўчоқли ва сал тахирроқ етиламан. Россияда эса мен пўчоғим ҳам, эгим ҳам сарик ва таъмим ширин, картошқасимон бўламан.

3-ўқувчи: Мен айниқса куз, қиш ва баҳор фаслларида шамоллаш ва грипп касалликларига қарши яхши давоман. Франциялик олимлар мени устимда иш олиб бориб, шундай хулосага келдиларки, мендан арзон ёнилғи олиш мумкин экан. Менинг 100 кг мимдан 100-120 литр ёнилғи спирти ажратиш олишади. Бу деган сўз – бу ўсимликни кўплаб экиб, ундан олинган спирт билан автомашиналарни юргизиш ва спирт лампалари ясаб, электр энергияни тежаш мумкин.

Беҳи ҳақида. 1-ўқувчи: Мен жуда қадимги мевалариданман, Ватаним – Эрон, Кавказ, Туркиядир. Жаҳонга, жумладан, Ўрта Осиёга ана шу жойлардан тарқалганман. Дехқонлар мени 4000 йилдан кўпроқ давр ичида экиб, парвариш қилиб келадилар ва мевамдан баҳраманд бўладилар.

2-ўқувчи: Мен ҳам беҳиман. Ўзбекистонда менинг 20 хил навим етиштирилади. Мени тошбеҳи, нонбеҳи, нокбеҳи каби навларим бор. Оқ қиров тушгунча пишиб етиламан.

3-ўқувчи: Мендан турли салқинлантирувчи ичимликлар, мураббот тайёрлашади, шунингдек, ошга солиб пиширса ҳам бўлади. Яна беҳини ичини ўйиб ичига қийма ёки думба ёғи солиб пиширса ҳам бўлади. Мен терламани тўхтатаман. Менинг сиқиб олинган шарбатим астма касалини ҳам даволайди. Мен қон туфлашни ҳам тўхтатаман. Менинг уруғимни ўраб турган шилимшиқ парда эса куруқ йўтал, тилдаги ачишларга фойда беради.

Пиёз ҳақида. 1-ўқувчи: Мен – Пиёзман, мен Фарғона водийсининг суғориладиган ерларига, Зарафшон ва Амударё қирғоқларидаги жойларга энг яхши сабзавот сифатида экиб маданийлаштирилганман. Бу ердан Яқин Шарқ мамлакатларига, улар орқали Европага тарқалганман. Америка қитъасига эса Хитой ва Япония орқали ўтганман.

2-ўқувчи: Менинг саксондан ортиқ навларим бор. Ўрта Осиёда менинг оқ тухум пиёз, нафармон, шалғом пиёз, ноксимон сарғиш ва ўнлаб бошқа навларим етиштирилади.

3-ўқувчи: Мен – Пиёзман, Пиёзман – етти дардга ниёзман. Гап шундаки, менинг

таркибимда фитонOID деб аталувчи аччиқ ҳидли модда бор, мана шу модда билан атига бир минут фурсат ичида миллиардлаб бактерияларни қириб ташлайман. Мени иссиқ кулга кўмиб фасодли ярага боғлашса даво бўламан. Шамоллаганда, гриппга йўлиққанда менинг сутсимон сувимни бурунга томизиб нафас йўлларини очиш мумкин. Кўк пиёз қўшилган таом эса қаттиқ уйқусизликдан халос этади. Мендан турли хил салатлар тайёрлашади, таомларга кўшишади. Деярли ҳар бир таом пиёзсиз пиширилмайди.

Турп ҳақида. 1-ўқувчи: Менинг асл ватаним Япония бўлиб, тахминан 300 йил муқаддам Ўрта Осиёга келтириб экила бошланганман. Мени “Шарқ турпи”, “Дўнган турпи” деган ном билан атаганлар. Аммо қарийб бир аср илгари, мен “Марғилон турпи”, “Олтариқ турпи” каби янги ном олганман. Чунки Фарғона водийсининг ана шу ерларининг тупроғи ва суви мени етиштириш учун жуда мос келиб қолган.

2-ўқувчи: Мен – Турпман, менга яхши қаралса ҳосилим ҳам мўл, энг муҳими таъмин мазали, тахирлигим ҳам, аччиқлигим ҳам мутлақо йўқ бўлиб, нозик эгим сувликкина, қарсиллама ширин бўлади. Турпнинг турли мамлакатларда ўстириладиган турли навларнинг таркиби ҳам турлича бўлади, албатта шулардан ўрта ҳисобда олиб қарасак, 86-87% сув, 1-1,5% хужайра моддаси, 1,5-2% оқсил, 0,5-1% гача шакар моддалари, бирмунча минерал тузлар, калий, калций, фосфор, магний, марганец, темир каби моддалар, микроэлементларидан эса йод, кобальт бор.

3-ўқувчи: Мен – Турпман, мен ҳақимда Абу Али ибн Синонинг “Тиб қонунлари” китобида минг хосиятим ҳақида жуда ҳам кўп нарсалар ёзилган. Масалан, менинг сиқиб олинган сувим ва уруғимнинг ёғи кулоқдаги ел (бод)га жуда фойдали. Турпнинг қайнатилгани эса йўталга фойдали. Мени овқатдан кейин ейилса, ични юмшатаман. Ибн Сино турпни заҳарларга қар-ши дори эканлигини аниқлаган. Мендан турли хил салатлар қилиш мумкин.

Мавзу тушунтириб бўлингандан сўнг назоратчи гуруҳ аъзолари ўзларининг баҳоларини айтишади. Бундай усулдан фойдаланилса, дарсда яхши натижалар беради. Бунда ўқувчилар мавзунини яхши тушунадилар ва уларнинг нутқи ўсади. Бундай усулда дарс ўтиш ўқувчиларда дарсга қизиқиш уйғотади. Чунки бунда ўқувчилар сабзавт ва меваларнинг фойдали хусусият-лари билан бирга уларни қаердан ва қачон ватанимизга кириб келганлиги ҳақидаги маълумотларга ҳам эга бўладилар. Бинобарин уйғунлашган технологиялардан фойдаланишнинг асосий ютуқларидан бири ҳам шундадир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида” ва “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида”ги қонунлари. // -Т.: Шарқ, 1997.

Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат: Ўқув қўлланма. – Т.: ТДПУ, 2003. – 174 б.

3. Бабанский Ю.К. Ҳозирги замон умумий таълим мактабида ўқитиш методлари. Т.: Ўқитувчи, 1990. – 232 б.

4. Балл Г.А. Теория учебных задач: Психолого-педагогический аспект. М.: Педагогика, 1990. – 184 с. 120.

5. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. М.: Педагогика, 1989. – 192 с.

6. Давлетшин М.Г. Психология технических способностей школьников Т.: Фан, 1971.

7. Йўлдошев Ж.Ф., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари. Т.: Ўқитувчи, 2004. – 236 б.

8. Очиллов М. Янги педагогик технологиялар. Қарши: Насаф, 2000. – 118 б.

9. Фарберман Б.Л. Илғор педагогик технологиялар. Т.: Фан, 2000. – 125 б.

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MUSIQIY
SAVODXONLIKNI INTERAKTIV DASTURIY VOSITALAR ASOSIDA
SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.27.71.039>

Raxmonova Dilshoda Nusratovna

Termiz davlat universiteti "Musiq ta'limi" kafedrasida o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida keltirilgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqa savodxonligini shakllantirishda interaktiv dasturiy vositalarni ishlab chiqish, uning imkoniyatlaridan darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish chora-tadbirlari xususida g'oyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zi. musiqa savodxonligi, interaktiv dasturiy vositalar, dasr, dars mashg'ulot, elektron magnitli doska.

**ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ПОВЫШЕНИЮ
ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ МУЗЫКАЛЬНОЙ
ГРАМОТЫ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ**

Рахмонова Дильшода Нусратовна

Термезского государственного университета.

Преподаватель кафедры «Музыкальное образование»

Аннотация: Представленные в исследовании идеи касаются разработки интерактивных программных средств для формирования музыкальной грамотности учащихся младших классов, использования его возможностей на уроках и во внеклассной деятельности.

Ключевое слово. музыкальная грамотность, интерактивное программное обеспечение, уроки, уроки, электронная магнитная доска.

**INNOVATIVE APPROACHES TO INCREASING THE EFFECTIVENESS
OF TEACHING IN THE FORMATION OF MUSICAL LITERACY IN
PRIMARY EDUCATION**

Rakhmonova Dilshoda Nusratovna

Teacher, Termiz State University

Abstract: The ideas presented in the study relate to the development of interactive software for the formation of musical literacy of primary school students, the use of its capabilities in the classroom and in extracurricular activities.

Keywords: musical literacy, interactive software, lessons, lessons, electronic magnetic board.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan isloxlarning bosh maqsadi va xarakterga keltiruvchi uning kuchi har tomonlama rivojlangan barkamol avloddir. Mamlakatimiz rivojlanishining muxim sharti zamonaviy iqtisod, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimining amal qilinishidir. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirishda uzluksiz ta'lim tizimining tuzilmasi va mazmunini zamonaviy ilmiy fikrlar, yutuqlari va ijtimoiy tajribaga tayangan holda tub isloxlari ko'zda tutilgan. Buning uchun avvalo uzluksiz ta'lim tizimining barcha shakldagi ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini ta'minlovchi ilg'or ilmiy metodik jixatdan asoslangan darslik, o'quv qo'llanmalarini shuningdek metodikalarni amalda qo'llash. Fan va texnika, ilg'or texnologiya yutuqlaridan foydalangan holda yosh avlodga ta'lim tarbiya berishning maqsad, mazmun, metod vositalari va tashkil etilishini ilmiy jixatdan ta'minlash musiqa fanining ham dolzarb muammolaridandir. Shaxs ta'lim xizmatlarining ishlab chiqaruvchisi sifatida ta'lim jarayonini bilim va



tajribani o'quvchiga uzatish, ishlab chiqarish moddiy muxiti faoliyatida shuningdek fan, madaniyat va xizmatlarida ishtirok etadi. Yosh pedagoglar mutaxassisligiga mos mavjud bilimlardan qat'iy nazar, ular o'quv jarayoniga qadam qo'yar ekanlar, pedagogik va psixologik bilimlar, axborot – kommunikativ texnologiya va o'qitish metodikalariga bog'liq zarur zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallagan bo'lishlari kerak. Bugungi kunda pedagogik texnologiyani asosiy muammosi - o'quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat.

Pedagogik texnologiya muayyan loyixa asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan xamda, ushbu maqsadning natijalarini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir. Musiqa darslarida o'quvchi shaxsi uning intilishlari, qobiliyatlari va qiziqishlarini xisobga olgan holda umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflari uchun yangi milliy o'quv dasturi tuzildi va ushbu dastur asosida darsliklar, metodik qo'llanmalar tavsiyanomalar yaratilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad boshlang'ich musiqa fanini o'qitish davrida, o'quvchilarni go'zallikni his eta oladigan, musiqa mehri va xavas bilan qaraydigan, milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan, musiqa savodxonligini puxta egallagan, metroritmikani his qila oladigan, bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish faoliyatiga erishda olidigan, qolaversa, jahon musiqa madaniyatidan bohobar barkamol inson qilib tarbiyalash asosiy maqsad qilib qoyilgan.

Musiqa darsini sifatli, pedagogik va metodik jihatdan yuqori talab darajasida olib borish uchun o'qituvchi ijodkor, o'z kasbini va o'quvchilarni sevuvchi, yaxshi cholg'uchi, metodika va pedagogikani puxta o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Musiqa ta'limini milliy asosini tarkib toptirishda, fortepiano asbobi bilan birgalikda, o'zbek xalq cholg'u asboblari ham foydalana olishi zarur hisoblanadi. Shu bilan birgalikda musiqa darslari davomida o'quvchilarga nazariy hamda amaliy bilimlarni qiziqarli, tushunarli va rang barang qilib o'rgatishi muhimdir.

Boshlang'ich musiqa darslarini 5 ta faoliyat turi asosida darslarni tashkil etish maqsad qilib olingan. Ushbu 5 ta faoliyat turlaridan biri musiqa savodxonligi faoliyat turida o'qituvchi va o'quvchilarning musiqa savodxonligini shakllantirishda, faollashtirishda, ta'limni modernizatsiyalashtirishda, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda, o'qituvchi hamda o'quvchilarni doimo faollikka olib kelishi, o'rgatilayotgan musiqiy bilimlarni interaktiv dasturiy vositalar asosida tushuntirishi va o'rgatishi fikrimizcha o'quvchi shaxsining: O'quvchilarni diqqatini boshlang'ich musiqa savodxonligiga qaratish va bu bilan birga ularning nota savodxonligi, musiqiy belgilarning nomlanishi, ularning beshta chiziqda ifoda etilishi, mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni xis etish, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik faoliyatini, musiqiy xotirani rivojlantirish kabi sifatlarini shakllantirishda inaktiv vositalardan o'qituvchi va o'quvchi yaqindan foydalanishi lozim bo'ladi.

Bu borada o'quvchilarga o'z-o'zini rivojlantirishi, musiqiy qobiliyatni to'laqonli namoyish etishi uchun sharoyit yaratishi lozim deb xisoblaymiz. Zero, har qanday o'quvchi o'ziga faqat o'ziga xos bo'lgan takrorlanmas tabiati, harakter xususiyatini faollashtirish va namoyish etishga intiladi.

Shu bois o'quv jarayoni, xamda uning tarkibiy qismlari – maqsad, mazmun, metod, shakl, usl vositalar o'quvchilar uchun shaxsan katta ahamiyatga ega bo'lgan uning shaxsiy tajribasi maxsuli sifatida tadbiiq etiladi. "Agar o'quvchi o'quv faoliyati moxiyatini anglay olmasa, o'quv maqsadini tan olmaydi, o'qituvchi qo'ygan vazifalarni tushunmaydi va qabul qilmaydi. O'quvchi tomonidan sodir etiladigan barcha xatti – harakatlar majburiyat va taziqiq ostida sodir bo'ladi. Uning bilimlari rasmiy xarakterga, pedagogning faoliyati esa rasmiyatchilik mazmuniga ega bo'ladi". Unib-o'sayotgan bolada musiqiy ta'lim va tarbiya psixologiyasi ikki yo'nalishda olib boriladi: bu maxsus musiqa ta'limi va umumiy musiqiy tarbiya yo'nalishlaridir.

Boshlang'ich sinfga kelgan o'quvchini musiqa savodxonligiga yanaham yaqiroq tanishtirish, uning ta'lim olishida pedagog sifatida yaqindan ko'maklashish maqsadida bizning loyihamizda musiqa darslarida musiqa savodxonligini shakllantirish va uni

o'tish jarayonida o'quvchilarning nazariy hamda amaliy bilimlarini rivojlantirish, diqqat, sezgi, xotirani yanada rivojlantirib o'quvchilarning musiqiy savodxonligini interaktiv dasturiy vositalar asosida kompleks oshirishda, nazariy hamda amaliy bilimlarini rivojlantirish, dars mobaynida o'qituvchi hamda o'quvchiga birdek ko'maklashadigan "Elektron magnitli, musiqiy doska"ni ishlab chiqdik.

Ushbu doska "Elektron magnitli, musiqiy doska" o'quvchilarning musiqa fandan musiqiy savodxonlik bilim darajasini oshirish maqdasida o'qituvchi va o'quvchilarga yaqindan ko'maklashish, dars mobaynida bilim darajasini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, bunda o'quvchilar musiqa darslari mobaynida musiqa savodxonligini o'rganishda duch keladigan muammo va kamchiliklar masalan;

Nota yo'li va uning elementlarini o'rganishda;

Tayoqcha (shtil) ning nota yo'lidagi joylashuvini o'rganishda;

Bayroqcha (flajok) bilan tanishib uning elementlarini o'rganishda;

Notaning bosh qismi (golovka) bilan tanishib uning elementlarini o'rganishda;

Takt chizig'ining joylashuvi va uning elementlarini o'rganishda;

Skripka kalitini nota yo'lga joylashuvini o'rganish va elementlari ustida ishlashda;

Bas kaliti elementlari bilan tanishish va o'rganishda;

Notalarning bo'linishi, ularning cho'zimi hamda elementlarini o'rganishda.

Musiqiy tovush, tovushqator, tovushlarning harfli belgilarini o'rganishda;

Musiqiy klavish bilan tanishish va ularda notalarni joylashishini o'rganishda;

Skripka va bas kalitida "Do" notasidan "Si" notasigacha bo'lgan musiqa tovushlari bilan tanishib, uning elementlarini o'rganishda;

"Diyez" alteratsiya belgisining vazifasi hamda elementlarini o'rganishda;

"Bemol" belgisining vazifasi hamda elementlarini o'rganishda;

"Bekar" belgisining vazifasi hamda elementlarini o'rganishda;

"Butun pauza" bilan tanishib, uning elementlarini o'rganishda;

"Yarimtalik pauza" bilan tanishib, uning elementlarini o'rganishda;

"Choraktalik pauza" bilan tanishib, uning elementlarini o'rganishda;

"Nimchoraktalik pauza" bilan tanishib, uning elementlarni o'rganishda;

"f" (forte) dinamik belgisi bilan tanishib, uning elementlarini o'rganishda;

"p" (piano) dinamik belgisi bilan tanishib, uning elementlarini o'rganishda;

Bir va ikki ovoqli musiqani kuylay olishni o'rganishda;


Kuyga hamohang bo'lgan holda, o'quvchilarda metroritmikani rivojlantirishda, har xil qo'l va oyoq harakatlari bilan musiqaga hamda ritmga jo'r bo'lib qo'shiqni o'rganishdagi qiyinchiliklarga duch kelishlarini o'rganib chiqib ushbu "Elektron magnitli, musiqiy doska"ni ishlab chiqdik;

Ushbu "Elektron magnitli, musiqiy doska" ko'magida umumiy o'rta ta'lim maktablarining musiqa darslarida musiqa savodxonligini yanada samarali o'tish nuqtaynazarida yuqoridagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, o'qituvchi hamda o'quvchilarga amaliy yordam berib, o'quvchining bilim, ko'nikma va malakasini oshirishda kompleks ko'maklashadi. Bundan tashqari darslarni har qanday sinfda o'tkazish, har bir o'quvchiga individual yondashish, nazariy va amaliylikni yengil uyg'unlashtirish, o'quvchilarning diqqati, sezgisi, va xotirasining rivojlanishida hamda, tezkor fikrlashga o'rgatishda yaqindan yordam berishga asoslanadi.

O'quv usullaridan foydalanish o'quvchining aqliy salohiyati va psixikasigaham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolishini inobatga olgan holda "Elektron magnitli, musiqiy doska"da ranglar va shakllarning psixologiyasini ham etibordan chetta qoldirmagan. Aksincha, mahorat ila foydalanilgan. Chunki ranglar va shakllarning jozibasiz kishi faoliyati va uning psixologik faoliyatini o'zgartirib yuborish kuchiga ega. Shu bois musiqa fanini o'qitish jarayonida ham ranglar hamda shakllar uyg'unligi bilan o'quvchilarga bilim berish, o'rganayotgan notalarni, musiqiy belgilarni har xil ranglarda, shakllarda ko'rib, ular ustida ishlashi; uning hotirasiga hamda, dars


mobaynidagi kayfiyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun biz "Elektron magnitli, musiqiy doska" da joylashgan musiqiy belgilar hamda notalar, tovushlarni (qora, qizil, to'q sariq, yashil) ranglarda o'ziga xos shakllari bilan ifodalash ga qaror qildik.

(1-rasm)




Boshlang'ich sinf musiqa darslarini o'tish davrida darslikda berilgan o'quvchilarining musiqa savodxonligini kompleks o'rgatishda, ovoz sozlash mashqlarini, jamoa bo'lib kuylash vaqtida unimli foydalanib qo'llanildi va natijada o'quvchilarning musiqiy savodxonlikni interaktiv dasturiy vositalar asosida shakllantirilishga qaratildi va natijada dars jarayonida o'quvchilarning;


Nota yo'li va uning elementlarini o'rganishda;




Tayoqcha (shtil) ning nota yo'lidagi joylashuvini o'rganishda;




Bayroqcha (flajok) bilan tanishib uning elementlarini o'rganishda;




1. Notaning bosh qismi (golovka) bilan tanishib uning elementlarini o'rganishda;




2. Takt chizig'ining joylashuvi va uning elementlarini o'rganishda;




3. Skripka kalitini nota yo'liga joylashuvini o'rganish va elementlari ustida ishlashda;




4. Bas kaliti elementlari bilan tanishish va o'rganishda;




5. Notalarning bo'linishi, ularning cho'zimi hamda elementlarini o'rganishda.




6. Musiqiy tovush, tovushqator, tovushlarning harfli belgilarini o'rganishda;




1. **“Choraktalik pauza” bilan tanishib, uning elementlarini o‘rganishda;**



2. **“Nimchoraktalik pauza” bilan tanishib, uning elementlarni o‘rganishda;**



3. **“f” (forte) dinamik belgisi bilan tanishib, uning elementlarini o‘rganishda;**



4. **“p” (piano) dinamik belgisi bilan tanishib, uning elementlarini o‘rganishda;**



Bir va ikki ovozli musiqani kuylay olishni o‘rganishda va shu bilan birga kuyga hamohang bo‘lgan holda, o‘quvchilarda metroritmikani rivojlantirishda, har xil qo‘l va oyoq harakatlari bilan musiqaga jo‘r bo‘lib, qo‘shiqni o‘rganishdagi savodxonliklari shakllandi.

Ushbu “Elektron magnitli musiqiy doska” yordamida o‘quvchilarning musiqa savodxonligidan bilim darajasini o‘rishida, dars va darsdan tashqari musiqa darslari mobaynida samarali, unumli foydalanildi. Natijada boshlang‘ich musiqa darslarining musiqa savodxonligini o‘rgatish, o‘rganish mobaynida o‘qituvchi va o‘quvchilar hamkorlikda ijod qilishidi, vaqtdan unumli foydalanishda, nazariy va amaliy savodxonlikni bir-biriga bog‘lay olishda, o‘z-o‘zini odilona baholay olish hamda, xato va kamchiliklarni tuzatish ko‘nikmasiga interaktiv dasturiy vositalar asosida shakllantirish metodikasini takomillashtirish yo‘llari va imkoniyatlari kengaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

D.N.Raxmonova “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqa savodxonligi” nomli o‘quv qo‘llanma. Toshkent 2020-yil “Innovatsiya-Ziyo”

D.N.Raxmonova “Elektron magnitli musiqiy doska yordamida o‘quvchilarning musiqa fanidan bilim darajasini oshirish” nomli uslubiy qo‘llanma. Toshkent 2020-yil “Innovatsiya-Ziyo”

G.M Sharipova, G.T.Tojiyeva “Musiqqa metodikasi” Toshkent 2021-yil

ПНЕВМОТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИ ПАХТАНИНГ ТАБИИЙ ХУСУСИЯТЛАРИГА ТАЪСИРИ ҲАМДА СЕПАРАТОРЛАРНИНГ ИШЛАШ ЖАРАЁНИНИ ТАҲЛИЛИ

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.21.67.038>

Рахимов Акбар Холмуродович

Термиз давлат университети Миллий либос, каштачилик, тўқимачилик кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: Пневмотранспорт қурилмасининг асосий бўғинларидан бири сепаратордир. Сепараторга қўйиладиган асосий талаблар бу чигитли пахтани табиий кўрсаткичларини сақлаган ҳолда, уни ҳаво оқимидан ажратиб олиш ва пневмоқурилманинг босимини минимал йўқотишлар билан бир маромда ишлашини таъминлашдир.

Калит сўзлар: Пневмотранспорт, сепаратордир, пахта, металл, чигит, тажриба.

АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ АВТОМОБИЛЕЙ ПНЕВМОТРОТОР НА ПРИРОДНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ХЛОПКА И ПРОЦЕСС РАБОТЫ СЕПАРАТОРОВ

Рахимов Акбар Холмуродович

Термезский Государственный Университет Национальные костюмы, вышивка, преподаватель текстильного отделения

Аннотация: Одним из основных звеньев пневмотранспортного устройства является сепаратор. Основными требованиями к сепаратору являются отделение хлопка-сырца от воздушного потока при сохранении его естественных характеристик и обеспечение того, чтобы пневматическое устройство работало с той же скоростью с минимальными потерями давления.

Ключевые слова: Пневмотранспорт, сепаратор, хлопок, металл, сорняк, эксперимент.

ANALYSIS OF THE EFFECT OF PNEVMOTROTOR VEHICLES ON THE NATURAL CHARACTERISTICS OF COTTON AND THE OPERATION PROCESS OF SEPARATORS

Rakhimov Akbar Kholmurodovich

Termez State University National costumes, embroidery, teacher of the textile department

Abstract: One of the main links of the pneumatic transport device is the separator. The main requirements for the separator are to separate the seed cotton from the air flow while maintaining its natural characteristics and to ensure that the pneumatic device operates at the same rate with minimal pressure losses.

Keywords: Pneumotransport, separator, cotton, metal, hemp, experiment.

Чигитли пахтани ташишда асосий талаблардан бири чигитли пахтанинг табиий хусусиятларини сақлашдир.

Шунинг учун чигитли пахта пневмотранспортини ўрганиш билан шуғулланган кўплаб тадқиқотчилар асосий эътиборни чигит шикастланишини ўрганишга қаратганлар. Чунки, бу тайёр маҳсулотнинг сифатига таъсир қилиб, натижада толани йигирилиш хусусияти ёмонлашувига олиб келади, уруғлик материални кўчиришда эса, ўсиш энергияси ҳамда уруғлик чигитнинг униб чиқишини камайтиради.

Пахта бўлагини металл юзасига тўғридан тўғри урилиши натижасида чигит шикастланишининг критик тезлик микдори ўрганилиб, у 15,5 м/с га тенглиги аниқланган. Чигит шикастланиши, критик тезлиги қиймагига таъсири ўрганилган. Унда аниқланишича, урилиш пайтида тушиш бурчагининг ошиши билан чигитнинг механик шикастланиши камайди. Натижада, пахта териш машинаси пневмотранспорт тизими учун парраклари орқага қайрилган вентилятор яратиш

имконияти туғилди. Бу вентилятор маълум шароитда ташқи диаметридаги чиқиш бурчаги $\beta = 25^\circ$ ва ғилдирак ташқи диаметридаги айланма тезлик 37 м/с дан ошмаганда пахта чигитини шикастлантирмайди.

Худди шундай тадқиқотлар натижаси, унда аниқланишича, ҳаракат тезлиги қанча юқори ва материалнинг қувур девори билан учрашиш бурчаги қанча катта бўлса, чигитнинг шикастланиши шунчалик кўп бўлади. Мисол учун 50 м/с тезликда чигитнинг механик шикастланиши 70-80% бўлади. Пахта бўлаги урилаётган юза материалнинг чигит шикастланишига таъсири ўрганилган. Аниқланишича, пахта бўлагининг резина юзасига урилганида чигит шикастланишининг миқдори, металл юзага урилгандагига қараганда, анча кам. Ўтказилган тажрибалар натижасида 90° бурчак остида ҳамда пахта бўлагининг тезлиги 50 м/с бўлганда, чигит шикастланишини 7 мартага камайиши аниқланган.

Чигит ҳамда чигитли пахтани ҳаво ёрдамида ҳаракатлантирганда чигит шикастланишига таъсири. Чигитли пахта қувурларда ҳаракат қилганда, чигит шикастланишини камайтириш учун, зарраларнинг қувурни ташқи деворига урилиш бурчагини ошириш таклиф этилган. Чигит шикастланмайдиган урилиш бурчагининг тахминий қийматини қуйидаги формула бўйича аниқлаш таклиф этилади:

$$\alpha = \arccos \frac{V_{kr}}{V_M}$$

бу ерда, α - чигитли пахта заррасининг қувур ташқи деворига урилиш бурчаги; V_{kr} - шикастланишдаги критик тезлик металл юзага тўғри урилиш шароитида 15,5 м/с га тенг; V_M - чигит ҳамда чигитли пахта зарраларининг ҳаракатланиш тезлиги.

Қувур эгрилик радиусини чигитли пахта бўлақларининг қувур ташқи деворига урилиш бурчаги қийматига боғлиқлигидан келиб чиқиб, унинг эгилган қисмларида ўртача эгрилик радиуси 3D дан кам бўлмаслиги тавсия этилади. У ҳолда, ҳаво оқимининг 28,4 м/с тезлигигача чигитларнинг механик шикастланишининг сезиларли кўпайиши кузатилмайди. Пневмотранспорт таъсирида толада нуқсонлар ҳосил бўлиши ва чигит шикастланишига таъсирини ўрганишга қаратилган бир қатор тадқиқотлар ўтказилди. Кетма-кет уланган қайта узатиш пневмоқурилмаси сонини ошиши билан чигитнинг механик шикастланиши сезиларли даражада кузатилади. Натижада, чигитли пахтани жинлаш жараёнидан ўтказгандан сўнг толада чигит пўстлоғи ва синган чигит, юқори навли пахтада 0,2% гача, паст навларда эса 0,6% гача ошиши кузатилади. Пахта толасининг узунлиги ва нави чигитли пахта пневмотранспорт қурилмаси орқали кўп маротаба ўтказилганда ўзгармас бўлиб қолади. Шунингдек, толадаги нуқсонлар ва ифлосликларнинг умумий йиғиндиси, чигитли пахтани пневмоқурилма орқали ўтказиш сони ошиши билан камаяди, бунда чигитли пахтанинг намлиги қанча кам бўлса, ифлослик ва тола нуқсонлари йиғиндисининг камайиши кўпаяди. Пневматик равишда пахта кўчирилганда минерал ва органик чанг, майда ва йирик ифлосликларни юқори намликдаги чигитли пахта пневмотранспорт воситасида кўп маротаба қайта узатиш қурилмалари билан кўчириш туфайли толада нуқсонлар ҳосил бўлишига сабаб бўлади. Бунда иш унумдорлиги қанча кам бўлса, нуқсонларнинг ўсиши шунча кўпаяди. Масалан, чигитли пахтани пневмотранспорт орқали 8 маротаба ўтказгандан сўнг, толадаги нуқсонлар йиғиндиси 0,7% га ошади. Чигитли пахтани пневмоқурилма орқали кўп маротаба ўтказиш чигит шикастланиши ошишига ҳам олиб келади. Мисол учун намлиги 8,2% бўлган чигитли пахта пневмоқурилмадан 8 марта ўтказилганда чигит шикастланиши 0,85% га, чигитли пахта намлиги 25,0% га ошганда эса чигит шикастланиши 1,91% ошишига олиб келади. Чигит шикастланишининг ошиши ва толадаги нуқсонларнинг кўпайиши, сепараторнинг ишлаш жараёнига боғлиқлиги муаллифлар томонидан асослаб берилган.

Изланишлар шуни кўрсатдики, чигитли пахта намлиги, уни қурилма орқали ўтказиш сонининг ошиши, шунингдек ҳаво оқими тезлигининг ошиши ҳамда аэроаралашма концентратининг камайиши билан чигит шикастланиши кўпайиши


содир бўлади. Тажриба натижалари шуни кўрсатдики, қувур узунлиги толали нуқсонларнинг ҳосил бўлишига таъсир кўрсатмайди. Аниқландики, эшилган ҳамда мураккаб эшилган толалар миқдори тахминан 2 баробар ошади. Ўтказилган таҳлиллар шуни кўрсатдики, пневмотранспорт чигитли пахта сифатига таъсирини ўрганган барча муаллифлар битта хулосага келишади, яъни чигитли пахта пневмоқурилма қувурининг бурилиш жойларида ва сепараторда шикастланади. Пневмотранспорт қурилмасининг асосий бўғимларидан бири сепаратордир. Сепараторга қўйиладиган асосий талаблар бу чигитли пахтани табиий кўрсаткичларини сақлаган ҳолда, уни ҳаво оқимидан ажратиш олиш ва пневмо қурилманинг босимини минимал йўқотишлар билан бир маромда ишлашини таъминлашдир.

Ҳозирги вақтда чигитли пахта пневмотранспорт қурилмасида СС-15А сепаратори ҳам кенг қўлланилади (1.2-расм). У қуйидаги қисмлардан тўзилган: камера 1, вакуум - клапан 6, рама 10 га маҳкамланган электро юритма 5. Сепарацион камера 1 да орқа девор яхлит пўлат листдан тайёрланган, ён деворлари эса, ҳавонинг ўтиши учун диаметри 6 мм бўлган тешикли сеткадан иборат.

Тўрли юзани чигитли пахтадан тозалаш вали 9 га ўрнатилган 2 та қирғич 7 лар ёрдамида амалга оширилади.

Тўрли юзанинг ташқи юзаси толали чангдан қирғич-тозалагич 8 ёрдамида тозаланади.

Ишлаш давомида чигитли пахта ва ҳаво аралашмаси кириш трубази орқали сепарацион камерага киради. Камера ҳажми катта бўлганлиги учун ундаги оқим тезлиги кескин пасаяди. Чигитли пахтанинг асосий қисми инерция кучи бўйича ҳаракатланишни давом эттириб, орқа деворга ўтади, унинг юзасидан сирпаниб вакуум - клапаннинг парраклари ёрдамида чиқиб кетади, қолган миқдордаги қисми тўрли юзага келиб урилади. Чигитли пахта тўр юзасидан эластик қирғичлар ёрдамида ажратилиб, улар ҳам вакуум-клапанга туширилади. Вакуум - клапанга тушаётган пахтанинг ҳаракат қонуниятлари ҳамда вакуум - клапаннинг ишчи узунлиги бўйича чигитли пахтанинг тақсимланиши тўлиқ ўрганилмаган.



1.2- расм. СС-15А сепараторнинг умумий кўриниш схемаси.

- 1 - камера;
- тўрли юза;
- чигитли пахта билан ҳаво кирадиган қувур;
- кириш ва чиқиш қувури;
- электроюритма;
- вакуум - клапан;
- қирғичлар;
- қирғич-тозалагич;
- вал;

10-рама;

Афсуски, СС-15А сепараторида камерага кираётган пахтанинг аксарият миқдори икки ён томондаги ҳаво суриш йўналтиргичларидаги сўрувчи куч ёрдамида турли сиртларга ёпишиб, сўнгра қирғичлар ёрдамида сидириб олинади.

Албатта бундай ҳолатда пахтанинг вакуум - клапан ишчи узунлиги бўйича тенг тақсимланиши ҳақида гапириш нотўғридир. Бундай ҳолат вакуум - клапаннинг резинали парракларини нотекис ейилишига олиб келмоқда.

Пахта бўлаги қирғич ва турли юзадаги эластик қирғичлар ёрдамида тозаланиб, улар ҳам вакуум - клапанга туширилади.

Тозалаш вақтида пахта бўлаги қирғич ва турли юза орасида сиқилиб қолиш натижасида чигитнинг синиши ва пахта толасининг чигитдан ажралиши, яъни «ёлғон» жинланиши кузатилади, бу эса эркин толанинг пайдо бўлиб, йўқотилишига олиб келади.

Шундай қилиб, СС-15А сепараторида чигитли пахтанинг ҳаво оқимидан ажратиш технологик жараёнида унинг табиий хусусиятларини ёмонлашуви ва тола миқдорининг йўқотилишига сабаб бўлади.

Маълумотларда кўрсатилишича, сепаратор ёрдамида чигитли пахтани қайта кўчиришда тола йўқотилишлари юқори навларда ўртача 0,0285 % ва паст навларда ўртача 0,052 % ни ташкил этади. Кейинги қайта узатишларда йўқотишлар тахминан бир хил миқдорга ошади.

Бу ерда таъкидлаш зарурки, агар фоиз кўрсаткичлардан оғирлик кўрсаткичларига ўтадиган бўлсақ, пневмоқурилманинг иш унумдорлиги 15 т/соат бўлганда, йўқотишлар ўртача 4,14 кг/соатни ташкил этади. Бугунги кунда олиб борилган илмий изланишлар шуни кўрсатадики, пахтанинг саноат навлари бўйича толанинг йўқотилиш сабаблари аниқ кўрсатиб берилгани йук. Айниқса, турли юза ҳамда қирғич орасидаги пахтанинг ҳаракат қонунияти тўлиқ ўрганилмаган.

Пневмоқурилманинг максимал ишлаш жараёнида ёки юқори намликда чигитли пахтани кўчиришда, баъзан турли юзага маълум миқдордаги чигитли пахта ёпишиб қолиб, эластик қирғич турли юзани самарали тозалай олмайди, натижада тиқилиб қолиш ҳолати ҳосил бўлади.

Тиқилиб қолиш қирғичнинг ейилиб кетиши ва эгилиб ишга ярамай қолишидан ҳам ҳосил бўлади.

Бир қатор изланувчилар СС-15А сепараторининг ажратиш ускунасини ўзгартириб сепарациялаш технологик жараёнининг мукамаллаштиришни замонавий усуларини тавсия этганлар.

Шуни айтиш мумкинки, СС-15А сепаратори катта аэродинамик қаршиликка эга. Ҳавонинг сарфи 5-6 м³/с бўлганда (бу кўрсаткич пахта тозалаш корхонасида пневмоқурилманинг нормал ишлаш шароитига мос келади), босим йўқотилиши 1180-1370 Па ни ташкил этади.


Сепараторда кўп миқдорда босимнинг йўқотилиши, оқим қисми кесимининг ва ҳаво ҳаракати йўналишининг ўзгариши асосида ифодаланади.

Пахта тозалаш корхонасида СС-15А сепараторининг пневмотранспорт қурилмалари тизимига уланиши ҳаво чиқариш мосламалари коллектор ва кейинчалик ҳаво қувури билан патрубкка орқали уланади. Бунда тажриба натижалари бўйича ҳавонинг сарфи 6,1 м³/с бўлганда, сепараторнинг аэродинамик қаршилиги 1610 Па ни ташкил этади. Шу сабабли, вентилятор узатаётган босимнинг кўп қисми СС-15А сепараторининг қаршилигини енгилга сарф бўлади, бу эса ўз навбатида пневмотранспорт ускунасининг ишлаш радиусини камайтиради. Шунинг учун ҳам ўзоқ масофадаги ғарамлардан чигитли пахтани ишлаб чиқаришга узатишда пневмотранспорт тизимига қайта узатиш қурилмалари ўрнатилади. Бу эса ортикча энергия сарфини ошишига, натижада харажатларни кўпайишига сабаб бўлади.

Юқорида таъкидланганидек чигитли пахтани пневмоқурилмалар ёрдамида кўп маротабали кўчириш, унинг табиий хусусиятларининг ўзгаришига ва тола

йўқотилишининг ошишига олиб келади.

Ишлаб чиқаришда қўлланилиб келаётган сепараторлар қаторига СС -15А сепаратори киради. Шу сабабли ушбу сепараторда ҳаводан ажратилиб, вакуум-клапан ишчи узунлиги бўйича пахта оқимини тақсимланиш ҳолатини ўрганиб чиқдик. Бухоро-6 селекцион навининг I, II ҳамда IV саноат навларида ўтказилган натижалар таҳлили асосида вакуум-клапан ишчи узунлиги бўйича пахта оқимининг тақсимланиш ҳолати график кўринишида келтирилган (1.3 расм).



1.3-расм. Вакуум - клапан ишчи узунлиги бўйича пахта оқимининг тақсимланиши

Келтирилган графикдан кўриниб турибдики, пахта оқими вакуум -клапан ишчи узунлиги бўйича тақсимланиши нотекис бўлиб, икки ён бўйича кўпроқ ўрта киемда эса камрок бўлади. Бунга асосий сабаб ишчи камерасига ҳаво билан кирган пахта, ён томон тўрли юзага урилиб, кўпроқ ён томонга ҳаракатланади. Бунинг натижасида вакуум-клапанда ҳавонинг сўрилиши, чигитни шикастланиши ҳамда толанинг узилиши руй беради.

Техник адабиётларда чигитли пахта пневмотранспорти тизимида қўллаш учун мулжаллаган янги тур сепараторларни яратиш бўйича маълумотлар келтирилган.

Тақлиф этилган сепаратор ишлаганда, чигитли пахта ишчи камераси 2 га ҳаво оқими билан кириш патрубogi 3 орқали келади, вакуум-клапан 1 паррақларига илиниб чиқиш патрубkаси 8 орқали чиқарилади. Чигитли пахтанинг бир қисми ён тўрли юза 4 да туриб қолади, вакуум-клапанга буйлама планка-лари ёнларига ўрнатилган паррак 5 ёрдамида туширилади. Қўзғалмас қоплама 6 шундай ўрнатилганки, тўрли юзага илашган чигитли пахтани тушириш вақтида ҳаво босими нолга тенг. Бу тўрли юзани чигитли пахтадан енгил тозалаш имконини беради. Таркибида майда ифлос аралашма бўлган ҳаво тўрли юза ва чиқиш патрубkаси орқали сўрилади ва оқимга юборилади. Бироқ сепараторларнинг ушбу янгиликлари пахта тозалаш саноатида ишлатилмайди.

АҚШ пахта тозалаш заводларининг пневмотранспорт ускуналарида Хардвик-Эттер фирмасининг сепаратори қўлланилади .

Фирма янги сепараторнинг қуйидаги афзалликларини кўрсатиб ўтади: чигитли пахта бевосита тўрли юзага тушмайди, бу эса унинг эшилиб қолишининг олдини олади, тўрли юза ҳамиша тоза бўлади, натижада ҳаво ўтишининг доимийлиги сақланиб қолади. Аммо сепараторда ҳаво босими йўқолишининг ошишига олиб келувчи ҳаракат йўналишларининг кескин ўзгариши кузатилади.

Ҳозирги вақтда пахта тозалаш саноатида СХ маркали сепаратор кенг қўлланилади. Сепаратор қуйидагича тўзилган: ажратувчи камера 1, қайтарувчи девор 2, инерцион ажратиш участкаси 3, ҳаво уткичнинг кирувчи ва чикувчи потрубkалари 7, цилиндрик тўрли юза 6, ажратиш вали 8, қирғич 9 ва вакуум-клапан.

Цилиндрсимон тўрли юза ва ажратиш барабани, ажратиш камерасидан белгиланган масофада (70-100 мм) ўрнатилган.

Ажратиш барабани қирғичларининг ҳаводан ажратилувчи пахта билан яхши алоқада бўлиши, ажратувчи камерада пахтанинг йигилиб қолишига йўл қўймайди. СХ маркали сепараторнинг ишлаш принципи пневматик сепараторнинг ишлаш принципига асосланган.

Ҳаво оқими ажратувчи камера 1 га кирган чигитли пахтанинг асосий қисми қайтарувчи девор 2 га урилиши натижасида ҳаво оқимидан ажралиб, ўз инерцияси билан тўғридан-тўғри вакуум-клапанга тушади.

Чигитли пахтанинг бир қисми вентилятор ёрдамида тўрли юза орқали сўрилаётган ҳаво оқими билан бирга ҳаракатланиб цилиндрсимон тўрли юзада туриб қолади ва ажратувчи барабаннинг қирғичлари билан тозаланиб, вакуум-клапанга ташлаб юборилади.

СХ маркали сепараторни қўллаш туфайли чигитли пахтанинг цилиндрсимон тўрли юзага бевосита бориб тушишига йўл қўйилмайди. Бу ҳолатда пахтанинг чигалланиши ва чигит шикастланишининг камаишига эришилди. Тўрли юза текислиги ҳар доим тоза туради ва бу билан сепараторнинг аэродинамик қаршилиги доимий таъминланиб турилади. Сепараторнинг яна бир афзаллик томони шундаки, унга энергия кам сарфланади.

СХ маркали сепараторни таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, пахтани ҳаводан ажратиш жараёнида ҳам тола йўқотилади ва сепараторни қўллаш натижасида тола йўқотилиши юқори навлар учун 0,23 кг/соатга, паст навлар учун 0,83 кг/соат га камаяди [6-7].

Шундай қилиб, чигитли пахтани пневматик кўчиришнинг техника ва технологияси замонавий ҳолатининг танкидий таҳлили ва адабиётларнинг мазмунини кўриб чиқиш шуни кўрсатадики, бу хусусдаги масалалар ҳали тўла ечимини топмаган бўлиб, мукаммаллаштиришни талаб қилади.

Худди СС-15А сепараторида ўтказилгани каби СХ сепараторида ҳам пахта оқимини вакуум-клапан ишчи узунлиги бўйича тенг тақсимланиш ҳолати ўрганилди. Ушбу тажрибани ўтказишда ҳам Бухоро-6 селекцион навининг I, II ҳамда III- саноат навидан фойдаланилди.

Олинган натижалардан кўриниб турибдики, ҳақиқатдан ҳам СХ сепараторида, пахта оқимининг вакуум-клапан ишчи узунлиги бўйича тақсимланиши нотекис бўлиб, ундаги ҳолат СС-15А сепараторига нисбатан аксинча. Яъни, икки ён томонда пахта миқдорининг камайиши кузатилса, ўрта қисмда эса уни кўпайиши кузатилади. Ҳар иккала ҳолатда ҳам вакуум-клапан ишчи узунлиги бўйича тенг тақсимланиш руй бермайди. Бу эса, албатта, чигитни механик шикастланишига, толанинг узилишига сабаб бўлмоқда.

Ҳозирги кунда ишлаб - чиқаришда кенг қўлланилиб келинаётган СС-15А ҳамда СХ сепараторларини пахтанинг табиий хусусиятларига салбий таъсир қилишдан асосий сабаб ҳам ишчи камерасига кираётган пахтани вакуум-клапан ишчи узунлиги бўйича нотекис тақсимланишидир. Албатта ушбу салбий ҳолатни бартараф этиш долзарб бўлиб, уни ечимини топиш пахтанинг табиий хусусиятларини сақлаб қолиш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Зияев Х. А. Исследование влияния в геометрическом транспортировании. . Хлопковая промышленность. –Ташкент. 1980. -№1. – С. 15-16.

2. Суслин А. Н. Изучения влияния внутрицехового и внутризаводского транспортирования хлопка – сырца на прядильного –технологическо свойство волокна: –Ташкент. 1973. – С84. – Отчет Цинихпром, №162673.

3. Ходжиев М. Т., Собитов З. Активизация процесса съёма на сепараторе СС – 15А. Хлопковая проишленность. – Ташкент. 1992. №5. – С8-11.

4. Ходжиев М. Т., Шодиев З. О. Сепаратор для волокнистого материала. НТК:

**АЛГЕБРАИК СИРТЛАРНИ ТЕКИСЛИК БИЛАН КЕСИШИШНИНГ
МАХСУС ҲОЛЛАРИГА ОИД БАЪЗИ МЕТОДИК КЎРСАТМАЛАР**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.68.73.037>

Саттаров Шавкат Юлдашевич

ТерДУ, Тасвирий санъат ва муҳандислик графикаси кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада алгебраик сиртларни текислик билан кесишиши ва кесим юзаларини ҳосил қилишнинг махсус ҳолларига оид асосли ва графикавий маълумотлар берилган. У педагог-олимлар томонидан алгебраик эгри чизиқлар ва сиртлар бўйича олиб борилган тадқиқот натижалари ва яратилган адабиётлар асосида ёзилган.

Калит сўзлар: алгебраик, иккинчи тартибли, текислик, цилиндр, конус, парабола, асимптотик, гипербола, аксонометрия.

**НЕКОТОРЫЕ МЕТОДИЧЕСКИЕ УКАЗАНИЯ ПО ЧАСТНЫМ
СЛУЧАЯМ ПЕРЕСЕЧЕНИЯ АЛГЕБРАИЧЕСКИХ ПОВЕРХНОСТЕЙ
ПЛОСКОСТЬЮ**

Саттаров Шавкат Юлдашевич

*Преподаватель кафедры изобразительного искусства и инженерной
графики ТерГУ*

Аннотация: В данной статье приводятся обоснованные и графические данные о пересечении алгебраических поверхностей плоскостью и частные случаи образования поверхностей сечения. Он написан на основе результатов исследований, проведенных учеными-педагогами по алгебраическим кривым и поверхностям, а также на основе созданной литературы.

Ключевые слова: алгебраический, второго порядка, плоскость, цилиндр, конус, парабола, асимптотический, гипербола, аксонометрия.

**SOME METHODOLOGICAL GUIDELINES ON SPECIAL CASES OF
INTERSECTION OF ALGEBRAIC SURFACES BY A PLANE**

Sattarov Shavkat Yuldashevich

Teacher of the Department of Fine Arts and Engineering Graphics of TerSU

Abstract: This article provides substantiated and graphical data on the intersection of algebraic surfaces by a plane and special cases of the formation of sectional surfaces. It is written on the basis of the results of research conducted by scientists and teachers on algebraic curves and surfaces, as well as on the basis of the created literature.


Keywords: algebraic, second order, plane, cylinder, cone, parabola, asymptotic, hyperbola, axonometry.

Иккинчи тартибли сиртларнинг проекцияловчи текислик билан кесимлари, дастлабки ясовчи эгри чизикни ёки сирт контурини қайталагандаги, ёхуд ўхшаш эгри чизиклар кўринишида бўлгандаги, кесим чизикнинг хоссалари маълум даражадаги қизиқишни юзага келтиради. Буни, нуктанинг етишмаган проекцияларини яшаш учун ёки комбинацияланган сиртларнинг кесишув чизикларини яшаш, уларни конструкциялаш учун қўллаш мақсадга мувофиқдир. Бу ерда кесишув чизик, ҳеч қандай қўшимча яшашларсиз, энг оддий ҳолда аниқланади [1].

Цилиндр сиртларнинг ясовчиларига параллел текислик билан кесишув чизиғи тўғри чизиклар бўлади (1-расм, а).

Конус сиртининг учидан ўтадиган текислик билан кесишув чизиғи ҳам тўғри чизиклар бўлади (рис. 1, б). Ушбу иккита ҳолда, текислик ва сиртнинг бир номли изларининг кесишув нукталаридан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир (яъни,


айнан битта проекциялар текислигида).



1-расм

Параболоиднинг горизонтал текисликлар билан кесимлари ўхшаш эллипслар бўлади, фронталь ва профиль текисликлар билан кесимлари эса, қамраб турувчи параболанинг шаклини қайтаради [2].

Бир ковакли гиперболоиднинг текислик билан кесими иккинчи тартибли эгри чизикларнинг ҳамма турларини ва кесувчи текисликнинг вазиятига қараб, уларнинг ўзгарган чизикларини беради (2-расм):



2-расм.

ҳамма ясовчиларни кесиб ўтадиган фронталь проекцияловчи текислик, эллипсни беради (2-расм, а);

асимптотик конуснинг ясовчиларига параллел бўлган фронтал проекцияловчи Q текислик билан кесими, параболани беради (2-расм, б);


бўйин эллипсига уринма бўлган горизонтал проекцияловчи текислик билан кесими (2-расм, з) каби, фронтал проекцияловчи R текислик ҳам, иккита ўзаро кесишувчи тўғри чизикларни беради (2-расм, в);

асимптотик конусга уринма бўлган фронтал проекцияловчи S текислик билан кесими, иккита ўзаро параллель тўғри чизиқларни беради (2-расм, г);

ўрта ва энг четки эллипслар (йўналтирувчилар) орасида жойлашган горизонтал проекцияловчи текисликнинг кесими, ўқ орқали ўтувчи текисликлар билан кесими каби, гиперболани беради (2-расм, с).

Агар маркази сиртнинг маркази билан устма-уст тушган ва диаметри фасаддаги қамров чизиғи – гиперболанинг ўқига тенг сферани олсак, унда у сиртни иккита айланалар бўйича кесади (2-расм, ж) [3].

Гиперболик параболоид (қийшиқ текислик) нинг ҳосил қилиниши ва кесими ҳам, катта қизиқишни келтириб чиқаради. Унинг гиперболик асоси кейинги вақтда фазовий архитектуравий шаклларни ҳосил қилиш учун кенг қўламда қўлланилишига олиб келди (3-расм).



3-расм.


3-расмда йўналтирувчилари айқаш АВ ва ED тўғри чизиқлар ва $P \square H$ параллелизм текислиги (PH – горизонталь из) бўлган сиртнинг ортогонал проекциялари ва аксонометрияси (тўғри бурчакли диметрияси) берилган. Ҳар иккала ясовчилар оиласи, қамров ва кесим чизиғи кўрсатилган. Сиртнинг битта режасида иккита фасади, турли «кўтарилиш» катталиги билан берилган. Аксонометрияда сиртнинг, «қийшиқ текисликни» кўргазмали тасоввур ҳосил қиладиган алоҳида қирқиб олинган қисми кўрсатилган.

4-расм, а да, YOZ га параллел текисликлар билан кесимлари яна ўша 15 В 13 параболанинг ўзини бериши кўрсатилган, шунинг учун ҳам сирт, параболанинг ўзига ўзи параллел ҳаракатидан ҳосил бўлиши мумкин, битта В нуқтаси эса, шу параболанинг текислигида ётмаган бошқа ВСЕ парабола бўйлаб ҳаракатланади.

4-расм, б да XOZ га параллел текисликлар билан кесимлари яна ўша ЕСВ параболанинг ўзини бериши кўрсатилган, шунинг учун ҳам сирт, ЕСВ параболанинг бошқа бир АСД парабола бўйлаб ҳаракатидан ҳосил бўлиши мумкин.

Бу сирт кесимларининг таъкидланган ўзига хосликлари, битта ва фақат шу шаклларни (гумбаз учун қолип) ҳаракатлантиришнинг қулай усули каби, амалий аҳамиятга эгадир [4].

4-расм, в да, YOX га параллел текисликлар билан кесимлари, сиртга С нуқтада уринма бўлган текислик билан кесимидан ҳосил бўладиган умумий асимптотали ўхшаш гиперболаларни беради.




4-расм.

С нуқтадан юқорида жойлашган текисликлар билан кесими ҳам гиперболаларни

беради, аммо уларнинг ўқлари, пастки гиперболаларнинг ўқларига нисбатан 90° га бурилган бўлади.

5-расмда вертикал текисликларнинг қандай вазиятларида кесишув чизиқлар (параболалар), у ёки бу томонга қараган эгриликка эга бўлиши кўрсатилган [5].



5-расм

У ёки бу сиртларнинг текис кесимлари характерларини билиш, архитекторга комбинациялаштирилган сиртлар асосида фазовий шаклларни конструкциялашда муҳим ёрдам кўрсатиши мумкин.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар:

1. Ёдгоров Ж. “Геометрик ва проекцион чизмачилик”. -Т.: “Фан”. 2008 й. 54-58 б.
2. Муродов Ш. в.б. “Топографик чизмачилик”. -Т.: “Чўлпон”. 2009 й. 61-65 б.
3. Sattarov S. Y., Turayev X. A. METHODS OF CONSTRUCTING SURFACES ON THE BASIS OF GEOMETRICAL CONDITIONS USING AUTOCAD GRAPHICS SOFTWARE //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 2..
4. Раҳмонов И. ва Валиев А.. “Чизмачилик”. -Т.: “Ворис-нашриёт”. 2011 й. 112-117 б.
5. Раҳмонов И. в.б. “Чизмачилик”. -Т.: “Ворис-нашриёт”. 2016 й. 48-59 б.

**КУЗГИ БУГДОЙДАН КЕЙИН ЭКИЛГАН ОРАЛИҚ ВА СИДЕРАТ
ЭКИНЛАРНИНГ ЎРТА ТОЛАЛИ ҒУЗА ТОЛА СИФАТИГА ТАЪСИРИ**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.66.39.036>

Таджиев Мардон,

Таджиев Карим Мардонович

Пахта селекцияси, уруғчилиги ва этиштириши агротехнологиялари илмий
тадқиқот институтининг Сурхондарё илмий тажриба станцияси
катта илмий ходим,

Турсунов Шокир Чориевич

Термиз Давлат Университети технологик таълим кафедраси
доценти қишлоқ хўжалик фанлари номзоди

Аннотация. Ўтказилган тадқиқот натижаларига кўра ўтмишдош экинлар, айниқса сидерат экинлар (сули ва соя) пахта толаси сифатига назоратга нисбатан ижобий таъсир этиши аниқланди. Пахта хомашёсидан тола чиқиши назорат даласида 33,0 фоиз, ўтмишдош экинлардан сўнг 33,5-34,0 фоиз, сидерат экинлардан сўнг ғуза экилганда тола чиқиши анча юқори бўлиб 33,8-35,0 фоиз эканлиги аниқланди. Сидерат экинлардан сўнг пахта хомашёсидан олинган тола сифати назоратдан анча яхшилانгани кузатилди.

Таянч сўзлар: кузги бугдой, ғуза, кузги бугдойдан сўнг, тола сифати, тола узунлиги, микронейр.

**ВЛИЯНИЕ ПРОМЕЖУТОЧНЫХ И БОКОВЫХ КУЛЬТУР ПОСЛЕ
ОСЕННЕЙ ПШЕНИЦЫ НА СРЕДНИЕ КАЧЕСТВО ХЛОПКА СРЕДНЕГО
ВОЛОКНА**

Таджиев Мардон,

Таджиев Карим Мардонович

Сурхондарьинская научно-опытная станция НИИ хлопководства,
семеноводства и агротехнологии старший научный сотрудник,

Турсунов Шокир Чориевич

Кафедра технологического образования Термезского государственного
университета Доцент, кандидат сельскохозяйственных наук

Аннотация. Исследование показало, что прошлые культуры, особенно побочные культуры (овес и соя), положительно влияли на контроль качества хлопкового волокна. Урожайность волокна из хлопка-сырца контрольном варианте составила 33,0%, после предыдущих посевов 33,5-34,0% и при посеве после сидеральных культур 33,8-35,0%. После сидеральных культур было отмечено, что качество волокна, полученного из хлопка-сырца, значительно улучшилось по сравнению с контролем.

Ключевые слова: озимая пшеница, хлопок, после озимой пшеницы, качество волокна, длина волокна, микронейр.

**EFFECT OF INTERMEDIATE AND SIDERATE CROPS SOWED AFTER
AUTUMN WHEAT ON MEDIUM FIBER COTTON QUALITY**

Tadjiev Mardon, Tadjiev Karim Mardonovich

Surkhandarya Scientific Experimental Station of the Scientific Research Institute
of Cotton Breeding, Seed Production and Agrotechnology senior researcher,

Tursunov Shokir Chorievich

Department of Technological Education, Termez State University Associate
Professor, Candidate of Agricultural Sciences

Abstract. The study found that past crops, particularly by-crops (oats and soybeans), had a positive effect on cotton fiber quality control. Fiber yield from raw cotton was found to be 33.0% in the control area, 33.5-34.0% after previous crops and 33.8-35.0%

in cotton planting after side crops. After the by-crops, it was observed that the fiber quality obtained from raw cotton improved significantly than the control.

Key words: winter wheat, cotton, winter wheat, fiber quality, fiber length, microneir

Ѓўза навларидан юқори тола чиқиши (39-41%) тола сифати давлат андозалари талабларига тўлиқ жавоб бериши пахтачилик фанининг энг долзарб муаммоси бўлиб ҳисобланади.

Ватанимиз олимлари пахта ҳосили ва пахта хомашёсидан тола чиқиши, тола сифати бўйича кўплаб тадқиқотлар ўтказилган [1,2,3].

Селекционер олим А.автономов (2003) уруғчиликни яхшилашда навлар ва пахта хомашёси сифатини яхшилашда қўлланиладиган агротехник тадбирларга боғлиқлигини аниқлаган. Ѓўза парвариши интенсив технология асосида сифатли ва ўз муддатида амалга оширилса пахта толаси ва чигит сифатли бўлди [1].

С.Р.Раҳмонқулов ва Ю.Абдураҳмоновалар (2005) маълумотларига кўра, мамлакатимизда ишлаб чиқариладиган хомашёдан 32-33 фоиз тола, 5% момик ва 55-59 фоиз чигит олиними исботлаганлар.

Ѓўзани фақат азотли ўғитлар билан озиклантирилганда 1000 дона чигит вазни 108,4 гр. ва мойдорлиги 21,5 фоиз бўлиб, маъдан (NPK) ва маҳаллий ўғитлар ишлатилган 1000дона чигит вазни 124,3 гр. ва чигитни мойдорлиги 22,4 фоизни ташкил қилганлиги аниқланди [2].

Б.М.Холиков, А.А.Иминов (2015) таъкидлашча кузги буғдойдан сўнг дуккакли донли экинлар экилганда пахта ҳосили 3,5-5,5 ц/га, тола чиқиши 1,0-1,5 фоиз, 1000 ддона чигит вазни эса 9,0-11,0 гр. , тола узунлиги 1,4-2,0 мм юқори бўлган. [3].

Тадқиқот ўтказиш услублари. Илмий тадқиқот ишларида кузатишлар ҳисоблаш ва таҳлиллар Ўзбекистон пахтачилик илмий-тадқиқот институтини “Дала тажрибаларини ўтказиш услублари (2007)” асосида олиб борилди. Қишлоқ хўжалик экинлари давлат синови услубиёти (Колос, Москва, 1973), Агрохимёвий, агрофизикавий ва микробиологик тадқиқотлар (Тошкент, 1977), Суғориладиган ерларда кузги буғдойдан юқори ва сифатли дон етиштириш бўйича тавсиялар (Андижон, 2003), Методика посевных опытов зерновыми культурами (1979) ва Методика государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур (1964) ышланмалари асосида бажарилди.

Тажрибалар Сурхондарё вилояти Термиз туманида жойлашган Пахта селекцияси, уруғчилиги ва етиштириш агротехнологиялари илмий-тадқиқот институтининг суғориладиган ерларида кузги буғдойдан юқори ва сифатли дон етиштириш бўйича тавсиялар (Андижон, 2003) услубиётлари асосида тадқиқотлар ўтказилди.

Тадқиқотлар 2017-2020 йилларда Пахта селекцияси, уруғчилиги ва етиштириш агротехнологиялари илмий тадқиқот институтининг сурхондарё илмий тажриба станциясида ҚХА-ҚХ-2018-171 лойиҳа асосида амалга оширилди.

Сифатли тола ва уруғлик чигит етиштириш пахтачиликнинг энг долзарб муаммоларидан бири ҳисобланади. Пахта толаси сифатли бўлса тўқимачилик саноатида юқори баҳоланиб энг қимматли нархларда харид қилинади, фермер ва агрокластерлар иқтисодиёти яхшиланади. Бизнинг тажрибалар Термиз туманидаги Намуна худудида жойлашган Сурхондарё илмий тажриба станция далаларида тақирсимон ўтлоқлашиб бораётган тупроқлар шароитида ўтказилди. Тажрибага ингичка толали ўзанинг биринчи тип тола берадиган Термиз-202 нави экилди.

Лаборатория таҳлилари натижаларига кўра, тола узунлиги 40-42 мм, тола микронейр кўрсаткичи 4,4-4,6, толанинг нисбий узулиш кучи 31,9-34,2 г/куч текс, толанинг узулишдаги бир хиллиги 72,6-74,2, толанинг нур қайтариш коэффициентини 83,6-85,5 эканлиги аниқланди. Лекин ушбу кўрсаткичлар кузги буғдойдан кейин соя ёки ерэнғок экилган вариантларда назорат даласидан анча

устунлиги исботланди.

Хулоса қилиб айтганда кузги буғдой ва такрорий экилган мойли экинлар ингичка толали ғўзанинг тола технологик сифатига ижобий таъсир этиши аниқланди.

Кузги буғдой ва такрорий экилган мойли экинлар соя ва ерёнғоқ экилганда ғўзанинг тола узунлиги 1,5-2,0 мм, узун бўлиши, микронейр кўрсаткичи 1-2 бирликка кам бўлиши, толанинг нисбий узулиш кучи 2,0-2,1 г/куч текс, толанинг нур қайтариш коэффициенти 1,8-1,8 га назоратга нисбатан устунликка эга бўлиши аниқланди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

Автономов А.А. Агротехник тадбирларнинг ғўза ҳосили ва тола сифатига таъсири. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали № 5, 2001. – 32-34

Раҳмонкулов С.А. Пахтачилик фанининг ҳозирги аҳволи ва истиқболлари. Фарғона илмий ва амалий халқаро анжуман натижалари. Фарғона, 1999. 5-10 бетлар

Холиков Б.М., Иминов А.А. Муттасил буғдой етиштирилган далаларда тупроқ унумдорлиги ва дон ҳосили. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. Агроилм илова №2, 2010. –Б. 23



**КУЗГИ БУҒДОЙДАН КЕЙИН ЭКИЛГАН МОЙЛИ ЭКИНЛАРНИНГ
ИНГИЧКА ТОЛАЛИ ҒЎЗА ТОЛА СИФАТИГА ТАЪСИРИ**

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.13.58.035>

Таджиев Мардон, Таджиев Карим Мардонович

*Пахта селекцияси, уруғчилиги ва етиштириши агротехнологиялари илмий
тадқиқот институтининг Сурхондарё илмий таҷриба станцияси
катта илмий ходим,*

Турсунов Шокир Чориевич

*Термиз Давлат Университети технологик таълим кафедраси
доценти қишлоқ хўжалик фанлари номзоди*

Аннотация. Ингичка толали ғўза навлари толаси ўрта толали ғўза навлари толасига нисбатан анча сифатли бўлиб, энг ноёб тўқималар тайёрланади. Ғўза толаси сифатига таъсир этувчи омиллар мавжуд бўлиб, алмашлаб экиш ғўза толасига ижобий таъсир этувчи омиллардан бири бўлиб ҳисобланади.

Ўтказилган тадқиқотлар натижаларига кўра ўтмишдошлар ингичка толали ғўза тола сифатига ҳар хил таъсир этиши аниқланди. Тадқиқот натижаларига энг сифатли тола кузги буғдойдан сўнг дуккакли экинларни соя ва ерэнгоқ даласида етиштирилди. Қолган ўтмишдошлар ҳам қисман ижобий таъсири сезиларли бўлиб назорат вариантидан устун эканлиги кузатилди.

Таянч сўзлар: кузги буғдой, ғўза, кузги буғдойдан сўнг, кунгабоқар, кунжут ва махсар, тола сифати, тола узунлиги, микронейр.

**ВЛИЯНИЕ МАСЛИЧНЫХ КУЛЬТУР, ВЫСЕВАЕМЫХ ПОСЛЕ
ОСЕННЕЙ ПШЕНИЦЫ, НА КАЧЕСТВО ХЛОПКА МЕСТОРОЖДЕННОЙ
ЖИДКОСТИ**

Таджиев Мардон, Таджиев Карим Мардонович

*Сурхандарьинская научно-опытная станция НИИ хлопководства,
семеноводства и агротехнологии старший научный сотрудник,*

Турсунов Шокир Чориевич

*Кафедра технологического образования Термезского государственного
университета Доцент, кандидат сельскохозяйственных наук*

Аннотация. Тонковолокнистый сорта хлопчатника более высокого качества волокна, чем волокна среднего волокнистого хлопка, и получают самые уникальные текстуры. Существуют факторы, влияющие на качество хлопкового волокна, и севооборот является одним из факторов, положительно влияющих на хлопкового волокно.

Исследования показали, что предыдущие по-разному влияют на качество тонковолокнистого хлопчатника волокна. Согласно результатам исследования, наиболее качественное волокно было выращено на соевых и ореховых полях бобовых культур после озимой пшеницы. Остальные предшественники также показали частичный положительный эффект, который значительно превосходил на контрольный вариант.

Ключевые слова: озимая пшеница, хлопок, после озимой пшеницы, подсолнечник, кунжут и сафлор, качество волокна, длина волокна, микронейр.

EFFECT OF OIL CROPS SOWED AFTER AUTUMN WHEAT ON THE QUALITY OF FINE COTTON

Tadjiev Mardon, Tadjiev Karim Mardonovich

Surkhandarya Scientific Experimental Station of the Scientific Research Institute of Cotton Breeding, Seed Production and Agrotechnology senior researcher,

Tursunov Shokir Chorievich

Department of Technological Education, Termez State University Associate Professor, Candidate of Agricultural Sciences

Abstract. Fine staple cottons are of a higher quality fiber than medium staple cottons and produce the most unique textures. There are factors that influence the quality of cotton fiber and crop rotation is one of the factors that have a positive effect on cotton fiber.

Studies have shown that the previous ones affect the quality of fine-staple cotton fiber in different ways. According to the study, the highest quality fiber was grown in soybean and walnut legume fields after winter wheat. The rest of the predecessors also showed a partial positive effect, which was significantly superior to the control variant.

Keywords: winter wheat, cotton, winter wheat, sunflower, sesame and safflower, fiber quality, fiber length, micronaire.

Кириш. Жаҳонда тупроқ унумдорлигини сақлаш, тиклаш ва қайта ошириш дунё деҳқончилиқ фанининг асосий муаммоси бўлиб келди ва шундай бўлиб қолади. Юқори унумли тупроқларда барча қишлоқ хўжалиқ экинларидан юқори ва сифатли ҳосил етиштирилади, кам унумли далалардан кам ҳосил ва сифатсиз маҳсулот етиштирилади.

Тупроқ унумдорлиги ҳақида чет эллик ва ватанимиз олимлари томонидан кўплаб тадқиқотлар ўтказишганлар.

З.С.Турсунходжаев, Б.Холиқов, Р.О.Орипов, С.Раҳмонкулов ва Вinder К. лар ва бошқалар илмий тадқиқотлар ўтказишганлар [1,2,3,4,5].

З.С.Турсунходжаев Мирзачўл шароитида алмашлаб экиннинг ғўза ҳосилдорлигига, касалликларига ва тола сифатига таъсири батафсил ўрганлар [3].

Б.Халиқов қисқа муддатли алмашлаб экиннинг 1:1 ва 1:2 тизимларининг тупроқ унумдорлиги, ғўза ҳосилига ва тола сифатига таъсири ўрганиб чуқур хулосалар чиқарганлар [4].

Р.Орипов сидерат экинларнинг тупроқ унумдорлиги ғўза пахта ҳосили ва тола сифатига таъсири Самарқанд вилояти шароитида ўрганганлар.

С.Раҳмонкулов маъдан ва маҳаллий ўғитларни ғўзанинг ҳосилдорлиги, тола ва чигит сифатига Тошкент вилоятини типик бўз тупроқлар шароитида ўрганиб маълум хулосаларга эришилган [2].

Vinter K. Германия шароитида оралиқ экинларнинг тупроқ унумдорлиги ва қишлоқ хўжалиқ экинлари ҳосилдорлиги ва маҳсулот сифатига таъсирини ўрганганлар [5].

Тадқиқот услублари. Илмий тадқиқот ишларида кузатишлар ҳисоблаш ва таҳлиллар Ўзбекистон пахтачилиқ илмий-тадқиқот институтини “Дала тажрибаларини ўтказиш услублари (2007)” асосида олиб борилди.

Сурхондарё илмий-тажриба станциясида тажриба далаларида ҚХА-ҚХ-2015-9-099 лойиҳа асосида тадқиқотлар 2015-2017 йилларда бажарилган.

Тажриба даласи тупроғи тақирсимон ўтлоқлашиб бораётган тупроқлардир. Тупроқнинг механик таркиби оғир кумок, сизот сувлари 2-3 метрда жойлашган.

Тупроғи гумус ва бошқа озика моддалар билан ўртача таъминланган. Тупроқ балл бонитети 50 баллга тенг.

Тадқиқот натижалари. Тажриба кўп факторли (омилли) бўлиб, тажрибани

бажариш учун умумий фон яратилди. Бу борада кузги буғдой ҳар йили октябрь ойининг учинчи ўн кунлиги ва ноябрь ойининг бошида кузги буғдойнинг Термиз 5 нави экилди. Суғорилгандан сўнг етарли туп сон олинди. Кузги буғдойнинг ўсув даврида 6 марта суғорилди, уч марта (туплаш, найчалаш ва бошоқлаш фазаларида) озиклантирилди, бегона ўтларга, занг, зарарли хасвага қарши ишлов берилди, уч марта карбамид билан суспензия қилинди. Бошоқларда дон пишиб етилиши билан ҳосил комбайнлар ёрдамида ўриб олинди. Дала сомондан тозаланиб такрорий экинларни экишга тупроққа ишлов берилди. Такрорий ва сидерат экинлар экилди ва ҳосили октябрь ойида йиғиштириб олинди, бир қисм ҳосил майдаланиб сидерат сифатида тупроққа ҳайдалди ва келгуси йили ушбу майдонга ғўза парвариш қилинди.

Ўтмишдош экинларнинг тупроқ унумдорлиги, пахта ҳосили, пахта хомашёсидан олинган пахта толаси ва чигит сифатига таъсири ўрганилди.

Республикаимиз энг жанубий вилоят экстремал иқлим ва тақирсимон тупроқлар шароитида кузги буғдой ва оралик ва сидерат экинлардан сўнг экилган ғўза ҳосили ўрганилди.

Тажрибага ўрта толали ғўзанинг Бухоро-102 нави экилган. Тажриба натижаларига кўра, пахта хомашёсидан ўртача чигит 61,0-63,1 фоиз, 1000 дона чигит вазни 121-128 фоиз ва тола чиқиши 33,1-35,5 фоиз бўлиши аниқланди.

Пахта хомашёсидан тола чиқиши назорат вариантда 33,0 фоиз, такрорий экинлардан сўнг ғўза парвариш қилинганда 33,2-34,1 фоиз ва сидерат экинларидан кейин ғўза парвариш қилинганда эса 34,6-36,5 фоиз тола чиқиши аниқланди.

100 дона чигит вазни назорат вариантда 121,0 гр., оралик экинлардан сўнг парвариш қилинганда 1000 дона чигит вазни 123,0-124,1 гр., ва ғўза сидерат экинлари (сули ёки соя)дан кейин парвариш қилинганда 125,0-129,1 грамм чигит олиниши аниқланди.

Тола сифат кўрсаткичларини аниқлайдиган Сифат“ лабораторияси маълумотларига кўра, тола микронейр кўрсаткичи, солиштира узунлиги кучи, тола узунлиги, узунлиги бўйича бир хиллик индекси, калта толалар индекси, узунлидаги узайиш, нотолавий аралашмалар, ифлос аралашмалар сони, ифлос аралашмалар майдони, нур қайтариш коэффициенти, сарғайишлик даражаси ва типи каби белгилари таҳлил қилинди.

Тажрибада толанинг микронейри 4,2-4,4, сидератлардан кейин экилган ғўзанинг толали микронейри 4,2-4,3 ни ташкил қилди. Толанинг солиштира узунлиги кучи 28,2-2,1 бўлиб, назоратдан энг кам 28,7 ва ўтмишдошлардан сўнг 28,3-31,3 ва сидератлардан сўнг 29,1-32,1 тенг бўлди.

Тола узунлиги толанинг энг муҳим кўрсаткичи бўлиб, тола узунлиги энг калта (1,08-1,09) назорат даласида сидератлардан сўнг (1,12-1,18 дюм) кўрсаткични ташкил қилди.

Хулоса қилиб айтганда кузги буғдой вва оралик, сидератларн кейин ғўза парвариш қилинганда пахта хомашёси олинганда 1000 дона чигит вазни юқори бўлиб, тола сифати назорат даласидан сифатли бўлиши аниқланди.

Адабаиётлар рўйхати

Орипов Р.О. Роль сидерации в повышение органического вещества. Труды. ТашСХИ, 1972

Раҳмонкулов С., Абдурахмонова Ю. Ғўза чигит вазни ва мойдорлигига таъсири. “Фермер хўжаликларида пахтачилик ва ғаллачиликни ривожлантириш илмий асослари”. Тошкент, 2006. 5-10 бетлар.

Турсунходжаев З.С. Научные основы севооборотов голодной степи. Ташкент, 1972. 25 б.

Холиқов Б., Номозов Ф. Янги алмашлаб экиш илмий асослари. Тошкент, 2016. Б. 213

Rinder K. Ruzishth des Bo dens in as nangtket von zweshenruehrtin Lard. W.Z

**МАХАЛЛИЙ ЖУН ТОЛАСИНИ ОҚАРТИРИШ-РАНГСИЗЛАНТИРИШ
ЖАРАЁНЛАРИ**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.11.26.034>

Тошбеков Одил Абдуллаевич

Термиз давлат университети Миллий либос, каштачилик,
тўқимачилик кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: Махаллий дағал қўй жунни изланиш объекти ҳисобланади. Дағал қўй жунини ювиш-рангсизлантириш ва оқартириш, ҳамда унинг хоссаларини ўрганиш унинг предмети ҳисобланади.

Калит сўзлар: Дағал қўй жун, қўй, жун, ювиш, рангсизлантириш, оқартириш, қора ва тўқ жигар рангдаги жун, оқартириш, табиий пигмент, ранг берувчи мода, пигмент, пероксид, водород, пергидроксилион парчалаш, эритма, қиздириш, совуқ, эритма, аралаштириш.

**ПРОЦЕССЫ ОТБЕЛЕНИЯ И ОТКЛОНЕНИЯ МЕСТНОГО
ШЕРСТЯНОГО ВОЛОКНА**

Тошбеков Одил Абдуллаевич

Термезский Государственный Университет Национальные костюмы,
вышивка, преподаватель текстильного отделения

Аннотация: Объектом исследования является местная грубая шерсть. Его предмет - стирка, обесцвечивание и отбеливание грубой шерсти, а также изучение ее свойств.

Ключевые слова: Грубая овечья шерсть, овечья шерсть, стирка, отбеливатель, отбеливатель, черная и темно-коричневая шерсть, отбеливатель, натуральный пигмент, мода окраски, пигмент, перекись, водород, пергидроксилионное разложение, раствор, нагревание, холод, раствор, смешивание.

LOCAL WOOL FIBER BLEACHING AND DEPLOYMENT PROCESSES

Toshbekov Odil Abdullaevich

Termez State University National costumes, embroidery, teacher of
the textile department

Abstract: The object of the research is the local coarse wool. His subject is the washing, bleaching and bleaching of coarse wool, as well as the study of its properties.

Keywords: Coarse sheep wool, sheep wool, wash, bleach, bleach, black and dark brown wool, bleach, natural pigment, color fashion, pigment, peroxide, hydrogen, perhydroxyl, ion decomposition, solution, heating, cold, solution, mixing.

Тадқиқотларнинг натижаси жун толасини рангсизлантириш - оқартириш жараёнлари ўрганилди. Маълумки, одатда қора ва тўқ жигар рангдаги жун толалари оқартирилмайди, уларни тўқимачилик саноатида қўллашда рангсизлантирилади, оч рангли ёки оқ жун эса лозим бўлганда оқартириш жараёнидан ўтказилади. Одатда ингичка майин жун ва ярим дағал жун деярли рангсиз бўлиб, ундан турли рангдаги мато ассортиментларини тайёрлаш мумкин. Бундай жунда табиий пигмент, яъни толага ранг берувчи мода бўлмайди ёки жуда кам миқдорда бўлади. Дағал жун эса оч сарғиш- жигаррангдан то тўқ жигаррангача, ҳатто қора рангда бўлиши мумкин.

Толага ранг берувчи пигментлар кератин билан кимёвий боғланганлиги сабабли уларни толадан чиқариш жараёнларини ташкил этишда кератинни сақлабқолишни, яъни унга зарар етказмасликни ҳисобга олиш керак. Пигментлар ишқорларнинг кучсиз эритмалари ёки кислота таъсирига турган, лекин оқсидловчи

ва қайтарувчилартаъсирига чидамсиз. Пигментларнинг бу хоссаларидан фойдаланган ҳолда тадқиқотларда жун толасини оқартиришда оксидловчи, яъни водород пероксиддан фойдаланилди.

Тадқиқотларда объект сифатида ювилган маҳаллий зотли оқ, сарик, қаймоқ ранг, кўк ранг ва жигарранг дағал жун толаси олинди. Бирламчи ишлов берилган жун толасининг ранг интенсивлиги, оқлик даражаси “Minolta” спектроқолориметрида аниқланган. Ювиш сифати тола узунлигини сақланиб қолиниши ва ҳўлланувчанлигини ҳамда сув шимилувчанлигини ортиши билан баҳоланади. Тажрибаларда сирт актив моддалар сифатида анионактив САМ - сульфанола НП-1, ионоген САМ - превоцел В-ОФ лардан қўлланилди. [1]

Ювилган оқ, сарик, қаймоқ ранг, кўк ранг ва жигарранг рангли жун толаларини оқартириш-рангсизлантириш жараёнлари олиб борилди. Эритма таркиби- Оқартирувчи сифатида водород пероксид, стабилизатор сифатида натрий силикат ва турли активликдаги САМлардан ташкил топди. Сирт актив модда табиатини жун толасининг ранг интенсивлигига ва оқлик даражасига бўлган таъсири 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал.


Эритма таркибининг жун толасининг ранг интенсивлигига ва оқлик даражасига бўлган таъсири

САМ тури	қўй жун хоссалари					
	Ранг интенсивлиги, К/С		Оқлик даражаси, W, %		К/С ўзгариши, %	W ўзгариши, %
	жараёндан олдин	жараёндан кейин	жараёндан олдин	жараёндан кейин		
Сульфанола НП-1	27	14	14,21	29,91	- 48	+ 110,5
Превоцел В-ОФ	26	14	14,88	30,46	- 46	+ 104,7

Жадвалда келтирилган маълумотлардан оқартириш-рангсизлантириш жараёнида САМ табиати толанинг оқлик даражаси ва ранг интенсивлигига деярли таъсир кўрсатмаслиги аниқланди.

Водород пероксид пергидроксил-ион ҳосил қилиб парчланади, бу ион турғун бўмаганлиги сабабли атомар ҳолдаги кислород ҳосил бўлади, улар жун таркибидаги пигментни то сувда эрийдиган ҳолатгача парчалайди. Маълумки ишқорий муҳит ва юқори ҳароратда водород пероксид сув ва атомар кислородгача қаттиқлик парчланади. Водород пероксиднинг радикал-занжирли механизм бўйича қаттиқлик парчаланиши айрим металл (темир, марганец ва бошқалар) ва уларнинг бирикмалари таъсирида шиддатли бориб, водород пероксиднинг самарасиз сарфланишига ва кератиннинг цистин ва пептид боғлари бўйича деструкцияга учрашига сабаб бўлади. Эритма таркибига киритилган натрий силикат водород пероксидни каталитик парчаланишини олдини олади, шунингдек эритманинг ишқорийлигини ҳам таъминлайди. [2]


Юқоридагиларни ҳисобга олган ҳолда, ва жун толасининг оқлик даражаси талабга жавоб бермаганлиги сабабли жараён ҳароратининг тола сифатига таъсири ўрганилди (Расм- 1.).



Расм- 1. Толанинг эрувчанлиги ва оклик даражасининг оқартириш жараёни давомийлигига боғлиқлиги. - оқартирилмаган тола

Оқартириш жараёнининг сифати жуннинг оклик даражаси ва кератиннинг деструкцияси билан баҳоланади. Диаграммадан кўришиб турибдики, оқартириш жараёнидан ўтмаган жуннинг эриган қисми 10-12% ни ташкил этмоқда. Оқартирилган толада бу қиймат 18% дан 40% гача бўлган миқдорга тенг. Шу диаграммада оқартириш жараёни ҳарорати ортиши билан толанинг оклик даражасини унга туғри пропорционал равишда ортиб бориши келтирилган. Аммо агар жуннинг деструкция қиймати 30% ни ташкил этса, демак бу ҳолат жунни чуқур деструкцияга учраганини билдиради. Бу ҳолатни жун макромолекуласида кўндаланг ковалент боғларни узилиши ва қўйимолекуллар пептидларни ҳосил бўлганлиги билан тушинтириш мумкин. Юқоридагиларни инобатга олган ҳрлда оқартириш жараёни учун 500С ҳарорат энг мақбули деб топилди.

Келтирилган тадқиқот натижаларида жун толаларни юқори даражада оқартиришга эришилмади, шу сабабли кейинги изланишларда толани қайтарувчилар таъсирида оқартириш ўрганилди. Қайтарувчилар ёрдамида жун толаси оқартирилганда эритма таркибида асосий реагент сифатида натрий бисульфитдан фойдаланилади. Бисульфит эритмасида оқартириш хона ҳароратида бир сутка давомида модули 20 тенг бўлган, 0,5-3,0%-ли натрий бисульфит эритмасида олиб борилди. Сўнгра толалар сиқилиб, уларга сульфат кислота эритмаси (массага нисбатан 5%) билан 15 дақиқа давомида ишлов берилди, кейин сув билан ювилди. Жун толасини қайтарувчилар таъсирида оқартириш бўйича олиб борилган тадқиқот натижалари расм - 2. да келтирилган.



Расм - 2. Натрий бисульфит концентрациясининг жун тола сифатига таъсири

Диаграммада келтирилган маълумотлардан оқартириш эритмасида қайтарувчи концентрациясини 1,5% гача ортиши толанинг оқлик даражасини ортишига, кейин эса толанинг сарғайишига олиб келишини куришимиз мумкин. Қайтарувчи концентрациясини ортиши билан толанинг масса йўқолиши ортиб бормоқда. Ундан ташқари қайтарувчилар билан оқартирилган толаларнинг оқлик даражаси барқарор бўлмаганлиги сабабли жун толаларини қайтарувчилар билан оқартириш натижа бермаслиги аниқланди. [3]

Шунинг учун, маҳаллий жун толаларини водород пероксид билан оқартиришнинг кўйидаги технологияси таклиф этилди: Жун толасига таркибда 30%-ли водород пероксид эритмаси (жун массасига нисбатан 2%), натрий силикат (жун массасига нисбатан 2%), САМ (1 г/л) бўлган эритмада 1 соат давомида 500Сдан юқори бўлмаган хароратда ишлов бериш, сўнгра эритмани қиздириш тўхтатилиб, совуқ эритмада аралаштириб турилган холда оқартирилади.

Таклиф этилган шароитда турли рангдаги жун толалари оқартириш жараёнидан ўтказилди. Натижалар 2- жадвалда келтирилган.

2-жадвал

Водород пероксид ёрдамида оқартирилган турли рангдаги жун толаларининг оқлик даражалари

Турли рангдаги жун толалари	Хом жуннинг оқлик даражаси, W, %	Ювилган жуннинг оқлик даражаси, W, %	Водород пероксид билан рангсизлангирлан жуннинг оқлик даражаси, W, %
Оқ ранг	14,9	24,7	30,0
Кайм оқ ранг	10,3	11,6	20,7
Сарик ранг	8,9	10,3	17,7
Кўлранг	5,3	7,2	13,9
Жигарранг	0,3	0,5	1,8

ХУЛОСА. Охириги йиллардаги адабиётлар таҳрири шуни кўрсатдики, маҳаллий жун толалари асосан дағал ва рангли жун толари ҳисобланиб, улардан

тўқимачилик саноатида фойдаланилмайди. Аммо дағал жунга ҳам талаб даражасида ишлов бериб уни тўқимачилик саноатига киритиш долзарб масала ҳисобланади. Ювилган дағал жунни рангсизлантириш, оқартириш учун кимёвий моддалар таркиби ва жараёни бажариш шарт-шароитлари тажриба йўли билан аниқланди.

Сифати яхшилаб, рангсизлантирилган жун толаларини турли бўёвчи моддалар билан бўяб синаб кўрилди. Толада ҳосил бўлган ранларнинг ранг интенсивлиги шу рангларга хос катталикларни намоён қилиши билан, уларни турли рангларга бўяш мумкинлиги исботланди.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати

Новородовская, Т.С. Химия и химическая технология шерсти / Т.С. Новородовская, С.Ф. Садова. - М.: Легпромиздат, 1986. - 200 с.,

Александр, П. А. Физика и химия шерсти / П. А. Александр, Р.Ф. Хадсон. - М., 1986. - 390 с.,

Аитова А.Н. «Разработка Технологии колорирования Шерстяных текстильных материалов при использовании Окислительно-восстановительных систем» Санкт-Петербург-2017 г. 19 с



**БЎЛАЖАК ЧИЗМАЧИЛИК ФАНИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ
ЛОЙИХАЛАШ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ
ДИДАКТИК ИМКОНИАТЛАРИ**

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.85.44.033>

Тураев Хумойиддин Абдугафорович

ТерДУ, Тасвирий санъат ва муҳандислик графикаси кафедраси мудири

Аннотация: Ушбу мақолада бўлажак чизмачилик фани ўқитувчиларининг лойиҳалаш компетенциясини ривожлантиришнинг дидактик имкониятлари ҳақида асосли маълумотлар берилган. У педагог-олимлар томонидан бўлажак ўқитувчиларнинг касбий ва лойиҳалаш компетенциясини ривожлантириши бўйича олиб борилган тадқиқот натижалари асосида ёзилган.

Калит сўзлар: дидактик, конструктор, график, лойиҳалаш, компетенция, концепция, синтез, мотивацион, когнитив, рефлексив, педагогик технология, метод, компьютер графикаси.

**ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ПРОЕКТНОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ЧЕРЧЕНИЯ**

Тураев Хумойиддин Абдугафорович

*Заведующий кафедрой изобразительного искусства и инженерной графики
ТерГУ*

Аннотация: В данной статье приводятся обоснованные сведения о дидактических возможностях развития проектной компетентности будущих учителей черчения. Она написана на основе результатов исследований, проведенных учеными-педагогами по развитию профессионально-проектной компетентности будущих педагогов.

Ключевые слова: дидактический, конструктор, графический, дизайн, компетенция, концепция, синтез, мотивационный, познавательный, рефлексивный, педагогическая технология, метод, компьютерная графика.

**DIDACTIC OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF PROJECT
COMPETENCE OF FUTURE DRAWING TEACHERS**

Turaev Khumoyiddin Abdugafforovich

Head of the Department of Fine Arts and Engineering Graphics of TerSU

Abstract: This article provides reasonable information about the didactic possibilities of developing the project competence of future drawing teachers. It is written on the basis of the results of research conducted by scientists-teachers on the development of professional and project competence of future teachers

Keywords: didactic, designer, graphic, design, competence, concept, synthesis, motivational, cognitive, reflexive, pedagogical technology, method, computer graphics.

Кириш. Талабаларнинг лойиҳалаш компетенциясини ривожлантириш тизими объектив ва субъектив шарт-шароитлар, ташқи ва ички омилларга боғлиқ. Ҳар қандай педагогик тизим таркибида иккита тушунча аниқ кўринади: Дидактик вазифа ва уни ҳал қилиш технологияси. Дидактик вазифа тузилишида исталган инсон фаолияти соҳасидаги каби вазиятлар (шароитлар) ва мавжуд ахборот (фаолият мазмуни)га асосланган мақсадлар акс этади [1].

Чизмачилик фани ўқитувчисини тайёрлашнинг дидактик имкониятларини ўрганиш борасидаги тадқиқотимиз мақсади техник тайёргарлик жараёнида ўқувчилар график фаолиятини ташкил этиш учун бўлажак чизмачилик фани ўқитувчиларнинг лойиҳалаш компетенциясини мазмуни (таркибий қисмлари) кўриб

чиқилган ахборотлар воситасида шакллантириш ҳисобланади.

Тадқиқотимизда ўқув материалларининг мазмуни талабаларни касбий-педагогик фаолиятга тайёрлашнинг ҳар бир босқичида график ва ўқув-конструкторлик фаолиятини интеграциялаш йўли билан белгиланади.

Бўлажак чизмачилик фани ўқитувчиларининг лойиҳалаш компетентлигини ривожлантириш жараёни тизимли-фаолиятли ёндашув асосига курилади. Унинг ижодий фаолияти, яъни лойиҳалаш фаолиятда кўникма ва малакаларидан ижодкорона фойдаланиш тажрибасида ихтирочилик сифатларини ўрни жуда бекиёс.

Конструкторнинг фаолияти қуйидаги босқичларга ажратилган:

1. Объектни яратиш концепцияси - лойиҳалашда конструкциялаш босқичи бўлиб, унда объектнинг дастлабки модели ақлий ёки матн билан, график воситалар ёки экспериментал тарзда амалга оширилади; бунинг натижаси техник курилмани конструкциялаш ва технологик метод ишлаб чиқиш учун асос бўлади.

2. Конструкциялаш – лойиҳалаш босқичи бўлиб, унда мазмунни ифодалаш техник буюм деталлари билан аниқланади. Конструкторлик жараёнида конструктор фақат ақлий фаолиятининг самараси бўлган, ҳали мавжуд бўлмаган нарсани акс эттириши керак. Бу техника соҳасидаги ижодий муҳандислик вазифасидир.

Синтез – буюмни амалда қўллаш учун тайёрлаш технологияси ва техник курилмаларда конструкторлик ғояларини ижодий бирлаштиришдир.

“Лойиҳалаш” ва “конструкциялаш” атамаларини ёритишда, уларни бирга кўриб чиқилиши кераклиги ва бир тушунчани бошқасидан ажратмаслик мақсадга мувофиқ. Аслида “конструкциялаш” атамаси куриш, “лойиҳалаш” эса – лойиҳа, ғояни яратишни билдиради, конструкциялаш лойиҳалашни ўз ичига олади [2]. Конструкциялаш фаолиятида техник курилмаларни яратишда лойиҳавий-конструкторлик фаолиятни эътиборга олиш керак.

Юқоридагиларни таҳлил қилиб, лойиҳалаш ва конструкциялаш бу ижодий, мураккаб ва ўзаро боғлиқ бўлган жараён деб ҳисоблаш мумкин. Лойиҳалаш – бу муҳандислик фаолияти кўриниши бўлиб, бирор конструкцияни тайёрлаш учун лойиҳа ишлаб чиқиш билан боғлиқ, конструкциялаш эса – лойиҳалаш босқичи бўлиб, конструкция вариантларини яратиш, ҳисоб-китоблар, операцияларни босқичма-босқич бажаришни ўз ичига олади.

Адабиётлар таҳлили. Д.К.Маматов томонидан чизмачилик фанини ўқитишда ўқувчиларнинг фазовий тасавурларини ривожлантиришнинг илмий – методик асослари ишлаб чиқилган ва амалиёт жараёнига тадбиқ этиш йўллари кўрсатиб берилган. Чизмачилик фани ўқитувчиси шахсини ривожлантириш жараёнини таъминловчи омиллар йиғиндиси ва шарт-шароитлари аниқланган ҳамда мазмуни очиб берилган [3]. Чизмачилик фани ўқитувчиларини тайёрлашнинг назарий ва услубий жиҳатлари Ш.Н.Муслимовнинг фундаментал тадқиқотларида ўз аксини топган [4].

Профессор Н.А.Муслимовнинг тадқиқот ишларида бўлажак ўқитувчиларда касбий педагогик сифатларни шакллантиришнинг илмий-методик асослари тадқиқ этилган, шунингдек, мутахассисларнинг янги авлодини шакллантириш, маънавий-ахлоқий жиҳатдан етук, мустақил дунёқарашга эга, ижодий фикрловчи, умуминсоний ва миллий кадриятларга садоқатли баркамол шахсни тарбиялаб вояга етказиш масалаларига алоҳида эътибор қаратилган [5]. Педагог олим Ш.С.Шарипов ўқувчилар касбий ижодкорлиги узвийлигини таъминлашнинг назарияси ва амалиёти, ўқувчиларнинг ихтирочилик ҳамда ижодкорлик қобилиятларини ривожлантиришнинг илмий-педагогик асосларини ишлаб чиққан [6].

Илмий-педагогик адабиётлар таҳлили бўлажак чизмачилик фани ўқитувчисининг лойиҳалаш компетентлигининг қуйидаги тарқибини аниқлаш имконини беради:



- мотивацион-қадриятый компонент (шахснинг фаолият объекти сифатидаги ўрнини ва йўналишини белгиловчи шахсий сифатлар;
- когнитив компонент (онгли фаолиятни таъминлайдиган назарий билимларнинг мавжудлиги);
- амалий-фаолиятый компонент (шахс томонидан ўзлаштирилган, амалда синаб кўрилган билим ва кўникмалар энг самарали деб ҳисобланади);
- рефлексив-баҳолаш компонент (шахснинг лойиҳалашавий ишларни амалга оширишда конструкторлик, лойиҳалаш фаолиятида мустақиллиги, фаоллиги, ижодкорлиги, креативлиги ва ўзини-ўзи баҳолаб бориш).


Тадқиқот методологияси. Бўлажак чизмачилик фани ўқитувчиларининг лойиҳалаш компетентлигини ривожлантириш жараёнини таҳлил қилиш тадқиқот ишимизнинг асосини ташкил этади. Юқоридагилардан келиб чиқиб, бўлажак чизмачилик фани ўқитувчиларини тайёрлашнинг сифат ва самарадорлигини ошириш учун давлат таълим стандартлари, ўқув режаси ва дастурларининг тизимлилиги ҳамда изчиллигига эътибор қаратишни тадқиқотимизнинг асосий вазифаларидан бири деб белгиладик. Шунга кўра, тадқиқотни олиб боришда илмий изланиш объекти сифатида танланган таълим йўналишининг умумий моҳиятига таянган ҳолда талабаларнинг лойиҳалаш компетентлигини ривожлантиришда эътибор қаратилиши зарур бўлган жиҳатлар тўғрисидаги тасаввур ойдинлаштириб олинди.

Чизмачилик фани умумий ўрта таълим мактаблари, ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасалари учун бакалаврият таълим йўналиши бўйича педагогик кадр тайёрлаш жараёнида фойдаланиладиган фанлар, педагогик фаолият воситалари, усуллари, методлари; Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси ва тармоқ илмий-тадқиқот институтларида ҳамда мустақил тадқиқотчи сифатида илмий-педагогик тадқиқот ишлари билан шуғулланиш; оммавий ахборот воситалари, давлат бошқаруви органлари, бошқа давлат ва нодавлат муассасаларида касбий фаолият юритиш каби комплекс масалалар мажмуасини қамраб олади [7].

Чизмачилик фани йўналиши бўйича бакалаврлар касбий фаолиятининг объектлари:


- таълим жараёни; - ўқитишнинг педагогик технологиялари ва методлари;
- таълимнинг назарий масалалари; - ўқитиш методикаси;
- лойиҳалаштириш асосида ўқув жараёнини бошқариш технологиялари, маъруза, амалий ва лаборатория машғулотларини лойиҳалаштириш ва ташкил этиш жараёни, шахсий ва касбий ахборот майдонини шакллантириш жараёни, мактабдан ташқари таълим муассасалари таълим-тарбия жараёни; таълим соҳасидаги муаммолар ва уларнинг ечимларини топишни ташкил этиш жараёни; таълимни бошқариш ва педагогик жараёнини ташкил этиш;

1-расм. Бўлажак чизмачилик фани ўқитувчиларининг касбий ривожланиши учун зарур бўладиган умумий компетенциялар



- мос ихтисослик бўйича илмий-тадқиқот жараёнлари, маънавий-маърифий тарғибот ишлари жараёнлари.

Йўналиш бўйича фан, техника ва технологияларнинг замонавий ютуқлари, кадрлар буюртмачилари талабларидан келиб чиққан ҳолда бакалаврларнинг касбий фаолият соҳаларида кўшимча ва ўзгаришлар бўлиши мумкин.



2-расм. Бўлажак чизмачилик фани ўқитувчиларининг фаолиятида зарур бўладиган касбий компетенциялар

Тадиқотлар ва изланишлар жараёнида бўлажак чизмачилик фани ўқитувчиларининг касбий ривожланиши учун ва касбий фаолиятида зарур бўладиган компетенциялар аниқланди. 1-расмда бўлажак чизмачилик фани ўқитувчиларининг касбий ривожланиши учун ва 2-расмда касбий фаолиятида зарур бўладиган компетенциялар мажмуи келтирилган.

Тасвирий санъат ва муҳандислик графикаси таълим йўналиши бўйича бакалаврлар касбий фаолиятларининг турлари: педагогик; илмий-тадиқот; маънавий-маърифий; ташкилий-бошқарув; ишлаб чиқариш фаолияти. Йўналиш бўйича фан, техника ва технологияларнинг замонавий ютуқлари, кадрлар буюртмачилари талабларидан келиб чиққан ҳолда бакалаврларнинг касбий фаолият соҳаларида қўшимча ва ўзгаришлар бўлиши мумкин.

Хулоса. Таълим йўналишининг йўналишлари бўйича тайёрланган бакалаврлар касбий фаолиятларининг муайян турлари таълим жараёнининг манфаатдор

иштирокчилари билан ҳамкорликда олий таълим муассасаси томонидан аниқланади.

Бўлажак чизмачилик фани ўқитувчиси лойиҳалаш компетентлигининг мазмуний ва фаолиятий компонентларини аниқлаш учун, биринчидан, биз конструкторнинг фаолиятини таҳлил қилдик, бу эса янги техник жиҳозни лойиҳалаш умумий мақсадга эришишга қаратилганлигини кўрсатиб берди. Ушбу мақсадни амалга ошириш учун дизайнер қуйидаги вазифаларни кетма-кет бажариши лозим. Масалан, лойиҳалашнинг техник вазифаси, техник таклиф, техник лойиҳа, ишчи лойиҳа (хомаки конструкторлик ҳужжатлари)ни ўз ичига олади. Иккинчидан, фаолиятли ёндашувдан келиб чиқиб, амалий кўникмалар унинг назарий билимларининг ишлаш шакли ҳисобланади.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар:

1. Щеглова Т.М. “Формирование проектной компетентности: сущность, структура, содержание”. Среднее профессиональное образование. –М.: 2013 г. № 10. с. 49-51.

2. Turayev X.A. “Bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarining loyihalash kompetentligini rivojlantirishning grafikaviy asoslari”. Monografiya. -T.: “LESSON PRESS”. 2021-y. 5-7-b.

3. Маматов Д.К. “Чизмачилик фанини ўқитишда ўқувчиларнинг фазовий тасавурларини ривожлантиришнинг илмий-методик асослари (компьютер графикаси воситасида)”. Дисс. п.ф.ф.д. (PhD). -Б.: 2021 й. 11-20 б.

4. Муслимов Ш.Н. “Бўлажак технологик таълим ўқитувчиларининг касбий график компетентлигини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш”. Дисс. п.ф.ф.д. (PhD). -Т.: 2021 й. 67-72 б.

5. Муслимов Н.А. “Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш”. Монография. -Т.: “Фан”. 2004 й. 126 бет.

6. Шарипов Ш.С. “Ўқувчилар касбий ижодкорлиги узвийлигини таъминлашнинг назарияси ва амалиёти”. Дисс. п.ф.д. (DSc). -Т.: 2012 й. 264 б.

7. “5110800-Тасвирий санъат ва муҳандислик графикаси бакалаврият таълим йўналиши малака талаблари”. -Т.: ЎзР ОЎМТВ. 14.08.2020 й. №418.



TEKNOLOGIYA TA'LIMIDA TA'LIMNING SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TEKNOLOGIYASI

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.49.15.032>

Shomirzaev Maxmatmurod Xuramovich,

*Termiz davlat universiteti texnologik ta'lim kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari
doktori (DSc)*

Annotatsiya: Maqolada maktab texnologiyata ta'limda o'zbek milliy hunarmandchiligi elementlaridan foydalanib o'quvchi-yoshlarni mehnatga va kasb tanlashga yo'llash masalasi anjuman darsi orqali mantiqiy ketma-ketlikda, uzviy yoritilgan.

Tayanch so'zlar: maktab, o'qituvchi, o'quvchi, yoshlar, ta'lim, tarbiya, texnologiya, faol ta'lim, dasturlashtirilgan ta'lim, kompyuterlashtirilgan ta'lim, anjuman darsi, kasb, bozor, ishbilarmonlik, ta'sirchanlik, tadbirkorlik, samaradorlik.

ИНДИВИДУАЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ОБРАЗОВАНИЯ В ТЕХНОЛОГИИ ОБРАЗОВАНИЯ

Шомирзаев Максатмурод Хурамович,

*Доцент кафедры технологического образования Термезского
государственного университета, доктор педагогических наук*

Аннотация: В статье рассматривается вопрос направления учащихся на работу и выбора профессии с использованием элементов узбекских народных промыслов в школьной технологии обучения в логической последовательности через урок конференции.

Ключевые слова: школа, учитель, студент, молодежь, образование, воспитание, технологии, активное обучение, программированное обучение, компьютеризированное обучение, урок конференции, профессия, рынок, бизнес, аффективность, предпринимательство, эффективность.

INDIVIDUAL TECHNOLOGY OF EDUCATION IN TECHNOLOGY EDUCATION

Shomirzaev Maxmatmurod Xuramovich,

*Associate Professor of Technological Education, Termez State University, Doctor
of Pedagogical Sciences (DSc)*

Abstract. The article deals with the issue of sending students to work and choose a profession using elements of Uzbek national crafts in school technology education in a logical sequence through the conference lesson.

Keywords: school, teacher, student, youth, education, upbringing, technology, active learning, programmed learning, computerized learning, conference lesson, profession, market, business, affectivity, entrepreneurship, efficiency.

Yoshlarni o'qitish, ularga ta'lim-tarbiya berish, kelajak uchun munosib kadrlar qilib tarbiyalash doimo har bir davlatning birinchi navbatdagi vazifalaridan biri bo'lib kelgan. Xuddi shuningdek, bizning mamlakatimizda ham bunday ishlar davlatimiz rahbarlarining doimiy ravishda diqqat markazida turibdi desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil ravishda amalga oshirilayotgan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha Harakatlar strategiyasi respublikamizda rivojlanish taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayonning amaliy natijalari bugungi kunda hayotimizning barcha sohalarida, eng muhimi, xalqimizning ong-u tafakkuri, intilish va harakatlarida yaqqol namoyon

bo'lmoqda.

Harakatlar strategiyasining to'rtinchi – Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan ta'lim tizimini takomillashtirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Davlatimiz rahbari har bir viloyatga tashrifi doirasida o'tkazilgan yig'ilishlarda, turli uchrashuvlarda so'zlagan nutqi va suhbatlarida barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarni sog'lom turmush tarziga amal qilib yashash masalalariga kun tartibidagi dolzarb masala sifatida qarash zarurligini ta'kidlab kelmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Agar farzandlarimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada ularning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ularni ilm-u hunarga o'rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo'yishimiz hech gap emas".

Ma'lumki, "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"3gi qonunlarda ham mamlakatimizda jahon andozalari talablariga javob bera oladigan yuksak malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash vazifalari belgilangan. Jumladan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

Maktab texnologiya ta'limida ta'limning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyasining asosini shaxsiyatli yondashuv tashkil etadi. Shaxsiyatli yondashuv – pedagogning tarbiyalanuvchiga o'z tarbiyasi va rivojlanishiga ongli yondashadigan shaxs sifatida qarashini ifodalovchi yondashuvdir. Binobarin, ta'lim jarayonini shaxs rivojlanishiga yo'naltirish – ta'lim-tarbiya ishlarining samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Maktab texnologiya ta'limida ta'lim jarayonini shaxs rivojlanishiga yo'naltirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ta'lim olish, katta hajmdagi ma'lumotni qayta ishlash qobiliyat-larini rivojlantirish;
- turli vaziyatlarda optimal harakat qilish qobiliyatini, mutaxassisning inqiroz sharoitida samarali harakat qilish malakasini rivojlantirish;
- ta'lim jarayonida obyektlarning avtoritar faoliyatidan gumanitar-kommunikativ o'zaro faoliyatiga o'tishi;
- faol ta'lim usullarni keng qo'llash, ya'ni treninglar, dasturlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan ta'lim, o'quv guruhiy munozara, keys-stadi, rolli va ishbilarmon o'yinlari kabi usullardan foydalanish.

Bunday texnologiyalardan ko'zda tutilgan asosiy maqsad – ta'lim jarayonida har bir o'quvchining o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitishdan iborat.

O'quvchi-yoshlarni mehnatga va kasb tanlashga yo'llashda texnologiya ta'limi asosiy, yetakchi vazifalardan hisoblanadi. Ma'lumki, umumta'lim maktablarida "Texnologiya" fani darslari 1-sinf dan boshlab oxirigi sinfgacha o'tiladi. Ko'rinib turibdiki, texnologiya darslari maktabda uzoq davom etadigan o'quv predmetlaridan biridir.

I-IVsinf bolalarining ko'pchiligi ustachilik qilishni yaxshi ko'rishadi. Ular kattalarga o'xshab biron-narsa yasashga intiladilar [4,B.92]. O'z istaklarini ro'yobga chiqarishni xohlaydilar. Shu narsa o'quvchilarni maktab o'quv ustaxonasi bag'riga tortib turadi. Tanaffus paytlarida va o'quv mashg'ulotlari nihoyasiga yetgandan so'ng, ular katta yoshdagi o'quvchilar qanday ishlayotganini ko'rish uchun oshiqib turadilar.

Nihoyat, kunlar o'tib, V-sinf o'quvchilari o'quv ustaxonasiga kirib keladi. Bu davrda bolalar o'ta qiziquvchan, tirishqoq bo'ladilar. Yillar o'tadi, sobiq Vsinf o'quvchilari sinfdan-sinfga o'tib ulg'ayishadi. Ulardagi qiziqish, tirshqoqlik sekin-asta so'na boshlaydi. Chunki, shu yoshdagi bolalarda "o'tish davri" boshlanadi.

Bolalardagi "o'tish davri", shveysariyalik psixolog Jan Piaja (1876-1980)ning fikricha, obyekt va umuman borliq haqida mavhum fikrlarning yetilishi bilan bog'liqdir. Fikrlash faoliyatining murakkab-lashishi bola hayotining barcha tomonlariga, uning

hissiyotiga ta'sir ko'rsatadi.

Amerikalik psixolog Erik Erikson (1902-1981)ning fikricha, bolada o'z maqsadiga erishishi yo'lida "ishbilarmonlik" va "ta'sirchanlik" sezgilari paydo bo'ladi [12, B.27]. Bu yoshda mehnatga munosabatning asosi tarkib topadi.

"O'tish davri"dagi bolalarda xayolparastlik boshlanadi. O'quvchilarning "o'tish davri"dagi har xil psixik holatlarni hisobga olib tashkil qilingan ta'limning samaradorligi ortadi. Metodika va pedagogik psixologiyada o'quv ishlarining eng yaxshi usullarini tanlashga, ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini kuchaytiradigan omillardan foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda.

Ma'lumki, mashg'ulotlarni olib borish usullaridagi bir xillik o'quvchilarning mehnat ta'limiga bo'lgan qiziqishlarini susaytiradi.

Shuning uchun o'quvchilarning xilma-xil faoliyatini tashkil etish yaxshi natija beradi. Masalan, "Texnologiya" fani mashg'ulotlarini noan'anaviy usullarda o'tkazish o'quvchilarning ijodkorligini, izlanuvchanligini va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bunday ishlardan biri sifatida V-VII sinflar uchun berilgan darsturning ayrim bo'limlaridagi mavzular o'rganib bo'lingach, umumlashtirish – takrorlash mashg'ulotlarini zamonaviy (noan'anaviy) darslarning bir ko'rinishi – anjuman (konferensiya) darsini o'tkazishni tavsiya qilish mumkin [5, B.73]. Xususan, VI sinfdagi amaldagi o'quv dasturiga muvofiq texnologiya va dizayn yo'nalishida "Yog'och va unga ishlov berish texnologiyasi" bo'limi mavjud [8, B.57]. Bu bo'limda yog'och materiallarining olinishi, turlari, tuzilishi, ishlatilishi, xususiyatlari va turli xil duradgorlik buyumlarini yasash o'rgatiladi. Shu bo'lim yuzasidan olingan bilimlarni kengaytirish va atrofficha o'rganish uchun anjuman darsi tashkil qilish mumkin. Misol tariqasida texnologik ta'limi o'quv fanining texnologiya va dizayn yo'nalishidagi yog'ochlarga ishlov berish ishlarini o'rgatishga oid darslarni anjuman dars shaklida o'tkazish bo'yicha tayyorlangan dars ishlanmasini keltiramiz. Bunda o'quvchilarga anjumanda bayon etadigan tushunchalari o'zlariga mos holda bo'lib berilgan bo'ladi. Dars davomida o'quvchilar pedagogik va psixologik tomondan kuzatib boriladi. O'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlarini hisobga olib, ular uch guruhga bo'lib olinadi: 1-guruh: "O'lkashunoslar"; 2-guruh: "Duradgorlar"; 3-guruh: "Tadbirkorlar". O'qituvchi konferensiya darsi bo'lishidan oldin guruhlarga qanday manbalardan foydalanish va fikr yuritish yo'nalishlari haqida ko'rsatmalar beradi. Bunda o'qituvchi sinfdan tashqari manbalar: adabiyotlar, radio eshtirish, teleko'rsatuvlar va matbuot materiallari hamda mahalliy dalillardan foydalanishni o'quvchilarga tavsiya etadi. O'quvchilar shular asosida tayyorgarlik ko'rib, rang-barang materiallarni yig'ib keladilar.

Anjuman darsning rejasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

Darsning maqsadi: a) o'quvchilarning yog'ochlarni ishlash bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlash, umumlashtirish, kengaytirish va ularni amalda qo'llay olishni o'rgatish; b) o'quvchilarni tabiatni sevisga, inson mehnatini qadrlashga, tejamkorlikka, tadbirkorlikka va ishbilarmonlikka o'rgatish; c) o'quvchilarning o'lkashunoslik, duradgorlik va sotuvchilik sohalariga oid kasblarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish.

Dars uchun quyidagi jihozlar hozirlanadi: a) dunyoning geografik xaritasi; b) yog'och namunalari to'plami; c) yog'och turlarini aks ettiruvchi ko'rgazma; d) turli xil duradgorlik buyumlari; e) stanoklar, duradgorlik o'lchov va ish asboblari; f) sotuvchilik rastasi va unga qo'yilgan duradgorlik buyumlari; g) ustalar, sotuvchilar haqida ma'lumot va ularning ishlaridan namunalari; h) maktab hisobiga keltirilgan foyda haqidagi ko'rsatkichlar.

Anjuman darsi quyidagi tartibda o'tkaziladi:

Boshlovchi: Assalomu alaykum, hurmatli o'quvchilar!

Bugungi, yog'ochlarni ishlash mavzusiga bag'ishlangan anjumani-mizni boshlaymiz. Anjumanda yosh o'lkashunoslar, duradgorlar, tadbirkorlar qatnashmoqda. So'z yosh o'lkashunoslarga, marhamat!

1-o'lkashunos. Ma'lumki, yog'ochlar muhim qurilish materiali hisoblanadi. Yog'ochlar daraxtlardan olinadi. Daraxtlar esa biz yashab turgan tabiatda o'sadi. Ularning turlari juda ko'pdir. Terak, tol, qayrag'och, baqaterak, chinor; Mevali daraxtlardan olma, behi, o'rik, olcha, yong'oq kabilar o'sadi.

2-o'lkashunos. Daraxtlar barglarining tuzilishiga qarab ikki xil bo'ladi: 1) nina bargli; 2) keng bargli (yaproqli). Nina bargli daraxtlar, asosan, Yevropa o'rmonlarida o'sadi, ularga archa kabilar; keng yaproqli daraxtlargayoq qayin, dub, terak, qayrag'och, tol va hokazolar kiradi (shu daraxt turlari o'sadigan joylarni dunyoning geografik xaritasidan ko'rsatib beradi).

3-o'lkashunos. Daraxt yaproqlari kuz faslida xazonga aylanib, yerga to'kiladi. Ko'pincha, daraxtlarning xazonga aylangan yaproqlarini e'tiborsizlik bilan yoqib yuborishga harakat qilamiz. Ana shu yongan yaproq tutunlari natijasida atrof muhit zararlanadi. Biz nafas olib turgan atmosferada zararli gazlar ko'payib, inson salomatligiga zarar yetkazadi. Ana shu zararning oldini olish uchun xazonlarni uyimizdagi xonaki uy hayvonlariga yemish sifatida yig'ishtirib berish kerak. Shundagina tabiatni muhofaza qilishga hissa qo'shgan va yangi daraxt nihollarining unib o'sishiga yordam bergan bo'lamiz.

Boshlovchi: Endi, navbatni yosh duradgorlarga beramiz, marhamat!

1-duradgor. Duradgorlik kasbi juda qadimiy kasblardan biriga hisoblanadi. Odamlarning paydo bo'lishi bilan yog'ochlarga ishlov berish boshlagan. Odamlar o'zlariga turli xil mehnat va ov qurollari yasagan, ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan buyumlarni tayyorlay boshlagan. Qaysi sohani olmay, duradgorlik ishlari mavjud. Shuning uchun bu kasb juda faxrli hisoblanadi.

2-duradgor. Yog'och materiallari bizning faoliyatimizda asosiy xom ashyo hisoblanadi. Tabiatdagi daraxtlarni kesib, turli xil arralardan o'tkazib, taxta va brus shaklidagi materiallar tayyorlanadi. Daraxtlar, asosan, ko'ndalang va bo'ylamasiga arralab kesiladi. Kesishda butoq, yoriq, daraxt o'zagi kabi turli xil nuqsonlar hisobga olinadi. Yog'och materiallari ikki xil xususiyatga ega: 1. Fizikaviy xususiyati – rangi, tovlanishi, zichligi, elektr, issiqlik o'tkazuvchanligi, hidi. 2. Mexanik xususiyati – mustahkamligi, yumshoqligi, qattiqligi, egiluvchanligi, singdiruvchanligi, qayishqoqligi va h.k

3- va 4-duradgor. Beshik tayyorlash jarayonida yog'ochga ishlov berish ishlarini amalga oshiradi: 1. Beshik gardishini suv ichiga solib, egish ishlarini olib boradilar. 2. Ostki taxtalarini tayyorlaydilar. 3. Gardishlar orasiga o'rnatiladigan dastani TSD-120 yog'ochga ishlov berish stanogida tayyorlanishi ko'rsatiladi. 4. Qismlar birlashtirilishi namoyish etiladi (yuqoridagi shu ishlarni amalga oshirish uchun duradgorlar oldida tayyor va yarim tayyor qismlar hamda bitgan beshik bo'ladi).

Boshlovchi: Mana, biz yuqorida yosh o'lkashunos va duradgorlarning fikrlari, ishlari bilan tanishdik. Endi, navbatni yosh tadbirkorlarga bersak. Ular o'zlarining tajribalaridan, bozorning sir-asrorlaridan so'zlab beradilar. Marhamat!

1-tadbirkor. Hozirgi davrda tadbirkorlik faoliyati har bir sohaga kirib kelmoqda. Bizning tadbirkorlik kasbi ham duradgorlik kasbi singari ommaviylashmoqda. Inson yaralibdiki, hayotning har bir kunida bir necha marta savdo-sotiq va mol ayriboshlash, iqtisod bilan bog'liq masalalarga, muammolarga duch keladi. Tadbirkorlik nima? Tadbirkorlik ishlab chiqarishni tashkil qilish, yo'lga qo'yish, mahsulot ishlab chiqarish, uni sota bilish, sotilgandan so'ng tushgan pulni joy-joyiga sarflay bilishdir. Tadbirkor bu ishlab chiqarish va tijoratning barcha zarur omillarini boylik yaratish uchun foydalanadigan odamdur. Bu ancha keng ta'rifga yaratuvchanlikning ko'pgina sohalari bilan shug'ullanuvchi odamlar to'g'ri keladi. Tadbirkorlarga qo'yiladigan talablar moddiy boyliklar yaratuvchi boshqa odamlarga qo'yiladigan talablarga qaraganda ancha kengdir. Masalan, siz duradgorsiz deylik. Siz yashik, beshik, deraza va boshqa anjomlar yasashga ustasi farang bo'lishingiz mumkin. Lekin, agar siz tadbirkorlik bilan shug'ullanishni boshlasangiz bu anjomlarning ishlab chiqarishdan tashqari:

oldi-sotti, marketing, boshqarish, hisob-kitob, moliyalashtirish, kadrlar ishi bilan shug'ullanishingizga to'g'ri keladi.

Tadbirkorlik nimadan boshlanadi? Zamonaviy sharoitda tadbirkorlikning barcha turlari avj olmoqda. Ko'pgina korxonalarining xususiy-lashtirilishi ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yirik davlat korxonalari o'rniga kichik, chaqqon, har qanday sharoitga tez moslasha oladigan xususiy korxonalar paydo bo'la boshladi.

2-tadbirkor. Duradgorlik buyumlarni tayyorlash uchun qancha xom ashyo ketishini, ularga ketgan sarf-harajatni, olinadigan foyda hisoblarini aniqlaymiz. Buyumlarga tannarx asosida sotish uchun baho belgilaymiz. Albatta, baho belgilash bozorni o'rganish, undagi talab va takliflar natijasida amalga oshiriladi. Masalan: beshik tayyorlash uchun o'lkashunoslar sanab, ko'rsatib o'tgan mahalliy tol, terak daraxtlaridan olingan yog'och materiallaridan foydalanishimiz mumkin. Yohoch materiallarini juda tejamkorlik bilan ishlatishimiz kerak. Iqtisod bilan ish yuritishimiz esa kishi halol mehnati evaziga daromad olishi va uni aql-idrok, tejamkorlik bilan zaruriy joylarga ishlatishdir. Isrof-iqtisod va tejamkorlikning aksi bo'lib, o'rinsiz, foydasiz va hayrsiz ishlarga pul va mol sarf qilishdir. "Sen agar isrof etishni tashlading, ul zamon davlat etagini ushlading", – deb bejiz aytilmagan.

3-tadbirkor (savdo rastasi oldida turib sotuvchilik kasbi haqida gapirib beradi). Savdo sohasida to'g'rilik va halollik bilan ish ko'rish talab qilinadi. Savdoda sotuvchiga xos shirinso'zlik, xushmuomalalik, hozir javoblik, istarasi issiqlik, so'zamollik kabi umuminsoniy xislatlar mujassam bo'lishi kerak.

Boshlovchi: Mana, hurmatli anjuman qatnashchilari, yuqoridagi kasb egalaringning fikr-mulohazalari va tajribalari bilan tanishdik. Yog'ochlarni ishlashda nimalarga e'tibor berish, ularni qanday tejab ishlatish kerakligini bilib oldik. Yuqoridagi uchala kasb ham bir-biriga juda bog'liq ekan. O'lkashunos duradgorsiz, duradgor tadbirkorsiz o'z faoliyatini yurita olmasligining guvohi bo'ldik.

Shu tarzda darsda aytilgan fikrlar umumlashtiriladi. Kasblarning ajralmas uzviy aloqadorligi ularning faoliyati misolida ko'rsatib beriladi. Mehnat ta'limiga oid mashg'ulotlardan konferensiya tarzidagi darsni tashkil etish va o'tkazish jarayonida quyidagi pedagogik vazifalarni hal etish mumkin:

O'quvchilarning "Texnologiya" faniga oid nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash.

Kasblar xususiyatini fikrlay bilishga o'rgatish orqali ularni turli kasblarni to'g'ri tanlashga yo'naltirish.

Predmetlararo aloqalarni uzviy bog'lash.

Unumli mehnat qilib, yuqori samaradorlikka erishishga o'rgatish.

Ekologik, iqtisodiy tarbiya berish.

Mulohaza yuritish, fikrlash, xulosa chiqara olish malakalarini hosil qilishga o'rgatish.

Qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish ko'nikmasini hosil qilish.

O'quvchilarda bilish imkoniyatlarining cheksizligiga, o'z qobiliyatlariga ishonch hosil qildirish.

Anjuman darsi jarayonida o'quvchilar faol ishtirok etdilar. Yuqoridagi dars jarayonida ishtirok etgan uch guruh o'quvchilari bir-birlari bilan fikr almashishlari natijasida kasb-hunarga qiziqishlari ortadi. O'quvchilar konferensiya darsida o'zlari yoqtirgan kasb kishilari qiyofasiga va holatiga kirib, ziyraklik, chaqqonlik, hozirjavoblik, bardoshlilik, tadbirkorlik vaziyatlari va ishbilarmonlik xislatini namoish qiladilar. Bunday darslar o'quvchida kichik-kichik hajmdagi ilmiy ishlar qilish uchun bosilgan dastlabki qadamlar ham bo'lishi mumkin. Bunday konferensiya darslari boshqa sinflarda o'tkazilsa ham o'zining ijobiy natijalari.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalariga quyidagi texnologiyalarni kiritish mumkin: muammoli ta'lim, modul ta'limi, dasturiy ta'lim, rivojlantiruvchi ta'lim, o'yin texnologiyalari, interfaol ta'lim, hamkorlik ta'limi, tabaqalashtirilgan ta'lim,

kompyuter ta'limi, masofaviy ta'lim, individual ta'lim, innovation ta'lim. Quyida bu ta'lim texnologiyalarini qisqacha tavsiflaymiz.

1. Muammoli ta'limda muammoli vaziyatlarni hal qilish metodi faol qo'llaniladi. Muammoli vaziyatlarni hal qilishda bahs-munozaralardan foydalaniladi. Bunda, ayniqsa, kichik guruhlarda ishlash samarali kechadi. Mazkur metodni qo'llash orqali o'quvchi, talabalar ma'lum muammoni hal qilishda bir necha yechimlarini topish, ularning amaliy qiymatini baholash, ilgari surilgan muqobil yechimlar orasidan eng maqbulini tanlash malakalarini o'zlashtiradilar

2. Modul ta'limi (lotinchadan "modulus" – kichik o'lcham, ya'ni umumiy o'quv materialining alohida yoki fikran ajratilgan tarkibiy qismi) dan o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishlarini yo'lga qo'yish, ularni ma'lum o'quv materialari bilan ta'minlash, ularning ta'limiy faoliyati yuzasidan monitoringni tashkil etishda foydalaniladi. Uni qo'llashda beriladigan yaxlit o'quv materiallari blok (alohida ajratilgan qism)larda 1-blok, 2-blok va hokazo tarzida taqdim etiladi

3. Dasturiy ta'limning o'ziga xos jihati o'qitishning o'quvchilar ehtiyoji, qiziqishi, bilimi, dunyoqarashi hamda o'quv fanining imkoniyati, o'quvchilar tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirish-da duch kelinayotgan muammolarni inobatga olgan holda tashkil etilishi bilan belgilanadi. Uzlüksiz ta'lim jarayonida dasturiy ta'limni qo'llashda pedagoglar tomonidan mualliflik dasturlarining ishlab chiqilishi ahamiyatlidir. Ular mashg'ulotlarning rang-barang bo'lishini ta'minlaydi, ta'lim muassasasining imkoniyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi.

4. Rivojlantiruvchi ta'lim o'quvchilarning ichki imkoniyatlarini oshirish va ularni ro'yobga chiqarishga yo'naltiriladi. Ushbu ta'limda ko'proq treninglar va taqdimotlardan foydalaniladi. Treninglar o'quvchilarda muayyan bilimlarni puxta o'zlashtirish, ularni amaliyotda samarali qo'llay olishga doir ko'nikma-malakalarni shakllantirishga, bu jarayonda ularning mavjud imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Mazkur metod ta'lim oluvchilarda o'quv faoliyatini tashkil etishga ijodiy yondashish, o'z ustida ishlash, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini ham rivojlantirishga yordam beradi

5. O'yin texnologiyalari ta'lim amaliyotida rolli va ishbilarmonlik o'yinlaridan foydalanishni anglatadi. Ular o'quvchilarni muayyan jarayonga tayyorlash, ma'lum hayotiy voqeelik, hodisalar jarayonida bevosita ishtirok etish uchun ko'nikma-malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayoni ishtirokchilari sifatida turli rollarni bajarish o'quvchilarga ma'lum bir faoliyatning mazmuni bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratish orqali mazkur faoliyatni samarali tashkil etishga ham nazariy, ham amaliy, eng muhimi, ruhiy jihatdan tayyorlanishga yordam beradi.

6. Interfaol ta'lim (lot. "inter" – o'zaro) bugungi kunda keng omma-lashgan ta'lim turlaridan biri sanaladi. Mazkur ta'lim turi o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs-munozalar, o'zaro fikr almashish asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv material-larini o'zlashtirishda o'quvchilarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, o'qituvchi va o'quvchining bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari, qo'llashlari, ruhiy birlikka erishishlarini ta'minlashda katta ahamiyatga egadir.

7. Hamkorlik ta'limi pedagog va o'quvchilarning ta'limiy faoliyati jarayonida birgalikda rivojlanishi, bir-birlarini tushuna olishlari, bir-birlariga nisbatan yaqinlikni his qilishlari, faoliyat bosqichlari va ularda erishilgan natijalarni hamkorlikda tahlil qilishdan iborat bo'lib, ilg'or, rivojlantiruvchi g'oyalarni o'zida aks ettirishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Hamkorlik ta'limining asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini birgalikda bajarish hamda birgalikda ta'lim olishni nazarda tutadi

8. Tabaqalashtirilgan ta'limdan uzluksiz ta'lim tizimida samarali foydalanish o'quvchilarning shaxsiy layoqatlari, qiziqishlari, qobiliyat-larini aniqlash asosida ularga turli o'zlashtirish darajalari bo'yicha, biroq davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi

talablaridan kam bo'lgan hajmdagi materiallarning berilishini anglatadi

9. Masofaviy ta'lim (lot. "distantia" – masofadan foydalanish) o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri masofadan o'qitish imkonini yaratadigan zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'lib, unga ko'ra, ta'lim jarayoni yangi axborot texnologiyalari, multimedia tizimi yordamida tashkil etiladi. Bu ta'lim turi o'quv fanlari bo'yicha o'zlashtirish samaradorligini ta'minlash; idrok etish qobiliyatini rivojlantirish kabi imkoniyatlariga ega. Kompyuter ta'limi masofaviy ta'limning o'ziga xos turi sanaladi

10. Individual ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra, shaxs tomonidan uning uchun qulay bo'lgan vaqt, makon va ma'lum muddatda muayyan dastur asosida bilim olishni ta'minlaydi. Ushbu ta'lim vaqtdan to'g'ri foydalanish, ortiqcha kuch va mablag' sarflamaslik, maqbul dastur, vaqt va makonni tanlash imkoniyatini yaratadi. Uning keng ommalashgan shakli repetitorlik ta'limidir.

Repetitorlik ta'limi (lot. "repetitor" – orqaga qaytarishni talab qiluvchi; takrorlovchi) – bu ta'limda o'quvchiga ma'lum bir o'quv fani yoki kursi bo'yicha chuqur bilim berish maqsadida tashkil etiladigan pulli qo'shimcha ta'lim turi sanaladi.

11. Mustaqil ta'lim olingan bilim, ko'nikma, malakalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materialni mustaqil o'rganish maqsadida tashkil etiladi. Mustaqil ta'limning afzalligi o'quvchilar bilimlarni o'zlari uchun qulay bo'lgan sharoit va vaqtda o'zlashtira oladilar. Bugungi kunda mustaqil ta'lim olish uchun keng imkoniyatlar mavjud. O'quvchi mavjud nashr ishlari (o'quv, ilmiy, ilmiy-ommabop va ommabop asarlar), Internet, ommaviy axborot vositalari tomonidan taqdim etilayotgan materiallar yordamida o'z bilim, ko'nikma-malakalarini mustahkamlash imkoniyatiga ega.

12. Innovatsion ta'lim (ing. "innovation" – yangilik kiritish, ixtiro) o'quvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zgaralar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalarni qabul qilishga oid sifat, malakalarni shakllantirish imkoniyatini beradi. Mazkur tushuncha 1979-yilda Rim klubida "Ta'lim olishning chegarasi yo'q" ("Net predelov obucheniyu") mavzusidagi ma'ruzada tilga olingan. Uzluksiz ta'limda innovatsion ta'limdan foydalanish o'quvchilarni ta'lim sohalarida yangiliklarni yaratish, ilg'or g'oyalarni asoslash, amaliyotga samarali tatbiq etishga tayyorlaydi.

Innovatsion faoliyatni tashkil etish, uni shakllantirish bosqichlari quydagicha belgilanadi: 1-bosqich – tayyor metodik tavsiyalar aniq qilib ko'chiriladi, qo'llaniladi; 2-bosqich – mavjud bo'lgan tizimga ayrim yangi moslama (modifikatsiya)lar, metodlarni kiritish; 3-bosqich – yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari va shakli to'la ishlab chiqiladi; 4-bosqich – o'qituvchi o'qitish va yangicha tarbiyalashning o'z konsepsiyasini va metodikasini ishlab chiqadi.

Xulosa qilib aytganimizda, maktab texnologiya ta'limida o'zbek milliy hunarmandchiligi elementlaridan foydalanib o'quvchilarni mehnatga va kasb tanlashga yo'llashda innovatsion faoliyatda ish olib borishini yo'lga qo'ysak:

- ularni yangilikka intiluvchanligi ortadi;
- yangiliklarni izlab topish va ularni ta'limda qo'llash ko'nikmalari shakllanadi;
- uzluksiz o'z ustida ishlash zarurati yuzaga keladi;
- ta'lim jarayonini ilg'or innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol muhitda tashkil etadi;

- o'quvchilarni o'quv jarayonining harakatlantiruvchi kuchiga aylantiradi. Bu esa ta'limdagi sifat va samaradorlikni ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. // Xalq so'zi, 2017-yil, 16-iyun.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini jnada rivojlantirish bo'yisha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // Xalq so'zi, 2017-yil, 8-fevral. № 28.

3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlari. –T.: "Sharq", 1997.
4. Karimov I.I. Mehnat ta'limida o'quvchilar ijodkorlik faoliyatini tashkil etishning uyg'unlashgan texnologiyalari: Monografiya.- T.: "Adabiyot uchqunlari", 2015. – 92 b.
5. Muslimov N.A. va b. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi va kasb tanlashga yo'llash: Darslik. –T.: "Sharq", 2014.- 73 b.
6. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi: "Nasaf", 2000.
7. Sharipov Sh.S. va b. Mehnat ta'limi: Darslik, 5-s. –T.: "Sharq", 2015.
8. Sharipov Sh.S. va b. Texnologiya: Darslik, 6-s. –T.: "Sharq", 2017.-57 b.
9. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitishning samaradorligini oshirish yo'llari. –T.: "Gold print nashr", 2019. – 72 b.
10. Shomirzayev M.X. O'zbek milliy hunarmandchiligining shakllanish genezisi va rivojlanish texnologiyasi.- T.: "Yangi nashr", 2019. – 52 b.
11. Shomirzayev M.X. O'zbek milliy hunarmandchiligida innovatsion jarayonlar. - T.: "Yangi nashr", 2019. – 88 b.
12. Shomirzayev M.X. O'zbek milliy hunarmandchiligining spektral-variativ komponentlari.- T.: "Yangi nashr", 2019. – 27 b.
13. Shomirzayev M.X., Karimov I.I. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar.- T.: "Universitet", 2020. – 192 b.



TEKNOLOGIYA TA'LIMIDA TARBIYA JARAYONINI TEKNOLOGIYALASHTIRISH

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.67.13.031>

Shomirzaev Maxmatmurod Xuramovich,

*Termiz davlat universiteti texnologik ta'lim kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari
doktori (DSc)*

Annotatsiya: Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Texnologiya" fani darslarini tashkil etish samaradorligini oshirishda tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish orqali o'quvchilarni kasbkorlikka yo'llashning mazmun-mohiyati yoritilgan.

Tayanch so'zlar: maktab, sinf, guruh, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, pedagogika, tarbiya, ta'lim, usul, jarayon, texnologiyalashtirish, rejalashtirish, kasb, samaradorlik, vatanparvarlik, milliy g'urur.

ТЕХНОЛОГИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Шомирзаев Максатмурод Хурамович,

*Доцент кафедры технологического образования Термезского
государственного университета, доктор педагогических наук*

Аннотация: В статье раскрывается важность направления учащихся на профессию через технологизацию учебного процесса с целью повышения эффективности организации «Технологических» уроков в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: школа, класс, группа, воспитатель, ученик, педагогика, воспитание, образование, метод, процесс, технология, планирование, профессия, работоспособность, патриотизм, национальная гордость.

TECHNOLOGY OF EDUCATIONAL PROCESS IN TECHNOLOGICAL EDUCATION

Shomirzaev Maxmatmurod Xuramovich,

*Associate Professor of Technological Education, Termez State University, Doctor
of Pedagogical Sciences (DSc)*

Abstract: The article describes the importance of sending students to the profession through the technologicalization of the educational process in order to increase the effectiveness of the organization of «Technology» lessons in secondary schools.

Keywords: school, class, group, educator, pupil, pedagogy, upbringing, education, method, process, technology, planning, profession, efficiency, patriotism, national pride.

“Texnologiya” fani darslarini tashkil etish samaradorligini oshirish, o'qituvchi kadrlar tayyorlash masalalari atroficha o'rganilgan, foydali maslahatlar, uslubiy tavsiyalar berilgan. Biz mana shunday tavsiyalardan foydalangan holda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan “Texnologiya” fani mashg'ulotlarini rejalashtirish va o'tkazishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalarini talqin qilib ko'rmoqchimiz. Chunki umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan “Texnologiya” fani mashg'ulotlarining samarali bo'lishi eng avvalo shu fan o'qituvchilarning mashg'ulotlarga qay darajada tayyorgarlik ko'rishiga, mashg'ulotlarni o'tkazishni qanday rejalashtirishiga va, nihoyat, amalga oshirishiga bevosita bog'liqdir. Binobarin mashg'ulotlarni qanday rejalashtirish va o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish mashg'ulot samaradorligini oshirishga qaratilgan dastlabki va eng muhim omildir. Bunda, albatta, mashg'ulotlarda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish

o'quvchilarning faolligini va darslarning samardorligini oshirishda alohida ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz[7].

Hozirgi zamon "Pedagogika" fani o'qituvchi zimmasiga inson, uning jamiyatdagi o'rnini va roliga har tomonlama qarash vazifasini yuklaydi. Tarbiyaning maqsadi – yoshlarni komil inson qilish, ularni vatanparvarlik va milliy g'urur ruhida tarbiyalash, ularga insonparvarlik g'oyalarini singdirish, lekin, hammamizga ma'lumki, shaxs salohiyatini rivojlan-tirishning cheksizligi, etnogenezi haqidagi g'oyalar ijtimoiy g'oyaga muddat bilan kirib kelmoqda va bolalar tabiatini tushunishini ancha kengaytiradi va boyitadi. Shuning uchun maktab ishida pedagogning tarbiyaviy faoliyatida yangicha yondashuvlarga sabab bo'ladi va ularning ma'no-mazmuni yangi insonni tarbiyalashda namoyon bo'lmoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Agar farzandlarimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada ularning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ularni ilm-u hunarga o'rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo'yishimiz hech gap emas".

Hozirgi vaqtda tarbiya tajriba va baholovchi mulohazalarning katta avlodlarning kichik avlodga bir tomonlama o'tishi tarzida emas, balki kattalar va bolalarning birgalikda hayot kechirish sohasidagi o'zaro yordami va hamkorligi tarzida tushunilishi va qabul qilinishi lozim.

Tarbiyachining faoliyati – komil inson tarbiyasi yo'lidagi mashaqqatli va fidoyi mehnatdir, bu mehnat chuqur insonparvarlik mohiyatiga ega bo'lib, uni faqat o'z kasbining jonkuyariga ishonib topshirish mumkin. Yosh avlodning ijtimoiy va ma'naviy qurshovi doimo o'zgarib boradi. Ishlab chiqarish, biznes olamida, ijtimoiy hayotda, o'zaro aloqa munosabatlarida o'z o'rnini topa bilish, o'z-o'zini anglash va takomillashtirishni talab etadi. Erkin, komil shaxsni shakllantirish muammosi ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni pedagogik texnologiya relsiga o'tkazishni taqozo etadi. Bu jarayon oson kechmaydi, chunki butun ixtiyoriy ko'rilayotgan va joriy etilayotgan tarbiya tizimini qat'iyon ilmiy asoslangan pedagogik tizimga aylantirish kerak. Aslida ham, ijtimoiy tajriba elementlari (bilim, ko'nikma, ijodiy faoliyat va b.) obyektiv borliqqa munosabatlar – pedagogik jarayon mahsulidir va ma'lum pedagogik tizim doirasida shakllantiriladi. Pedagogik texnologiya esa amaliyotga joriy etilayotgan pedagogik tizim loyihasidir.

Hozirgi kunda tarbiyadagi YAPTning mohiyati va mazmuni nima-dan iborat? Bu, eng avvalo, ta'lim-tarbiya mazmunini milliyashtirishda ko'riyadi. Bunda biz hozirgi yosh avlod ta'lim-tarbiyasi mazmunini o'tmish avlodlarimiz yaratgan va jahon fani rivojiga asos bo'lgan bilimlar, boy tariximiz, madaniyatimiz manbalari bilan tanishtirishni, hozirgi zamon fani yutuqlari bilan omuxta qila olishimizda ko'rishimiz kerak. Ta'lim-tarbiyada xalq milliy ruhi, o'tmish tarixini unutish – milliy g'urur, mustaqillik mafkurasini shakllantirishga putur yetkazadi. Shu bilan birga, jahon sivilizatsiyasi, fani taraqqiyotidan bexabar bo'lish, faqat milliylikka e'tibor qaratish ham mustaqil Respublikamiz taraqqiyotiga ziyon keltiradi. Shuning uchun birdan-bir to'g'ri yo'l o'tmish bilan hozirgi zamon fani, texnikasi, texnologiyasi yutuqlaridan yosh avlodni tarbiyalashda o'rinli foydalanishdir[8].

Hozirgi paytda pedagogika fanida tarbiyaviy ishlar jarayonini tashkil etadigan ikki asos bor:

Shaxsning o'z-o'zini ro'yobga chiqarishi, o'z-o'zini namoyon qilish jihati.

Uning ijtimoiylashuvi, me'yorda faoliyat kechirishini ta'minlash jihati.

Ular bir-birini boyitib o'zaro ta'sirga kirib, shaxsning ijtimoiy salohiyatini eng ko'p darajada ochib berishga ko'maklashuvi lozim. Faqat bitta narsani pedagog hisobga olishi kerak: maktab o'quvchilari o'z-o'zini ro'yobga chiqarishga mustaqil darajada hali tayyor emas, chunki ularning yosh xususiyatlari bunga imkon bermaydi. Shuning uchun tarbiya ishlarida pedagog o'z o'quvchilarining oilasi va hamkasblari bilan hamkorlikda tarbiyaviy maqsadni amalda qo'llashi shart. Bunda o'qituvchi ta'lim bilan bir qatorda,

tarbiyani ham uzviy bog‘lab olib borishi kerak. Pedagogning muhim vazifasi – faqat tarbiya jarayonining mazmunini yangi ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashtirishigina emas, balki tarbiyaning yangi shakllari, vositalari va usullarini, qisqa aytib, yangi tarbiyaviy pedagogik texnologiyalarni izlash, har bir muayyan holatda ularni birga qo‘shib olib borishdan iborat.

“Tarbiyachi tarbiyalanuvchi” pedagogik tizimi natijalar samaradorligini baholash mezonlari faqat tarbiyachi ish rejasini mavjudligi, hujjatlarning to‘g‘ri yuritilishi, bolalar faoliyatining tashkil etilishidan iborat emas, balki, sinf, jamoada har bitta bolaning o‘zini tutishi, kirishimligi, o‘ziga mos mashg‘ulot tanlab olishi, qobiliyati, hissiy sog‘lomligi, hayotsevarligi, do‘stlariga hayri xohligi, kamtarinligi, pedagoglarning bolalarga munosabatidan qoniqishi kabi masalalar ham kiradi. Oxirgi paytlarda bular qatoriga pedagogning ilg‘or texnologiyalar bilan ta‘minlanishi qo‘shildi, chunki texnologiyaning kasbdagi ahamiyati, shubhasiz, kattadir.

Tarbiya ishlarida qo‘llaniladigan ayrim pedagogik texnologiyalar tavsifi. Pedagogika fani darslarida siz tarbiyaviy ishlarda qo‘llaniladigan usul va vosita, shakl haqida hamda ularning turlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga ega bo‘ldingiz. Endi, o‘ tarbiyaviy ishlar tizimida pedagogik texnologiya elementlarining tutgan o‘rnini aniqlashga harakat qilamiz.

Tarbiyaviy ishlardagi pedagogik texnologiyaning asosiy element (komponent)lari quyidagicha bo‘ladi: tarbiya usullari va uslublari; tarbiya vositalari; tarbiyaviy ishlarni tashkil etish shakllari; o‘quvchilarning uyushmalari. Bularni maktab tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar sifatida quyidagi guruhlariga bo‘lish mumkin4:

Bolalarda ijtimoiy ongini shakllantiruvchi texnologiyalar (pedagogik ta‘sir etish, suhbat va hikoya o‘tkazish, namuna ko‘rsatish).

Bolalar faoliyati jarayonida ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirish texnologiyalari (mashq orqali o‘rgatish, o‘yinlarni tashkil qilish, talab qilish, topshiriq berish, musobaqalardan foydalanish).

Bolalarni o‘z-o‘zini boshqarishga o‘rgatish texnologiyalari (o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘ziga xizmat va b.).

Bolalarni tarbiyalashda rag‘batlantirish va jazolash usullaridan foydalanish texnologiyalari (rag‘batlantirish va jazolashning shakllari, shart-sharoitlari va ularning xususiyatlari).

O‘quvchilar jamoasini tuzish va shaxsni jamoa yordamida tarbiyalash texnologiyasi.

Bolalarni o‘rganish (pedagogik diagnostika) texnologiyalari.

Bolalar bilan individual ishlash texnologiyalari (o‘zlashtirilmayotgan bolalar, tarbiyasi og‘ir bolalar, iqtidorli bolalar bilan ishlash, shaxsiy yordam berish va h).

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, tahlil qilish va baholash texnologiyalari (rejalashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish, baholash, korreksiya qilish).

Yuqoridagilarning barchasi umumiy tarzda pedagogika fanidagi darslarida nazariy jihatdan o‘rganiladi. Galdagi vazifa ana shu nazariy ma‘lumotlarni amlda qo‘llashni o‘rganishdan iboratdir

Tarbiya jarayonida hamkorlik pedagogikasi tamoyillarini qo‘llash texnologiyalari. Hamkorlik pedagogikasining mohiyati – tarbiya jarayonining samarali natijalariga erishish maqsadida oilaviy va ijtimoiy tarbiyani birlashtirish, pedagog va ota-onalarning tarbiyaviy ta‘sirini kuchaytirish hamda o‘quvchilarni o‘qituvchining yordamchilariga aylantirishdan iborat. Shuni hisobga olgan holda tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar hamkorlik pedagogikasi mohiyatiga mos bo‘lishi kerak. Chunki ular yordamida pedagog o‘z o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga, mustaqil hayotga tayyorlashga majbur. Quyida ayrim pedagogik texnologiyalarni, innovatsion metodlarni tarbiya ishlari jarayoniga moslashtirish va foydalanish bo‘yicha tavsifalar beramiz.

Aqliy hujum – bu usul sinf hayoti va ijtimoiy faoliyatga bog‘liq muammolarni hal qilish bo‘yicha g‘oya va fikrlarni bildirish usulidir. Masalan, sinfdagi “Kamolot” uyushmasi bo‘limlari bo‘yicha reja tuzish, ba‘zi tantanali ommaviy tadbirlarni

tayyorlash va boshqa shu kabi ommaviy muammoli ishlarda mazkur usul juda o‘rinli va samaralidir. Masalan o‘quvchilarga “Sog‘lom inson” deganda nimani tushunasiz, deb savolni bersak, ulardan turli xil javob olishimiz mumkin: Yuqori sinflarda yoki talabalar guruhida esa murakkabroq muammo qo‘yish mumkin: “Vatan nimadan boshlanadi?” va h.k.

Tarbiyaviy ishlarda aqliy hujum usuli bilan bir qatorda, munozara, davra suhbatlari va yozma bahslar kabi usullarni ham keng miqyosda qo‘llash mumkin. Bunday usullar yordamida o‘quvchilar o‘rtasida quyidagiga o‘xshash muammolarni muhokama etish mumkin:

- yoshlarning huquq va burchlari;
- o‘quvchi yoshlarning prezidentimizga, davlat ramzlariga muno-sabati qanday bo‘lmog‘i lozim?;
- milliy istiqlol g‘oyasi va yoshlar;
- davlat va boshqa tillarga munosabat;
- majburiy yoki muqobil xizmat nima?
- diniy oqimlar va terrorchilarning buzg‘unchilik ishlari;
- zamonaviy yigit va qizlar nima bilan faxrlanadi? va h.

Tarbiyaviy ishlar jarayonini yanada takomillashtirish maqsadida sinf jamoasini kichik guruhlariga bo‘lish ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur usul yordamida pedagog o‘z o‘quvchilarining qiziqish va ehtiyojlari o‘rganishga, imkoniyat va qobiliyatlarini aniqlashga hamda rivojlantirishga imkon topishi mumkin. Masalan: sinf (guruh) rahbari o‘quvchilarni tarbiyalashda tabaqalashtirish qoidasiga asoslangan holda ularni 5-6 kishidan iborat bo‘lgan 3-5 ta kichik guruhlariga ajratadi va ular zimmasiga sinfdagi ijtimoiy hayotning bir aniq soha (o‘qish, sport, mehnat, dam olish, badiiy bezatish va b.) bo‘yicha mas’uliyatni yuklaydi. Har qaysi kichik guruhning nomi, shiori, emblemasi bo‘lishi kerak. Bunday kichik guruhning pasporti (vizitkasi) quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Guruh nomi, shiori, emblemasini tanlashda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlarini hisobga olish zarur.

Kichik maktab yoshidagi bolalarga “Kamalak”, “Boychechak”, “G‘uncha” nomlari mos keladi. Katta o‘quvchilarga va talabalarga esa guruh nomlari murakkabroq bo‘lishi kerak. Masalan ularga “Ziyo”, “Zukko”, “Tinchlik”, “Istiqlol”, “Istiqbol”, “Uchqun” kabi nomlari mos keladi. Kichik guruh sarkorlarni har chorak yoki yarim yilda o‘zgartirish mumkin. Bu har qaysi o‘quvchiga ham rahbar, ham bo‘ysunuvchi sifatida bo‘lishiga imkon yaratadi.

Maktab, litsey, kollej o‘quvchilarini ma’naviy-ma’rifiy jihatdan to‘g‘ri tarbiyalash masalalari o‘qituvchidan O‘zbekiston Respublikasi davlat ramzlaridan keng va samarali foydalanishni talab qiladi. Shuning uchun, bolaligidan boshlab o‘quvchilarda Prezidentimiz, madhiyamiz, bayrog‘imiz, gerbimiz, davlatimiz siyosatiga, diniy oqimlarga to‘g‘ri munosabatini shakllantirish jarayonida o‘qituvchi maxsus tayyorlangan ko‘rgazmalar, tayanch sxemalar, slaydlar, kino-videofilmlar kabi materiallardan unumli foydalanishi shart.

Tarbiya jarayonida o‘qituvchilar o‘quvchilarni o‘rganishda an’anviy usul-vositalardan foydalanmoqda; bular: kuzatib borish, suhbat o‘tkazish, ota-onasi oldiga borish va h. Bundan tashqari, tarbiya jarayonida pedagog turli xil anketa va test yordamida maktab psixologi hamkorligida o‘z sinfdagi o‘quvchilarni o‘rganadi. Jumladan, zamonaviy ta’lim-tarbiya o‘qituvchidan diagnostik anketa va testlardan foydalanishni talab etmoqda. Bunday anketa yoki test orqali o‘qituvchi har qaysi o‘quvchining o‘qishga, mehnatga, odamlarga, o‘ziga munosabatini hamda uning shaxsiy sifatlarini o‘rganishga imkon topadi. Masalan, o‘qituvchi o‘z sinfida faollarni va liderlarni ajratish, sinfda shaxslararo munosabatlarni va kichik guruh mavjudligini aniqlashda sotsiometriya yoki “O‘z jamoangizni bilasizmi?” anketasidan foydalanishi mumkin⁶. Agar o‘qituvchi ota-onalarning o‘z bolalari haqida bilish darajasini aniqlamoqchi bo‘lsa, unda u “O‘z

farzandingizni bilasizmi?” S.T.Shatskiyning kompleksli anketasidan foydalanishiga to‘g‘ri keladi.

Yuqorida aytilgan usul-vositalar orqali o‘quvchilar haqida olingan ma‘lumotlarni o‘rganib, tahlil qilib va umumlashtirib sinf rahbari o‘ziga yordamchilarni ajratadi, iqtidorli va tarbiyasi og‘ir bolalarni aniqlaydi hamda sinf jamoasi bilan keyingi ishlarni rejalashtiradi. Bu usul-vositalar o‘qituvchilar tajribasida keng tarqalgan, lekin ular ancha uzoq vaqtni oladi. Ayrim vaziyatlarda o‘qituvchiga qisqa vaqt davomida o‘quvchilar haqida ba‘zi ma‘lumotlarni bilish zarur bo‘lib qoladi. Bunday hollarda quyidagi interfaol usullardan foydalanishni tavsiya etamiz.

Muz yorish usuli odamlarning o‘zaro munosabatlarini yaxshilash, ularni bir-biri bilan yaqinroq tanishtirish usulidir. Tarbiya jarayonida turli xil muz yorishlar mavjud: 1) odamlarning kayfiyatini ko‘tarish, ularni notanish sharoitda tinchitish; 2) yangi jamoani tashkil etishda odamlarni o‘zaro tanishtirish (misol uchun, o‘qituvchini yangi sinf o‘quvchilari bilan), shaxslararo munosabatlarni yaratish; 3) dam olish daqiqasi sifatida o‘tkazish. Muz yorishning turi “quvnoq daqiqa” deb nomlangan usulidan, odatda dars paytida o‘quvchilar charchagan vaqtda foydalaniladi. Bundan tashqari, muz yorishning boshqa turlarini ham qo‘llash mumkin. Bir necha misol keltiramiz.

Taqdim etish o‘qituvchi o‘quvchilardan o‘zlarini tanishtirishni va o‘zlari haqida ma‘lumot berishlarini so‘rab, ularni doira shaklida o‘tirg‘izib, suhbat uyushtiradi. O‘quvchilar ketma-ket navbat bilan quyidagi masalalar bo‘yicha axborot berishadi: ismi va familiyasi, turar joyi; ota-onalarning ishlash joylari;

ijtimoiy tajribasi (qanday topshiriqlarni bajargan edi); kelajakda kim bo‘lmoqchi va h. Bu usulga kam vaqt ketadi (bir kishiga 2-3 daqiqa), biroq 30 va undan ko‘p o‘quvchilar bo‘lgan sinflarda uni qo‘llab bo‘lmaydi.

Intervyu – notanish o‘quvchilardan juftlar tanlab, ularga bir-biri bilan tanishishi uchun 5-7 daqiqa muddat beriladi. Keyin ularning har biridan o‘z sherigini butun sinf jamoasiga shu kishi haqidagi o‘qituvchi tanlangan bitta qiziq dalilni qo‘shgan holda tanishtiradi. Bu usul har bir o‘quvchini jamoaga tanishtirishga imkon beradi. Bu usul o‘quvchilarga qat‘iyatlik baxsh etadi. Oldingi usulga nisbatan bu usul ko‘proq vaqt oladi, biroq uni 25 kishidan ortiq sinflarda qo‘llab bo‘lmaydi.

Jadvallar usuli. Hamkorlik qilgan sinf jamoalar uchun hamda o‘quvchilar haqida qo‘shimcha axborot olishda qo‘llash mumkin. Bu usulni qo‘llash uchun o‘qituvchi har bir o‘quvchiga qog‘oz varag‘ini berib, uni to‘rt qismga ajratib, har biriga quyidagi axborotni yozishni iltimos qiladi:

- yuqori chap burchakda o‘zini bitta so‘z bilan ifodalash;
- yuqori o‘ng burchakda o‘zi faxrlanadigan narsani yozish;
- pastki chap burchakda o‘zi to‘g‘risidagi birorta sirni oshkor qilish (bu birorta jiddiy sir bo‘lishi shart emas, u atrofdagilardan birortasi bilmaydigan sir bo‘lishi kerak);
- pastki o‘ng burchakda o‘zi yaxshi ko‘radigan mashg‘uloti (xobbi)ni yozish.

O‘qituvchi ham o‘z jadvalini qatnashchilari bilan bir vaqtda, to‘ldi-radi. Sinf o‘quvchilari o‘z ishlarini yakunlaganlaridan so‘ng, ulardan jadvallarini ko‘rinadigan qilib ushlagan (yoki devorga osib qo‘yilgan) holda bir-birlari bilan tanishadilar. Bu usul ko‘p vaqt olmaydi, lekin uni yordamida o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarini chuqurroq o‘rganishga imkon topadi (ayniqsa, yangi sinf bo‘lsa).

Bunday usullarni qo‘llash jarayonida sinfdagi barcha o‘quvchilarni qatnashishi shart. Bu usullarni qo‘llashda o‘quvchilarning yosh va bilish hamda xarakter xususiyatlarini hisobga olish, tortishuv va izlanish natijalari ularning shaxsiyatiga tegmaydigan bo‘lishi kerak.

Rolni ijro etish usuli o‘qituvchidan rolli o‘yin texnologiyasini yaxshi bilishni talab qiladi. Bu usul o‘yin qatnashchilarini faollashti-ruvchi usullar qatoriga kiradi. O‘yindan oldin o‘qituvchi (olib boruvchi) vaziyatni tushuntiradi, personajlarning tipik xatti-harakatlaridan xabardor qiladi. O‘quvchi-qatnashchilar bu ma‘lumotlardan foydalanib, belgi-langgan rollarni ixtiyoriy tarzda ijro etadilar. Shuning uchun o‘yin qatnashchilarini

ehtiyotkorlik va mohirlik bilan tanlash kerak.

Chunki rollarni noto'g'ri tanlash yoki taqsimlash ham norozilikka yoki "aktyorlarning" xafa bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin.

Rolni ijro etish usulini, masalan, quyidagi vaziyatlarda qo'llash mumkin: "Amir Temur zamonaviy maktab (litsey, kollej)da", "Siz A.Navoy asarlarining qahramonlari orasida" va b. O'yinni tayyorlashda shunday vaziyatni yaratish kerakki, unda o'ynaydigan odamni tanish mumkin bo'lsin. O'qituvchi o'yin tugagandan so'ng yakun chiqarishda qatnashchilar va kuzatuvchilar e'tiborini aktyorlar aytgan aniq gaplarga emas, balki mashq maqsadiga qaratishi kerak. Bu usul texnologiyasini bir necha kichik guruhlarda ham o'tkazish mumkin, unda kichik guruh aozolari rollarni paralell ijro etadilar va bir-birini kuzatib borib, baholaydilar. Bu usul rollarni ijro etuvchilardan qo'shimcha badiiy va maxsus adabiyotlar, arxiv materiallari hamda kino va telemateriallarni o'rganishni talab qiladi. Bu esa, o'z navbatida o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, mustaqil fikrlashga o'rgatadi, xayolini rivojlantiradi. Lekin joriy ishlarida kichik guruhlar orqali tashkil etiladigan ishlar bilan bir qatorida, individual holda ishlashni ham uyushtirish zarur. Chunki hamkorlikda doimo ishlaydigan o'quvchi yakka ishlaganda o'z-o'ziga ishonmasligi mumkin. Shuning uchun o'qituvchilarga biz yana bir necha usullardan foydalanishiga tavsiya etamiz. Bulardan biri "2 qisimli kundalik" usulidir. Uning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi talabalar diqqatiga doskada yoki maxsus ko'rgazmada bir nechta fikrlarni taklif qiladi va ulardan birini (eng yoqqanini) tanlab, izohlashni topshiradi. Mazkur usul orqali o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, dunyoviy muammolarga, ba'zi mashhur insonlarning qarashlariga o'z munosabatini bildirishga va o'z fikrlarini bayon etishga imkoniyat yaratish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. // "Xalq so'zi", 2017-yil, 16-iyun.

2. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. –T.: O'qituvchi, 2004. – 236 b.

3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi: "Nasaf", 2000.

4. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. –T.: "Fan", 2006.- 89 b.

5. Sattorova Z. va b. Texnologiya: 9-sinf uchun darslik. –T.: "O'zbekiston", 2019. – 66 b.

6. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitishning samaradorligini oshirish yo'llari. –T.: "Gold print nashr", 2019. – 32 b.

7. Shomirzayev M.X. O'zbek milliy hunarmandchiligining shakllanish genezisi va rivojlanish texnologiyasi.- T.: "Yangi nashr", 2019. – 52 b.

8. Shomirzayev M.X. O'zbek milliy hunarmandchiligida innovatsion jarayonlar. - T.: "Yangi nashr", 2019. – 88 b.

9. Shomirzayev M.X. O'zbek milliy hunarmandchiligining spektral-variativ komponentlari.- T.: "Yangi nashr", 2019. – 27 b.

10. Shomirzayev M.X., Karimov I.I. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar.- T.: "Universitet", 2020. – 172-177 b.

**SURXONDARYO VILOYATIDA O'TKAZILGAN FOLKLOR
EKSPEDITSİYALARI XUSUSIDA**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.55.36.030>*Xakimov Orifjon Boboramazonovich*
Termiz davlat universiteti stajyor o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyo madaniyati taraqqiyotiga o'zining qadimiy va boy milliy madaniyati bilan ulkan hissa qo'shib kelayotgan yurtimizda ajdodlarimiz tomonidan xilma-xil janrlardan iborat bo'lgan folklor an'analarini tadqiqotchi olimlar tomonidan ilmiy ekspeditsiyalar davomida o'rganilishi to'g'risida so'z boradi. Xususan, ushbu ekspeditsiyalarning surxon vohasida olib borilgan izlanishlariga alohida ahamiyat berilgan.

Kalit so'zlar: Ekspeditsiya, folklor, folklorshunoslik, doston, xalq og'zaki badiiy ijodiyoti.

ФОЛЬКЛОР СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ ОБ ЭКСПЕДИЦИЯХ*Хакимов Орифжон Боборамazonovich**Преподаватель-стажер Термезского государственного университета*

Аннотация. В данной статье рассказывается о том, как в нашей стране, вносящей огромный вклад в развитие мировой культуры своей древней и богатой национальной культурой, ученые-исследователи фольклорных традиций наших предков, состоящих из различных жанров, в ходе научных экспедиций. В частности, особое значение придавалось исследованиям этих экспедиций в сурханском оазисе.

Ключевые слова: Экспедиция, фольклор, фольклористика, эпос, устное народное творчество.

**FOLKLORE IN THE SURKHANDARYA REGION ABOUT
EXPEDITIONS***Xakimov Orifjon Boboramazonovich**Termez State University intern teacher*

Abstract: In this article we will talk about the study of folklore traditions consisting of different genres by our ancestors during scientific expeditions in our country, which makes a huge contribution to the development of world culture with its ancient and rich national culture. In particular, particular importance was attached to the research of these expedites in the surkhon Oasis.

Keywords: Expedition, folklore, folklore, epic, oral artistic creativity of the people.

Dunyo madaniyati taraqqiyotiga o'zining qadimiy va boy milliy madaniyati bilan ulkan hissa qo'shib kelayotgan yurtimizda ajdodlarimiz tomonidan xilma-xil janrlardan iborat bo'lgan folklor an'analari yaratilgan. Asrlar davomida ezgulikni tarannum etib kelayotgan bu tafakkur durdonalarida xalqimizning ulug'vor maqsadlarga yo'naltirilgan eng oliyjanob qarashlari o'z ifodasini topgan. Folklor asarlari ona diyorumizda yuksak madaniyatni bunyod etgan ajdodlarimizning turmush tarzi, orzu-intilishlari, urf-odat, marosim va an'analarini mukammal aks ettirganligi uchun ham qadrlidir. Shuning uchun ham xalqimiz o'z folklorini hamisha ko'z qorachig'idek asrab-ayavlab, takomillashtirib, badiiy jihatdan sayqallantirib keladi.

“Folklor” atamasini birinchi marta 1846-yilda ingliz olimi Vilyam Toms (1803-1885) qo'llagan. U aka-uka Grimmlar tomonidan yozilgan “Mifologiya” asarining ikkinchi nashri bilan tanishib chiqqandan keyin, “Ateneum” gazetasining 928-sonida “A.Merton” taxallusi bilan e'lon qildirgan “The folrklore” nomli maqolasida “folklor” (“folk”-xalq, “lore”-bilim, donishmandlik, ya'ni “folklore” – “xalq donoligi”) atamasini ishlatgan va uni “Yevropa dehqonlarining an'analari, qadimiy xalq she'riyati, urf-odat,

marosim va e'tiqodlarni anglatuvchi atama" sifatida ilk bor izohlangan.

O'zbek folklorshunosligi maktabi vakillari folklor asarlarini to'plab, arxivlashtirish va ilmiy tavsiflash borasida o'tgan asrning 20-yillaridan buyon izchil ish olib borishmoqda. O'zbek folklorini to'plash maqsadidagi ilmiy ekspeditsiyalar XX asrning o'rtalaridan to hozirgi kunga qadar muntazam ravishda o'tkazilib kelinmoqda. Ekspeditsiya qamrovi kengligini shundan ham bilsa bo'ladiki, turli yillarda H.Zarifov, M.Afzalov, B.Karimov, M.Alaviya, Z.Husainova, G'.Jahongirov, S.Qosimov, M.Murodov, T.Mirzayev, K.Imomov, B.Sarimsoqov, F.Karomatov, M.Jo'rayev, R.Abdullayev va boshqa olimlar boshchilik qilgan folklor ekspeditsiyalari mamlakatimizning barcha viloyatlarida, shuningdek qo'shni respublikalarda o'zbeklar istiqomat qiladigan hududlarda ilmiy safarlarda bo'lib, o'zbek folklorining barcha janrlariga oid materiallarni to'pladilar.

Surxon vohasida sunnat to'yi marosimida kechki payt o'yin-kulgi qilinadigan joy, maxsus tayyorlangan davra "chanki" deyilishi ham bevosita Alisher Navoiy asarlarida qayd etilgan "changi" atamasi bilan bog'liq. Sariosiyo tumanida o'tkaziladigan xatna to'yi marosimlarida qo'llaniladigan "chanki" so'zi umumo'zbek folklorida qadimdan ishlatilib kelingan atama bo'lib, qo'shiq hamda lapar aytiladigan, o'yin-kulgu qilinadigan marosim nomi sifatida ishlatilgan.

Xalq og'zaki badiiy ijodiyotini to'plash, sistemalashtirish, ommaviy va akademik nashrlarni amalga oshirish ishlari XX asrning 20-yillaridan boshlangan. Folklor asarlarini to'plash va o'rganish ishlari 1918-1920-yillarda Turkiston xalq maorifining turkiy seksiyasi, 1921-1924-yillarda esa davlat ilmiy kengashining o'zbek bilim hay'ati tomonidan amalga oshirilgan. O'zbek bilim hay'ati 1921-yilda Toshkent viloyati Bo'stonliq tumaniga, 1922-yilda Samarqand va Sirdaryo viloyatlariga, 1922-yilda Farg'ona vodiysiga uyushtirgan folklor ekspeditsiyalari samarali bo'ldi. Bu ilmiy safarlarda qatnashgan G'ozim Olim Yunusov va G'ulom Zafariy lapar, o'lan, bolalar qo'shiqlari, og'zaki drama, ertak va afsona, marosim folkloriga oid materiallarni yozib olishgan.

O'zbek bilim hay'ati tomonidan tashkil etilgan folklor-etnografik ekspeditsiyalarga boshchilik qilgan G'.O.Yunusov xalq og'zaki badiiy ijodi namunalarini to'plash va ommalashtirishning tashabbuskorlaridan biri bo'lgan. G'.O.Yunusov o'zbek eposshunosligi tarixida birinchi bo'lib 1922-yilning yozida Fozil Yo'ldosh o'g'li va Hamroqul baxshilardan "Alpomish" dostonidan parchalarni yozib olgan. G'.O.Yunusov Toshkent, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida bo'lib, ko'plab qo'shiq, ertak, afsona, maqol, topishmoq va rivoyatlarni yozib olgan. O'zbek marosim folkloriga doir kuzatishlar olib borish bilan bir qatorda boy etnografik materiallarni ham to'plagan.

Hodi Zarifov folklor asarlarini yozib olish, to'plash, nashr etish va o'rganishga ulkan hissa qo'shgan alloma, o'zbek folklorshunosligining asoschisidir. Hodi Zarifov ishtirok etgan yoki uning o'zi tomonidan uyushtirilgan har bir ekspeditsiya fanga yangi materiallar va tahliliy xulosalarni taqdim etgan. Jumladan, H.Zarifov 1929-yilda G'.Yunusov rahbarligidagi folklor ekspeditsiyasining a'zosi sifatida Qashqadaryo-Surxondaryo vohalarida bo'lib, Abdulla Nurali o'g'li, Xolyor Abdulkarim o'g'li kabi chechan baxshilar ijodiyotini o'rgangan.

Folklor sektorini 1944-yilning avgustidan 1952-yilning mart oyiga qadar taniqli folklorshunos Mansur Afzalov boshqardi. 1945-yilda Sherobodda, 1946-yilda Jizzaxga ekspeditsiyalar uyushtirildi.

Muzayyana Alaviya 1955-1983-yillar davomida Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Samarqand, Buxoro, Andijon, Farg'ona, Toshkent viloyatlarida folklor ekspeditsiyalarida bo'lib, xalq qo'shiqlari, afsona, rivoyat, ertaklarni to'plagan. Fozil Yo'ldosh o'g'li, Islom shoir, Boymurod Boymat o'g'li, Haydar Boychayev, Abdulla shoir Nurali o'g'li, Umr shoir Safarov kabi xalq baxshilaridan o'nlab termalar va dostonlarni yozib olgan. Olimaning ko'p yillik izlanishlari natijasida 1955-yilda "O'zbek xalq qo'shiqlari", 1959-yilda "Yangi qo'shiqlar", 1955-yilda "O'zbek folkloridan namunalar", 1979-yilda "Oq olma qizil olma", 1983-yilda "Xalq qo'shiqlari" kabi

to'plamlari yuzaga kelgan.

Marosim folklori namunalarini izchil to'plab, tadqiq etgan Muzayyana Alaviya 1957-yilda Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi Do'sbergan qishlog'ida yashagan Qirmiz momo hamda Ashiroy Ro'ziyevadan boqimchilik va baxshichilik amaliyotining to'liq tavsifini yozib olgan.

Xalq teatrini o'rganishni an'anaviy og'zaki dramalarni yozib olishdan boshlagan M.Qodirov 1958-yildan boshlab Hamza nomidagi San'atshunoslik institutining folklor ekspeditsiyasi tarkibida Surxondaryo, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Farg'ona, Namangan, Andijon, O'sh, Xorazm viloyatlarida bo'lib, 300 ga yaqin xalq teatri ijrochilarining ijodiy faoliyatini o'rgangan. Ellikdan oshiq professional va havaskor masxarabozlar bilan ijodiy suhbatlar o'tkazgan. Yuzga yaqin xalq dramasi, kulgi-hikoya va qiziqchilik namunalarini yozib olgan, ko'plab pantomima, xalq raqslari va tomosha san'atiga doir materiallar to'plagan.

60-yillarning oxirlaridan boshlab folkloristik ishlarning miqyoslari yanada kengaydi, ekspeditsiyalar uyushtirish sistemali yo'lga qo'yildi. Folklor ekspeditsiyalari Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Jizzax, Sirdaryo, Toshkent, Chimkent, O'sh, Chorjo'y viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida, Farg'ona vodiysi va Janubiy Tojikistonda ish olib bordi. Ekspeditsiyalar davomida ilgari ma'lum bo'lmagan xalq ijodchilari, namunalari yo'qolgan deb taxmin qilingan folklor janrlari aniqlandi, juda ko'p miqdorda xalq ijodi namunalari yozib olindi.

XX asrning 70-80-yillarida Qashqadaryo viloyatida ilmiy faoliyat olib borgan A.Qahhorov, K.Ochilov, Ch.Hamro, A.Ergashev, Surxondaryo viloyatida ilmiy faoliyat olib borgan Q.Mamashukurov o'z ilmiy faoliyatlarida o'zbek xalq dostonlarining poetikasi, variantlari va lokal xususiyatlari, dostonchilik an'alarining saqlanishi va yetakchi baxshilarning badiiy mahorati, dostonlarda turkumlilik, bolalar folklorining o'ziga xos tabiati va janrlar tarkibi, mehnat qo'shiqlarining badiiyati, mifologiya va boshqa mavzularda yirik tadqiqotlarni yaratdilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra 1999-yilda Surxondaryo viloyatining Termiz shahrida o'tkazilgan "Alpomish" dostoni yaratilganligining 1000 yilligi tantanalari doirasida jahonning yetakchi folklorshunos olimlari ishtirokida "Alpomish" dostoni va jahon xalqlari epik ijodiyoti" mavzuidagi xalqaro konferensiya bo'lib o'tganligi professor To'ra Mirzayev ilmiy tadqiqotlarining o'ziga xos sarhisobi deyish mumkin.

Folklor ekspeditsiyalarida to'plangan yangi materiallarga asoslangan To'ra Mirzayev bu dostonchilik maktablaridan tashqari Nurota, Narpay, Sherobod, Qamay, Piskent, Janubiy Tojikiston kabi dostonchilik maktablari mavjudligini aniqladi.

Mamlakatimizda keng ko'lamli ma'naviy tiklanish jarayoni bilan uzviy bog'liq holda ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratilib, badiiy sayqal berib kelingan muhtasham folklor yodgorliklarining jahonshumul ahamiyati xususida so'z yuritish, xalq ijodiyotining unutilish arafasiga kelib qolgan ko'plab janrlarini qayta tiklash, ijrochilik an'alarini rivojlantirishning misli ko'rilmagan imkoniyatlari yuzaga keldi. Natijada joylarda faoliyat olib borayotgan folklor-etnografik jamoalar soni ko'paydi. Nafaqat Surxondaryo, Qashqadaryo va Xorazm viloyatida, balki baxshichilik maktablarining jonli an'analari yo'qolib ketgan deb hisoblangan Samarqand, Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida ham baxshi-shoirilar yetishib chiqqa boshladi.

M.Jo'rayev va M.Pirmatovalarning ko'p yillik izlanishlari natijasida Surxondaryo viloyatining boy folklor materiallari yozib olindi. 2005-2007-yillarda L.Xudoyqulovanning Surxon vohasi aholisi to'y marosim folklorining lokal xususiyatlari va o'ziga xosligini ochib berishga qaratilgan izlanishlari muhim ilmiy qimmatga ega. L.Xudoyqulova Surxon vohasi aholisining bola tug'ilishi bilan aloqador irim-sirimlari, beshik to'yi, sunnat to'yi va nikoh to'yi marosim folklorini yozib oldi. 2007-yilda L.Xudoyqulova "Sarchashmadan tomgan injular. Surxon vohasi o'zbek to'y marosim qo'shiqlari" nomli folklor to'plami nashrdan chiqdi.

Surxon vohasiga uyushtirilgan yanada yirik ekspeditsiyalardan biri musiqashunos

Rustam Abdullayev tomonidan amalga oshirilgan. Rustam Abdullayev o'zining "Boysun – an'anaviy musiqa madaniyati" monografiyasida O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyatining asl etnografik mintaqalaridan biri bo'lgan Boysun musiqiy tajribasini o'rganish natijalari aks ettirilgan. Monografiyada Boysunning musiqiy madaniyati birinchi navbatda, mahalliy qo'shiq uslubi sifatida o'ziga xosligi, O'zbekistonning boshqa entomadaniy mintaqalari uslubi bilan farqi va o'xshashligi bilan baholanadi. Monografiya 2003-2004-yillarda YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi ko'magida o'tkazilgan Boysunda olib borilgan ilmiy ekspeditsiyasi davomida to'g'ridan-to'g'ri kuzatuvlar va ovoqli yozuvlar materiallariga, shuningdek, oldingi musiqiy va folklor ekspeditsiyalari materiallariga asoslangan.

Surxondaryo viloyatida, o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab olib borilgan kuzatuvlar va ovoqli yozuvlar so'nggi ekspeditsiyalar materiallari bilan taqqoslanib Boysun musiqiy folklorining o'ttiz yildan oshiq vaqt mobaynida qanday rivojlanishini aniq kuzatish imkonini beradi. Ekspeditsiya davomida Boysun tarixi, etnografiyasi va urf-odatlar (taqvim, mehnat, oila, mavsum-marosim, milliy urf-odatlar) bilan bog'liq ma'lum materiallar to'plangan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Surxon vohasi nafaqat yurtimiz, balki butun dunyo madaniyatida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, ko'plab tarixiy madaniyatlarga asos bo'lgan zamin hisoblanadi. O'tgan asr mobaynida olib borilgan bir necha folklor ekspeditsiyalari natijasida Surxon vohasining boy musiqiy folklori bir muncha o'rganilgan. Kelgusida ushbu mintaqada yana ko'plab tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.Tursunov, T.Pardayev, N.Tursunova, B.Murtazoyev "O'zbekistonda baxshichilik san'atining shakllanishi va taraqqiyoti tarixi" Toshkent. 2015.
2. M.Jo'rayev "Folklorshunoslik asoslari" Toshkent: Fan. 2009.
3. T.Mirzayev "Ustozlar, safdoshlar, izdoshlar" Toshkent: Tafakkur tomchilari, 2021.



ТЕХНОЛОГИЯ ТАЪЛИМИ ҶЎҚИТУВЧИСИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.45.87.029>

Ҳайдаров Рамазон Мамаюсупович

Термиз давлат университети Технологик таълим кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: Ушбумақолада технологик таълими ўқитувчиларини олий таълим муассасасида тайёрлаш давридан талаб қилинадиган касбий компетентлик даражасини таъминлашга қаратилган

Калит сўзлар: компетентлик, коммуникатив компетентлик, гностик, ўқув-методик, креатив, коммуникатив-ташқиллий.

ТЕХНОЛОГИЯ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Ҳайдаров Рамазон Мамаюсупович

Преподаватель кафедры технологического образования Термезского государственного университета.

Аннотация: Данная статья направлена на обеспечение уровня профессиональной компетентности, необходимого на период подготовки учителей технологического образования в высшей школе.

Ключевые слова: компетентность, коммуникативная компетентность, гностик, учебно-методический, творческий, коммуникативно-организационный.

TECHNOLOGY OF INCREASING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION

Khaidarov Ramazon Mamayusupovich

Lecturer at the Department of Technological Education, Termez State University.

Abstract: This article is aimed at ensuring the level of professional competence required for the period of training technology education teachers in higher education.

Key words: competence, communicative competence, gnostic, educational-methodical, creative, communicative-organizational.

Таълим жараёнини такомиллаштиришнинг муҳим омили олий таълим тизимида технологик таълими ўқитувчилари касбий компетентлигини юқори даражада шакллантирилиши билан узвий боғлиқ. Шу сабабли, замонавий таълим технологиялари имкониятларидан ҳамда яратилаётган ўқув услубий мажмуалардан унумли фойдаланиш негизида технологик таълими ўқитувчилари касбий компетентлигини шакллантириш жараёнининг назарий ҳамда амалий асосларини яратиш долзарб вазифалардан бири эканлигини белгилайди.

Шу муносабат билан технологик таълими ўқитувчиларини олий таълим муассасасида тайёрлаш давридан талаб қилинадиган касбий компетентлик даражасини таъминлайдиган янгича ёндашувларни илмий асослаш долзарб вазифа бўлиб келмоқда.

Мутахассисларни касбий жиҳатдан тайёрлаш борасида хорижий мамлакатларда амалда бўлган таълим мазмунини бевосита ўрганиши шуни кўрсатдики, Фарб мамлакатларида асосий ўринни мутахассиснинг компетентлик малака даражаси эгаллайди. Республикамизнинг миллий таълим тизими моҳиятига кура таълим мазмунининг минимал талаблари билим, кўникма ва малакага асосланади.

Агарда «компетент» ва «компетентлик» тушунчаларининг этимологик тахлилига назар ташласак, улар тасодифан юзага келмаганлигини англаш мумкин.

Компетентлик талаба томонидан алохида билим ва малакаларни эгалланишини эмас, балки ҳар бир мустақил йўналиш бўйича интегратив билимлар ва ҳаракатларнинг ўзлаштирилишини назарда тутди.[1]

Битирувчиларнинг касбий тайёргарлиги даражасига қўйилувчи талаблар нуқтаи назаридан компетентлик талабаларнинг муайян вазиятларда билим, малака ва фаолият усуллари тўпламини мақсадга мувофиқ қўллаш қобилиятини англатади.

Компетентлик - бу талабанинг шахсий ва ижтимоий аҳамиятга эга касбий фаолиятни амалга оширилиши учун зарур бўлган билим, кўникма ва малакаларнинг эгалланиши ҳамда уларни касбий фаолиятда қўллай олиши билан ифодаланади. Мазкур ўринда «компетентлик» тушунчасининг моҳияти ҳам тўла очилади, у қуйидаги икки кўринишда намоён бўлади: компетентлик талабаларнинг шахсий сифатлари тўплами ҳамда касбий соҳанинг таянч талаблари сифатида.[1]

Таълим мазмунининг ўқув режадаги фанлар блоклари (барча фанлар учун), фанлараро (фанлар тўплами учун) ва предметли (маълум бир фан учун) тарзда гуруҳланганлиги боис қуйидаги уч даражани намоён этувчи компетентликни эътироф этиб ўтамиз:

таянч компетентлик (таълимнинг гуманитар, ижтимоий- иқтисодий мазмунига кура);

фанлараро компетентлик (умумкасбий тайёргарликнинг ўқув фанлари ва таълим блокларининг маълум доирлигига кура);


битта предмет(фан) бўйича компетентлиги (махсус ўқув фани доирасида аниқ ва маълум имкониятга эгаллигига кўра).

Шундай қилиб, таянч компетентлик олий педагогик таълимнинг ҳар бир босқичи учун таълим блоклари ва ўқув фанлари даражасида аниқланади. Таянч компетентлик тартибини белгилашда касбий педагогик таълимнинг асосий мақсадларига мувофиқ ижтимоий ва шахсий тажрибанинг моҳияти, ижтимоий жамиятда касбий фаолиятни ташкил этиш жараёнида ҳаётий кўникмаларни эгаллашга имкон берувчи асосий турлар муҳим аҳамият касб этади. Ушбу нуқтаи назардан улар қуйидаги компетентлик турларига булинади:

Ахлит-мазмунли компетентлик. Бу талабанинг қадриятли йўналишлари билан боғлиқ, унинг ижтимоий борлиқни ҳис эта билиши ва тушуниш қобилияти, мустақил ҳаёт йўлини топа олиши, ўзининг ижтимоий жамиятдаги роли ва ўрнини англаб етиши, ҳаракатларни ташкил этишда аниқ мақсадни белгилаш ҳамда қарор қабул қилиш малакаси, дунёқараши билан боғлиқ компетентлик, у талаба учун ўқув ва бошқа вазиятларда ўзини аниқлаш механизмини таъминлайди. Талабанинг индивидуал таълим йўналиши ва унинг ҳаётий фаолиятининг умумий дастури ана шу компетент- ликка боғлиқ.

Ижтимоий-маданий компетентлик. Талаба чуқур ўзлаштириши зарур бўлган билим ва фаолият тажрибасининг доираси бўлиб, миллий ва умуминсоний маданиятлар хусусиятлари, инсон ва инсоният ҳаётининг маънавий-ахлоқий асослари, оилавий ва ижтимоий анъаналарнинг маданий асослари, инсон ҳаётида фан ва диннинг роли, уларнинг моддий борлиққа таъсири, турмуш ва дам олиш борасидаги билимлар, масалан, бўш вақтни самарали ташкил этиш усуллари билиши.

Ўқув-билиш компетентлиги, бу талабанинг ўрганилаётган аниқ объектлар билан боғлиқ мантиқий, методологик ва ижтимоий фаолияти элементларидан иборат бўлган мустақил фикрлаш компетентликларининг тўплами бўлиб, унга мақсадни кўра билиш, фаолиятни режалаштириш, унинг мазмунини таҳлил қилиш, рефлексия, фаолиятга шахсий баҳо бериш борасидаги билим ва малакалар киради. Ўрганилаётган объектларга нисбатан талабаларни креатив кўникмалари,



яъни билимларни бевосита борликдан олиш, ностандарт вазиятларда муаммони ҳал этишнинг ҳаракат усуллари ва эвристик методларини эгаллайди.

Ахборот олиш компетентлиги. Аудио-видео кўрсатув воситалари ва ахборот технологиялари ёрдамида мустақил изланиш, таҳдил қилиш ва зарур ахборотларни танлаб олиш, уларни ўзгартириш, сақлаш ва узатиш маҳорати шакллантирилади. Ушбу компетентлик талабанинг ўқув фанлари асосларини муҳим ахборотлар асосида ўзлаштиришини таъминлайди.

Коммуникатив компетентлик. Таълим олувчилар билан ўзаро муносабатлар, уларнинг усуллари, мулоқот жараёнида устувор ўрин тутувчи тилни ўзлаштириш, гуруҳларда ишлаш куникмалари, жамоада турли хил маънавий-маърифий тадбирларни ташкил қилиш ва утказишни билишни ўз ичига олади.

Ижтимоий-фаолиятли компетентлик фуқаролик (фуқаро, кузатувчи, сайловчи, вакил вазифасини бажарувчи), ижтимоий- меҳнат соҳаси (истеъмолчи, харидор, мижоз, ишлаб чиқарувчи ҳуқуқлари), оилавий муносабатлар ва мажбуриятлар, иқтисод ва ҳуқуқ масалалари, касбий, шунингдек, шахсий мавқеини аниқлаш борасидаги билим ва тажрибаларни эгаллаш(хусусан, меҳнат бозоридаги мавжуд вазиятни таҳлил қилиш, шахсий ва ижтимоий манфаатларни кўзлаб, ҳаракат қилиш маҳорати, меҳнат ҳамда фуқаролик муносабатларининг одобини билиш)ни англатади.

Амалий фаолиятга оид компетентликда бир ҳаракат ҳолатидан иккинчи ҳаракат ҳолатига кўчира олиш, ҳаракат ва амалларни янги вазиятларда қўллаш олиш, янги ахборотлар ичида тез йўналиш олиш кўникмалари тушунилади.

Мутахассисни тайёрлашнинг бўлажак касбни эгаллаш бўйича ўқув ва билиш фаолиятини ўз ичига оладиган меъёрий моделини кўриб чиқиш мақсадга мувофиқдир. У олий таълим муассасаси битирувчиси тегишли йўналиш ва тайёргарлик даражасининг малакавий характеристикасида ифодаланган ва илмий асосланган билим, кўникма ва малакалар шахснинг касбий муҳим хислатлари таркибини акс эттиради.

Жумладан, Технологик таълим таълим йўналиши бўйича ўқитувчи малакасини олган олий таълим муассасаси битирувчиси: давлат таълим стандартлари талабларига мувофиқ равишда педагогик фаолият олиб боришга тайёр бўлиши, юқори назарий ва амалий тайёргарлик даражасини таъминлайдиган замонавий ўқитиш технологияларидан фойдаланиши, таълим дастурларини ишлаб чиқишда иштирок этиши, уларни ўқув режаси ва ўқув жараёнига мувофиқ равишда тула ҳажмда амалга оширилиши учун масъул бўлиши, таълим олувчиларнинг билим, кўникма ва малакаларини назорат этишни ташкил этиши, олинган билимларни амалий фаолиятда қўллашга уларни тайёрлаши ва таълим олувчиларнинг мустақил ишларини назорат қилиши, аниқ ўқув фани ўқув-методик жиҳозланишининг базасини яратиши; таълим муассасасининг илмий-методик фаолиятида иштирок этиши, синф раҳбари вазифасини бажариши, таълим олувчилар билан тарбиявий ишни ташкил этиши ва ўтказиши, ўқув режалари ва дастурларининг бажарилишини таъминлаши, таълим интизомини таъминлаши, таълим олувчиларнинг ҳуқуқлари ва эркинликларига риоя этиши, ўз касбий малакасини ошириши лозим.

Мутахассиснинг малакавий тавсифида, таълим йўналиши бўйича бакалаврларни тайёрлаш мазмуни асосан бўлажак ўқитувчи билимининг фаолиятли-ижодий аспекти билан ифодаланган ва у ўрта махсус касб-хунара таълимининг касбий вазифаларини яхлит ҳал этиш тажрибасини назарда тутди.

Касбий компетентлилик мутахассис фаолиятини ва унинг ички тузилиши муҳим характеристикаларини акс эттиришга таянади деб тушунишга асосланган ҳолда, касбий компетентлилик структурасини унинг асосий компонентларини тавсифлаш нуктаи назаридан ойдинлаштириш мумкин.

Педагогик фаолиятга нисбатан унинг компонентларини педагог фаолиятининг нисбатан мустақил функционал турлари сифатида ажратиш ёндашуви устун

туради.

В.А.Сластенин нуқтаи назарига мувофиқ, педагогни тайёрлаш унда ушбу вазифаларни амалга ошириш билимларини тарбиялашни кўзда тутуди: аналитик-рефлексив, конструктив-прогностик, ташкилий, баҳолаш-ахборот, коррекциялаш-ростлаш. Муаллиф тутган нуқтаи назар, бизнинг фикримизча, ўқитувчи фаолиятининг структураси ҳақида қарор топган тасаввурларни кўп даражада акс эттиради. Шу билан бирга, бўлажак мутахассиснинг касбий компетентлиги структурасини тадқиқ қилиш педагог меҳнатини пухта таҳлил қилиш, унинг тайёргарлик даражасига ҳозирда модернизация қилинаётган ва узлуксиз педагогик таълим концепцияси амалга оширилаётган шароитларда олий ва ўрта махсус, касб-хунар таълими тизими томонидан қўйилаётган талабларни аниқлашни назарда тутуди.

Масаланинг бундай қўйилиши воситалар, методларга ва талабада фаолиятнинг маълум турини тарбиялашни амалга ошираётган ўқитувчининг билимларига ҳам бошқача ёндашувни талаб этади. Фаолиятли ёндашувнинг амалга оширилишига Б.Джураеванинг фикри кўп даражада мос келади: у ўқитувчи фаолиятининг ушбу турларини ажратади: гностик, ўқув-методик, креатив, коммуникатив-ташкилий. Педагогик фаолиятнинг структуравий элементлари сифатида қуйидагилар келади:

Мазкур фан учун хос бўлган билимлар таркибини мутахассис касбий фаолиятининг типик масалалари структурасига интеграциялаш. Ўқув фанини ўқитиш мақсадларини ишлаб чиқиш ва таснифлаш.

Фаннинг ўқув-методик мазмунини танлаш ва ўқитиш дастурини талабаларнинг билиш фаолиятлари элементлари бўйича ёйиш.

Креатив фаолият - барча ажратилган мавзулар бўйича ўқув дастурига мувофиқ равишда ўқув-методик таъминотни ишлаб чиқиш.

Талаба ва ўқитувчи ўзаро ишлашининг коммуникатив- ташкилий аспектларини талабаларнинг ўзича бошқариладиган иши жараёнида ишлаб чиқиш. Туғриловчи назоратни ташкил этиш.

Фаолиятнинг конструктив ва лойиҳалаш компонентлари муаллиф томонидан гностикэлемент таркибига киритилган. Бу билан бир вақтда ўқитувчи фаолиятининг креатив ва коммуникатив- ташкилий компонентларини мустақил компонентлар сифатида қараш таклиф этилади. Бундай ёндашувда эътибор талабаларнинг ўзича бошқариладиган ўқув фаолияти жараёнида ўқитувчи ва талабаларнинг узаро ишлашларини ташкил этиш заруратига қаратилган. Фаолиятнинг бу турлари касбий-йўналтирилган ўқитиш технологиясини лойиҳалаш, тузиш ва амалга оширишда ўқитувчи томонидан бутунлай ва тўла амалга оширилади.

Ўқитувчиларнинг касбий компетентлиги педагогик меҳнатнинг барча томонларида: касбий фаолиятда, кундалик муносабатларда, шахсият ривожланишида, меҳнатнинг мажмуий натижасида намоён бўлади ва унинг барча компонентлари шаклланганлигини талаб этади.

Шуни таъкидлаш керакки, олий таълим муассасалари ўқитувчисининг энг муҳим вазифаси талабаларнинг касбий компетентликларини барқарорлаштириш, тўлдириш ва узатиш механизмларини бошқариш имкониятларини босқичма-босқич тарбиялаш учун психолого-педагогик шароитларни яратишдан иборат [7]. Уларни амалга ошириш босқичлари қуйидагича: талабанинг фаолиятини ўқитувчи бошқариши; ўқитувчи ва талаба томонидан касбий ком- петентлилик иш механизмларининг биргалиқда бошқарилиши; булажак мутахассиснинг касбий ўз-ўзини ривожлантиришини ўзи бошқариши.

Технологик таълим ўқитувчиларини касбий компетентлигини шакл-лантиришда талабаларнинг педагогик ҳамда ишлаб чиқариш муаммоли вазиятларида аниқ қарор қабул қила олиш қобилиятларини ривожлантириш, таълим йўналиши ўқув режасидаги фанлар бўйича ахборотлар олиш имкониятига эга бўлишлари учун фанлараро ўзаро алоқадорликка эришиш асосида муаммоли

вазятли топширикларни ишлаб чиқиш уни тизимлаштириш, педагог кадрлар тайёрлаш тизими сифатини оширишда таълимнинг янги шаклларида фойдаланиш, фундаментал, хусусан, педагогик ва техник билимларни ўзлаштиришда фанлараро узвийлик ва узлуксизликни таъминлаш, педагогик фанларнинг гуманитар, ижтимоий-иқтисодий, математика ва табиий фанлар ҳамда умумқасбий ва мутахассислик фанлари билан ўзаро алоқаси кўп қиррали муаммо бўлганлиги сабабли назарий ва амалий жиҳатларини илмий асослашни тақозо этади.

Педагогик билим - субъект томонидан амалга оширилувчи барча турдаги фаолиятни йўлга қўйиш имконини берувчи маълумотлар тизими ҳисобланади [8]. У ташкилий, хўжалик, ижтимоий ва иқтисодий мазмунга эга фаолиятнинг таркибий қисми бўлиб, жамият моддий ва маънавий ҳаётининг барча соҳаларида педагогик хусусиятларнинг намоён бўлишини асослайди. Ўз навбатида техник билимлар бўлажак мутахассисда қатъиятлик, пухта режалаштириш, юзага келиши мумкин бўлган вазиятларни баҳолай олиш, вазиятга оқилона ёндашиш каби сифатларни тарбиялаш имкониятига эга. Бу кўп жиҳатдан субъектнинг ижтимоий ва ижтимоий-педагогик йўналганлиги, шунингдек, жамият ҳаётига тобора чуқур сингиб бораётган техника тараққиёти билан боғлиқ. Педагогик туркум фанлари ва умуммуҳандислик фанлари ўртаси- даги ўзаро алоқадорлик ишлаб чиқариш йўналиши махсус технологиясининг санъат, маҳорат ва зукколик тарзида талқин этилади. Ўқув жараёнига ахборот технологияларини кенг қўламда татбиқ этиш шароитида «педагогик технология» тушунчасининг моҳияти узгармоқда. Мазкур тушунча дастлаб технологиянинг хусусиятларини ифода этишга хизмат қилган бўлса, ҳозирда педагогик технологияни мазмунан бойитиш кўп жиҳатдан унга муайян техник элементларни қушиш ҳисобига кечмоқда.

Таълим жараёнида компьютер воситаларини куллаш, компьютердан ўрганиш объекти сифатида фойдаланиш, педагогик технологияларни ахборотлаштириш жараёнининг энг янги восита ва объектлар билан ўзаро алоқада бўлиши боис техник имкониятлари ошиб боради. Ахборот технологиялари таълим мазмунини қайта шакллантиришга замин яратади.

Шундай қилиб, олий таълим муассасасида касбий фанларни ўқитиш амалиётида юқорида тавсифланган механизмлардан фойдаланиш касбий компетентлиликнинг шаклланишига, шунингдек, талабалар фаолиятининг касбий муҳим йўналганлигига ёрдам берадиган психолого-педагогик шароитларнинг яратилишига шароит яратиб беради.

Ҳозирги вақтда касбий компетентлиликни шакллантиришда бу вазифаларни ҳал этишга қодир бўлган касбий йўналтирилган ўқитиш технологиясига катта эътибор берилмоқда. Олий таълим муассасаларининг профессор-ўқитувчилар таркиби томонидан ишлаб чиқилаётган ва фойдаланилаётган ўқитиш технологиялари бўлажак мутахассис касбий компетентлигининг қарор топиши ва тарбиялаш таълим тизимининг таркибий қисми булиб, касбни эгаллашнинг касбий-аҳамиятли базасини дастлабки яратишга, касбий фаолиятни юқори даражада амалга ошириш учун назарий, амалий ва мотивацияли тайёргарликнинг ва қодирликнинг секин- аста шаклланишига ёрдам беради.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати

1.Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш. Монография. – Тошкент: Фан, 2004. – 128 б.

2.Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари. Пед. фан. докт. Дисс – Тошкент, 2007. – 45 б.

3.Муслимов Н.А., Қўйсинов О.А. Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашда мустақил таълимни ташкил этиш. Методик қўлланма. – Тошкент: ТДПУ, 2006. – 46 б.

4. Қўйсинов О.А. Компетентли ёндашув асосида бўлажак ўқитувчи-ларнинг касбий-педагогик ижодкорлигини ривожлантириш технологияси. Пед. фан. док.

**METHODS OF DRAWING UP A MODERN PLAN “BANDIHON CITY «
IN THE CONDITIONS OF NEW UZBEKISTAN**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.45.91.028>*Turakulov Anvar Ergashovich**Dean of the Faculty of Art History of TerSU, Acting Associate Professor, Ph.D.*

Abstract: In this article, the basic information on the creation and implementation of the modern Bandihon city plan in the conditions of new Uzbekistan is given. It is written on the basis of the results of research conducted by pedagogical scientists on the creation of a plan of modern architectural buildings and their introduction into practice and the literature created.

Keywords: plan, project, construction, graphics, drawing, graphics program, foundation, land structure, territorial location.

**YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA ZAMONAVIY “BANDIHON CITY”
PLANINI TUZISH METODIKASI***Turakulov Anvar Ergashovich**TerDU, San 'atshunoslik fakulteti dekani, dotsent v.b., p.f.n. (PhD)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi O'zbekiston sharoitida zamonaviy “Bandihon city” planini tuzish va uni amaliyotga joriy etish haqida asosli ma'lumotlar berilgan. U pedagog-olimlar tomonidan zamonaviy arxitektura binolarining planini yaratish va ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari va yaratilgan adabiyotlar asosida yozilgan.

Kalit so'zlar: plan, loyiha, konstruksiya, grafika, chizma, grafik dastur, asos, yer tuzilishi, hududiy joylashuv.

**МЕТОДИКА СОСТАВЛЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО ПЛАНА
«BANDIHON CITY» В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА***Туракулов Анвар Эргашевич**Декан факультета искусствоведения ТерГУ, и.о. доцента, к.п.н. (PhD)*

Аннотация: В данной статье представлена обоснованная информация о разработке и внедрении в практику современного плана “Bandihon city” в условиях нового Узбекистана. Он написан на основе результатов исследований, проведенных учеными-педагогами по созданию планов зданий современной архитектуры и внедрению их в практику, а также на основе созданной литературы.

Ключевые слова: план, проект, конструкция, графика, чертеж, графическая программа, основание, землеустройство, территориальное расположение.

Bandikhan district is a district in Surkhandarya region. Established on May 18, 1992. The district is bordered by Kumkurgan, Qiziriq, Jarkurgan, Sherabad and Baysun districts. Area of 0.20 thousand km². With a population of over 30,000 (2000). There are 5 village gatherings in Bandikhan district (Bandikhon, Kirshak, Almazar, Charvador, Qiziriq). The center - the village of Bandikhon [1].

History. There are several historical monuments in the district, the largest of which is the Bandikhan burial ground. The Bandixon castle dates back to the 2nd and 1st centuries BC and was discovered by archaeologists in 1973. Excavations were made in 1975-76. The ancient channel - the Urgulsay river is divided into two parts. The total area is 1.5 hectares. 250 m from east to west and 170 m from north to south. The Kurgan Fortress is located to the east of the monument - in the place of today's cemetery. Square shape 90-70 meters; The height is 5-6 meters. The dwellings are made of cotton and raw brick. Earthenware vessels and stone tools were found at different

times. The hills around Mendatepa, Gozimullo, Bektepa, Kindiktepa, Kurgan around Bandixon have also been proved to be ancient settlements. In the past, the Badi Khan's valley was covered with a brick by brick and supplied water to the Bandixon - Red Sea. In particular, the examination of Gazimullo hill found that fountains brought potable water from distant pipes. The name Bandihon derives from the word «band» and means «bridge» [2].

The nature. Bandixon district is mainly located in the north of the Surkhan-Sherabad steppe, which declines in the west to the east and south. There are Sherabad-Sarikamish Mountains and Bandihon-Kyzyrik hills, mainly south-north-east of the district. Dry subtropical climate. The average January temperature is 2.5 ° C - 3 ° C, July 30 ° C - 31 ° C. In a year 160 to 200 mm of precipitation falls. In the north of the district there is the Bandykhon River. The farms of the district are irrigated with the Akkopchigay and Sherabad canals. The soil is typical gray, sandy and partly black soils. The plants are ephemeral and ephemeroid. There are wolves, foxes, reptiles, birds and insects (scorpions and scabies) in mountainous parts and ravines.



1-picture. (The Bandikhan current view)

Population. The majority of the population (96%) are Uzbeks, 3% are Tajiks, and Tatars, Russians and others live there. There are 145 people per 1 km². All the population lives in rural areas.


The farm. The farm is mainly agrarian. The irrigated arable land makes up about 70% of the district's land fund. Pastures make up 27.5%, arable land is 2.5%. There are 6 collective farms in Bandixon district. Cotton plays a major role in agriculture. Grain crops are cultivated, viticulture and gardening are developed [3].

Economics. There are 4 small enterprises, 46 dekhkan farms and 5 joint stock companies specializing in animal husbandry. There are 22 private small businesses, 11 mills, 40 private shops and canteens, and 6 lounges. The Sherabad-Denov highway crosses Bandixon district. There is a branch of the Schroeder National Gardening, Viticulture and Wine Corporation in Bandikhan district. [1] There are 6 collective farms in Bandixon district. Cotton plays a major role in agriculture. Grain crops are cultivated, viticulture and gardening are developed. Bandihon wheat is close by - it has recently been priced 1.5-2 times in the markets. The tombstone weighs 180–200 kg.

The social sphere. There are 27 schools, 2 children's and sports schools and 5 kindergartens in the district. 15 types of medical services are provided at the Central Hospital in Bihikhan. The district pays great attention to mass sports. Schools and organizations have stadiums, gyms, and volleyball fields. There is a modern Sayyid Muhammad Jomie Mosque in the center of the district.

Bandikhon Village. Bandikhon is a village. The center of Bandixon district of Surkhandaryo region. To the southwest of the district. The nearest railway station is 30 km from Kumkurgan and 100 km to Termez. The Akkopchigay Ari has passed by the village. Drinking water for the population is supplied by the main pipeline from the Khojaipok River. The population is mostly engaged in agriculture [4].

There are historical and archaeological monuments in the region - Bandihontepa I, II, Kindiktepa, Ghazimullatepa, Yalangtoshtepa and another unnamed hill and Khanbandi dam. These are not perfectly studied. Bandihontepa I is a city ruin with an area of 1.5 hectares; The remains of the stone house, earthenware fragments found at the end of 2,000 BC and at the beginning of the 1st millennium. Area of the ruins of Bandihontepa II is 10-12 hectares; the remains of the fossil fossils, cups, cans and cups found in it date from 650 to 450 BC. The material cultural monuments found in the Kindiktepa (area 140 x 30 m) and Fazimullatepa (area 50 x 25 m) coincide with the period of the Ahomians (558-330 BC). The terracotta figurines and utensils found in Yalangtoshtepa ruins (10 hectares) are of antique and early medieval times. It is thought that there was a defensive structure in place of the unnamed top. The Khandbandi dam is made of strong bricks at the age of 16-17 and is about 30 to 35 meters wide. B. monuments are important in studying the history of architecture, crafts and farming in Uzbekistan.



2-picture. (Map of Bandikhon)

Update: Bandikhon (Uzbek: Bandikhon, Russian: Bandikhon) is an urban-type settlement in Kizirik District, Surxondaryo Region, Uzbekistan. It was the administrative center of Bandikhon District until the district was abolished in 2010.

Modern Principles of City and Town Planning. Cities are known to be the most innovative and complex creations of human beings. They have existed in the past and will continue to exist in the future, showcasing human growth and development. Cities are economic and social systems, that are dominating the global canvas in terms of concentration of population. They are also the principle centers of economy, consumer markets and also have a highly trained workforce. As engines of economic growth, cities are known to be creators of wealth, generators of employment and promoters of the economy. "Urban planning or city planning is a technical or political process which deals with the development and use of land, planning permission, protection, and use of the environment, public welfare and the design of the urban environment. These are

also responsible for the planning and development of water use and resources, rural and agricultural land, parks and conserving areas of natural environment significance” [5].

As per World Urbanization Prospects –the 2014 Revision Report of Department of Economic and Social Affairs, United Nations: India by 2030 will have 7 Mega cities with population exceeding 10 million and 2 cities of a population above 5 million. It is also estimated that by 2050 there will be over a 100 Metro cities around India. This calls for critically and objectively looking at the urban centers in terms of their pattern of growth, development and evolving strategies which make them more productive, smart, efficient, healthy and sustainable.



3-picture. (The modern look of the Bandikhan)

Some of the basic principles of building a city, considered from technical, economical and the administration point of view are as follows:

The city planning principally consists of fixing the baselines of all traffic movements and transit facilities, including streets, railroads, and canals. These transit facilities should be treated liberally and systematically.

The street network should be planned in such a way that the main streets with the existing streets should be given greater consideration. The secondary streets should be fixed based on local conditions.

The building departments should adhere by some rights and privileges related to fire protection, aesthetic condition, health and safety of the buildings.

The town or city municipal authorities should facilitate for legal measures in cases of expropriation and impropration and should also create a law providing for the regulation of the contour of new or reconstructed blocks to be built upon.

Efficient use of land and infrastructure: land is essential for making improvements and should only be built upon under reservations for its subsequent use by the city. High-density development, infill development, and the adaptive re-use of the existing buildings result in efficient utilization of land resources and compact urban areas.

Cities are homes to complex webs of systems, and sectors, with their primary aim that ties into how a city functions. With this mind, collaboration is critical to identify innovative solutions.

Good urban planning addresses immediate needs while striving to achieve a city’s unique vision of the future. Long-term visions are rarely achieved through an uncoordinated application of projects.

The municipality should constantly supervise the activities of interested property owners associations, regarding the improvement of certain section.

Structural model of a Town or city.

What is town planning?

Town planning is an art of shaping and guiding the physical growth of the town creating buildings and environments to meet the various needs of the public such as social, cultural, economic and recreational etc. and to provide healthy conditions for both rich and poor to live, to work and to play or relax, thus bringing:

Physical and social planning of an urban environment.

Encompassing many different disciplines and bringing them all under a single roof.



4-picture. (The modern look of the Bandikhan)

The objective of town planning:

To create and promote healthy conditions and environments for the public.

To make right use of the land for the right purpose of zoning.

To ensure orderly development.

To avoid encroachment of one zone over the other.

To build social, economic and recreational amenities such as open spaces, parks, gardens, and playgrounds, town hall stadiums, community centers, cinema houses.

To preserve the individuality of the town

To preserve the aesthetics in the design of all the elements of a town or a city plan.

Principles of Town Planning:

The basic intention of town planning is to satisfy the needs of our future generations and to prevent the disorganized growth of the town or a city. Some of the principles of the town planning are as follows:

Zoning: the towns are divided into suitable zones such as commercial zone, industrial zone, residential zone, and certain rules and regulations should be implemented for each zone.

Green-belt: is a non-developmental zone which is located on the periphery of the town. It usually prevents the chaotic spread of the town, confining its size. A green belt is an invisible line designating a border around a certain area, preventing development of the area and allowing wildlife to return and be established [6].

Housing: should be carefully designed to suit the local population and care should be taken to make sure that all the facilities are there inside the housing complex.

Public buildings: should be well organized and distributed throughout the town. Unnecessary concentration of public buildings should be avoided. Factors such as

parking facilities, road widths should be taken into consideration while allocating the space for public buildings.

Recreation centers: are essential while designing a town. They are necessary for the recreational activities of the public. They include parks, for walking, cycling, amusement parks etc.

Road systems: road network hierarchy is very important while building a town or a city. The efficiency of any town is measured by the layout of its roads. The provision of a faulty road system in the initial stages of town formation proves to be too difficult and costly to repair to rearrange in future.

Transport facilities: the town should be provided with suitable transport facilities so that there is minimum loss of time for commuting between the work place and the residence. Efficiency in transport facilities includes both public and private networks. Public transportation network includes access to buses, trains, trams and trolleybuses.

Town planning has gained a lot of importance today. New towns and cities are being developed on a regular basis and it has become very essential for the town planners to concentrate on old development as well as the new development. Energy efficiency in planning should be the goal of every town planner and urban designer for a sustainable living and development.

Source and literature used:

Ctlachu Follow. (2012, March 18). Introduction to town planning. Retrieved June 23, 2017, from <https://www.slideshare.net/ctlachu/introduction-to-town-planning>

Basic Principles of City Planning (445 Words). (2013, December 11). Retrieved June 23, 2017, from <https://www.yourarticlelibrary.com/planning/8-basic-principles-of-city-planning-445-words/4694/>

Ten urban planning principles every humanitarian should know. (2015, December 03). Retrieved June 23, 2017, from <https://www.iiied.org/ten-urban-planning-principles-every-humanitarian-should-know>

Fainstein, S. S. (2016, May 12). Urban planning. Retrieved June 23, 2017, from <https://www.britannica.com/topic/urban-planning>

<https://en.wikipedia.org/wiki/Bandixon>

<https://www.slideshare.net/ShrikantKatedeshmukh/architecture-and-town-planning-unit-3spputown-planning-and-various-levels-of-planning-by-s-r-kate>.

PRACTICAL RECOMMENDATIONS FOR THE CONSTRUCTION OF A MODERN BUILDING OF A «BUSINESS CENTER» IN TERMEZDOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.18.65.027>*Turakulov Anvar Ergashovich**Dean of the Faculty of Art History of TerSU, Acting Associate Professor, Ph.D.*

Abstract: In this article, practical information on the design and construction of a modern building “Business Center” in the city of Termez is provided. It is written on the basis of the results of research conducted by pedagogical scientists on the creation of a plan of modern architectural buildings and their introduction into practice and the literature created.

Keywords: plan, project, construction, graphics, drawing, graphics program, foundation, land structure, territorial location.

TERMIZ SHAHRIDA ZAMONAVIY «BIZNES MARKAZ» BINOSINI QURISHGA OID AMALIY TAVSIYALAR

Annotatsiya: В данной статье представлена практическая информация по составлению плана и строительству современного здания “бизнес-центра” в городе Термез. Он написан на основе результатов исследований, проведенных учеными-педагогами по созданию планов зданий современной архитектуры и внедрению их в практику, а также на основе созданной литературы.

Kalit so'zlar: plan, loyiha, konstruksiya, grafika, chizma, grafik dastur, asos, yer tuzilishi, hududiy joylashuv.

ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО СТРОИТЕЛЬСТВУ СОВРЕМЕННОГО БИЗНЕС-ЦЕНТРА В ТЕРМЕЗЕ*Туракулов Анвар Эргашевич**Декан факультета искусствоведения ТерГУ, и.о. доцента, к.п.н. (PhD)*

Аннотация: В данной статье представлена обоснованная информация о разработке и внедрении в практику современного плана “Bandihon city” в условиях нового Узбекистана. Он написан на основе результатов исследований, проведенных учеными-педагогами по созданию планов зданий современной архитектуры и внедрению их в практику, а также на основе созданной литературы.

Ключевые слова: план, проект, конструкция, графика, чертеж, графическая программа, основание, землеустройство, территориальное расположение.

Introduction: My name is Mohammad Yousuf and my last name is Yaser. I am an Afghan and my profession is “Civil Engineering”. I already have had more visits from many cities of Uzbekistan, specially Termez City.

The reasons such as: more developed level of teaching in Uzbekistan than the other neighboring countries of Afghanistan, being close of Termez city to Balkh province where I live, and also having the same and shared language (my native tongue is Uzbeki), made me more interested to study in master’s degree in this country.

Professionally, in the first focus on Termez city considering the geographical, economic potentials and creating easy investments to the rich people, especially to the rich people of the neighboring countries, I faced a shortage which is “lack of business complex buildings” that should contain all their special criteria [1].

By using what I have learned, considering to have done a little bit cooperation to this city, I have chosen the title of my defense of project, the designation of a building “A Business Center“. The area or surface I saw for this idea is shown for you in this picture (1-picture, a), b)).



a)



b)

1-picture. (Space view of the old “Fortress” in Termez city)

But before that, in this paragraph, I am supposed to present you short information about “Commercial Building” that is very significant to know it in today’s developed world which is explained as below:

Commercial buildings. The term commercial property (also called commercial real estate, investment or income property) refers to buildings or land intended to generate a profit, either from capital gain or rental income. Commercial property includes office buildings, medical centers, hotels, malls, retail stores, multifamily housing buildings, farm land, warehouses, and garages. In many states, property containing more than a certain number of units qualifies as commercial property for borrowing and tax purposes [2].

Commercial buildings are buildings that are used for commercial purposes, and include office buildings, warehouses, and retail buildings (e.g. convenience stores, ‘big box’ stores, and shopping malls). In urban locations, a commercial building may combine functions, such as offices on levels 2-10, with retail on floor 1. When space allocated to multiple functions is significant, these buildings can be called multi-use. Local authorities commonly maintain strict regulations on commercial zoning, and have the authority to designate any zoned area as such; a business must be located in a commercial area or area zoned at least partially for commerce.

Types of commercial property. Commercial real estate is commonly divided into five categories:

Office Buildings – This category includes single-tenant properties, small professional office buildings, downtown skyscrapers, and everything in between.

Retail/Restaurant – This category includes pad sites on highway frontages, single tenant retail buildings, small neighbourhood shopping centers, larger centers with grocery store anchor tenants, «power centers» with large anchor stores such as Best Buy, PetSmart, OfficeMax, and so on even regional and outlet malls.

Multifamily – This category includes apartment complexes or high-rise apartment buildings. Generally, anything larger than a fourplex is considered commercial real estate.

Land – This category includes investment properties on undeveloped, raw, rural land in the path of future development. Or, infill land with an urban area, pad sites, and more.

Miscellaneous – This catch all category would include any other non-residential properties such as hotel, hospitality, medical, and self-storage developments, as well as many more [3].

Categories of Commercial Real Estate	
Category	Examples
Leisure	hotels, public houses, restaurants, cafes, sports facilities
Retail	retail stores, shopping malls, shops
Office	office buildings, serviced offices
Healthcare	medical centers, hospitals, nursing homes
Multifamily (apartments)	multifamily housing buildings

Of these, only the first five are classified as being commercial buildings. Residential income property may also signify multifamily apartments.

Investment. The basic elements of an investment are cash inflows, outflows, timing of cash flows, and risk. The ability to analyse these elements is key in providing services to investors in commercial real estate [4].

Cash inflows and outflows are the money that is put into, or received from, the property including the original purchase cost and sale revenue over the entire life of the investment. An example of this sort of investment is a real estate fund.

Cash inflows include the following:

- Rent
- Operating expense recoveries
- Fees: Parking, vending, services, etc.
- Proceeds from sale
- Tax Benefits
- Depreciation
- Tax credits (e.g., historical)

Cash outflows include:

- Initial investment (down payment)
- All operating expenses and taxes
- Debt service (mortgage payment)
- Capital expenses and tenant leasing costs
- Costs upon Sale

The timing of cash inflows and outflows is important to know in order to project periods of positive and negative cash flows. Risk is dependent on market conditions, current tenants, and the likelihood that they will renew their leases year-over-year. It is important to be able to predict the probability that the cash inflows and outflows will be in the amounts predicted, what is the probability that the timing of them will be as predicted, and what the probability is that there may be unexpected cash flows, and in what amounts they might occur.

The total value of commercial property in the United States was approximately \$6 trillion in 2018. The relative strength of the market is measured by the US Commercial Real Estate Index which is composed of eight economic drivers and is calculated weekly.

According to Real Capital Analytics, a New York real estate research firm, more than \$160 billion of commercial properties in the United States are now in default, foreclosure, or bankruptcy. In Europe, approximately half of the €960 billion of debt backed by European commercial real estate is expected to require refinancing in the next three years, according to Property Mall, a UK based commercial property news provider Property Mall. Additionally, the economic conditions surrounding future interest rate hikes; which could put renewed pressure on valuations, complicate loan refinancing, and impede debt servicing could cause major dislocation in commercial real estate markets.

However, the contribution to Europe's economy in 2012 can be estimated at around €285 billion according to EPRA and INREV, not to mention social benefits of an efficient real estate sector. It is estimated that commercial property is responsible for securing around 4 million jobs across Europe.

Commercial property transaction process (deal management). Typically, a broker will identify a property that fits a set of criteria set out by an acquisitions, capital investment, or private equity firm. The firm will perform an informal assessment of the property location and potential profitability, and if they are interested, they will signal their intent to move forward with a letter of intent.

An investment committee with senior acquisitions executives reviews all pending deals and advises whether to move forward with a purchase and sale agreement (PSA), and a deposit. A PSA is an exclusive agreement between the seller and a single interested buyer. No other LOIs or PSA may exist for one property at a time.

Once a PSA is executed, the acquisitions team usually has 30 days to perform due diligence, unless an extension is granted. During this 30-day period, the acquisitions team investigates the property thoroughly in an attempt to uncover any undesirable characteristics, damage, or other circumstances that could affect the profitability or final selling price of the property.

The acquisitions team may want to investigate the rent roll, existing vendor contracts, city permits, insurance policies, etc. The acquisitions firm may hire a third party to conduct an appraisal, environmental reports, traffic counts, and more. The ultimate goal is to gather as much information as possible to make an informed investment decision.

Once due diligence is complete, the acquisitions team must decide whether to move forward with the purchase to closing. Closing is a window of 10-15 days during which the acquisitions firm owes an additional deposit, and they must finalize financing.

Such as famous business buildings in world: 30 St Mary Axe: 30 St Mary Axe (known previously as the Swiss Re Building), informally known as The Gherkin, is a commercial skyscraper in London's primary financial district, the City of London (2-picture).



It was completed in December 2003 and opened in April 2004. With 41 floors, it is 180 meters (591 ft.) tall[3] and stands on the former sites of the Baltic Exchange and Chamber of Shipping, which were extensively damaged in 1992 in the Baltic Exchange bombing by a device placed by the Provisional IRA in St Mary Axe, a narrow street leading north from Leaden hall Street.

After plans to build the 92-storey Millennium Tower were dropped, 30 St Mary Axe was designed by Norman Foster and Arup Group. It was erected by Skanska; construction started in 2001 [5].

The building has become a recognizable landmark of London, and it is one of the city's most widely recognized examples of contemporary architecture.

Tianjin Modern City Office Tower: Tianjin Modern City Office Tower is a supertall skyscraper in Tianjin, China. It is 338 metres tall. It was first proposed in 2010 (3-picture).



Construction began in 2011 and ended in 2016. The tower is a part of a set of two towers with the other tower being 205 m tall. Wikipedia Located in: The Exchange Mall, Address: 108 Nanjing Rd, Plaza 66, Heping, Tianjin, China, 300041, Height: 338

m, Floors: 65, Phone: +86 22 2311 3333, Construction started: 2011.

BAONENG CENTER: Skyscraper in China. Baoneng Center is a supertall skyscraper under construction in Shenzhen, Guangdong, China (4-picture).



4-picture

It will be 327 metres tall. Construction started in 2014 and is expected to be completed in 2018. The architecture firm Aedas designed Baoneng Center for Baoneng Group. Wikipedia, Height: 327 m CTBUH, Floors: 65, Opened: 2018, Construction started: 2014, Owner: Baoneng Group, Location: Shenzhen, Guangdong.

References

[https://www.gemsjc.com/college and facilities](https://www.gemsjc.com/college%20and%20facilities)

<https://www.gemsjc.com/About-Us>

https://www.google.com/search?q=Modern+Principles+of+City+and+Town+Planning&rlz=1C1CHBF_enAF876AF876&sxsrf=ACYBGNSINE9ar8I0pgrxbtYTA9cJsTZ9lQ:1580710022657&source=lnms&tbm=isch&sa=X&ved=2ahUKEwjEtpLb27TnAhUB66QKHZrID3sQ_AUoAXoECA0QAw&biw=1024&bih=608

<http://kasbtanla.uz/viloyat/vfull?id=169>

<https://www.onu.edu/campus-map>

**“INVERSIYA” METODI VOSITASIDA BO’LAJAK CHIZMACHILIK
FANI O’QITUVCHILARINING LOYIHALASH KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.60.46.026>

Turayev Xumoyiddin Abdug’afforovich

TerDU, Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Inversiya” metodi vositasida pozitsion masalalarni yechish orqali bo’lajak chizmachilik fani o’qituvchilarining loyihalash kompetentligini rivojlantirish haqida metodik va grafik ma’lumotlar berilgan. U pedagog-olimlar tomonidan bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy va loyihalash kompetentligini rivojlantirish bo’yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida yozilgan.

Kalit so’zlar: pozitsion, loyihalash, grafik, kompetentsiya, tutashma, friksion, tishli uzatma, inversiya, aylana, metod.

**МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ПРОЕКТНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ЧЕРЧЕНИЯ СРЕДСТВАМИ МЕТОДА
“ИНВЕРСИЯ”**

Тураев Хумойиддин Абдугаффорович

Заведующий кафедрой изобразительного искусства и инженерной графики

ТерГУ

Аннотация: В данной статье представлена методическая и графическая информация о развитии проектной компетентности будущих учителей черчения путем решения позиционных задач методом “Инверсии”. Она написана на основе результатов исследований, проведенных учеными-педагогами по развитию профессионально-проектной компетентности будущих педагогов.

Ключевые слова: позиционирование, дизайн, графика, компетентность, сцепление, трение, передача, инверсия, круг, метод.

**METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF PROJECT
COMPETENCE OF FUTURE DRAWING TEACHERS BY MEANS OF THE
“INVERSION” METHOD**

Turaev Khumoyiddin Abdugafforovich

Head of the Department of Fine Arts and Engineering Graphics of TerSU

Abstract: This article presents methodological and graphic information about the development of the project competence of future drawing teachers by solving positional problems using the “Inversion» method. It is written on the basis of the results of research conducted by scientists-teachers on the development of professional and project competence of future teachers.

Keywords: positioning, design, graphics, competence, grip, friction, transmission, inversion, circle, method.


Ma’lumki konstruktorlik byurolarida yangi mashina va mexanizmlarning loyihalarini bajarishda qator geometrik yasashlar talab qilinadigan pozitsiyaviy masalalarga duch kelinadi.

Bunday masalarni yechishda simmetriya, gomotetiya, aylanalar o’xshashligi va inversiya singari geometrik akslatirish metodlaridan foydalanilsa, ular tez va oson yechiladi.

Leкин muhandislik grafikasini o’qitish bo’yicha mutaxassis tayyorlaydigan bizning dasturlarimizda bunday metodlarni o’rgatish ko’zda tutilmagan. Ammo yuqorda keltirilgan metodlarni dasturlarimizga kiritish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu metodlardan foydalanib yasalishi qiyin bo’lgan pozitsion masalalarni oson va qulay

bo'lgan masalalarga keltirish mumkin. Uning ustiga bular katta matematik bilimni talab qilmaydi.


Masalan, o'qlari o'zaro parallel ikki silindirik g'altak bir-biriga urinma holda o'rnatilgan bo'lsin. Ularning biri o'z o'qi atrofida aylantirilsa unga urinib turgan ikkinchi silindir ham birinchisiga teskari yo'nalishda aylana boshlaydi. Ilashma xarakatining bunday uzatilishi friksion uzatma deb ataladi (1-chizma) [1].



Ammo ilashuvchi silindirga biroz yuk tushirilsa ular o'zaro sirpanib ilashuvchi silindir aylanmay qoladi. Ko'rinib turibdiki bunday ilashma unchalik ishonchli bo'lmaydi. Shuning uchun ham aylanish xarakatni bir valdan unga parallel bo'lgan valga ishonchili ravishda uzatish uchun ularda tishlar o'yiladi. Tish ikki qism - kallag va oyoqdan iborat bo'lib, tishning kallagi oyoq qismidan kichikroq bo'lib u silindirning ustiga oyog'i esa silindir sirtining ichiga joylashtiriladi.

Tishning moduli $m=d/z$ nisbatda olinadi. Bunda d silindirning diametri, z esa tishlar sonini bildiradi. Silindirik tishli uzatmalarda kallagi m ga va oyog'ining balandligi esa $h=1.25 m$ ga teng qilib olinadi.

Endi faraz qilaylik, bitta silindirik tishli g'ildirak har xil diametrga ega bo'lgan uchta tishli g'ildirakni aylantirsin. Tishli g'ildirakning diametriga va tishlar soniga qarab har xil diametrlilik uchta tishli g'ildirak uch xil tezlikda aylana boshlaydi (2-chizma) [5].



Ilashtiruvchi tishli g'ildirakning boshlang'ich aylanasining diametri berilgan uchta tishli g'ildirakning boshlang'ich aylanalariga urinib xarakat qiladi. Demak, bu yerda berilgan uchta aylanaga bir vaqtda urinib o'tuvchi to'rtinchi aylananani yasash masalasi ya'ni, Appoloniy masalasiga duch kelamiz.

Bu masalani yechish uchun yuqorida aytilgan metodlardan biri Inversiya metodi juda qo'l keladi.

“Inversiya” so'zi lotincha “inversio” so'zidan olingan bo'lib, “teskarisini ag'darish” yoki “o'rinlarni akslantirish” degan ma'noni bildiradi.

Inversiya – muxim geometrik akslantirishlardan biri bo'lib, u boshqa metodlar yordamida yasalishi qiyin bo'lgan masalalarni osonroq masalaga keltirib yechishga imkon beradi [2].

Bu metodda izlanuvchi figura bilan masalada berilganlar orasidagi bog'lanishni bevosita aniqlamay, oldin ularga in-version mos figuralar orasidagi munosabat topiladi, so'ngra izlanuvchi figuraga o'tiladi. Bu ish quyidagi tartibda bajariladi:

1. Masalada izlanuvchi figura topildi deb, taxminan chizib qo'yamiz.


2. Mo'ljallab bir nuqtani inversiya markazi deb qabul qilamiz va bu nuqtani markaz qilib chizilgan aylanaga nisbatan berilgan va so'ralganlarni inversion akslantirganda

masala yechishning osonroq yo'li topiladi, ya'ni masalada berilgan va so'ralganlar orasidagi munosabatga qaraganda ularga inversion mos figuralar orasidagi munosabat soddaroq bo'lib qoladi.

Bu shartni qanoatlantiradigan inversiya aylanasi chizib masalada berilgan va so'ralganlar bu aylanaga nisbatan inversion akslantiriladi.


3. Chizilgan inversion fi-guralar orasidagi munosabat aniqlanib, so'ralgan figuraga mos figurani yasash mumkinligi topiladi, ya'ni berilgan masalaga nisbatan osonroq bo'lgan yordamchi masalani yechish yo'li belgilanadi. Keyin tanlangan aylanaga nisbatan inversion akslantirish bajarilib, izlangan figura topiladi [3].

Masalan: Uchta (m, n, l) aylanalarga urinma qilib to'rtinchi aylana (t) ni o'tkazish talab qilingan bo'lsin (3-chizma) [4].




Yechish:

1. Bunda: Radiuslari har xil (R_{16}, R_{33}, R_{48}) bo'lgan va o'zaro kesishmagan uchta m, n, l aylanalar berilgan bo'lsin (4-chizma). m, n, l aylanalarga urinma to'rtinchi aylana t ni taxminiy o'tkazib olamiz hamda uni inversion akslantiramiz (5-chizma).



4-chizma




5-chizma


2. Berilgan m, n, l aylanalar ichida eng kichik radiusli aylana m ni nuqta holatiga keltirib, u nuqtani inversiya markazi O deb belgilaymiz hamda O markazdan i (inversiya aylanasi)ni chizamiz va m aylana radiusini n, l aylana radiuslaridan ayiramiz hamda

qolgan radiusda aylana chizamiz. U aylanalarni $n1$ va $l1$ hamda ularning markazlarini $O1, O2$ deb belgilaymiz (6-chizma). i markazi O dan $n1$ va $l1$ markazlari $O1$ hamda $O2$ dan o'tuvchi nur o'tkazamiz. $OO1$ bo'yicha o'tkazilgan nur $n1$ ni 1,2 nutalarda kesadi. $OO2$ bo'yicha o'tkazilgan nur esa $l1$ ni 3,4 nuqtalarda kesadi.

Endi, $n1$ va $l1$ aylanalarni inversion akslantirish uchun ularning nuqtalarini inversiyalaymiz. Masalan: $l1$ ni $OO2$ bo'yicha o'tkazilgan nur bilan kesilganda hosil bo'lgan 4 nuqtasini inversiyalaymiz. Ya'ni, O markazdan 4 nuqttagacha bo'lgan masofaning o'rtasini $O3$ markaz qilib belgilaymiz va $O34$ radiusda aylana chizamiz. Bu aylana i ni B, C nuqtalarda kesadi, 4 nuqtadan B nuqtaga to'g'ri chiziq o'tkazamiz va bu to'g'ri chiziq i ga urinma bo'lib qoladi. BC vatar esa $OO2$ nurni kesib, 4 nuqtaning izlanayotgan inversiyasi 41 ni beradi [$B41bOO2$] (7-chizma).




6-chizma.




7-chizma.

3. 1,2 va 3,4 nuqtalarni inversion akslantirib, $11, 21, 31, 41$ nuqtalarni hamda $n1, l1$ aylanalarning inversiyalari $n11$ va $l11$ larni yasab oldik (8-chizma).



Inversion aylanalari $n11$ va $l11$ larga urinma to'g'ri chiziq o'tkazamiz va bu to'g'ri chiziq O markazdan o'tuvchi va $n1, l1$ aylanalarga urinma to'rtinchi aylana $t1$ ning inversiyasi $t11$ ni beradi. $t11$ i ni E, F nuqtalarda kesadi. O markazdan $t11$ ga nisbatan perpendikulyar to'g'ri chiziq o'tkazamiz hamda O markaz bilan F nuqtani birlashtiramiz va OF to'g'ri chiziqqa perpendikulyar qilib F nuqtadan to'g'ri chiziq chizamiz. Bu chiziq O markazdan $t11$ ga perpendikulyar o'tkazilgan to'g'ri chiziqni kesib K nuqtani beradi [$FKbOF$], [$OKbEF, t11$] (9-chizma).



8-chizma.




9-chizma.




4. Topilgan K nuqtadan i markazi O gacha bo'lgan masofaning o'rtasini O_4 markaz qilib belgilaymiz va O_4 dan O_1, O_2 markazlardan o'tuvchi nur o'tkazamiz.

Bu nur n_1 ni O_4O_1 nur bo'yicha 5 nuqtada kesadi, l_1 ni esa O_4O_2 nur bo'yicha 6 nuqtada kesadi va albatda n aylanani O_4O_1 nur bo'yicha 7 nuqtada kesadi, l aylanani ham O_4O_2 nur bo'yicha 8 nuqtada kesadi. m aylanani esa O_4O nur bo'yicha 9 nuqtada kesadi. 5,6 nuqtalar n_1 va l_1 aylanalarning urunuvchi nuqtalari bo'ladi. 7,8,9 nuqtalar esa n, l, m aylanalarning urunuvchi nuqtalari bo'ladi.


O_4 dan O_4O radiusli aylana chizamiz, bu aylana albatda E, F, K hamda 5,6 nuqtalardan o'tib, O markazdan o'tuvchi va n_1, l_1 aylanalarga urinma to'rtinchi aylana t_1 ni beradi (10-chizma). O_4 dan n, l, m aylanalarning urunuvchi nuqtalari 7,8,9 nuqtalardan o'tuvchi aylana chizamiz va bu 2-chizmadagi, m, n, l aylanalarga taxminan urinma qilib olingan to'rtinchi aylana t ni beradi (11-chizma).




12-chizma.




16-chizma.




17-chizma.



13-chizma.



14-chizma.



15-chizma.

Shuningdek, 12-18-chizmalarda, berilgan uchta m, n, l aylanalarga urinma to'rtinchi aylana t ni ichki, tashqi va aralash o'tkazish mumkinligi izohlari berilmagan holatda tasvirlangan.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Yodgorov J. va Narzullayev A. "Mashinasozlik chizmachiligi". -T.: "START-TRACK PRINT". 2009-y. 56-61 b.

2. Otajonov R.K. "Geometrik yasash metodlari". -T.: "O'qituvchi". 1978-y. 102-156 b.

3. Turayev X. A. et al. METHODOICAL RECOMMENDATIONS ON THE IMPLEMENTATION OF THE THEME OF FORTY IN DRAWING LESSONS GRAPHICALLY //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 2. – C. 264-268.

4. <http://www.clipartbank.ru>

5. <http://dic.academic.ru>

**ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА КОРХОНАЛАРНИ
РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ХОРИЖ ТАЖРИБАСИНИ ЎРГАНИШ**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.69.63.025>

Урозов Мустафокул Култураевич

Термиз давлат университети доценти, техника фанлари номзоди,

Рахимова Камола Файратовна

Тошкент давлат техника университети Термиз филиали магистри

Аннотация: Инновацион ривожланишнинг асосий зояси шундаки, иқтисодийнинг мазкур ривожланиш жараёнида, аввало, билимларни янгилаш тезлиги кескин ортиб боради, бошқа томондан эса, технология ва маҳсулотларнинг мураккаблашуви кўпга фаолият турлари бу жараёнга жалб қилинади.

Калит сўзлар: Кимё саноати, замонавий, хориж инвесторлар, мамлакат инвестиция, стратегия, технологиялар, сифат, бозор, истеъмолчи, субъект.

**ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РЕГУЛИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ
ПРОЦЕССОВ**

М.К. Урозов., К.Г. Рахимова

Термезского Государственный Университет

Аннотация: В современных условиях конкурентоспособность национальной экономики во многом определяется уровнем ее инновационного развития. В последние годы в нашей стране, даже несмотря на достаточно сложную финансово-экономическую и политическую обстановку, наблюдается определенная динамика промышленного производства, постепенно развиваются отрасли, располагающие экспортным потенциалом, увеличивается доля инновационных товаров в общем объеме выпускаемой предприятиями продукции.

Ключевые слова: Химическая промышленность, современные, иностранные инвесторы, страна инвестиций, стратегия, технология, качество, рынок, потребитель, предмет.

FOREIGN EXPERIENCE IN REGULATING INNOVATIVE PROCESSES

M.K. Urozov, K.G. Raximova

Termez State University

Abstract: In modern conditions, the competitiveness of the national economy is largely determined by the level of its innovative development. In recent years, in our country, even despite a rather difficult financial, economic and political situation, there has been a certain dynamics of industrial production, industries with export potential are gradually developing, the share of innovative goods in the total volume of products manufactured by enterprises is increasing.

Keywords: Chemical industry, modern, foreign investors, country of investment, strategy, technology, quality, market, consumer, subject.

Кириш Ҳозирги даврда Ўзбекистон Республикаси иқтисодийни модернизация қилишда бўлаётган ўзгаришлар, глобаллашув ва интеграциялашув жараёнларининг жадаллашуви, халқаро рақобатнинг кучайиши, технологиялардаги узлуксиз ва муҳим сифат ўзгаришларининг юз бериши, сотиш бозорлари ва истеъмолчилар талабларининг таркибий ўзгаришлари ҳар бир хўжалик юритувчи субъектдан рақобатбардош маҳсулот яратиш, ишлаб чиқариш жараёнидаги харажатларни кескин камайтириш ва бошқарувда бозор талабларини ҳисобга олган ҳолда оптимал қарор қабул қилишни талаб қилмоқда.

Корхоналарда инновация фаолиятини бозор талаблари асосида тубдан ўзгартириш, бошқаришнинг замонавий ва истиқболли шакллари жорий этиш ҳамда модернизациялаш, замонавий ахборот тизимлари ва технологияларидан самарали фойдаланиш бугунги куннинг асосий талаби ва корхонанинг бозор рақобати шароитида яшаб қолишнинг асосий шarti ҳисобланади. Миллий иқтисодийнинг етакчи тармоқларини модернизация қилиш, экспортбop маҳсулотлар ишлаб чиқаришни кенгайтириш, диверсификациялаш, банк-молия тизими ва саноат тармоқлари ўртасидаги интеграцияни ривожлантириш ҳамда мамлакат иқтисодийнинг барқарорлигини таъминлаш орқали инновацион ривожланишга замин тайёрлаш долзарб вазифалардан биридир. Шу сабабли бир қатор етакчи мамлакатларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишидаги ижобий тажрибасидан фойдаланиш республикамизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш учун муҳим аҳамиятга эга.

Ривожланган мамлакатларда инновация жараёнини муваффақиятли кечиши давлат ва бизнеснинг қуйидаги ўзарo таъсир моделида намоён бўлди. Дастлаб давлат инновацион ривожланиш ташаббускори сифатида намоён бўлади, унинг стратегияси, устуворлиги, қўллаб-қувватлаш шакллари белгилайди ва start-up лойиҳаларни молиялаштиради.

Инновацион ривожланишнинг асосий ғояси шундаки, иқтисодийнинг мазкур ривожланиш жараёнида, аввало, билимларни янгилаш тезлиги кескин ортиб боради, бошқа томондан эса, технология ва маҳсулотларнинг мураккаблашуви кўплаб фаолият турлари бу жараёнга жалб қилинади. Бундай шароитда шахс ёки давлатнинг муваффақияти учун нафақат ихтисослашган билимлардан фойдаланиш, балки билимларни янгилаш ва тезкор ўқитиш қобилияти учун кўпроқ аҳамиятга эга бўлади.

Жаҳон тажрибасига кўра, инновацион сиёсат иқтисодий тартибга солишга узвий боғлиқ бўлади. Шу билан бирга у илмий ёки саноат сиёсатининг оддий давоми ҳисобланмай, балки иқтисодийнинг ҳамма йўналишлари бўйича ўзарo боғлиқ чора-тадбирларни акс эттиради. Шунинг учун инновацион сиёсатни ишлаб чиқиш биргина дастур билан боғланмаслиги ёки бир муассасанинг ҳуқуқи сифатида хизмат кила олмайди, балки нафақат вазирликлар, балки иқтисодий ва жамиятдаги турли хамкорлар ўртасидаги консенсусни топиш ва мувофиқлашувни талаб этади.


Бундан ташқари, фан-техника ривожини бошқариш давлат институтлари фаолиятида бир технологик тартибни бошқасига алмаштиришни шароитлари ва баҳосини кўзатиш мумкин. Ахборот технологиялари инқилоби бошқарув тизимини сезиларлича ўзгартирди. Бошқарув назарияси бўйича машҳур америкалик мутахассис В.Хетел билимларни бошқариш ва интеллектуал етакчиликка асосланган анъанавий бошқарувдан бошқарувдаги янги ёндашувга ўтиш моделини тавсифлаб берди. Инновацион салоҳиятдан самарали фойдаланмаслик миллий инновацион стратегияни шакллантирилишига, рақобатбардош, ижтимоий-йўналтирилган бозор иқтисодийни ривожланиш жараёнларига тўсқинлик қилади. Жаҳон кимё саноати соҳасида юз бераётган ўзгаришлар таҳлили шуни кўрсатадики, дунёнинг кўплаб мамлакатларида кузатилаётган жаҳон молиявий-иқтисодий инқирозининг таъсирини қарамай, кимё саноатида барқарор ривожланиш тенденцияси кузатилмоқда.

Ҳисоб-китобларга кўра, жаҳон бозорида кимё саноатида ишлаб чиқарилган маҳсулотларнинг ҳозирги кундаги умумий ҳажми 2391,7 млрд. АҚШ долларини ташкил этади. Чунки кимё саноати жаҳон иқтисодийнинг доимий ривожланиб боровчи муҳим таркибий қисмларидан бирига айланиб бормоқда. Соҳа экспертларининг маълумотларига кўра, ҳозирги даврга келиб бутун дунё бўйича кимё саноатининг йиллик ўсиш суръати ўртача 2,7 фоизга тўғри келмоқда. 2030 йилга бориб кимё саноати маҳсулотларининг жаҳон бозоридаги умумий ҳажми

4391 млрд. АҚШ долларига етиши башорат қилинмоқда.

Сўнгги даврларда Ғарбий Европа давлатларида содир бўлаётган сиёсий, иқтисодий ва молиявий беқарорлик турли соҳаларда бўлгани каби кимё саноатидан ҳам катта миқдордаги молиявий ресурсларни Шарқий Осиё мамлакатларига кўчиб ўтишига сабаб бўлмоқда. Шарқий Осиё мамлакатлари ичида Хитой ўзининг саноат соҳасида юз бераётган туб бурилишлари билан дунё мутахассислари эътирофига сазовор бўлмоқда. Маълумотларга кўра, ўтган 12 йил ичида Хитойнинг кимё саноати 6 баробарга ошган. Хитойнинг замонавий кимё саноати хориж инвесторларининг мамлакатга тўғридан-тўғри йўналтирган инвестициялари ҳисобига шаклланди. Хитой саноатининг ривожланишининг яна бир муҳим жиҳати мамлакатда автомобилсозлик, ахборот-коммуникация тизими ҳамда йирик тўқимачилик корхоналарини пайдо бўлиши кимё саноати маҳсулотларига бўлган талабнинг кескин ортишига олиб келди. Бу эса, ўз навбатида кимё, саноатини тўла қувват билан ишлашига олиб келди.

Иккинчи яна бир муҳим жиҳати Хитой ҳозирги кунда кимё саноатида банд бўлган бир ишчи кучи учун соатига ўртача 1 евро ҳақ тўламоқда. Бу кўрсаткич Польшада 5 еври, Германияда эса 20 еври ташкил этади. Бу эса мазкур давлатларда ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларнинг таннархи ортиб кетишига сабаб бўлади. Мутахассисларнинг фикрига кўра, 2020 йилларда дунё бўйича ишлаб чиқарилаётган жами кимё саноатининг 44 фоизи Осиё мамлакатларига, 40 фоизи Ўрта Шарқ мамлакатларига, 9 фоизи Шимолий Америка ва қолган 7 фоизи бошқа мамлакатлар ҳиссасига тўғри келади (1-расм).



Расмдан кўринадики, 2020 йилларга келиб кимё саноатида Осиё мамлакатларининг улуши ортиб боради. Бунга асосий сабаблардан бири сифатида арзон ишчи кучи, табиий ресурслар нархларининг қулайлиги, инфратузилмаларнинг яхши шаклланганлиги ҳамда қулай инвестицион муҳит мавжудлигини таъкидлашимиз мумкин.

Саноат тармоқларини инновацион технологиялар асосида ривожлантиришнинг Корея Республикаси тажрибасини таҳлил қиладиган бўлсак, мамлакат инновацион салоҳиятини шакллантириш миллий иқтисодийнинг турли тармоқларидаги характери, кўлами, ресурслар ҳажми билан фарқланувчи инновацион сиёсатни ўзида ифода этади ва унинг асосий йўналишларига қуйидагиларни кўрсатиш мумкин.

инновацион фаолият ва унинг рағбатлантириш механизмларининг меъёрий-ҳуқуқий таъминотини ишлаб чиқиш ва такомиллаштириш;

инновацион фаолиятни, ишлаб чиқаришни ривожлантириш, илмий сиғими юқори маҳсулотларни рақобатбардошлигини ва экспортини оширишни қўллаб-

кувватлаш тизимини яратиш;

инновацион жараёнларнинг инфратузилмасини ривожлантириш, шу жумладан, ахборот таъминоти, экспертиза тизими, молия-иқтисодий тизими, сертификация тизими ва илмий ишланмаларни кенгайтириш;

инновацион лойиҳалар ва дастурларни танловлар тизимини такомиллаштириш.

Иқтисодий тармоқларида хусусий инвесторлар иштирокида ва давлат кўмагидаги тезда ўзини қоплайдиган инновацион лойиҳаларни қўллаб-қувватлаш истиқболли ишлаб чиқаришга инвестицияларни жалб қилиш имкони беради. Корея Республикаси юксак салоҳиятга эга бўлган ривожланган давлатдир. Ҳозирги кунда аҳолиси 50 миллион кишидан иборат бўлган Корея Республикаси ҳиссасига жаҳон ялпи маҳсулотининг 2,0 фоизи ҳамда жаҳондаги буюртмаларнинг 33 фоизи тўғри келади. Шунингдек, бу мамлакат ташқи савдо ҳажми бўйича жаҳонда саккизинчи ўринни, кemasозликда иккинчи ўринни, ярим ўтказгич ва дисплейларни ишлаб чиқариш бўйича учинчи ўринни, автомобилларни ишлаб чиқариш бўйича бешинчи ўринни, пўлат қуйиш бўйича олтинчи ўринни эгаллаб турибди. Корея Республикаси ҳозирги вақтда ИТТКИ харажатлари ҳажми бўйича жаҳондаги етакчи ўнта давлат қаторига киради, ихтироларни рўйхатга олиш бўйича АҚШ, Япония ва Хитойдан кейин тўртинчи ўринда туради.

Самарали илмий-технологик сиёсатни амалга оширишга сабаб бўлган қуйидаги омилларни ажратиш кўрсатиш мумкин:

ҳукумат томонидан мамлакатни самарали бошқарилиши;

ИТТКИни ривожланиши учун сифатли меъёрий-ҳуқуқий асоснинг мавжудлиги;

экспортни ривожлантириш ва инвестицияларни жалб қилиш имкониятларини кенглиги;

ижтимоий инфратузилмани такомиллаштириш учун барча чора-тадбирларни қўлланилиши.

Шубҳасиз, Корея Республикасининг Давлат инновация сиёсатини шакллантириш борасидаги тажрибаси Ўзбекистон Республикасида фан-техника соҳасини ривожлантириш сиёсатини такомиллаштиришда катта аҳамиятга эга. Шунинг учун, Корея Республикасида Давлат инновация сиёсатини шакллантириш орқали юқори суръатларда иқтисодий ривожланиш даражасига эришиш алоҳида эътиборни талаб қилади.

Корея Республикаси Давлат инновация сиёсатининг асосий мақсади қуйидагиларда кўринади:

инновацион фаолият учун иқтисодий, ҳуқуқий ва ташкилий шароитлар яратиш;

асос ва яхшиловчи инновацияларни яратиш ва тарқатиш асосида миллий товар ишлаб чиқарувчиларнинг маҳсулотни ишлаб чиқариш самарадорлиги ҳамда рақобатбардошлигини ошириш;

инновациялар орқали бозор муносабатлари ва тадбиркорликни ривожланишига кўмаклашиш, инновация фаолиятини давлат томонидан қўллаб-қувватлашни кенгайтириш;

давлат ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш.

Жумладан, машинасозлик, кemasозлик, кимё саноати, электроника, электр энергетика каби капиталталаб ва технологик жадал соҳалар давлат томонидан қўллаб-қувватланди. KAIST базасида вазифаси хорижий технологияларни ички фойдаланишга мослаштириш ва яхшилашдан иборат стратегик тармоқлардаги тадқиқотларга ихтисослашган, давлат томонидан молиялаштирилувчи янги тадқиқот институтлари ташкил этилган. Тадқиқотчи ва муҳандис кадрлар тайёрлаш тизими ривожланиб борди. Шу даврда KAIST каби инсон ресурсларини ривожлантириш ва кадрлар тайёрлаш соҳасидаги давлат сиёсатини амалга ошириш воситаси бўлган олий ўқув юртлири ташкил этилди.

Ҳозирги кунда техник тараққиётнинг юқори суръатларида инновация ўзидан-ўзи пайдо бўлиб қолмайди, уни пайдо бўлиши учун муайян таянч давлат томонидан яратилиши зарур. Айнан мамлакатнинг шундай таянчни инновация учун пайдо бўлишини инновацион салоҳият сифатида эътироф этиш мумкин. Инновацион салоҳият илмий ишланмалар, илмий мактабларнинг ишлаб чиқаришдаги ютуқларига таяниши керак. Инновацион салоҳиятни мамлакат учун юқори малакали кадрлар, жорий илмий татбиқлар ва ишланмалар яратади.

Фойдаланган адабиётлар

Hospers Gert-Jan. Joseph Schumpeter and His Legacy in Innovation Studies. Knowledge, Technology, & Policy, Fall 2005, Vol. 18. №3. P.20

Ф.Т.Эгамбердиев, Н.К.Мухитдинова. Глобаллашув шароитида жаҳоннинг етакчи мамлакатларининг инновацион сиёсати. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” № 1, 2011 й

Инновации: теория, механизм, государственное регулирование.-М.: РАГС, 2000й.

MUSIQA MADANIYATI VA UNING HAYOTDAGI O'RNIDOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.97.34.024>*Xamidov Shirmamat O'roqovich**Termiz Davlat Universiteti musiqa ta'limi kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalqining musiqa madaniyati uzoq o'tmishdagiso'z yuritilgan. Ayniqsa folklor musiqasi, an'anaviy xonandaik va mumtoz ashula san'atini bizgacha etib kelishida o'zining ulkan hissalarini qo'shib kelgan ustoz san'aktorlar haqida so'z yuritilgan. Ushbu musiqiy me'rosimizning bugungi kundaga yosh iste'dodli sana'tkorimiz tomonidan ijro etib kelinayotganligi alohida ta'kidlab o'tilgan. Prezidentimiz ta'kidlaganlariday, ma'naviyat masalasi millat tarixi, axloqiy va diniy qadriyatlar, madaniy meros, an'ana va rasm-rusumlar, milliy mafkura, vatanparvarlik va insonparvarlik, milliy o'zlikni anglash singari juda ko'p omillarni o'z ichiga oladi va pirovardida, inson shaxsini belgilashda asosiy mezon vazifasini bajaradi.

Kalit So'zlar: folklor, raqs, an'anaviy, noan'anaviy, mumtoz, kompozitor, o'zbek kompozitorlik maktabi, nota, epik poema, o'n ikki maqom, tanovar.

МУЗЫКАЛЬНАЯ КУЛЬТУРА И ЕЕ РОЛЬ В ЖИЗНИ*Хамидов Ширмамат Урокович**Преподаватель кафедры музыкального образования Термезского государственного университета*

Аннотация: В этой статье рассказывается о музыкальной культуре узбекского народа в далеком прошлом. В частности, речь идет о мастерах, которые внесли свой огромный вклад в развитие искусства фольклорной музыки, традиционного пения и классического пения. Было особо подчеркнуто, что этот музыкальный мир до сих пор исполняется молодыми талантливыми музыкантами. Как отметил президент нашей страны, вопрос духовности включает в себя множество факторов, таких как история нации, нравственные и религиозные ценности, культурное наследие, традиции и обычаи, национальная идеология, патриотизм и гуманизм, национальное самосознание и, в конечном счете, выступает в качестве основного критерия при определении личности человека.

Ключевые слова: фольклор, танец, традиционный, нетрадиционный, классический, композитор, узбекская композиторская школа, нота, эпическая поэма, Двенадцать статусов, тановар.

MUSICAL CULTURE AND ITS ROLE IN LIFE*Xamidov Shirmamat O'roqovich**Teacher of the Department of music education of Termez State University*

Abstract: the music culture of the Uzbek people has long been described in this article. In particular, there is a mention of master artists who have made tremendous contributions to folk music, the art of traditional singing and classical singing to us. It was emphasized that this musical norm is being performed today by our young talented industrialists. As noted by the president of our country, the issue of spirituality includes a lot of omens, such as the history of the nation, moral and religious values, cultural heritage, traditions and Customs, national ideology, patriotism and humanism, national self-awareness, and ultimately serves as the main criterion in determining a person's personality.

Keywords: folklore, dance, traditional, non-traditional, classical, composer, Uzbek School of composers, note, epic poem, twelve status, recognition.

O'zbek xalqining musiqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, an'anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo'llari, shuningdek, folklor – havaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko'rinishlari bir-birini to'ldirib keldi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunimizda ham ma'naviy madaniyatimizning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'lmoqda. Mustaqillik sharofati bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, unutilayozgan, tarixan qadrlanib an'analarimizga bo'lgan e'tibor, ularni yangidan isloh etish jarayoni ustivor yo'nalish kasb etdi. Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, ma'naviy boyligimizga bo'lgan e'tibor davlat miqyosiga ko'tarildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ota-bobolarimizdan, ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy boyliklarni, jumladan, musiqiy madaniyatni avaylab asrash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida talaygina ishlar qilindi. Bu borada o'tgan ajdodlarimiz bizlarga meros qilib qoldirib ketgan ulkan ma'naviy boyligimiz asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Tarixdan ma'lum, ma'naviyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan musiqiy madaniyatimiz, an'anaviy qo'shiqlarimiz, maqom ijrolari hamisha xalqimizning kundalik hayotida ma'naviy ozuqa sifatida e'tirof etib kelingan. Xalq og'ir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham qo'shiq va musiqa ularga hamroh bo'lgan. Zero, bugungi muborak mustaqillikka erishgan kunimizda, o'zligimizni anglab borayotgan bir davrda ulkan ma'naviyatimizning bir bo'lagi bo'lgan, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish, an'anaviy qo'shiqlarimizga murojaat qilish tabiiy bir holdir. Bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy musiqa va qo'shiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, mehr-oqibatga, odamiylikka chorlab kelgan. Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yo'qotmagan holda mustaqillikka, mehnatkashlar ongini shakllantirish yo'lida, barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy omillardan bo'lib qolaveradi. Ashula, musiqa, raqs, folklor ijrochiligi san'ati milliy musiqa san'atining xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'lgan va rivojlanib kelgan qadimiy san'at turlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, xalqimizning an'anaviy ruhdagi qo'shiqlari o'lmas meros bo'lib, barcha davrlardagidek bugun ham «labbay» deb javob bermoqda. Lekin shu bilan bir qatorda faqat tarixga sajda qilmay, bugungi kunning ruhiga mos tarzda qo'shiqlar yaratish esa milliy mafkuramizni rivojlantirishda bosh omillardan bo'lmish musiqiy san'at bilan shug'ullanayotgan barcha mutaxassis va san'atkorlarga muhim vazifa qilib qo'yilishi tabiiydir. Mamlakatimiz tamomila yangi jamiyat, yangi turmush va yangi hayotni boshlab yubordi. Odamlarimiz qalbi, tafakkuri va tasavvurida o'zgarishlar paydo bo'ldi. Prezidentimiz ta'kidlaganlariday, ma'naviyat masalasi millat tarixi, axloqiy va diniy qadriyatlar, madaniy meros, an'ana va rasm-rusumlar, milliy mafkura, vatanparvarlik va insonparvarlik, milliy o'zlikni anglash singari juda ko'p omillarni o'z ichiga oladi va pirovardida, inson shaxsini belgilashda asosiy mezon vazifasini bajaradi. Ma'naviylik va ma'rifiylik xalqimizning ko'p asrlik tarixi davomida doimo uning eng kuchli o'ziga xos xususiyati bo'lib keldi. Ushbu tamoyillardan kelib chiqib, ma'naviy jabhalarning barcha yo'nalishlari o'zlarining maqsad va vazifalarini belgilab olishlari zarur bo'ladi. Ayniqsa, bu jabhada musiqiy madaniyatning ma'naviy hayotdagi o'ziga xos o'rnini baholash, uning ta'sirchanlik kuchini mustaqillik mafkurasi tomon yo'naltirish uning bosh mezonini ekanligini anglash muhimdir. Madaniy hayotda bugungi kunda shu tamoyilga ko'ra siljishlar kuzatilmoqda. Ijodkorlarning fikri-zikri ana shu tamoyillar yo'lga yo'naltirilgan desak, xato qilmagan bo'lamiz. Musiqiy madaniyat o'zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o'zining chuqur ildizlari qadimgi davrlarga etib boradigan o'zbek xalqining boy musiqa merosi hozirgi kundalik hayotimizdan ham tushgani yo'q. U xalq ijodining yuksak namunalarini, folklor ijrochiligi, kuy tuzilishi, mazmunan rivojlangan cholg'u va ashula asarlari, dostonlar ijrochiligi hamda murakkab ijrochilik turkumi atalmish maqom musiqasini o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, xalq musiqiy madaniyatida o'zlarining barcha davrlarda sezilarli hissalarini qo'shib kelayotgan xalq bastakorlarining ijodi ham salmoqli o'rin tutadi. XIX asr oxirlariga kelib o'zbek musiqiy madaniyatida o'zgarishlar davri boshlandi. Bu albatta, Turkiston o'lkasini Rossiya tomonidan istilo qilinishi bilan bog'liqdir. Bu borada ikki tomonlama qarash bilan o'rganmoq zarur bo'ladi. Chunki ba'zi bir hollarda milliy musiqa madaniyatimizga salbiy ta'sirini kuzatsak, ikkinchi tomondan, o'ziga xos rivojlanish davri bo'lganligini ham e'tirof etish zarur bo'ladi. Chunki nota yozuvining kirib kelishi, o'lkamizda milliy musiqa san'atimizni ilmiy ravishda o'rganish, folklor va etnografiya sohasidagi rivojlanishga sezilarli ta'sir etdi. Bu borada V.A.Uspenskiy, E.E.Romanovskaya, N.N.Mironov singari musiqashunos va etnograf olimlarning mehnatlarini aytib o'tish zarur bo'ladi. Ilyos Akbarov, Mutal Burxonov, Yunus Rajabiy, Tolibjon Sodiqov, Muxtor Ashrafiy singari musiqamiz darg'alari ulardan saboq oldilar. Bundan tashqari, jahon musiqiy madaniyatining durdonalari sanalmish fortepiano sozi, opera va balet, simfonik ijro, jahon klassik musiqiy sozlarining kirib kelishi musiqiy madaniyatimizning har tomonlama serqirra rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Natijada, o'zbek xalq musiqalari, qo'shiqlari, maqomlari joy olgan 20 jilddan ortiq kitoblar dunyo yuzini ko'rди. So'nggi 130 yil ichida musiqiy madaniyatimiz murakkab, keskin ziddiyatlarga, ijobiy va salbiy ko'rinishlarga to'la tarixiy davrni boshidan kechirdi. Ana shu holatlarga qaramay, o'tgan davrlar mobaynida ilm fan, san'at, jumladan, musiqiy madaniyat sohasida faxrlanishga arzigulik ishlar amalga oshirilganligini e'tirof etish zarur. Yaqqol misol sifatida musiqa ijodiyoti, ijrochiligi, musiqa ilmi, ta'limi singari sohalarni olish mumkin. Shu o'tgan davrlarning salbiy oqibatlarini sifatida hayotimizning o'ta siyosiy lashtiriluvini, milliy qadriyatlarimizni mensimaslik, uning toptalishiga yo'l qo'yilishi, xalqchil yo'nalishlarga bepisandlik munosabatida bo'lish, azaliy xalqaro madaniy aloqalar rivojlanishiga sun'iy to'siqlar qo'yilishi kabilarni ko'rsatish mumkin. Hozirgi zamon o'zbek musiqa ijodiyoti serjabha va ko'lami keng, usluban boy va rang-barang, rivojlangan va shiddatli jarayon sifatida gavdalanadi. Zotan, musiqiy madaniyatimiz juda qadim, betakror va noyob an'analarga ega bo'lgani holda, zamona zayli bilan yangidan-yangi yo'nalish, shakl, janr, uslublar bilan yanada boyib bormoqda. Demakki, asrlar osha bizgacha etib kelgan ardoqli navo-baxsh merosimiz qatori bir necha avlod ijodkorlarining ko'rkam musiqiy an'analari madaniy-ma'naviy mulkimizga aylandi. Har qanday san'at turi har xil vositalar orqali hayotiy voqelikni aks ettirishga qodir ekan, so'nggi yuz yillik mobaynida O'zbekiston musiqasining rivojlanishi nechog'lik murakkab va o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarda kechganini yaqqol tasavvur qilish mumkin. Xususan, 20-yillardan e'tiboran kompozitorlikka xos ifoda vositalarining izchil joriy etila boshlanishi musiqiy madaniyatimizda musiqa ijodkorligining yangi tizimi barpo etilishidan dalolat berdi. Tabiiyki, tez orada o'zbek xalq ijodiyoti, an'anaviy bastakorlik hamda havaskorlik singari o'zaro chambarchas bog'liq qatlamlar bilan uzviy bog'liq ravishda milliy qadriyatlarimizga, «noan'anaviy» kompozitorlik ijodkorligi muhim tarmoq sifatida qo'shiladi. Umumbashariy madaniy taraqqiyotga mos ravishda mazkur jabha o'lkamizda tarixan juda qisqa muddat ichida uzil-kesil shakllanib, samarali rivoj topganini alohida e'tirof etish lozim. G'arbiy va Sharqiy Ovrupa mamlakatlari tajribasidan unumli foydalanibgina qolmay, o'zgacha yaratuvchanlik qonun-qoidalarini o'zlashtirish, uni o'zbek xalq musiqasining boy imkoniyatlari bilan mohirona payvand qilish maqsadida ilg'or kompozitorlarimiz nafaqat Markaziy Osiyo, balki Sharq mintaqasi doirasida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldilar. Kasbiy ulg'ayish bosqichlarini tezkorlik bilan o'tab, har tomonlama etuklik pallasiga ko'tarilishi bilan «O'zbek kompozitorlik maktabi» dunyo musiqiy madaniyatida o'ziga munosib o'rinni egallashga intildi. Asosan XX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan ana shunday ijodga moyillik darajasi ilgari ayricha holda bo'lgan ikki toifadagi musiqiy tafakkur an'analarning o'lkamizda uzviy mushtarakligiga erishilganligi bilan ham xarakterlanadi. SHu boisdan ko'p ovoqlik uslub ila bunyod etilgan turli janrlardagi badiiy jihatdan barkamol, mumtoz asarlar

ma'naviy qadriyatlarimizning jahonshumul salohiyatini yanada oshirdi. Musiqiy madaniyatimizning yangi yo'nalishi bo'lgan o'zbek simfonik musiqasi 70-80-yillarda peshqadam safga chiqib olganini eslab o'taylik. Bu o'rinda respublikamizda, qo'shni va qator xorijiy mamlakatlarda o'tkazilgan nufuzli madaniy tadbirlar, konsert, ko'rik-tanlov hamda festivallarda katta muvaffaqiyat bilan ijro etilgan o'zbekona poemalar, syuitalar, uvertyuralar, fantaziya, cholg'u konsertlar va simfoniyalar xalqaro musiqa jamoatchiligi diqqat-e'tiborini qayta-qayta o'ziga jalb qilgan. Bugungi kunda o'zbek musiqa san'ati nafaqat asl an'anaviy ko'rinishlarida, balki kompozitorlik yo'nalishlarida ham xalqaro miqyosda tobora kengroq tan olinmoqda. Bu ma'noda sof cholg'u musiqasi, xususan, uning ancha murakkab sanalmish simfonik ijo-diyoti alohida e'tiborga molik. Endilikda respublikamiz kompozitorligi shunchaki xilma xil musiqa janrlarida yozish va izlanish tajribalaridan iborat bo'lmay, balki noyob an'analarga, mumtoz namunalar xazinasiga ega sarmahsul oqimdir. Uni turli yillarda xalqchil kuy ohanglar zaminida yaratilgan noyob va betakror asarlar tashkil etadi. Zero, har qanday andozada bastalangan musiqaning milliylik, badiiy barkamollik, o'ziga xoslik, mazmundorlik, ta'sirchanlik kabi fazilatlarini hamisha qadrlidir. YUksak kasb mahorati, teran bilimdonlik, nozik did bilan ko'hna milliy an'analarga tayanib yaratilgan asarlarning umri boqiyiligini birgina o'zbek simfonik musiqasi misolida yaqqol ko'rish mumkin. Jumladan, 30-yillarning ikkinchi yarmida yaratilgan Aleksey Kozlovskiyning ovoz va simfonik orkestriga moslashtirilgan ehtirosli «Tanovar» poemasi, «Lola» syuitasi, Reyngold Glierning «Farg'ona bayrami» shodiyona uvertyurasi tinglovchilarga hamon olam-olam zavqu shavq bag'ishlab kelmoqda. Simfonik orkestr ishtirokida ijro etishga mo'ljallangan o'lmas kashfiyot darajasidagi asarlar ora-sida Mutal Burhonovning yakkaxon, xor va simfonik orkestr uchun «Alisher Navoiyga qasida»si, Muxtor Ashrafiy, Georgiy Mushelp, Sulaymon YUdakovlarning qator simfonik asarlari, Doni Zokirov-ning «Lirik poema»si, Boris Nadejdinning «Bolalarga» syuitasi, Ikrom Akbarovning «SHoir xotirasiga», «Epik poema»lari, «Samarqand hikoyalari» turkumi, Sayfi Jalilning «Samarqandnoma» simfoniyasi, To'lqin Qurbonovning simfonik kuy-lari, Mirsodiq Tojievning «SHoir sevgisi» poemasi va 19 ta muhtasham simfoniyalari, Mirxalil Mahmudovning 3 ta simfoniyasi, Nurilla Zokirov, Mustafo Bafoev, Rustam Abdullaev, Habibullo Rahimov, Bahrullo Lutfullaev va boshqa ijodkorlarning yutuqlari musiqiy madaniyatimiz ravnaqiga munosib hissa bo'lib qo'shildi. Zaminimizdagi musiqa san'atining rivoji uch ming yilga borib taqaladi. O'tgan bu zalvorli davrlar mobaynida musiqiy madaniyati-miz juda ko'p marta o'zining uzoq rivojlanish davrini bosib o'tdi va xalqimiz ma'naviy boyligining negizi sifatida ezgulik va taraqqiyot uchun xizmat qildi. SHuning uchun ham biz juda boy, rang-barang, ko'lami keng, usluban xilma xil, qiymati chin ma'noda bebaho darajali ulug'vor musiqiy merosga egamiz. O'rta asrlarda faqat mumtoz ijodkorlik qatlamida «O'n ikki maqom»dek muhtasham tizim, uning negizida shakllanib bizgacha etib kelgan Buxoro va Xorazm maqom turkumlari, Farg'ona-Toshkent maqomlari, an'anaviy ijrochilik va surnay yo'llari, xalq bastakorlik ijodkorligi, musiqiy dostonchilik san'ati musiqiy madaniyatimizning sarchashmalari sifatida bahramand qilib kelmoqda. Milliy cholg'ularimizning toifalari ko'pligi, turfa yakka va jo'rnavozlik ijro an'analari o'ziga xosligi bo'yicha milliy musiqa san'atimizga dunyo uzra teng keladiganini topish qiyin. SHarq musiqa ilmining asoschisi deb butun jahonda tan olingan vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy, buyuk allomalarimizdan Abu Ali ibn Sino, Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zaynulobiddin Husayniy, Kavkabi Buxoriy, Darvish Ali CHangiy va boshqalar sharqona jahonshumul ahamiyatga molik noyob nazariy va estetik qarashlarni ishlab chiqqan holda mumtoz musiqiy asarlarning ham muallifi sifatida keng tanilgandirlar. Ana shunday xalqchil va ustozona qatlamlar orqali bizgacha etib kelgan musiqiy madaniyatimiz tufayli tarixan juda qisqa muddatlarda O'zbekistonda yanada yangicha, ko'p ovoqli milliy kompozitorlik ijodiyoti uzil-kesil shakllandi, o'z qiyofasiga ega bo'ldi, jadal ravnaq topdi. Bunda xalq musiqamiz, ayniqsa, maqomchilik an'analari



faqat hayotbaxshlikni ta'minlabgina qolmay, balki mahsuldor zamin bo'lib xizmat qildi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. D.Q.Qodirov. «An'anaviy qo'shiqchilik». Toshkent. «Iqtisod-moliya» nashriyoti. 2008 yil.
2. M.Jalilov. «Qo'shiqlar xrestomatiyasi». I-II kitob. Toshkent. 2002-2003 yil.
3. M.Jalilov, J.Sadirov. «Qo'shiqlar xrestomatiyasi». Toshkent. «O'qituvchi» nashriyoti. 1995 yil.
4. Ibroximov O.»Maqom asoslari».Toshkent»TURON-IQBOL»2018-yil.
5. O.Matyoqubov. «Moqomat». Toshkent. «Musiqqa» nashriyoti. 2004 yil.
6. I.Rajabov. «Maqom asoslari». O'rta va oliy o'quv Yurtlari uchun metodik qo'llanma. O'zbekiston madaniyat vazirligi madaniyat bo'limi. Toshkent. 1992 yil. 90-bob.
7. A.Xakimov.D.Ergasheva»Saraxbor»»Namangan» nashriyoti 2010yil.

**BO'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARIDA
KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHNING BA'ZI JIHLARI**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.75.95.023>*Xayitov Jonibek Xolboboyevich**Termiz davlat universiteti texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi.*

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kreativlik qobiliyatini rivojlantirish hamda ularni ijodkorlik ruhida tarbiyalash masalalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar : texnologiya, o'qituvchi, kreativ, qobiliyat, rivojlantirish.

**НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОСТИ У БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ-ТЕХНОЛОГОВ***Хайитов Жанибек Холбобоевич**Преподаватель кафедры технологического образования Термезского государственного университета.*

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы развития творческих способностей будущих учителей-технологов и воспитания их в духе творчества.

Ключевые слова: технология, учитель, творчество, способности, развитие.

**SOME ASPECTS OF CREATIVENESS DEVELOPMENT IN FUTURE
TECHNOLOGY SCIENCE TEACHERS***Khayitov Jonibek Holboboyevich**Teacher of the Department of technological education of Termez State University.*

Abstract: The article addresses the issues of developing the creative abilities of future technology teachers and educating them in the spirit of creativity.

Keywords: technology, teacher, creativity, ability, development.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim masalalardan biri sanaladi. Shuning uchun ham bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini ijodkorlik ruhida tarbiyalash ijodkor insonlar bilan davra suhbatlarini olib borish har - bir o'tilayotgan darslarni ijodkorlik bilan tashkil qilish zarur. shu jumladan pedagogik oliy o'quv yurtlarida Texnologiya fani o'qituvchilarini kreativlik qobiliyatini rivojlantirishni rag'batlantiradigan psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratish zarur. Bugungi kunda jamiyatning oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarga to'g'ri yondashgan holda ularni amalda bajarish o'qituvchining vazifasidir. Pedagogik faoliyat inson mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir.

Kreativlik tushunchasi (lot., ing. «tsreate»-yaratish, «tsreative»-yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod ma'nosini anglatadi. Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish mumkun. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb uning fikrlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkun. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi.[2]

«Kreativlik otasi» nomi bilan mashhur Pol Torrans to'rtta kreativlik konikmasini aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko'nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkun:

1. Ravonlik. Ko'plab g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi ko'p degan so'zga asoslanadi.

2. Moslashuvchanlik. Turli g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi o'zgartirish degan so'zga asoslanadi.

3. O'ziga xoslik. Boshqalarga o'xshamagan, ajralib turuvchi g'oyani o'ylab topish ko'nikmasi noyob degan so'zga asoslanadi.

4. Yaratuvchanlik. G'oyalarni kengaytirish ko'nikmasi qo'shish degan so'zga asoslanadi.[1]

Xorijiy pedagoglar, xususan, Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning ayniqsa o'qituvchining kreativligi boshqalarni ijodiy jarayonini tashkil etishga ruhlantiradi. Shaxsning ijodiy fikrlashi va kreativligini rivojlantirishga yordam beradigan quyidagi shart-sharoitlar mavjud, ijodiy qobiliyatlar va ijodiy motivatsiyaning mavjudligi. Shu bilan birga, agar bu uchta omil bir-biriga to'g'ri keladigan bo'lsa, ijodiy qobiliyatlarning yuqori darajadagi namoyon bo'lishi mumkin. 1) aniq belgilangan va qat'iy nazoratdan farq qiladigan to'liq bo'lmagan holatlar; 2) kelgusi faoliyat uchun strategiya va vositalarni yaratish va ishlab chiqish; 3) mas'uliyat va mustaqillikni rag'batlantirish; 4) mustaqil ishlanmalar umumlashmalar, kuzatuvlarga e'tabor berish. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarda kreativ fikrlashlarini shakllantirish jarayonida, muammoli ta'lim texnologiyalaridan o'quv, ilmiy va kasbiy pedagogik muammolarni shakllantirish va hal qilishni ta'minlashda foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning barcha tashkiliy shakllari va usullarini bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish: ma'ruzalar, amaliy va seminarlar, mustaqil va yakka tartibdagi ishlarga bo'ysundirish hamda ularni jalb qilish zarur. Ma'lumki, muammoli ma'ruza talabalarning o'rganilayotgan masalalarga qiziqishini uyg'otadi, qo'shimcha ma'lumot izlashda faollik va mustaqillikni rag'batlantiradi.

Shu bilan birga, o'qituvchi tomonidan taklif qilingan muammolarni hal qilish jarayonida ular tomonidan mustaqil qo'shimcha bilimlar olinadi. Muammoli ma'ruzalarga quyidagilar kiradi: ma'ruza-dialog, ma'ruza-munozara, ma'ruza-munozara va boshqalar. Muammoli amaliy va seminar mashg'ulotlari turli shakllarda o'tkazilishi mumkin, masalan: mavzuning individual masalalari bo'yicha munozaralar shaklida; munozara, debat (qo'shimcha o'quv materialini mustaqil o'rganishni talab qiladigan) shaklida; barcha o'quvchilarning diqqatini faollashtiradigan va dalillarga asoslangan fikrlashni rivojlantirishga hissa qo'shadigan tezislarni himoya qilish shaklida; kelajakdagi o'qituvchilarning nazariy bilimlarini amalda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradigan kasbiy va pedagogik muammolarni hal qilish shaklida; mutaxassislarni tayyorlashning faol usuli bo'lgan ishbilarmonlik o'yinlari shaklida, chunki ular tadqiqot, o'qitish va ta'limning ayrim shakllaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismi bo'lgan amaliy mashg'ulotlar loyiha usuli asosida tashkil etilishi kerak.[3]

Bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchisining kreativligi, bu uning qat'iy chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil haqiqiy g'oyalarni izlab topish layoqatidir. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining kreativ bo'lishi uchun kishi ko'proq kreativ insonlar bilan muloqat qilishi va hamisha izlanishda bo'lishi lozim. Har qanday ko'nikmani shakllantirish mumkin bo'lganday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko'nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Buning uchun bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilari doimo o'z ustida tinimsiz ishlar olib borish shu bilan birgalikda kreativ insonlar bilan yaqindan suhbatlar olib borish kreativlik qobiliyatlarini o'zida shakllantirish kerak. Bu bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilari uchun juda muhim bo'lib, kreativlik ustida ishlash bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilariga noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Biroq bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini ruhlantirish va kreativ bo'lishga undash o'qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bog'liq. Shuning uchun ham bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim masalalardan biri sanaladi.[4]

Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda pedagog

alohida o'rin tutadi. Bu jarayonda "pedagogning roli auditoriyada kreativlik muhitini yaratishdan iborat. Vaholanki, pedagog guruhda bo'lajak o'qituvchilar o'zini erkin seza oladigan va o'z fikrlari, g'oyalari bilan bo'lisha oladigan muhit yaratishi lozim. Bo'lajak o'qituvchilar inson ongida yuz berayotgan jarayonlarni yanada faollashtirish uchun o'rnatilgan qonun qoidalar, standartlardan chetga chiqib, turli savollar berishda erkin harakat qilishlari kerak. Pedagog bo'lajak o'qituvchilardagi kreativlikni noodatiy g'oyalarni o'rta tashlash va ularni verbal va noverbal tarzda rag'batlantirish orqali qo'llab-quvvatlaydi.

Pedagogning bo'lajak o'qituvchilar berayotgan kreativ g'oyalari nisbatan to'g'ri munosabati ularning mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan shartlarni anglashida muhim ahamiyatga ega. Mazkur elementlarning barchasi pedagog-talaba munosabatining muhim qismi bo'lib, bo'lajak o'qituvchilar muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Kreativ muhitda ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchilarda asta-sekin kreativ vazifalarni bajarishga nisbatan qiziqish ortadi, shuningdek, kreativ tafakkurga ega pedagogni kuzatish natijasida kreativ fikrlashga moyil bo'ladi. Kreativlik xarakteridagi o'quv-bilish muhiti bo'lajak o'qituvchilarda ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lgan tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasining rivojlanishiga olib keladi.

Har bir bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchisi ijodkor bo'lishi va har bir dars davomida ham ijodkor bo'lishi kerak. Kreativlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va kreativlik nazariyachilarining ishlari bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarining kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Bu auditoriyadagi muhit, bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini fikrlash tarzining shakllanishi, o'qituvchining yondashuv va strategiyalari elementlarini o'z ichiga oladi. Texnologiya fani o'qituvchilarini o'z kasbining bilimdoni qilib tayyorlashda oliy o'quv yurtlaridagi talabalar ilmiy tadqiqot ishlari metodologiyasini yaxshi yo'lga qo'yish katta rol o'ynaydi. Bunday ilmiy tadqiqot metodologiyasi bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning asosiy jihati hisoblanadi. [5]

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda tadqiqotchilik ko'nikmalarining o'rnini muhim. Bularga nazariy o'rganish, kuzatish, muammoni qo'ya bilish, faraz qilish, farazdan kelib chiqib reja tuzish, tajriba o'tkazish, tajriba natijalarini olish, farazga nisbatan tajriba natijasini taqqoslash, nazariy tahlil qilish va umumlashirish, amalda qo'llab ko'rish kabilar bilan bog'liq ko'nikmalar kiradi. Aytilganlarning ba'zilari fan asoslarini o'rganishda, ba'zilari amaliyot jarayonida, yana boshqalari izlanish ishlari orqali shakllanadi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining faoliyatida, muammoni qo'yish uchun tadqiqot vazifasi birinchi o'ringa o'tishi maqsadga muvofiq, chunki unda bajariladigan ishning maqsadi va unga bo'lgan ehtiyoj o'z aksini topadi.

Har bir bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining o'zini- o'zi rivojlantirishi va o'zini- o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisi o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining o'zini-o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor

qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi.[6]

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda tez suratlarda rivojlantirilib boriladi. Odatda kreativlik bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida ko'zga tashlanmasada, biroq bu holat kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafolatlaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;

2) bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;

3) bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

4) bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari ning qiziqishlariga e'tibor qaratish

Bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilari doimo ijodkor bo'lishi kerak shundagini o'z fanining ustasi bo'ladi. Ta'lim jarayonida ham ularni kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishga shart-sharoit yaratib berish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A va boshq.. Texnologiya fanini o'qitish va psixologik xizmatni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. -T.: „Muhammad poligraf“ MCHJ, 2017

2. Bekmurodova S. Texnologiya fanini o'qitishda yangicha yondashuv. T.: 2017

3. Shomirzayev M.X. Ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muammolari // Zamonaviy ta'lim. – T., 2019.

4. Muslimov N.A. «Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi» / Monografiya. -T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013.

5. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik. –T.: “TerDU nashr-matbaa markazi”, 2020. – 226 b.

6. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitishning samaradorligini oshirish yo'llari. O'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma. –T.: 2019. – 72 b.

Шомирзаев М.Х. Ўзбекистонда миллий хунармандчилик ривожла-нишининг тарихий – ижтимоий асослари / Таълим-тарбия контекстида фанлараро синхрон ва асинхрон боғланишлар. Илмий-услубий мақолалар тўплами. – Т.: Noshirlik yog'dusi, 2019. - Б.52-57.

Шомирзаев М.Х. Технология фани жараёнида ўқувчиларни тадбиркорлик ва кичик бизнес фаолиятига тайёрлаш / Таълим-тарбия контекстида фанлараро синхрон ва асинхрон боғланишлар. Илмий-услубий мақолалар тўплами. –Т.: Noshirlik yog'dusi, 2019. -Б.176 -178.

**MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISH JARAYONIDA BO'LAJAK
TEKNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINI KREATIVLIGINI
SHAKLLANTIRISH**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.28.62.022>*Xayitov Jonibek Xolboboyevich**Termiz davlat universiteti texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi.*

Ergasheva Sarvinoz Baxtiyor qizi
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini kreativligini shakllantirish masalalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Mutaxassislik, fan, o'qitish, jarayon, texnologiya, o'qituvchi, kreativlik, shakllantirish.

**ФОРМИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСТВА БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ
ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ***Хайитов Жонибек Холбобоевич**Преподаватель кафедры технологического образования, Термезского
государственного университета.*

Эргашева Сарвиноз дочь Бахтиёр
Преподаватель Термезского государственного университета.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы формирования творческих способностей будущих учителей технологий при преподавании предметов специальности.

Ключевые слова: специальности, наука, обучение, процесс, технология, педагог, творчество, шейпинг.

**FORMATION OF CREATIVITY OF FUTURE TECHNOLOGY
TEACHERS IN THE PROCESS OF TEACHING SPECIALTIES***Xayitov Jonibek Kholboboyevich**Lecturer at the Department of Technological Education, Termez State University.*

Ergasheva Sarvinoz Baxtiyor qizi
Lecturer at Termez State University

Abstract: The article addresses the issues of shaping the creativity of future Technology teachers in the teaching of specialty subjects.

Keywords: Specialty, science, teaching, process, technology, teacher, creativity, shaping.

Kreativlilik (lot., ing. Create-yaratish. Creative-yaratuvchi, ijodkor)-individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsda kreativlik (ijodkorlik) sifatlarini rivojlantirish tushunchasining ma'noni tushunib olish talab etiladi.

Ijodkorlik qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadi va o'z mavbatida ichki sezgini rivojlantiradi. Ijodkorlik qobiliyati, ichki sezgi va umumiy intellect kesishganda ijod mahsuli yaratiladi. Bu borada mutaffakir Abu Ali ibn Sino qarashlarida ham kreativlikni talqin etishimiz mumkin. Uning qarashlarida o'qituvchi o'quvchilarining mayl, intilish, faolligi, qobiliyati, istedodi va layoqatlarini inobatga olisi lozim. Mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini kreativligini shakllantirish

bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Kreativlik o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziyani o'z ichiga qamrab oladi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi.[4]

Ana shu nuqtai-nazardan ilg'or kompetensiyalarga asoslangan innovatsion ta'lim muhitini shakllantirish, interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalarini amaliyotga keng tatbiq etish asosida bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarida mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Mutaxassislik fani darslarida ta'lim tamoyillaridan foydalanib bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarida ijodkorlik faoliyatini tashkil etish imkoniyatlarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Ta'lim-tarbiya jarayonlarini yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etish. Unda, ta'lim berish jarayonida, jamiyat qonuniyatlarini ijtimoiy tarixiy taraqqiyotining ongli sur'atda tushuntirish orqali bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini yakka holdagi rivojlanish omillarga tayanish. Ta'lim jarayonidagi ikki jihat omilga; tashqi tasvirlar va ichki imkoniyatlarni, ta'lim jarayonining harakatlantiruvchi kuchlarni sifatida hisobga olgan holda talabalarni bilish faoliyatlarini tashkil etish bosqichlariga tayanish lozim.

2. Mutaxassislik fanidagi uzviy va uzluksiz kasb-hunar ta'limi tamoyillariga binoan o'qituvchi faoliyatida ta'lim tamoyillarining o'rnini belgilashda talabalarining bilish faoliyati xususiyatini belgilovchi asosiy bilim berish tamoyillarini asos qilib olish muhim ahamiyatga ega.

3. Mutaxassislik fanining tarbiyaviy xarakteridagi tamoyili tarbiyalovchi ta'limning asosiy qoidalari; dunyoqarashni shakllantirish, ahloqiy sifatlarni va irodani tarbiyalash, tarbiyani shakllantirish, qobiliyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

4. Mutaxassislik fanining ilmiylik tamoyillari va jamiyat qonunlariga mos keluvchi, hamda asoslangan bilim-talaba ongini haqqoniy rivojlantirishda yetakchi o'rinni egallaydi. Unda o'quv materialidagi ilmiy qonuniyatlarni aks ettirish, nazariy qoidalarni tushunish-fikrlash faoliyati xarakterini belgilaydi.

5. Mutaxassislik fanining ketma-ketlik tamoyili butun borliqning o'zi ma'lum ketma-ketlik bo'lishini har tomonlama taqazo etadi. Unda ta'lim jarayonida ham ketma-ketlik bo'lishi zarur. Ta'limdagi ketma-ketlikning bo'lishi ma'lumdan noma'lumga, yaqindan-uzoqqa, oson materialdan-qiyin materialni o'zlashtirishga o'tishni taqozo etadi.

6. Mutaxassislik fanining tushunarli bo'lish tamoyili ta'limning talaba yoshlar dunyoqarashi tushunchalariga mosligi, yangi bilimlarni talaba ongidagi bilimlar bilan bog'lab, tushunarli qilib turmush tajribasiga asoslanish, umumiy saviyani yuqoriga ko'tarish, mavzu materiallarini talaba rivojlanishiga mos bo'lishi bilan amalga oshirish alohida e'tiborga loyiq.

7. Mutaxassislik fanining ko'rsatmalilik tamoyili talabalarga texnika texnologiya tarixini hissiy bilish ko'rsatmali materiallar ko'rsatmalilik tamoyili asosida amalga oshiriladi. Texnologiya ta'limida o'qituvchining o'zi va amalga oshirgan dars jarayonidagi bilim, ko'nikma va malakalari asosiy ko'rsatma ekanligi, ta'limda yangi texnologiyalarni qo'llashga asos soladi.

8. Mutaxassislik fanida onglilik va faollik tamoyili zaminida talabalar bilim, ko'nikma va malakalarni umumlashtiradi, nazariyalarning aniq qo'llanishi fikr yuritishni ancha aniqlashtiradi.

9. Mutaxassislik fanida mustaqil bilimlar berish tamoyili zaminida, o'rganilgan bilim, ko'nikma va malakalar talaba ongida uzoq vaqt va puxta saqlanishi keyinchalik amaliyotga tadbiq etilishi uchun mustahkam zamin bo'lishi nazarda tutiladi. Mavzu materialidagi asosiy tushuncha qoidalarni bo'rttirish, asosiy fikr talaba bilimlari bilan

bog'lanishi, dunyo qarash va e'tiqodlarni shakllantirishga asos soladi.

10. Mutaxassislik fanining alohidalashtirish tamoyili har bir talaba shaxsiy xususiyatlariga qarab alohida yondoshish, dars jarayonida va darsdan tashqari faoliyatlar mazmunida ta'lim tamoyillarini qo'llashdagi o'zaro bog'liqligi, ijobiy intilishlar hosil qiladi.[5]

Unda muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish, dasturiy ta'limni hosil qilishga zamin yaratiladi. Ijodkorlik faoliyati turlarini mezonlar asosida xarakterlash-tasniflashdeganda ijodkorlikning turlari, ularning inson faoliyati davomida namoyon bo'lishi, ijodiy kasblari, ijodkorlik faoliyatini belgilovchi omillar, ijodkorlik faoliyatini amalga oshirish metodlari, xususiyatlar va boshqalarni bir tizimga solish tushuniladi.

“Mutaxassislik fani” darslarida talabalarda kreativ sifatlarni shakllantirishda quyidagi xolatlar ta'lim jarayonida samaradorlikka erishishni kafolatlaydi: [8]

- talabalarda kreativ tafakkurni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish;
- talabalarda kreativ tafakkurni shakllantirishning nazariy asoslaridan dars jarayonida o'rinli amaliy foydalanish;
- talabalarda kreativ tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish;
- talabalarining kreativ tafakkurini shakllantirishga yordam beruvchi shakl, metod va vositalarni ta'lim jarayoniga samarali tadbqiq etish;
- “Mutaxassislik fani” darslari jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta'minlash;
- talabalar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotga tadbqiq etishga imkon beruvchi shart-sharoitlarni yaratish.[7]

Yuqoridagi fikrlardan tashqari Mutaxassislik fanlarini o'qitishda fanining metodologik asosi uni amalga oshirishda qanday metodlarga asoslanishini belgilaydi. Mutaxassislik fani va uni o'qitish metodikasi fanining metodologik asosi uni amalga oshirishda qanday metodlarga asoslanishini belgilaydi, insonlarning olamini hamda o'zlarini bilishlari turli tarixiy davrlarda turlicha asoslarga ega bo'lgan va ular o'ziga xos metodlarni keltirib chiqargan. Hozir olam va uning xususiyatlari haqida xolis ma'lumotlar olish haqqoniy bilimlar hosil qilishning ilmiy metodikasi Mutaxassislik fani va uni o'qitish metodikasining metodologik asosi hisoblanadi. Metodologik asosning ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi Mutaxassislik fani va uni o'qitish metodikasi uchun zaruriy shartdir.

Mutaxassislik fani va uni o'qitish metodikasining didaktik asosi uning ta'lim-tarbiya qoida va tamoyillariga muvofiqligini belgilaydi. Didaktik talablar ta'lim-tarbiyaviy vazifalarning nazariy jihatdan to'g'ri bajarilishini ta'minlaydi. Mutaxassislik fani va uni o'qitish metodikasi fanining didaktik jihatdan to'g'ri bo'lishi uning yuqori samaradorligining zaruriy sharti hisoblanadi. Buning uchun zamonaviy didaktikaning ilmiy xulosalaridan ijodiy foydalanish talab qilinadi. Mutaxassislik fani va uni o'qitish metodikasi fanining pedagogik asosi. Zamonaviy pedagogika fanining ilmiy xulosalaridan kelib chiqadi. Bunda Mutaxassislik fani va uni o'qitish metodikasi fanining umumiy tarkibiy tuzilmasi, mazmuni, shakli, usullari, vositalari, pedagogik jarayonning tashkil qilinishi, olib borilishi, uning diagnostikasi, monitoringi, o'quv-mavzu rejalari va shu kabilarning ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi ta'minlanadi.

Mutaxassislik fani va uni o'qitish metodikasi fani hozirgi pedagogika fanining rivojlanishida katta o'rin egallab bormoqda. Mutaxassislik fani va uni o'qitish metodikasi fanining psixologik asosi psixologiya fanining ilmiy xulosalari va tavsiyalari bilan belgilanadi [9]. Ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida to'g'ri foydalanish orqaligina kutilgan natijaga erishish mumkin. Shu sababli Mutaxassislik fani va uni o'qitish metodikasi fanini o'rganishda psixologiya qonunlarini to'liq hisobga olishi talab etiladi. Ta'limning har bir bosqichida tegishli yosh psixologiyasi xususiyatlariga moslashtirilgan usullar qo'llaniladi. Har bir bosqichda tegishli darajadagi bilim va tarbiya beriladi. Bu masalalarni o'rganish bilan pedagogik psixologiya fani shug'ullanadi. Mutaxassislik fani va uni o'qitish metodikasi fanining fiziologik asosi talabalarining



turli yoshdagi fiziologik xususiyatlarini hisobga olishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev. Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob halqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” 2017.
2. Mirziyoyev. Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. “O‘zbekiston” 2016.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoyevning 2017 yil 20 apreldagi „Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi Qarori
4. Bloom B.S. (ed) et al. A taxonomy of Educational Objectives: Handbook I: The Cognitive Domain. Harvow, 1956.
5. Muslimov.N.A, Sharipov.Sh.S. va b. Mehnat ta‘limi, kasb tanlashga yo‘llashni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2009.
6. Muslimov N.A, Sharipov Sh.S, Qoysinov O.A. Mehnat ta‘limi o‘qitish metodikasi, kasb tanlashga yo‘llash. Darslik. Toshkent.: 2014 y. 7.<http://www.istedod.uz/> 6. <http://www.pedagog.uz/> Texnologiya fanini o‘ziga xos xususiyatlari.
8. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik. –T.: Tafakkur, 2021. -226 b.
9. Shomirzayev M.X. O‘zbek milliy hunarmandchiligining shakllanish genezisi va rivojlanish texnologiyasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. –T.: Yangi nashr, 2016. -88 b.
10. Shomirzayev M.X. O‘zbek milliy hunarmandchiligida innovatsion jarayonlar. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. –T.: Yangi nashr, 2017. - 48 b.

**ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИДАН АМАЛИЙ ДАРСЛАРНИ
ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ЎТКАЗИШ МЕТОДИКАСИ**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.26.95.021>*Шомирзаев Махматмурод Хурамович,**Термиз давлат университети технологик таълим кафедраси доценти,
педагогика фанлари доктори (DSc)*

Аннотация: Мақолада мактаб технология таълимида амалий дарсларни ташкил этиш ва ўтказишда ўқувчилар фаоллигини ошириш орқали уларда ижодкорлик қобилиятларини шакллантиришнинг мазмун-моҳияти ёритилган.

Калит сўзлар: ўқувчи, мактаб, технология, дарс, таълим, амалий, педагогик технология, фаолият, таълим фаолияти, меҳнат фаолияти, ижодий фаолият, ижодкорлик, касб.

**ПРАКТИЧЕСКИЕ УРОКИ ПО ТЕХНОЛОГИИ МЕТОДОЛОГИЯ
ОРГАНИЗАЦИИ И ПОВЕДЕНИЯ***Шомирзаев Махматмурод Хурамович,**Доцент кафедры технологического образования Термезского
государственного университета, доктор педагогических наук*

Аннотация. В статье раскрыта сущность формирования творческих способностей у учащихся за счет повышения активности учащихся при организации и проведении практических занятий в школьной технологии обучения.

Ключевые слова: студент, школа, технология, урок, образование, практическая, педагогическая технология, деятельность, учебная деятельность, трудовая деятельность, творческая деятельность, творчество, профессия.

**PRACTICAL LESSONS IN TECHNOLOGY METHODOLOGY OF
ORGANIZATION AND CONDUCT***Shomirzaev Maxmatmurod Xuramovich,**Associate Professor of Technological Education, Termez State University, Doctor
of Pedagogical Sciences (DSc)*

Summary: The article describes the essence of the formation of creative abilities in students by increasing the activity of students in the organization and conduct of practical classes in school technology education.

Keywords: student, school, technology, lesson, education, practical, pedagogical technology, activity, educational activity, labor activity, creative activity, creativity, profession.

Бугунги бозор иқтисодиёти шароитида ҳар қандай соҳада, жумладан, моддий ишлаб чиқариш соҳасида ҳам ижодий ишловчи ишчи, муҳандис ва техник ходимлар тайёрлаш масаласи энг муҳим масалалардан бири бўлиб турибди. Чунки ҳозирги ишлаб чиқариш жараёнида турли хил муаммоларни ҳал қилишга тўғри келади.

Мактабда, мактаб устахонасида уларнинг олган дастлабки билимлари шу соҳадаги ишларни чуқурлаштиришга ва давом эттиришга бир туртки бўлиши, асос солиши мумкин. Шунинг учун мустақил ҳаётга кириб келаётган ҳар бир ёшга, ўсмирга илмий-техник, иқтисодиёт ва ишлаб чиқариш асосларига оид замонавий билимлар бериш, уларни ақлан ва жисмонан ривожлантириш, меҳнатга ижодий муносабатда бўлишни тарбиялаш муҳим аҳамиятга эгадир. Шу сабабли мактабдаги, ўқув устахоналаридаги машғулотларни шундай савияда ташкил этиш керакки, улар оддий нусха кўчирувчилик, шунчаки бажарувчилик ҳолатида бўлмай, балки ўқувчиларнинг мустақил ва ижодий ишлай оладиган кўринишларда

бўлсин. Яъни, ишни шундай ташкил этиш керакки, бунда ўқувчиларнинг ижодий фикрлаш қобилияти ривожлансин, амалда ижодий олиш кўникмалари таркиб топсин, машғулотларда ўқувчилар янгилик киритишга, ҳеч бўлмаса, янгилик элементларини кирита олишга ўргансин. Чунки ҳозирги ўз-ўзини бошқариш шароитида топқирлик, ташаббускорлик, тadbиркорлик каби ижодий ишлаш қобилиятларига эга бўлган кишилар барча соҳалар учун ҳар қачонгидан ҳам зарурдир. Бу мақсадда ўқитишнинг турли хил илғор шакл ва усулларидан фойдаланиш талаб этилади. Шундай ишлардан бири технология дарсларида янги педагогик технологияларни қўллаш орқали ўқувчиларни мустақил ва ижодкорона ишлашга ўргатиб бориш, уларда бадий ва техникавий ижодкорликка оид меҳнат малакаларини шакллантиришдир. Хусусан технология ўқув фани умумий ўрта таълим мактабларида энг узоқ вақт, яъни биринчи синфдан тўққизинчи синфгача ўқитиладиган оз сонли фанлардан бири бўлиб, бу фанни ўқитиш жараёнида ўқувчиларни ақлий ва жисмоний томондан уйғун ҳолда ривожлантириш кўзда тутилган. Шунинг учун бу фанни ўқитиш ишларига ҳам муҳим вазифалардан бири сифатида қараш зарур. Айниқса технология фани машғулотларида ўқувчиларни амалий ишларни мустақил ва ижодкорона бажаришга ўргатиб боришга алоҳида эътибор қаратиш керак. Бинобарин машғулотларининг самарали бўлиши энг аввало ўқитувчиларнинг машғулотларга қай даражада тайёргарлик кўришига, машғулотларни ўтказишни қандай режалаштиришига ва, ниҳоят, амалга оширишига бевосита боғлиқдир. Бунда, албатта, машғулотларда янги педагогик технологиялардан, хусусан, интерфаол методлардан фойдаланиш ўқувчиларнинг фаоллигини оширишда алоҳида аҳамиятга эгадир.

Педагогика ва психология фанларига оид адабиётларда таъкидлани-шича, умумий ҳолда фаолият деганда кишининг анланган мақсад билан бошқарилиб туриладиган ички (психик) ва ташқи (жисмоний) фаоллигига айтилади. Инсон фаолиятининг мазмуни шу фаолиятни вужудга келтирадиган эҳтиёжларнинг бир ўзи билан эмас, балки фаолият мотивлари билан белгила-нади. Мақсадга эришиш фаоллик талаб қилади. Бу фаоллик эса ирода билан боғлиқдир. Шунинг учун ҳам фаолият воқеаликка бўлган фаол муносабатларнинг шундай шартидирки, бунда яшаб турган одам ва олам ўртасида реал алоқа ўрнатилади. Фаолият ўйин фаолияти, таълим фаолияти ва меҳнат фаолияти турларига бўлинади. Ўйин фаолияти ҳаракатли вақлий ўйинлардан ташкил топади. Таълим фаолияти эса субъектни ўрганиш мақсад қилиб олинган ўзига хос фаолият бўлиб, бу фаолият билим олиш, кўникма ва малакалар ҳосил қилиш билан яқунланади. Меҳнат фаолияти, бу – маълум бир ижтимоий фойдали моддий ёки маънавий маҳсулотни ишлаб чиқаришга йўналтирилган фаолият туридир.

Шу ўринда технология дарслари жараёнида қўлланиладиган куйидаги фаолият турлари ҳақида ҳам тўхтаб ўтишни жоиз деб топдик.

Ижодий фаолият анча кенг маънодаги тушунчадир. Бу фаолият меҳнатнинг ижодий йўналиши (меҳнатни ташкил этиш, унинг мазмуни, усулларини тадқиқ этиш) билан тавсифланади. Ижодий фаолият ечими илгари маълум бўлмаган масалаларни қўйишни ёки фикрларни шакллантиришни тақозо этади. Муаммони ечишга қаратилган ижодий фаолият муаммо ечимларини топиш, таққослаш ва танлаш – изланувчанлик кўринишига эгадир.

Конструкторлик ва технологик фаолият эса инсон томонидан ижодий масалаларни бажариш, бунда буюмни конструкциялаш, уни тайёрлаш технологиясини ишлаб чиқишни ва амалга оширишни билдиради. Бу ишларнинг натижаси сифатида юзага келадиган янгилик субъектив ва объектив, яъни ўзи учун ёки жамият учун бўлиши мумкин.

Америкалик психолог Ж.П.Гилфорднинг фикрича ижодкорлик фақатгина талантли, буюк шахсларгагина эмас, балки оддий, нормал ҳолдаги ҳар бир инсонга хос бўлган хусусиятдир. Бу фикрни ўзларининг илмий тадқиқотла-рида

М.Г.Давлетшин, В.В.Давидов, А.Н.Лук, А.Я.Пономарёв, К.В.Кудрявцев каби тадқиқотчилар ҳам тасдиқлаган.

Академик Б.Кедровнинг ёзишича, ижодкорлик – билиш жараёнида инсон онгида юзага келадиган психологик тўсиқларни енгиб ўтишдан иборат. Шундай қилиб, ижодий фаолият фавқуллодда мураккаб психологик жараён бўлиб, бир қатор ички ва ташқи, объектив ва субъектив омиллар, хусусиятлари билан ифодаланади. Буларга ижодий жараённинг турли босқичларида ақлий фаолиятнинг, ички туйғу (интуиция) ва ҳаёлот (фантазия)нинг ривожланганлиги қай даражада эканлиги кабиларни кўрсатиш мумкин.

Таниқли ўзбек психолог олими Э.Ғ.Ғозиевнинг фикрича ижодий ишларда тафаккурнинг мустақиллиги катта аҳамиятга эга. “Тафаккурнинг мустақил-лиги деганда, - деб таъкидлайди профессор Э.Ғ.Ғозиев, - кишининг шахсий ташаббуси билан ўз олдига конкрет мақсад, яъни вазифалар қўя билиши, уларюзасидан амалий ва илмий характердаги фараз (гипотеза)лар қилиш, натижани кўз олдига келтира олиш, қўйилган вазифани ҳеч кимнинг кўмагисиз, кўрсатмасисиз, ўзининг ақлий изланиши тўғрисида турли йўл, усул ва воситалар топиб мустақил равишда ҳал қилишдан иборат ақлий қобилиятини тушуниш керак”.

Таниқли психолог К.В.Кудрявцевнинг фикрича, техник тафаккур техник ижодкорликнинг асосини ташкил этади[4]. У техник тафаккурни масала шартини англаш ёки тушуниш, уни ҳаёлан тасаввур қилиш ва амалда бажара олиш қобилиятларидан иборат, деб ҳисоблайди. Демак, юқоридаги фикрларга асосланиб, шуни айтиш мумкинки, ижодий фаолият натижаси болалар ва катталардаги тафаккур доирасига боғлиқ экан. Тафаккур доираси қанча кенг бўлса, мустақил бўлса, ижодкорлик ҳам, ижодий фаолият ҳам шунча юқори савияда бўлади.

Маълумки, ҳар қандай ижодий фаолиятнинг пировард натижаси бирор янгиликни, ихтирони кашф этиш билан тугайди. Мазкур кашфиёт ўз мазмунига кўра объектив (ҳамма учун янгилик), субъектив (фақат ўзи учун янгилик), хусусий (фақат ўзи ёки алоҳида-алоҳида ҳолда фойдаланиш) ва умумий ёки ижтимоий (бутун жамият ёки кўпчилик фойдалана оладиган) кўринишларда бўлади. Агар катталарнинг ижодий фаолияти кўпинча объектив ва ижтимоий кўринишдаги янгиликларни кашф этиш билан тугалланса, ўқувчилардаги бундай ижодий фаолият натижалари эса кўпинча субъектив ҳамда хусусий кўринишдаги янгиликларни яратиш билан ниҳоясига етади. Шуни алоҳида таъкидлаш зурурки, айрим ҳолларда ўқувчиларнинг ижодий фаолияти ҳам объектив янгиликларни яратиш билан боғлиқ бўлиши мумкин. Шунга кўра болалардаги, яъни ўқувчилардаги ижодкорлик қобилиятини шартли равишда уч хил даражага бўлиш мумкин:

1-даража – қуйи даража. Бунда ўқувчилар томонидан топиладиган янгиликлар асосан субъектив кўринишда бўлади. Яъни бунда ўқувчилар илгаридан маълум бўлган янгиликларни бошқатдан “кашф” этадилар. Натижада бу янгилик фақат шу ўқувчининг ўзи учунгина янгилик бўлади. Бироқ бу жараён ҳам осон кечмайди. Чунки мазкур жараёнда ҳам ўқувчи кучли психологик ҳолатларни – масала моҳиятини тушуниш, англаш, тасаввур этиш, масала ечимини қидириш, айрим ечимларни таққослаш каби жараёнларни бошидан кечиради. Шу сабабли, гарчи, натижа илгаридан маълум бўлса ҳам, айнан шу натижага келишнинг ўзиёқ ўқувчида келгусида уни объектив ижодий фаолиятга ўтиши учун замин вазифаси бўлиб хизмат қилади.

2-даража – ўрта даража. Бунда ўқувчилар томонидан топилган янги-ликлар ҳам субъектив, ҳам объектив кўринишларда бўлади. Яъни бу даражага эришган ўқувчиларда янгилик яратиш усулларини бир мунча яхши эгаллаганлик, янгилик яратиш соҳасида бир мунча тажрибалар ҳосил тўпланган ҳолатларини кузатишимиз мумкин. Шу даражага эришган ўқувчиларга келгусида яхши эътибор берилса, уларнинг ижодкорлик қобилиятлари янада ривожлантирилса – улар айрим қийинчиликларни енгиб ўтиб, учинчи, яъни энг юқори даражага чиқа

оладилар.

3-даража – юқори даража. Бунда ўқувчиларнинг топган янгиликлари асосан объектив кўринишида бўлади. Бироқ бу даражага эришиш осон эмас. Бунинг учун аввало ўқувчининг ўзида интилиш, қизиқиш бўлиши, ўқитувчи эса буни ўз вақтида пайқай олиши ҳамда ўқувчининг ижодкорлик қобилиятини ўстириш тадбирларини амалга ошириб бориши керак.

Маълумки, V-VII синфларда технология фани бўйича ўқув дастурида ўқувчиларнинг иш усулларини ўрганишлари ва меҳнат малакаси ҳосил қилишлари учун турли хил амалий машғулотлар ўтказиш ва буюмлар ясаш кўзда тутилган. Маълумки, бу синфларда, янги ўсмирлик даврида айнаи бир хил ёшдаги ўқувчилар ўзларининг ақлий ва жисмоний ривожланиш хусусиятларига кўра турлича тушуниш, фикрлаш ва иш бажариш қобилият-ларига эга бўладилар. Буни айниса, амалий ишларни бажаришда ҳисобга олиш зарур. Шу сабабли технология фани дарсларида ўқувчиларнинг амалий, ижодий ишларини ташкил қилишда улар томонидан тайёрланадиган буюмларни тузилиши, уларнинг қисмларини бириктириш усуллари, уларни тайёрлашда ишлатиладиган материалларнинг, иш асбоблари ва иш усуллари-нинг турлари ҳамда сонига қараб қуйидаги 5 та тоифага ёки даражага бўлиб олиш мақсадига мувофиқдир:

1. Бир деталли энг оддий буюмлар. Буларга кўрсаткич таёкча, қистирма, чизгич, зулпин каби буюмларни киритиш мумкин.

2. Бир-икки хил материалдан тайёрланадиган кўп деталли оддий бирикмали буюмлар. Буларга куракча, қутича, замбил, пол ювгич (швабра), нутромер, кронциркуль каби буюм ва асбобларни кўрсатиш мумкин.

3. Бир ёки бир неча хил материаллардан тайёрланадиган кўп деталли, мураккаб бирикмали буюмлар. Буларга сурат ромчалари, ром, эшик, дарвоза, курси, сандик, сандал каби буюмларни мисол қилиб кўрсатиш мумкин.

4. Оддий механизмли буюмлар. Буларга дастаки – қўл тискилари, винт-ли котиргичлар, коловорот кабилар мисол бўлади.

5. Ҳаракатланувчи буюмлар ва радиоқурилмалар. Бу тоифага механик ёки электр қурилма ёрдамида ҳаракатланадиган, радио орқали бошқариладиган автомобиль, трактор, кема, самолёт, ракета моделлари, турли хил ўйинчоқлар, роботлар, радио сигналларни тарқатувчи, қабул қилувчи, овоз ва тасвирларни ёзиб олувчи ва қайта эшиттирувчи ҳамда кўрсатувчи қурилмалар ва шу кабиларни киритиш мумкин.

Шуни ҳам алоҳида таъкидлаш зарурки, айнан бир хил номдаги буюм ёки қурилма ўзининг тузилиши ва бадиий ишланишига кўра мураккаброк кўринишларда бўлиши ҳам мумкин. Шу сабабли бу даражаланишни умумий ҳолда тузилган деб қараш ўринлидир. Бинобарин, ўқувчилар томонидан тайёрланадиган буюмларни бундай оддийдан мураккабга қараб борувчи хусусият асосида даражаларга бўлиб олиниши уларнинг ўсмирлик давридаги ақлий ва жисмоний ривожланиш жараёнидаги ўзгаришларга мос ҳолда беш хил йўналиш бўйича мустақил амалий, ижодий машғулотларни ташкил этиш имконини беради. Бу эса ўқувчиларнинг зерикмай, толиқмай, ўз имконият-лари даражасида ишларига катта ёрдам беради. Бунда 1-2-3-даражали буюмларни V-VII синф ўқувчилари билан ҳар қандай ўқув устахонасида ясаш, бинобарин кам куч, материал ва вақт сарфлаган ҳолда уларнинг амалий фаолиятини, шу билан бирга ижодкорлик фаолиятларини сезиларли даражада фаоллаштириш мумкин. 4-5-даражали буюмларни ясаш эса кўпроқ юқори синф ўқувчилари-га мос келади ва бой моддий-техник таъминот, ўқувчи ва ўқитувчиларнинг олдиндан маълум тайёргарлиги бўлишини тақозо этади[8].

Юқоридагилардан кўринадики, ўқувчиларнинг ижодий ишларини, ижодий фаолиятини ташкил этиш мураккаб жараён бўлиб, бу жараённинг ўзига хос педагогик ва психологик жиҳатлари, томонлари мавжуддир. Жумладан, психологик жиҳат инсондаги маълум ижодий қобилиятнинг юзага келиши ва

ривожланиши (масалан, бирор фикрни ўзгартириш, бошқа соҳада қўллаш олиш; муаммони кўра олиш ва баҳолаш; объектнинг тузилишини идрок қилиш; маълум нарсаларни четлаб ўтиб янги ёндашиш усуллари яратиш; стандарт ҳолатни янги кўра олиш; ҳодисалардаги янги боғлиқликларни топиш ва ҳ.)дан иборат бўлса, педагогик жиҳат муайян ижодий фаолиятга жалб этиш, бу фаолиятнинг мазмуни, уни ташкил этиш усуллари ва шароитларини ишлаб чиқиш, бу фаолиятнинг инсонга кўрсатган таъсирини ўрганишдан иборат. Юқорида таъкидланганидек, ижодкорлик тушунчаси кенг қамровли бўлиб, ижодкорлик деганда инсоннинг эҳтиёжлардан келиб чиққан ҳолда табиий ва маънавий дунёни ўзгартириш фаолияти тушунилади. Демак, ижодкорлик инсоннинг янгилик яратиш, илгари мавжуд бўлмаган нарсаларни яратиш, қонуниятларни очиш, уларни сифат жиҳатдан янгилаш соҳасидаги фаолиятidir. Шундан келиб чиқиб биз ўқувчиларнинг ижодкорлик фаолияти деганда айнан уларнинг янгилик ёки унинг элементларини яратиш ва уни қўллашга оид фаолиятини ифодалашни тушунамиз.

Маълумки, техник ижодкорлик ҳақида гап кетганда ихтиро, ихтирочилик рационализаторлик таклифи каби атамалар қўлланилади. Ҳақиқатан ҳам булар шу ижодкорлик турини ифодаловчи асосий тушунчалардир. Шунинг учун бу тушунча – атамаларни ўқувчиларга тушунарли тарзда ифодалаб бериш мақсадга мувофиқдир.

Ихтиро деганда халқ хўжалиги ёки мамлакат муҳофаази учун фойдали бўлган, тубдан фарқ қилувчи техник ечимга эга бўлган янгилик тушунилади.

Рационализаторлик таклифи эса илгаридан маълум бўлган ихтиро-ларни маълум бир корхона, муассаса фаолиятига жорий этиш билан боғлиқ бўлган, юқори самара берадиган (материаллардан, вақтдан иш кучидан, иқтисод қилишга ёки маҳсулот сифатини оширишга қаратилган) янгиликдан иборат. Юқоридаги атамалар билан бир қаторда ўқувчиларга техника, технология каби атамаларнинг ҳам маъносини билдириш зарур (бу атамаларнинг изоҳи кейинги бобда берилган).

Ихтирочилик – ижодкорликнинг, ижодий фаолиятнинг муҳим кўринишидир. Ижодкорликка бўлган эҳтиёж психофизиологик жиҳатдан қаралганда, ўз ривожланишида бир нечта босқичларда амалга ошади. Булардан биринчиси майл бўлиб, у эҳтиёжнинг энг содда шакли ҳисобланади ва инсон томонидан онгли бошқарилади. Иккинчи, нисбатан юқорироқ ривожланиш босқичи бўлган ҳавас ҳам инсон томонидан онгли бошқарилиб, шахсни маълум буюм ёки ҳодисага нисбатан муносабатлари мажмуасини англади. Учинчи, энг мураккаб босқич бўлган қизиқиш хоҳиш ва у билан боғлиқ бўлган тушунчалар асосида юзага келади. Қизиқиш ҳаётдаги ташқи таъсирлар, шахс фаолияти ҳамда таълим-тарбия жараёни таъсирида шаклланиб боради. Бу ҳолатлар психологик омиллар – диққат, идрок, тушунча, хотира, фикрлаш, сезги ва ирода хислатларига сезиларли таъсир кўрсатиб, шахснинг шаклланишида алоҳида муҳим аҳамият касб этади.

Буюмларни тайёрлашга ва улардан фойдаланишга қўйиладиган техник-технологик ҳамда дизайн талаблари. Технология дарсларида ўқувчиларнинг мустақил амалий ишларини, ижодий ишларини ташкил этиш ва фаоллаштиришда дизайн, яъни техник эстетика ёки бадий конструкторлик элементларидан фойдаланиш ҳам яхши натижалар беради. Чунки дид билан, чиройли ва бежирим қилиб ишланган буюм ўқувчини завқлантиради, ўзига бўлган ишончини мустаҳкамлайди[9].

“Дизайн” – инглизча сўз бўлиб, у фикр, лойиҳа, конструкция, расм, бадий тузилиш каби маъноларни билдиради. “Дизайн” дейилганда рассом-конструкторнинг саноатдаги бадий-конструкторлик фаолияти, унинг иш услуби ва уларни ишлаб чиқаришда қўллаш тушунилади. Дизайнинг мақсади янги турдаги гўзал, манзарали, жамият талабларига жавоб берадиган, қўлланиши оддий ва осон бўлган маҳсулотлар яратишидир. Шу сабабли дарсларда дизайн

элементларидан фойдаланиш ўқувчиларнинг меҳнат, ижод-корлик малакасини оширишга, уларда гўзаллик, нафосат туйғусини тарбиялашга ёрдам беради. Шунингдек, тайёрланадиган буюмларнинг кўринишини яхшилашга, улардан фойдаланишдаги қулайликларни орттиришга хизмат қилади. Шу жиҳатдан олганда дизайн бадий конструкторлик ва эргономика фанлари билан ҳам узвий боғланган.

Кузатишларимизга асосланиб шуни алоҳида қайд этиш мумкинки, тайёрланадиган буюмлар, асбоблар ва қурилмалар муайян тузилишига қараб конструктивлик, тежамкорлик, ишланувчанлик, қўлланувчанлик ва гўзаллик каби техник-технологик ҳамда дизайн талабларига жавоб бериши зарур. Шуни назарда тутиб ўқувчиларга олдиндан шу ҳақда маълумот бериш, бу тушунчаларни уларга мос келадиган мазмунда изоҳлаб бериш мақсадга мувофиқдир. Ўз фаолиятимизда биз бу тушунчаларни қуйидагича изоҳладик.

Конструктивлик дейилганда буюмнинг иложи борича оддий, қулай тузилишга эга бўлиши, унинг турғунлиги, мустаҳкамлиги ва ишончилиги тушунилади.

Тежамкорлик дейилганда кам куч, материал ва вақт сарфлаб арзонроқ маҳсулот тайёрлаш жараёни назарда тутилади.

Ишланувчанлик ишлатиладиган материалларнинг механик хусусиятлари тайёрланадиган буюмларни содда иш усуллари ва амалларидан фойдаланиб, тез ва осон ясашга мос келишини билдиради.

Қўлланувчанлик буюмдан фойдаланишдаги қулайликлар, унинг бошқа буюмлардан афзаллик томонлари, қўшимча вазифаларни бажара олиш имкониятлари мавжудлиги каби билан ифодаланади.

Гўзаллик буюмларнинг ўлчамлари, табиий ва сунъий ранглари мутаносиб, кўриниши чиройли бўлиб кишида ёқимли ҳис уйғотадиган ҳолатни ифодалайди.

Юқоридагилардан кўриниб турибдики, ишланувчанлик буюмга материал танлашда, қолганлари эса буюмни лойиҳалаш ва тайёрлаш жараёнида эътиборга олинishi зарур бўлган иш мезонларидир. Шундай қилиб, айтилган бу фикрлардан технология дарсларида ўринли фойдаланиш, шубҳасиз, ўқувчиларнинг ижодий ишларини ташкил этишда қўл келади, деб ўйлаймиз[12].

Технология дарсларида V-VII синф ўқувчиларига ёшларига мос ҳолда нақшлар, уларнинг турлари, нақш солишда ишлатиладиган бўёқлар, асбоблар, иш усуллари ҳақида тушунча бериш, амалий ишлар ўтказиш ва бунда халқ амалий санъатига оид маълумотлардан фойдаланиб бориш мақсадга мувофиқдир[14].

Ишни дастлаб V синфда фанер ёки юпка тахтага куйдириб ишлаш усули билан расм солишдан бошлаш мумкин. Бунинг учун олдин фанер ёки тахта юзасига қалам билан керакли расм чизилади. Бундай расмларни ўқувчиларнинг ўзлари мустақил равишда чизишлари ёки тайёр ҳолдагисидан кўчириб олишлари мумкин. Шундан сўнг куйдирувчи асбоб ёрдамида расмлар қайтадан чизиб чиқилади, яъни куйдирилади. Сўнгра юза лакланади.

VI синфда эса ўқувчиларга наққошлик сир-асрорлари, бўёқларнинг турлари, бу ишларда зарур бўладиган асбоб-ускуналарнинг тузилиши, ишлатилиши ҳақида тушунча бериб, иш усуллари ўргатиш мумкин.

Маълумки, фанер ёки тахтага бўёқ ёрдамида нақш солишдан аввал унинг юзаси силликланади, сўнгра фон берилади ёки “сирланади”, яъни маълум бир рангдаги бўёқ билан бўялади. Айрим ҳолларда эса юза қалинроқ қоғоз билан қопланиши ҳам мумкин. Шундан сўнг тайёр бўлган юзага андоза ёки тўғридан-тўғри қўл ёрдамида қалам билан шакл туширилади ва устидан бўёқ юргазилади. Кейинчалик ўқувчиларнинг малакаси ошиши билан айрим шаклларни қалам ишлатмасдан бир йўла бўёқлар ёрдамида ҳосил қилиш мумкин.

VII синфда эса ўқувчиларга ганч ва ёғоч ўймакорлигига оид ишларни ўргатиш мумкин. Бунда ишни дастлаб ёғоч ўймакорлигидан бошлаш ва ўқувчиларда маълум малака ҳосил бўлгач, ганч ўймакорлигига ўтиш лозим. Чунки ёғочда

киска вақт ичида кескин ўзгаришлар бўлмайди. Ганч эса тезда қотиб қолади, натижада иш вақтида у уқаланиб кетади ва шакл сифатли чиқмайди. Етарли ўйиш малакасига эга бўлмаган ўқувчи эса ганчга тезда си-

фатли шаклларни тушира олмайди. Гап буюмларни бадиий безаш, наққошлик ёки ўймакорлик ҳақида кетар экан, шубҳасиз, орнамент, инкрустация, мозаика каби сўзларни эшитамиз ва қўллаймиз. Дарҳақиқат булар ўша ишларнинг асосини ташкил этувчи тушун-чалардир. Маъно жиҳатидан олганда, бу сўзлар бир-бирига яқин туради. Улар асосан бажариладиган ишларнинг турини, кўламини фарқлашда ишлатилади. Масалан, “орнамент” лотинча сўз бўлиб, у безамок деган маънони билдиради. Кенгроқ маънода оладиган бўлсак, орнамент бу турли хил шакллар, безаклар ёки уларнинг айрим элементлари – қисмларини бир текисда, тартибли равишда такрорланиб келишидан ҳосил бўладиган нақшлардир.

Инкрустация эса ишлов бериладиган юзанинг айрим қисмларини ўйиб олиб, уларга турли хил рангдаги шиша, пластмасса, суюқ, тош, металл каби материалларнинг парчаларини қадаш – жойлаштириш орқали ҳосил қилинган нақшлардир (масалан, миллий пичоқларнинг дастасидаги нақшлар ва ш.к.). Юзасига шпонларни елимлаб ёпиштириш усули билан ҳосил қилинган нақшлар эса маркетри, агар бу нақшлар паркет пол кўринишида бўлса паркетри деб айтилади. Ўзида маълум бир маънони ифода этувчи нақшлар йиғиндиси эса мозаика деб юритилади. Мозаика кўпинча ҳажмий кўринишда бўлади. Юқоридагилардан кўринадик, наққошлик ва ўймакорлик ишларида орнамент асосий тушунча ва усул бўлиб хизмат қилади. Тасвирланадиган безакларнинг турлари ва маъносига қараб, орнаментлар геометрик, наботий, жонивор шакли, тамғали, ҳаёлий ва аралаш усулларда ишланган нақшларга бўлинади. Номларидан ҳам кўриниб турибдик, геометрик орнамент тўғри, эгри ва синиқ чизиқлар, айлана, бурчак каби турли хил геометрик шакллардан; наботий орнамент – турли хил гуллар, ўсимликлар, уларнинг пояси, барги ва меваларидан; жонивор шаклиорнаментлар эса турли хил қушлар, ҳайвонлар ва бошқа жониворларнинг тўлиқ ёки қисман туширилган тасвирларидан иборат бўлади. Тамғали орнаментларда турли хил белги, тамға, нишонлар тасвирланган бўлади. Ҳаёлий орнаментлар наққош ёки ўймакорнинг ўз ҳаёлот, қизиқиши ва хоҳиш-истаклари асосида чизилган бўлади. Аралаш усуллардаги орнаментларда эса юқорида келтирилган тасвирлардан фойдалана-ниб, эркин тарзда чизилган нақшлар ўрин олади. Шунини эслатиб ўтиш ўринлики, Осиё халқлари хунармандлари қадимдан асосан геометрик ва наботий орнаментлардан ҳамда уларнинг ўзаро аралаштири-лиши билан ҳосил қилинган ислимий орнаментлардан фойдаланиб келганлар. Булардан ташқари тузилишига кўра орнаментлар буюмларнинг четларини қамраб олувчи тўғри, эгри ёки синиқ тасмасимон (ҳошиясимон); буюмнинг юзасини тўлиқ қопловчи (масалан, геометрик тўрсимон нақшлар); розет, яъни бирор турдаги геометрик шакл – айлана, ромб, квадрат, уч бурчак ичига чизилган нақшлар кўринишида ҳам бўлади. Булар одатда ёпиқ, берк нақшлар деб ҳам айтилади. Юқорида билдирилган фикрлардан кўриниб турибдик, технология дарсларида халқ амалий санъати усулларидан фойдаланиш учун ўқитувчиларимиз бир қатор тайёргарлик ишларини, тадқиқотчиларимиз эса бу ишлардан унумли, фойдаланиш йўллари, усуллари, воситаларини аниқлаб беришлари, бу соҳадаги ишларни тартибга солишлари керак.

Хулоса қилиб шунини алоҳида таъкидлаш керакки, умумтаълим мактабларида бошқа фанлардан фарқли равишда технология фани машғулотларида ўқувчиларнинг фаоллигини ошириш орқали уларда ижодкорлик қобилиятларини шакллантиришда катта имкониятлар мавжуд. Чунки технология фани машғулотларида назарий таълим амалий таълим билан узвий боғлаб олиб борилади. Бу ўқувчиларнинг мустақил ишлашини, имконият даражасида ўз қобилиятини намоён этишни таъминлайди. Ўқувчилар машғулотлар давомида ўзлари яратган буюмларни

кўриб кувонади, ёнидаги ўртоқлари ясаган буюмлар билан таққослайди, ютуғидан мағрурланади, камчилиги бўлса тўғрилайди. Бу эса ўқувчиларни мустақил шахс бўлиб камолга етишишларидаги илк қадамлари бўлади. Бундай ишларни ташкил этишда ўқитувчининг маҳорати, хусусан, машғулот кўринишига қариб ўқитиш шакллари ва методларини танлаши ва қўллаши муҳим аҳамиятга эгадир.

Юқорида баён қилинган хулосаларга асосан куйидагиларни тавсияларни келтириш мумкин:

1. Технология фанида амалий машғулотлар ҳажми ва мавқеи жиҳатидан асосий ўринни эгаллайди. Амалий машғулотларда ўқувчиларга ишлаб чиқариш асосларига оид билим берилади, кўникма ва малакалар сингдирилади. Бунда уларга турли хил асбоб-ускуналар ва иш усуллари ҳамда буюмлар ясаш усуллари ўргатилади. Шунинг учун ўқитувчи ҳар бир дарсга пухта тайёргарлик кўриши, дарсда ўқувчиларнинг хавфсизлигини таъминлайдиган шароитларни яратиши керак.

2. Технология фанида амалий машғулотларни ташкил этиш ва ўтказишнинг бир қатор усуллари мавжуд. Булар жумласига машқ қилиш, амалий иш, лаборатория иши кабилар киради. Амалий машғулотларни ўтказишдаги асосий усул – инструктаж усулидир. Юқорида айтилган методлар намойиш қилиш ва иллюстрация методлари билан қўшиб олиб борилса – дарсларнинг самарадорлиги таъминланади.

3. Амалий машғулотларда ўқитувчи ўқувчиларни ҳар бир ишни, меҳнат топшириғини мустақил ва ижодий бажаришга одатлантириб бориши зарур. Бунинг учун дарсда ўқитишнинг турли фаол усуллари қўллашга тўғри келади.

Мамлакатимизда таълим соҳасида катта ўзгаришлар рўй бермоқда. Буни таълим тизимини ислоҳ қилишга қаратилган директив ҳужжатлар, таълим стандартлари, ўқув дастурлари ва яратилаётган адабиётлар ҳамда кад ростлаётган янги таълим муассасалари мисолида яққол кўриш мумкин. Шу билан бирга ўз ечимини кутиб турган айрим ишлар ҳам мавжуд. Шулардан бири дарсларда ўқувчиларни мустақил фикрлашга ва ижодкорлик фаолиятига ўргатишнинг янада самаралироқ шакл ва усуллари ишлаб чиқиб, ҳаётга татбиқ этишдир.

Адабиётлар:

1. Бабанский Ю.К. Ҳозирги замон умумий таълим мактабида ўқитиш методлари. Т.: Ўқитувчи, 1990. – 232 б.

2. Балл Г.А. Теория учебных задач: Психолого-педагогический аспект. М.: Педагогика, 1990. – 184 с. 120.

3. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. М.: Педагогика, 1989. – 192 с.

4. Зиёмуҳаммедов Б. Илғор педагогик технология: назария ва амалиёт. Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2001. – 78 б.

5. Йўлдошев Ж.Ф., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари. Т.: Ўқитувчи, 2004. – 236 б.

6. Шомирзаев М.Х. Мактабтехнология таълимида миллий хунармандчиликнинг спектрал-вариатив компонентларини фанлараро такомиллаштириш. Монография. – Т.: Tafakkur, 2020. – 340 б.

7. Шомирзаев М.Х. Технология обучения народному-прикладному искусству, трудовое и эстетическое воспитание учащихся V-VII классов общеобразовательных школ. Монография. – Т.: Yangi nashr, 2019. – 144 с.

8. Шомирзаев М.Х. Ўқувчиларда халқ хунармандчилиги касбларига қизиқишни фанлараро шакллантириш омиллари // Мактаб ва ҳаёт. – Т., 2019. – 6-сон. – Б. 23-24.

9. Шомирзаев М.Х. Таълим технологияларидан фойдаланиш муаммолари // Замонавий таълим. – Т., 2019. – 9 (82)-сон. – Б. 25-31

10. Мактаб ўқувчиларини халқ хунармандчилигига ўргатишда замонавий

таълим методларидан фойдаланиш //Муғаллим ҳам узлуксиз билимлендириў. – Нукус, 2020. – 2-сон. – Б. 42-46.

11.Шомирзаев М.Х. Мактаб ўқувчиларини халқ хунармандчилигига ўргатишда замонавий таълим методларидан фойдаланиш. //Муғаллим ҳам узлуксиз билимлендириў. – Нукус, 2020. – 3-сон. – Б. 42-46 (13.00.01. №20).

12.Shomirzayev, M.Kh. (2019). The ethical characteristics of traditional embroidery of Fergana valley people. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 7 (12). - P. 55-59.

13.Shomirzayev, M.Kh. (2019). Ethnic peculiarities of artistic embroidery of the peoples of the Ferghana valley. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*. -7 (12). -P. 966-969.

14.Shomirzayev, M.Kh. (2019). Local features of the traditional embroidery of the Ferghana valley. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*. -7 (12). -P. 970-973.

15.Shomirzayev, M.Kh. (2020). Education is personally focused technology. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (8), Part. 93-99.

16.Shomirzayev, M.Kh. et al. (2020). National handicrafts of Uzbekistan and its social – economic significance. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (8), Part III. 129-138.

17.Shomirzayev, M.Kh. (July, 2020). Technology of Educational Process in School Technology Education. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*. Impact Factor 5.366. -№ 02. -P. 212 - 223. (www.usajournalshub.com/index.php/tajssel).

18.Shomirzayev, M.Kh. (30 July, 2020). Developing Educational Technologies in School Technology Education. *The American Journal of Social Science And Education Innovations*, Impact Factor 5.26. -P.II/VII 51 - 57. (www.usajournalshub.com/index.php/tajet).

19.Шомирзаев М.Х. Бойсун қуроқчилик санътини ўргатишда тарихий аъналарнинг ўрни // Бойсун - моддий ва номоддий маданияти бешиги” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференцияси. – Т.: Yangi nashr, 2018. - Б.62-67.



ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ИННОВАЦИОН ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МЕТОДИКАСИ

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.44.86.020>

Шомирзаев Махматмурод Хурамович

*Термиз давлат университети технологик таълим кафедраси доценти,
педагогика фанлари доктори (DSc)*

Аннотация: Мақолада умумий ўрта таълим мактабларининг технология ўқув фани машғулотларидаянги педагогик технологияларидан ташиқил этишининг баъзи жиҳатлари, жумладан технология фани дарсларида интерфаол методлардан фойдаланишининг самарадорлиги тўғрисида мушоҳадали фикр - мулоҳазалар юритилган.

Таянч сўзлар: технология, ўқувчи, ўқитиш, миллий таълим-тарбия, интеграциялашган дарс, интерфаол дарс, педагогик технология, таълим технологияси, ўқитиш технологияси, технологик жараён, технологик операция, технологик харита, технологик режим, таълимни технологиялаштириш, моҳият, мазмун, қизиқиш, касб, ҳунар, натижа.

МЕТОДОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ

Шомирзаев Максатмурод Хурамович

*Доцент кафедры технологического образования Термезского
государственного университета, доктор педагогических наук*

Аннотация: В статье рассматриваются некоторые аспекты организации новых педагогических технологий при обучении технологии в общеобразовательных школах, в том числе эффективность использования интерактивных методов на уроках технологии.

Ключевые слова: технология, студент, обучение, национальное образование, интегрированное занятие, интерактивное занятие, педагогическая технология, образовательная технология, технология обучения, технологический процесс, технологическая операция, технологическая карта, технологический уклад, технологизация образования, сущность, содержание, интерес, профессия, профессия, результат.

METHODOLOGY OF USING INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING TECHNOLOGY

Shomirzaev Maxmatmurod Xuramovich

*Associate Professor of Technological Education, Termez State University, Doctor
of Pedagogical Sciences (DSc)*

Abstract: The article discusses some aspects of the organization of new pedagogical technologies in the teaching of technology in general secondary schools, including the effectiveness of the use of interactive methods in technology lessons.

Keywords: technology, student, teaching, national education, integrated lesson, interactive lesson, pedagogical technology, educational technology, teaching technology, technological process, technological operation, technological map, technological mode, technologicalization of education, essence, content, interest, profession, profession, result.

Давлатимиз раҳбарининг ҳар бир вилоятга ташрифи доирасида ўтказилган йиғилишларда, турли учрашувларда сўзлаган маъруза ва суҳбат-ларида баркамол авлодни тарбиялаш, ёшларнинг соғлом турмуш тарзига амал қилиб яшаш масалаларига кун тартибидаги долзарб масала сифатида қаралиб келинмоқда.

Президентимиз таъкидлаганидек: “Агар фарзандимизга тўғри тарбия бермасак, ҳар куни, ҳар дақиқада унинг юриш-туриши, кайфиятидан огоҳ бўлиб турмасак, уларни илму хунарга ўргатмасак, муносиб иш топиб бермасак, бу омонатни бой бериб қўйишимиз ҳеч гап эмас”[1]

Бинобарин Президентимиз томонидан 2020 йил йил 6 ноябрда имзоланган “Ўзбекистоннинг янги тарққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-6108 Фармонда ҳам “Мамлакат тараққиёти учун янги ташаббус ва ғоялар билан майдонга чиқиб, уларни амалга оширишга қодир бўлган, интеллектуал ва маънавий салоҳияти юксак янги авлод кадрларини тайёрлаш, таълим ташкилотлари битирувчилари замонавий касб эгалари бўлишлари учун зарур кўникма ва билимлар бўлишини шакллантириш” мазкур соҳадаги асосий йўналишлардан бири сифатида белгиланган[1]. Бу масала бошқа фанлар қатори технология фанини ўқитишда ҳам асосий вазифа ҳисобланади. Бунинг учун эса ўқитиш жараёнида таълим усулларидан унумли ва оқилона фойдаланиш ҳамда бу усулларни такомиллаштириш, янгиларини излаб топиш, қўллаш орқали технология фани машғулотларининг самарадор-лигини ошириш талаб қилинади. Шу сабабли бугунги кунда таълим-тарбия соҳасидаги асосий долзарб масала – таълим усуллари ва шакллари яхши эгаллаган, уларни амалда қийналмай қўллай оладиган малакали ўқитувчи кадрларни тайёрлашдан иборат бўлиб қолмоқда. Чунки ўқувчиларга таълим-тарбия бериш, уларни касбларга йўналтиришда ўқитувчи шахси ва унинг фаолияти алоҳида аҳамиятга эгадир. Бинобарин ўқитувчи олиб борадиган очиқ мулоқот тарзидаги машғулот жараёнини бошқа ҳеч нарса боса олмайди. Шу сабабли ҳам малакали етук ўқитувчи кадрлар тайёрлаш учун, уларнинг касбий маҳоратини ошириш учун таълим-тарбия сифати ва самарадорлигини ошириш муҳим омил ҳисобланади.

Технология атамаси, унинг турлари ва қўлланилиши. Маълумки, “Технология” – юнонча “*tehne*” сўзидан олинган бўлиб, маҳорат, санъат ва “*logos*” – сўз, таълим, фан маъносини англатади. Бу атама дастлаб ишлаб чиқариш ва техника тараққиёти билан боғлиқ ҳолда фанда 1870-йиллардан эътиборан ишлаб чиқариш соҳасида қўлланила бошлаган бўлиб, унга материалларга, ярим тайёр маҳсулотларга ишлов бериш, уларнинг таркибини, хусусиятларини, кўринишини, тайёрланишини, қўлланиш соҳасини ўзгартириш йўллари ҳақидаги фан сифатида қаралган. Технология техник (ишлаб чиқариш) ва гуманитар (таълим берувчи) технологияларга бўлинади. “Технология”, “Техник технология”, “Педагогик технология” тушунчалари нимани англатади?

Техник технология қуйидагиларни билдиради: хом-ашё, материаллар, ярим фабрикатлар ёки маҳсулотларни олиш, уларга ишлов бериш ёки қайта ишлаш йўллари ва усулларининг бирлиги, яъни бу ишлаб чиқариш технологияси бўлиб, у меҳнат предметларига ишлов бериш ва уларни қайта ишлаш борасидаги услубларининг йиғиндисидан иборат (технологиянинг жараёнли-баёнли аспекти). Бошқача қилиб айтганда, юқорида кўрсатилган йўللар, усулларни ишлаб чиқувчи ва такомиллаштирувчи фан.

Технологиянинг фан сифатидаги вазифаси, моддий ресурслар ва вақтни энг кам сарфлашни талаб қиладиган самарали, тежамкор ишлаб чиқариш жараёнларини аниқлаш ҳамда амалда қўллашга оид қонуниятларни топиш ҳисобланади (илмий аспекти).

Жараённинг ўзи эса – топиш, қазиб олиш, ишлов бериш, қайта ишлаш, ташиш, омборга жойлаш, сақлаш ҳамда ишлаб чиқаришни техник назорат қилишдан иборат (технологиянинг жараёнли-ҳаракат аспекти).

Ишлаб чиқаришда, “технология” сўзидан келиб чиқадиган қуйидагити тушунчалар ишлатилади.

Технологик жараён – ишлаб чиқариладиган маҳсулотга ишлов беришда ягона жараённи ҳосил қилувчи технологик операциялар бирлиги.

Технологик операция – ишчи томонидан ўз иш жойида бажарадиган, якунига отказилган ҳаракат кўринишидаги жараённинг бир қисми.

Технологик харита – маълум бир маҳсулотни ишлаб чиқаришда технологик операцияларни бажариш кетма-кетлиги баён қилинган ҳужжат.

Технологик режим – технологик операцияларни амалга оширишни белгилловчи тартиб бўлиб, маълум бир маҳсулотни ишлаб чиқаришда бажариладиган операцияларнинг вақти, шартлари белгиланган бўлади.

Гуманитар технологиялар сафига кирувчи “педагогик технология” педагогик назария ва амалиётда шахсни шакллантирувчи, унинг сифатлари ва хусусиятларини ривожлантирувчи технологиялардан фойдаланувчи тарбиявий жараён ва ўргатувчи ҳамда дидактик технологияларни амалга оширувчи таълим жараёни ҳисобланади.

Миллий таълим-тарбия тизимини такомиллаштириш учун янги типдаги ўқув режа, ўқув дастури ва таълим стандартлари яратилди. Лекин уларни тўла амалга ошириш учун таълим мазмунига янги педагогик тажрибаларни, технологияларни олиб кириш, уларни жорий этиш учун шарт-шароитлар яратиш керак. Бинобарин ҳозирда оммавий равишда қўлланиб келаётган анъанавий таълим беришнинг синф-дарс усулининг ўз ютуқ ва камчиликлари мавжуд. Қўлланилаётган маъруза, ҳикоя, суҳбат ва шунга ўхшаш усулларда кўпинча ўқитувчи берадиган фикр ўқувчига бир ёқлама сингдирилади. Бундай ҳолатда ўқитувчи ва ўқувчи ўртасидаги қайта алоқа кўнгилдагидек бўлмайди. Агар ўқитувчи-педагог маҳоратли ва сўзлашув маданиятига эга бўлса, фикрларини аниқ, содда ва тушунарли баён этишга уста бўлса – бу усул билан ҳам мақсадга эришиш мумкин. Албатта бундай қобилиятга барча педагоглар тўлиқ эга эмаслар. Демак, муваффақиятнинг асосий гарови ўқувчиларнинг барчасини ўргатиш-ўрганиш жараёнига фаол жалб этишдир.

Таълим жараёнини, унга мукамаллик, аниқлик, тартиблилик, йўлга солинганлик, раволик, вазминлик аломатларини бериш орқали машғулотлар самарадорлигини ошириш ва оптималлаштириш йўллари излаш педагогика соҳасида доимо олиб борилган. Ян Амос Коменский ўқув жараёнида “вақт, предметлар ва усуллар”ни шундай усталик билан тақсимланган дарсни ва унинг идеал кўриниши (варианти) ни излаб топишга ҳаракат қилган. Шунда, Коменскийнинг фикрича, “ҳамма нарса, тўғри вазминликдаги тошлари бўлган соат каби ҳамда бундай турдаги автоматни қуриш каби ёқимли ва қувончли ва охир-оқибатда, бунчалик моҳирлик билан яратилган инструментда эришиш мумкин бўлган тўғрилиқ билан илгарига қараб юради”. Замонавий педагогикада ҳам таълимнинг шундай моделлари, унга нисбатан шундай ёндашувлар ишланмоқдаки, улар таълимга, ишлаб чиқариш – технологик жараёндаги каби, маълум шароитларда ва белгиланган вақт ичида кўзланган таълим мақсадларига эришишни кафолатлайдиган характерни бериш имкониятини яратади.

Ўқитишга технологик ёндашиш, яъни ўқув жараёнини ҳам ишлаб чиқаришдаги жараён каби технологик – такрорланувчи хусусиятга эга қилиш бўйича дастлабки изланишлар XX асрнинг 60-йиллари бошларида америкалик олимлар томонидан олиб борилган. Хусусан, “педагогик технология” ибораси ҳам биринчи марта америкалик педагог олим Скиннер томонидан ишлатилган. Педагогик адабиётларни ўрганиш ва таҳлил қилиш натижасида шу нарса маълум бўлдики, таълим тизимида бу иборани пайдо бўлишига қуйидагилар сабаб бўлган:

1) дидактика принципларини барча мамлакатларда (хусусан АҚШ да) тан олинмаганлиги;

2) унинг қоидалари ўта конструктив характерга эга бўлмай, замон талабидан орқада қолганлиги;

3) XX асрнинг 60-йилларида таълим жараёнига техникани, дастурланган таълим машиналарининг кириб келганлиги ва ҳақозо.

Демак, педагогик технология оқими АҚШда дунёга келган бўлиб, XX

асрнинг 70-80-йилларида деярли барча ривожланган мамлакатларни қамраб олди ва ЮНЕСКО томонидан ҳам маъқулланди.

Таълимни технологиялаштириш ғоясининг асосини таълим жараёни самарадорлигини ошириш, таълим олувчиларни берилган шароитларда ва ажратилган вақт ичида лойиҳалаштирилган ўқув натижаларига эришишни кафолатлаш мақсадида тўлиқ бошқариш ишлари ташкил этади. Бундай ёндашишнинг моҳияти таълим жараёнини тизимлаштиришдан, уни аниқ расмийлаштирилган ва деталлари бўйича аниқ элементларга бўлиб ташлаш ёрдамида максимал шакллантиришдан иборат [10].

Педагогик технологияларнинг предмети – таълим тизимининг концептуал асосларига далил келтиришдан, мақсадларни қўйишдан, натижаларни шакллантиришдан, ўқув материални танлаш ва структуралаштиришдан, таълим моделини танлашдан то уларни амалга оширишгача, уларнинг оптималлик ва самарадорлик даражасини баҳолашгача лойиҳалаштиришдан таркиб топган. Ўша пайтда педагогик технологиянинг туб моҳияти, ўқитувчининг анъанавий оғзаки баён қилиш усулидан воз кечиб, тест асосида машина (компьютер) ёрдамида ўқитишдан, ўқувчиларни кўпроқ мустақил таълим олишга ундашдан иборат бўлган бўлса, ҳозир бу иборанинг маъноси янада кенгайиб кетди.

Ҳорижий мутахассислар ўқитиш технологияси тушунчасининг вужудга келиши ва ривожланиши тарихини уч босқичдан иборат деб ҳисоблайдилар.

Биринчи босқичда ўқитиш жараёнини фақат ўқитувчининг ўзи олиб борар эди ва унга ёрдам берувчи воситалар мавжуд бўлмаган. Н.Ф.Тализина ибораси билан айтганда, “инсон тажрибаси ўқитиш технологияси функциясини бажарган”. Иккинчи босқичда китоб ва қўлланмалар нашр этилгандан сўнг ўқитиш технологиясида мазмун жиҳатдан тубдан ўзгариш содир бўлди: ўқитувчи, ўқувчи ва талабалар учун яратилган дарслик ва дидактик материаллар қаторига турли техник воситалар, замонавий компьютерлар (ўргатувчи машиналар) ҳам қўшилди. Келажакда илмий-техник тараққиёт инқилоби таъсирида олий мактабда ўқитиш технологиясини янада такомиллашуви назарда тутилмоқда.

Адабиёт ва матбуот саҳифаларида педагогик технология иборасини турлича талқин қилиш ҳоллари учрамоқда. Бу ўринда биз қуйидаги таърифларни мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз. Профессор Гольбрайт педагогик технологияни қуйидагича таърифлайди: “Ўқитиш технологияси илмий ва бошқа билимлардан системали равишда амалий масалаларни ҳал этишда қўллашдан иборат”. Скиннер эса: “Ўқитиш технологияси – психология эришган ютуқлардан педагогик амалиётда фойдаланишдир”, деб ўқитиш усулига технологик ёндашишнинг туб моҳиятини, уни инсон психологиясига асосланганлигини таъкидлайди.

Ўқитишни технологик усулда ташкил этишнинг анъанавий усулларганисбатан тубдан фарқ қилувчи асосий жиҳатлари қуйидагилардан иборат:

Ҳар бир мавзу (ўқув бирлиги) бўйича идентификацияланган ўқув мақсадларни ажратиш, уларга мувофиқ ҳолда тест топшириқларни тузиш.

Ўқув жараёнини ташкил этишни асосан мустақил ўзлаштиришга ўтқа-зиб, ўқитувчига эса йўлловчи, маслаҳат берувчи функцияларни қолдириш.

Ўқитиш жараёнини такрорланувчан шаклда ташкил этиш, ҳар бир ўқув бирлигини барча ўқувчилар ва талабалар томонидан тўла ўзлаштиришни таъминлаш.

Ўқувчи-талабаларни фанга (мутахассисликка) оид ташқаридан кузатилиши мумкин бўлган ҳаракатларни бажаришга ўргатиш.

Ўқитиш натижасига қараб ўқув жараёни мақсади ва мазмунига тегиш-ли тузатишлар киритиб бориш ва ҳ.

АҚШда яратилган ўқитишга технологик ёндашиш усули ҳозирга кунда жаҳондаги бир қатор мамлакатларда (Англия, Франция, Япония, Корея, Тайванд, Малайзия ва ҳ.) муваффақиятли қўлланилмоқда. Бу ғоя ЮНЕСКО томонидан ҳам

маъқулланиб, барча мамлакатларга жорий этиш учун тавсия этилган.

Таълим назарияси ва амалиётида ўқув жараёнига технологик характерни киритиш йигирманчи асрнинг 50-йиллардан бошланган. Булар анъанавий ўқитиш учун техник воситалар мажмуасини яратишда ўз ифодасини топган. Ҳозирги вақтда педагогик технологияга оддийгина “ўқитишнинг техник воситаларидан ёки компьютерлардан фойдаланиш соҳасидаги тадқиқотлар сифатида қаралмайди; бу ўқитиш самарадорлигини оширувчи омилларни таҳлил қилиш ва қўллаш йўли билан ҳамда қўлланилаётган усулларни баҳолаш воситасида таълим жараёнининг тамойилларини аниқлаш ва оптималлаштириш усулларини ишлаб чиқиш мақсадидаги тадқиқотлардир”. В.П.Беспальконинг фикрича барча таълим-тарбия ишларини педагогик технология йўлига ўтказиш – ўқув амалиётини, педагогик жараёнини қуриш ва амалга оширишда ихтиёрийликдан унинг ҳар бир элементини ва босқичини тартибли асослашга, объектив ташҳис қилинадиган якуний натижага интилишга кескин равишда бурилишини ифодалайди.

Ҳозирги пайтда педагогик фан ва амалиётда “педагогик технология”, “таълим технологияси”, “ўқитиш технологияси” каби атамалардан кенг фойдаланилади. Уларнинг умумий ўхшашлик томонлари билан бирга, уларни тушуниш пайтида алоҳида фарқлар ҳам мавжуд. Жумладан педагогик технология – ўқув жараёнини технологиялаштиришни бутунлигича аниқловчи тизимли категория. Технологияларнинг барча бошқа тушун-чаларини белгилаш учун синоним сифатида таълим технологияси, ўқитиш технологияси кабиларни ишлатиш мумкин. Ўқитиш технологияси, биринчидан, педагогик технологиянинг жараёнли ҳаракат аспекти аниқланади. Бу таълим жараёнини ўзгарувчан шароитларда, ажратилган вақт давомида кўзланган натижаларига кафолатли эришишга ва муайян таълим-тарбия жараёнларини амалга оширишни таъминловчи усул ва воситалар (технологик операциялар)нинг тартибли бирлигини ўзида мужассамлаштирган таълим моделини ишлаб чиқиш ва амалга оширишнинг технологик жараёни; иккинчидан, педагогик технологиянинг жараёнли-баёнли аспекти ифодалади. Бу мақсадни амалга ошириш ва истиқболда белгиланган натижага эришиш бўйича педагогик ҳам-да ўқув фаолияти лойиҳасини бажаришнинг баёнидир (технологик харита).

Таълим технологияси – педагогик технологиянинг илмий аспекти белгилаш учун ишлатилади. Бу (фан предмети), “техник ва инсон ресурсларини ҳамда уларни, ўз олдидаги таълим шакллари оптималлаштириш вазифасини қўювчи ҳамкорлигини ҳисобга олган ҳолда дарс бериш ва билимларни ўзлаштиришнинг барча жараёнларини яратиш, қўллаш ва белгилашнинг тизимли усули”.

“Педагогик тизим”, “таълим технологияси”, “ўқитиш технологияси” ва “предметли методика” тушунчаларининг ўзаро ўхшашлиги ва фарқи нимада намоён бўлади?

Бу тушунчаларининг қиёсий тавсифи қуйидагича: Педагогик тизим (ПТ) – белгиланган сифатларга эга шахсни шакллантиришга қаратилган мақсадли ва олдиндан белгиланган педагогик таъсир кўрсатиш учун зарур бўлган ўзаро боғлиқ воситалар, усуллар, жараёнлар бирлигидан иборат маълум бир бутунлик. ПТ компонентлари: 1. Таълим бериш. 2. Таълим олувчи. 3. Мақсадли. 4. Натижавий. 5. Ўқув ахборотининг мазмуни. 6. Педагогик технология (усуллар, йўллар, воситалар ва бошқариш шакллари). 7. Назорат таҳлилий компонент [11].

Таълим технологияси (ТТ) – техник ва инсон ресурсларини ҳамда улар-ни ўз олдига таълим шакллари оптималлаштириш вазифасини қўювчи ҳам-корлигини ҳисобга олган ҳолда дарс бериш ва билимларни ўзлаштириш жараёнларини яратиш, қўллаш ва белгилашнинг тизимли усули.

ТТ тузилмаси: 1. Концептуал асос. 2. Мазмуний қисм мақсадлар (натижалар, ўқув ахбороти). 3. Жараёнли қисм (усуллар, йўллар, воситалар, ўқитиш, ахборот ва бошқариш шакллари).

Ўқитиш технологияси (ЎТ) – аниқ (конкрет) ўқув-тарбия мақсадини амалга оширишни ва истиқболда белгиланган натижаларга эришишни кафолатлайдиган ўқув моделини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш жараёни ҳамда унинг баёни (технологик харитаси). ЎТ тузилмаси: усуллар, йўллар, воситалар, ўқув ахбороти ва бошқариш шакллари.

Предметли методика (ПМ) – педагогик фан соҳаси бўлиб, қуйидаги саволларга жавоб беради: Нимага ўргатиш керак? Қандай ўқитиш керак? Қандай ўқиш керак? ПМ мазмуни ушбу предметни ўқитиш вазифалари ва мазмунини аниқлаш ҳамда уни амалга оширишдан иборат.

Юқоридагилардан кўринадики, таълим технологияси – педагогик тизим компонентиدير. Жараёнли қисм эса таълим технологиясининг муҳим элементи ҳисобланади.

Ўқитишнинг предметли методикасидан фарқли равишда технология қуйидагича лойиҳалаштирилади:

муайян шароитлардан келиб чиқиб, белгиланган натижаларга эришишга йўналтирилган, олдиндан ўйлаб қўйилган аниқ педагогик фаолиятга қаратилади;

ўзининг натижавийлиги, натижаларининг қайта тикланиши, “агарда” сўзини кўпчилик ҳолларда ишлатилмаслиги билан фарқланади, агарда талантли ўқитувчи ва талантли таълим оловчи, ўқитиш воситалари, жумладан, ахборот технологиялари ва шу кабилар етарли миқдорда мавжуд бўлса;

муқобил кўринишларнинг бўлиши мумкин эмас, унинг асосий вазифаси режалаштирилган натижага эришишни кафолатлаш;

дарсни таълим берувчилар учун методик ишлаб чиқишдан фарқли равишда таълим оловчиларга ва уларнинг шахсий фаолияти ҳисобига ўқишда ютуқларга эришишларини таъминлашга йўналтирилганлиги;

технологияда ортиқча ҳеч нарса бўлмаслиги шарт: ўзлаштириш йўлларини, усулларини ва воситаларини алмаштириш, бу – технологиянинг йўқлиги белгиси.

Шуни алоҳида таъкидлаш ўринлики, таълим жараёнида педагог-технолог алоҳида тажриба ўтказмайди, у олдиндан аниқ айтиладиган натижа асосида иш тутаяди; фақатгина яхши маълум бўлган, синондан ўтган, асосланган ва гумон уйғотмайдиган маълумотларга суянади.

Қуйида анъанавий ўқитиш билан замонавий технологияларга асосланган ўқитиш орасидаги фарқ ва белгилар келтирилган.

Анъанавий ўқитишнинг асосий белгилари (концептуал асослари) – мажбурловчи, таълим оловчига ёндашиш бўйича насиҳатўйлик, аксарият усул бўйича репродуктивли, ўқитишни қаттиққўллик билан ташкил қилувчи авторитар, таълим оловчиларнинг мустақиллигини ва ташаббускорлигини унчалик таъминламовчи педагогикага асосланади. Ўқитиш, қандайдир ўртача ҳолга келтирилган ўқувчига, уни билимларни ўзлаштиришига ва қайта тиклашига қаратилган. Ўқиш – эслаб қолиш функцияси, ўқитиш эса – етакчи фаолият. Шахсни тушунча ва маълумотлардан юзаки хабардор бўлиши, уларнинг моҳиятига тўлиқ тушуниб етмаслиги ва ҳ. Ўқитиш жараёни: таълим берувчи – дарслик – таълим оловчи.

Замонавий технологияларга асосланган ўқитишнинг асосий белгилари (концептуал асослари) – шахсни шакллантиришга йўналтирилган таълимга асосланган. Таълим оловчи шахси – таълим жараёнининг асосий фигураси.

Муносабатларнинг инсонпарварлиги ва демократлашуви, ўқишга мажбурлашдан воз кечиш. Ўқитишга дифференциялашган ёндашув: таълим оловчининг умумий интеллектуал ривожланиш даражасини ва уни ушбу предметни, мавзунини ўзлаштиришини, унинг қобилиятларини ва сифатларини ҳисобга олиш. Ўқиш фаолияти – билимларни мустақил эгаллаш ва таълим оловчи томонидан ўзлаштирилган билимларни қўллаш: характери бўйича муаммоли, изланувчан, ижодий. Таълим ва тарбиянинг бир бутунлиги, шахс маданиятини ривожлантиришга йўналтирилганлиги. Ўқитишнинг янги жараёни: таълим оловчи

– дарслик – таълим берувчи.

Ушбу маълумотларни таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, янги педагогик технологияларга асосланган замонавий таълим анъанавий таълимдан концептуал асослари, таълим усуллари ва воситалари, уни ташкил қилиш шаклларива натижалари таълим оловчиларининг билим, кўникма, малака (БКМ)ларни ўзлаштириш даражалари билан сезиларли даражада фарқ қилади. Замонавий педагогик технологияларни жорий қилиш ўқув жараёнини мукамаллаштиришга қўмаклашиши исбот талаб қилмайдиган ҳақиқатдир. Бу ўз навбати-да, мустақил Ўзбекистоннинг халқ таълими тизимида ижобий ўзгаришларни тезлаштиради. Замонавий педагогик технологиянинг моҳияти ҳақида хулоса қилиб қуйидагиларни айта оламиз: педагогик технологиянинг моҳияти – ўқитиш жараёнини бутунлигича ва тугалланган ҳолда олдиндан лойиҳалаш-тиришдан иборат.

Аниқ лойиҳалаштирилган технологик жараёнда педагогик ва дарс иш ҳаракатлари, операциялари ва коммуникацияларининг занжири кутилаётган аниқ натижалар шаклига эга, қўйилган мақсадларга қатъий мос равишда тузилади. Технологик операцияларни босқичма-босқич лойиҳалаштириш ва кетма-кет амалга ошириш, бир томондан ҳар қандай таълим оловчи томонидан қайта тикланиши керак, бошқа томондан эса режалаштирилаётган нати-жаларга барча таълим оловчилар томонидан эришишни кафолатлаши зарур, бунда технологик жараён таълим берувчи ва таълим оловчининг бир-бири билан боғлиқ фаолиятини, дифференциялашганлик тамойилларини ва уларнинг индивидуаллигини ҳисобга олган ҳолда шартнома асосида, инсон омили ва техник имкониятларни оптимал амалга оширишни, диалогдан ва мулоқотдан фойдаланишни олдиндан назарда тутди. Яъни:

педагогик технологиянинг асосий қисми – бир хил имкониятли аниқ мезонларни ва фаолият натижаларини баҳолаш кўрсаткичларини амалга ошириш ҳамда шу орқали ташҳис қўйиш жараёни ҳамдир;

тузатишлар киритиш жараёни таълим оловчининг хатоларига эмас, балки таълим оловчига нисбатан қўлланилаётган ўқитиш жараёнини ташкил қилиш усулини ўзгартиришга йўналтирилиши зарур.

Демак, ҳозирги замон ўқитишдаги илғор усуллардан бири таълимнинг интерфаол методлар бўлиб, улар таълим жараёнини фаоллаштириш, ўқишга нисбатан бурч масъулиятни ошириш, ўқитувчи ва ўқувчилардан ташаб-бускорлик, мустақил билим олиш ҳаваси ва ижодкорликни ўстириш, дарс жараёнини жонли-жозибали ва қизиқарли бўлишини таъминлайди.

Ўқитишнинг интерфаол методларини қўллаш мактабдаги таълим-тарбия ишларига жўшқинлик ва ғайрат киритади. Маҳоратли, ижодкор ўқитувчилар мактабларда таълимнинг интерфаол методларидан фойдаланиб, таълим-тарбия ишларида юқори самараларга эришмоқдалар. Уларнинг ижодий изла-нишлари, саъй-ҳаракатлари туфайли ҳозирги замон ўқитиш амалиётида замонавий дарс назарияси, методик асослари, технологияси яратилиб, улар-дан таълим муассасаларида фойдаланилмоқда.

Интерфаол дарслар ўз мазмуни, мақсади ва услубига кўра шартли равиш-да қуйидаги гуруҳларга ажратилади:

Мусобақа, ўйин тарзидаги дарслар: конкурс, турнир, эстафета, лингвистик, маиший турмуш, дуэль, кун, амалий, ролли, сюжетли ўйинлар, кроссворд, викторина ва бошқалар.

Ўйин материални ноанъанавий тарзда ташкил этувчи дарслар: донишмандлик дарси, ошқора фикр дарси, дарс-блок, дарс-дублёр ва ш.к.

Ўз жанри, мазмуни, шакллари ва услуби бўйича ижтимоий амалиётда мавжуд бўлган дарслар: тадқиқотчилик, ихтирочилик, биринчи манбаларни ўрганиш ва шарҳлаш, фикрий хужум, интервью, репортаж, тақриз ва ҳақозо.

Расмий муомалани эслатувчи дарслар: матбуот конференцияси, аукцион,

митинг, баҳс, мунозара (регламентли), панорама, телекўрсатув, телекўприк, рапорт, фильм, “жонли газета”, оғзаки журнал.

Фантазияга асосланган дарслар: эртақ-дарс, дарс-сюрприз, Ибн Ҳаттоб совғаси дарси.

Ташкилот, муассасаларнинг имитацион фаолиятига асосланган дарслар: суд, тергов, трибунал, цирк, патент, бюро, илмий кенгаш.

Оммавий, маданий тадбирларни ўтказишга доир имитацион фаолиятга асосланган дарслар: сиртки экскурсия, ўтмишга саёҳат, адабий сайр, адабий меҳмонхона, интервью, репортаж.

Синфдан ташқари анъанавий ишларга асосланган дарслар: кувноқлар ва зукколар баҳси, мунозара ёки мушоира дарси, эрталиклар, спектакль-дарс, концерт-дарс, бадиий асар таҳлили, билимдонлар клуби, “Терговни билим-донлар олиб боради” ва ҳ.

Интеграциялашган (уйғунлашган) дарс.

Дарс қурилишининг анъанавий усуллари ўзгартирилган дарслар: дарс-консултатция, дарс-практикум, дарс-семинар, жуфт савол, экспресс, баҳо ҳимояси, телевидениесиз теледарс ва ҳақозо.

Интерфаол дарсларни дарсларни ташкил этишдан мақсад:

ҳар бир ўқувчининг шахсий хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда машғулотларни олиб бориш;

машғулотларда ҳар бир ўқувчининг мавзуларни мустақил ва ижодий ҳолда ўрганиш, фикрларини эркин, тўла баён этишларига имконият яратиш;

ўқувчиларда муомала маданиятини, бошқа умуминсоний ҳислатларни юксалтириш;

машғулотларни ишчанлик вазиятида ўтказиш, вақтни тежаш кабилардан иборат.

Умуман олганда интерфаол дарслар ҳар доим байрам кўринишида бўлиб, ҳар бир ўқувчи унда ўзини намоён қила оладиган, синфда ижодий муҳит ҳукмрон бўладиган ҳолатда ташкил этилса юқоридаги мақсадга эришиш мумкин[9].

Интерфаол дарсларни уюштиришда қуйидаги тавсияларга риоя қилиш мақсадга мувофиқдир:

интерфаол дарслардан билим ва кўникма, малакаларини баҳолаш ва ҳисобга олишда, мустаҳкамлаш ва умумлаштиришда, кенгайтириш ва такомиллаштиришда фойдаланиш;

ўқитувчининг ҳадеб бир хил усулни қўллаши ижобий натижа бермайди, балки унга нисбатан қизиқишни сусайтиради;

интерфаол дарсларга пухта тайёргарлик кўриш, биринчи галда унинг ташкилий томонлари, мақсад ва воситаларини аниқ ишлаб чиқиш;

интерфаол дарсларда ўқитувчи ўз имкониятларини, руҳий ҳолатини, синфнинг тайёргарлик даражаси ва хусусиятларини ҳисобга олиши;

бундай дарсларни ташкил этишда бошқа ўқитувчиларни ҳам жалб этиш;

интерфаол дарсларни ўтказишда “болалар билан болалар учун” деган қолидаги риоя қилиш.

Демак, ўқитиш самарадорлигини оширишнинг муҳим омилларидан бири интерфаол дарслар бўлиб, бугунги кунда республикамиз мактабларидаги илғор ўқитувчиларимиз улардан кенг қўламда фойдаланиш билан бир қаторда унинг янгидан-янги турларини излаб топмоқдалар ҳамда уларни педагогик амалиётга татбиқ этмоқдалар.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, ўқувчиларни ўқитиш, тарбиялаш – машаққатли иш ҳисобланади. Бунда ўқитувчининг энг машаққатли ишларидан бири шуки, у ҳар бир ўқувчининг шахсий (индивидуал) хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда машғулотларда барча ўқувчиларнинг фаоллигига эришишдан иборат. Бу ўринда ўқувчининг фаоллиги ўз-ўзидан ошмаслигини, балки бу онгли муносабат

натижаси эканлигини ёддан чиқармаслик зарур. Модомики, фаоллик онглилик натижасида вужудга келар экан, у таълим-тарбия ишининг мазмуни, ташкил этиш шакли, амалга ошириш методлари ва воситаларини ўзаро мувофиқлаштиришни тақозо этади. Ўқитувчи ўқувчиларда ўқишга бўлган қизиқишини онгли равишда оширишга ҳаракат қилиши зарур.

Юқорида баён қилинган хулосаларга асосан куйидагиларни тавсияларни келтириш мумкин:

1. Ўқувчиларини ишлаб чиқаришнинг асосий бўғинлари, соҳалари билан таништиришда, уларни амалий фаолиятга тайёрлашда, турли касбларни танлашга йўналтириш ва шу орқали мустақил ҳаётга тайёрлашда технология фани дарсларида катта имкониятлар мавжуд. Шусабабли технология фани машғулотларини ташкилий-услубий, илмий-техникавий, ғоявий-сиёсий томондан пухта ўтказишга эришиб бориш ҳар бир технология фани ўқитувчисининг касбий бурчидир.

2. Технология фанида амалий машғулотлар ҳажми ва мавқеи жиҳатидан асосий ўринни эгаллайди. Амалий машғулотларда ўқувчиларга ишлаб чиқариш асосларига оид билим берилади, кўникма ва малакалар сингдирилади. Бунда уларга турли хил асбоб-ускуналар ва иш усуллари ҳамда буюмлар ясаш усуллари ўргатилади. Шунинг учун ўқитувчи ҳар бир дарсга пухта тайёргарлик кўриши, дарсда ўқувчиларнинг хавфсизлигини таъминлайдиган шароитларни яратиши керак.

3. Технология фанида амалий машғулотларни ташкил этиш ва ўтказишнинг бир қатор усуллари мавжуд. Булар жумласига машқ қилиш, амалий иш, лаборатория иши кабилар киради. Амалий машғулотларни ўтказишдаги асосий усул – инструктаж усулидир. Юқорида айтилган методлар намойиш қилиш ва иллюстрация методлари билан қўшиб олиб борилса – дарсларнинг самарадорлиги таъминланади.

4. Ҳозирги пайтда технология фани дарсларида ўқувчиларга асосан қоғоз, газлама, ёғоч, пластмасса ва металл каби материаллардан фойдаланиш, озиқ-овқат маҳсулотларига ишлов бериш ва таом тайёрлаш ишларини ўргатиш бўйича билим ҳамда амалий кўникмалар сингдириб келинмоқда. Келгусида технология фани дарсларида, айниқса, ўқувчиларнинг амалий ва ижодий фаолиятини ташкил этиш ҳамда ўтказишга оид машғулотларда уларга тадбиркорлик ишларини ўргатиш, тадбиркорлик ишларини ташкил этиш бўйича ҳам махсус тушунчалар беришни йўлга қўйиш зарур, деб ҳисоблаймиз.

АДАБИЁТЛАР:

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Тошкент, 2020 йил 24 январь.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистоннинг янги тарққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Фармони. Т., 2020 йил 6 ноябрь ПФ-6108.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Т.: O'zbekiston, 2017. – 488 б.

4. Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси IX сессиясида сўз-ланган нутқ, 1997 йил 29 август. 6-жилд. Т.: Ўзбекистон, 1998. – 324 б.

5. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат: Ўқув кўлланма. – Т.: ТДПУ, 2003. – 174 б.

6. Бабанский Ю.К. Ҳозирги замон умумий таълим мактабида ўқитиш методлари. Т.: Ўқитувчи, 1990. – 232 б.

7. Давлатов К., Воробьев А.И., Каримов И. Меҳнат ва касб таълими назарияси ҳамда методикаси: Педагогика институти талабалари учун кўллан-ма. Т.: Ўқитувчи, 1992. – 320 б.

8.Шомирзаев М.Х. Мактаб технология таълимида миллий ҳунармандчиликнинг спектрал-вариатив компонентларини фанлараро такомиллаш-тириш назарияси ва амалиёти. Монография. –Т.: Tafakkur, 2020. – 164 б.

9.Шомирзаев М.Х. Ўқувчиларда халқ ҳунармандчилиги касбларига кизиқишни фанлараро шакллантириш омиллари //Мактаб ва ҳаёт. – Т., 2019. – 6-сон. – Б.23.

10.Шомирзаев М.Х. Таълим технологияларидан фойдаланиш муаммолари // Замонавий таълим. –Т., 2019. – 9 (82)-сон. – Б.27.

11.Шомирзаев М.Х. Ўқувчиларда халқ миллий ҳунармандчилиги касбларига кизиқишни шакллантиришда таълим технологияларидан фойдаланиш // Қорақалпоқ давлат университетининг хабарномаси. –Нукус, 2019. –4 (45)-сон. – Б. 101.

12.Шомирзаев М.Х. Технология таълимида ўқувчиларни халқ ҳунармандчилиги касбларига йўналтиришни такомиллаштириш //Fan va jamiyet (Pim ham jamiyet). – Нукус, 2020. –2-сон. – Б.99.

13.Технология таълимида “Кластер” методидан фойдаланиш стратегияси // Халқ таълими. –Тошкент, 2020. –5-сон. – Б.67.

14.Shomirzayev, M.Kh. (2019). Ethnic peculiarities of artistic embroidery of the peoples of the Ferghana valley. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences.-7 (12).-P. 967.



МАКТАБ ТЕХНОЛОГИЯ ТАЪЛИМИДА ЎҚУВЧИЛАРНИ МИЛЛИЙ ХУНАРМАНДЧИЛИКНИНГ СПЕКТРАЛ-ВАРИАТИВ КОМПОНЕНТЛАРИ БИЛАН ФАНЛАРАРО ТАНИШТИРИШДА ТАРИХИЙЛИК ПРИНЦИПИ

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.88.48.019>

Шомирзаев Махматмурод Хурамович,

*Термиз давлат университети технологик таълим кафедраси доценти,
педагогика фанлари доктори (DSc)*

Аннотация: Мақолада ўқувчиларни технология таълимида миллий хунармандчиликнинг спектрал-вариатив компонентлари билан таништиришда фанлар интеграцияси мазмуни ёритилган.

Таянч сўзлар: кулол, сопол, хунарманд, хумдон, чанг, хунармандчилик, кулолчилик чархи, ганч ўймакорлиги, нақш, мисгарлик.

ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ПРИВЕДЕНИЯ УЧАЩИХСЯ В ШКОЛЬНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ К РАЗЛИЧНЫМ КОМПОНЕНТАМ НАЦИОНАЛЬНЫХ ПРОМЫСЛОВ

Шомирзаев Махматмурод Хурамович,

Доцент кафедры технологического образования Термезского государственного университета, доктор педагогических наук

Аннотация: В статье раскрыто содержание интеграции дисциплин при ознакомлении учащихся со спектрально-вариативными составляющими народных промыслов в технологическом образовании.

Ключевые слова: Керамика, керамика, ремесленник, керамика, порошок, ремесло, гончарный круг, резьба по ганчу, узор, медник.

HISTORICAL PRINCIPLES OF INTRODUCTION OF STUDENTS IN SCHOOL TECHNOLOGY EDUCATION TO SPECIAL-VARIOUS COMPONENTS OF NATIONAL CRAFTS

Shomirzaev Maxmatmurod Xuramovich,

Associate Professor of Technological Education, Termez State University, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc)

Abstract: The article describes the content of the integration of disciplines in introducing students to the spectral-variable components of national crafts in technology education.

Keywords: pottery, potter, artisan, pottery, powder, handicraft, pottery wheel, ganch carving, pattern, coppersmith.

Республикаимиз мустақиллиги шарофати билан таълим-тарбия тизимида амалга оширилаётган туб ислохотлар ижтимоий, иқтисодий ҳаётдаги бу муҳим соҳани янада сифат ва кўлам жиҳатдан янгидан-янги ўзгаришларга олиб келмоқда. Таълим-тарбия тизимидаги ислохотларни олиб боришда асосий йўриқнома бўлиб, 1997 йил 29 августда Олий Мажлиснинг IX сессиясида қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги Қонун ва “Кадрлар тайёрлашнинг Миллий дастури” хизмат қилмоқда. Жумладан, ёшларни янгича руҳда, миллий ўзликни англаш руҳида тарбиялаш тўғрисида “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури”нинг “1.3 Ислох қилиш омиллари” бўлимида шундай белгиланади: “... миллий ўзликни англашнинг ўсиб бориши, ватанпарварлик, ўз Ватани учун ифтихор туйғусининг шаклланаётганлиги, бой миллий маданий-тарихий анъаналарига ва халқимизнинг интеллектуал меросига ҳурмат; Ўзбекистоннингжаҳон ҳамжамиятига интеграцияси, республиканинг жаҳондаги мавқеи ва обрў-эътиборининг мустаҳкамланиб бораётганлиги”, - деб

кўрсатилади [1.2; 38].

Дарҳақиқат, ёшларни меҳнат жараёнига, касб-хунарлар эгаллашга йўналтириш ва ушбу фаолиятларни ўзлаштиришларини такомиллаштириш йўлида олиб бораётган тадқиқотимиз учун Шарқ халқларининг бой, маънавий мероси ва кадриятларига муҳим аҳамият касб этади.

Халқи миллий хунармандчилиги моддий ва маънавий мерослар билан ҳамоҳанг равишда ривожланиши кўплаб мутафаккир, донишмандларнинг битик ва асарларида юксак маҳорат билан ифодасини топди ва ушбу асарлар жаҳоннинг маданият ҳазиналаридан ўз ўрнини эгаллади. Турли ижтимоий-иқтисодий тузумларда яратилган ҳадислар, панднома, ривоят, ҳикоя, дoston, мақол, ғазал, рубоий, маснавий, эртақ каби халқ оғзаки ижоди намуналари орқали инсоннинг таълим-тарбияси ва касб-хунар ўрганишининг афзаллиги, ҳалол меҳнат билан яшашнинг зарурлиги тўғрисидаги фикрлар бизгача етиб келган. Бундай ёзма манбаларга зардуштийларнинг улуғ асарларидан ҳисобланган, эрамиздан аввалги VI-IV асрларда яратилган “Авесто”да болалар ёшлигидан дарахт кўчати ўтказиши, уй-рўзғор қуроллари ясаши, ерга ишлов бериши каби меҳнат машғулотларини қилишлари кераклиги ҳақида кўплаб сатрлар келтирилган: Масалан, “... “Авесто”да, таърифланган ва тарғиб этилган энг қутлуғ касб деҳқончилик. Зеро, бу касб соҳиблари зардуштийларни моддий неъматлар билан таъминлайди бу эса, ҳаёт тараққиётининг асосий омили [2.6; 39].

Албатта, Шарқ халқлари, жумладан, Марказий Осиё халқлари VII - IX асрларда ислом динига, унинг ақидаларига риоя қилиб келдилар. Мусулмонларнинг энг олий, муқаддас китоби бўлган “Қуръони карим”нинг оят ва сураларида мўътабар Аллоҳ номидан халқни, унинг аҳли мўминини тўғри йўлга бошлайди. “Қуръони карим”нинг бевосита оятларидан келиб чиқиб, халқ орасида турли панд-насихатлар, ривоятлар, ҳикоялар кўринишида Ҳадис яратилди. Унда, кишиларнинг турмуш тарзи, ижтимоий фаолияти ва бир-бирларига бўлган муносабатларини тартибга солиш тўғрисида тарбиявий панд-насихатлар берилган. Буюк муҳаддис, ислом оламида йирик аллома сифатида танилган Имом Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий, ўзининг “Ал-жомийъ ас-саҳих” (“Ишонарли тўплам”) асарида касб-хунар ўрганиш, меҳнат қилиш ва унинг афзаллиги тўғрисидаги ҳадисларни тўплаб шарҳлаган. Масалан, 14-бобда “Кишининг касби ва ўз кўли билан меҳнат қилиши ҳақида”ги ҳадисда шундай дейилади: “Менинг ўз касбим борлигини қавмимиз яхши билур. Мен гарчи мусулмон ишлари билан банд бўлсам ҳам, шу касбим орқали оила тебратурман” - деб ёздилар. Шунингдек, ушбу асарда “Тўқувчи ҳақида”, “Темирчи ҳақида”, “Тикувчи ҳақида”, “Савдо ишлари ҳақида” алоҳида эътиборга молик боблар, ҳадислар келтирилган [2; 18].

Буюк мутафаккир Абу Наср Форобийнинг асарларида инсонларни илм-маърифатли бўлишга, ҳалол меҳнат қилишга, касб-хунар эгаллашга ҳамда инсон шахсининг ижодий ва бунёдкорлик кучини ва унинг камолотини, кадр-қимматини улўглашга чорлайди.

Масалан, унинг фикрича, “... кимки энг гўзал ва фойдали бўлса, кашф этган нарсаси чиндан ҳам ўзининг истагига ва бошқа бировнинг истагига мувофиқ бўлма ёки уни бошқаларнинг хоҳишига мувофиқ деб гумон қилинса, кашф ёки ижод этилган нарса ҳақиқатдан хайрли ва фойдалидир” [2.1; 99].

Таълим, билимларни ўрганиш асосида ҳосил бўлади. Тарбия эса, амалий фаолият асосида, яъни унда ўқувчининг касб-хунарга бўлган ҳавасини кузатиш мумкин. Агар, ўқувчи касб-хунарга қизиқса, ушбу қизиқиш уни бутунлай касб-хунарга боғлаб қўяди, натижада, у касб-хунарнинг чинакам ошиғи бўлиб қолади.

Шарқнинг буюк математиги ал-Хоразмий, ўзининг “Ўғитлар”ида “Меҳнат бу бир сел, агар шу сел тўхтаб қолса, у сингиб кетади” деб фикр юритади. Буюк мутафаккир олим ал-Хоразмий ушбу мисраларида ҳаётий, муҳим бир ҳақиқатни айтади. Яъни сув оби ҳаёт, сувсиз ҳаёт йўқ бўлгани каби меҳнатсиз

хаёт бўлмаслигини, сувнинг ерга сингиб кетишини умрнинг курук ўтиб кетишига таққослайди [2.3.2].

Қомусий олим Абу Райҳон Беруний кишиларнинг бахт-саодати ва камолоти, унинг ҳалол меҳнат қилиши, касб-хунар ўрганишида деб билади. Берунийнинг “Геодезия”, “Минерология”, “Ҳиндистон”, “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар” номли асарларида яшаб турган даврдаги ишлаб чиқаришнинг ривожини ва касб-хунарларга оид қимматли маълумотлар берилган.

Буюк аллома ўз асарида ўз асарларида унумли меҳнатнинг аҳамиятини алоҳида таъкидлаб, “... барча қимматли нарсалар инсон меҳнати билан яратилади ва инсоннинг кадр-қиммати, унинг авлод-аждоди ким бўлганлиги билан эмас, балки, унинг меҳнати билан улуғланади. Бунинг учун меҳнат чуқур, фақат ақл-идрок ва меҳнатнинг жонланишигина кишилар ҳаётини белгилаб беради”, - дейди [2.2; 9-12].

Абу Райҳон Беруний инсоннинг ҳалол меҳнат қилиши ва касб-хунар эгаллаши туфайли ақл-заковати, қобилияти, қудрати ошиб боришига ишонади. Бу билан у меҳнатсеварлик, ўз касбини ардоқлашдек фазилатларни ниҳоятда кадрлайди.

Мутафаккирнинг куйидаги ҳикматлари таҳсинга лойиқ: “Ҳар бир инсоннинг кадр-қиймати ўз ишини қойил қилиб бажаришида”, “Бугуннинг чорасини кўриб, эртага эҳтиёжи қолмаган киши ақлли”, “Асаларилар ҳам ўз жинсидан бўлатуриб, ишламай уясида асални бекорга еб ётадиганларини ўлдириб ташлайди” [2.3; 7-10].

Донишманд Юсуф Хос Ҳожибнинг таъбирича: “Ҳар бир киши ижтимоий ҳаётнинг фаол иштирокчиси сифатида хунар ўрганмоғи, ўз хунари билан халқига, Ватанига хизмат қилмоғи зарур”, - дейди. Дарҳақиқат, хунар ўрганишга ва меҳнат қилишга бўлган интилиш ҳар бир инсон учун ҳаётини эҳтиёж бўлмоғи керак. Юсуф Хос Ҳожиб, ўз болаларини фойдали меҳнатга ўргатмасдан, ортиқча эркалатиб, бу билан уларнинг келгусида наложик хатти-ҳаракатлар қилишига тўғридан-тўғри айбдор бўладиган ота-оналарни қаттиқ қоралайди: “Кимнингки ўғли ёки қизи, талтайтириб юборилган бўлса, бунинг учун у охири қаттиқ йиғлайди”, - деб таъкидлаб, ҳар бир ота-она ўз фарзандига ёшлигидан хунар ўргатиш кераклигини қайта-қайта уқтиради [2.57; 223].

Маҳмуд Қошғарий, ўзининг “Девону луғотит турк”, (“туркий сўзлар тўплами”) номли асарида “Илмли. Ақлли одамларга яхшилик қилиб, сўзларини тингла. Илмларни, хунарларни ўрганиб, амалга ошир”, - дейди. Алломанинг ушбу фикри кишиларни меҳнат қилишга, яхшиликка ундайди, ёмонликни қоралайди, илм ва хунар соҳибларини эъзозлайди, кишиларни улардан ибрат олишга чақиради. Демак, улуғ донишманд ўзининг ушбу сўзлари билан унумли меҳнат қилишни илмни ўрганиш билан баробар кўяди. Киши меҳнат қилсагина, хунар ўргансагина илмли, ақлли киши ҳисоблади [3.7; 187].

Шаркнинг буюк мутафаккири Алишер Навоийнинг “фарҳод ва Ширин” достонидаги паҳлавон Фарҳоднинг илм-хунарга қизиқиши тарғиб этилади ҳамда ёшларни бир неча хунарларни эгаллашларига ундайди. Шунингдек, Навоий Фарҳодни бир неча касб-хунар эгаси, яъни у сартарошлик, рассомлик, наққошлик каби хунарларни мукамал эгаллаб олган киши сифатида улуғлайди. Илм ва хунарни эгаллаган, жисмоний жиҳатдан чиниққан, меҳнатсевар Фарҳод камтарин, мазлумларга ғамхўр, софдил, мард ва олийжаноб бўлиб етишади. Навоий Фарҳодни сувсиз ерларга сув чиқарган қахрамон, меҳнат соҳасида мўъжизалар кўрсатган баҳодир йигит сифатида таърифлайди. У илм ва хунарни халқ манфаати учун ишлатиш лозим, деб ҳисоблайди. Фарҳод Ширинни қидириб Арманистонга борганда, арман юртида тоғда канал қазиб учун қийналиб ишлаётган кишиларни кўради ва “хунарни асрбон неткумдир охир, олиб туфроққа кетгумдир охир!” дея ўз билими, хунари ва ғайратини ишга солади, канал қазувчилар машаққатини енгиллаштиради ҳамда халқ ўртасида катта шуҳрат қозонади.

XV асрда яшаган етук аллома Ҳусайн Воиз Кошифий ўзининг “Футувватномаи Султоний” номли асарининг 14-фасли “Касб-кор ва савдо, тижорат одоби ҳақида”

деб номланади. Унда қуйидаги сўзлар ёзилган: "...Агар барча касблар учун зарурий одоблар ҳулосаси нечта, деб сўрасалар, саккизта деб айтгил: биринчидан, ўз касбини ҳаромдан, шубҳали мол-маблағдан пок сақласин; иккинчидан, ризқ-рўзи зарурати учунгина керакли касб билан шуғулансин, касбни мол-дунё тўплашга сарфламасин; учинчидан, касбни обрўй олиш, яхши ном чиқаришнинг сабаби деб билсин; тўртинчидан, моли ҳаром одамлар (амалдорлар, порахўрлар, қароқчилар, ўғрилар, қиморбозлар, қаззоб дўқондорлар) билан муомала қилмасин; бешинчидан, ўз ҳунарига безътиборлик, хато-нуқсонларга, айб ишларга йўл қўймасин, ҳар хил ифлосликлар, булғанишлардан сақлансин; олтинчидан, инсоф чизигидан ташқари чиқмасин, мол-матони танимайдиган одамлар билан муомала қилмасин; еттинчидан, агар тарози аҳлидан (нарсa тортувчи) бўлса, тошдан уриб қолмасин ва ортиқ ҳам бермасин; саккизинчидан, газлама ўлчаб сотувчилар аҳлидан бўлса, ўзига кўп олиб қолиб, бошқаларга кам бермасин, чунки баракат тўғрилиқда ва жамиятнинг инсоф юзасидан баҳам кун кечиришидадир..." [2.66; 69-70].

Хусайн Воиз Кошифийнинг ушбу сўзлари ҳунарманд кишилар ҳалол, инсофли, софдил бўлишлари билан бошқаларга ўрناк бўлиши кераклигини таъкидлайди. Одамларни ҳунармандларнинг ахлоқий фазилатларини ҳурмат қилишга ҳамда улардан ўрناк олишга ундайди. Дарҳақиқат, Кошифийнинг ёшларга касб-ҳунарларни ўргатиш орқали, уларни жамиятда ҳалол меҳнат қилишга ундаган ушбу доно фикрлари муҳим аҳамиятга эгадир. Чунки, буюк тарихига, ўтмишига эга бўлган халқимизни меҳнатсиз, касб-ҳунарларсиз тасаввур этиб бўлмайди.

XII-XIII асрларнинг буюк алломаларидан ҳисобланган Саъдий Шерозий, (1184-1292) "Тулистон" асаридаги "Тарбият таъсири зикрида" номли 7-бобда қуйидагича ҳикоят келтирилади: "Эй, жон фарзандларим, ҳунар ўрганишлар, нединким, мулк ва молга эътимод йўқдур. Сийм ва зар хатлар маҳаллидадур - ё ўғри барчасин бирдин олур ва ё ҳоким оз-оз олиб йўқ этар. Аммо ҳунар чағмаи равон ва давлати бепоёндурум, агар ҳунарманд одам давлатдан тушса, ҳеч ғам ва алами йўқдур. Нединким, ҳунар онинг зотида улуг давлатдур ва ҳар ердаким борса, соҳиби қадр бўлур ва мажлисининг юқорисида ўлтурур ва ҳунарсиз киши гадойлик қилур ва ҳар жойлаким борса, беқадр ва безътибор бўлур" [2.43; 85].

Баҳовуддин Нақшбанд таълимоти XIV-XVIII асрларда Ўрта Осиё ва Хуросонда кенг тарқалди. У ҳар бир кишини деҳқончилик, чорвачилик, қурувчилик, савдо, наққошлик каби ҳунарларни ўрганишга, эгаллашга ундади.

Баҳовуддин Нақшбанд таълимотидаги асосий ғоялари қуйидагилардан иборат:

Кишиларнинг ҳалол меҳнат қилишига, ҳунар ўрганишига, ўз меҳнати мевасидангина баҳраманд бўлишга чақириш.

"Дил ба ёру, даст ба кор", яъни "Дилингни Аллоҳга-ю, қўлингни ишга бағишла" деган калимада ўз ифодасини топган.

У киши талабаларни мадрасага қабул қилиш пайтида, улардан бирон касбинг борми, дея сўраганлар. Ҳунарсиз одам ўқишга қабул қилинмаган.

Агар киши ҳунарли бўлса, у билимини ҳақиқатга бағишлайди, ўз меҳнати билан кун кечиришга сарфлайди, агар киши ҳунари бўлмаса, у ҳалол меҳнатни унутади, нопок ишларга қўл уриши мумкин, деб огоҳлантиради.

Ҳалқимизнинг ёш авлодни ҳалол меҳнат қилишга, турли касб-ҳунарлар эгаллашга ўргатиб борилиши, жамият тараққиёти тарихида турли даврларда муқаддас анъанага айланиб борган.

Мутафаккирлар, алломалар, аҳли донишмандлар, назарийтчи ва амалиётчилар, олимлар томонидан бу соҳада турли мавзуларда тадқиқот ишлари ва кузатишлар олиб борилган, улар ўз фикр ва мулоҳазаларини асарларида баён этганлар.

Тадқиқотни олиб бориш жараёнида ёш авлодга касб-ҳунарлар ўргатиш, уларни ҳалол меҳнат фаолиятига тайёрлаш жараёни ўрганилди.

Мустақил Республикамизда яшаб ижод этаётган халқнинг минг йиллаб йиғилган тажрибалари, халқ педагогикасидаги ютуқлари, урф-одатлари, анъаналари ҳамда ҳозирги даврдаги ёшларга таълим ва тарбия беришга оид назарий ва амалий педагогик тадқиқотлар ўрганилган ва ўрганилмоқда.

Республика педагог олимларидан С.Ражабов, А.Зуннунов, О.Мусурмонова, С.Нишонова, Сафо Очил, О.Ҳасанбоева, К.Хошимов, Ж.Йўлдошев, А.Мунавваров ва бошқалар ҳозирги замон педагогикаси ва тарбияшунослик илмида халқ педагогикаси ютуқларидан унумли фойдаланишни тарғиб қилдилар ва қилмоқдалар.

С.Ражабов кўп йиллар давомида Ўзбекистон педагогикасида етакчи педагог олимлардан ҳисобланиб келди. Унинг раҳбарлигида (ўзбек тилида) дастлабки “Педагогика” дарслиги яратилди [2;40].

А.Зуннунов замонавий педагогика ва халқ педагогикасининг ютуқларини бири-бирига ҳамоҳанг равишда бир қатор педагогик асарлар яратди ҳамда яратишда иштирок этмоқда. Масалан, “Педагогика тарихи” (Академик лицей ва касб-хунар коллежлари учун дарслик, 2002) ва “Ўрта Осиёда педагогик фикр тараққиётидан лавҳалар” (1996) шулар жумласидандир [2.2.1; 2.3.2].

А.Зуннунов ва Ў.Толиповлар ҳамкорлигида яратилган қўлланма миллий кадриятлар асосида, ўқувчи шахсини шакллантириш вазифаларига бағишланган. Унда ўқувчи мазкур вазифаларни амалга оширишида фойдаланиши мумкин бўлган адабиёт ва услубий қўлланма номлари келтирилган [2.1.4].

Олима О.Мусурмонова умумий ўрта таълим мактабларида адабиёт ва турмуш одоби фазилатларини ўқитиш жараёнида умуминсоний ва миллий кадриятлар муштараклигини таъминлаш заминида юқори синф ўқувчилари маънавий маданиятини шакллантиришнинг илмий-назарий ва услубий асосларини яратди [2;29].

О.Ҳасанбоеванинг “Педагогика тарихидан хрестоматия”си (1993 й.), А.Мунавваровнинг эса, “Оила педагогикаси” (1994 й.), “Педагогика” (А.Қ.Мунавваров таҳр. 1996 й.), К.Хошимов ва Сафо Очилларнинг “Ўзбек педагогикаси антологияси” (1995 й.), Ж.Йўлдошев ва С.Усмановларнинг “Педагогик технология асослари” (2004 й.), К. Ҳашимов ва С.Нишоновларнинг “Педагогика тарихи” (2005 й.) ва шу каби бошқа асарлар тадқиқот иши учун эътиборга молик асарлардан ҳисобланади [2.37; 2.30; 2.38; 3.7; 2.1.6; 2.1.11].

Ёшларни халқнинг меҳнат анъаналари, байрамлари, урф-одатлари ҳамда унумли меҳнат фаолияти жараёнига самарали тайёрлаш ва уларни меҳнат қилишларига нисбатан ҳурмат руҳида тарбиялаш лозим.

Ўзбекистон Республикаси узоқ йиллар давомида ёшларни меҳнат ва касб-хунарга тайёрлаш, уларни меҳнат жараёни фаолиятига йўналтириш, касб-хунарлар ўргатиш, халқ хўжалигининг турли соҳаларида меҳнат қилишга йўналтиришнинг турли масалалари билан олимлар шуғулландилар. Улар ўз тадқиқот натижаларини номзодлик ва докторлик диссертациялари, монографиялари. Ўқув қўлланмалари тарзида баён этдилар.

Р.Джуроев, У.Нишоналиев, Н.Шодиев, И.Чориев, Н.Сайидахмедов, Ў.Толипов, Н.Муслимов, Б.Муранов каби педагог олимлар, ўзларининг чоп этирилган материалларида ёшларнинг меҳнат ва касб таълими тайёргарлигининг турли соҳаларини ёритдилар ва ёритмоқдалар.

Р.Джуроев, ўзининг “Ўзлуксиз таълим тизимида касб-хунарга йўналтириш ва шахснинг касбий ўзлигини англаш муаммолари” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция маърузасида “Касб-хунарга йўналтириш ишларининг асосий мақсади, энг аввало, индивидга, ўз қизиқиш қобиляти ва имкониятларини тўлиқ англаш, хоҳиш-истакларини амалга оширишнинг восита ва усулларини тўғри белгилаш ҳамда мустақил қарорга келиши учун имконият ва зарур шарт-шароитларни яратишдан иборат”, -деган долзарб вазифалар ҳақида сўз юритди

[7.4].

У.Нишоналиевнинг “Педагогика курси” дарслиги мустақиллик шарт-шароити, унинг ғояси ва мафкурасидан келиб чиққан ҳолда, Шарқ мутафаккирлари фикр-мулоҳазалари асосида яратилди. Унда инсон хислатлари, ахлоқ одоби учун зарурий таснифлар берилган. Шунингдек, олий ва ўрта махсус таълимни бошқаришда тест ва рейтинг усулидан фойдаланиш назарияси ва амалиёти, ёшларни умуминсоний кадриятларга муҳаббат руҳида тарбиялашнинг назарий-илмий асослари қиёсий равишда ўрганилган [2.1;9].

Н.Ш.Шодиев ўзининг илмий-тадқиқот ишида ёшларни келгусида ҳаётга, меҳнатга, маълум касбларга тайёрлаш масалалари, касбий таълимнинг педагогик, методик асосларини ёритиш орқали маҳаллий шароитларда ўқувчиларнинг ижтимоий фойдали, унумли меҳнатини ташкил этишда синфдан ва мактабдан ташқари ишларни ташкил этиш методикаси ҳамда бўлғуси ўқитувчиларни амалий фаолиятга тайёрлаш масалалари билан шуғулланди [2;54].

Профессор Э.Т.Чориев, ўзининг “Ўзбекистон қишлоқ хўжалик мактабларида ўқувчиларнинг меҳнат тарбияси” номли ўқув қўлланмасида, ўқувчилар меҳнатини ташкил этиш, қишлоқ мактабларида меҳнат тарбиясининг мазмуни, шакл ва услубларини ёритиб берган [2;53].

Н.С.Сайидахмедовнинг “Янги педагогик технологиялар (назария ва амалиёт)” номли китобида янги педагогик технологияларни таълим муассасаларида тизимли ёндашув услуби асосида лойиҳалаш қонуниятлари тадқиқ этилади [2;44].

Р.Х.Джураев, Ў.Қ.Толипов, Ш.С.Шариповларнинг “Узлуксиз таълим тизимида ўқувчиларни касб-хунарга йўналтиришнинг илмий-педагогик асослари” (-Т.: Фан, 2004. -120 б.) монографиясида “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури” талабларидан келиб чиққан ҳолда, узлуксиз таълим тизимида ўқувчиларни касб-хунарларга йўналтиришнинг илмий-педагогик асослари ёритиб берилган. Унда асосий эътибор касб-хунарга йўналтириш ишлари тарихий ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари, касб-хунарга йўналтиришнинг назарий ва методолог асослари, Ўзбекистон Республикаси мустақиллик йилларида касб-хунарга йўналтириш ишларини ислоҳ қилиш омиллари, шахс тарбиясида касбга йўналтириш ишларининг ўрни ва аҳамияти, дарсдан ташқари машғулотлар жараёнида ўқувчиларни касб-хунарга йўналтириш ишлари мазмунини баён қилишга қаратилган [2;2.3].

Б.И.Мурановнинг “Ишлаб чиқариш амалиёти шароитида қишлоқ ўқувчиларининг унумли меҳнатини ташкил этиш” номли услубий тавсияномасида қишлоқ ўқувчилари билан меҳнат амалиётини ташкил этиш масалалари ёритилган [2;31].

Мактаб ўқувчиларининг технологик тайёргарлиги, уларнинг ижтимоий фойдали, унумли меҳнатини ташкил этишнинг замон ўзаришларига уйғунлашган ҳолдаги мазмуни, шакли, усул ва воситаларини ишлаб чиқишга мустақил давлатимиз педагог олимлари олдидаги долзарб масала бўлиб қолмоқда. Асрлар давомида меҳнатчи халқимиз, ўзининг илғор маданияти, миллий кадриятлари, анъаналари, урф-одатлари, удумлари, амалий санъати, халқ миллий хунармандчилигининг бой мероси билан фахрланиб келади.

Халқ усталари, хунармандлари томонидан ривожлантирилган, кенгайтирилган халқнинг миллий ва амалий санъати турлари, халқ миллий хунармандчилиги асослари ҳақида олимлар томонидан илмий-амалий изланишлар олиб борилган. Бироқ ушбу соҳа ҳозирги замон узлуксиз таълим тизими босқичидаги умумий ўрта таълим мактаблари ўқув дастурларида мустақил фан сифатида ёки бирор фан негизида мукамал тизимли равишда ўрганилмаган.

Тўғри, бугунги кунда амалий санъатнинг турли соҳалари, йўналишлари ва қирраларини олимлар ўз илмий тадқиқот ишларида ёритдилар. Жумладан, ўқувчиларни бадий ижодкорлик ва лойиҳалашга ўргатиш, умумий ўрта

мактаблари ёки хунар тўғарақларида амалий санъат, бадиий санъат турлари, халқ миллий хунармандчилиги соҳаларини ўргатишнинг таълимий асослари С.Булатова, Р.Ҳасанов, И.Каримов, Қ.Қосимов, О.Худоёрова, А.Турдиалиев, Р.Сарсенбаева, Д.Зоҳидова, О.Жамолитдинова ва бошқа олимлар ўз илмий-тадқиқот ишларида ёритдилар.

С.Булатов, ўз илмий тадқиқот ишида ўзбек халқ амалий безак санъати турларидан ганчкорлик, наққошлик, ёғоч ўймакорлиги, кулолчилик, каштачилик, гиламчилик ва каби хунарларнинг тарихи, ривожланиш йўллари, шу соҳалардаги усталар услублари, шунингдек, Бухоро, Самарқанд, Тошкент, Фарғона, Хива, Шахрисабз миллий хунармандчилик мактаблари ва уларнинг ўзига хос хусусиятларини кўрсатиб берди [2;9].

Р.Ҳасанов ўзининг “Мактабда тасвирий санъат машғулотларини такомиллаштириш йўллари” номли услубий қўлланмасида ўқувчилар нарсанинг ўзига қараб, хотирадан, тасаввурдан расм чизиш бўйича кўникма ва малакаларини ошириш йўллари, ўқувчиларни санъатга қизиқтириш, уларни меҳр-муҳаббат руҳида тарбиялаш ишлари ҳамда тасвирий санъатнинг мазмуни ва услубиятини такомиллаштиришга қаратган [2;64].

И.Каримовнинг тадқиқот ишида V-VII синф ўқувчиларининг меҳнат таълими сифат ва самарадорлигини оширишда техникавий ва бадиий ижодкорликнинг ўзаро алоқадорлигини ёритган ва ижобий натижаларга эришган [4;4].

Қ.Қосимов, ўзининг услубий қўлланмасида умумий ўрта таълим мактабларидаги бадиий наққошлик тўғарақининг ўзига хос хусусиятлари, вазифалари, тўғарақларда ўқувчиларни бадиий-эстетик тарбиялаш ҳамда тўғарақ машғулотларини ўтказишнинг мазмуни ва услубиёти ёритилган [2;58].

Олима О.Худоёрова, ўзининг “Ўзбек каштачилик санъати” номли услубий қўлланмаси халқимизнинг амалий безак санъати ичида кенг тарқалган каштачилик хунарини ўқувчиларга тўғарақ машғулотлари жараёнида ўргатиш йўллари ёритилган [2;52].

А.Турдиалиев, ўзининг тадқиқот ишида тасвирий санъат дарслари ва дардан ташқари машғулотлар жараёнида ўқувчиларни бадиий касб-хунарларга йўналтириш жиҳатлари тадқиқ этилади [4;9].

Р.Сарсенбаева, ўзининг услубий қўлланмасида умумий ўрта таълим мактабларида ўқувчи қизлар халқ миллий хунармандчилигининг каштачилик ва пазандачилик соҳалари бўйича ўтказиладиган “Ўқувчилар меҳнат уюшмаси” фаолияти мазмунини такомиллаштиришнинг назарий ва амалий асослари ёритилган [2;46].

Ёш олима Д.А.Зоҳидованинг “Хунармандчиликка кириш” номли услубий қўлланмасида хунармандчилик тарихи, унинг анъана ва удумлари ҳақида сўз юритилади. Шунингдек, унда “Хунармандчиликка кириш” махсус курсни ўрганиш бўйича ўқув режа ва дастур мазмуни, машғулотлар намунаси ҳамда хунармандчиликка оид асарлардан намуналар келтирилган [2;16].

О.Р.Жамолитдинова, ўз тадқиқот ишини боғчаларда болаларни меҳнат қадриятлари воситасида меҳнатсеварликни тарбиялашга бағишлайди. Унда меҳнат таълими ва тарбияси мазмунини яратишда Ўзбекистоннинг маҳаллий этнографик шароитлари, болаларнинг талаб ва истаклари инobatга олинмаганлиги, хунармандчиликка эътиборнинг камлиги, миллий хунармандчилик бўйича илмий-услубий қўлланмаларнинг йўқлиги болаларда миллий меҳнат қадриятлари ҳақида билим, кўникма ва малакаларининг етишмаслигига олиб келганлигини таъкидлайди [4;1].

Тадқиқот ишида қадрият (миллий, маънавий, моддий, диний, умуминсоний, минтақавий каби)ларнинг моҳияти, асосий турлари, ўтмишдаги, ҳозирги аҳволи, ривожланиш босқичлари, шарқона илдизлари, ўзига хос тамойиллари кабиларни бир қатор файласуф олимлар, яъни Ж.Тўленов, И.Жаббаров, Э.Назаров кабилар томонидан тадқиқ этилган.

Ж.Тўленовнинг “Қадриятлар фалсафаси” номли китобида қадриятларнинг моҳияти, асосий турлари, табиий, моддий, маънавий, ижтимоий-сиёсий, ахлоқий қадриятларнинг ўтмишдаги аҳволи, уларнинг мустақиллик шароити билан тикланиши, истиқболи, қадриятлар ислохотларни чуқурлаштириб, жамиятни янгилашдаги, инсон маънавий баркамоллиги, унинг дунёқараши, бунёдкорлик фаоллиги, юксак инсоний фазилатларни шакллантиришдаги ўрни, миллий, минтақавий, умуминсоний қадриятларнинг муштараклиги, миллий қадриятларнинг жаҳон ҳамжамиятига киришдаги воситачилик ўрни каби долзарб масалалар ёритиб берилган [2;47].

И.Жаббаровнинг “Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти” номли китобида ўзбек халқининг келиб чиқиши, этник жараёни ва шаклланиши, жойлашиши, маданий-маиший ҳаёти ва алоқалари, моддий-маънавий маданияти, ижтимоий ва оилавий турмуши, удумлари, миллий туйғулар, урф-одат ва байрамлари, диний тасаввурлари ёритилган [2;13].

Э.Юсуповнинг умумий таҳрири остида нашр этилган “Фалсафа” номли ўқув қўлланмасида фалсафа, унинг жамият ҳаётида, инсон маънавий камолотида тутган ўрни, фалсафий қарашлар ривожланишининг босқичлари, тарихий шакллари, борлик ҳақидаги фалсафий таълимотлар ва ривожланишининг фалсафий муаммолари, табиатни фалсафий тушуниш каби мавзулар бир қатор файласуф олимлар ҳаммуаллифлигида баён этилган [2;50].

Қ.Назаровнинг “Аксиология: қадриятлар фалсафаси” номли китобида Ўзбекистон Республикаси мустақиллиги туфайли шаклланаётган аксиология, яъни қадриятшуносликнинг вужудга келиши, ривожланиш босқичлари, шарқона илдизлари, ўзига хос принциплари ва асосий мавзуларини таҳлил қилишга бағишланган. Унда, аксиологик дунёқараш, қадрият категорияси, унинг намён бўлиш шакллари, қадрлаш ва қадрсизланиш муаммолари, тарих ва тараққиётни аксиологик тушуниш, қадрият тизимларининг ижтимоий тараққиётга боғлиқлик қонуни ва мустақил Ўзбекистон Республикасида қадриятлар соҳасидаги ўзгаришлар билан боғлиқ масалалар баён қилинган [2;33].

Кузатишлар натижасида маълум бўлдики, бугунги кунда умумий ўрта таълим мактабларида ўқитилаётган халқ миллий хунармандчилиги соҳалари (наққошлик, ганчкорлик, ёғоч, суяк ва металл ўймакорлиги, эгар-жабдуқлар тайёрлаш - анжомсозлик, пичоқчилик, маҳсидўзлик, косибчилик, кўнчилик, темирчилик, кандакорлик, рехтагарлик (кўнғироқсозлик), чармдўзлик, этикдўзлик, дўппи ва чопонлар тикиш, миллий иморатсозлик - бинокорлик,ю меъморчилик, сандик, бешиқлар ясаш ва бошқалар) тизимлаштирилган ҳолда ўрганилаётган эмас. Халқ миллий хунармандчилигининг турли соҳаларини амалиётга қўллаш, ёш авлодга технология таълими жараёнида, аниқроғи. Халқ таълими тизимида ўргатиш масалалари режа асосида, тартибли қўлланилмасдан келинмоқда.

Зеро, давлатимизнинг мустақил республика сифатида ривожланиши, турли ижтимоий, иқтисодий ўзгаришлар, ҳар бир халқнинг миллий қадриятлари, умуминсоний, умумбашарий ютуқларини улуглаш, уларни ёш авлодга ўргатиш, сингдириб бориш даври аллақачон келганлигини кўрсатади.

Тадқиқотишини олиб бориш давомида таҳлил ва кузатишлар шуни кўрсатадики, умумий ўрта таълим мактабларининг ДТС, ўқув режаси, ўқув дастурлари, ўқув-услубий қўлланмалари ва дарсликлар мазмунида халқ миллий хунармандчилиги соҳалари (ўғил болалар учун қулай бўлган)дан ўқув материаллари киритилмаган ёки киритилган бўлса-да, жуда кам киритилган.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан “Умумий ўрта таълим мактаблари учун меҳнат таълимидан 1999 йил 16 августда тасдиқланган, ҳозирда амалиётга қўлланилаётган ўқув дастурлари ва ДТСда меҳнат таълими ва касбга йўналтириш дарслари қуйидаги йўналишларда ташкил этилмоқда:

1. Ёғочга ишлов бериш технологияси;

2. Металлга ишлов бериш технологияси;
3. Газламага ишлов бериш технологияси;
4. Пазандачилик асослари;
5. Қишлоқ хўжалиги асослари.

Ушбу ҳар бир меҳнат йўналишлари халқ миллий хунармандчилиги технологияси, машғулотлар ишлаб чиқариш технологияси, амалий машғулотлар ҳамда 8-9-синфларда эса, ишлаб чиқариш асослари ва касбга йўналтириш асослари билан яқунланади [1.9; 288-381].

Фикримизнинг далили сифатида, “Умумий ўрта таълимнинг Давлат таълим стандарти”да технология таълими ва касбга йўналтириш фанининг тузилиши бўйича муаллифлар томонидан куйидаги фикрлар келтирилиб ўтилади: “Технология таълими бошланғич I-IV синфларда бадий меҳнат ва технология таълимини интеграциялашган курслар сифатида ўрганилиши мумкин”, деб тавсия беради. Шунингдек, улар V-VII синфларда, ўқувчиларга уй маданияти, уй иқтисоди курслари, уларнинг ижтимоий эстетик диди ва дунёқарашини кенгайтирадиган келгуси оилавий ҳаёт ва турмушда керак бўладиган сабоқларни тавсия этади. V-IX синфларда эса, ўқитилаётган технология таълими соҳаси мазмунининг асосий йўналишлари: ишлаб чиқариш асослари, машина элементлари. Касбга йўналтириш асослари, амалий машғулотлар, жами, ҳар бир синф учун маълум бир ўқув соатига мўлжалланган дастур мазмуни қисман ишлаб чиқилган ва амалиётчиларга тавсия этилган [1.9; 291].

Аммо халқ миллий хунармандчилиги бўйича унумли меҳнатини ташкил этиш йўллари, мазмуни, воситалари, услублари жорий технология таълими дастурлари, ўқув қўлланмалари ҳамда дарсликлари мазмунида мукамал дидактик тизим сифатида акс эттирилмаган.

Кузатиш ва таҳлиллардан маълум бўлдики, умумий ўрта таълим мактабларида ўқитиладиган ўқув машғулотлари, ўқув-тарбиявий тадбирлар ва ўқувчилар меҳнатини ташкил этиш шаклларига миллийлик руҳи ва мазмуни тўлиқ (сингдирилмаган) киритилмаган. Шунингдек, халқ миллий хунармандчилиги соҳаларини маҳаллий шароитларда ташкил этиш, ўқитиш услубияти ҳам тўлиқ ишлаб чиқилмаган.

Мамлакатимизда педагогика янги ижтимоий, иқтисодий тузумда болалар меҳнатини меъёрлаш, ташкил этиш шакллари, мазмуни, халқ хунармандчилиги бўйича етакчи усталар тажрибаларини ёш авлодга ўргатиш услубиятини ишлаб чиқиш лозим. Болалар меҳнатига ҳақ тўлаш, бозор иқтисодиётида меҳнатнинг ўрни, аҳамияти каби муаммолар тўғрисида аниқ назарий ғоялар, амалий-услубий қўлланмалар, тавсияномалар яратилиши лозим бўлиб қолмоқда.

Шунингдек, тадқиқот иши жараёнида маълум бўлдики, таълим муассасалари ўқувчиларини технология ва касбга тайёрлашни такомиллаштиришда миллий кадриятлар (халқ хунармандчилиги мисолида)дан фойдаланишнинг педагогик шарт-шароитини тадқиқ этиш жараёни, тадқиқотчилар диққат марказидан четда қолган кўринади. Шу боис тадқиқот жараёнида ушбу муаммонинг ечимини топиш мақсад қилиб қўйилди. Бунда миллий кадриятлар, яъни халқ миллий хунармандчилиги, унинг соҳалари (пичоқчилик, кўнчилик, маҳсидўзлик, косибчилик)ни умумий ўрта таълим жараёнида маълум бир фан негизда. Яъни, технология таълими ва касбга йўналтиришга асосланган ҳолда ўрганилиши табиий зарурият сифатида қаралди.

Илмий таҳлиллардан маълум бўлдики, ўқувчиларни технология ва касбга тайёрлашни такомиллаштиришда миллий кадриятлардан фойдаланишнинг педагогик шарт-шароитлари ҳамда халқ миллий хунармандчилиги (технология таълими)нинг миллийлаштирилиб ўқитилиши бўйича ҳам махсус илмий-тадқиқот ишлари олиб борилмаганлигидан далолат беради.

Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларини технология ва касбга

тайёрлашни такомиллаштиришда миллий кадриятлардан фойдаланишнинг педагогик шароитини тадқиқ қилишда қуйидаги жиҳатларга эътибор бериш лозим:

Технология таълими ва касбга йўналтириш ҳамда миллий кадриятлар (халқ миллий хунармандчилиги соҳалари)нинг мутафаккир, донишмандлар, ҳозирги олимлар асарларининг тарихий манбаларида ёритилган мазмунини ўрганиш, таҳлил қилиш орқали мазкур соҳанинг ҳозирги даврдаги услубий пойдеворини яратиш лозим.

Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларини технология таълими ва касбга йўналтириш, тайёрлашда халқ миллий хунармандчилиги соҳаларининг миллий, маҳаллий, худудий имкониятларини ҳисобга олган ҳолда, ўғил болалар фаол иштирок этадиган, яъни кўнчилик, маҳсидўзлик, косибчилик, пичоқчилик соҳаларини танлаб олиб, уларни ўқитиш услублари ва услубияти мазмунан ҳамда сифатан ривожлантирилиши лозим.

Ҳозирги замон умумий ўрта таълим мактабларида амалда қўлланилаётган ўқув дастурлари мазмунини танлашда ўқувчиларни халқ миллий хунармандчилиги асосларини ўрганишни таркиб топтириш ҳамда уларга миллий кадриятларни ушбу соҳа мисолида ўргатиш лозим.

Ўқув жараёнида касбга йўналтириш таълимининг мақсад ва вазифаларини белгилашда, албатта, уларнинг ўзига хос педагогик усуллари ва воситаларининг қўлланилиши лозим бўлади.

Ҳозирги даврда узлуксиз таълим-тарбия тизимида, технология ва касб-хунар педагогикасида халқимизнинг миллий, махнавий, маданий меросларидан, кадриятларидан, тарихий ютуқларидан фойдаланишнинг йўллари, педагогик шарт-шароитларини белгилаш иши барча изланишлар қатори тадқиқотимизнинг асосий йўналишларидан ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

Анитипина К. И. Особенности материальной культуры и прикладного искусства южных киргизов. -Фрунзе, 1962. 13.

Абдуразақов А. А. XIX асрнинг охири - XX асрнинг бошларида ўзбек хотин-қизларнинг чеварчилик касб-хунарлари. Обществeнные науки Ўзбекистоне. 1998. № 1. 27-30-бетлар.

Абдуллаев Т. А, Хасанова С. А. Одежда ўзбеков (XIX-начало XX в. в). Т.: Фан, 1978. -С. 115.

Алламуратов А. Каракалпакская народная вышивка. Нукус.: Каракалпакстан, 1977. -С. 79.

Шомирзаев М.Х. Мактаб технология таълимида миллий хунармандчиликнинг спектрал-вариатив компонентларини фанлараро такомиллаштириш. Монография. – Т.: Tafakkur, 2020. – 340 б.

Шомирзаев М.Х. Технология обучения народному-прикладному искусству, трудовое и эстетическое воспитание учащихся V-VII классов общеобразовательных школ. Монография. – Т.: Yangi nashr, 2019. – 144 с.

Шомирзаев М.Х. Ўқувчиларда халқ хунармандчилиги касбларига қизиқишни фанлараро шакллантириш омиллари // Мактаб ва хаёт. – Т., 2019. – 6-сон. – Б. 23-24 (13.00.01. №4)

Шомирзаев М.Х. Таълим технологияларидан фойдаланиш муаммолари // Замонавий таълим. – Т., 2019. – 9 (82)-сон. – Б. 25-31 (13.00.01. №10).

Шомирзаев М.Х. Ўзбек каштадўзлигининг шаклланиш генезиси ва ривожланиш технологияси // Муғаллим ҳем узлуксиз билимлендириў. –Нукус, 2019. – 5-сон. – Б. 73-82 (13.00.01. №20).

Шомирзаев М.Х. Ўқувчиларда халқ миллий хунармандчилиги касбларига қизиқишни шакллантиришда таълим технологияларидан фойдаланиш // Қорақалпоқ давлат университетининг хабарномаси. – Нукус, 2019. – 4 (45)-сон. –



Б. 98-102 (13.00.01. №13).

Шомирзаев М.Х. Анъанавий каштадўзликда маҳаллий жиҳатлар //Илм сарчашмалари. – Урганч, 2019. – 8-сон. – Б.140-144 (13.00.01. №31).

Шомирзаев М.Х. Касбий таълим: миллий каштадўзлик // Педагогика. – Т. 2019. – 3-сон. – Б.122-129 (13.00.01. №6).

Шомирзаев М.Х. Миллий каштадўзликда фанлараро спектрал-вариатив компонентларнинг ўзига хос жиҳатлари // Педагогик маҳорат. – Бухоро, 2019. – 3-сон. – Б.17-20 (13.00.01. №23).

Шомирзаев М.Х. Ўзбек миллий хунармандчилигида мато тайёрлашнинг ўзига хос жиҳатлари // Тафаккур зиёси. – Жиззах, 2019. – 4-сон. – Б. 69-71 (13.00.01. №29).

Шомирзаев М.Х. Ўқувчиларда халқ миллий хунармандчилиги касбларига қизиқишни шакллантиришда фанлар интеграцияси имкониятлари // Фан ва жамият (Илм ҳаѐм жаъмиет). – Нукус, 2019. – 3-сон. – Б. 106-108 (13.00.01. №3).

МИЛЛИЙ ТАРБИЯДА КАШТАЧИЛИКНИНГ ЎРНИDOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.78.80.018>*Шомирзаев Махматмурод Хурамович,**Термиз давлат университети технологик таълим кафедраси доценти,
педагогика фанлари доктори (DSc).**Муҳамадиева Наргиза Қудратовна,**Термиз давлат университети**Таълим ва тарбия назарияси ва назарияси (Технологик таълим)
мутахассислиги магистранти*

Аннотация: Муаллиф мазкур мақолада каштачиликнинг миллатлараро ўзига хос хусусиятларини мисоллар асосида тушунтирган. Шунингдек, меъморчиликда ва бирор буюмни безашда аппликация усулидан кенг фойдаланишга нисбатан тавсиялар берилган.

Таянч сўзлар: урф-одат, хусусият, элемент, нақш, япроқ, сўзана, кирпеч, чойшаб, ойнахалта, чойхалта, зардевор, палак.

РОЛЬ СБОРА В НАЦИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ*Шомирзаев Махматмурод Хурамович,**Доцент кафедры технологического образования Термезского
государственного университета, доктор педагогических наук
Электронная почта: shomirzaevm@tersu.uz**Муҳамадиева Наргиза Қудратовна,**Термезский Государственный Университет Степень магистра теории и
теории образования (технологическое образование)*

Аннотация: Автор поясняет в данной статье примеры межэтнических особенностей вышивки. В нем также содержатся советы о том, как применять самые разнообразные приложения в архитектуре и при украшении предметов.

Ключевые слова: обычай, особенность, элемент, узор, лист, сюзане, плетель, лист, зеркало, чайник, базилик, палак.

THE ROLE OF HARVESTING IN NATIONAL EDUCATION*Shomirzaev Maxmatmurod Xuramovich,**Associate Professor of Technological Education, Termez State University, Doctor
of Pedagogical Sciences (DSc)**Muxamadiyeva Nargiza Kudratovna,**Termezskiy Gosudarstvennyy Universitet Stepen magistra teorii i teorii
obrazovaniya (tehnologicheskoe obrazovanie)*

Abstract: The author explains in this article examples of interethnic features of embroidery. It also contains tips on how to apply a wide variety of applications in architecture and in decorating objects.

Key words: custom, feature, element, pattern, leaf, suzane, whip, leaf, mirror, teapot, basil, palak.

Хар бир халқнинг ўзига хос урф-одатлари ва хусусиятлари бўлади. Чунончи, украин халқ нақшларида кўпроқ кунгабоқар, хўрса, куш, буғдой ва бошқа нарсаларнинг кўринишлари акс этса, қирғиз ва қозоқ нақшларида эса шохли ҳайвонлар ва уларнинг шохлари, ўтовлар тасвир чизилади. Тожик халқ нақшларида

лола, бодом, ҳар хил гуллар; туркман халқ нақшларида эса эчки калласи, узум танаси, қушлар кўп тасвирланса, ўзбек халқ нақшларида эса типик элементлар сифатида япроқ, гул, ғунча, куртак, лола, қалампир, анор, анор барги, нок, кўп баргли гул ва бошқалар ифодаланади.

Аппликация – лотинча ёпиштириш деган маънони билдириб, газлама қоғоз ва бошқа тикиш йўли билан безаш демак. Аппликация каштадўзликни махсус тури бўлиб, у ўзига хос технологияга эга. Асосий матога рангдор мато парчасини, чарм ва бошқаларни қадаб, атрофи чокланади. Аппликацияда кўпинча чизма чоклардан фойдаланилади. Каштанинг бу тури Ўзбекистонда яхши ривожланган. Ҳозирги вақтда кўпинча болалар пальтоларига, кўйлақларига, бош кийимларига ҳар хил қуш, мева, гул ва ҳайвонлар тасвири аппликация усулида чокланади. Айрим ҳолларда аёлларнинг кийимлари шу усулда безатиляпти. Архитектурада ва бирор буюмни безашда аппликация усулидан кенг фойдаланиб келинмоқда.

Ўрта Осиёда каштачилик санъати кенг тарқалган бўлиб, оилада ҳар бир аёл кашта тикишни билиши шарт бўлган. Шунинг учун ҳар бир оила ўзи учун кирпеч, сўзана, дорпеч, ойнахалта, чойхалта ва бошқаларни ўзлари тайёрлаган. Безак буюмларининг тури жуда кўп, масалан, сўзана, кирпеч, чойшаб, ойнахалта, чойхалта, зардевор, палак, гуокўрпа, дорпеч, бутжомма, парда, белбоғ, такяпуш (ёстиқ устига ёпиладиган), дўппи, кўйлак, дастрўмол, ҳамён, жойнамоз, сўмка, нимча, маҳси-кавуш, халтача ва бошқалар бадиий дид билан матоларга тикилган. Кейинчалик сатин, шойи бахмалга тикиладиган бўлди.

Жойнамоз – ерга солиб, устида намоз ўқийдиган тушама. Ислом динига эътиқод қилувчилар ишлатишади. У ибодат вақтида кишини бу дунёдан ажратувчи омил деб тасаввур қилинади. Жойнамоз ҳар хил матодан тайёрланиб, унинг уч томони меҳроб шаклида тикилган бўлиб, ундан масжид, мадраса ва уйларда фойдаланилади. У турли ўлчамда бўлади. Ибодатни қанда қилмаслик учун бошқа нарсалардан фойдаланиш мумкин. Масалан, чопон, кийикча, шолча кабилардан, чунки улар диний нуқтаи назардан пок ҳисобланади. Жойнамоз каштачиликда чиройли қилиб безатилган бўлади.

Зардевор – уй жиҳози. У сидирға шойи, бахмал, сатинга кашта тикиб безатилган бадиий буюм. Зардевор ўзбек ҳамда тожикларда янги тушган келиннинг уйига, шафтига ёки деворига илиб қўйилади. У зар ип ёки ипак ҳажмли бўлиб, эни 40-70 см, узунлиги мўлжалланган уйнинг деворига мослаб тикилади.

Палак – деворларга илинадиган энг йирик, энг қиммат безак буюмларидан бири. Палакда осмон ва тўлин ой акс эттирилади. У қадимда оқ ва малла бўзга кашта тикиб тайёрланган. У сўзанадан гулларининг йириклиги, заминга ҳам кашта қопланиши билан фарқ қилади. Палакнинг ўртасида йирик ой тасвири қизил қирмизи, пушти ипак билан кашталанади ва атрофи жуда чиройли қилиб қалампир элементлари қўлланилади. Палакда қиркчача ойни тасвирлаш мумкин. Шунинг учун ойнанинг сонига қараб олти ойли палак, ўн икки ойли палак, ҳаттоки катта уйлар учун қирқ ойли палак тикилгани бизга маълум. Ойлар турли ранглар билан бир неча хил тасвирланган. Машҳур каштадўзлар баъзида ойни ажойиб нақшлар билан безаб, ўз маҳоратларини намоен этганлар. Агар ойнанинг ичи сидирға рангда ифодаланган бўлса, уни ойнапалак, агар нақшли бўлса, гулпанак ва ҳоказо номлари билан юритилади. Кейинги вақтларда палакни қўлда тикишга катта аҳамият берилмоқда.

Кирпеч – кирпуш, тоқчага тахлаб қўйилган кийим-кечак устидан ёки деворни вертикал бўш жойларига илиб, уйни безатиб туриши учун ишлатиладиган бадиий буюм. Кирпеч кашталари қўлда ёки машинада тикилади. Кирпеч қўлда илма кашта билан безалади. У кийим-кечакни чангдан сақлайди ва уйни безаб туради. Одатда, палакка ўхшатиб тикилган кирпечпалак деб юритилади. Бу тури ҳам кенг ишлатилади.

Сўзана – форсча сўзана деб ҳам юритилади. Игна билан тикилган деган маънони

беради. Сўзана матога кашта тикиб тайёрланган бадиий буюм бўлиб, хонани безатиш учун деворга илиб қўйилади. У сатин, бахмал, шойи ва бошқа матоларга кашта тикиб тайёрланади. У ўзига хос бадиий кўринишга эга. Матонинг рангидан устарамиз кашта замин сифатида фойдаланадилар. Шунинг учун палакдан фарк қилади. Сўзана ҳар бир хонадонда бўлган, чунки ҳар бир қиз турмушга чиқишдан олдин ўзи учун сўзана тайёрлаган. Сўзана келинларнинг сепи ҳисобланган.


Камбағал оилада сўзанани малла, оқ бўздан, бадавлатларида эса шойидан, бахмалдан тикишган [2,33]. Сўзана учун композицион жойлашган ўсимликсимон нақшлардан фойдаланилади. Сўзана ўртасида кўпинча доирасимон гул тикилиб, атрофи гулдор исломий нақшлар билан безатилади. Сўзана тикиш жуда қадимдан ривожланган бўлиб, XIX асргача бўлган сўзаналар сақланмаган. Фақат XIX асрга оид Самарқанд, Бойсун, Бухоро, Нурота, Фарғона, Ўратепа, Шаҳрисабз, Тошкент ва бошқа жойлардаги сўзана турларидан намуналар бор. Санъатнинг бу тури, айниқса, Ўзбекистон ва Тожикистон ҳудудларида қадимдан кенг тарқалган. XX асрнинг 40-йилларидан бошлаб, сўзана машинада тикилиб келинмоқда.

Чойшаб – форсча-тожикча руйжо – тун чодир деган маънони билдиради. Чойшаб асосан, тахмонга тутиш, ётганда ёпиниш учун тўшак устига тўшалади. Тўшак устидан ёзиладиган чойшаб кам каштали оқ суруп, тахмонга тутиладиган сатин, шойи, бахмал ва бошқалардан тикилади. Ҳозирги вақтда чойшабдан сўзана каби бадиий буюм сифатида ҳам фойдаланиб келинмоқда.

Ўқувчиларнинг амалий санъатга бўлган қизиқишлари атрофлича ўрганилди ҳамда уларнинг бу қизиқишларини орттиришга қаратилган тадбирлар тизими ишлаб чиқилди (1-расм).

Ўқувчилар ўзбек халқ амалий санъатининг асосини каштачилик ташкил этиши, қадимги Шарқ меъморчилик санъатининг бетакрор композициялари, ганч, ёғоч ўймакорлиги ва амалий санъатнинг бошқа турларида кашта композициялари ўзининг чиройи, гўзаллиги ва нафислиги билан бутун дунёга машҳурлиги ҳақидаги маълумотларга эга бўладилар.

Каштачиликнинг асосий тамойиллари – уйғунлик, мутаносиблик, колорит ва усулларнинг вужудга келиши тарихи ва уларнинг аҳамияти билан танишадилар. Каштачилик анъаналари (санъатнинг ана шу турини ўргатиш методлари сифатида ҳам), унда рангнинг табиий жилоси, бежирим шакли, олий намуналари бой ижодий фантазияси ҳақидаги билим, кўникма ва малакаларга эга бўладилар.



1-расм. Ўқувчиларни амалий ва бадиий безак санъатига кизиқтиришларини орттиришга қаратилган тадбирлар тизими

Ўқувчиларнинг амалий ва бадиий безак санъатига бўлган қизиқишларини ривожлантиришда қуйидаги тавсияларни ошириш мақсадга мувофиқ:

умумтаълим мактабларининг ДТСлари, намунавий ўқув режалари ва дастурларида таълим олувчиларга амалий ва бадиий безак санъатини ўргатишнинг турли усуллари, ўқитишнинг самарали йўллари ривожлантириш тўғрисида маълумот бериш;

амалий ва бадиий безак санъатидан дарс берувчи мутахассис ўқитувчиларнинг касбий билимлари бўйича ахборот технологиялари асосида малака оширишини ташкил этиш;

республикада тасвирий ва амалий санъат турлари бўйича турли танловларнинг юқори савияда ўтказилишини ва уларда талабаларнинг иштирокини таъминлаш лозим.

Умумтаълим мактабларида миллий қадриятларимиз ўқувчининг фаолиятини тўғри ташкил этишда, оиладаги ижодий муҳит, ёшларни ота-боболаримиздан мерос бўлиб келган ўзбек халқ амалий санъатининг ҳақиқий давомчилари қилиб тарбиялашда, ҳаётга тўғри йўналтиришда муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Зеро, бугун ҳеч кимга сир эмаски, биз яшаётган XXI аср – интеллектуал бойлик ҳукмронлик қиладиган аср. Кимки бу ҳақиқатни ўз вақтида англаб олмаса, интеллектуал бойликка интилиш ҳар қайси миллат ва давлат учун кундалик ҳаёт мазмунига айланмаса, бундай давлат жаҳон тараққиёти йўлида четда қолиб кетиши муқаррар.

Адабиётлар:

1. Сотиболдиев З.Ш. “Дизайн асослари”. -Т.: “Иқтисод-молия”. 2008. Б.69

2. Ҳабибулло Солих. Рамзий безаклар маъноси. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2003. №3. Б.33

3. Ходжабоев А.Р. Научно-педагогические основы учебно-методического комплекса подготовки учителя труда. Автореф. дисс...д-ра пед. наук. –Т.: 1992. С.79

4. Шомирзаев М.Х. Мактаб технология таълимида миллий хунармандчиликнинг спектрал-вариатив компонентларини фанлараро такомиллаш-тириш назарияси ва амалиёти. Монография. – Т.: Tafakkur, 2020. – 164 б.

5. Шомирзаев М.Х. Ўзбек миллий хунармандчилигида мато тайёрлаш-нинг ўзига хос жиҳатлари // Тафаккур зиёси. – Жиззах, 2019. – 4-сон. – Б. 70.

6. Shomirzayev, M.Kh. (2019). Local features of the traditional embroidery of the Ferghana valley. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. -7 (12). -P. 972.

7. Шомирзаев М.Х. Зардўзлик хунарини ўқувчиларга ўргатишда миллий анъаналарнинг аҳамияти //“Бойсун-баҳори” очик фольклор фести-валини “Жаҳон цивилизациясида Бойсуннинг моддий ва маънавий маданияти” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференцияси материал-лари тўплами. – Т.: Yangi nashr, 2019. – Б. 383.

**ТЕХНОЛОГИЯ ТАЪЛИМДА ЎҚУВЧИЛАРНИ ХАЛҚ
ХУНАРМАНДЧИЛИГИ КАСБЛАРИГА ЙЎНАЛТИРИШ**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.81.45.017>*Шомирзаев Махматмурод Хурамович,**Термиз давлат университети технологик таълим кафедраси доценти,
педагогика фанлари доктори (DSc)*

Аннотация: Мақолада мактаб технология таълимида миллий хунармандчиликнинг спектрал-вариатив компонентларини фанлараро такомиллаштириш мазмуни ёритилган.

Таянч сўзлар: кулол, сопол, хунарманд, хумдон, чанг, хунармандчилик, кулолчилик чархи, ганч ўймакорлиги, нақш, мисгарлик.

**НАПРАВЛЕНИЕ СТУДЕНТОВ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО
ОБРАЗОВАНИЯ НА КАРЬЕРУ НАРОДНЫХ РЕМЕСЕЛ***Шомирзаев Махматмурод Хурамович,**Доцент кафедры технологического образования Термезского
государственного университета, доктор педагогических наук*

Аннотация: В статье раскрыто содержание междисциплинарного совершенствования спектрально-переменных компонентов народных промыслов в школьном технологическом образовании.

Ключевые слова: Керамика, керамика, ремесленник, керамика, порошок, ремесло, гончарный круг, резьба по ганчу, узор, медник.

**DIRECTION OF STUDENTS IN TECHNOLOGICAL EDUCATION TO
CAREER OF FOLK CRAFTS***Shomirzaev Maxmatmurod Xuramovich,**Associate Professor of Technological Education, Termez State University, Doctor
of Pedagogical Sciences (DSc)*

Abstract: The article describes the content of interdisciplinary improvement of spectral-variable components of national crafts in school technology education.

Keywords: pottery, pottery, artisan, pottery, powder, handicraft, pottery wheel, ganch carving, pattern, coppersmith.

Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури”нинг 3-бобида келтирилган “Кадрлар тайёрлашнинг Миллий модели”да бозор иқтисодиёти шароитида бўлғуси авлоднинг таълим ва тарбиясини такомиллаштиришнинг янги мазмун ва шаклдаги лойиҳаси тақдир этилди. “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури”нинг 3.3.3-банди “Ўзлуксиз таълим ва турлари” деб номланади. Ушбу банднинг “Умумий ўрта таълим” деб номланган қисмида умумий ўрта таълим ўқувчилари билиши, ўзлаштириши лозим бўлган жиҳатлар келтирилди. Жумладан: “...ўқувчиларнинг фанлар бўйича мунтазам билим олишларини, уларда билим ўзлаштириш эҳтиёжини, асосий ўқув-илмий ва умуммаданий билимларни, миллий ва умумбашарий қадриятларга асосланган маънавий-ахлоқий фазилаатларни, технологик кўникмаларини, ижодий фикрлаш ва атроф-муҳитга оғли муносабатда бўлишни ва касб танлашни шакллантиради...”, - дейди [1.2; 46-47].

Ёшларни умумий ўрта таълим мактабларининг бошланғич синфлариданок оддий умумтехнологик кўникмалари, иш-ҳаракат усуллари ва меҳнат қилиш кўникмаларини шакллантириб бориш ва ривожлантириш муҳим вазифалардан ҳисобланади. Умумий ўрта таълим мактабларида ўқувчилар технология таълими

ва касбга йўналтириш фани асослари бўйича мукамал билим оладилар. Уқув масканларида ўқувчиларнинг ўқув-умуммеҳнат, умуммиллий, умуммаданий билимлари, бошланғич касбий маълумотлари, дастлабки ижтимоий ва технологик муносабатлари шакллантирилиб борилади.

Ёшларни технологик жараёнга тайёрлашда, уларнинг технологик жиҳозлар, кишилари билан онгли ва ишончли муносабатда бўлиш талаб этилади. Ўқувчилар меҳнат маҳсулотларини истеъмолга чиқариши ва ушбу жараёнда тежамкорлик, уддабуронлик, ишбилармонлик каби фазилатларни шакллантириш, уларни технологик жараёнга тайёрлашнинг асосини ташкил этади ва қуйидагиларни амалга оширишни мақсад қилиб қўяди:

ўқувчиларни технологик жараёнга ҳамда меҳнатни юзага келтирувчи кишиларга бўлган ҳурматини шакллантириш;

ўқувчиларни замонавий ишлаб чиқариш, халқ хўжалиги, хизмат кўрсатиш, қурилиш, алоқа, машинасозлик ва халқ миллий хунармандчилиги асослари билан таништириш;

ўқувчиларнинг умумтехнологик билим, кўникма ва малакаларини шакллантириш ҳамда уларни оддий технологик жараёнда иштирок этишга тайёрлаш;

уларни умумтаълим мактаблари жараёнида ва уни битиргандан сўнг турли хил йўналишлардаги касб-хунарларга тайёрлаш кабилар.

6-16 ёшли болаларнинг технологик жараёнга тайёргарлиги умумтаълим мактаблари, мактабдан ташқари таълим муассасалари, оила, маҳалла, ишлаб чиқариш ва мустақил фаолиятда амалга оширилади ҳамда қатор вазифаларни бажаришни назарда тутлади.

Технологик жараён тайёргарлигининг вазифаларини амалга оширишда таълим ва тарбиянинг ривожлантирувчилик, таълимийлик, тарбиявийлик, амалийлик, ишлаб чиқарувчилик, яратувчилик, касбий йўналтирилганлик каби жиҳатлар назарда тутилади[10].

Ҳозирги даврда ўқувчиларни технологик жараёнга тайёрлашнинг вазифалари қуйидагилардан иборат:

ўқувчиларда ўқиш ва технологияга бўлган онгли муносабатни шакллантириш, унинг ақлий ва жисмоний ривожланишини таъминлаш;

ўқувчиларда меҳнатсеварлик, ахлоқий, фуқаролик, тежамкорлик, ижодкорлик каби инсонийлик фазилатларини тарбиялаш ҳамда улар фаолиятида технологияни доимий эҳтиёжга айлантириб бориш;

ўқувчиларда бозор иқтисодиёти шароитида рақобатбардошлик хусусиятларини шакллантириш, табиат захиралари, моддий буюмлар, нарсалар ва материалларга бўлган тежамкорлик муносабатларини шакллантириш;

ўқувчиларда умумтехнологик кўникма ва малакаларни шакллантириш, техникавий, технологик, тузиш-қуриш (монтаж-демонтаж), чизиш, ишлаб чиқариш ва миллий хунармандчилик соҳалари бўйича дунёқарашларини шакллантириш.

Фикримизча ёшларнинг технологик тайёргарлиги ҳозирги даврда меҳнат тарбияси, таълими ва касбга йўналтириш ишлари, ишлаб чиқаришда иштирок этиш ҳамда турли касбларни эгаллаш жараёнларини қамраб олади. Умумтаълим мактабларида ўқувчиларнинг технологик тайёргарлигини амалга оширишнинг асосий шакли – технология таълими ва тарбияси ҳамда касбга йўналтириш ишлари ҳисобланади[9].

Умумий ўрта таълим мактабларида технология таълимини амалга оширишнинг мақсадлари қуйидагилардан иборат: бошланғич 1-4-синфларда ўқитиладиган технология таълими ва касбга йўналтириш фани ўқувчиларга дастлабки касбий таълим бериш, тарбиялаш, уларни руҳан ва жисмонан ривожлантиришнинг негизи ҳисобланади ҳамда қуйидаги мақсадларни амалга оширишни назарда тутлади:

ўқувчилар оддий технологик турлар, технологик жараёнлари, оддий

технологик қуроллар билан танишиш ҳамда оддий иш-ҳаракат усуларини тўғри бажаришни ўрганадилар;

Ўқувчилар технология машғулотларини тўғри режалаштириш, иш ўрнини тартибли сақлаш, хавфсизлик қоидаларига риоя қилиш каби бошланғич технологик кўникма ва малакаларини шакллантиришни назарда тутаяди ҳамда бадий технология билан мужассамлашган ҳолда ўқитилади.

Умумий ўрта таълим мактабларининг 5-9-синф ўқувчиларида умумтехнологик кўникма ва малакалари ривожлантирилади, уларнинг қизиқиши ва қобилиятларига кўра, касбий мойилликлари, касб-ҳунар турларини танлашга йўналтирилган хислатлари, умумтехнологик маданияти шакллантирилиб борилади. Шунингдек, ўқувчиларга иқтисодийнинг турли соҳалари, яъни уларга ишлатиладиган техника ва технология, ўзбек миллий ҳунармандчилиги асослари тўғрисида назарий билимлар берилади, амалий кўникма ва малакалар шакллантирилади. Технологик фаолиятнинг турли соҳалари амалий технологик жараён билан яқинроқ танишишларига имкон яратилади, улар харидоргир маҳсулотлар ишлаб чиқаришга (йўналтирилади) ўрганилади.

Умумий ўрта таълим мактабларининг юқори синфларида ўқитиладиган технология таълими ва касбга йўналтириш фани жараёнида бўлғуси ишчи ва мутахассисларнинг касбий фаолиятида қўлланиладиган турли хил асбоб-ускуна, жиҳоз ва мосламалар билан ишлаш кўникма ва малакалари шакллантирилади. Бу жараёнда, уларга механизациялаштирилган, электрлаштирилган, автоматлаштирилган воситалар билан ишлаш, технологик билим, кўникма ва малакалар ҳамда меҳнат қонунчилигига риоя қилиш, санитария-гигиена қоидалари ва йўл-йўриқлари асосларини ўргатиш таъминланади.

Технология таълими ва касбга йўналтириш вазифалари куйидагилар:

Ўқувчиларни турли ишлаб чиқариш соҳалари мазмунига тааллуқли вазифаларни (ечиниш) бажариш, тажрибалар ўтказиш, ўлчаш-текшириш асбоблари ва маълумотларидан тўғри фойдалана олиш ҳамда уларни технология машғулотларини бажаришга ўргатиш;

Ўқувчиларнинг билим ва меҳнатга бўлган муҳаббатини шакллантириш, меҳнат аҳлларига нисбатан ҳурмат ҳиссини сингдириш, уларни жамоатчилик ва ватанга садоқат руҳида тарбиялаш;

Ўқувчиларни бозор иқтисодиёти қонуниятлари талаблари асосида сифатли, харидоргир истеъмол моллари, рақобатбардош меҳнат маҳсулотлари ишлаб чиқаришга одатлантириш, тайёрланган маҳсулотларни истеъмолчиларга етказиш воситаларини ўргатиш, иш бошқарувчилик, ҳомийлик, ишбилармонлик, тадбиркорлик фазилатларини сингдириб бориш ва ривожлантириш;

технология таълими ва касбга йўналтириш жараёнига ўзбек миллий ҳунармандчилиги соҳаларининг киритилиши орқали халқнинг миллий руҳи, яшаш турмуш тарзлари, анъаналарини, удумларини, урф-одатларини тиклаш ва ривожлантириш, миллий қадриятлар, тарихий ёдгорликлар, обидалар, халқ усталарининг бой меросларини ўрганиш, ўргатиш ва уларни амалий фаолиятларда қўллаш вазифаларини ҳал этиш;

технология таълими ва касбга йўналтириш жараёнида ахборот технологиялари ва ҳисоблаш техникаси, замонавий технология ва жиҳозларнинг қўлланилиши давр талаблари даражасида ва жаҳон тажрибаларига мос ҳолда ўргатилишини таъминлаш;

технология таълими ва касбга йўналтириш сифатли ва самарали даражада амалга оширишда мактаблар, мактабдан ташқари қўшимча тарбиявий муассасалар, оила, ишлаб чиқариш корхоналари, ишбилармон ва тадбиркорлар уюшмаларининг ўрни бекиёс. Ушбу муассасалар халқ миллий ҳунармандчилиги билан ўзаро ҳамкорликдаги муносабатларининг ўрнатилиши ва ривожланишининг аҳамияти янада оширилиши лозим.

Ўқувчиларда технологик жараёнларга онгли ва ижодий муносабатни тарбиялаш, меҳнат тарбиясининг вазифаси ҳисобланиб, у мустақил Ўзбекистон фуқароси ахлоқий қиёфасининг асосий хусусияти. Ҳар бир меҳнатчи – ишчи ва деҳқон, зиёлилар ўз ҳаётини меҳнатсиз тасаввур қила олмайди. Мадомики шундай экан, бу жараён меҳнатга онгли муносабатда бўлиш, меҳнатнинг жамият учун фойдали эканини англаш, меҳнат топшириқларини ихтиёрий қизиқиш орқали меҳнатнинг илғор услублари ва замонавий техник воситалари ёрдамида бажариш билан ифодаланади[5].

Мактаб устахоналарида ўқувчилар билан изчил ва режали равишда меҳнатга онгли муносабатни шакллантириш зарур. Технологик топшириқларни бажаришда ўқувчининг жавобгарлик, масъулиятлилиқ, меҳнатсеварлик, виждонийлик каби фазилатлари шакллантирилади. Ўқувчилар меҳнат интизомига қатъий амал қилган ҳолда, уларда меҳнат қилиш кўникма ва малакалари ривожлантирилади, давлат мулкига ғамхўрлик муносабати тарбияланади ва меҳнатга онгли, ижодий муносабатни шакллантириш билан узвий боғлиқ бўлади.

Меҳнатсеварлик, топширилган ишга жавобгарлик ҳиссини тарбиялаш, ҳамкорлик ва ўзараро бир-бирига ёрдам кўрсатиш жараёнида янги жамият кишиси шаклланади. Шу боис умумий ўрта таълим мактабларига технология таълими ва касбга йўналтириш машғулоти билан ўқувчилар бажарадиган бошқа турли вазифалар бирлашган ҳолда ташкил қилинади. Ўқувчилар меҳнат топшириқларини ўзаро биргаликда бажаришда, улар бир-бирларига ёрдам бериб, фикр алмашиб, маслаҳатлашиб бажаришларига тўғри келади. Дам олиш пайтларида ўқувчиларнинг бажарган ишларини назорат қилиш, хулосалар чиқариш, тавсиялар бериш; ижобий ҳаракатларини таъкидлаб алоҳида рағбатлантириб ўтиш ҳамда уларнинг онгли ижодий фаолияти натижаларини тасаввур қила олишга ҳам одатлантириб бориш лозим бўлади.

Ўқувчилар томонидан фойдали маҳсулот (буюм)ларнинг тайёрланиши, унинг ҳозирги замон ишлаб чиқаришга мос келадиган жараёнларга самарали йўлга қўйилиши ишда турли мослама ва механизмлардан фойдаланиш имконини беради. Бундай шарт-шароитларда тайёрланган маҳсулот сифати ва ишни бажариш муддатларини назорат қилишда ўқувчиларнинг жавобгарлигини ошириш назарда тутилади.

Ҳар бир ўқувчи ўзининг шахсий меҳнати бошқа ўқувчилар меҳнати билан чамбарчас боғлиқлигини чуқур тушуниб етиши учун маҳсулот тайёрлашда меҳнат топшириқларининг аниқ тақсимланиши назорат қилиниши лозим. Бундай шароитларда айрим ўқувчилар томонидан улар ишида эҳтиётсизлик ва интизомсизликка йўл қўйилса, у ҳолда ишда турли хил узилиш ва салбий ҳолатлар юзага келади. Бозор иқтисодиёти шароитида йўл қўйилган ушбу салбий ҳолатлар натижасида ишлаб чиқарилган тайёрланган маҳсулотлар сотилмасдан қолади. Бугун жамоа фаолияти инқирозга учраб, катта моддий зарар келиб чиқади[8].

Ўқувчилар билан ўтказиладиган суҳбат ва йўл-йўриқларда нимани ва қайси асбоб билан қандай кетма-кетликда ва изчилликда ишлаш кераклиги ҳақидагина маълумот бериш билан чегараланиб қолмаслиги керак. Бу ерда, мазкур меҳнат маҳсулоти сифатининг аҳамиятини таъкидлаш керак. Шунингдек, истеъмолга чиқариш, яъни тайёрланган маҳсулотни буюртмачига етказиш (топшириш) жараёни муҳим тарбиявий аҳамиятга эга. Ўқувчиларда меҳнатсеварлик, технология ва касб-хунар кишиларига ҳурмат ҳиссини тарбиялаш учун, уларнинг ўз-ўзларини бошқарилишлари ва ўз-ўзларига хизмат кўрсатишларида ижобий тарбиявий таъсир кучли бўлади. Бу ўринда, ўқувчилар ўқитувчига мазкур ишни ташкил этишида яқиндан ёрдам беради[6].

Чунончи, ўқувчиларга машғулоти жараёнида асбоб-ускуналар тарқатишни ишониб топшириши ҳамда иш ўринларининг тоза ва тартибли бўлишини таъминлайди. Асбоб-ускуналарни тарқатувчи масъул ўқувчи эса, тузатиш асбобларнинг мавжуд ҳолатини текширади ва навбатчи ўқувчиларга уларни йиғиб

олишларида ёрдам беради. Бу ишда қобилиятли ва фаол ўқувчиларни танлаб олиниши мақсадга мувофиқ, технология таълими ва касбга йўналтириш жараёнида ўқувчилар ўзаро дўстона муносабатда бўлиши ва бир-бирларига беғараз ёрдам кўрсатиши, ҳамкорликда итшлаши, ижрочилик, жавобгарлик, масъулиятлилиқ, ўзаро талабчанлик ва иш юзасидан танқидий муносабатларга одатланадилар. Ўқитувчи, бу муносабатларнинг камол топишини ва ривожланишини диққат билан кузатиши ва уларни одоб-ахлоқ доирасида тўғри йўналтириши лозим.

Тарбия натижалари машғулотларнинг мазмунига боғлиқ бўлмай, балки уларнинг ташкил қилиниши ва ўқувчиларнинг ишларини назорат қилинишига ҳам боғлиқ. Ўқувчилар кўникма ва малакаларининг шаклланишини босқичма-босқич олиб бориш ва мустаҳкамлаш лозим.

Шундай ҳолталар ҳам бўладики, ўқувчи биринчи муваффақиятсизлигида ўзига-ўзи “менинг бажарган ишимдан ҳеч нима чиқмаяпти” деб ҳисоблаб, ишнинг сифатли бажарилишига эътиборсиз қарайди. Баъзи ҳолларда эса, биринчи муваффақиятсизликнинг салбий таъсирларига, уларнинг ота-оналари ҳам сабабчи бўладилар.

Ота-оналар ўз фарзандларини жисмоний ва ижодий меҳнатга қобилиятсиз деб ўйлайдилар ва ўзларининг асосланмаган тахминларини айтадилар. Шу ўринда, улар ўз фарзандларининг имконияти ва қобилиятларини тўғри баҳолашларига ҳамда ўқитувчи ва бошқа мутахассисларга ҳалал берадилар. Шу сабабли, ўқитувчи бундай ҳолларда, ўзининг илмий психологик, педагогик ва касбий жиҳатдан асосланган таҳлилларига таяниши лозим.

Ўқувчиларда ўзини-ўзи танқидий баҳолаш ва камчиликларга нисбатан муросасиз бўлиш ҳисларини тарбиялайди. Унда, ўқитувчи тайёр буюмни текшириб кўради ва уни ўқувчиларнинг ўзларига мустақил равишда баҳолашни таклиф қилади. Илғор ўқитувчилар иш тажрибалари бундай услуб муҳим тарбиявий аҳамиятга эга эканлигини кўрсатади. Ўқувчилар тайёрланган буюмларнинг сифатини аниқлашга доир мунтазам машқ қилишлари, уларда ўзини-ўзи назорат қилиш кўникмалари, ўзини-ўзи меҳнатини танқидий баҳолаш ҳиссининг шаклланишига ёрдам беради.

Ўқитувчи-мураббий дам олиш ва танаффус вақтларида, машғулотлар якунида, иш натижалари таҳлилидан кейин, ўқувчиларга меҳнат илғорлари, фидойилари фойдаланаётган усул ва услублар ҳақида гапириб бериши керак бўлади. Бундай суҳбатлар учун маҳаллий корхоналардаги усталар ҳаётини намуна қилиб кўрсатиш маъқул ҳисобланади. Чунки бозор муносабатларида фақат сифати юқори, чиройли, мутсаҳкам қилиб тайёрланган буюмларгина рақобатбардош бўла олади, халос.

Ҳозирги бозор шароитида ишлаб чиқариш соҳаларининг кенгайиши, хўжалик муносабатларининг мураккаблашуви, фан-техника ривожининг жадаллашиши туфайли иш вақтининг ҳар бир дақиқаси ғанимат. Шундай экан, ички тартиб-қоидаларга, меҳнат интизомига қатъий амал қилиш зарурлигини мактаб таълим-тарбиясидан бошлаш керак бўлади. Бунинг учун, технология таълими ва тарбияси жараёнида қулай шарт-шароитлар яратилиши лозим. Бунда, ўқувчиларга тушунтириш, ишонтириш, рағбатлантириш. Намуна кўрсатиш каби услублардан фойдаланиб, ўқитиш билан бирга уларнинг ишларига юқори талабчанлик билан ёндашиш ҳам керак бўлади.

Ўқувчиларнинг ўзаро муносабатларида четлашишлар бўлганда, ижобий мисоллар билан у ёки бу ҳолларда ўзини қандай тутиши кераклигини тушунтириш (кўрсатиш) керак. Ўқувчилар ўқитувчининг тизимли ва қатъий талабларини бажаришлари натижасида, улар турли қоидалар ва иш усул ва услублари аниқ ва онгли бажаришга аста-секин кўникадилар. Улар иш маромини сақлашга, иш ўрнини намунали тутишга, асбобларни эҳтиёт қилишга одатланадилар. Ўқувчилар мустақил меҳнат ва турмушга тайёрлашнинг муҳим шартларидан бири, бу интизомни йўлга қўйиш ва уни аста-секин сақлашга эришиб бориш.

Ўқувчиларга нисбатан доимий ва қатъий талабчанлик кўрсатишда ўқувчининг мунтазам иродаси бўлмоғи лозим.

Ўқувчиларда жамият ва шахслар мулкига ғамхўрлик муносабатларини тарбиялаш, онгли муносабатда бўлиш, уларда ижтимоий ва шахсий мулкка нисбатан тежамкорлик муносабатини шакллантириш лозим. Шунингдек, улар меҳнат кишиларини ҳурмат қилиш, ўз иродаси ва хулқ-атворини тарбиялаши муҳим ўрин тутди. Ўқувчиларда ижтимоий мулкка нисбатан онгли муносабатни тарбиялашнинг таъсирчан услубларидан бири, уларни унумли меҳнат жиҳозлари ва асбоб-ускуналарини таъмирлашга жалб қилишдан иборат.

Ўқувчиларнинг турли материалларни тежамкорлик билан сақлашга, асбоб-ускуна, иш кийимлари кабиларни эҳтиёт қилишга ўргатиш ҳамда унинг муомала одоби, тартиб-интизоми ва юқори меҳнат маданиятини тарбиялаш керак. Ўқувчиларни технология ва касбга тайёрлаш жараёнида юқори савиядаги меҳнат маданиятини тарбиялаш, ўқитувчи-мураббийнинг асосий вазифаларидан ҳисобланади. Ўқувчиларда меҳнат гўзаллиги, кишиларнинг ўзаро муносабатларини чуқур ва ҳар томонлама идрок қилинишини доимий изчил равишда тарбиялаб бориши керак бўлади. Меҳнатнинг нафислиги оддий буюмлар тайёрлашдан бошланади ва бевосита меҳнат жараёнида ҳамда унинг натижаларида камоён бўлади.

Ўқитувчи дарс ва дарсдан ташқари машғулотлар жараёнида яхши тайёрланган миллий хунармандчилик буюмининг гўзаллиги, деталлар ишлов беришнинг тўғрилиги ҳамда ўқувчи технология ҳаракатларининг аниқлигини доимо таъкидлаб туриши керак. Ўқитувчи ўқувчилар билан ўтказиладиган суҳбатларда, ҳалол меҳнат бизнинг жамиятимизда яшашнинг асосий мазмунига айланиши лозимлигини уқтириши, руҳлантириши ва бу уларнинг ижодий меҳнат қилиш кўникма ва малакаларини шакллантиришга хизмат қилиши керак. Бизнинг жамиятимизда меҳнат гўзаллиги моддий ва маънавий рағбатлантириш билан узвий боғланган.

Юксак меҳнат маданияти меҳнат кишиларининг ажралмас сифати ҳисобланади. Ушбу жараёни ўқувчиларга технология таълими ва касбга йўналтириш ҳамда бошқа умумтаълим фанларини ўқитишда тарбиялаб бориш лозим. Технологик маданият тушунчасига технологик шарт-шароитлар гўзаллиги, қулайлиги, технологик жараён, муомала маданияти ва бошқалар киради. Назарий ва амалий ўқув машғулотларининг хоналари, унинг жиҳозлари ва асбоб-ускуна (станоклар)нинг бўялиши нафис хиссиётларни уйғотиши керак. Чиройли ва қулай асбоб-ускуна билан тайёрланган буюмларнинг юқори сифатли бўлиши, ундан фойдаланиш қулайлиги, пишиқлиги, мустаҳкамлиги ва тайёрланган буюмнинг гўзаллиги инсонларга эстетик завқ бериши қаноатлантириши керак. Асбоб-ускуналар ҳар доим созланган ва ишга шай бўлиши, машғулотларга ўқувчилар қулай махсус иш кийимларини кийиб келишларини кичик мактаб ёшиданок тарбиялаб бориш талаб этилади.

Технология таълими ва касбга йўналтиришда ўқув машғулотларининг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқиб, таълим-тарбия тизимида халқ миллий хунармандчилиги соҳаларидан фойдаланиш учун энг мақбул машғулотлар туркуми ушбу машғулотлар ҳисобланади. Чунки халқ миллий хунармандчилиги соҳаларини бажаришда асосий машғулотлар қўл меҳнати орқали амалга оширилади. Турли материалларни ишлов беришга тайёрлаш, материалларга иссиқ ва совуқ ишлов бериш, кесиб ва букиб ишлаш, режалаш, ўлчаш, пардозлаш, силлиқлаш, жилвирлаш, бўяш, буюмларни истеъмолга (кўрикларга) тайёрлаш каби машғулотларнинг асосий қисми халқ хунармандчилиги соҳаларида қўл билан бажарилади. Халқ миллий хунармандчилиги соҳаларини ўрганишда меҳнат машғулотлари қўлда ва қўл асбобларида бажарилади.

Ҳозирги бозор иқтисодиёти шароитида технология таълими машғулотлари самарадорлигини ошириш учун ўқувчилар меҳнати ҳолис баҳоланиши лозим.

Халқ миллий хунармандчилиги соҳаларини ўрганишга асосланган технология таълими машғулотлари анъанавий технология таълими машғулотларига нисбатан таққосланганда моддий, хом ашё таъминоти кўпгина маҳаллий материаллардан фойдаланиши ҳисобига бўлади. Бу туркумдаги машғулотлар ўқитилиши жиҳатидан бошқа умумтаълим фанларига нисбатан олиб қараганда, ўзининг амалийлиги ва ишлаб чиқаришга мўлжалланганлиги билан ажралиб туради.

Технология таълими ва касбга йўналтириш фани бошқа ўқув фанларидан ўзининг мужассамлантирилган фан эканлиги билан ажралиб туради. Шундай экан, ушбу технология таълимини ташкил этиш жараёнида ўқувчилар умумтаълим фанларидан олган билимларини кенг кўламда қўллайдилар. Бундан ташқари, ушбу таълимнинг ўзи ҳам, ўз тизимида бир қанча соҳа (турли материалларга ишлов бериш, қишлоқ хўжалиги, саноат, пазандачилик, газламашунослик ва бошқа) ларни бириктиради. Ушбу соҳаларнинг ҳар бири эса, бир-бирига ўхшамаган турли хил ишлаб чиқариш фаолияти соҳаларидан ҳисобланади. Ёшларнинг технология таълими ва касбга йўналтириш ишларини ташкил этиш билан шуғулланадиган ўқитувчилар, ўқувчилар, мураббийлар, раҳбарлар ва бошқа мутасаддилар ушбу машғулотларнинг ўзига хослигини яхши фарқлашлари лозим бўлади.

Умумий ўрта таълим мактабларида технология таълими ва касбга йўналтиришдан ташкил этилган технологик тажриба-синов машғулотларини кузатиш ва таҳлиллар натижасида дарс машғулотларини такомиллаштириш учун қуйидаги омиллар зарур эканлиги аниқланди:

Технология таълими ва касбга йўналтириш машғулотлари мазмуни асосан, қўл билан бажариладиган амалий иш ҳаракатларига йўналтирилмоғи лозим. Бу ҳол, турли хил механизациялаштирилган, электрлаштирилган, автоматлаштирилган воситалар, қурилмалар, станоклар билан таъминланишидаги тансиқликнинг, турли хил жароҳатланишларнинг, материаллар тансиқлигининг ва бошқа қутилмаган ҳолатларнинг олдини олишга ёрдам беради.

Умумий ўрат таълим мактабларида ташкил этилаётган технология таълими ва касбга йўналтириш машғулотлари мазмунини танлашда, тарихий, миллий, маҳаллий, минтақавий хусусиятларини ҳисобга олиш керак бўлади. Бу хусусиятларни таъминлашда халқ миллий хунармандчилиги соҳалари зарур бўлган барча педагогик талабларни тўлиқ таъминлайди.

Таълим ва тарбиянинг мантикий кетма-кетлик, изчиллигига тўла эришишда фанлароо боғланишдан фойдаланиш учун технология таълими ва касбга йўналтирилишда ўқув фанларининг имкониятлари ҳисобга олинishi лозим.

Фойдаланилган адабиётлар

- Андреев М. С. Таджики долины Хуф. Вып. I. Сталинабад, 1953.
- Белиницкий А. М., Бентович И. Б. «Из истории среднеазиатского шелкоткачества (к идентификации ткани занданичи). - Советская археология. 1961, № 2. 3.
- Бернштам А. Н. Киргизский народный повествовательный узор - Киргизский национальный узор. Ленинград-Фрунзе, 1948.
- Писарчик А. К. Народное прикладное искусство таджиков. -Д., 1987.
- Рассудова Р. Я. Узбекский художественный шов. - Т., 1966.
- Писарчик А. К. Народное прикладное искусство таджиков. - Д., 1987.
- Симаков Н. Е. Искусство Средней Азии. Сборник орнаментов и узоров, снятых с природы на памятниках арх. и предметах гончарных ткацких, ювелирных и пр. в 1879. СПб., 1883.
- Соболев Н. Н. История украшения тканей. -М. - Д., 1934.
- Анитипина К. И. Особенности материальной культуры и прикладного искусства южных киргизов. -Фрунзе, 1962. 13.
- Урацов М. Б. Каштадўзлик ва тўқимачилик хунарларига оид атамалар.



ТЕХНОЛОГИЯ ТАЪЛИМИДА ЎҚИТИШ ШАКЛЛАРИ ВА МЕТОДЛАРИ

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.11.39.016>

Шомирзаев Махматмурод Хурамович

*Термиз давлат университети технологик таълим кафедраси доценти,
педагогика фанлари доктори (DSc)*

Аннотация: Мақолада мактаб технология таълимида амалий дарсларни ўқитиш шакллари ва методларидан фойдаланиб ўқувчилар ижодкорлик қобилиятларини шакллантиришнинг мазмун-моҳияти ёритилган.

Калит сўзлар: мактаб, технология, дарс, ўқитувчи, ўқувчи, синф, гуруҳ, таълим, тарбия, амалий, ўқитиш шакли, педагогик технология, метод, индивидуал, инструктор, билим, ўқув, малака.

В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ ФОРМЫ И МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ

Шомирзаев Махматмурод Хурамович,

Доцент кафедры технологического образования Термезского государственного университета, доктор педагогических наук

Аннотация. В статье раскрыта сущность формирования творческих способностей учащихся с использованием форм и методов проведения практических занятий в школьной технологии обучения.

Ключевые слова: школа, технология, урок, учитель, ученик, класс, группа, образование, воспитание, практика, форма обучения, педагогическая технология, метод, индивидуальный, инструкция, знания, обучение, квалификация.

IN TECHNOLOGICAL EDUCATION FORMS AND TECHNIQUES OF TEACHING

Shomirzaev Maxmatmurod Xuramovich,

Associate Professor of Technological Education, Termez State University, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc)

Summary. The article describes the essence of the formation of creative abilities of students using the forms and methods of teaching practical lessons in school technology education.

Keywords: school, technology, lesson, teacher, student, class, group, education, upbringing, practice, form of teaching, pedagogical technology, method, individual, instruction, knowledge, teaching, qualification.

Таълим-тарбия ишларини самарали амалга ошириш ва бунда ўқувчиларнинг фаоллигини ошириш кўп жиҳатдан қайси ўқитиш шакли ва унга мос келувчи ўқитиш методини тўғри танлашга ҳамда қўллашга боғлиқдир. Ўқитиш шакли деганда муайян машғулот (дарс)да кўзда тутилган мақсадга эришиш учун ўқитувчи ёки ўқув устаси раҳбарлигида ўқувчиларнинг ўқув материални онгли равишда пухта ўзлаштиришига қаратилган ўқув-тарбия фаолияти тушунилади. Ўқувчиларнинг ўқув устахонасидаги ўқув-ишлаб чиқариш ишларининг асосий шаклидан бири дарс ёки амалий машғулотдир[8]. Ўқув-ишлаб чиқариш иши сифатидаги дарс (машғулот)нинг асосий белгиларига қуйидагилар кирди: а) ўқувчилар таркибининг доимийлиги; б) уларнинг билими (тайёргарлик даражаси) тахминан бир хил савияда бўлиши; в) машғулотни қатъий жадвал асосида белгиланган маълум вақт давом этиши; г) ўқитувчи ёки ўқув (ишлаб чиқариш таълими) устасининг бевосита раҳбарлиги; д) унинг хилма-хил

ўқитиш методларидан фойдаланиши; е) дарсни фронтал (ёппа, умумий), звено (гуруҳ-гуруҳ) ва индивидуал (якка-якка) кўринишда олиб бориш имконига эга бўлиши. Демак дарс ўқитиш жараёнига ташкилий аниқлик киритади ва ишлаб чиқариш таълими ва бошқа фанлар дарсларини навбатлаштириб ташкил этишга, бинобарин, ўқувчиларнинг юқори унумдорлик билан ўқишини ҳамда дам олишини таъминлашга имкон беради. Айни фан ва ҳамма дарсларни тўғри ва уйғун ташкил этгандагина дарснинг мазмуни ва тўла мақсадга мувофиқ очилиши мумкин. Бундан ташқари, ишлаб чиқариш таълими мақсадлари ва вазифаларига мувофиқ равишда куйидагига ўхшаш ҳар хил дарс турларини қўллаш мумкин:

1. Комбинацияли (ўқитиш жараёнининг ҳамма звеноларини ўз ичига олган) машғулот.

2. Операцияларни ўзлаштиришга (айни операцияга оид иш-меҳнат приёмларини ўрганишга) бағишланган дарс.

3. Комплекс ишларни бажаришга (конкрет буюм тайёрлаш муносабати билан илгари ўрганилган операцияларни технологик комплекс тарзида бирлаштиришга) бағишланган дарс.

4. Назорат (текшириш, синов) топшириқлари ва малака олишга бағишланган дарс (чорак охирида, ярим йиллик, ўқув даврида).

Айрим дарс шаклидаги ишлаб чиқариш таълими асосан ўқув устахонасида ташкил этилишини эътиборга олиб, шуни ҳам таъкидлашимиз керакки, ўқувчилар бажарадиган ишларнинг характериға қараб (бир типли ёки турли типли ишларнинг бажарилишиға қараб) дарсни ташкил этиш шакли ҳам танланади (масалан, ишни – дарсни фронтал – бутун синф учун; звено; якка ва аралаш ташкил этиш). Масалан, ўқувчиларнинг ҳаммаси бир хил ишни бажарадиган бўлса (болға тайёрлаш, калит ясаш ва ҳ.к). дарснинг фронтал шакли қўллаш мумкин[14]. Бу ҳолда ўқитувчи ўқувчиларнинг ҳаммаси учун битта умумий инструктаж беради ва ҳамма ўқувчиларға нисбатан қўйиладиган умумий талаблар асосида буюмни тайёрлаш технологиясининг тўғри бажарилишини кузатиб боради. Ўқувчилар бажарадиган ишлар мазмуни (тайёрлаш технологияси) бир-бириға яқин, лекин характери, яъни конструкцияси бошқа-бошқа бўлган ҳолларда дарсни гуруҳли шаклда ташкил этиш маъқул, масалан, тикув машинаси ёки токарлик станогинининг тузилишини ўрганишда ўқитувчи ишни қисмларға ажратади (узатишлар қутиси, тезликлар қутиси, кейинги бабка ва шунга ўхшаш) ва ҳар бир қисмни ўрганишни 2-3 кишилиқ гуруҳға топширади. Уларға оид ҳамма умумий маълумотларни ўқитувчи фронтал инструктаж тарзида ўқувчиларға айтиб беради, ҳар бир қисмнинг ўзига хос маълумотларини эса ҳар бир звенонинг ўзига айтади. Ўқитишнинг бу шаклидан фойдаланганда ўқитувчининг иш ҳажми, айниқса жорий инструктажда, фронтал шаклдагидан кўра анча ортади. Бундаги хилма-хил ишлар сонининг кўп бўлиши (станокнинг турли қисмлари) ўқувчиларда политехник билимлар доирасини ҳам кенгайтиради.

Индивидуал (якка) ўқитиш шаклини синфдаги кўпчилик ўқувчилар конструкцияси ҳар хил, мазмунан эса бир-бириға яқин бўлган ишларни бажарганларида қўллаш мумкин. Бу хил ишлар, масалан: ўқув устахонаси учун хилма-хил майда буюртмалардан ёки дона ҳисоби унча катта бўлмаган турли-туман деталлар (токарлик ёки пармалаш станоклари деталлари) бўлиши мумкин. Бундай ҳолларда ўқитувчи тайёрланиши керак бўлган буюмларнинг тайёрланиш технологиясини таҳлил қилиб чиқиб, ўқувчиларға фронтал инструктаж тарзида умумий белгиларни (маълумотларни) ва якка шакли қўллаганда айтиладиган маълумотларни олдиндан ажратиб қўяди. Бунда индивидуал тарзда айтиладиган маълумотлар кўпроқ бўлади. Кўрамикки, дарсни индивидуал шакл асосида ташкил этганда, ўқитувчи кўпроқ тайёргарлик кўришиға тўғри келади. Бунда дарснинг индивидуал шакли ва индивидуал инструктаждан иборат иккита тушунчани бир-биридан фарқ қилиш зарур. Индивидуал инструктажни ҳар қандай шаклда ташкил

этилган дарсда қўллаш мумкин, лекин бу ишнинг ҳажми фронтал дарс шаклида камрок, индивидуал шаклдаги дарсда эса кўпроқ бўлади. Ниҳоят, аралаш шаклдаги дарс юқорида кўрсатиб ўтилган уччала дарс шакллариининг элементларидан таркиб топади. Шунини ҳам таъкидлаб ўтиш керакки, дастур материалининг мазмунига, ихтисослик характериға ва бошқа омилларға қараб, ишлаб чиқариш таълимида бошқа ташкилий шаклларини ҳам қўллаш мумкин. Масалан, мактабда ўқитишнинг ишлаб чиқариш шароитига мос келувчи дарс шаклини қўллаш мумкин бўлмаган ҳолларда ўқувчилар бригадаси шаклидаги ўқитиш шаклини қўллаш мақсадга мувофиқдир. Бу шаклдаги таълимни кўпинча кўмир кони шахтёрларини тайёрлашда, металлурглар, кимёгарлар ва қишлоқ хўжалигига тегишли кўпгина ихтисослик ишчиларини тайёрлашда қўллаш мумкин. Бундай шароитларда ишлаб чиқариш ўқитувчилари одатда ўқувчиларни алоҳида ўқувчилар бригадаларига ажратадилар, бу бригадаларнинг ҳар бири муайян ўқув-ишлаб чиқариш топшириғини бажаради. Шу билан бирга бу топшириқларнинг ўқув мақсади ва мазмуни бир-биридан анча фарқ қилиши мумкин. Масалан, бир бригада мартен печига хизмат қилишга ўрганса, иккинчиси газ генераторларига хизмат қилишни, учинчиси эса контрол-ўлчаш асбобларини кузатишни ва ҳоказо ўрганиши мумкин. Бундай ҳолларда ўқитувчи ўқув бригадаларини ўрганиладиган зоналар чегарасида алмаштириб туриш графигини тузиши керак, токи ҳар бир бригада, масалан, металлургия бутун бир комплексига хизмат қилишдаги ҳамма иш усуллари (приёмлари)ни билиб, ўрганиб оладиган бўлсин.

Ўқувчиларни корхона шароитида ўргатишнинг яна бир шакли – уларни ишчилар бригадасига қўшиб ўқитишдир. Бу шаклни, масалан, слесарь-ремонтчи, йиғувчи сантехник, монтажчилар, шунингдек, қурилиш ихтисосликлари каби ихтисосларда қўллаш мақсадга мувофиқдир. Бу шакл асосида ўқувчиларга ишлаб чиқариш таълими бериш шундан иборатки, юқорида айтиб ўтилган ихтисосларга доир ишлаб чиқариш бригадаларига умумслесерликка ёки бошқа бирон тайёргарлиги бўлган бир ёки бир неча ўқувчи бириктирилади. Бунда технология ўқитувчисининг вазифаси даврий равишда жорий инструктаж ўтказиб бориш, кундалик топшириқнинг характери ва ҳажмини аниқлаб туриши, бериладиган тошпириқ мавзусига тегишли кириш инструктажи ва иш натижасига бағишланган якуний инструктаж ўтказишдан иборат бўлади. Лекин ўқувчилар турли объектларга тарқатилган бўлиши туфайли ўқитувчи ҳар бир ўқувчига топшириқ бериш ва ундан ишни қабул қилиб олиш имконидан маҳрум бўлади. Шу туфайли бу ҳолда ўқувчиларни ўқитиш (ўргатиш) вазифаси қисман ишчилар бригадаси аъзоларига ёки бригадирнинг ўзига топширилади. Ишчилар бригадасида ишловчи ўқувчиларга иш ҳақи уларнинг анча паст малакасини ва сарф қилган меҳнатини ҳисобга олиб ҳисобланади. Ўқувчилар ишчилар бригадасида баъзан ўқилган (ўрганилган) дастурни тизимли равишда бажариш тамойили бузилади. Чунки технология ўқитувчиси ишчилар бажарадиган иш турини (бу иш тури дастурнинг айни даврида ўрганиладиган ишга мос келмаган тақдирда ҳам) ўзгартира олмайди. Лекин ўқувчиларни иш билан доим таъмин этилиб турилиши, илғор технология ва илғор меҳнат усулларида фойдаланиш имконига эга бўлиши, ишчилар жамоаси шароитида меҳнатда чиниқиши кабилар бу камчиликларни қисман бўлса-да қоплайди.

Технология фанини ўқитиш шаклининг яна бир тури ўқувчиларни малакали ишчиларга бириктиришдан иборат бўлиб, бунда ўқитиш асосий ишдан озод қилинмаган инструктор ёки уста томонидан амалга оширилади. Бир инструкторга бир вақтнинг ўзида иккитадан ортиқ ўқувчи бириктирилмайди. Ўқитишнинг бу шаклининг ижобий томони шундан иборатки, бу усул билан бевосита илғор техника-технология билан таъминланган ишлаб чиқариш цехларида исталган ҳунар бўйича янги ишчилар тайёрлаш мумкин. Бунда инструктор учун ўқувчиларнинг тайёргарлик даражасини ва улардаги сифатларни эътиборга олиб

туриб, энг самарадор ўқитиш усуллари қўллашга имкон бўлади. Бироқ бунда ўзининг асосий иши билан ҳам шуғулланишга мажбур бўлган инструктор ўзига бириктирилган ўқувчиларга етарли эътибор бера олмай қолиши, ишлаб чиқариш таълимини боришини ҳар куни назорат қила олмаслиги ҳам мумкин.

Технология ўқитишнинг махсус шакли – ўқувчиларнинг штатли иш ўринларида (истеъмол маҳсулоти ишланадиган иш ўринларида) ўтказадиган амалиётидир. Бу шакл таълимнинг охириги ойларида, корхона шароитида ўтказилади. Бу шаклда ўқитишда ҳар бир ўқувчи штатли жойда ишлаб, маҳсулотга корхона томонидан қандай талаблар қўйиладиган бўлса, ўша талабларга тўла амал қилиб буюм тайёрлайди. Бу ҳолда ўқувчи буюм ишлаб чиқаришда вақт меъёрини бажаришга ҳам мажбур бўлади.

Ўқувчи тайёрлаган маҳсулотни корхонанинг техник назорат бўлими ходимлари қабул қилиб олади. Ўқув-ишлаб чиқариш фаолиятини шу хилда ташкил этиш ўқувчиларни айна ихтисослик ишчилари ишлайдиган шароитда меҳнат қилишга одатлантиради. Ўқитувчи ўқитиш шакллари ва методларини айна иш ўрнига қўйиладиган талабларга мослаштириб танлаши шарт. Агар айна иш ўрнида технология дастури тўла бажарилмайдиган бўлса, ўқитувчи оддиндан тузиб қўйилган график асосида ўқувчини бошқа иш ўрнига кўчириши шарт. Ниҳоят, синфдан ташқари машғулотларни уюштиришнинг сўнгги шакли техник ижодкорлик тўғарақларидир. Синфдан ташқари машғулотларнинг ташкилий шакллари ўрганишга киришишдан аввал ишдаги бу босқичнинг ўқувчилар маҳоратини ўстиришдаги аҳамиятини аниқлаб олиш керак. Гап шундаки, ўқувчиларнинг дарсларда оладиган билим, ўқув ва малакалари фақат дастурда белгиланган минимумдан иборат бўлади. Ҳолбуки, кўпчилик ўқувчилар замонавий техникага қизиқадилар. Шу сабабли уларни турли техника тўғарақларида қатнашувлари техникага доир билимларини ўз қизиқиш ва қобилиятларига мувофиқ равишда ривожлантиришга имкон беради. Умуман олганда ҳар бир ўқитиш шаклининг ўзига хос афзаллик ва камчилик томонлари мавжуд бўлиб, ўқитиш жараёнида уларни ҳисобга олишга тўғри келади. 1-жадвалда энг кўп қўлланиладиган ўқитиш шакллари афзаллик ва камчилик томонлари кўрсатилган.

Таълим жараёнида методларни тўғри танлаш ҳам муҳим масаладир. Ўқитиш методи, даставвал, ўқитишдан кўзда тутилган мақсад ва вазифалар билан ўқувчиларнинг билимларини, ўқув ва малакаларини онгли ва пухта ўзлаштириш, уларда ижодий фаоллик ва мустақилликни ўстириши, вазифалар билан белгиланади. Технология фани дарсларини ташкил этишга нисбатан қўйиладиган муҳим талаблардан бири методларнинг хилма-хиллиги ва уларнинг муайян мақсадга хизмат этишидир. Таълим жараёнида оғзаки, ёзма ва амалий методлар кўп қўлланилади. Оғзаки методлар барча таълим муассасаларида умумий ва энг кўп тарқалган методдир. Бу метод мантикий метод деб ҳам юритилади ва ҳикоя, суҳбат, тушунтириш, маъруза кўриниш-ларида амалга оширилади. Бунда ўқув материални оғзаки баён этилиши ўқувчиларга билимларни етказишга хизмат қилиши билан бирга уларда айна йўналишга қизиқиш ҳам уйғотади. Ёзма ва амалий методлар ёрдамида эса ўқувчилар эгаллаган назарий маълумотлар мустаҳкамланади.

Ўқитиш ишларининг самарадорлиги қандай методларни қўллашга ҳам боғлиқдир. Аввало метод тушунчасининг кенгроқ маъноси билан, яъни унинг усул ва приёмлар мажмуидан иборатлиги билан танишиб чиқамиз. Ўқитувчи бу усул ва приёмлар воситасида ўқувчиларга маълум мақсадга қаратилган билимлар беради, улардан зарур ўқув ва малакаларни шакллантиради, уларни мустаҳкамлайди, ўзлаштириш даражасини текширади, ўқувчилар эса бу ўқув ва малакаларни фаол ва онгли равишда ўзлаштиради, моҳирликни эгаллайди [13].

Хулоса қилиб шунини алоҳида таъкидлаш керакки, умумтаълим мактабларида бошқа фанлардан фарқли равишда технология фани машғулотларида ўқувчиларнинг

фаоллигини ошириш орқали уларда ижодкорлик қобилиятларини шакллантиришда катта имкониятлар мавжуд. Чунки технология фани машғулотида назарий таълим амалий таълим билан узвий боғлаб олиб борилади. Бу ўқувчиларнинг мустақил ишлашини, имконият даражасида ўз қобилиятини намоён этишни таъминлайди. Ўқувчилар машғулоти давомида ўзлари яратган буюмларни кўриб қувонади, ёнидаги ўртоқлари ясаган буюмлар билан таққослайди, ютуғидан мағрурланади, камчилиги бўлса тўғрилайди. Бу эса ўқувчиларни мустақил шахс бўлиб камолга етишишларидаги илк қадамлари бўлади. Бундай ишларни ташкил этишда ўқитувчининг маҳорати, хусусан, машғулоти кўринишига қариб ўқитиш шакллари ва методларини танлаши ва қўллаши муҳим аҳамиятга эгадир.

Таълим шакллари	Характерли хусусиятлари
Жамоа (фронтал)	<p>Афзаллиги:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ўқув машғулотининг аниқлиги, тартиблилиги таъминланади; • ўқув гуруҳи жамоаси бир бутун сифатида ишлайди; • тежамлилиқ – ўқитувчи бир вақтнинг ўзида барча ўқувчилар билан ишлайди. <p>Камчилиги:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ўқитувчи – таълим бериш объекти; • таълим бериш ялпи характерга эга – ўқувчилар билан якка тартибдаги таълим-тарбия ишларини олиб бориш имконияти бўлмайди; • ўқитувчи барчани бир вақтда бир хил дастур бўйича ўқитади, ҳар бир ўқувчининг тайёргарлик ва ривожланиш даражаси, ўқиш имкониятлари ҳисобга олинмайди; • «ўртача ўқувчи»га ёндошилади: ўқувчиларнинг қобилиятлари бараварлаштирилади, ўртача ҳолатга келтирилади; • ўқувчилар деярли ўзаро мулоқотда бўлмайдилар ва ҳамкорлик қилмайдилар – ҳар бири ўзи учун ишлайди.
Гуруҳли	<p>Афзаллиги:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ўқитувчи – таълим субъекти ва объекти ҳисобланади; • гуруҳда иш ҳар бир аъзонинг имконияти, қобилияти ва ишлаш тезлигини ўзаро ёрдам ва ўзаро назорат қилишни ҳисобга олган ҳолда вазифаларни тақсимлаш асосида ташкил этилади; • ҳамкорликда ишлашда гуруҳдаги ҳар бир аъзонинг тажрибаси бошқаларнинг тажрибасини тўлдирди, ўқув материални ўзлаштиришга ёрдам беради; • гуруҳ аъзолари ва гуруҳлар ўртасида уларнинг фаолияти, мустақиллиги, мулоқоти ва ҳамкорлиги ўзаро муносабатларга боғлиқ бўлиш масъулиятини сезишни таъминлайди; • ҳар бир аъзо ўзи учун ва бошқалар учун ишлайди; • натижалар якка тартибда иш пайтидагига нисбатан, кам вақт сарфланган ҳолда олинади; • гуруҳда ҳамкорликда ишлаш туфайли олинadиган натижалар ўқувчилар вазифасини алоҳида бажарганга нисбатан анча юқори бўлади. <p>Камчилиги:</p> <ul style="list-style-type: none"> • таълим гуруҳда ишни бажаришга ва уни натижаларини олиш-га маълум бир вақтни сарфлашни талаб этади; • кўп меҳнатни талаб қилади, яъни ўқитувчи тайёргарлик учун кўп меҳнат қилиши керак; • нотўғри ташкил қилинганда ўқув жараёни назоратдан чиқиб кетиши ва бошқариб бўлмайдиган тус олиши мумкин.
Якка тартибда	<p>Афзаллиги:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ўқувчиларни юқори даражада мустақил бўлиши таъминланади; • ўқувчининг ривожланиши, тайёргарлиги, қобилияти ва билиш имкониятлари даражасини максимал ҳисобга олган ҳолда таълимни якка тартибда ўтказиш таъминланади; • ўқувчининг кучи ва тайёргарлик даражаси бўйича ҳар бирини таълим олиш тезлиги бошқарилади; • ҳар бир ўқувчига мутаносиб якка тартибда ёрдам бериш таъминланади. <p>Камчилиги:</p> <ul style="list-style-type: none"> • кўп меҳнатни талаб қилади, яъни ўқитувчи якка тартибда вазифаларни ишлаб чиқиши, уларни амалга оширишга ёрдам бериши, назорат қилиши ва баҳолаши учун кўп меҳнат ва вақт сарфлаши керак; • тежамкор эмас, ўқитувчи фақат битта ўқувчи билан ишлайди; • ҳамма ўқувчи билан ишлашга вақт етмайди.

1-жадвал. Таълимнинг ташкилий шаклларининг қиёсий тавсифи

АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Тошкент, 2020 йил 24 январь.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
3. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. М.: Педагогика, 1989. – 192 с.
4. Голиш Л.В. Таълимнинг фаол усуллари: мазмуни, танлаш ва амалга ошириш. Методик қўлланма. Т.: ЎМКХТРИ, 2001. – 128 б.
5. Йўлдошев Ж.Ф., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари. Т.: Ўқитувчи, 2004. – 236 б.
6. Очиллов М. Янги педагогик технологиялар. Қарши: Насаф, 2000.-118 б.
7. Шомирзаев М.Х. Ўқувчиларда халқ хунармандчилиги касбларига қизиқишни фанлараро шакллантириш омиллари // Мактаб ва ҳаёт. – Т., 2019. – 6-сон. – Б. 23-24.
8. Шомирзаев М.Х. “Технология” фани дарсларида муаммоли таълим // Замонавий таълим. – Тошкент, 2020. – 6 (91)-сон. – Б. 28-35.
9. Shomirzayev, M.Kh. (2019). The ethical characteristics of traditional embroidery of Fergana valley people. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 7 (12). - P. 55-59.
10. Shomirzayev, M.Kh. (2020). Education is personally focused technology. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (8), Part. 93-99.
11. Shomirzayev, M.Kh. et al. (2020). National handicrafts of Uzbekistan and its social – economic significance. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (8), Part III. 129-138.
12. Shomirzayev, M.Kh. (July, 2020). Technology of Educational Process in School Technology Education. The American Journal of Social Science and Education Innovations. Impact Factor 5.366. -№ 02. -P. 212 - 223. (www.usajournalshub.com/index.php/tajssel).
13. Шомирзаев М.Х. Технология фанини ўқитишда инновацион педагогик технологиялар. Дарслик. –Т.: Тафаккур, 2021. -226 б.
14. Шомирзаев М.Х. Ўзбек миллий хунармандчилигида инновацион жараёнлар. Ўқув-услубий қўлланма. –Т.: Yangi nashr, 2017. - 48 б.



ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИ ДАРСЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.16.53.015>

Шомирзаев Махматмурод Хурамович,

*Термиз давлат университети технологик таълим кафедраси доценти,
педагогика фанлари доктори (DSc)*

Аннотация: Мақолада Ўзбекистон Республикаси умумий ўрта таълим мактабларида “Технология” фани дарсларини ташкил этиш шакл ва методлари мантиқан кетма-кетликда изчил ёритилган.

Таянч сўзлар: мактаб, технология, дарс, синф, методика, тарбия, таълим, билим, давлат, жамият, миллий дастур, тизим, кадрлар, техник ижодкорлик, рационализаторлик, ихтирочилик, ҳунар, ишлаб чиқариш.

УЛУЧШЕНИЕ ОРГАНИЗАЦИИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ КУРСОВ

Шомирзаев Махматмурод Хурамович,

*Доцент кафедры технологического образования Термезского
государственного университета, доктор педагогических наук*

Аннотация: В статье последовательно описаны формы и методы организации уроков по предмету «Технология» в общеобразовательных школах Республики Узбекистан в логической последовательности.

Ключевые слова: школа, технология, урок, класс, методика, воспитание, образование, знания, государство, общество, национальная программа, система, кадры, техническое творчество, рационализация, изобретение, профессия, производство.

IMPROVING THE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY COURSES

Shomirzaev Maxmatmurod Xuramovich,

*Associate Professor of Technological Education, Termez State University, Doctor
of Pedagogical Sciences (DSc)*

Abstract: The article consistently describes the forms and methods of organizing lessons on the subject «Technology» in secondary schools of the Republic of Uzbekistan in a logical sequence.

Keywords: school, technology, lesson, class, methodology, upbringing, education, knowledge, state, society, national program, system, personnel, technical creativity, rationalization, invention, profession, production.

Кириш. Ўзбекистон Республикасимиз Президенти Ш.М.Мирзиё-евнинг бевосита ташаббуси ва раҳбарлигида қабул қилинган ҳамда изчил равишда амалга оширилаётган Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиш бўйича Ҳаракатлар стратегияси республикаимизда ривожланиш тараққиётнинг янги босқичини бошлаб берди. Бу жараённинг амалий натижалари бугунги кунда ҳаётимизнинг барча соҳаларида, энг муҳими, халқимизнинг онг-у тафаккури, интилиш ва ҳаракатларида яққол намоён бўлмоқда.

Ҳаракатлар стратегиясининг тўртинчи – Ижтимоий соҳани ривожлантиришнинг устувор йўналишларидан бири бўлган таълим тизимини такомиллаштириш масаласига ҳам алоҳида эътибор қаратилган.

Давлатимиз раҳбари ҳар бир вилоятга ташрифи доирасида ўтказилган йиғилишларда, турли учрашувларда сўзлаган нутқи ва суҳбатларида баркамол авлодни тарбиялаш, ёшларни соғлом турмуш тарзига амал қилиб яшаш масалаларига кун тартибидаги долзарб масала сифатида қараш зарурлигини таъкидлаб келмоқда. Президентимиз таъкидлаганидек: “Агар фарзандларимизга

тўғри тарбия бермасак, ҳар куни, ҳар дақиқада уларнинг юриш-туриши, кайфиятидан огоҳ бўлиб турмасак, уларни илм-у ҳунарга ўргатмасак, муносиб иш топиб бермасак, бу омонатни бой бериб қўйишимиз ҳеч гап эмас”.

Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида” ва “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида”ги қонунларда ҳам мамлакатимизда жаҳон андозалари талабларига жавоб бера оладиган юксак малакали мутахассис кадрлар тайёрлаш вазифалари белгиланган. Жумладан, Кадрлар тайёрлаш миллий дастурининг мақсади – таълим соҳасини тубдан ислоҳ қилиш, уни ўтмишдан қолган мафкуравий қарашлар ва сарқитлардан тўла халос этиш, ривожланган демократик давлатлар даражасида, юксак маънавий ва ахлоқий талабларга жавоб берувчи малакали кадрлар тайёрлашнинг миллий тизимини яратишдан иборатдир.

Таълим-тарбия соҳасидаги ислохотлар босқичма-босқич амалга ошириб борилаётган ҳозирги даврда Кадрлар тайёрлаш миллий дастури талабларидан босқичда амалга оширилаётган “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”да кўзда тутилган асосий мақсадлардан яна бири бозор иқтисодиётига ўтиш даврига мослаша оладиган, рақобатдош, фаол шахсларни, яъни мутахассисларни шакллантиришдан иборатдир. Бу масала бошқа фанлар қатори “Технология” фанини ўқитишда ҳам асосий вазифа ҳисобланади.

Таълим-тарбия ишларини ривожлантириш соҳасида амалга оширилаётган ислохотлар жараёнида асосий бўғин ҳисобланган умумий ўрта таълим мактабларида таълим самарадорлигини ошириш муҳим вазифа ҳисобланади. Бунинг учун эса ўқитиш жараёнида таълим усулларида унумли ва оқилона фойдаланиш ҳамда бу усуллари такомиллаштириш, янгиларини излаб топиш, қўллаш орқали бошқа фанлар қатори “Технология” фани машғулотларининг самарадорлигини ошириш ҳам талаб қилинади. Шу сабабли бугунги кунда таълим-тарбия соҳасидаги асосий долзарб масала – таълим усуллари ва шакллари яхши эгаллаган, уларни амалда қийналмай қўллаш оладиган малакали ўқитувчилар – педагог кадрларни тайёрлашдан иборат бўлиб қолмоқда. Чунки ўқувчиларга таълим-тарбия бериш, уларни касбларга йўналтиришда ўқитувчи шахси ва унинг фаолияти алоҳида аҳамиятга эгадир. Бинобарин, ўқитувчи олиб борадиган очик мулоқот тарзидаги машғулот жараёни ўрнини бошқа ҳеч нарса боса олмайди. Шунинг учун ҳам таълим-тарбия сифати ва самарадорлигини ошириш малакали, етук ўқитувчи кадрлар тайёрлаш, уларнинг касбий маҳоратини оширишнинг муҳим гарови ҳисобланади. Ҳозирги кунда таълим-тарбия жараёнида методика ибораси билан бирга, педагогик технология ибораси ҳам кенг қўлланилмоқда. Албатта бу ибора (атама) ларнинг ўхшаш ва фарқли томонлари мавжуд. Уларнинг умумий ўхшашлик томони шундаки, ҳар иккала атама ҳам таълим-тарбия бериш ишларини амалга ошириш жараёнини ифодалайди. Шу билан бирга, методика деганда, ўқув жараёнини ташкил этиш ва ўтказиш бўйича тавсиялар йиғиндиси тушунилса, педагогик технологияга ўқитувчининг касбий фаолиятини янгилловчи ва таълимда яқиний натижани кафолатлайдиган тадбирлар йиғиндиси, мажмуаси сифатида қаралмоқда. Бундан кўринадики, педагогик технологияга методиканинг янги, ўргатувчи билан ўрганувчининг ўзаро биргаликдаги фаолиятига асосланган соҳаси сифатида қараш мумкин. Умуман олганда, “технология” сўзи ишлаб чиқариш ва техника тараққиёти билан боғлиқ ҳолда фанда 1872-йилдан қўлланила бошлаган. “Технология” – юнонча сўз бўлиб, “течне” – маҳорат, саънат ҳамда “логос” – тушунча, таълимот сўзларининг бирикмасидан ҳосил бўлган. “Технология” атамаси, дастлаб, ишлаб чиқариш соҳасида қўлланилган бўлиб, унга материалларга, ярим тайёр маҳсулотларга ишлов бериш, уларнинг таркибини, хусусиятлари, кўриниши, тайёрланиши, қўлланиш соҳасини ўзгартириш йўллари ҳақидаги фан сифатида қаралган. Технология атамасига берилган яна қуйидагича таърифлар мавжуд:

– ишлаб чиқариш жараёнида ашёлар, материаллар, ярим тайёр ашёларни қайта

ишлаш, тайёрлаш ҳолати, хусусияти, шаклини ўзгариш методлари йиғиндиси (Сиёсий луғат, 1989);

– фан сифатида технологиянинг вазифаси ҳар томонлама самарали ва тежамли ишлаб чиқариш жараёнларини аниқлаш ва амалиётда ундан фойдаланиш мақсадида физика, кимё, механика ва бошқа қонуниятларни бажариш (Қомусий луғатдан);

– якунида қўйилган мақсадга эришиш ва фаолият обектининг ўзгаришига имкон берувчи фаолият (Н.С.Стефанов);

– ишлов бериш, вазиятни ўзгартириш санъати, маҳорати, қобилияти ҳамда методлари йиғиндиси (В.М.Шепел);

– фаолиятни ташкил этиш қойдаси ва уни амалга ошириш воситаси (В.В.Гузев).

Ўқувчиларга ишлаб чиқариш соҳалари ҳақида маълумот бериш, уларни келгусида ишлаб чиқариш соҳаларида ишлашга тайёрлашда умумий ўрта таълим мактабларида ўқитиладиган “Технология” фани дарслари катта аҳамиятга эга. Чунки умумий ўрта таълим мактабларида ўқитиладиган “Технология” фани дарсларида мактаб ўқувчиларига техника, технология, ишлаб чиқариш асослари, касблар ҳақида маълумот ва тушунчалар берилади, уларни касбларга йўналтириш ишлари олиб борилади.

“Технология” фани дарсларининг мақсади. Технология фани дарсларида ўқувчилар ишлаб чиқариш жараёни, ишлаб чиқариш соҳалари, бунда қўлланиладиган асбоб-ускуналар ва механизм-машиналар, уларнинг турлари ва ишлатилиши билан таништирилади ҳамда оддий буюмларни тайёрлаш ўргатилади.

“Технология” фани дарслари жараёнида турли табиий ҳамда металл ва металлмас материалларга технологик усуллар асосида ишлов бериш ишларини ўргатиш орқали ўқувчиларни касб-ҳунарга йўналтиришни янада кучайтириш, халқ хунармандчилиги асослари, рўзгоршунослик, электротехника ишларини бажаришда касб-ҳунарга йўллаш бўйича билим, кўникма ва малакаларни эгаллаш ҳамда уларни ҳаётда қўллай олиш лаёқатини шакллантириш кўзда тутилган.

Умумий ўрта таълим муассасаларида “Технология” фанини ўқитишдан асосий мақсад – ўқувчиларда техник-технологик ҳамда технологик жараён давомида бажариладиган оператсиялар юзасидан олган билим, кўникма ва малакаларини мустақил амалий фаолиятида қўллаш, касб-ҳунар танлаш, миллий ва умуминсоний кадриятлар асосида ижтимоий муносабатларга кириша олиш компетенцияларини шакллантириш-дан иборат.

Умумий ўрта таълим мактабларида ўқитиладиган “Технология” фанининг асосий вазифалари:

– материаллар ва уларнинг хоссалари, хусусиятлари ҳамда техник объект ва технологик жараёнларга оид маълумотларни ўргатиш;

– техник объект ҳамда технологик жараёнларда махсус ва умуммехнат оператсияларини билиш;

– технологик жараёнларни бошқариш, махсус ва умуммехнат оператсияларини амалиётда қўллай олиш;

– техник ва креатив фикрлашни, интеллектуал қобилиятларини шакллантириш;

– технологик жараён ва тайёрланган маҳсулотларни бажариш кетма-кетлиги ҳамда маҳсулот сифатини таҳлил қила олиш;

– буюмларни тайёрлаш бўйича меҳнат жараёнларини бажаришга оид хулосалар чиқариш ҳамда меҳнат оператсияларини, маҳсулот сифатини баҳолай олиш;

– онгли равишда касб танлашга тайёрлаш ишларини амалга оширишда таянч ва “Технология” фанига оид компетенцияларни шакллантириш ҳамда ривожлантиришдан иборат.

Изланиш объекти. Умумий ўрта таълим мактабларида “Технология” фани бошланғич синфларда умумлашган ҳолда, 5-9-синфларда “Технология ва дизайн”, “Сервис хизмати” ҳамда “Умумлашаган” йўналишларида ўқитилади.

“Технология” фани куйидаги бўлимлар асосида ўқитилади.

1-4-синфларда:

1. Қоғоз ва картон билан ишлаш.
2. Табиий ва турли материаллар билан ишлаш.
3. Газлама ва толали материаллар билан ишлаш.
4. Бадий қуриш-ясаш ва техник моделлаштириш.

5-7-синфларда:

Технология ва дизайн йўналиши

1. Ёғочга ишлов бериш технологияси.
2. Полимер материалларга ишлов бериш технологияси.
3. Металлга ишлов бериш технологияси.
4. Электротехника ишлари.
5. Рўзгоршунослик асослари.

II. Сервис хизмати йўналиши

1. Пазандачилик асослари.
2. Газламага ишлов бериш технологияси.
3. Рўзгоршунослик асослари.

8-9-синфларда:

Технология ва дизайн йўналиши

1. Халқ хунармандчилиги технологияси.
2. Ишлаб чиқариш ва рўзгоршунослик асослари.
3. Электроника асослари.
4. Ижодий лойиҳа тайёрлаш технологияси.
5. Касб танлашга йўллаш.

I. Сервис хизмати йўналиши

1. Халқ хунармандчилиги технологияси.
2. Ишлаб чиқариш ва рўзгоршунослик асослари.
3. Электроника асослари.
4. Ижодий лойиҳа тайёрлаш технологияси.
5. Касб танлашга йўллаш.

Малакали ўқитувчилар етарли бўлган тақдирда V-IX синфларда “Технология” фанидан ўқувчилар сони 25 нафар ва ундан зиёд бўлган умумий ўрта таълим мактабларида икки гуруҳга бўлиб ўқитишга рухсат берилади.

Ҳар бир дарс хавфсизлик техникаси қодалари ва санитария-гигиена талабларига риоя қилган ҳолда ташкил этилади.

Шунингдек, ўқувчиларга “Технология” фани йўналишлари бўйича касб турлари ҳақида ахборотлар берилади.

“Технология” фанининг йўналишлари мактаб атрофидаги корхона, ташкилот, хўжалик ва касб-хунар коллежларида кенг тарқалган соҳалар, касбларга мувофиқ танлаб олинади. Йирик саноат ишлаб чиқариш ривожланган ҳудудлардаги мактабларда “Технология” фани дарсларида ўқувчиларни шу саноат соҳасига оид замонавий касбларга йўналтириш имкониятлари яратилиши лозим.

“Технология” фани дарсларини амалга ошириш учун куйидаги ташкилий ва услубий вазифаларни ҳал қилиш лозим:

Ташкилий вазифалар. “Технология” фани бўйича назарий машғулотлар учун ўқув хонаси ва амалий машғулотлар учун устахона ташкил қилиш ва уларда хавфсиз ва қулай меҳнат шароитларини яратиш. Ўқувчиларни машғулотлар учун зарур хом ашё, материал, асбоб-ускуналар билан таъминлаш ҳамда мосламалар, механизмлар станоклар билан амалий ишлаш жараёнини ташкил қилиш. Санитария-гигиена ҳамда меҳнат хавфсизлиги бўйича меъерий хужжатларда белгиланган талабларнинг тўлиқ бажарилишини таъминлаш ва мунтазам назорат қилиб бориш.

Ўқувчиларнинг турли касблар бўйича меҳнат жараёнлари ва касб эгалари

билан яқиндан танишишларини амалга ошириш учун корхоналар, жамоа хўжаликлари, ташкилотлар, муассасалар билан доимий алоқа ўрнатишб.

Расмий ҳужжатлар: меъёрий режалаштирувчи ҳужжатлар, устахонада хавфсизлик техникаси, санитария-гигиена талаблари ва биринчи тиббий ёрдам кўрсатиш қоидаларига доир ҳужжатларни юритиш.

Услугий вазифалар. Машғулотларнинг ярим ёки бир йиллик иш режаларини тузиш, бунда маҳаллий шароитлар, эҳтиёжлар ва имкониятларни ҳисобга олган ҳолда, касблар таснифи асосида ўқувчиларни яқиндан таништириш мумкин бўлган касб турларини танлаш. “Технология” фанидан ўғил ва қиз болаларнинг ўзига хос машғулотларини ва касб танлашларини амалга ошириб бориш. Машғулотларда замонавий педагогик ва ахборот технологиялари, янги дидактик материаллар, воситалардан кенг фойдаланиш, таълим ва тарбия бирлигини таъминлаш. Ўқувчиларда турли касбларга тегишли дастлабки меҳнат кўникма ва малакаларини, меҳнатсеварликни шакллантириш. “Технология” фани дарслари жараёнида ўқувчиларни ақлий ва ахлоқий жиҳатдан ривожлантириб боришда уларнинг ёш хусусиятларини, шахсий психологик ва физиологик сифатларини ҳисобга олиш. Ўқувчиларнинг билими, кўникма ва малакаларини мунтазам назорат қилиб бориш.

Дастурдаги технология йўналишлари бўйича машғулотларни ташкил қилиш ва ўтказиш кетма-кетлиги маҳаллий шароит ва имкониятлар ҳисобга олинган ҳолда ўқитувчи томонидан ҳал қилинади.

Олинган натижалар. Юқоридаги фикрлардан шуни айтиш жоизки, “Технология” фани вазифалари мазмунан мураккаб диалектик боғлиқликда бўлади. Буни тушуниш учун шуни назарда тутиш керакки, “Технология” фани вазифалари турли даражада қўйилади ва ҳал қилинади.

Хулоса. Юқорида баён этилган маълумотлардан шундай хулоса қилиш мумкин, ўқувчиларни ўқитиш, тарбиялаш машаққатли иш ҳисобланади. Бунда ўқитувчининг энг машаққатли ишларидан бири шуки, у ҳар бир ўқувчининг шахсий (индивидуал) хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда машғулотларда барча ўқувчиларнинг фаоллигига эришишдан иборат. Бу ўринда ўқувчининг фаоллиги ўз-ўзидан ошмаслигини, балки бу онгли муносабат натижаси эканлигини ёддан чиқармаслик зарур. Модомики, фаоллик онглилик натижасида вужудга келар экан, у таълим-тарбия ишининг мазмуни, ташкил этиш шакли, амалга ошириш методлари ва воситаларини ўзаро мувофиқлаштиришни тақозо этади. Ўқитувчи онгли равишда ўқувчиларда ўқишга қизиқишини янада ошириши лозим.

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, умумтаълим мактабларида бошқа фанлардан фарқли равишда “Технология” фани машғулотларида ўқувчиларнинг фаоллигини ошириш орқали уларда ишлаб чиқариш соҳалари ҳақидаги тушунчаларни шакллантиришда катта имкониятлар мавжуд. Чунки “Технология” фани машғулотларида назарий таълим амалий таълим билан узвий боғлаб олиб борилади. Бу ўқувчиларнинг мустақил ишлашини, имконият даражасида ўз қобилиятларини намоён этишларини таъминлайди. Ўқувчилар машғулотлар давомида ўзлари яратган буюмларни кўриб қувонади, ёнидаги ўртоқлари ясаган буюмлар билан таққослайди, ютуғидан мағрурланади, камчилиги бўлса тўғрилайди. Бу эса ўқувчиларни мустақил шахс бўлиб камолга етишишларидаги илк қадамлари бўлади. Бундай ишларни ташкил этишда ўқитувчининг маҳорати, хусусан, машғулот кўринишига қараб ўқитиш шакли ва методларини қўллаши муҳим амиятга эгадир.

Кейинги пайтларда мамлакатимизда таълим соҳасида катта ўзгариш-лар рўй бермоқда. Буни таълим тизимини ислоҳ қилишга қаратилган директив ҳужжатлар, таълим стандартлари, ўқув дастурлари ва яратилаётган адабиётлар ҳамда қад ростлаётган янги таълим муассасалари мисолида яққол кўриш мумкин. Шу билан бирга, ўз ечимини кутиб турган айрим ишлар ҳам мавжуд. Шулардан бири

дарсларда ўқувчиларнинг билиш фаолиятини фаоллаштириш, мустақил фикрлаш ва ишлаш олиш фаолиятига ўргатишнинг янада самарали шакл ва усулларини ишлаб чиқиб, ҳаётга татбиқ этишдир.

Таълим мазмуни яхшилаш, ўқитишнинг турли хил фаол усулларидан фойдаланиш замон талабига айланиб қолди. Таълим жараёнида ўқитувчи меҳнатининг натижаси кўп жиҳатдан ўқувчиларнинг фаоллигига боғлиқдир. Бунинг учун ўқитувчи янгиликлар излаши, ташаббускорлик ва ижодкорлик намуналарини кўрсатиши керак.

Шунинг учун “Технология” фани дарсларини такомиллаштириш, бунда ўқувчиларнинг назарий ва амалий иш фаолиятини фаоллаштириш, уларда фаол ишлашга оид меҳнат кўникмаларини шакллантириш катта аҳамиятга эгадир, деб ҳисоблаш мумкин.

Тавсиялар:

Юқорида баён қилинган фикрларга асосан қуйидагиларни тавсия қилиш мумкин:

1. Ўқувчиларни ишлаб чиқаришнинг асосий бўғинлари, соҳалари билан таништиришда, уларни мустақил ҳаётга тайёрлашда ва турли касбларни танлашга йўналтиришда “Технология” фани дарсларида катта имкониятлар mavjud. Шу сабабли “Технология” фани дарсларини ташкилий-услубий, илмий-техникавий, ғоявий-сиёсий томондан пухта ўтказишга эришиб бориш ҳар бир “Технология” фани ўқитувчисининг касбий бурчидир.

2. “Технология” фани дарсларида ўқувчиларнинг билиш фаолиятини фоллаштириш, уларда ижобий ва ижодий ишлаш кўникмаларини шакллантириш – ўта муҳим педагогик, психологик, физиологик ва техник-технологик омиллар орқали амалга ошириладиган мураккб жараёндир. Шунинг унутмаслик керакки, бу ишларни амалга оширишда ўқитувчининг ўрнини ҳеч нарса боса олмайди. Шу сабабли аввало ўқитувчининг ўзи тинмай касбий маҳоратини, илмий-услубий савиясини ошириб бориши керак.

3. Шунинг алоҳида таъкидлаш керакки, таълим-тарбия ишларида ўқувчиларнинг билиш фаолиятини фаоллаштириш, амалий ишларни тушунган ҳолда бажариш кўникмаларини сингдириш – аста-секинлик билан амалга ошириладиган ва узок давом этадиган педагогик фаолият жараёнидир. Яъни ўқувчи бирданга фаол, ишни тез ва мукамал бажарадиган бўлиб қолмайди. Шунинг учун бу ишларда шошма-шошарлик қилиш ярамайди. Балки ишни узок истиқболни кўзлаган ҳолда чидам билан олиб боришга тўғри келади. Турли даврларда яшаб ўтган барча буюк алломалар томонидан ёшларни янгича яшашга ва тафаккур юритишга ўргатиш ҳамма вақт ҳам давр талаби эканлиги таъкидланган. Бунда ўқувчиларнинг фаоллигини ошириш муҳим аҳамиятга эгадир. Чунки ўқувчи таълим-тарбия жараёнида фаол бўлса – у аълочи ва жамоатчи ўқувчи бўлади. Шу руҳда тарбияланган ўқувчи эса келажакда ҳам ўзининг бу хусусиятини сақлаб қолган ҳолда, ҳатто ривожлантирган ҳолда фаол ишчи-хизматчи, бир сўз билан айтганда, жамиятнинг фаол аъзоси, фуқароси бўлиши мумкин.

4. Умумий ўрта таълим мактабларида ўтиладиган “Технология” фани машғулотларида ўқувчиларга таълим-тарбия бериш ва бу жараёнда уларнинг фаоллигини ошириш учун оддий, яъни ўқитишнинг анъанавий шакл ва методлари билан бир қаторда инновацион педагогик технологиялардан ҳам фойдаланиш яхши натижа беради. Бу ишларнинг самарадорлигини ошириш учун аввало шу ишларни амалга ошириш босқичларини олдиндан пухта лойиҳалаштириб олиш керак.

5. Таҷрибалардан маълум бўлдики, технология дарсларининг самарадорлигини ва ўқувчиларнинг фаоллигини оширишда бир қатор интерфаол методлар, жумладан, ақлий ҳужум, кластер, кичик гуруҳларда ишлаш, баҳс-мунозара, тақдимот, БББ, “Агар мен...” каби интерфаол методлардан фойдаланиш

яхши самара беради. Шунинг учун келгусида ҳам бундай методлардан фойдаланишга эътиборни кучайтириш, уларнинг янги-янги қирраларини очишга ҳаракат қилиш зарур, деб ҳисоблаймиз. Айниқса, ўқитувчилар учун БББ методи ташҳис ўрнини боса олади. Яъни биз бу методни қўллаш орқали ўқувчиларнинг нималарни билишини, нималарни билиб олганликларини ва нималарни билишни хошлашларини аниқлай оламиз. Одатда ҳар қандай одамга билган нарсалари ҳақидаги маълумотларни бериш улар учун унчалик қизик туюлмади. Шунинг учун ҳам биз ўқувчиларга билишни хошлаган нарсалари ҳақида маълумот берсак улар учун қизиқарлироқ бўлади.

Адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016-йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017-йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017-йил 14-январ. –Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 104 б.

2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз // Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимидаги киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. –Т.: “Ўзбекистон”, 2016.

3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. –Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.

4. Мирзиёев Ш. Ватанамиз тақдири ва келажак йўлида янада ҳамжиҳат бўлиб, қатъият билан ҳаракат қилайлик. // Халқ сўзи, 2017-йил, 16-июн.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. Тошкент шаҳри, 2017-йил 7- февраль РҒ - 4947.

6. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида” ва “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида”ги қонунлари. –Т.: “Шарқ”, 1997.

7. Бабанский Ю.К. Ҳозирги замон умумий таълим мактабида ўқитиш методлари. –Т.: “Ўқитувчи”, 1990. – 232 б.

8. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари. –Т.: Ўқитувчи, 2004. – 236 б.

9. Каримов И. Меҳнат таълими дарсларида ўқитишнинг интерфаол методларидан фойдаланиш: Ўқув қўлланма. –Т.: РТМ, 2009. – 24 б.

10. Каримов И. Меҳнат таълими ўқитиш технологиялари: Ўқув қўлланма. –Т., “Адабиёт учкунлари”, 2013. – 228 б.

11. Каримов И. Меҳнат таълимида ўқувчилар ижодкорлик фаолиятини ташкил этишнинг уйғунлашган технологиялари: Монография, услубий йўналиш. –Т.: “Адабиёт учкунлари”, 2015. – 172 б.

12. Муслимов Н.А. ва б. Меҳнат таълими ўқитиш методикаси ва касб танлашга йўллаш: Дарслик. –Т., 2014. – 292 б.

13. Очилов М. Янги педагогик технологиялар. Қарши: “Насаф”, 2000. – 52 б.

14. Shomirzayev, M.Kh. (2019). Local features of the traditional embroidery of the Fergana valley. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*. -7 (12). -P. 970-973.

15. Shomirzayev, M.Kh. (2020). Education is personally focused technology. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (8), Part. 93-99.

16. Shomirzayev, M.Kh. et al. (2020). National handicrafts of Uzbekistan and its social – economic significance. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (8), Part III. 129-138.

17. Shomirzayev, M.Kh. (July, 2020). Technology of Educational Process in

School Technology Education. The American Journal of Social Science and Education Innovations. Impact Factor 5.366. -№ 02. -P. 212 - 223. (www.usajournalshub.com/index.php/tajssel).

18. Shomirzayev, M.Kh. (30 July, 2020). Developing Educational Technologies in School Technology Education. The American Journal of Social Science And Education Innovations, Impact Factor 5.26. -P.II/VII 51 - 57. (www.usajournalshub.com/index.php/tajet).

19. Шомирзаев М.Х. Бойсун қуроқчилик санътини ўргатишда тарихий анъаналарнинг ўрни // Бойсун - моддий ва номоддий маданияти бешиги” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференцияси. – Т.: Yangi nashr, 2018. - Б.62-67.

20. Шомирзаев М.Х. Ўзбек миллий ҳунармандчилигида инновацион жараёнлар. Услубий қўлланма. –Т.: “Янги нашр”, 2019. – 88 б.

21. Шомирзаев М.Х. Ўзбек миллий ҳунармандчилигининг спектирал-вариатив компонентлари. Услубий қўлланма. –Т.: “Янги нашр”, 2019. – 48 б.

**МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ХАЛҚ ХУНАРМАНДЧИЛИГИГА
ЎРГАТИШДА ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ МЕТОДЛАРИДАН
Фойдаланиш**

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.50.31.014>

Шомирзаев Махматмурод Хурамович

*Термиз давлат университети технологик таълим кафедраси доценти,
педагогика фанлари доктори (DSc).*

*Хайруллаев Исматулло Нуруллаевич
Термиз давлат университети доценти*

Аннотация: Муаллиф мақолада мактаб ўқувчиларини халқ хунаомандчилигига ўргатишда замонавий таълим методларидан фойдаланиш технологиясини ёритиб берган.

Таянч сўзлар: хунароманд, урф-одатлар, устоз-шогирд анъанаси, билим, кўникма, малака, бадиий безак, фаолият.

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ
МЕТОДОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ШКОЛЬНИКОВ НАРОДНЫМ РЕМЕСЛАМ**

Шомирзаев Махматмурод Хурамович

*Доцент кафедры технологического образования Термезского
государственного университета, доктор педагогических наук*

*Хайруллаев Исматулло Нуруллаевич
Доцент Термезского государственного университета*

Аннотация: В статье автор выделил технологию, используемую при обучении школьников народному искусству.

Ключевые слова: ремесленник, ритуал, традиция учителя-ученика, знания, умения, навыки, художественное оформление, деятельность.

**IMPLEMENTATION OF INNOVATIVE EDUCATIONAL METHODS OF
PROVISION OF SCHOOLCHILDREN'S PEOPLE**

Shomirzaev Maxmatmurod Xuramovich

*Associate Professor of Technological Education, Termez State University, Doctor
of Pedagogical Sciences (DSc)*

*Khayrullaev Ismatullo Nurullaevich
Associate professor of Termez State University*

Abstract: In the article, the author highlighted the technology used in teaching schoolchildren folk art.

Key words: artisan, ritual, tradition of teacher-student, knowledge, skills, decoration, activity.

Умумтаълим мактабларида ўқувчиларни халқ хунаромандчилигига ўргатишда инновацион таълим методларидан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади. Шунинг учун умумтаълим мактабларида амалий ва бадиий безак санъати таълимнинг янги мазмунини ахборот технологиялари асосида шакллантириш, замонавий ўқув-методик мажмуалари ва ўқув тарбия жараёнининг дидактик жиҳатларини таъминлаш ва мазкур соҳа ўқитилишининг илмий-амалий масалаларини тўғри ҳал этиш, ҳозирги куннинг долзарб масалаларидан бири. Ушбу масалани ижобий ҳал қилишда ўқувчиларга кашта турлари ва уларнинг ўзига хослиги ҳақида маълумот

бериш ҳамда уларни турли шаклда кашта композициялари тузишга ўргатиш, уларда ўтилатган мавзуга нисбатан қизиқиш уйғотиш, назарий билим, амалий кўникма ва малакаларни шакллантириш, мавзуга оид тарқатилган материалларни яқка ва гуруҳ ҳолатида ўзлаштириб олишлари учун суҳбат-мунозаралар ташкил этиш, тарқатма ва дидактик материаллар тайёрлаш орқали ўқувчиларнинг билимини баҳолаш яхши натижа беради.

Ўқув жараёнидаги педагогик технология – бу аниқ кетма-кетликдаги яхлит жараён бўлиб, у ўқувчининг эҳтиёжидан келиб чиққан ҳолда, бир мақсадга йўналтирилган, олдинги пухта лойиҳалаштирилган ва қафолатланган натижа беришга қаратилган педагогик жараён. Амалий машғулотларни ўтишда ноанъанавий методларни қўллаш, унинг имкониятларидан тўғри фойдаланиш, ҳар бир ўқитувчи учун масъулиятли вазифа. Ушбу вазифаларни амалга оширишда қуйидагиларга эътибор қаратиш лозим:

ўқувчиларга халқ хунармандчилигини ўргатишда ахборот технологияларини қўллаш, ота-боболаримиздан қолган урф-одаглар, устоз-шогирд анъаналарини давом эттириш орқали, уларни маънавий-ахлоқий жиҳатдан тарбиялаш;

халқ хунармандчилигини ўргатишда ўқувчиларни ижодкорлик, изланувчанликка, касбий маҳоратини такомиллаштиришга йўналтириш;

ўқувчиларда касб ахлоқи, катталарга ҳурмат, ватанпарварлик, хушмуомалалик, одоблилик, ростгўйлик, ҳалоллик, покизалик, сабр-қаноат, камтарлик, инсонпарварлик, адолатпарварлик, одиллик, меҳр-муҳаббат, самимийликни тарбиялаш;

ўқувчиларда ижтимоий-ғоявий, юксак дунёқарашни шакллантиришдан иборат.

Маъруза машғулотини олиб бериш технологияси

1-мавзу	Халқ хунармандчилиги тарихи, унинг турлари. Каштачилик санъати.	
Дарсинг технологик харитаси		
Ўқувчилар сони: 30 нафаргача	Вақт: 2 соат	Ўқувчилар сони: 30 нафаргача
Ўқув машғулотининг шакли	Ахборотли баҳс-мунозарали дарс	Ўқув машғулотининг шакли
Маъруза режаси	1. Халқ хунармандчилиги тарихи, унинг турлари ва каштачилик санъати тарихи. 2. Каштачилик санъати мактаблари ва уларнинг намоёндалари. 3. Каштачилик санъатининг ривожланиши.	Маъруза режаси
Ўқув машғулотининг мақсади: ўқувчиларга халқ хунармандчилиги турлари, каштачилик санъати тарихи ва унинг ривожланиши, каштачилик мактаблари, намоёндалари ҳақида маълумот бериш.		
Педагогик вазифа:		Ўқув фаолиятининг натижаси:
1. Халқ хунармандчилиги, унинг турлари ва каштачилик санъати тарихи ҳақида тушунчалар бериш.		Ўқувчилар халқ хунармандчилиги, унинг турлари ва каштачилик санъати тарихи ҳақида тушунчаларга эга бўлади.
2. Каштачилик санъати мактаблари ва уларнинг намоёндалари хусусида маълумот бериш.		Ўқувчилар каштачилик санъати мактаблари ва уларнинг намоёндалари хусусида маълумотга эга бўладилар.
3. Каштачилик санъати ривожланишини тушунтириб беради.		Каштачилик санъати ривожланиши ҳақида тушунча оладилар.
Ўқитиш методлари ва техника		Маъруза, “Қандай?” техникаси, “ФСМУ” ва “Инсерг” методлари.
Ўқитиш воситалари		Ўқув-методик мажмуаси, ўқув қўлланма, тарқатма ва дидактик материаллар, кўргазмалы плакатлар, слайдлар.
Ўқитиш шакли		Жамоа ва синфларда ишлаш

Иш жараёнлари вақти	Фаолият мазмуни	
	Ўқитувчи	Ўқувчи
1-босқич. Кириш (10 дақиқа)	1.1. Маърузанинг мавзуси, режасини эълон қилади, ўқув машғулотининг мақсади ва ўқув фаолият натижаларини тушунтиради.	Тинглайди, мавзу номини ёзиб олади
	1.2. Машғулотни ўтказиш шакли ва баҳолаш мезонларини эълон қилади.	Ёзиб олади
2-босқич. Асосий жараён (45 дақиқа)	2.1. Мавзу режасининг биринчи пункти режаси бўйича маъруза қилади. Маъруза бўйича “Қандай?” усулидан фойдаланган ҳолда ўқувчиларга қуйидаги савол билан мурожаат қилади: “Халқ ҳунармандчилигига оид қандай маълумотларни биласиз?”.	Ёзади, саволга жавоб беради.
	2.2. мавзу режасининг иккинчи пункти бўйича маъруза қилади. Маъруза бўйича “Қандай?” усулидан фойдаланган ҳолда ўқувчиларга қуйидаги савол билан мурожаат қилади: “Қандай каштачилик санъати мактабларини биласиз?”.	Ёзади, саволга жавоб беради.
	2.3. Каштачилик санъати ва унинг ривожланиши каби масалаларни ёритишда “Кичик гуруҳларда ишлаш” орқали амалга оширилишини эълон қилади. “ФСМУ” техникасидан фойдаланган ҳолда синфларга топшириқлар беради. Синфларда ишлашга ёрдам беради. Қўшимча маълумотлардан фойдаланишга имкон яратади. Дикқатларини кутилган натижага жалб қилади. Ҳар бир гуруҳ топшириқларини ватман-қоғозларга тушириб, тақдимотни ўтказишга ёрдам беради, билимларини умумлаштиради, хулосаларга алоҳида эътибор беради. Топшириқларнинг бажарилишини қай даражада тўғри эканлигини дикқат билан тинглайди. Фикрларини тинглаб, умумлаштиради.	Саволларга жавоб берадилар, эркин баҳс-мунозара юритадилар. Синфларда ишлайдилар.
3-босқич. Яқуний босқич (10 дақиқа)	3.1. Мавзу бўйича умумий хулоса қилинади.	тинглайдилар
	3.2. Ўз-ўзини назорат қилиш учун “Чархапалак” технологияси ёрдамида саволлар беради.	Саволларга жавоб ёзадилар.

	3.3. Навбатдаги машғулотда кўриладиган мавзунини эълон қилади ва “инсерт” методида жадвалга мустақил таълимга тайёргарлик кўришларини сўрайди.	“Инсерт” методида жадвални тўлдиради.
--	--	---------------------------------------

Синфлар, гуруҳлар	Саволнинг тўлиқ ва аниқ ёритилиши. 0-5 балл	Мисоллар билан муаммога ечим топиши. 0-5 балл	Синф, гуруҳ аъзоларининг фаоллиги. 0-5 балл	Жами балл

1-жадвал

Мавзу: Халқ ҳунармандчилиги тарихи, унинг турлари каштачилик санъати.

1. Халқ ҳунармандчилиги тарихи, унинг турлари ва наққошлик санъати тарихи.
2. Каштачилик санъати мактаблари ва уларнинг намоёндалари.
3. Наққошлик санъатининг ривожланиши.

Ўқув машғулотининг мақсади: ўқувчиларга халқ ҳунармандчилиги турлари, наққошлик санъати тарихи ва унинг ривожланиши, наққошлик мактаблари, намоёндалари ҳақида маълумот бериш тўғрисидаги билимларини шакллантириш.

Ўқув фаолиятининг натижаси: ўқувчиларга халқ ҳунармандчилиги турлари, наққошлик санъати тарихи ва унинг ривожланиши, каштачилик мактаблари, намоёндалари ҳақида маълумот берилди.

2-жадвал

Синфлар, гуруҳлар	Саволнинг тўлиқ ва аниқ ёритилиши. 0-5 балл	Мисоллар билан муаммога ечим топиши. 0-5 балл	Синф, гуруҳ аъзоларининг фаоллиги. 0-5 балл	Жами балл

13 – 15 балл – “аъло”

12 – 10 балл – “яхши”

6 – 9 балл – “қониқарли”

4-жадвал



Ушбу вазифаларни ҳал этишда ўқитувчи ҳар бир машғулоти яхлит ҳолатда кўра билиши ва уни тасаввур этиши, бўлажак дарс жараёнини лойihalаштириб олиши керак. Бунда ўқитувчи учун бўлажак дарснинг технологик харитасини тузиб олиши муҳим дидактик шарт. Чунки дарснинг технологик харитаси ҳар бир мавзу, ҳар бир дарс учун ўқитилаётган фаннинг хусусиятидан, ўқувчиларнинг имконияти ва эҳтиёжидан келиб чиққан ҳолда тузилади. Ҳар бир дарснинг ранг-баранг, кизиқарли бўлиши аввал пухта ўйлаб тузилган дарс технологиясига боғлиқ.

Адабиётлар:

1.Толипов Ў.Қ., Шарипов Ш.С., Исламов И.Н. Ўқувчилар дизайнерлик ижодкорлиги. –Тошкент: “Фан”, 2006. Б.74

2..Ҳабибулло Солих. Рамзий безаклар маъноси. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2003. №3. Б.11

3.Ходжабоев А.Р. Научно-педагогические основы учебно-методического комплекса подготовки учителя труда. Автореф. дисс...д-ра пед. наук. –Т.: 1992. С.66

4.Нишаналиев У.Н. Формирование личности учителя трудового обучения: проблемы и перспективы. –Ташкент: Ўқитувчи, 2000. С.212

5.Шомирзаев М.Х. Таълим технологияларидан фойдаланиш муаммолари // Замонавий таълим. –Т., 2019. – 9 (82)-сон. – Б.27

6.Shomirzayev, M.Kh. (2019). The ethical characteristics of traditional embroidery of Fergana valley people. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 7 (12). - P. 55-59.

7.Shomirzayev, M.Kh. (2019). Ethnic peculiarities of artistic embroidery of the peoples of the Ferghana valley. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences.-7 (12).-P. 966-969.

8.Shomirzayev, M.Kh. (2019). Local features of the traditional embroidery of the Ferghana valley. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences.-7 (12). -P. 970-973.

9.Shomirzayev, M.Kh. (2020). Education is personally focused technology. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (8),Part. 93-99.

10.Shomirzayev, M.Kh. et al. (2020). National handicrafts of Uzbekistan and its social – economic significance. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (8),Part III. 129-138.

11.Shomirzayev, M.Kh. (July, 2020). Technology of Educational Process in School Technology Education. The American Journal of Social Science and Education Innovations. Impact Factor 5.366.-№ 02. -P. 212 - 223. (www.usajournalshub.com/index.php/tajssel).

12.Shomirzayev, M.Kh. (30 July, 2020). Developing Educational Technologies in School Technology Education. The American Journal of Social Science And Education Innovations, Impact Factor 5.26. -P.II/VII 51 - 57. (www.usajournalshub.com/index.php/tajet).

13.Shomirzayev, M.Kh. The Concept Of Pedagogical Technology And Basic Principles. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. (Affiliated to Kurukshetra University, Kurukshetra, India), Vol. 10, Issue 11, November 2020 Scientific Journal Impact Factor (Sjif 2020-7.13).-Part 1554 - 1563. (<https://saarj.com>).

**ТАЛАБАЛАРДА КРЕАТИВ ҚОБИЛИЯТЛАРНИ
РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.34.20.013>

*Эшкувватов Улугбек Абдулло ўғли,
Тошкент давлат техника университети
Термиз филиали “Транспорт иншоотлари ва автомобиль йўллари”
кафедраси ўқитувчиси*

Аннотация: Мақолада талабаларнинг креатив қобилиятларини шакллантириш ва ривожлантиришнинг самарали йўллари, креативлик сифатларига эга бўлишлари учун ўқув ва тарбия жараёнида янги ҳояларни шакллантириш масаласи баён қилинган.

Калит сўзлар: талаба, креативлик сифатлари, билим, кўникма, малака, ижодий фаолият, шахс креативлиги, касбий ижодкорлик, самарадолик.

**ВАЖНОСТЬ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ У
СТУДЕНТОВ**

*Эшкувватов Улугбек Абдулло ўғли,
Ташкентский государственный технический университет Преподаватель
кафедры «Транспортные средства и автомобильные дороги» Термезского
филиала*

Аннотация. В статье описываются эффективные способы формирования и развития творческих способностей студентов, формирования новых идей в учебно-воспитательном процессе для приобретения ими качеств креативности.

Ключевые слова: Студент, качества креативности, знания, умения, квалификация, творческая активность, креативность личности, профессиональное творчество, продуктивность.

**THE IMPORTANCE OF DEVELOPING CREATIVE ABILITIES IN
STUDENTS**

*Eshkuvvatov Ulugbek Abdullo o'g'li,
Termiz branch of Tashkent State Technical University
Teacher of the department “Transport buildings and automobile roads”*

Summary: The article describes the effective ways of formation and development of students creative abilities, the formation of new ideas in the educational and educational process for them to acquire the qualities of creativity.

Keywords: student, creative qualities, knowledge, skills, qualifications, creative activity, personality creativity, professional creativity, efficiency.

Бугунги кунда жаҳондаги глобаллашув ва таълимнинг интеграция-лашуви жараёнида бўлажак мутахассисларнинг онгида миллий ва умуминсоний кадрларни қарор топтириш, касбий тайёргарлигини ривожлантириш бугунги кундаги долзарб вазифалардан бири ҳисобланади. Ушбу вазифани ҳал этишда таълимнинг роли беқиёсдир. Ҳар бир соҳада етук, билимли, мустақил фикрлай оладиган, фаол ва ташаббускор мутахассисларни тайёрлаш масаласи долзарб вазифалардан бири бўлиб қолмоқда. Бугунги кунда мамлакатимизда кадрлар тайёрлашнинг сифат даражасини ошириш, халқаро стандартлар асосида олий малакали мутахассислар тайёрлаш учун зарур шарт-шароитларни яратиш, ҳар бир олий таълим муассасасини жаҳоннинг етакчи илмий-таълим муассасалари билан яқин ҳамкорлик алоқалари ўрнатиши, ўқув жараёнига халқаро таълим стандартларига асосланган илғор педагогик технологиялар, ўқув дастурлари ва



ўқув-услугий материалларини кенг жорий қилиш, таълим оловчилар, илмий-педагог кадрларни замонавий касбий билимлари ва креативлик қобилиятларини ривожлантириш, ёшлар аудиторияси билан иш олиб боришда интерфаол усуллардан самарали фойдаланиш масалалари Ҳаракатлар стратегиясининг устувор йўналишларига мувофиқ олий таълим даражасини сифат жиҳатидан ошириш ва тубдан такомиллаштиришнинг асосий вазифалари сифатида белгиланди.

Бугунги кунда креативлик – шахснинг муҳим мезони, унинг яхлит тарзда ривожланишининг омилidir. Шунинг учун ҳозирги кунда креативликка – интеллектуал даражадаги фаол ижодга, албатта, билишга оид асосда, ҳозирги даврда алоҳида эътибор берилмоқда. Мамлакатимиз олий таълим тизимида талабаларнинг билим олишлари учун ўқитишнинг янги шакл ноананавий методлари орқали уларнинг ўзлаштириш жараёнини такомиллаштириш, улардаги касбий ижодкорликни шакллантириш орқали таълим – тарбия жараёни сифатини бошқариш механизмларини ишлаб чиқиб амалиётга жорий этиш методлари мавжуд. Ушбу методлар тизимда таълим – тарбия самарадорлигини ошириш ва уни янги сифат босқичига олиб чиқишга хизмат қиладиган чораларни ишлаб чиқишни талаб этади.

Интеллектуал-ижодий фикрлашга алоҳида эътибор билан, модомики, гунги кунда янги – дадил, ўзига хос, ижодий, ташаббускор, конструктив, инновациявий-новаторлик фикрлаш талаб этилар экан, бу тўла ҳаққонийдир.

Шахснинг креативлиги унинг тафаккурида, мулоқотида, ҳис-туйғуларида, муайян фаолият турларида намоён бўлади. Креативлик шахсни яхлит ҳолда ёки унинг муайян хусусиятларини тавсифлайди. Шунингдек, креативлик иқтидорнинг муҳим омил сифатида акс этади. Қолаверса, креативлик зеҳни ўткирликни белгилаб беради.

Креативлик (лот., инг. “create” – яратиш, “creative” яратувчи, ижодкор) – индивиднинг янги ғояларни ишлаб чиқаришга тайёрликни тавсифловчи ҳамда мустақил омил сифатида иқтидорлиликнинг таркибига кирувчи ижодий қобилияти маъносини ифодалайди [1].

П. Торренс фикрича, “креативлик” тушунчаси негизда қуйидаги ёритилади [2]:

- муаммога ёки илмий фаразларни илгари суриш;
- фаразни текшириш ва ўзгартириш;
- қарор натижаларини шакллантириш асосида муаммони аниқлаш;
- муаммо ечимини топишда билим ва амалий ҳаракатларнинг ўзаро қарама-қаршилигига нисбатан таъсирчанлик

Креативликни ривожлантириш таълим мазмунини ўзлаштиришда таълим оловчиларнинг билим савияси, ўзлаштириш даражаси, таълим манбаи, дидактик вазифаларига қараб, муносиб равишда ўқитиш жараёнини ташкил этишни талаб қилади.

Бунда қуйидаги педагогик шарт-шароитларга амал қилиш лозимлиги назарда тутилади:

таълим оловчиларда креатив фаолиятни эгаллаш майлларини қарор топтириш, билиш эҳтиёжларини шакллантириш ва таълим жараёнида мустақилликни намоён қилиш муҳитини таъминлаш;

таълим оловчилар томонидан баён қилинган турли-туман фикрлар ва ғояларни бағрикенглик билан қабул қилиш ҳамда уларнинг ўқув жараёнидаги фаоллигини таъминлаш, уларнинг ижодий фаолликларини мунтазам рағбатлантириш;

таълим оловчиларда индивидуал, кичик гуруҳлар ва жамоада ишлаш кўникмаларини шакллантириш, уларнинг ижодий имкониятларини кенгайтириш, уларни муаммоларни ҳал қилишда тайёр, стандарт ечимлар билан бирга ностандарт ечимлар қабул қилишга ундаш;

креатив фаолиятни ривожлантиришнинг асоси бўлган билимларни амалда

қайта ишлаб чиқиш ва такомиллаштириш имконини берадиган интерфаол машғулот шакллари ва методларини танлаш ва татбиқ этиш ва ҳоказо.

Тадқиқотчи Г.Ибрагимова интерфаол ўқитиш жараёнида таълим олувчиларда креативликнинг ривожлантириш босқичларини қуйидагича ифодалаб ўтган[4]:

1. Репродуктив-таваккалчилик босқичи. Бу босқич таълим олувчиларда креатив фаолият, креатив фаоллик ва ижодкорликка бўлган мойилликни қарор топтириш, таълимдаги инновацион технологияларнинг моҳиятини англаш ва янги ғояларнинг туғилиши, шаклланиши билан тавсифланади.

2. Ижодий-изланиш тадқиқотчилик босқичи. Таълим олувчилардаги тадқиқот-чилик, ижодий фаоллик, ностандарт тафаккур, билиш мустақиллиги, импровизация, янгилик яратиш кўникмаларининг шаклланиши билан белгиланади.

3. Креативлик, новаторлик босқичи. Яратилган янгиликни амалда қўллаш, баҳолаш, таҳлил қилиш, оммалаштириш ва уни кенг татбиқ этиш ҳамда истиқболга йўналтирилган стратегик режаларни тузиш билан боғлиқ жараёнларни ўз ичига олади.

Бўлажак мутахассиснинг ўз соҳаси бўйича фаолиятини олиб боришда унда қуйидаги шахсий сифатлар бўлиши зарур: ижодкорлик, техник фикр юритиш, ўз кучига ишониш, ўз устида ишлаш, тажрибалар алмашиш, касбий компетенциянинг юзага чиқиши натижалари.

Реал ҳаётда креативлик шахсларнинг фаолиятида тез-тез кўзга ташлансада, бироқ, бу ҳолат уларнинг келгусида ижодий ютуқларни қўлга киритишларини кафолатламайди. Фақатгина улар томонидан у ёки бу ижодий кўникма, малакаларни ўзлаштиришлари зарур деган эҳтимолни ифодалайди.

Ушбу жараёнда, дастлабки босқичда ҳар бир талабанинг техник тафаккури ва техник маданиятининг ривожланиш даражасини аниқлаш керак. Бу ижодий қобилиятларни ривожлантириш вазифалари талабанинг имкониятлари даражасига мос келиши учун зарурдир. Ижодий вазифани муваффақиятли якунлаш талабаларнинг ўз қобилиятлари ва қобилиятларига бўлган ишончини кучайтиради. Бундан ташқари, талабалар вазифани гуруҳ-гуруҳ шаклида бажариши уларни ижодий гуруҳларга бирлаштиришга имкон беради, унда ҳамма иштирок этади ва ҳар кимдан максимал ҳаракат талаб этилади. Ўзаро ҳамкорлик жараёнида талабалар бир-бирларига ўргатадилар, ҳамкорлик ва ҳамкорлик кўникмаларини ривожлантирадилар. Ўқитувчининг ижодий вазифаларни амалга оширишдаги роли керакли маълумотларни қидиришга раҳбарлик қилиш, талабаларни вазифанинг ўзига хос хусусиятларини яхшироқ тушунишга имкон берадиган зарур фактлар, фаразлар ва назарияларни аниқлашга ундайди.

Талабаларда креативликни ривожлантиришда қуйидагиларга эътибор қаратиш зарур:

улар томонидан қизиқиши доирасида саволлар берилишини таъминлаш ва бу одатни қўллаб-қувватлаш;

талабаларнинг мустақиллигини рағбатлантириш ва уларда жавобгарликни кучайтириш;


талабалар томонидан мустақил фаолиятни ташкил этилиши учун имконият яратиш;

талабаларнинг қизиқишларига эътибор қаратиш

Бўлажак муҳандис талабаларга ўз олдига қўйилган муаммоли масалаларни ҳал қилишда мавжуд билимлари ва тажрибаларига мос келмайдиган далиллар дуч келади. Бу эса уларнинг юзага келган вазият юзасидан ўз устида ишлаш, мустақил ўқиб ўрганишини талаб этади. Талабалар илмий-тадқиқот ишлари ва илмий ёки ижодий лойиҳаларни амалга ошириши уларда креативлик потенциалини ривожлантиради. Креативлик уларнинг тафаккури мулоқоти, ҳис-туйғулари, муайян фаолият турларида юзага келади.

Барча шахсларда бўлгани каби бўлгуси муҳандисларда ҳам креативлик

сифатлари ўз-ўзидан ривожланмайди. Шундан келиб чиқиб, креативлик сифатларини муваффақиятли ривожлантириш бир неча усуллар мавжуд бўлиб куйидаги расмда кўришимиз мумкин[3]:



Креатив фикрлаш кўникмасини шакллантириш. Бу жараёнда асосий урғу креатив фикрлашга йўналтирилган бўлиб, талабалар феъллар ёрдамида креатив характердаги ҳаракатларнинг моҳиятини ифодалашга йўналтирилади. Бу ҳолат мисоллар билан тушунтирилса мақсадга мувофиқ бўлади. Мисолларни келтириш орқали талабалар савол таркибидаги «таърифлаб беринг» тушунчаси ўз моҳиятига кўра «мавжуд билимларингизни бирма-бир айтиб ўтинг» дейиш билан тенг. Назорат саволлари талабаларни икрлашга ундовчивосита ҳисобланиб, уларнинг креатив фикрлашларини осонлаштиради.

Амалий креатив фикрлаш кўникмаларини ривожлантириш. Ўқитувчилар томонидан талабаларда креатив фикрлаш қобилиятларни шакллантириш ва ривожлантиришда кўрсатмали метод ва усуллардан фойдаланадилар. Мазкур жараёнда саволлардан фойдаланиш фақат қисқа муддатда ёрдам бериши мумкин.

Креатив фаолият жараёнларини ташкил этиш. Бу усулда эса, талабаларни муаммо юзасидан ечим топиш ва инновацион ғояларни тадбиқ этишда креатив, ижодий фикрлашга урғу берилади. Ушбу жараёнларда креатив метод ва усуллар фаол қўлланилмасда, креатив фикрлаш юз беради.

Креатив маҳсулот (ишланма)лардан фойдаланиш. Мазкур усулда эса ўқитувчи талабаларга мутахассисликга доир бўлган мавзу бўйича Power Point дастури ёки мультимедиа воситалари ёрдамида тақдимотни яратиш топширигини бериши мумкин. Тақдимотни тайёрлаш жараёнида талабаларда креатив фикрлаш кўникмалари фаол ривожланади.

Ҳар қандай кўникмани шакллантириш мумкин бўлганидай, креатив фикрлаш қобилияти ёки кўникмасини ҳам ривожлантириш мумкин. Бу талабаларга ҳам тааллуқли бўлиб, креативликустида ишлаш талабаларга ноодатий тарзда фикрлашга ёрдам беради. Бироқ талабаларни руҳлантириш ва креатив бўлишга ундаш ўқитувчининг қай даражада малакали эканлигига боғлиқ. Креативлик бўйича олиб орилган тадқиқотларва креативлик наза-риячиларининг ишлари талабаларда креатив-лик кўникмасини шакллантиришда қўлланма сифатида хизмат қилади. Бу аудиториядаги муҳит, талабаларда фикрлаш тарзининг шаклланиши, ўқитувчининг ёндашув ва стратегик элементларини ўз ичига олади [5]:

Хулоса қилиб шуни айтишимиз мумкинки, бўлажак муҳандис талабаларда креативликни ривожлантиришнинг муҳим жиҳатларидан бири уларни мустақил билим олиш ва ижодий фикрлашга йўналтиришдан иборат. Педагоглар томонидан ишлаб чиқиладиган топшириқ ва вазифаларни яратишда креатив ёндашиб, талабаларнинг танланган мутахассисликлари юзасидан ўқув материалларининг ғоявийлик, илмийлик, визуаллик, тизимлилик, ўқув ахборотларининг изчил тарзда баён этилиши, ўқув ахборотлари ўртасидаги ўзаро боғлиқликлигини инобатга олиш зарур. Бундан ташқари талабаларга бериладиган топшириқлар уларнинг ёш хусусиятига мослиги, амалий ва аниқ мақсадга йўналтирилганлиги ҳамда талабаларнинг эҳтиёж ва қизиқишларига мувофиқ тайёрланиши лозим.

Талабаларнинг креативлик қобилиятлари ўқитувчи томонидан доим равишда рағбатлантириш талабаларни жуфтликда, кичик жамоаларда фаол ишлашлари учун шароит яратилса, мустақил, ижодий, танқидий креатив фикрлаш қобилиятлари ривожланади.

Адабиётлар:

Ҳасанбоев Ж., Тўракулов Х., Хайдаров М., Ҳасанбоева ., Усманов Н. Педагогика фанидан изоҳли луғат - Т.: «Фан ва технологиялар», 2009. – Б.236

Дружинін, Н., Козленко, В., Кравчук, П., Ляхова, Л., Медник, С., Моляко, В., ... & Харрингтон, Д. СТРУКТУРНИ СКЛАДОВІ КРЕАТИВНОГО ПОТЕНЦІАЛУ НАУКОВО-ПЕДАГОГІЧНИХ ПРАЦІВНИКІВ.

Турдиева М. Олий таълим муассасалари талабаларида педагогик тафаккурни шакллантириш. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2008. – Б.41.

Янгирова, В. М., Ибрагимова, Г. Ф., & Сандалова, Н. Н. (2021). Освоение компетенции «преподавание в младших классах» бакалаврами педагогике по стандартам worldskills. Педагогический журнал Башкортостана, (1 (91)), Б.153.

Муслимов Н.А. ва бошқалар. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси / Монография. – Т.: «Фан ва технология» нашриёти, 2013. – Б.14.

Педагогика назарияси / ОТМ учун дарслик. Муал.: М.Х.Тохтаходжаева ва бошқалар. Проф. М.Х.Тохтаходжаеванинг умумий таҳрири остида. – Т.: «Iqtisod-moiya», 2010.

Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Методик қўлланма. Иноятов У.И., Муслимов Н.А., Усмонбоева М., Иноғомова Д. – Т.: Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, 2012.

Shomirzayev, M.Kh. The Concept Of Pedagogical Technology And Basic Principles. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. (Affiliated to Kurukshetra University, Kurukshetra, India), Vol. 10, Issue 11, November 2020 Scientific Journal Impact Factor (Sjif 2020-7.13). -Part 1559.

Shomirzayev, M.Kh. (July, 2020). Technology of Educational Process in School Technology Education. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*. Impact Factor 5.366..

Shomirzayev, M.Kh. (30 July, 2020). Developing Educational Technologies in School Technology Education. *The American Journal of Social Science And Education Innovations*, Impact Factor 5.26. -P.II/VII 55.

**ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРДА ШАХС МОСЛАШУВЧАНЛИГИ
ХУСУСИЯТИНИНГ ОИЛА МУСТАҲҚАМЛИГИГА ТАЪСИРИ**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.21.57.012>*Эшмурадов Олмосбек Эламонович,**Термиз давлат университетининг Педагогика институти Психология
кафедраси катта ўқитувчиси*

Аннотация: Оилавий ўзаро муносабатлар тизимида боланинг ота-онаси ва бошқа янги яқин қариндошлар билан ўзаро муносабати коммуникатив акт сифатида ундаги мулоқатмандлик даражасини оширади, ўсмирлик даври зиддиятларини осонроқ бошдан кечиришини таъминлайди. Миллий маънавиятимиз сарчашмаларида никоҳ ва оиланинг муқаддаслиги тўғрисидаги ўғитлар жамиятнинг ҳар бир фуқаросини тарбияловчи шундай омилардирки, улар орқали ёшларда оила ва никоҳ тўғрисидаги монанд тушунча ва тасавурларни шакллантириши мумкин бўлади.

Калит сўзлар: Имом Бухорий, Форобий, Беруний, Ибн Сино, Юсуф Хос Ҳожиб, Амир Темур, Бурҳониддин ал-Маргиноний, Абдулла Авлоний, Фитрат Оилавий ўзаро муносабатлар, оила ва никоҳ, ўсмирлик даври, ичкиликбозлик, чекиш, гиёҳвандлик, эр-хотин, ота-оналар, фарзандлар, жисмоний, руҳий, оилавий низолар.

**ВЛИЯНИЕ ГИБКОСТИ ЛИЧНОСТИ НА СТАБИЛЬНОСТЬ СЕМЬИ В
СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ***Эшмурадов Олмосбек Эламонович,**Старший преподаватель кафедры психологии педагогического института
Термезского государственного университета*

Аннотация: В системе семейных отношений отношения с родителями ребенка и другими новыми родственниками повышают уровень общения как коммуникативный акт, облегчая преодоление конфликтов подросткового возраста. В источниках нашей национальной духовности учения о святости брака и семьи являются факторами, которые питают каждого гражданина общества, с помощью которых можно сформировать аналогичные концепции и представления о семье и браке в раннем возрасте.

Ключевые слова: Имам Бухари, Фароби, Беруни, Ибн Сино, Юсуф Хас Хаджиб, Амир Темур, Бурханиддин аль-Маргинани, Абдулла Авлони, Фитрат Семейные отношения, семья и брак, подростковый возраст, алкоголизм, курение, наркомания, пары, родители, дети, физические, психические, семейные конфликты.

**THE EFFECT OF PERSONALITY FLEXIBILITY ON FAMILY
STABILITY IN FAMILY RELATIONSHIPS***Eshmuradov Olmosbek Elamanovich**Senior Lecturer, Department of Psychology, Pedagogical Institute, Termez State
University*

Abstract: In the system of family relationships, the relationship with the child's parents and other new relatives as a communicative act increases the level of communication in it, makes it easier to cope with the conflicts of adolescence. In the sources of our national spirituality, the teachings about the sanctity of marriage and the family are factors that nurture every citizen of society, through which it is possible to form similar concepts and ideas about the family and marriage at an early age.

Keywords: Imam Bukhari, Farobi, Beruni, Ibn Sino, Yusuf Khas Hajib, Amir Temur,

Burhaniddin al-Marghinani, Abdullah Avloni, Fitrat Family relationships, family and marriage, adolescence, alcoholism, smoking, drug addiction, couples, parents, children, physical, mental, family conflicts.

Маълумки, оила, унинг жамияттаги ўрни, шунингдек, оила ичидаги кўп қиррали муносабатлар тизими азалдан турли фан йўналишлари олимлари томонидан ўрганиб келинмоқда.

Оиланинг ижтимоий институти (ижтимоий психология), этномаданий анъаналар ва қадриятлар объекти (этнография), ижтимоий муносабатлар ўзаги (фалсафа), инсон наслини давом эттирувчи (демография), моддий қадриятлар яратувчи (маданиятшунослик), ижтимоий ҳолати (социология), оиладаги шахслараро муносабатлар, оилавий низолар (психология) сифатида тадқиқ этилишига қарамай, айнан унинг барқарорлигини таъминловчи педагогик тадқиқот сифатида ўрганилганда у ўзининг тўлақонли таҳлил қўламига эришади. [1]

Бугунги кундаги педагогика фани оилани бир томондан, тарбиячи гуруҳ сифатида, иккинчи томондан оила институти - ижтимоий-таҳлилий тадқиқот сифатида ўрганади. Шуниси эътиборлики, оила муаммолари мутафаккир ва олимларни азалдан қизиқтириб келган. Хусусан марказий Осиёнинг буюк мутафаккирлари Имом Бухорий, Форобий, Беруний, Ибн Сино, Юсуф Хос Ҳожиб, Амир Темур, Бурҳониддин ал-Марғиноний, Абдулла Авлоний, Фитрат асарларида оила, унинг ички ҳаёти, инсон камолоти муаммоларининг муҳим жиҳатлари таҳлил қилинган. [2]

Оиланинг ижтимоий-психологик, ижтимоий фаолият-ижтимоий ҳимоя кўринишида қадимий илдизларга эга. Илк диний-фалсафий (Авесто) ва адабий (Алпомиш, Гўрўғли) манбаларда биз инсоннинг ижтимоий келиб чиқиши нуқтаи назаридан педагогик қарашларнинг акс этишини кўрамиз. Кейинчалик VI-VII асрларда Марказий Осиё ҳудудида ислом динининг тарқалиши янги маънавий, ахлоқий қадриятларни шакллантирди ва улар минтақада оила ва жамият тарбияси тизимига таъсир кўрсатди. [3] Моддий барқарорлик ва ишлаб чиқариш ҳамда савдо ривожини эҳтиёжларига асосланган янги ижтимоий-иқтисодий ҳолат маънавий ва маданий ҳаётнинг юксалишига, дунёвий илм ва фанларнинг гуллаб-яшнашига, форс, араб, қадимги юнон маданияти ютуқларини ўзлаштиришга ёрдам берди.

Гап шундаки, Шарқда ва, айниқса, Ўзбекистонда оила нафақат тарихан муҳим ижтимоий институт сифатида мавжуд бўлиб келган, балки ҳозирги замонда глобал ўзгаришларни бошдан кечириётган ва маълум маънода мавқеи заифлашган даврда ҳам жамиятимиз ҳаётида фавқуллодда муҳим роль ўйнамоқда. Шу маънода, унинг мустақамлиги муаммолари, унга таъсир этувчи омилларни таҳлил қилиш мустақиллик шароитида бутунлай ўзгача қарашлар, концепциялар ва парадигмаларни талаб этади.

Мустақиллик шароитида оила мустақамлигига эришиш, унинг барқарорлигига хизмат қилувчи омилларни аниқлаш, уни заифлаштирувчи омилларни бартараф этиш муаммоларини тизимли ўрганиш ижтимоий тадқиқотлар объектига айланган эмас. Бундай тадқиқотлар оила соҳасида самарали ва илмий асосланган сиёсатни амалга ошириш эҳтиёжларидан ҳам келиб чиқади.

Шахс ривожланиши ва унинг ижтимоийлашуви, аввало, ижтимоий омиллар таъсири остида кечади. Ундаги асосий рол эса оилага тегишли. Оила шахслараро муносабатларнинг бутун бошли мажмуаси, эр-хотин, ота-оналар ва фарзандларнинг ўзаро ҳаракати сабаб боланинг жисмоний, руҳий ва ижтимоий ривожланиши учун энг қулай шароитни яратиб беради, унга маънавий қадриятлар, ахлоқий меъёрлар, анъаналар, ҳулқ намуналари ва мулоқот усуллари тизимини тақдим этади.

Инсон оила таъсирини бутун ҳаёти давомида ҳис этади, шунинг учун оиланинг тарбиявий таъсири узлуксизлиги ва давомийлиги билан тавсифланади. Оиланинг болага нисбатан тарбиявий таъсирининг барқарорлиги унинг ўқув, меҳнат, ижтимоий фаоллигига таъсирида ўз аксини топади. Мазкур омил никоҳнинг умумий барқарорлиги ва мустақамлиги ҳолати билан чамбарчас ва кўп жиҳатдан боғлиқ. Яъни, агар оила мустақам бўлса, унинг тарбиявий муҳити

хам барқарор бўлади, бундай муҳитда камол топадиган фарзанд тарбияли, хулқи намунали бўлади.

Демак, психологик жиҳатдан оилавий муҳитнинг қандайлигига қараб икки шахс ўртасидаги никоҳнинг мустақамлигига баҳо бериш мумкин. Бу оила аъзолари ўртасида самимий ўзаро муносабатларни ривожлантирувчи ёки аксинча уларнинг яхши кечишига тўсиқ бўлувчи шарт-шароитлардир. Психологик муҳитнинг яхши - кулай ёки ёмон - нокулай типлари фарқланади. Кулай психологик муҳит замирида эр-хотин дунёкараши, фикрлар тарзлари, феъл-атворининг бир-бирига мос келиши ётади. Бугунги кунда миллий ғоя, миллий мафкура тарғиботи билан кенг жамоатчилик шуғулланмоқда, айниқса, таълим тизимида изчил ўрганилмоқда, дарсликлар яратилиб, ўқув жараёнларида қўлланилмоқда ёшлар ўз Ватанига содиқ, мард, фидойи, юксак маънавий фазилатлар эгаси бўлишга ундалмоқда. Мамлакатимиз аҳолиси орасида миллий ғоя, мафкуравий тарғибот ва ташвиқот ишларини табақалаштириб олиб борилса, қўйилган мақсадга тезроқ эришиш мумкин. Бунда мамлакатимиз аҳолисини икки қисмга: таълим билан қамраб олинган ва таълим билан қамраб олинмаган аҳоли қатламларига ажратиб тарғиб ва ташвиқ қилинса, мақсадга мувофиқ бўлиши тадқиқотда илмий далилланган[4]

Халқимизда яхши урф-одатлар бор. Турмуш қуришдан олдин куёв билан келин томон бир-бирининг сиҳат – саломатлигини сўраб суриштиради, турмуш шароитини ўрганади. Шундан кейингина совчилар бориб, унаштириш маросим ўтказилади. Узоқ вақтдан бери давом этиб келаётган бу удум аслини олганда, моҳиятига кўра, ҳозирги даврдаги тиббий ирсият маслаҳатхоналари вазифасини ўтаган.

Ёшларимизнинг ирсият қонунларини билишларига ҳар жиҳатдан катта эҳтиёж мавдуд. Чунки бу борадаги билимлари уларни соғлом оила қуришдек бахтга муяссар қилади ва турли касалликларнинг олди олинади.

Амир Темур ҳам оила қуриш масалаларига давлат юмушларидек жуда жиддий эътибор берган. Буюк Соҳибқирон, хусусан, келин танлаш ҳақида қуйидаги фикрларни билдирган: “Ўғилларим, набираларим ва яқинларимни уйлантирмоқ ташвишида келин изламоққа эътибор бердим. Бу ишни давлат юмушлари билан тенг кўрдим. Келин бўлмишнинг насл-насабини, етти пуштини суриштирдим. Хос одамлар орқали соғлиқ-саломатлигини, жисмонан камолатини аниқладим. Келин бўлмиш насл-насаби, одоб-ахлоқи, соғлом ва бақувватлиги билан барча қусурлардан холи бўлсагина эл-юртга катта тўй-томоша бериб, келин туширдим”. Дарҳақиқат келажак авлодни соғлом ва иқл идрокли бўлишлиги онага боғлиқдир. Биринчи президентимиз такидлаганларидек соғлом онадан соғлом фарзанд дунёга келади бу эса миллат келажagini белгилайди. [7]

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, никоҳ, оила шакллари, ўзбек оилаларининг ижтимоий ва миллий хусусиятларини холис ўрганиш, таҳлил этиш имконияти мустақиллик йилларидагина туғилди. Маълумки, шўро ҳукумати даврида бошқа масалалар қатори оила муносабатларига ҳам синфий мафкура нуқтаи назардан ёндашилари эди.

Маълумки, одам танасида моддий ирсий омил - хромасомалар бўлади. Шуни унутмаслик керакки, ҳар бир инсон вужудида патологик ген рецессив (яширин ҳолатда) бўлиши мумкин. Бу генлар айрим шароитларда, масалан, ичкиликбозлик, чекиш, гиёҳвандлик, ҳомиладор аёллар хасталиклари (камқонлик, буйрак ва юрак касаллиги), эр-хотинда бўлган сурункали инфекция, яқин қариндошларнинг ўзаро никоҳланиши ва ниҳоят, ташқи муҳитнинг одам организмга зарарли таъсири натижасида насл касалликларининг келиб чиқиши ва болаларнинг мажруҳ туғилишига сабаб бўлиши мумкин. Ирсият фанининг эришган ютуқлари ва аниқ далиллар яқин қариндошларнинг қанда-анда бўлиши наслга салбий таъсир этишини тасдиқлайди. Қариндошлар орасидаги никоҳларнинг ирсий томондан қандай хавфи бор? Шунинг учун ҳам бундай шароитда олий ўқув юртларида ҳам ёшларнинг ижтимоий ҳаракатига кўпроқ эътибор бериш керак. Чунки, бугунги ёшлар эртага оила раҳбари ёки унинг аъзосидир. Бу соҳадаги муаммоларни ҳал этишда қуйидагиларга асосий эътиборни қаратиш лозим:

Харикалайигит-қиз оилаларининг мувофиқлигига эришиш: моддий; маънавий; жинсий ва жисмоний соғломлиги; ёшидаги фарқи. Ёшларда маънавий-ахлоқий сифатларнинг шаклланганлиги ва муомала одобига риоя этиш кўникмаларини

таркиб топтириш. Бунда оилада ҳар иккала жинсга мансуб шахслар билан муносабатлар меъёрларига риоя этиш, дўстлик, ота-онага, катталарга ҳурмат, кичикларга ғамхўрлик, болалар тарбиясига эътибор ва бунда эҳтиёж, масъулият, садоқат, олижаноблик, инсонийлик, оила-никоҳ муносабатларини эъзозлаш ва кадрлаш, оилада бурч масъулияти ва ҳоказоларга тайёрлаш муҳим аҳамиятга эга.

Психолог олимларнинг ўтказган тадқиқотларига кўра оила кургунга қадар бир-бирларини бир ой ва ундан кам вақт билган эр-хотинлар сони ажрашиб кетган эр-хотинлар орасида кўпчиликни ташкил қилишини кўрсатди. Шунингдек, бир-бирларини оила кургунга қадар 5-10 йил ва ундан кўп вақт билишлари ҳам бўлажак эр-хотинларга бир-бирларига нисбатан ҳис-туйғулари ўтмаслашиб қолишига олиб келиши ҳам мумкин экан.

Психологик адабиётларда ёшларнинг бўлажак эр-хотин сифатида бир-бирларини ярим йилдан бир йилгача билишлари энг мақбул муддат деб кўрсатилади.

Бизнинг фикримизча, юқоридаги тушунчаларни сунъий фарқлаш терминологик чалкашликни келтириб чиқаради. «Барқарорлик» сўзи чет тилидаги «стабиллик» тушунчасининг аниқ таржимаси ҳисобланади. Оиладаги маънавий-руҳий муҳитни характерловчи хусусиятни «оила - никоҳ муносабатларининг сифати» тушунча ёрдамида изоҳлаш мумкин. Шунинг учун биз ўз тадқиқотимизда «стабиллик» ва «барқарорлик» тушунчаларини синонимлар сифатида ишлатиб, уларни умумий ҳолда «оила мустаҳкамлиги» тушунчасининг хусусий кўринишлари бўлган стабил никоҳлар ва шахслараро муносабатлар сифатида тақдим этганмиз. Яна шуни ҳам алоҳида таъкидлаш мумкинки, оила мустаҳкамлигига таъсир кўрсатувчи омиллар ҳам, унинг заифлигига сабаб бўлувчи омиллар ҳам турли-тумандир. Юқорида айтиб ўтганимиздек, ҳар бир организмда рецессив (яширин ҳолда) касаллик белгилари мавжуд. Яқин қариндошлардан бири - она ёки ота, бува ёки буви томонидан авлоддан авлодга рецессив касаллик белгилари ўтиши мумкин. Эр ва хотин бегона бўлсалар, касаллик белгилари ота-онадан ўтган бўлса ҳам, авлодлари фарзандларида салбий ҳолатларнинг юзага келиш хавфи камроқ. Аммо яқин қариндошлардан туғилган фарзандларда салбий сифатларнинг ўтиш хавфи икки баробар кўпдир. Бундан ташқари, ушбу ҳолат ота-онанинг соғлигига ҳам боғлиқ.[5]

Оилада бахтли ҳаёт кечиришга ҳар бир ўғил ва қиз болани эрта ўргатиш, бунинг учун унинг онгида оила муқаддаслиги ва кадрли эканлиги тушунчасини шакллантириши зарур. Тўғри, ўспирин ёшдагиларнинг бундай тасаввурга эга бўлиши қийин албатта, чунки оила-никоҳ муносабатларининг ўзига хослигини билиш, икир-чикир муаммоларини тушуниш масаласи кўпгина ҳаёт тажрибаси ва билимни талаб қилади. Бироқ, у никоҳ қуриш ёшига анча етмасданоқ оиланинг асосий мазмунини ташкил этадиган омилларни тушуна олишлари керак.[6]

Фойдаланилган манба ва адабиётлар:

Оила психологияси: Дарслик. Педагогика олийгоҳлари талабалари учун // Муаллиф В.М. Каримова. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2008 – 170 б

Жабборов И. Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти. Тошкент: 2003.- Б. 67-95. – 208 б.

Ғозиев Э., Тўлаганова Г. Педагогик психология асослари: Ўқув-методик қўлланма. – Т.: «Университет», 1997. – 80 б.

Эйдемиллер Э.Г., Юстеский В.В. Семейная психотерапия. - Л., 1989. - 192с.

Холматова М., Муравьева Н. Ёшлар оилавий ҳаёт бўсағасида –Тошкент: Ўзбекистон, 2000.

Эшмуродов О. Э. Этнопсихологические проблемы возраста создания семьи – в обеспечении прочности семьи. вестник интегративной психологии халқаро илмий журнали. Масква Ярославль 2020 Выпуск 20

Эшмуродов О.Э. Ўзбек никоҳ-оила муносабатларининг тарихий ва ижтимоий психологик таълиқи. Тошкент давлат педагогика университети илмий ахборотлари. Тошкент 2020



**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TARBIYASIDA KATTALAR
VA OTA-ONALARNING MUNOSABATLAR MADANIYATI**

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.56.68.011>

*Sheraliyeva Munavvar Abdullayevna
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi*

Annotasiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida kattalar va ota onalarning munosabatlar madaniyati haqida yoritib berilgan. Qolaversa, maktabgacha yoshidagi bolani tarbiyasida ota-onalar ham o'z imkoniyatidan kelib chiqib farzandini har tomonlama komil inson qilib tarbiyalashda mas'ul ekanliklari alohida ta'kidlanib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, tafakkur, urf-odat, oila, jamiyat, bola, ota-ona, opa-singil, aka-uka maktabgacha ta'lim, muhit, aqliy tayyorgarlik, malaka, ko'nikma, tajriba.

**КУЛЬТУРА ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ВЗРОСЛЫХ И РОДИТЕЛЕЙ В
ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

Шералиева Мунаввар Абдуллаевна

Преподаватель Термезского государственного университета

Аннотация: В данной статье освещается культура взаимоотношений взрослых и родителей в воспитании детей дошкольного возраста. Кроме того, было особо подчеркнуто, что родители, исходя из своих возможностей, ответственны за воспитание ребенка в дошкольном возрасте.

Ключевые слова: образование, воспитание, мышление, традиция, семья, общество, ребенок, родитель, сестра, брат дошкольное образование, окружающая среда, умственная подготовка, квалификация, навыки, опыт.

**THE CULTURE OF RELATIONS BETWEEN ADULTS AND PARENTS IN
THE UPBRINGING OF PRESCHOOL CHILDREN**

Sheraliyeva Munavvar Abdullayevna

Teacher of Termez State University

Annotation: This article highlights the culture of relations between adults and parents in the upbringing of preschool children. It is also noted that parents are responsible for the upbringing of a child of preschool age in all aspects of the upbringing of their children as a perfect person, based on their own capabilities.

Keywords: education, upbringing, contemplation, Tradition, Family, Society, child, parent, sister, brothers preschool education, environment, mental preparation, qualification, skills, experience.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 65-moddasida «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muxofazasida bo'lishi xuquqiga ega». Er-xotin ikki tirik vujudning ikki olamning o'zaro ittifoqidan paydo bo'lgan uchinchi bir olam - bu oiladir. Oila faqat er va xotinning o'zidan iborat emas, oila er-xotin ularning bola-chaqalari, eng yaqin tug'ushganlaridan iborat kishilar guruhi ya'ni xonadondir.

Bola tajribasining asoslaridan biri undagi ota-ona oilasi ta'sirida shakllanadigan ijtimoiy fe'l-atvordir. Ya'ni, o'zaro ishonch, o'zini-o'zi baholash, Men-kontseptsiyasi ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari ta'sirida bola ongida shakllanadigan hislatlardir. Bola ota-onasining o'zaro muloqotlariga qarab, umri mobaynida kuzatib, bilib-bilmay ularga taqlid qilib, tinchlik - xotirjamlikda, o'zaro hamjihatlikda yashashga o'rgansa, aka-uka, opa-singillariga qarab, jamiyatdagi murakkab o'zaro muomala holatlarida

o'zini qanday tutishga o'rganadi, hayotning ma'nosini tushunib boradi, dunyoqarashi, dunyoviy hamda diniy e'tiqodlarining shakllanishi ham ayni shu munosabatlar ta'sirida ro'y beradi.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilalarning, oilalar mustahkamligining ahamiyati beqiyosdir. Muayyan muhitda dunyoga kelib, shaxs sifatida shakllanib, o'zi yashayotgan davlatning fuqarosi sifatida mamlakatning iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti taraqqiyotini ta'minlovchi, hal qiluvchi omil bo'lgan inson kamolotida oilaning tutgan o'rni muhim.

Shunday ekan, oilaning sog'lom bo'lishi, ularda ijobiy psixologik iqlimning hukm surishi farzandlarimizning shaxs sifatida shakllanib, davlatimizning iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti rivojini ta'minlovchi insonlar bo'lib yetishishidagi asosiy omil hisoblanadi. Zero, shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e'tiqodiga aloqador ko'nikmalar asosan oilada shakllanadi.

SHu sababli, oilada farzandni tarbiyalashda ota-onalarning javobgarligi juda katta. Bola o'ziga xos, xususiyatlarga, o'ziga xos urf-odatlariga va o'zaro munosabatlar tuzilishga ega bo'lgan oilada ijtimoiylashadi. Oila shakllanishida ma'lum psixologik davrlarni boshdan kechiradi. Oilada katta yoshdagilar, yosh bolalar bilan o'zaro munosabatda bo'lib, bolaning shaxsiy qadriyati va qadr-qimmatini hurmat qilishlari lozim. Ushbu jarayonda zamonaviy oilalar uchun psixologik va pedagogik yordam tobora zarur bo'lmoqda. Oila tarbiyasi bu pedagogik tarbiya va psixologik madaniyat asosi hamdir. Bolani tarbiyalashda oila uning hayotga moslashishiga va qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam beradigan shaxsiy xususiyatlarini shakllantiradi.

Ma'lumki, har bir millatning o'z urf-odatlari, a'nanalari, udumlari bor va ular o'sha millat uchun bebaho qadriyatlar hisoblanadi. Bu mo'tabar tushunchalarning paydo bo'lishi kishilik jamiyatining shakllanish jarayonlari bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Demak, qadriyat bilan aloqador bo'lgan mazkur milliy tushunchalar juda qadim-qadimdan ildiz otib, qalb qo'rimizga singib, milliy ahloq-odobimiz, tarbiyamizda o'zga xalqlar, millatlarga o'rnak bo'lsa arzigulik odobnoma bo'lib kelgan. Farzandlarning ota-onaga hurmati Sharqda hamma vaqt juda yuqori bo'lgan. Ularning o'zaro munosabatlari biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, milliy qadriyatlarimizning yuksak namunasidir. Farzandlar yoshligidanoq otasiga suyanib, onasining allasini tinglab, ularning sehriga qonib voyaga yetganlar. Ular ko'ngliga mehr ona suti bilan kirgan. Oilaga bunday jiddiy e'tibor berilishi bejiz emas. Oila va jamiyat o'zaro bog'langan. U inson zotini, uning avlodini davom ettirish manbai. Ota-ona, oila bolalarni tarbiyalash va ularni jismonan hamda aqlan kamolotga erishuvi uchun ma'suldirlar. Har bir oila-muqaddas dargohdir. Har bir oilaning quvonchi farzanddir. Oilada farzand tug'ilishi bu shodiyona, quvonch, ming bir orzu-istaklarning umidlarning ushalihi va albatta jamiyat oldidagi mas'uliyatdir. Farzandni hayotga tayyorlash oiladan boshlanadi, birinchi saboqlarni bola oiladan oladi, qolaversa, oila farzandning hayot andozasi. Bir qarashda oila va farzand tarbiyasi nihoyatda oddiy va tushunarli ko'rinadi, aslida bu juda murakkab ham aql, ham muruvvat, ham mehr, ham qat'iyatlilik, ham bag'rikenglik, ham sabr talab etadigan hayot sinovidir. Sinov deymizning sababi shundaki, farzand tarbiyasiga jiddiy qarab, o'z vaqtlarini ayamay bola tarbiyasiga bag'ishlagan, go'dakning savollariga javob berishda haqiqatga tayangan, vaqtida farzandini koyib, o'rinli bo'lsa tanbeh berib, farzandining hayotiga bee'tibor bo'lmay, uning doimiy yo'l boshchisi, maslahatchisi bo'lgan ota-ona albatta kelajakda farog'atda, izzat-hurmatda yashaydilar. Bola 2-3 yoshidan boshlab, o'z ehtiyojlari, fikr va talablarini birmuncha aniq ifoda etadigan bo'lib qoladi. U ko'ziga ko'ringan, aqli yetgan narsalarni so'raydi va ularni sinchkovlik bilan tekshira boshlaydi. Ota-onalar milliy fazilatlarimizga muhabbat bilan qarash, razolatlardan nafrat qilish yo'llarini bolalarga o'rgatadilar. Xalqimiz orasidagi buyuk odamlarning kamolotlari to'g'risida so'zlab beradilar. Sharq mutafakkirlari o'z zamonasidayoq bola tarbiyasining ijtimoiy vaziyat bilan bog'liq ekanligini, bu vaziyatni o'zgartirilishi uning tarbiyasiga ta'sir qilishi tabiiydir,- degan xulosaga kelishgan. [34,12.]

Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida oila va oilada farzand tarbiyasi masalalariga katta e'tibor berganlar. Sharqda keng tarqalgan pandnoma tarzida yozilgan mashhur asarlardan biri Unsurul ma'aliy Kaykovusning "Qobusnoma"sidir. Bu asar Sharq pedagogik fikr taraqqiyotida muhim o'rinni egallaydi va qanchadan-qancha avlodlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda o'z hissasini qo'shib kelmoqda. "Qobusnoma" falsafiy didaktik asar bo'lib, shaxs shakllanishining barcha tomonlarini o'z ichiga oladi. Uning "Farzand parvarish qilmoq zikrida" degan bobi bevosita oiladagi bola tarbiyasiga bag'ishlanadi. Kaykovus bola tarbiyasida talabchanlik bilan mehribonlikni birga olib borish lozimligini ta'kidlaydi. "Yosh bola ilm bilan odobni tayoq bilan o'rganur, o'z ixtiyori bilan o'rganmas. Ammo farzand beadab bo'lsa va sening ul sababdan qahring kelsa, o'z qo'ling bilan urmagil, muallimlarning tayog'i bilan qo'rqitgil. Bolalarga muallimlar adab bersinlar, toki sendan o'g'lingni ko'nglida gina qolmasin". Kaykovusning "Qobusnoma" asari bugungi kunda ham axloqiy qadriyat sifatida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Oiladagi tarbiyaviy jarayon o'ziga xos xususiyatga ega. Uning oxiri va avvali yo'q. Biz bolani tug'ilgandan boshlab tarbiyalaymiz. Bola ota-onasining xatti-harakatlarini taqlid qilish orqali o'rganadi, ular aytgan so'zlarini takrorlaydi. Ota-ona bola shaxsi rivojlanishi uchun ideal tarbiyachi bo'lishi kerak. Oiladagi tarbiyaviy jarayon, avvalo, bola bilan ota-ona o'rtasidagi doimiy muloqotdir.

Bolaning psixik jihatdan rivojlanishi, shaxs sifatida shakllanishi uning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi obyektiv va subyektiv omillarga, xususan, oilaviy munosabatlar psixologiyasiga, ota-onaning bolaga ta'siri, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarining kasbiy mahorati, pedagogik-psixologik bilimdonligi hamda mahalla a'zolari ta'siri va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar holatiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. [34,12.]

Bolaning tarbiyasi yaxshi bo'lishi uchun uni sevishimiz, shaxsini hurmat qilishimiz lozim. Oila tarbiyasi kabi katta mas'uliyat birinchi navbatda ota va ona zimmasiga tushadi. Shu o'rinda bir narsani alohida aytish kerakki, bolalar tarbiyasida asosiy ta'sirchan kuch-qudrat bu-onadir. Ota ko'pchilik xalqlarda oilaning moddiy ehtiyojlarini qondirish va ta'minlash, qolaversa, oilaning xo'jalik ishlari bilan band bo'ladi. Bu o'zbek oilalarining tarixidan ma'lum bo'lgan haqiqat va ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan an'anadir. Shunga ko'ra bola bilan ko'proq ona birga bo'ladi. Axir xalqimiz "Sut bilan kirgan, jon bilan chiqadi" deb bejiz aytmagan. Oilada bolaga ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning asosiy maqsadi ularda axloqiy fazilatlarini hosil qilish va ularni rivojlantirish, ularni yaxshi xulq-atvoriga o'rgatish, ularda ijobiy xatti-harakatlar ko'nikma va odatlarni vujudga keltirishdan iborat.

Oilada bolani tarbiyalashda uchraydigan xatoliklar turli-tumandir. Ular orasida keng tarqalganlaridan biri ota-onalarning haddan tashqari hukmronlikka intilishlaridir; bolaning erka bo'lishi ularga nisbatan biror talabning yo'qligi bilan bog'liq; ota-ona, buvilar tomonidan tarbiyada yagona talablarning yo'qligidir. Oilaviy tarbiyaning ko'p muammolari ota-onalarni pedagogik bilimlardan xabarsiz ekanliklari orqali yuzaga keladi. Bunga ota-onalarning ko'pchiligi axloq, huquqshunoslik, ruhiyat va pedagogik bilimlarni bilmaydilar. Bu esa bola tarbiyasida noxush voqealarga sabab bo'lmoqda. Ota-onalarga mo'ljallangan, ularning tafakkurini va amaliy faoliyatini kuchaytiruvchi, oilada bolaning xulqini va o'zlarining tarbiyaviy ta'sirini tahlil qilishga undovchi pedagogik bilimlarni yanada kengroq targ'ib qilish kerak. Donishmandlar tug'ilgan chaqaloqni oq qog'ozga qiyoslab, uning mazmuni yozuvni yozgan qo'lga bog'liq ekanligini ta'kidlaganlar. Ota-onalar farzand tarbiyasi oldidagi mas'uliyatini avvalo o'zi aniq anglab olishi juda muhimdir. Otalar o'gillariga "sigaret chekma", "aroq ichma" deb o'zlari mehmonga kelgan o'rtog'i bilan "qittay-qittay" qilib o'tirsa birinchiidan, farzandiga "ibrat" bo'ladi, ikkinchidan, farzandi oldida hurmatini yo'qotadi. Demak, ota-onalar farzandini tarbiyasida o'zlari ibrat bo'la olishlari lozim. Oilada bolalar intizomli bo'lib o'smoqlari, ota-onaga bo'ysunishlari lozim. Lekin bu intizom qullikka o'rgatish emas, balki bolalariga xos erka-tantiqlik, o'zboshimchalik singari salbiy xususiyatlarni

yo'qotishiga xizmat qilishi kerak. Ota-onaga bo'ysunishdan bosh tortishga yo'l qo'yish bolaning kelajakda qo'pol, badxulq nokamtarin bo'lib yetishuviga olib keladi. Shu bois, oila ilk axloqiy tarbiya o'chog'i sifatida ham katta ahamiyatga ega. Demak, insonning kamolotga yetishiga ta'lim-tarbiya, muhit va oila muhim hisoblanadi. Ayni damda o'tmishda yashab ijod qilgan Alisher Navoiy, Beruniy, Forobiy, Imom Buxoriy va Xorazmiy kabi buyuk faylasuflarga o'xshagan insonlarni qidiramiz ammo topolmayapmiz? Nega ekanligini hech o'ylab ko'rganmizmi? Sababi ular buyuk va irsiyati toza, ularni tarbiya qilgan ota-onalari kuchli ma'naviyat sohibi bo'lishgan, ular yashab ijod qilgan davrda ilm, ma'rifat va taraqqiyot o'zining cho'qqisiga chiqdi, ya'ni muhit yaxshi bo'lgan va eng asosiysi, ajdodlarimizning tarbiyasiga mas'ul bo'lgan ota-onalari va ustozlari o'z vazifalarini a'lo darajada bajarishgan, tarbiyalarida nuqson bo'lmagan. Agar farzandlarimizning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi bu omillardagi nuqsonlarni bartaraf etsak, albatta kelajak avloddan Imom Buxoriylar kabi zabardast olimlar yetishib chiqadi.

Xulosa o'rnida e'tirof etish lozimki, har qanday jamiyatning taraqqiyoti va fuqarolik jamiyatini barpo qilishda ijtimoiy muhit muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy muhitning asosiy funksiyalaridan biri—shaxsning xatti-harakati, uning taraqqiyotiga ta'sir etuvchi tashqi ob'ektiv omillar majmuasi hamda muayyan tizim bo'lib, u o'zida shaxs imkoniyatlarini shakllantiradi, hayotga joriy etadi. Natijada har bir inson jamiyat hayoti bilan bevosita aloqadorligidagi aniq ijtimoiy faoliyat va muloqot maydonini namoyon qiladi.

Demakki, Mustaqil O'zbekistonda sog'lom fikrli, axloqli, axloqan pok avlodga erishish va shu orqali jamiyatimiz qudratini yanada mustahkamlashda ijtimoiy muhit va oilaning o'rni nihoyatda muhimdir. Zero sog'lom, intellektual baquvvat, avlodgina sog'lom millat – sog'lom jamiyat quradi va sog'lom turmush tarziga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi Nizom-Toshkent: 2019 yil
- 2.F.Qodirova, SH.Toshpo'latova, N.Kayumova, M.A'zamova "Maktabgacha pedagogika" darslik Toshkent-2019. Tafakkur nashriyoti.
- 3.A.Abdusamidov va boshqalar "Mustahkam oila ma'naviyatlari" Toshkent-2012 Sano-standart nashriyoti.
6. "Mustahkam oila-ma'naviy tarbiya maskani" ilmiy to'plam Toshkent 2012 Sano-standart nashriyoti
7. SHoumarov G.B -"Oila pedagogikasi" Toshkent:. SHarq, 2009 yil
- 9.M.Maxsudova "Muloqot psixologiyasi" o'quv qo'llanma Tosh. Turon-Iqbol 2006
- 10.Abdulla Sher "Axloqshunoslik" ma'ruzalar matni Toshkent 2000
- 11.A.A. Bobokeldieva. "Pedagogik mahorat" jurnali. Bola qobiliyatlarini rivojlantirishda ijodiy o'yinlarning ahamiyati 118-bet
12. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishida muloqotning o'rni."Pedagogika va psixologiyada innovasiyalar» jurnali. 2020 y. 9 son, 3 jild,35- bet.



ИЖОДИЙ ЎЙИНЛАР ЁРДАМИДА МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА КРЕАТИВ ҚОБИЛИЯТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.22.78.010>

*Бабаклдиева Азиза Абдусаматовна
Термиз давлат университети ўқитувчиси*

Аннотация: Ушбу мақолада мактабгача ёшдаги болаларни ижодий ўйинлар воситасида уларнинг ижодкорлигини, билиш жараёнларининг фаолиятини, алоҳида қобилиятларини ривожлантиришида шарт-шароитларни яратиш масаласи тўғрисида ёритилган.

Калит сўзлар. Қобилият, ижодкорлик, ўйин, ижтимоий, сюжет, билиш жараёнлари, жамоа, ташиқлот фаоллик, мотив, мақсад.

ФОРМИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА С ПОМОЩЬЮ ТВОРЧЕСКИХ ИГР

*Бабаклдиева Азиза Абдусаматовна
Преподаватель Термезского государственного университета*

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос создания условий для детей дошкольного возраста в развитии их творческих способностей, активности познавательных процессов, индивидуальных способностей посредством творческих игр.

Ключевые слова. Способности, творчество, игра, социальное, сюжет, процессы познания, команда, организационная деятельность, мотивация, цель.

FORMATION OF CREATIVE SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN WITH CREATIVE GAMES

*Babakldieva Aziza Abdusamatovna
Lecturer at Termez State University*

Annotation: This article addresses the issue of creating conditions for the development of preschool children through creative games, their creativity, the functioning of cognitive processes, special abilities.

Keywords. Ability, creativity, play, social, plot, cognitive processes, team, organizational activity, motive, purpose.

Ўйин инсон ўзлигининг намоён бўлиши, унинг такомиллашув усулдир. Ўйин қадим замонлардан бери педагог, психоло, файласуф олимлар диққатини ўзларига тортиб келган. Жумладан, рус педагоги А.С. Макаренко “Бола ўйинда қандай бўлса, ўсиб улғайгач ишда ҳам кўпинча, кўп жиҳатдан шундай бўлади” –деб тўғри айтган эди. [2]. Болалар ўйинлари— болаларни ақлий, ахлоқий, жисмоний ва эстетик тарбиялаш воситаларидан бири. Болалар ўйинлари болаларнинг ҳар томонлама камол топишига катта таъсир қилади. Ўйин вақтида сезги, идрок, тафаккур, хаёл, хотира, диққат, ирода, ҳиссиёт ва руҳий жараёнлар иштирок этади. Болалар ўйинларининг 3 асосий хусусияти бор. Биринчидан, бола ўйин фаолиятини эрки, ўз хоҳиши билан бажаради. Иккинчидан, мазкур фаолиятнинг ижодий ва фаоллигидир. Учунчидан, ўйин ҳаракатларининг жўшқинлиги: бола ўйинга қизиқиб кетади, завқланади, унда ўртоқлик ҳисси кучаяди

Атоқли педагог ва шифокор Е.А. Аркин “Ўйинни руҳий витамин! деб, бекорга айтмаган. Бола ўйнаётиб, ўз билимидан фойдаланишга, уни ҳар хил шароитда ишлата билишга ўрганади. Ижодий ўйинларда болаларнинг фантазияси, ҳис – туйғулари орқали сезишга, қойдади, ривожлантирувчи, ҳаракатли ўйин боланинг сенсор ривожланишини, тафаккур ва нутқини, ихтиёрсиз диққатини, ҳар хил ҳаракатларини мунтазам равишда машқ қилдириб бориш имконини беради.

Ҳар бир ана шундай ўйин маълум дидактик мақсадга эга бўлиб, болани умумий ривожлантиришга қаратилган бўлади.

Файласуф ва социолог олимлардан С.Шермухамедов, Н.Комилов, М.Имомназаров, Қ.Назаров, Ж.Туленов, А.Бегматов, М.Бекмуродов, И.Каримов, А.Умаров, Н.Жўраев, Т.Маҳмудов, Э.Ю.Бсупов, ва бошқалар мактабгача ёшдаги болаларга таълим – тарбия беришда ижодий ўйинларнинг моҳияти каби масалаларни атрофлича тадқиқ қилганлар. Ўйин бу бола фаолиятининг тури. Шундай экан, бир фаолиятда бўлгани каби унга ҳам ўқотар хислатлар: мақсаднинг мавжудлиги, режали ҳаракатлар, натижанинг мавжуди кабилар хосдир. Н.К. Крупская болалар ривожланиш ига қараб, унинг ўйинда ўз олдига қўядиган мақсадининг табиати ҳам ўзгаришини болалар тақлиди ҳаракатлардан аста-секин ўйланган асосли мақсадларга ўтишларини кўрсатиб ўтган эди. Бола ўйиндаги мақсадига эришиши учун ўзига шериклар танлайди, зарур ўйинчоқларни топади, ўйин давомида муайян ҳаракат ва қилиқлар қилади. Бошқа фаолият турларида бўлгани сингари ўйин жараёнига боланинг бутун шахсияти, унинг психик билиш жараёнлари, иродаси, хиссиёти ва таъсирчанлиги, эҳтиёж ва қизиқишлари жалб этилади, ўйинда бола фаол ҳаракат қилади, гапиради, ўз билимларини қўллайди.[6]. Ижодий ўйинларда болаларнинг теварак-атрофдан олган таассуротларини акс эттирадлар. Ижодий ўйинларда болалар эркинлиги, мустақиллиги, ташкилотчилик ва ижодкорлик қобилиятлари тўлалигича намоён бўлади. [2]. Ижодий ўйинларни болаларнинг ўзлари ихтиро этадилар. Бунда аввалдан белгиланган қоидалар бўлмайди, ўйин қоидасини болаларнинг ўзлари ўйин жараёнида белгилаб олишади. Ижодий ўйинлар турларига драммалашган ўйинлар, қурилиш ўйинлари, табиий материаллар билан ўйналадиган ўйинлар киради. Ижодий ва сюжетли ўйинларда болаларнинг барча психик просеслари билан бирликда индивидуал хислатлари ҳам шакллланади. Мана шу нуқтаи назардан ўйин мактабгача таълим ташкилотидаги таълим – тарбия ишлари орасида энг асосий, марказий ўринда туради. Демак, мактабгача таълим ташкилотидagi таълим–тарбия ишларини муваффақияти кўп жиҳатдан болаларнинг ўйин фаолиятларини мақсадга мувофиқ ташкил қила билишга боғлиқдир.[1] Ўйин жараёнидаги болалар фаол фаолиятининг психик тараққиёт учун аҳамияти шундаки, болаларнинг турли сифат ва фазилатлари ўйин жараёнида фақат намоён бўлибгина қолмасдан, бунда сифат ва фазилатлар мустаҳкамланади, ўзлаштирилади. Шунинг учун психология нуқтаи назардан оқилона яъни тўғри ташкил қилинган ўйин бола шахсини ҳар томонлама ўстиради ва шунинг билан бирга боланинг бутун психик жараёнларида – сезиш, идрок, диққат, хотира, тафаккур, хаёл ва иродани илдам ривожланишига ёрдам беради. Ўйин ўз моҳияти жиҳатидан катта кишиларнинг ҳатти–ҳаракатлари ва хулқ-атворларига фаол тақлид қилишдан иборат бўлиши туфайли болаларда маънавий сифатларнинг мустаҳкамланиши учун ва одоб–ахлоқ қоидаларини билиб олишлари учун кенг имкониятлар беради. Болалар учун ўйин мазмунининг ҳеч бир чегараси йўқ.

Мактабгача ёшдаги болалар қатталар ҳаётини ҳамма томонларини ўз ўйинларида акс эттира оладилар. Ўйиннинг аҳамияти бола шахсининг ўсиб камолотга этишига таъсир кўрсатишдин иборатдир. Ўйин ҳар бир ёш босқичда боланинг теварак атрофдаги дунёни ва кишилар ўртасидаги муносабатларни билиб олишни ифодалайди. Мактабгача ёшдаги болаларда ҳаракатнинг ўсишига ўйиннинг таъсири ҳақида гап борганда аввало шунини айтиш керакки, биринчидан, ўйинни ташкил қилишнинг ўзиёқ мазкур ёшдаги боланинг ҳаракатини ўстириш ва такомиллаштириш учун энг қулай шарт-шароит яратади. Иккинчидан, ўйиннинг бола ҳаракатига таъсир этишининг сабаби ва хусусияти шуки, ҳаракатнинг мураккаб кўникмаларини субъект айнан ўйин пайтида эмас, балки бевосита машғулот орқали ўзлаштиради. Учунчидан, ўйиннинг кейинчалик такомиллашуви барча жараёнлар учун энг қулай шарт-шароитларни

вужудга келтиради. Шу боисдан ўйин фаолияти хатти-ҳаракатни амалга ошириш воситасидан боланинг фаоллигини таъминловчи мутақил мақсадга айланади. [1]. Шундай экан, ўйин мазкур бола учун энг зарур фаолиятга айлана боради ва янги шаклдаги ҳаракатларни, такомиллаштириш, уларни англаган ҳолда эсга тушириш эҳтимоли яққол воқеликка айлана бошлайди. Мазкур ҳаракатларни эгаллаш болада жисмоний машқларни онгли равишда бажариш имкониятини вужудга келтиради.

Сюжетли ролли ўйин ўз хусусиятига кўра акс эттирувчи фаолиятдир. Теварақ-атрофдаги катталар ва тенгдошларининг ҳаёти ва фаолияти бу ўйин мазмуни учун манба бўлиб хизмат қилади. Ўйиннинг сюжети ўз ҳаракати, муносабатлари билан боғланган воқеа, ҳодисалар ва уларнинг ҳаракатлари хурсандчилик ҳиссини пайдо қилади, шунинг учун болани қизиқтириб, унда яхши кайфият уйғотади, бола организмдаги фаолиятни яхшилади. Ўйин боланинг ақлий ривожланишида ҳам муҳим ҳамият касб этади. Болалар ўйнашлари учун маълум воситалар ҳам керак. [6].

Саҳналаштирилган ўйинларда тарбиячи раҳбарлик қилади. Эртаси ёки ҳикоядаги мазмун болаларга яқин, уларнинг ёши ва қизиқишига мос, тушунарли бўлиб бола унга киришиб кета олмагани, асардаги образ ва ҳаракатлар тўғри акс эттирилади. Саҳналаштирилган ўйинга тайёрланиш учун маълум вақт ажратилади ва ҳар бир машғулота аниқ бир масалалар ҳал этиб борилади. [6].

Дидактик ўйин бу боғча ёшидаги болаларнинг ёш ва имкониятларига мос келадиган таълим бериш методидир. Тарбиячи ўз тажрибасига таяниб, бу ўйиндан пассив болаларни жамоага аралаштириш, ҳар хил режалар, вазифаларни кўрқмасдан бажаришлари учун фойдаланади. Дидактик ўйинлар болаларнинг биргаликда ўйнаб, ўз манфаатларини жамоа манфаатлари билан уйғунлаштира олиши бир-бирига кўмаклашиш ва уйғотишнинг муваффақиятидан хурсанд бўлиш каби яхши муносабатларни таркиб топишига ёрдам беради. Ўйинлар шахснинг софдиллик, ростўйлик каби ижобий хислатлари шаклланишига имкон беради. Дидактик ўйинлар болаларнинг амалий фаолияти саналади. Чунки унда болалар машғулотларда олган билимларидан фойдаланадилар. Шунинг учун ҳам дидактик ўйинлар болаларнинг ақлий фаолиятларини кучайтиради, олган билимларидан ҳар хил усулда фойдаланишлари учун ҳаётий шароит яратиб беради.

Ижодий ўйинларда хатти-ҳаракатларни, қоидаларни эгаллаш асосида, ролда мужассамлаштирилган ахлоқий қоидалар ҳам ўзлаштирилади. Ўйинда болалар турмушига, ишларига, жамиятдаги хулқ-атвор меъёр ва қоидаларига ижобий муносабат, муомала маданияти шакллантирилади. Худди шу жараёнда ўйин мавжуд билимларни мустаҳкамлаш воситаси сифатида ҳам юзага келиб, унда бола атроф-муҳитдаги воқеа ва ҳодисаларни акс эттириб, ҳаёлан айна пайтгача олган билимларини қайта тиклайди ҳамда ўйиннинг ана шу ҳаёлий вазияти боланинг ақлий фаолиятининг ривожланишига мунтазам таъсир кўрсатади. Болалар ўйин жараёнида баъзи бир нарсаларни хоҳлаган нарсаларининг номи билан атаб, худди ўша нарсаларини фарз қилиб жуда яхши ўйнайдилар. Масалан, кумни, “шакар”, ўриндикни “машина” деб аташи мумкин. Ўйин ижтимоий фаолият сифатида жамиятда муайян вазифаларни баджаради. Бола шахсини ривожланишига катта ҳисса қўшади. [5].

Боланинг ўйинлар шарт-шароитидан келиб чиқувчи онгил мақсади ҳаракатларни бажариш негизида ўз ифодасини топади ва унинг ўз олдига қўйган мақсади эсда олиб қолиш ва эсга тушириш жараёнларига айланади. Ижодий ўйинлар таълимий ўйин сифатида болаларнинг ёш хусусиятларига мос келадиган ўйинлар сирасига киради. Ижодий ўйинларнинг муҳим белгиси ундаги қоидаларнинг мавжудлигидир. Ўйинда ўйин нияти, ўйин қоидалари, ўйин ҳаракатлари ўртасида узвий алоқа мавжуд. Ўйин мақсади ўйин ҳаракатларининг табиатини белгиласа, ўйин қоидаси ҳаракатлар, хусусан, вазифани ҳал этишга қаратилган ҳаракатларни амалга оширишга ёрдам беради.

Уйин ижтимоий тажрибаларни ўзлаштириш ва қайта яратишга йўналган вазиятларда, фаолият тури сифатида белгиланади ва унда шахснинг ўз хулқини бошқариши шаклланади ва такомиллашади. Мактабгача таълим ташкилотининг бола шахсини ривожлантиришга йўналтирилган таълимни амалга ошириш фаолиятида болаларнинг когнитив (ақлий), коммуникатив (нутқ), ижтимоий-ҳиссий ва жисмоний-мотор ривожланишига шароит яратиш, тарбиячи ва тарбияланувчи ўртасида ишонч муносабатларини шакллантириш, руҳий-эмоционал ҳамда жисмоний зўриқишни бартараф этиш жуда муҳимдир. [7].

Ижодий ўйинлар орқали болаларга янги билимлар, тушунчалар бериб борилади ва албатта қайта ўзида такрорлаш орқали мустаҳкамланади. Бу ўйинларда боланинг ҳар томонлама ривожланиши, билим жараёни, сенсор маданияти, нутқ фаолияти, ақлий қобилиятлари такомиллашади. Шунинг учун ҳам катталар томонидан ўйинни тўғри ташкил этиш ва иштирокчиларини тўғри баҳолаш муҳим аҳамиятга эга.[1].

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Абдувоҳид Исаков-“Таълимда ижодий ўйинлар” номли мақоласи.
2. Қодирова Ф.Р, Тошпўлаова Ш, Каюмова Н -Мактабгача педагогика.Т-2019йил.
3. Қодирова Ф.Р, Қодирова Р.М-Болалар нутқини ривожлантириш назарияси ва методикаси Т-2006 йил.
4. Каюмова Н-Мактабгача педагогика-Т-2003 йил.
5. А.Исаков-“Таълимда ижодий ўйинлар”-Т-2019йил
6. Ш.Шодмонова-Мактабгача таълим педагогикаси-Т-2008йил 121-128 бет
7. М.А.Норбошева-“Мактабгача ёшдаги бола шахсини ривожлантиришда ўйинли технологиялардан фойдаланишнинг аҳамияти”. ПЕДАГОГИК МАҲОРАТ 2 (78) 2021 125 бет.



**АЛГЕБРАИК МАСАЛАНИ ЕЧИШНИ ГЕОМЕТРИК ЧИЗМАЛАРДАН
ФЙДАЛАНИБ ЕЧИШ ҲАҚИДА**

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.89.43.009>

Абраев Бахром Холтўраевич

Термиз давлат университети катта ўқитувчиси

Имамов Ойбек Шаназарович

Термиз давлат университети ўқитувчиси

Аннотация: Математик масалаларни турли усуллар билан ечишни ўргатиш ўқувчи ва талабаларнинг ижодкорлик қобилиятини шакллантириш омилларидан бири ҳисобланади. Ушбу ишда, айнан алгебраик масалани геометрик чизма ёрдамида ечишни ўргатиш методикаси ҳақидаги фикрлар баён қилинган ва мисоллар ёрдамида асосланган.

Калит сўзлар: алгебраик масала, алгебраик масалани ечиш, геометрик чизма, математик ижодкорлик, қобилият, интеграция, гоя, фикрлар кетма-кетлиги, изчиллик.

**О РЕШЕНИИ АЛГЕБРАИЧЕСКОЙ ЗАДАЧИ С ПОМОЩЬЮ
ГЕОМЕТРИЧЕСКИХ ГРАФИКОВ**

Абраев Бахром Холтўраевич

Старший преподаватель Термезское государственной университета

Имамов Ойбек Шаназарович

Преподаватель Термезское государственной университета

Аннотация: Обучение решению математических задач разными способами - один из факторов, формирующих творческие способности школьников и студентов. В этой статье описаны и основаны на примерах идеи о том, как научить решать точную алгебраическую задачу с помощью геометрического графика.

Ключевые слова: алгебраическая задача, решение алгебраических задач, геометрический графика, математическое творчество, умение, интеграция, идея, последовательность идей, последовательность.

**ON SOLVING AN ALGEBRAIC PROBLEM USING GEOMETRIC
GRAPHS**

Abraev Bakhrom Kholturayevich

Senior lecturer at Termez State University

Imatov Oybek Shanazarovich

Teacher of Termez State University

Annotation: Learning how to solve math problems in different ways is one of the factors that shape the creativity of schoolchildren and students. This article describes and based on examples ideas on how to teach how to solve an exact algebraic problem using geometric graphics.

Keywords: algebraic problem, solving algebraic problems, geometric graphics, mathematical creativity, skill, integration, idea, sequence of ideas, sequence.

Ўқувчилар ва талабаларни ижодкорлик ва ўйлаб топишга мавжуд турли усуллар ёрдамида ўргатиш мақсадга мувофиқдир.

Бу ижодкорлик олинган тажрибага кўра келмайди. Албатта, уларга математик масалаларни турли усуллар билан ечишни ўргатиш ўқувчи ва талабаларнинг

математик ижодкорлик қобилиятини ривожлантириш омилларидан биридир. Чунки барча ўрганувчиларни масала ечишни билишга ўргатишга эришиш математиканинг асосий мақсадларидан биридир.

Математика методикасида масалани ечиш уч босқичда амалга оширилади: 1) ўрганиш; 2) формаллаштириш; 3) ўзлаштириш, шунингдек натижаларни текшириш.

Биринчи босқич масала шартини тахлил қилишда хулоса қилинадиган жараён бўлади, натижаларга кўра масалани ечиш учун пайдо бўладиган ғоялардан иборат. Бундай усул ёки методлардан бири кузатиш ёки эксперимент тан олинади. Бундай ҳолда агар геометрик масала бажариладиган бўлса, у ҳолда оптимал ечиш методига олиб борувчи маълум маъно берувчи геометрик образлар яратилади. Биринчи босқич ҳолатини кетма-кет шакллантиришга қийинлаш мумкин. Уларни текшириш масалани ечишга олиб келиши мумкин. Шу тариқа ўрганиш интуитив ва эвристик даражага кўтарилади.

Иккинчи босқич формаллаштириш, илгари сурилган ғоялар занжирига эга бўлишини исботлаш жараёни бўлади, у масалани ечишга олиб келади.

Учинчи босқич бу ўзлаштириш ва олинган натижаларни текшириш бўлиб унда якуний ечимнинг тўғрилигини текшириб кўришдан иборат, бу ечим билимлар тизимини тўқинлайди, ўқувчининг интеллектуал фикрлашини кенгайтиради.

Геометрия фани ва алгебра фани турли предмет бўлсада, уларнинг ташкил этувчи қисмлари бир бутунга тегишлидир. Платон “Геометрия барча мавжудотни билишдан иборат” деб эътироф этганлар.

Турли кўринишдаги масалаларни ечишга геометрик ёндашув турлича имкониятларга эгаллигини кўришимиз мумкин. Жуда кўп масалалар аввал геометрик образни яратиш, сўнгра бу образнинг геометрик интерпретациясини чизиш орқали ечиш мумкинлигига олиб келинади. Айнан ушбу тенгламанинг ечимини геометрик интерпретациясини чизиш орқали ечилишини кўриб чиқамиз.

$$1 - \text{мисол. } \sqrt{9 + x^2 - 3x\sqrt{3}} + \sqrt{x^2 + y^2 - xy\sqrt{3}} + \sqrt{x^2 + y^2 - 4y\sqrt{3}} = 5 \text{ тенгламани ечинг.}$$

Е ч и ш. *Интеграцияланган метод* (алгебраик ва геометрик моделларнинг қўшилишига асосланган)

Катетлари $AC = 3$ ва $BC = 4$ га тенг бўлган ABC тўғри бурчакли учбурчакни қараймиз. Тўғри бурчакни учта тенг қисмга ажратамиз ва ҳосил бўлган кесмаларни $CM = x$, $CN = y$ (агар x ва y лар манфий бўлса, унда улар қарама-қарши томонга қўйилади) деб белгилаймиз.

Косинуслар теоремасига кўра, тенгламанинг чап томонидаги қўшилувчилар мос равишда AM , MN , NB га тенг ва

$$\sqrt{3^2 + x^2 - 2 \cdot 3 \cdot x \cdot \frac{\sqrt{3}}{2}} = AM, \sqrt{x^2 + y^2 - 2 \cdot y \cdot x \cdot \frac{\sqrt{3}}{2}} = MN,$$


$$\sqrt{4^2 + y^2 - 2 \cdot 4 \cdot y \cdot \frac{\sqrt{3}}{2}} = NB. \text{ Булардан } AM + MN + NB = AB \text{ ўринли}$$


бўлади деган хулосага келамиз. Унда $AMNB$ синиқ чизикнинг қисмлари бир тўғри чизикда ётади. Бу эса M ва N нуқталарнинг AB гипотенузада ётишини кўрсатади, бу ерда $x = CM$ кесма ACN учбурчак биссектрисаси, $y = CN$ эса BCM учбурчак биссектрисаси эканлигидан фойдаланиб ушбу тенгламалар системасини тузамиз

$$\begin{cases} x = \frac{3\sqrt{3}y}{3+y} \\ y = \frac{4\sqrt{3}x}{4+x} \end{cases} \text{ бундан } \begin{cases} x = \frac{24}{3+4\sqrt{3}} \\ y = \frac{24}{4+3\sqrt{3}} \end{cases} \text{ ни топамиз.}$$

$$\text{Жавоб: } \begin{cases} x = \frac{24}{3+4\sqrt{3}} \\ y = \frac{24}{4+3\sqrt{3}} \end{cases}$$

Алгебраик масалаларни ечишнинг кўргазмали-геометрик интерпретацияга асосланган усули мавжуд. Шунинг эътирофи эътиш жоизки, масалан, Евклиддаги алгебраик хулосалар аниқ геометрик кўринишга келтирилган. \sqrt{A} кўринишдаги ифода A юзали квадратнинг томони сифатида, a кўпайтма томонлари a ва b бўлган тўғри тўртбурчакнинг юзи сифатида киритилади. Методларнинг бундай тўплами *геометрик алгебра* деб қабул қилинган.





Бундан $\arctg x = \pi/4$ $\arctg 2$ нимани аниқлади? Бу $(-\pi/2; \pi/2)$ ораликдаги тангенс 2 га тенг бўлган сон. Шунингдек, $\arctg 3$ ҳам.

График интерпретациядан фойдаланамиз (5-расм). Равшанки, расмдан $\arctg 2 = x_1$, $\arctg 3 = x_2$. x_1 ва x_2 иррациональ сонлар ва уларнинг қийматларини фақат тақрибан кўрсатиш мумкин. 6-расмдан кўриниб турибдики, $\arctg 2 = \alpha$, $\arctg 3 = \beta$. жавобни бир қийматли аниқлаш мумкин эмас.

Бу масалага геометрик методни қўллаш ҳамто жавобни оғизаки беради.

Куйидаги яшашларни бажарамиз: $\arctg 3 = \angle BAM$, $\arctg 2 = \angle CAN$ (7-расм). У ҳолда $\arctg 1 = \angle BAC$, бу ерда $\angle BAC$ бурчак ABC тўғри бурчакли тенг ёнли учбурчакнинг ўткир бурчаги ($BC = AC = \sqrt{5}$, $AB = \sqrt{10}$, Пифагор теоремасига тескари теоремага кўра эса $AB^2 = AC^2 + BC^2$ га эга бўламиз, бундан $\angle BCA = 90^\circ$, $\angle BAC = 45^\circ$ келиб чиқади. Шундай қилиб, $\arctg 2 + \arctg 3 + \arctg 1 = \angle BAM + \angle BAC + \angle CAN = \angle MAN = \pi$ келиб чиқади. Жавоб: π .

$$3\text{-масала. } \begin{cases} x^2 + y^2 = 9 \\ y^2 + z^2 = 16 \\ y^2 = xz \end{cases} \text{ тенгламалар системасини ечинг.}$$

Е ч и ш. Пифагор теоремасига тескари теоремага кўра, $x^2 + y^2 = 3^2$ тенгламада x ва y сонлар тўғри бурчакли ADB учбурчакнинг катетлари, $AB = 3$ эса гипотенуза бўлади.

Иккинчи $y^2 + z^2 = 16$ тенгламани кўздан кечириб, тўғри бурчакли BDC учбурчакни ясаймиз, бу ерда y ва z катетлар, $BC = 4$ гипотенуза. Учинчи $y^2 = xz$ тенглама y соннинг x ва z нинг ўрта пропорционал қиймати бўлади.

Пропорционал кесмалар ҳақидаги теоремага тескари бўлган теоремага кўра $\angle ABC = 90^\circ$. $AC = (x + z) = \sqrt{9 + 16} = 5$, у ҳолда $AB^2 = AD \cdot AC$, $9 = x \cdot 5$, $x = 9/5$. $BC^2 = DC \cdot AC$, $16 = z \cdot 5$, $z = 16/5$. $BD^2 = y^2 = x \cdot z = 9/5 \cdot 16/5$ ва $BD = 12/5 = y$. Бу усул баъзан илдишларни йўқолишига олиб келиши мумкин, $x = \pm 9/5$; $y = \pm 12/5$; $z = \pm 16/5$. Берилган система учун бошқа таклифлар ҳам бўлиши мумкин, масалан, $xu + yz$; $x + y + z$; $x + y$; $x + z$ ифоданинг қиймати нимага тенг.

Ҳар битта фан асосий тушунчаларга эга. Масалан, классик геометриянинг асосий тушунчалари (таърифланмайдиган тушунчалар) нуқта, тўғри чизик ва текислик ёки сонлар назариясининг асосий тушунчалари бирлик элемент ва натурал сонлардан иборат. Сонларнинг хоссалари ва улар устида бажариладиган амалларни ўрганадиган фан сонлар назарияси дейилади. Сонлар назарияси фанининг асосчилари Пифагор, Евклид, Эратосфен ва бошқалар шулар жумласидандир. Сонлар назариясининг айрим муаммолари содда ифодалансада, уларни ечиш баъзан мураккаб, унга анча вақт кетади, айримлари эса ҳозиргача ўз ечимини топмаган. Масалан, қадимги грек математикларида ҳаммаси бўлиб бўлувчиларининг йиғиндиси бир бирига тенг бўлган иккита сон (соннинг ўзи кирмайди) 220 ва 284 мавжуд бўлган. 18 асрда буюк математик Петербург академиясининг аъзоси Леонард Эйлер яна бундай сонларнинг 65 жуфтини топди (улардан бири 17 296 ва 18 416). Лекин ҳозиргача бундай сонларни топишнинг умумий усули номаълум. 250 йил аввал Петербург академиясининг аъзоси Христиан Гольдбах 5 дан катта ҳар қандай ток сонни учта туб соннинг йиғиндиси кўринишида ифодалаш мумкин деб айтган. Масалан, $21 = 3 + 7 + 11$, $23 = 5 + 7 + 11$ ва ҳоказо. Буни 200 йилдан сўнг буюк совет математиги академик Иван Матвеевич Виноградов (1891-1983) исботлашга эришган. Лекин “2 дан катта ҳар қандай жуфт сонни иккита туб сон кўринишида ёзиш мумкинлиги” ҳозиргача ўз исботини топмаган (масалан, $28 = 11 + 17$, $56 = 19 + 37$, $924 = 311 + 613$ ва ҳоказо).

Адабиётлар

Маргин Голдстейн, Инге Ф. Голдстейн. Как мы познаём. Исследование процесса научного познания / Сокр. пер. с англ. А. Е. Петрова. — М.: Знание, 1984. — 256 с.

О научном методе // truemoral.ru

**IKKI O'LCHOVLI DISKRET DINAMIK SISTEMALARNI O'QITISHDA
GRAFIK TALQIN**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.81.89.008>

Nishonov Samat Nishonovich

Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi

Seytov Shavkat

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ikki o'lchovli diskret dinamik sistemalarni o'rganishda grafiklardan foydalanish o'rganilgan. Ikki o'lchovli kvadratik akslantirish uchun qo'zg'almas nuqtalar, grafik tahlil usuli, Julia to'plami, Mandelbrot to'plami xossalari sonli va grafik usulda keltirilgan.

Kalit so'zlar: Qo'zg'almas nuqta, davriy nuqta, bifurkatsiya, Julia to'plami, Mandelbrot to'plami.

**ДВУХМЕРНЫЕ ДИСКРЕТНЫЕ ДИНАМИЧЕСКИЕ СИСТЕМЫ
ГРАФИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ В ОБУЧЕНИИ**

Нишонов Самат Нишович

Старший преподаватель Термезского государственного университета

Шавкат Сейидов

Базовый докторант Национального университета Узбекистана

Аннотация: В данной статье изучалось использование графиков при изучении двумерных дискретных динамических систем. Для двумерного квадратичного отражения свойства неподвижных точек, графического метода анализа, множества Юлиана, множества Мандельброта представлены численным и графическим методами.

Ключевые слова: неподвижная точка, периодическая точка, бифуркация, коллекция Джулии, коллекция Мандельброта.

**GRAPHICAL INTERPRETATION FOR THE STUDY OF TWO
DIMENSIONAL DISCRETE DYNAMICAL SYSTEMS**

Nishonov Samat Nishonovich

Senior lecturer at Termez State University

Seytov Shavkat

Base doctoral student of the National University of Uzbekistan

Annotation: this article examines the use of graphs in the study of two-dimensional discrete dynamic systems. The properties of fixed points for two-dimensional quadratic reflection, the method of graphical analysis, the set of Julia, the set of Mandelbrot are presented in the numerical and graphical way.

Keywords: fixed point, davriy point, bifurcation, Julia collection, Mandelbrot collection.

Suppose we have the two-dimensional mapping

$$Q_{c_1c_2} : \begin{cases} x' = f(y, c_1) \\ y' = f(x, c_2) \end{cases}$$

From [3] we know that graphical analysis of (x_0, y_0) for $Q_{c_1c_2} = \begin{cases} x' = y^2 + c_1 \\ y' = x^2 + c_2 \end{cases}$




Fig. 1.

It is true that $Q_{c_1c_2}$ quadratic mapping maps the vertical interval to the horizontal interval and inversely. Interval may be contract or extend. This proves the following statement.

Lemma. There are may be only one fixed point on one horizontal and one vertical line for (1).

Let the graph of $x = f(y, c_1)$ tangents with the graph of $y = f(x, c_2)$ externally and denote tangent point by (a, b) . Then this point is fixed point for $Q_{c_1c_2}$.

Definition 1. The filled-in Julia set for quadratic operator Q_{ab} is

$$K_{Q_{ab}} = \left\{ X \in \mathbb{R}^2 \mid \text{the orbit } \{Q_{ab}^n(X)\}_{n=0}^{\infty} \text{ is bounded} \right\}$$

Then its boundary coincides with the **Julia set**: $J_{Q_{ab}} = \partial K_{Q_{ab}}$

Definition 2. The basin of attraction point (x_p, y_p) of quadratic operator Q_{ab} is the set of points (x, y) such that $|Q_{ab}^n(x, y) - Q_{ab}^n(x_p, y_p)| \rightarrow 0$ as $n \rightarrow \infty$.

Definition 3. The Mandelbrot set $M_{Q_{ab}}$ for quadratic mapping Q_{ab} is the set of points in (a, b) parameter plane, which the orbits of the all critical points are bounded.

$Q_{c_1c_2}$ quadratic mapping maps the rectangles to the rectangles, length and wide may be contract or extend.

Theorem 1. Graphical analysis shows that the points does not belong to rectangle with vertices $(\pm a, \pm b)$ are tend to infinite. The points belong to rectangle with vertices $(\pm a, \pm b)$ are tend to (a, b) . It means the set all points belong to rectangle with vertices $(\pm a, \pm b)$ is the filled Julia set for $Q_{c_1c_2}$.

Theorem 2. Orbits of every points by $Q_{c_1c_2} = \begin{cases} x' = y^2 + c_1 \\ y' = x^2 + c_2 \end{cases}$ in the Julia set, does

not go out from the box $c_1 \leq x \leq \sqrt{c_1 - c_2}$, $c_2 \leq y \leq c_2^2 + c_2$.

We denote the greater fixed point of $Q_{c_1c_2}$ by (a, b) then other fixed points.

$$\begin{cases} a = b^2 + c_1 \\ b = a^2 + c_2 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} c_1 = a - b^2 \\ c_2 = b - a^2 \end{cases} \Rightarrow Q_{ab} = \begin{cases} x' = y^2 + a - b^2 \\ y' = x^2 + b - a^2 \end{cases} \quad (2)$$

When the bottoms of parabolas belong to rectangle with vertices $(\pm a, \pm b)$ the Julia set is totally connected set and this rectangle. If one of parabola's bottom does not belong to $(\pm a, \pm b)$ rectangle the Julia set changes from totally connected set $b - a^2 \geq -b$ and $a - b^2 \geq -a \Rightarrow a^2 \leq 2b, b^2 \leq 2a$. Let the bottom of $x = y^2 + a - b^2$ is out from $(\pm a, \pm b)$ rectangle $a^2 > 2b$. But the bottom of $y = x^2 + b - a^2$ belongs to $(\pm a, \pm b)$ rectangle in this case $b^2 \leq 2a$ Fig. 2.

It is easy to find the coordinates of C, C', D, D' . $C(-a, \sqrt{b^2 - 2a}), C'(-a, -\sqrt{b^2 - 2a}), D(a, \sqrt{b^2 - 2a}), D'(a, -\sqrt{b^2 - 2a})$. If the bottom of $y = x^2 + b - a^2$ belongs to $ABCD$ then the Julia set is consist of $ABCD$ and $A'B'C'D'$ disconnected rectangles. $A'B'C'D'$ is the pre-image of $ABCD$. The orbit of every point in $ABCD$ leaves in $ABCD$.




Fig. 2.




Fig. 3.

The orbit of every point in $A'B'C'D'$ jumps to in $ABCD$ at the first iteration. The set of points below CD and above $C'D'$ go out from $ABCD$ at one iteration and tend to infinity. The set of such all points which go out from $ABCD$ at one iteration we denote by $M_1, Q_{ab}(M_1) \not\subset ABCD$. Let the bottom of $y = x^2 + b - a^2$ is below CD . Fig. 3. It is tame by graphical analysis all point belong to yellow rectangles jump to green rectangle at one iteration and at second iteration go out from $ABCD$. The vertical ends of yellow rectangles do not go out from $ABCD$. The set of such all points which go out from $ABCD$ at two iterations we denote by $M_2, Q_{ab}(M_2) \subset M_1$. We continue such fashion the set of such all points which go out from $ABCD$ at tree iterations we denote by $M_3, Q_{ab}(M_3) \subset M_2$. M_n is the set of such all points which go out from $ABCD$ at n iterations $Q_{ab}(M_n) \subset M_{n-1}$. Are there any points left after we throw out all of these rectangles from $ABCD$?

The ends of rectangles and the fixed points, eventually fixed points, periodic points, eventually periodic points left in $ABCD$? The set of all points left in $ABCD$ forever is Cantor type set we denote in by Λ

$$\Lambda = \{ |x| \leq a, |y| \leq b \} \setminus \sum_{i=1}^{\infty} M_i.$$


The $b = a^2 / 2, a = b^2 / 2, b^4 - 2ab^2 + 2b = 0, a^4 - 2a^2b + 2a = 0$ curves mean some boundaries of Mandelbrot set. We know from [1]

$4ab+12(a+b)-2\sqrt{(2a+2b+3)^3}+9=0$ and $4ab+12(a+b)+2\sqrt{(2a+2b+3)^3}+9=0$ curves some boundaries of Mandelbrot set.

Theorem 3. The closed set bounded with curves which graphics of following functions on $R^2 = (a, b)$ parameter space

(a) $b = a^2 / 2$ and $a = b^2 / 2$. (b) $b = \frac{a^3 - 2}{2a}$ and $a = \frac{b^3 - 2}{2b}$ (c) $4ab = 1$

coincides with the boundaries of the set of Mandelbrot for quadratic mapping Q_{ab} .



Reference

1. Ganikhodzhayev R.N., Narziyev N.B., Seytov Sh.J. Multi-dimensional case of the problem of Von Neumann- Ulam. Uzbek Mathematical Journal Vol. 3, Issue 1, 11-23 (2015).
2. Devaney R. L. An Introduction to Chaotic Dynamical Systems. New York, (1989).
3. Seytov Sh. J., Ganikhodzhayev R.N. The method of graphical analysis for some two dimensional dynamical systems. Bulletin of the Institute of Mathematics. Vol 2. Issue 4, 22-26 (2020.)

OILADA BOLALARNI MA'NAViy-AXLOQiy TARBIYALASH MASALALARI

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.96.60.007>

Umarova Aziza Abdusamatovna

Termiz davlat universiteti

Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari yoritilgan. Oilada to'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiya maktab uchun katta madaddir va aksincha, oilada tegishli tarbiya ishlari olib borilmasa, bu xolda maktabgacha ta'lim muassasasi va maktabning ta'lim-tarbiya ishini juda qiyinlashtirib qo'yadi. Jamiyat ma'naviy hayotida yuz beradigan salbiy illatlarning genezisini bola tarbiyasida yo'l qo'yilgan xatolar oqibati deb bilmoq zarur. Oila hayotini asli muddaosi va bosh maqsadi bolalar tarbiyasining bosh maktabi esa oiladagi o'zaro munosabatlar hisoblanadi.

Kalit so'zlar: oila, tarbiya, an'ana va qadriyatlar, jamiyat, bola, ota-ona, maktabgacha ta'lim, sog'lom muhit.

ВОПРОСЫ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ

Умаров Азиза Абдусаматовна

Преподаватель Термезский государственный университет

кафедры методики дошкольного образования

Аннотация: В статье освещаются вопросы духовно-нравственного воспитания детей в семье. Правильно организованное воспитание в семье является большой необходимостью для школы, и наоборот, если в семье не проводится надлежащая воспитательная работа, то это сильно затрудняет учебно-воспитательную работу дошкольного учреждения и школы. Генезис негативных пороков, происходящих в духовной жизни общества, следует рассматривать как следствие ошибок, допущенных в воспитании ребенка. Основной школой воспитания детей являются взаимоотношения в семье.

Ключевые слова: семья, воспитание, традиции и ценности, общество, ребенок, родитель, дошкольное образование, здоровая среда.

ISSUES OF MORAL AND MORAL EDUCATION OF CHILDREN IN THE FAMILY

Umarova Aziza Abdusamatovna

Teacher of the Department of methods of preschool education

Annotation: The article covers the issues of moral and moral education of children in the family. Proper education in the family is a great complement to the school, and if, on the contrary, the family does not carry out appropriate educational work, then in this case, the pre-school education institution and the educational work of the school are very difficult. It is necessary to consider the genesis of negative ills that occur in the spiritual life of society as a consequence of mistakes made in the upbringing of the child. The main purpose and purpose of the family life is mutual relations in the family while the main School of child education.

Keywords: family, education, traditions and values, society, child, parent, preschool education, healthy environment.

Barchamizga ma'lumki, oila - bu insonni kamolotga yetkazuvchi maskan. Ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari ham dastlab oilada kurtak ochadi. Shuningdek, oila insoniyat hayotining abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-

odatlarimizni saqlaydigan, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i hamdir.

O'zbekistonning birinchi Prezidenti, davlat arbobi muhtaram Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida oilaning bola tarbiyasidagi rolga yuqori baho berib shunday yozadi: «Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi».

Oila o'z vazifasini lozim darajada amalga oshirishi uchun unga tegishli ma'rifiy-metodik qurollantirish, ijtimoiy, ma'naviy, tadbirlarni o'tkazish yo'li bilan unga yordam berib borish zarur. Xalqimizning buyuk ma'rifatparvari Abdurauf Fitrat 1916 yilda «Oila» nomli falsafiy asarini yozgan bo'lib, unda oilaviy hayotni islohotidan bahs yuritilgan va adib najot yo'llarini axtarib xalqlarning umuminsoniy qardoshlik g'oyasini targ'ib etgan. Fitrat oilani ijtimoiy vazifalari deb, «Avlod tarbiyasi», «Fikriy tarbiya», «Axloqiy tarbiya» kabi qismlarga bo'ladi.

Insonning ma'naviy va aqliy xislatlarini, asosan, uning olgan tarbiyasi, yashagan muhiti belgilaydi, deb hisoblagan. Agar, yaxshi tarbiya insonning eng qimmatli boyligi bo'lsa, noto'g'ri tarbiya uning uchun chinakamiga baxtsizlikka, xatto, xalokatga aylanishini uqtirgan. Shuning uchun maktab tarbiyasi bilan bir qatorda oila tarbiyasiga ham katta ahamiyat bergan. Oilada to'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiya maktab uchun katta madaddir va aksincha, oilada tegishli tarbiya ishlari olib borilmasa, bu xolda maktabning ta'lim-tarbiya ishini juda qiyinlashtirib qo'yadi.

Jamiyat ma'naviy hayotida yuz beradigan salbiy illatlarning genezisini bola tarbiyasida yo'l qo'yilgan xatolar oqibati deb bilmoq zarur. Oila hayotini asli muddaosi va bosh maqsadi bolalar tarbiyasining bosh maktabi esa oiladagi o'zaro munosabatlardir.

Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash ustida to'xtalganda, milliy-axloqning o'ziga xos xususiyatini ochib bermoq zarur. Milliy axloq ota-bobolarimizning tarixiy tajribalari, davrlar sinovdan o'tgan hayot saboqlari va o'git ko'rsatmalari jamuljamdir. Ana shu tufayli milliy ahloqiy qadriyatlarimiz asrlar osha avlodlardan-avlodlarga o'tib kelmoqda. Har qanday axloqiy fazilat u yoki bu yo'sinda insonda xatti-harakat tartibga solinishining ifodasi bo'lib, insonga bo'lgan hurmat e'tibor, mehr-muhabbatni bildirar ekan, u umubashariy mazmunni beradi. Zotan, har qanday shaxs odamzotning bir zarrasi ekan, unda butun odamzotning mohiyati mujassam, shuning uchun ham butun insoniyatga mansubdir.

Shunga ko'ra, har bir ota-ona o'z farzandi tarbiyasida, uni barkamol inson bo'lishida umuminsoniy ma'no va mazmunni ko'rmog'i lozim. Bolaning axloqiy fazilatlarini umuminsoniy xarakter kasb etib umumbashariy qadriyatga aylanishini anglab yetgan ota-ona farzandlari tarbiyasidagi ma'suliyatni chuqur his qilmoqlari maqsadga muvofiqdir. Milliy axloq milliy tarbiya natijasida tarkib topadi. Milliy tarbiya negizida oilaviy tarbiya yotadi. Oilaviy tarbiya esa tarixan tarkib topgan xalq pedagogikasiga asoslanadi.

Oilada shaxsni ma'naviy-axloqiy shakllantirish bolaning tug'ilishidanoq boshlanadi va u oilaviy munosabat, xarakter, ota-onalarning namunasi, ulardagi umumta'lim darajasi, umummadaniy saviyasi, hamda umumpedagogik madaniyati va oilaviy hayotni tashkil etishdan iborat.

Darhaqiqat, har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rta qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsa ularning sobitqadam g'ayrat-shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanligini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir.

Shu nuqtai nazardan, oilaviy an'analar, rasm-rusmlar va odatlar orqali bolalarimiz ongiga milliy g'oyani va istiqloq mafkurasini singdirishni ta'minlovchi psixologik

omillar va shart-sharoitlarni aniq bilish o'ta dolzarb va muhim vazifadir.

Oiladagi sog'lom muhit insonni halol va pokiza bo'lishiga, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarga alohida e'tibor berishga dav'at etadi, chunki insonning ma'naviy va ahloqiy xislatlarini, muomala madaniyatini, uning oilasi, oilada olgan tarbiyasi, yashagan muhiti belgilaydi.

Ta'kidlash joizki, oila ijtimoiy institut sifatida o'zining barcha vazifalarini bajargan taqdirdagina, mafkuraviy tarbiyaning kafolatli o'chog'iga aylanadi. Zero, har bir oilaning muqaddas vazifasi – qobiliyatli farzandlarni o'stirish, ularni jismoniy, intellektual va ma'naviy tomondan yetuk qilib, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdan iborat. Ya'ni, ham ma'naviy, ham jismoniy jihatdan sog'lom, barkamol inson faqat sog'lom oilada shakllanishi mumkin. Oiladagi sog'lom muhit va barqarorlik esa yaxlit jamiyat ma'naviy takomilining aslosidir.

Ma'lumki, iymonlilik, insonparvarlik, diyonat, e'tiqodlilik kabi shaxs mafkuraviy tasavvurlarining asosida yotgan fazilatlar o'smirning eng avvalo oilaviy munosabatlar tizimida tutgan o'rnidan, ota va ona, oiladagi boshqa katta avlod vakillarining ijtimoiy mavqeyari va roli mazmunidan kelib chiqadi. Zero, mafkuraviy tasavvurlar hamda ular asosida shakllanuvchi insoniy fazilatlar shaxsning yaxlit strukturasiidagi muhim omillardan hisoblanadi.

Milliy g'oyani oila muhitida bolaning ongi, qalbiga singdirishning muhim vositasi – bu oilaviy qadriyatlarni saqlash va ilg'or oilaviy an'analarni kundalik tarbiya tizimiga joriy etish, turmush tarzining bir bo'lagiga aylantirishdir. Bunda ota-onaning o'zni va roli bevosita xarakterga ega bo'lib, faqat sog'lom muomala va samimiyat muhitigina o'smirning dunyoqarashi shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rtaga qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsa ularning sobitqadam g'ayrat-shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanligini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir.

Shu nuqtai nazardan, oilaviy an'analari, rasm-rusumlar va odatlar orqali bolalarimiz ongiga milliy g'oyani va istiqloq mafkurasini singdirishni ta'minlovchi psixologik omillar va shart-sharoitlarni aniq bilish o'ta dolzarb va muhim vazifadir. Vaholanki, har bir oilaning muqaddas vazifasi – qobiliyatli farzandlarni o'stirish, ularni jismoniy, intellektual va ma'naviy tomondan yetuk, axloqan pok, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdan iborat. Bolaning psixik jihatdan rivojlanishi, shaxs sifatida shakllanishi uning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi obyektiv va subyektiv omillarga, xususan, oilaviy munosabatlar psixologiyasiga, ota-onaning bolaga ta'siri, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarining kasbiy mahorati, pedagogik-psixologik bilimdonligi hamda mahalla a'zolari ta'siri va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar holatiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. [34,11]

Zero, ham ma'naviy, ham jismoniy jihatdan sog'lom, barkamol inson faqat sog'lom oilada shakllanishi mumkin. Oiladagi sog'lom muhit va barqarorlik esa yaxlit jamiyat ma'naviy takomilining asosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

2. "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi Nizom-Toshkent: 2019 yil

1.F.Qodirova, SH.Toshpo'latova, N.Kayumova, M.A'zamova "Maktabgacha pedagogika" darslik Toshkent-2019. Tafakkur nashriyoti.

3.A.Abdusamidov va boshqalar "Mustahkam oila ma'naviyatlari" Toshkent-2012 Sano-standart nashriyoti.

6. "Mustahkam oila-ma'naviy tarbiya maskani" ilmiy to'plam Toshkent 2012 Sano-standart nashriyoti

9.M.Maxsudova "Muloqot psixologiyasi" o'quv qo'llanma Tosh. Turon-Iqbol 2006

10.Abdulla Sher "Axloqshunoslik" ma'ruzalar matni Toshkent 2000

11. Norbosheva M.O. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishida



**ТАЛАБАЛАРНИНГ МУҲАНДИСЛИК КАСБИГА ОИД ИЖОДИЙ
ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДИДАКТИК
ТАЛАБЛАРИ ВА ШАРТЛАРИ**

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.96.60.777>

Эшқувватов Улуғбек Абдулло ўғли,

Тошкент давлат техника университети

*Термиз филиали “Транспорт иншоотлари ва автомобиль йўллари” кафе-
драси ўқитувчиси*

Аннотация: Мақолада олий таълим муассасалари талабаларининг муҳандислик касбига оид ижодкорлик қобилиятларини ривожлантиришнинг дидактик талаблари ва шартларини бажариши орқали бўлажак муҳандисларда касбга йўналтирилганлик ижодий қобилиятни шакллантириш масаласи баён қилинган.

Калит сўзлар: талаба, таълим, тарбия, муҳандис, ижод, қобилият, дидактик, ўқув жараёни, қизиқиши, кўникма, малака, касб, самарадолик.

**ДИДАКТИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ И УСЛОВИЯ ДЛЯ РАЗВИТИЯ
ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ ПО ИНЖЕНЕРНОЙ
ПРОФЕССИИ**

Эшқувватов Улуғбек Абдулло ўғли,

Ташкентский государственный технический университет Преподаватель кафедры «Транспортные средства и автомобильные дороги» Термезского филиала

Резюме: В статье рассматривается проблема формирования творческих способностей, направленных на профессию будущих инженеров, путем выполнения дидактических требований и условий для развития творческих способностей, связанных с инженерной профессией студентов высших учебных заведений.

Ключевые слова: Студент, образование, инженер, творчество, способности, дидактика, учебный процесс, интерес, навыки, квалификация, профессия, эффективность.

**DIDACTIC REQUIREMENTS AND CONDITIONS FOR THE
DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES OF STUDENTS IN THE
ENGINEERING PROFESSION**

Eshkuvvatov Ulugbek Abdullo o'g'li,

Termiz branch of Tashkent State Technical University

Teacher of the department “Transport buildings and automobile roads”

Summary: The article describes the issue of formation of creative abilities directed to the profession of future engineers by fulfilling didactic requirements and conditions for the development of creative abilities related to engineering profession of students of higher educational institutions.

Keywords: Student, education, upbringing, engineer, creativity, ability, didactic, educational process, interest, skills, qualification, profession, efficiency.

Ривожланган давлат иқтисодиёти кўпчилик ҳолатларда истиқболли илмий-техник ғоялар келиши ва амалга тадбиқ тезкорлигига боғлиқ бўлади. Бунинг учун илмий-тадқиқот ижодкорлик иши натижадорлигини кескин ошириш лозим. Ишнинг муваффақияти кўпинча мутахассислар малакаси, уларнинг мураккаб илмий-тадқиқот, тажриба-конструкторлик ва ташкилий

масалаларни ижодий ҳал қилиш қобилиятига боғлиқ бўлади.

Бундай мутахассисларни шакллантириш муаммоси асосан фундаментал, амалий тадқиқотлар ҳамда олий таълим тизими доираларида ҳал қилинади. Олий таълим тизимида илмга қизиқувчи талабаларни аниқлаш ва танлаш, уларни тарбиялаш йўлга қўйилиши лозим. Шу сабабли олий таълим муассасаларида ўқитишнинг дидактик асосларини такомиллаштириш зарурияти пайдо бўлади.

Ижодий фикрлаш қобилиятига эга талабаларни тарбиялашни уларни илмий тадқиқот ишларига жалб қилиш, натижаларни ишлаб чиқаришга тадбиқ қилиш орқали амалга ошириш мумкин.

Талабаларни мутахассислик- ижодий йўналтириш уларни услубият асоси ва илмий ижодкорлик тажрибасини ўргатиш орқали бажарилади.

Шу сабабли олий таълим муассасаларида талабаларда илмга йўналтирилганлик ижодий қобилиятни шакллантириш орқали амалга оширишни ўрганиш долзарб масала ҳисобланади.

Турли муаллифлар томонидан эълон қилинган касбий компетенция муаммолари тўғрисидаги илмий мақолаларда ижодий изланиш энг асосий сифатлардан бири эканлиги қайд этилади. Мазкур тадқиқотимизда мутахассиснинг касбий компетенциясида ижодкорлик масаласига алоҳида урғу берилган бўлиб, у мутахассисда касбий-педагогик ижодкорликни ривожлантиришни назарда тутди.

Ижодкорлик ҳақида фикр юритар эканмиз, аввало ижодкорликнинг моҳиятини мукамал таҳлил қилиб олиш зарур. Ижодкорлик моҳиятини ўрганиш, айтиш жоиз бўлса, ўта мураккаб масала саналади, чунки унинг зиммасига инсон ва табиатни ўрганишнинг муҳим методологик масалаларини ечишдек вазифа қўйилади. Ижодкорликни ривожлантириш манбалари, биологик ва ижтимоий, объектив ва субъектив, индивидуал ва жамоа ўртасидаги ўзаро мутаносибликни бу жараёнлар ўз ичига қамраб олади.

Ш.С.Шарипов ихтирочиликни «тегишли идоралар томонидан патентлар билан тасдиқланадиган янги техник ечимни ишлаб чиқишга йўналтирилган ижодий фаолият тури, ихтирочилик ижодкорлиги эса бу жараённинг шахсдаги зехнлилик, топқирлик, мустақил ва танқидий фикрлаш каби ижодкорлик сифатлари билан боғлиқ умумий тавсифи», деб таърифлаган» [17].

Г.Гегел дунё ижодий фаолият умумий схемасини “мутлоқ ғоя” деб атаб, биринчи марта турли фаолият асосини ривожланиш асосига қарама –қарши эканлигини кўрсатган эди.

Ижодкорликнинг асосий қирралари В.С.Библер, Ж.Брунера, А.В.Брушлинской, Л.С.Выготский, И.Я.Гальперин, И.П.Гильфорд, В.В.Давыдов, Г. Кляус, Ю.Н.Кулюткин, А.Н.Леонтьев, А.М.Матюшкин, Ж.Пиаже, Я.А.Пономарев, К.Поппер, С.Л.Рубинштейн каби машхур файласуфларнинг асарларида келтирилган.

О.В.Афанасьев ва В.В.Зотовларнинг асарларида ижодкорлик мураккаб, кўп қиррали, ижтимоий-маънавий ходиса сифатида кўрилган. М.С. Каган, Б.М. Кедров, В.Ф.Овчинников ва бошқалар асарларида ижодкорлик, унинг тузилиши, ва шахс ривожланишида ижодкорлик таъсири ўрганилган [18].

М.Г.Ярошевский ижодкорлик – янгилик яратишдир деб таъкидлаб ўтган эди. Уни шундай тушуниш керакки, бунда субъектнинг тасаввурлари янгиланади ва ҳуққ атвори, у яратган ва инъом этаётган маҳсулотлари ҳам яхшиланади»[13]. Ўхшаш таъриф ва белгиларни у ёки бу шаклда бошқа кўплаб ижодкорлар фаолиятларида ҳам кузатиш мумкин. Масалан, С.Л.Рубинштейннинг таъкидлашича, ижодкорлик қандайдир янгилик яратувчи фаолиятдир. Янгилик олиб кириш ижодкор юксалишига сабаб бўлади. Шу билан бирга, фан ва маданият тараққиёти тарихида ҳам ўз изини қолдиради [12].

Иждорлик «қайта шаклантириш» – мавжуд шакл унсурлари ёрдамида янги шакл яратиш демакдир. «Қайта шаклантириш» иждорлиги ўз ичига олдиндан маълум бўлган шаклга ўхшаган янги шаклни кашф этишдир. Иждорлик «бир шаклдан иккинчи шаклга ўтказиш» – бу жараёнда қодаларнинг янги қолипи, чизмаси, маълум тузилмаларнинг янги тури юзага келади. Янги яратилган шакллар эски шаклларнинг янгича талқини бўлмайди. Иждор шахс қодалар яратилиши биланок, уларга суянган ҳолда, янги қодалар яратиш устида иш бошлайди. Ундан сўнг фаолият шакллари очиш, олдин ҳеч қачон қўлланилмаган шаклларни кашф этиш учун бош қотиради.

Бўлажак мутахассиснинг касбий-педагогик иждорлиги ривожланиши ҳақида фикр билдирар эканмиз, бу борада М.Г.Ярошевский томонидан берилган хулосалар диққатга сазоворлигини айтиш жоиз. Олимнинг фикрича иждорлик жараёнига тизимли муносабат уч жиҳатли таркиб ва уларнинг ўзаро узвийлигида ўрганишни тақозо этади. Улар нарса ва ҳодисалар, ижтимоий ва шахсга тааллуқлилик таркиблардан иборатдир: нарса ва ҳодисалар таркиби – эвристика, нарсанинг янги образини яратувчи руҳий «мато», сўнгра у илмий матнга айланади ва янги ғоялар, назариялар ва кашфиётлар сифатида юзага чиқади. Бу эвристикалар: аналоглар, метафоралар, қиёслаш, моделлардан иборат бўлиб, одатда фикрлаш мазмунини ташкил этади ва визуал шакл га эга бўлади; ижтимоий таркиб – бундай иждорлик когнитив-диалогик «дастлабки фаоллиги» сифатида кўзга ташланади. Шундай қилиб, оппонентлар, муқобилликлар ҳам иждорлик жараёнларнинг авж олишига туртки беради; шахсга оид таркиб – шахсий интилиш, ички мақсадли истак ва иждор субъектининг хусусий сифатларидан иборат бўлиб, иждорлик жараёнларни узлуксиз ташкил этишда юзага чиқадиган янги белгилар, ўзгаришлардан иборат» [13].

Педагогикада иждорлик назариясининг асосларини ишлаб чиқиш, фаолият турларида иждорлик жараёнларининг қонуниятларини тадқиқ қилишда психология фани бекиёс аҳамият касб этади. Жумладан, Л.С.Виготский, А.Н.Леонтьев, С.Л.Рубинштейн, Б.М.Теплов каби психолог олимларнинг ишларида иждорлик қобилиятларини ривожлантириш ва иждорлик фикрлаш муаммолари чуқур тадқиқ қилинган» [2]. Инсоннинг иждорлик қобилияти шахс сифати ҳисобланиб, психолог олимларнинг фикрига кўра у тўртта гуруҳга ажратилади:

– интеллектуал сифатлар: дунёқараш, эрудиция, фикрлашнинг иждорлик хусусиятлари (чуқурлиги, кенглиги, танқидийлиги ҳажмлилиги, номантикий фикрлай олиш);

– маҳсуллик сифатлари: эгалланган билимлар ҳамда методларни синтезлай олиш кўникмаси, тадқиқотларни амалга ошириш методологиясини эгалланганлик;

– иродавийлик сифатлари: ўз фаолиятини режалаштириш ва шароитга мослаштириб бориш, ўз-ўзини назорат қила олиш, ғояларни ривожлантириб, аниқ натижага етказа олиш;

– ҳиссий-ижодий сифатлар: интуиция, тасаввур, фантазия» [16].

Биринчи сифат И.Я.Лернернинг нуқтаи назарига боғлиқ. Унга кўра, иждор билан шуғулланувчи кишиларнинг фазилатлари чегарасини ўлчаб бўлмайди, улар ҳақида фикр айтиш учун ана шу фаолият табиатини англамай, унга монанд хислатларни билмай, аниқроғи, унинг иждорлик фаолият жараёнларини ўрганмай туриб гап юритиш мумкин эмас [7]. Шу муносабат билан тадқиқотчи иждорлик фаолиятнинг процессуал чегараларини ажратиб кўрсатади:

– мустақил равишда узоқ ва яқин, ички ва ташқи билимлар тизими ва маҳоратни янги вазиятга кўчиради;

– анъанавий вазиятларда янги муаммоларни ҳис этади;

- объект анъанавий функцияси ўрнига янгисини тасаввур қилади;
- масалаларни ечишда муқобил ечимларни ҳам ҳисобга олади;
- янги муаммоларни ҳал этишда фаолиятнинг олдиндан маълум бўлган усуллари ва йўлларини қайта ишлайди;
- принципиал янги йўллар топиш ниятида эскириб қолган йўллардан воз кечади.

Инсон омилини фаоллаштирувчи самарадор заҳиралардан бири жамият ҳаётининг барча жабҳаларида, ишлаб чиқаришда, техникада, фанда, таълим ва бошқарувда ижодкорликни ривожлантириш ҳисобланади. Шу боис ижодий муаммоларни жамоа бўлиб ечиш шароитлари ва ташкил этиш шакллари, муаммолари кун тартибидаги долзарб масалалардир.

Т.А.Сидорчукнинг илмий ишларини таҳлил этиб, тизимли ижодий фикрлаш шаклланишининг муваффақияти касбий таълим жараёнларида кўпинча ижодий фикрлашнинг асосий унсурлари шаклланиши даражасига боғлиқ эканлиги кўринади ҳамда шахс шаклланишининг дастлабки давларида бошланади, деган фикрни олға суради»[15]. Ана шундай унсурлар таркибига қуйидагилар киради: таҳлил қилиш қобилияти, умумлаштириш, қиёслаш, сабаб ва оқибатлар ўртасидаги боғлиқликни билиш, танқидий фикрлаш ва баҳслашиш, воқеалар ривожини олдиндан тахмин қилиш, ҳар қандай тизим ёки объектга ўтмиш, бугунги кун ва келажак нуқтаи назаридан ёндаша билиш, ҳаракатлар алгоритмининг териш, янги ғояларни кучайтириш ва ечимларни график образ шаклида акс эттириш кабилардир.

В.И.Самохвалованинг таъкидлашича, ижодкор шахси ўзини намоён қилиш учун қудратли кучга эга бўлган одамдир, аммо:

- биринчидан, бу энергияни янгилик яратиш учун сафарбар қилади;
 - иккинчидан, руҳиятида юзага келган вулқонни жиловлай олади»[14].
- Ижодкор одам ижод қилишга чанқоқ бўлади.

Уни амалга ошириш учун қатъият билан ишлашни яхши билади.

М.Махмутов ижодий фаолиятни қуйидагича таърифлаган: «Ижодий фаолият – эвристик фаолият бўлиб, унинг моҳияти муаммони тез тушунишидан, асосий ғоя, тушунчанинг моҳиятини англаб етишидан, ҳаракат усулини тўсатдан топишидан иборат. Бундай фаолият юқори жўшқинлик, субъектнинг объектга катта қизиқиши билан тавсифланади» [9]. Фикримизча, мутахассиснинг касбий-педагогик ижодкорлигининг шаклланишида ҳам процессуал, ҳам шахснинг ижодий фазилатлари ривожланиб бориши лозим.

Ижодий қобилиятни ривожлантириш орқали талабаларда муҳандислик фикрлашини ривожлантириш ва креатив фикрлашга кўникма ҳосил қилишда юқорида келтирилган мулоҳазалар орқали қуйидаги асосий тадқиқот йўналишларини белгилаб оламиз:

- “илмга қизиқувчи” талабаларни аниқлаш ва танлаш, уларни тарбиялаш йўлга қўйилиши лозим;
- илмий тадқиқот ишларига жалб қилиш, улар эришган натижаларни ишлаб чиқаришга тадбиқ қилиш;
- услубият асоси ва илмий ижодкорлик тажрибасини ўргатиш.

Шу ўринда ижод ва ижодкорлик сўзларига тариф беришни лозим топдик.

Ижод – инсоннинг янги моддий ва маънавий неъматлар яратиш фаолиятидир. Ижод энг аввал инсон тасаввурида пайдо бўлади, сўнгра бу юзасидан олиб борилган изланишлар, кузатишлар таҳлил қилиниб, мантиқий хулосалар чиқарилади. Ижод фан-техникани, маданиятни бойитади, ривожлантиради.

Ижодкорлик – инсоннинг борлиқни билиш ва ўзгартиришга қаратилган онгли, мақсадли фаолияти ҳисобланиб, бунинг натижасида янги, аввалдан мавжуд бўлмаган, жамиятнинг моддий ва маънавий ҳаётини яхшилашга йўналтирилган буюмлар, техник ишланмалар ва бошқалар яратилади.

Олий таълим муассасаларида талабалар орасида ижодий фаолиятга мойил талабаларни аниқлаш биринчи ўқиш кунидан амалга оширилади ва селекция ишлари олиб борилади.

Бу иш белгиларни ажратиб олиш ва баҳолаш орқали амалга оширилади (1-жадвал).

Белгилар	Баҳолаш		
	Ўрта	Яхши	Аъло
Олий ўқув юртига кириш имтихонларида кўрсатган натижалари таҳлили	-	+	-
Олдиндан эришган ютуқларини аниқлаш	-	-	+
Талабанинг қизиқиш доирасини аниқлаш	-	-	+
АКТ бўйича кўникмаси	-	+	-
Хорижий тилларни билиш даражаси	+	-	-

1-жадвал. Талабаларни орасидан ижодга мойиллиги бор ва қобилиятли талабаларни аниқлашнинг белгиларини баҳолаш усули.

Юқорида келтирилган белгиларга ажратиш ва баҳолаш жадвалини ҳар бир талаба кесимида ўрганиб оламиз. Ушбу вазифани бажаришда факультет, кафедра ва тьюторлар ҳамкорликда ишлаши лозим.

Олинган статистик маълумотлар таҳлил қилинади ва талабанинг ижодкорлик доираси аниқланиб, керакли йўналиш бўйича илмий раҳбар белгиланади.

Илмий раҳбар талабага ривожлантириш режасини тузишга ёрдам беради ва уни илмий-тадқиқот ишларига жалб қилади.

Талабанинг ижодкорлик доираси аниқланиб ривожлантириш режаси асосида фаолияти йўналтирилади.

Биринчи курс талабасини илмий тадқиқотларга жалб қилишни кўриб чиқайлик. Юқорида келтирилган белгилар ва баҳолаш тизими орқали талабанинг кучли ва заиф томонлари аниқлаб олинади. Бажариладиган ишлар кетма-кетлигини “зинапоя” усулида кўриб чиқайлик (1-расм).

1-расм. Талабани ижодкорлик қобилиятини аниқлашнинг белгилар ва белгиларнинг баҳоланишинини “зинапоя” усулида тасвирланиши



Албатта юқорида келтирилган фикрларни амалга оширишда талабанинг қизиқишини эътиборга олиш, унинг ижодкорлик доирасидан чиқиб кетмаслик муҳим ўрин тутади. Чунки талабага унинг имкониятидан ортиқ вазифани бериш ёки ғояларини ҳисобга олмаслик унда креатив фикрлаш қобилиятининг “бўғилиши”га ва шаблон асосида фикрлайдиган бўлиб қолишига сабаб бўлади. Талабанинг ижодкорлик қобилиятини ривожлантиришга илмий ёндашиш муҳим аҳамият касб этади.

Илмий фаолият билан шуғулланувчи фаол ижодкор шахс шакллантиришда мавжуд илмий ишланмаларни таҳлил қилиш асос бўлиб хизмат қила олмайди, чунки, ушбу ишларда муаммога тизимли ёндашиш етарли даражада эмас, хорижий ва республика олимларининг ишланмалари тўлиқ таққослаш ишлари амалга оширилмаганлиги ҳамда мавжуд ишланмаларда келтирилган жиҳатлар ҳаётий реализмга мос келмаслигидир.

Шу тарзда, хорижий олий таълим муассасаларида илмий йўналтирилган талабаларнинг ижодий қобилиятини ривожлантиришнинг замонавий концепцияси ва анъаналари ҳозирги кунгача тадқиқот мавзуси сифатида педагогикада кўриб чиқилмаган, бу эса мамлакатимиз олий таълим муассасаларида жаҳон таълим стандартларига мос келувчи мутахассислар тайёрлаш талабларига жавоб бермайди.

Юқоридаги фикрдан ушбу ишнинг тадқиқоти муаммоси шаклланади, яъни талабаларни ижодкорликка йўналтиришнинг, креатив ривожлантиришнинг замонавий анъаналари қандай ва унда тўпланган ижобий тажрибани юртимизда амалга тадбиқ қилиш имконияти борми?

Илмий фаолият жараёнида талабаларнинг ижодкорлик қобилиятларини ривожлантириш масаласи мураккаб ва кўп қиррали муаммо бўлиб, назарий фикрлаш, янги услуб ва ёндашиш, конструктив ғояларни олдинга суриш ҳамда тажрибада текширишни талаб қилади.

Хорижий олимлар тадқиқотлари кўпинча тажрибаларга таяниш ва ўз тажрибасида ўрнатилган чегарадан чиқмасликка интилиш ҳолатлари кузатилади. Кўпчилик тажрибаларда қисмларга ажратиб ўрганишга боғлиқ ва олий таълим муассасаларидаги ҳаётий реализм натижаларини умумлаштиришдан узоқлашган. Натижада кўплаб тадқиқотлар аниқ бир ҳолатга боғланган ва умумлаштириш имкониятини бермайди.

Мавжуд ишларни ўрганиш талабаларни илмий фаолиятга йўналтириб ижодий қирраларини очиш ва креатив фикрлашга ўргатишга ёндашиш усуллари жуда кенг эканлигини кўрсатади. Бироқ шуни айтиб ўтиш керакки, ушбу тадқиқотлар илмий фаолиятга йўналтириш орқали фаол ижодий шахс шакллантириши учун назарий концепция ролини ўйнай олмайди:

- фаол ижодий шахс шакллантириш муаммосини ўрганишга тизимли ёндашув йўқлиги;
- хориж ва мамлакатимиз тадқиқотларини таққослаш ишлари етарли хажмда амалга оширилмаган;
- мавжуд ишланмаларда келтирилган усуллар ҳаётий реализмга ва жамиятга мос келмаслиги.

Юқоридагилардан олий таълим муассасаларида илмий фаолиятга йўналтириш орқали ижодкорликни ривожлантиришга қайси услуб билан ёндашиш лозим деган савол туғилади.

Олдинда қўйилган саволни ўрганиш давомида илмий фаолиятга йўналтириш орқали ижодкорликни ривожлантириш каби мураккаб тадқиқот объектини қайси услубда тадқиқ қилиш кераклиги алоҳида аҳамият касб этади. Чунки бу ёрдамчи услуб фақатгина олинган маълумотларни тизимлаштириш ва умумлаштириш воситаси эмас балки маълумот олиш воситаси бўлиши керак.

Шуни таъкидлаш лозимки, фақатгина объект элементлари доирасида таҳлил ўтказиш, уларнинг тизимли белгилари ва хоссаларини излаш, тадқиқотдан кўзланган мақсадга олиб келмайди. Таҳлил тадқиқот объекти – талабаларни илмий фаолиятга йўналтиришни ташкил қилишни назарий кўрсатиб берувчи махсус услубий иш билан тўлдирилиши лозим.

Талабаларни илмий фаолиятга йўналтиришни ташкил қилишни мақсадли, тизимли ва функционал тадқиқ қилиш генетик таҳлил билан ягона концепция

ҳосил қилиши керак. Демак, тизимли ёндашиш услубияти тизимли-тарихий жиҳатларни ўз ичига олиш керак. Тизимли – генетик таҳлил умумий ҳолатда анъанавий аналитик усулга нисбатан анча мураккаб.

Талабаларни илмий фаолиятга жалб қилиш орқали креатив фикрлашга йўналтириш АҚШ, Англия, Франция, Германия ва бошқа давлатларда ўтган асрнинг 60 йилларида бошланди. Бунинг сабаби ушбу мамлакатларда иқтисодий, техник, илмий ва маданий ривожланиш алоҳида ҳодиса сифатида ижодкор шахсларнинг креатив қарашлари сифатида юзага келди[21].

Фикримизча, ижодкорликни ривожлантиришнинг заҳиравий, ижтимоий, тизимли ва педагогик жиҳатлари мавжуд. Заҳиравий жиҳат сифатида талабалар илмий жамоларининг ижодий фаоллиги, улар ишларининг натижадорлигини ривожланиши учун янги тадқиқот технологиялари, автоматлашган асбоблар жамланмаси, шахсий компьютерлар ва дастурий пакетларнинг янги авлоди ва бошқалар билан таъминлаши кўзда тутилади[20].

Ижтимоий омиллар сифатида мотивациялаш жараёнининг кучайтирилиши, психологик ҳолатнинг яхшиланиши, кейинги ўсиш поғоналарига таъсирини келтириш мумкин.


Тизимли жиҳат сифатида талабалар илмий жамоаларининг фаолият йўналишининг иқтисодий муҳим муаммоларга илмий йўналтириш кўзда тутилади.

Муаммонинг педагогик жиҳати талабаларнинг илмий фаолиятга йўналтирилганлигининг янги таркиби, шакли, ўқитиш услубларини излашдан иборат.

Б.Д. Теплов томонидан таклиф қилинган, кейинчалик Н.С.Лейтес қўллаб қувватлаган фикр сифатида: қобилият - бир ёки бир неча фаолиятни муваффақиятли бажаришнинг асосий шарти сифатида шахснинг индивидуал хусусияти муҳим роль ўйнайди [5].

Талабанинг илмий фаолиятга жалб қилиш орқали ижодкорликка йўналтиришни генеологиясини кўриб чиқайлик (2-расм).

Талабаларни илмий фаолиятга жалб қилиш орқали ижодкорлик қобилиятини шакллантириш ГЕНЕОЛОГИЯСИ



2-расм. Талабаларни илмий фаолиятга жалб қилиш орқали ижодкорлик қобилиятини шакллантириш генеологияси

Генеалогия (юн. *genealogia* — шажара) — ёрдамчи тарих фанларидан бири (17—18-а.ларда вужудга келган). Билимларнинг амалий соҳаси, шажаралар тузиш. Уруғ ва оилаларнинг келиб чиқиши, айрим шахслар тарихи ва қариндошлик алоқаларини ўрганади (қ. Шажара)[19].

Юқоридаги 2-расмда ушбу илмий ишда қўйилган масалага илмий ёндашиш ва амалга ошириш механизми генеология шаклида очиб берилган.

Талабаларни илмий фаолиятга йўналтириш орқали ижодкорлик қобилиятини шакллантириш мамлакат саноатига, пировард натижада, жамият ижтимоий иқтисодий ҳолатига таъсир жуда катта. Юқоридагилардан келиб

чиқиб, қуйидаги дидактик талаб ва шартларни шакллантириш мумкин:

– ижодий фикрлаш ижтимоий ходиса сифатида янгича ёндашувни талаб қилади;

– қобилиятли талаба – жамиятнинг бир бўлаги бўлиши билан бир қаторда индивидуал шахс эканлиги ҳисобга олинishi лозим;

– талабаларни фақатгина илмий фаолиятга йўналтириш орқали ижодкорлик қобилиятини аниқлаш ва ривожлантириш имконияти кам;

– ривожлантириш учун ҳукумат миқёсида ва ҳудудий ёндашиш бўлиши мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, олий таълим муассасалари фақатгина маълум бир соҳада мутахассис тайёрлаш билангина чекланиб қолмасдан талабаларда ижодкорлик қобилиятини аниқлаш, уни ривожлантириш ва рўёбга чиқариш билан ҳам шуғулланиши шарт. Чунки ижодкор талабалар мамлакат умумий ривожининг драйверларидир.

Юқоридаги хулосадан келиб чиқиб қуйидаги тавсияларни берамиз:

– ўқув жараёни асосига таълим олувчи шахс эҳтиёжини асос сифатида олади:

– таълим олиш жараёнида жамоавий таълим олиш билан бир қаторда индивидуал таълим олишни жорий қилиш, унинг йўлини танлаш ва амалга ошириш воситасини аниқлаш лозим:

– талабаларда билим олишга турғун мотивация уйғотиш йўларини ишлаб чиқиш ва амалга тадбиқ қилиш лозим.

Ижодий фикрлайдиган ва илмий асосланган таваккал қилишдан кўркмайдиган мутахассис тайёрлаш қуйидаги босқичларда амалга оширилиши лозим:

– ижодга мойиллиги бўлган талабаларни аниқлаш ва танлаш, уларни тайёрлаш;

– уларни илмий тадқиқот ишларига жалб қилиш, натижаларни ишлаб чиқаришга тадбиқ қилиш;

– талабаларни мутахассислик-ижодий йўналтириш, уларни услубият асоси ва илмий ижодкорлик тажрибасини ўргатиш орқали бажарилади.

Адабиётлар:

1. Библер В.С. Нравственность. Культура. Современность / ВС Библер. М.: Мысль.- 1990, С.79

2. Выготского, Л. С., Гальперина, И. Я., Гильфорда, И. П., Давыдова, В. В., Кляуса, Г., Крутецкого, В. А., ... & Пиаже, Ж. ФОРМИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ СРС СРЕДСТВАМИ ИКТ. - 1990, С.65

3. Каган, М. С. Формирование личности как синергетический процесс. Синергетическая парадигма. Человек и общество в условиях нестабильности. М.: Прогресс-Традиция, - (2003). С.341-357.

4. Кедров, Б. М. О творчестве в науке и технике. М.: Молодая гвардия, - (1987). С.191.

5. Лейтес Н.С. Ранние проявления одаренности. Вопросы психологии, - (1988). С. 98.

6. Леонтьев, А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. Политиздат. - (1977). С.41

7. Лернер, И. Я. Дидактические основы методов обучения. М.: педагогика, - (1981). С.185.

8. Маматкулов, А. Н. Касбий таълимда талабалар ижодкорлигини ривожлантириш. Современное образование (Узбекистан), - (2019). С.(12 (85)).

9. Махмутов, М. И., Ибрагимов, Г. И., & Чошанов, М. А. Педагогические технологии развития мышления учащихся. Казань: ТГЖИ,- (1993). С.88.



10. Махмутов М. И. Принцип проблемности в обучении. Вопросы психологии, 5, - (1984) С.30-36.
11. Рубинштейн, С. Л. Принцип творческой самодеятельности. Вопросы философии, - (1989). С. 3.
12. Рубинштейн, С. Л. Основы общей психологии. - (2005). С.358.
13. Петровский, А. В., & Ярошевский, М. Г. Основы теоретической психологии. М.: ИНФРА М. - (1999). С.275
14. Самохвалова, В.. Творчество: божественный дар, космический принцип, родовая идентичность человека. Федеральное государственное автономное образовательное учреждение высшего образования Российский университет дружбы народов (РУДН).- (2007) С.
15. Сидорчук, Т. А., & Лелюх, С. В. Методика формирования у дошкольников классификационных навыков (Технология ТРИЗ). М.: АРКТИ. - (2010). С.125
16. Шарипов, Ш.С. Касб-хунар таълими тизимида ўқувчилар ижодкорлик қобилиятларини ривожлантиришнинг узлуксизлиги. Архив Научных Публикаций JSPI. - (2020). С.237
17. Шарипов Ш.С. (2001). Талабалар ихтирочилигини шакллантиришнинг педагогик шароитлари: Дисс. ... пед. фан. номз. – Т.,2001. – Б.140
18. Щеглова С.Н. Системный анализ факторов, влияющих на развитие творческого потенциала будущих специалистов // Материалы научно-практической конференции «Интеллектуальные ресурсы Северо-Востока России»: 22-23 июня 2005 г. – Магадан: Изд. СМУ, 2005. – С. 280
19. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти ТОШКЕНТ – С. 156
20. Shomirzayev, M.Kh. (2020). Education is personally focused technology. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (8), Part. 95.
21. Shomirzayev, M.Kh. et al. (2020). National handicrafts of Uzbekistan and its social – economic significance. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (8), Part III. 134.
22. Shomirzayev, M.Kh. The Concept Of Pedagogical Technology And Basic Principles. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. (Affiliated to Kurukshetra University, Kurukshetra, India), Vol. 10, Issue 11, November 2020 Scientific Journal Impact Factor (Sjif 2020-7.13). -Part 1558. (<https://saarj.com>)

